

**S.A.ABDULLAEV, X.Q.NAMOZOV**

# **TUPROQ MELIORATSIYASI VA GIDROLOGIYASI**



**“Excellent Polygraphy”  
Toshkent – 2020**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**S.A.ABDULLAYEV, X.Q.NAMOZOV**

**TUPROQ  
MELIORATSIYASI VA  
GIDROLOGIYASI**

**DARSLIK**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi  
tomonidan 5141000 – Tuproqshunoslik ta'lif yo'nalishi talabalari  
uchun darslik sifatida tavsiya etiladi.

**Toshkent  
«Excellent Polygraphy»  
2020**

UO'K: 551.579(075.8)

KBK: 40.3ya73

A 15

**A15 Abdullayev S.A., Namozov X.Q.**

**Tuproq melioratsiyasi va gidrologiyasi [Matn] / Darslik.**  
Abdullayev S.A., Namozov X.Q. «Excellent Polygraphy», 2020-yil,  
– 376 bet.

Darslik “Tuproq melioratsiyasi va gidrologiyasi” fani dasturiga muvofiq tuzilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2018-yil 27-martdagи 274-sonli buyrug’iga asosan 5141000 – Tuproqshunoslik ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etiladi.

Darslikda fanning asoslari, tuproq suvining shakllari, sifati, bug‘lanish, sarflanish, qurg‘oqchilik va uning kelib chiqish sabablari, sug‘orish melioratsiyasi, tuproqning namlik rejimi, gidromodul rayonlashtirish, qishloq xo‘jalik ekinlarining sug‘orish texnikasi, suv balansi, sug‘orish turlari va usullari, sug‘orishni rejalashtirish, sug‘orish texnikasi, tuproqlarning sho‘rlanishi va tuz to‘planish sabablari, zovurlar tiplari va ulardan foydalanish, yerlarning sho‘rlanishi va botqoqlanishining oldini olish hamda unga qarshi kurashish chora-tadbirlari, qumlarni melioratsiya qilish va ulardan oqilona foydalanish, sho‘rlangan tuproqlar, ularning melioratsiyasi, tuproq meliorativ izlanishlar-melioratsiya qilinadigan maydonlarda tajriba o‘tkazish mavzulari yoritilgan.

**Mas’ul muharrir:**

**G.Yo‘ldoshev – Farg‘ona davlat universiteti tuproqshunoslik kafedrasи professori, qishloq xo‘jalik fanlari doktori..**


**Taqrizchilar:**

**I.Turapov – Toshkent davlat agrar universiteti agrokimyo va tuproqshunoslik kafedrasи professori qishloq xo‘jalik fanlari doktori**

**A. Axmedov – Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy tadqiqot davlat institutining katta ilmiy xodimi, qishloq xo‘jalik fanlari nomzodi**

**ISBN: 978-9943-5815-6-2**

**© Excellent Polygraphy” 2020  
© S.A. Abdullayev, X.Q Namozov**



## SO‘Z BOSHI

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish to‘grisidagi strategiyasida tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish; sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya obyektlari tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, unumdoorligi yuqori bo‘lgan qishloq xo‘jaligi texnikasidan foydalanish; global iqlim o‘zgarishlari va Orol dengizi qurishining qishloq xo‘jaligi rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar ko‘rish tadbirlari aytib o‘tilgan.

Qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlar, ayniqsa, sug‘oriladigan yerlar shubhasiz barcha xalqlarning bebaho xazinasi va yashash sharoitining muhim manbai hisoblanadi. Ushbu yerlardan oqilona va samarali foydalanish, ularning yer fondini kengaytirib borish insoniyat oldida doim bosh masala bo‘lib kelgan. Bu, ayniqsa aholi soni va oziq – ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabning uzlusiz o‘sib borishi bilan o‘zining ifodasini topadi. FAO-YUNESKO ma’lumotlariga qaraganda oxirgi o‘tgan yarim asr davomida dunyo aholi sur’atining 3 mlrd. dan 6,4 mlrd. ga oshgani holda qishloq xo‘jaligida haydab ekiladigan yerlar bor yo‘g‘i 8 foizgagina oshganligi ushbu yerlarning insoniyat oldida qanchalik qadr-qiyomatga ega ekanligini anglab olish mushkul emas.

Yer-cheklangan va qayta tiklanmaydigan tabiiy resursdir. Bugungi kunda uning sho‘rlanishi, sahrolanishi, irrigatsion va shamol eroziyasi, tuproqning har xil texnik chiqindilar bilan ifloslanishi, gumus va ozuqa elementlarning kamayib ketishi kabilalar ushbu resursga jiddiy xavf solmoqda.

Hozirda respublikamizning umumiy 44410,3 ming hektar yer maydonidan qishloq xo'jaligida foydalilaniladigan yerkari 25681,3 ming hektarni yoki umumiy yer fondining 57,8% ni tashkil qildi. Shundan qishloq xo'jaligida intensiv foydalilaniladigan yerkari, ya'ni sug'oriladigan maydonlar 4,3 mln hektarni tashkil qilib, ushbu yerkari respublikamizning «oltin fondi» hisoblanadi. Ular jami yer fondining 10 foizga yaqinini tashkil etib, yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlarining 95 foizini yetkazib beradi. Bu esa respublikamiz qishloq va xalq xo'jaligi tarmoqlarining ishlab chiqarish faoliyatini belgilab berib, davlatimiz iqtisodiy salohiyatini oshirishda bosh omil bo'lib xizmat qiladi.

Bugunda respublikamizda sug'oriladigan yerkarning 49 foizi turli darajada sho'rangan bo'lib, buning qariyib 18 foizi kuchli va o'rtalik darajada sho'rangan yerkardir, 23 foizdan ortig'i esa boniteti past yerkari toifasiga kiradi. Meliorativ holati qoniqarsiz yerkarning katta qismi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro, Jizzax va Farg'ona viloyatlariga to'g'ri keladi.

Bugungi kunda qishloq xo'jalik mutaxassislari oldida respublikamiz ekin maydonlarini turli salbiy holatlardan himoya qilish, ularga qarshi kechiktirib bo'lmas chora-tadbirlarni ishlab chiqish va qo'llash kabi ishlari bosh masala bo'lib turibdi. Bu esa, o'z navbatida, tarbiyalanayotgan yosh kadrlarni bilimli mutaxassislar qilib tarbiyalashni talab etadi.

# **KIRISH**

## **TUPROQ MELIORATSIYASI VA**

## **GIDROLOGIYASI FAN SIFATIDA DUNYODA**

### **O'RGANILISHI**

Yer – xalq boyligi, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishning bosh vositasi. Tuproqning unumdorligini va ishlab chiqarish quvvatini oshirish ko‘p jihatdan unga ehtiyotkorlik va tejamkorlik bilan munosabatda bo‘lishga, uni yaxshilashga qaratilgan tadbirlar majmua-siga bog‘liq.

Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni izchillik bilan jadal-lashtirish yer fondidan oqilona foydalanish, sug‘oriladigan har bir gektar hosildorligini, uning iqtisodiy samaradorligini oshirishbilan bog‘liq muammolar yechimini ishlab chiqish g‘oyat katta ahamiyat kashf etadi. Bu borada tuproq unumdorligini saqlash, uni yil sayin muntazam oshirib borish, qishloq xo‘jaligi va eng avvalo tuproq melioratsiyasi mutaxassislari zimmasidagi muhim vazifalardan hisoblanadi.

Respublikada qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlarni melioratsiyalashga benihoyat katta e’tibor qaratilgan bo‘lib, yerlarni loyihalash, meliorativ tizimlarni qurish va foydalanish hamda meliorativ tadbirlar o‘tkazishga davlatning katta mablag‘lari ajratil-gan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasiga muvofiq tabiiy obyektlar, jumladan yer, umumxalq boyligi hisoblanib, ular davlat muhofazasida turadi. Shu boisdan ham yerdan va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, tuproqni muhofaza qilish, meliorativ holatini yaxshilash muhim o‘rin tutadi. Tabiatshunos olimlar, ekologlar, tuproqshunoslar, melioratorlar, iqtisodchilar, huquqshunoslar tuproq qatlaming tez buzilib va ba’zida o‘rnini to‘ldirib bo‘lmaydigan talofatlardan, shuningdek, keng tarqalayotgan tuproq inqirozi holatlaridan chuqur tashvishga tushib qolishgan sobiq Ittifoq davrida bu holatlarga jiddiy e’tibor berilmay kelingan, chunki tuproq qatlamidan eng avvalo dehqonchilik, suv va o‘rmon xo‘jaligida, sanoat, qurilish, transport, aloqa xo‘jaligida, geologiya qidiruv ishlari va boshqa mahsulot ishlab chiqarish

uchun foydalanish muhim bo'lib, yerdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishga qaratilgan qonunlar yetarli ishlagagan va takomillashtirilmagan, yer resurslaridan oqilona foydalanilmagan. Natijada yerning meliorativ holati yaxshilanmagan, tuproq sho'rlanishi, degumifikatsiyasi, eroziyasi, berchlanishi, agroximikatlar va og'ir metallar bilan bulg'alanish, sahrolanish yoki o'ta namlanishi yuzaga kelgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat deb e'lon qilin-gan kundan boshlab, o'z hududida yer munosabatlarini tartibga solishda va rivojlantirishda to'la mustaqillikka erishganligi uning yerdan oqilona foydalanish, meliorativ holatini yaxshilash va muhofaza qilishning huquqiy asosini yaratish va takomillashtirishning imkonini berdi. Mamlakatimiz agrar sohasida islohotlarni huquqiy jihatdan ta'minlash maqsadida bir qancha qonunlar qabul qildi. Bular yer munosabatlarini huquq asosida rivojlantirish va tartibga solish, yerdan odilona foydalanish, meliorativ holatini yaxshilash, unumdorligini oshirish, yer tuzish ishlarini olib borish, yerning sifat bahosini aniqlash, xo'jalik faoliyatiga baho berishga va hakozolarga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasining "Yer kodeksi" va "Davlat yer kadastri to'g'risida"gi qonun va boshqa qishloq xo'jalikdagagi islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me'yoriy hujjatlarining qabul qilinishi respublikamizda qishloq xo'jaligini rivojlantirishga katta hissa qo'shish bilan birga, kela-jak avlodlarimizga sog'lom, unumdor yerlar qoldirish yo'lida katta qadam bo'ldi, negaki insonlarning taqdiri ko'p jihatdan yer, tuproq taqdiriga bog'liqdir.

Melioratsiya fanida qabul qilingan ta'rifga ko'ra, qishloq xo'jaligini melioratsiyalash – qo'riq yerkarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish, tuproq unumdorligini jadal sur'atlar bilan oshirish, uni muhofaza qilish, qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori hosil olishni ta'minlash maqsadida qishloq xo'jaligi uchun noqulay bo'lgan hudud tabiiy sharoitlarini tubdan yaxshilashga qaratilgan tadbirlar tizimidan iborat.

Markaziy Osiyoda, shu jumladan, O'zbekistonda yerkarni melioratsiyalashning asosiy vazifalari – tuproq sho'rlanishi va

botqoqlanishini oldini olish va bu jarayonlarga qarshi kurashish, quruq yerlarni o'zlashtirish, suv va shamol eroziyasiga qarshi kurashish, yerlarni rekultivatsiyalash, tuproqning zichlanishi va guminus miqdorining kamayishini (degumifikasiya) oldini olish, tuproq ifloslanishi va sahrolanishiga va boshqa salbiy jarayonlarga qarshi kurashish bosh maqsad hisoblanadi. Meliorativ tadbirlar tizimlari har xil tabiiy sharoitdagi mintaqalar uchun turlicha bo'lib, bu tadbirlarni ishlab chiqish tuproqlarning paydo bo'lishi (genezisi) va ularning xossalari to'g'risidagi chuqur bilimga ega bo'lishni taqozzo etadi.

Tuproqlarni melioratsiyalash muammolarining xalq xo'jaligida-  
gi ulkan ahamiyati va bu ko'p qirrali muammolarni yechishdagi  
kengxo'lamdag'i ma'lumotlarni to'planishi tuproqshunoslik fani-  
dan tuproq melioratsiyasi fanining ajralib chiqishiga asos bo'ldiki,  
qaysiki qishloq xo'jaligida foydalanimadigan yerlarda sodir bo'ladi-  
gan nomaqbul, salbiy jarayonlarni o'rghanishda tadqiqotlarning alo-  
hida, o'ziga xos vazifa va uslublari bilan xarakterlanadi. Tuproq  
melioratsiyasi asosiy vazifasi yerlarmelioratsiyalash va ularni  
ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, tuproqda sodir bo'ladi-  
gan salbiy – nomaqbul jarayonlarni to'laligicha bartaraf etish bo'yicha  
meliorativ tadbirlash ishlab chiqishdan iborat.

Tavsiya etilayotgan mazkur darslik mualliflarning bu  
fan sohasida ko'p yillik olib borgan tadqiqot ishlari hamda  
universitetlarda bu fanni o'qitish mobaynida to'plagan tajribalari  
asosida tuzilgan bo'lib, unda M.A.Pankov (1974), A.Nerozin  
(1974), V.A.Kovda va B.N.Rozanov (1948), X.M.Maxsudov (1989  
– 1998), V.A.Kovda (1989), A.M.Rasulov (1979), L.T.Tursunov  
(1981), O.K.Komilov (1983), I.Aliyev (1965, 1990), L.A.Gafurova  
(2003) va boshqalarning ma'lumotlaridan keng foydalilanilgan.

Gidrologiya adabiy tilda (logy lotin tilida logia) "fan yoki  
o'qish", (yunonchadan 'hydro, hudor) "suv" degan ma'noni bildi-  
radi. Hozirgi Gidrologiya suvning hamma xossalari o'z ichiga  
olmaydi. Zamonaliv gidrologiya yerning ustidagi va ostidagi suv  
harakati hamda atmosferadagi suvni o'rGANADI. Sho'rangan tuproqlarni  
o'rGANISH bo'yicha okeanografiya fani shug'ullanadi.

Suvni taqsimlash va harakatini o'rganmoqchi bo'lganimizda inson harakati muhim rol o'ynaydi. Inson nafaqat gidrologiyani tushunishga undovchi kuch emas, balki undan ham kuchliroq kuchdir. Gidrologiya toza ichimlik suvi bilan inson orasidagi bog'likliklarni va gidrologiyaning fizik xossalari tushunishga integratsiya qiladi. Inson suv sifati miqdori muammolari (yerosti suv qazib chiqarish yoki suvni ifloslantiruvchilardan tozalash) shakllariga ta'sir qiladi.

Gidrologiya o'rganishga muhandislik va geografiyadan ikki asosiy yo'llari, geografiyaning yer ilm-fan tomonidan keladi. Yer fanini o'rganish yershunoslik fanlari (geomorfologiya)ga yondashiladi va yerda harakatlanuvchi suv sug'oriladi va jarayonlar o'rtasidagi bog'liqliklar tushuntiriladi. Muhandislik bilan gidrologiyaning bog'liqligi bir oz amaliyotga asoslangan va dunyo bo'ylab suv harakatlanish (yoki harakat yo'qlik) muammolarini hal qilmoqda. Aslida esa yirik mashtabli hududlarni boshqarishga ega va siz hidrologik izlanishlarni qilganizda ular o'rtasidagi farq biroz qiyinchilik tug'diradi. Bakalavr darajasida Yer hidrologiya fani orasidagi farqlar aniq tavsiflanib beriladi va muhandislik hidrologiyasi ko'proq raqamlanadi.

Ko'pgina adabiyotlarda qabul qilingan yondashuvlar Yershunoslik tomonga ko'proq bog'liqligi ko'rsatilgan'!

## TUPROQ MELIORATSIYASI VA GIDROLOGIYASI FANINING PREDMETI, VAZIFASI VA USLULLARI

Melioratsiya so‘zi lotincha so‘z bo‘lib, “Melio”, ya’ni yaxshilash degan ma’noni anglatadi.

Tuproq melioratsiyasi deganda tuproqlarni tubdan yaxshilash tushuniladi. Insoniyat tarixida toki shu kunga qadar tuproqga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib kelmoqda va tuproq xom ashyo yetishtiradigan birdan-bir asosiy vosita bo‘lib kelgan va kelgusida ham shunday bo‘lib qoladi.

Ishlab chiqarish xom ashylarini oshirish, inson talabini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta’minlashda har jihatdan xo‘jalikda yerlardan oqilona foydalanish bilan birga, xayotda ijtimoiy, ekologik taraqqiyotdan tashqari tuproqlarning o‘zida tashqi va ichki sharoit ham mavjud qilishlarini taqoza qiladi. Yuqorida keltirilgan sharoitlar ayrim tuproqlarda tabiatni o‘zi hosil qilgan bo‘lsa, ayrim tuproqlarda esa bu sharoitlarni inson o‘zining ongli mehnati, kuchi, bilimi bilan barpo qilishi kerak, ya’ni yerlarga ishlov berish, sug‘orish, quritish, o‘g‘itlash, haydash kabilalar yerlarni (tuproqlarni) tabiiy sharoitini tubdan o‘zgartiradi, ya’ni yaxshilab melioratsiya qiladi. Demak, melioratsiya so‘zi tuproqlarni hamma xossalari hisobga olgan holda uni batamom yaxshilash yo‘llarini axtarib, oxirgi bosqichda unumдорлик darajasini yanada yaxshilash bilan yakunlanadi.

Shuni qat’iy ko‘rsatib o‘tish lozimki, biz qishloq xo‘jaligida mustahkem melioratsiyaga ega bo‘lishimiz kerak, bu qachonki yerlarning fizik xususiyatlari, kimyoviy tarkibi, hosil berish darajas, sarmoya sarf qilish yo‘li bilan amalga oshirilsa-yu, ya’ni tuproqlarni hosildorligi oshib boshqa tuproqlarga nisbatan ko‘proq hosil bera olsa, bu holda biz qo‘sishmcha hosil olish bilan bir qatorda shu yerlarda tabiatni yaxshi tomonga o‘zgartirishga ega bo‘lamiz, ya’ni melioratsiya tabiiy sharoitni o‘zgartirishga – yaxshilashga bevosita ta’sir qila oladigan asosiy omillardan biri ekanligi to‘g‘risidagi fikrga ega bo‘lamiz.

Demak, xulosa qilib shuni aytish mumkinki, melioratsiya ishlari orqali tuproqlarning tabiiy sharoiti yaxshilana borishi bilan insoniyatni yashash sharoiti ham yaxshilana borib, davlatning rivojlanishi darajasi ham ortadi.

U yoki bu mamlakatda aholi sonini ortib borishi, sanoatning hamda insoniyatning qishloq xo'jaligi mahsulotiga bo'lgan ehtiyojini ortishi natijasida melioratsiyaga bo'lgan talabi yanada kuchayadi.

Bu o'rinda O'zbekiston yerlarining meliorativ holatiga alohida to'xtalib o'tish lozim. Respublikamiz 44,787 ming hektar maydonga egab olib, shundan sug'oriladigan yermaydoni 4280 ming (1-yanvar 2002-yilgacha) gektarni tashkil qiladi. Olimlar ta'kidlaganidek, mazkur sug'oriladigan maydonning 50% dan ortig'i sho'rланishga qarshi ishlarni olib borishga muhtoj. Birgina bu emas, O'zbekiston barcha sug'oriladigan tuproqlar melioratsiyasining u yoki bu turiga muhtoj. Jumladan, ko'pgina sug'oriladigan yerlar relef sharoitining noqulayligi tufayli suv eroziyasiga uchragan, cho'l zonasida esa ko'pchilik maydonlarda shamol eroziyasi hukm suradi. Buning ustiga bu zonada qurg'oqchilik tez-tez qaytarilib turadi. Tuproqlar degumifikatsiya, zichlanish, ishqorlanish, sho'rtoblanish va boshqalarga qarshi meliorativ tadbirdirlarga muhtoj.

Yuqorida bayon etilganlarni nazarda tutib, ushbu darslikda tuproqlar genezisini, tarqalishini, tarkibini, xossalarni hisobga olgan holda tuproq unumdorligini har xil yo'llar bilan yo'qolishiga yo'l qo'ymaslik uchun uning ozuqa, havo, issiqlik, suv omillarini to'g'ri boshqarish orqali tabiiy va iqtisodiy unumdorlikni saqlash yo'llarini izchillik bilan ishlab chiqish va uni amaliyatga tadbiq qilish, shuningdek sug'orish mintaqasi tuproqlari uchun xos bo'lgan to'g'ri suv tartibotini, sug'orish texnologiyasini yangilash, sho'rlarning kelib chiqishi, sho'r yuvish ishlarni to'g'ri tashkil qilish va o'tkazish, nihoyat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida zamonaviy agrotexnikaviy va meliorativ choralarini o'tkazish to'g'risida fikr yuritiladi.

Tuproq melioratsiyasi fanining oldida quyidagi vazifalarni hal etish yotadi:

- Biror xo‘jalik yoki hududda tarqalgan tuproqlarning kelib chiqishi, tasnifi, tarqalishi, tabiiy sharoiti, tarkibi va xossalaring tuproq unumdorligini, meliorativ holatini, ta’sirini o‘rganish.
- Tuproqlar unumdorligini tiklash, saqlash va oshirish yo‘llarini o‘rganish va differentsial tavsiyalar ishlab chiqish.
- Tuproqlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish. Yuqoridaq agrotexnika asosida sug‘orish, quritish melioratsiyasini tashkil qilish. Melioratsiya qilinadigan yerlarda zamonaviy uslublar asosida qishloq xo‘jalik mexanizatsiyasidan yuqori darajada foydalanish.
- Suv resurslaridan to‘la, ratsional va samarali foydalanish, xo‘jaliklarda kompleks melioratsiyani barpo qilish, kam harakat qilgan holda yuqori koeffitsientli vazifalarni hal qilish.
- Melioratsiya jarayonlarini (sug‘orish, quritish, sho‘r yuvish, eroziyaga, zichlanishga, degumifikatsiyaga qarshi va boshqalar) mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish.

## TUPROQ MELIORATSIYASI VA GIDROLOGIYASI TARIXIDAN MA’LUMOTLAR

Ma’lumki, har qanday fanni yoki uning tarmoqlarini takomillashtirishda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanishi bilan boshlangan. Jumladan, melioratsiya ishlari Markaziy Osiyo va Kavkaz oldi o‘lkalarining dasht zonalarida IX asrda sug‘orish ishlari bilan boshlangan. Bunga qadar sug‘orish ishlari Arabiston, Turkiya, Hindiston, Tatariston va Osiyo yassi tog‘ligiga yaqin joylarida olib borilgan. Shu vaqtarda odamlar ariqlar, suv havzalari qurib, sun’iy ravishda yer sug‘orib ekin ekishgan.

Bizga ma’lumki, VIII – IX asrlarda Sirdaryo va Amudaryoning yuqori qismi bo‘lgan Baqtriya va Sug‘diyona mamlakatlari mavjud bo‘lgan bu maydonlarda 4 mln. gettarga yaqin yer sug‘orilib dehqonchilik qilingan, keyinchalik esa feodalizm tuzumi, har xil urushlar tufayli bu yerlar yakson qilingan.

1890-yilda Rossiyada katta qurg‘oqchilik bo‘lgan. Bu qurg‘oqchilik sabablarini bilish maqsadida V.V.Dokuchayev boshchiligida 3 ta katta ekspeditsiya tashkil qilinadi. Shu ekspeditsiya

tashabbusi bilan Rossianing janubiy rayonlarida birmuncha ilmiy va amaliy ishlar qilinadi. Lekin bu ekspeditsiya asosan pomesh-chiklarning yerlarida ish olib borishadi, dehqonlarning yeriga tegishmaydi. Natijada qilingan xulosalar yaxshi natija bermaydi.

Bu borada o'sha vaqtida Moskva qishloq xo'jalik institutida ish-lagan akademik V.V.Vilyams va B.B.Polinovni ishlari katta bo'ldi. Ular ishtirokida Tuproq melioratsiyasi faniga asos solindi.

Yerlarning meliorativ holati hozirgi vaqtga kelib juda muammoga aylanib qoldi, bunga sabab shuki, birinchidan, kun sayin ko'payib borayotgan kurramiz aholisini oziq-ovqat va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlash bo'lsa, ikkinchidan sanoatning rivojlanishi hisobiga insoniyatning melioratsiya qilish qobiliyatini oshirgan holda, ko'plab yangi yerlarni o'zlashtirish, ekin maydonlarini kengaytirish va sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga muhtoj sezilgan.

Mamlakatimizda melioratsiya qilinib, sug'orilib kelinayotgan yer maydonlarida qishloq xo'jaligi ekinlaridan olinadigan jami mahsulotlarning 95% dan ko'prog'ini yetkazib beriladi. Shunday ekan, sug'orilib ekin ekiladigan yer maydonlarini yanada kengaytirish, ularning meliorativ holatini yaxshilash orqali tuproqning ko'proq unumdarligini orttirish, hamon davrimizning asosiy dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Biroq bir narsaga katta e'tibor berish kerakki, birinchi navbatda o'zlashtirilishi kerak bo'lган yerlarning 75 foizi sho'rangan va sug'oriladigan yerlarning hammasi qayta sho'rangan yoki sho'rلانishga moyildir.

Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin, lekin shunga qaramasdan biz dehqonchilik qilinib kelinayotgan yerlarimizning meliorativ holatini yaxshilab, uning unumdarligini oshirishga majburmiz. Shuning uchun ham tuproq melioratsiyasi bilan bog'liq bo'lган har qanday muammoni yechish uchun xalqimizning ekologik ongini oshirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash hozirgi davrning eng asosiy dolzarb vazifalaridan biri bo'lmog'i lozim.

Chor Rossiyasi va sobiq Ittifoq davrlarida ham Markaziy Osiyo, ayniqsa O'zbekiston hududida melioratsiya ishlarini olib borishga qiziqishlar bo'lgan. Chunki bu davrlarda mamlakatni paxta xomashyosiga bo'lgan ehtiyojini qondirish faqatgina O'zbekistonda asosiy maydonlarni g'o'za ekini bilan band qilish asosida amalga oshirish mumkin edi. O'zbekistonning tuproq iqlim sharoiti bu muammoni yechishga qodir edi. Bu o'lkada sug'orish melioratsiyasini rivojlantirish, sho'rangan yerni sho'rini yuvish ishlarini amalga oshirish zarur edi.

O'zbekiston hududida birinchi bo'lib A.F.Middendorf (1882) "Очерки о Ферганской долине" degan asarida tuproqlarning tafsifi bo'yicha ularning sho'ranganligi, sho'rланish sabablari va uni hisoblash tadbirlari to'g'risidagi ilk ma'lumotlarni topishi mumkin.

Keng masshtabli melioratsiya sohasidagi ishlarni biz N.A.Dimo rahbarligida dastlab 1910-yilda Mirzacho'l dashtida boshlagan tadqiqotlaridan ko'rishimiz mumkin. Shu boisdan N.Dimo olib borgan tadqiqotlardan (1910, 1911, 1916-yy.) birinchi bo'lib, Mirzacho'l dashtida keng tarqalgan och tusli bo'z tuproqlarning sho'rланish turlari, tuz birikmalarining joylanish chuqurligini, tuzlarning tarkibiy qismlari, hamda tuproq sho'rланishida sizot suvlarining ishtiroki (chuqurligi, mineralizatsiyasi) to'g'risida ma'lumotlarni topamiz. 1914—1918-yillar davomida bunday mazmundagi ishlarni Zarafshon, ayniqsa Amudaryo quyi oqimi hududida davom ettiradi. Umuman N.A.Dimoning deyarli 20 yillik ilmiy tadqiqot ishlari da O'zbekiston tuproqlarining meliorativ holati, ularning sho'rланish omillari, yaxshilash tadbirlarini ishlab chiqishi bilan birga, O'zbekistonda keng masshtabli sug'orish ishlarini rivojlantirish, loyihalashlarni ishlab chiqishga asos soldi. Jumladan, 1930-yilda T.K. Rezenkamp uning ma'lumotlarini asos qilib Mirzacho'l dashtini sug'orishning yangi loyihasini ishlab chiqdi. N.A.Dimo bilan bir vaqtida va undan keyin M.M.Bushuev (1912), B.C.Maligin (1913), A.N.Rozanov (1916, 1915), M.A.Orlov (1916), K.D.Glinka (1923), L.I.Prasolov (1924), S.S.Neustruev (1926) va boshqa ko'pgina tadqiqotchilar asrimizning 30-yillargacha oldingi Turkiston, hozirgi O'zbekiston hududi tuproqlarining meliorativ

tavsifi, uni yaxshilash tadbirlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan to‘ldirdilar.

O‘zbekistonda tuproq melioratsiyasi fanining nazariy asoslarini yaratishda va bu soha uchun mutaxassislar tayyorlashda, 1920-yilda va keyinchalik 1935-yilda Markaziy Osiyo davlat universiteti qoshida tashkil qilingan tuproqshunoslik kafedrasi alohida o‘rin tutadi. M.A.Orlov, S.N.Pustovoyt, X.A.Abdullayev, S.N.Rijov, L.T.Tursunov, S.A.Abdullayev va keyinchalik 1930-yil Markaziy Osiyo Davlat Universitetining qishloq xo‘jalik fakulteti negizida tashkil topgan Toshkent Qishloq xo‘jaligi instituti (hozirgi Toshkent Davlat agrar universiteti) tuproqshunoslik kafedrasida ishlagan va hozirda faoliyat ko‘rsatib kelayotgan A.N.Rozanov, Klavdienko, M.A.Pankov, I.N.Felitsiant, A.M.Rasulov, X.M.Mahsudov va boshqalar respublikamizning turli hududlari tuproqlarini mukammal o‘rganib, ularning muffasalmeliorativ tavsifini berish, zaruriy xarita va xaritanomalar tuzish, tavsyanomalar ishlab chiqish, eng asosiy meliorativ sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash bilan shug‘ullanadilar.

Respublikamiz tuproqlarining o‘ziga xos meliorativ holatini o‘rganishda, tuproq-iqlimi sharoitni hisobga olgan mintaqaviy meliorativ tadbirlarni ishlab chiqarishda, sho‘r yerlarni sifatli yuvishning yangi uslublarini ishlab chiqarishda va joriy qilishda tuproqshunoslik va agrokimyo institutining roli nihoyatda kattadir: B.V.Fedorov, S.A.Shuvalov, N.V.Bogdanovich, N.V.Kimberg, B.V.Gorbunov, A.Z.Genusov, M.U.Umarov, O.K.Komilov, A.Abdullayev, A.U.Axmedov, O.Ramazonov, B.Mambetnazarov, A.Tursunov, S.Azimboev, V.Ishaqov, V.Popov, A.Avliyakulov, T.Xoziyev va boshqa ko‘pgina respublikamizning taniqli olimlarning ishlari diqqatga sazovordir. Bu ishlar natijasida keng ma’noda respublikada haqiqiy meliorativ maktab vujudga keldi.

Respublikada faqatgina sug‘orish va sho‘r tuproqlar melioratsiyasi mavjud bo‘lmasdan, balki eroziyalangan yoki eroziyaga mo‘yil yoki qum, qumli tuproqlarni shamol (deflyatsiya) eroziyasidan saqlash melioratsiyasi ham katta muammo hisoblanadi. Bu sohada ham K.M.Mirzajonov, X.M.Maxsudov, Sh.N.Nurmatovlar tomoni-

dan katta ishlar qilindi. Jumladan, K.M.Mirzajonov, Sh.N.Nurmatov, M.Xamrayevlar tomonidan o‘z ilmiy ishlarida respublikada shamol eroziyasini tub omillari, ularni oldini olish, bu eroziya turiga uchragan yerlar unumdorligini oshirish uchun zaruriy meliorativ tadbirlar ishlab chiqilgan bo‘lsa, X.M.Mahsudov, Sh.N.Nurmatov, L.A.G‘afurova asarlarida esa sug‘orish va lalmi yerlarda eroziya jarayonlarining tub mohiyatlari ochib berilgan va ularni yaxshilash (melioratsiyalash) tadbirlari ilmiy asoslab berilgan.

Bundan tashqari tuproq melioratsiyasiga oid M.Toshqo‘ziyev, E.Ziyamuxamedov (degumifikatsiyaga uchragan tuproqlar va ularning melioratsiyasiga bag‘ishlangan ishlari), X.T.Riskiyeva, A.Bairov, T.Abduraxmonov (tuproqlarning og‘ir metallar, agroximikatlar bilan bulg‘alanishiga va unga qarshi tadbirlar ishlab chiqishga bag‘ishlangan ilmiy ishlari), M.Muxammadjanov, A.Ermatov, A.Abdullayev, R.Kurvontoev (tuproqlar o‘ta zichlanishiga oid ilmiy ishlari), I.Turapov, D.Ismatov (tuproqlar sho‘rtoblanishiga oid ilmiy ishlari), I.Turapov, Sh.Xoliqulov (tuproqlarni mulchalashga bag‘ishlangan ishlari), T.Xotamov, A.Nig‘matov (yerlar rekultivatsiyasi) va boshqa olimlarning ilmiy-amaliy ishlarini qayd etish lozim.

Tuproq melioratsiyasi fani ko‘p tarmoqli fan hisoblanadi, shuning uchun ham tuproqlarning birgina sho‘rlanishi yoki eroziyaga uchrashi, sho‘rlanish turlarini bilish yoki sho‘rlanish omillarini ko‘rsatib o‘tish bilan bu muammoni yechish mumkin emas. (I-jadval).

## 1-jadval

### Tuproq melioratsiyasining tasnifi Qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi meliorat siyasi.

Meliоратсиya турлари		Fito-meliоратсиya	Kimyoiyi meliоратсиya	Madaniy texnik meliоратсиya	Gidroteхник meliоратсиya	Sho'r yuvish meliоратси- yasi	Issiqlik meliоратси- yasi
Agromelio- rasiya	Or'monchilik. Ixota daraxtлari lo'siqini barpo etish, qumliklarni mustaqkamlash. Qiyalik, jarlik va chuqurliklarni to'ldirish. Biologik zovur o'tkazish, tuproqni sho'r bosimidan asrash	Tuproqning sho'rioblanishining oldini olish va bartaraf qilish. Suvda eriydigan tuzlarni tuproq qatlamidan yuvish. Tuproqqa singdirilgan kationlar o'mini almashitirish, oksidanish va qaytarilish jarayonlari orqali ishqoranish va kislotali sharotini o'zgartirish.	Tuproq ustki qatlamida qishloq xo'jalik ishlarini bajarish jarayonidagi har xil texnik jihatdan noqulay ishlarni bartaraf qilish.	Sug'orish va quritish ishlari. Suv taribotini ikki tononlama boshqarish. Suv havzalarini quritish.	Tuproq Qatlainlariдан yengil yeruvchan tuziarmi yuvib chiqarish. Zovurlar qurish.	Tuproqning yuqori qatlamlarini granulametrik tarkibini o'zgartirish. Mulchaash. Qor qatlamlarning tuproq ustki qatlamida saqlanishini ta'minlash, isitilgan suv bilan sug'orish.	

## TABIATNI QAYTA YARALISHIDA MELIORATSIYA ASOSIY OMIL

Qishloq xo‘jaligida qilinadigan meliorativ tadbirlar melioratsiyanining asosiy qismi hisoblanadi.

Bu kompleks tadbirlarga agrotexnik, tuproq melioratsiyasi, o‘rmonchilik, suv xo‘jaligi va gidrotexnik tadbirlar kirib, bular ishtirokida tabiatni kerakli tomonga, ya’ni noqulay sharoitlarda, qishloq xo‘jaligida to‘g‘ri oqilona foydalanish bilan birga tuproq unumdarligini oshirib, qishloq xo‘jaligi uchun kerakli bo‘lgan sharoitni yaratishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Bu kompleks tadbirlar V.V.Dokuchayev, P.A.Kostyakov, V.R.Vilyams ishlarida ilmiy asosda ishlab chiqilgan va hozirgi kunda ham o‘z qiymatini yo‘qotmagan.

Meliorativ tadbirlarni suv tartibotini boshqarib borishida, yerning ustki va ostki qismida oqib keladigan va chiqib ketadigan suv miqdorini har qaysi gidrografik basseynda boshqarib va undan suv xo‘jaligida to‘g‘ri, oqilona foydalanish bilan bir qatorda, suv transporti, yerlarni suv bilan ta’minlash va hattoki baliqchilik va boshqa qishloq xo‘jalik ishlarini yanada yuksaltirishda qo‘llanishi lozim.

Tuproq unumdarligini oshirishda – suv hamda o‘simpliklar oladigan ozuqa moddalarini tuproqda yaratishda meliorativ tadbirlar orqali, ya’ni yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, tuproqlarning suv, ozuqa tartiboti va mikrobiologik jarayonlar orqali to‘g‘ri agrotexnika va almashlab ekish tizimi tufayli tuproqlarning struktura holatini yaxshilash mumkin.

Tuproqlarda namlikni to‘ldirish va shu jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lgan ozuqa va issiqlik tartibotini yaxshilash meliorativ nuqtai nazardan bir necha xil yo‘llar bilan amalga oshiriladi.

Birinchidan, tabiiy suv resurslaridan foydalanishni oshirish bunda yog‘in-sochin tuproq namligini jamg‘armasi, tuproq qatlamlaridan chiqib ketadigan suvlarning koefitsientini kamaytirishi, tabiiy namlikni tuproq qatlamida oshirish, yerlarni ko‘ndalangiga haydash, tuproq qatlamlarini qish oylarida, qor bilan aralashtirib haydash va nihoyat tuproq strukturasini saqlash.

Ikkinchidan, suvlarni tejab-tergab sarflash – bunda tuproq yuza qatlamida namlikni parlanishiga, transpiratsiya jarayoni orqali namlikni ko‘p sarflanishiga qarshi kurashgan holda tuproqni shamol eroziyasidan saqlash, agrotexnika va unumdorlikka etiborni qaratish, suv tartibotini to‘g‘ri nazarda tutgan holda sun‘iy sug‘orishga o‘tish, tuproqqa ishlov berish tizimsini ijro qilish. Bu tadbirlar tuproqlarda namlikni saqlashga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan tuproq qatlamlarida oshiqcha namlikni qochirish, anaerob sharoitda aerob sharoitini tuproqda hosil qilishni quyidagi yo‘llar bilan amalga oshirish mumkin:

Birinchidan, dala maydonlariga keladigan suv miqdorini kamaytirish vayerlarni suv bosishidan saqlash.

Ikkinchidan, quritish melioratsiyasi va suv tartibotiga qattiq rivoj qilgan holda tuproq qatlamlari tarkibidagi oshiqcha namlikni yo‘qotish. Bunda tuproqlarga ishlov berish va yerlardan qishloq xo‘jaligida to‘g‘ri, oqilona foydalanish lozim.

Uchinchidan, tuproqlarning havo o‘tkazish qobiliyatlarini yaxshilash va tuproq strukturasini yaxshilashga katta e’tibor berish ko‘zda tutiladi.

Tuproq suv tartibotini tashkil qilish yoki tuproqlarni namlik bilan taminlash yoki tuproq qatlamlaridan oshiqcha namlikni yo‘qotish har qanday sharoitda ham tabiat hamda xo‘jalik sharoitlarini hisobga olgan holda olib borilishi shartdir. Ushbu yuqorida keltirilgan tadbirlar orqaligina melioratsiyada suvdan to‘g‘ri va rejalgi foydalanish imkonini mavjud.

Yerlarni melioratsiyaga muhtojligi har qaysi o‘lka va aniq maydonlarda shu mintaqaning tabiiy shart-sharoitlarini hisobga olgan holda olib boriladi.

Masalan, Kavkaz oldi va Markaziy Osiyo o‘lkalarida melioratsiya turlari asosan sug‘orish orqali olib borilsa, Rossianing shimoli va shimoli-g‘arbiy rayonlarida asosan quritish melioratsiyasi orqali tabiatda noqulay sharoitlarni, qulay va kelgusida ishlab chiqarish uchun kerakli vositani yaratish mumkin.

Qishloq xo‘jalik nuqtai nazaridan tabiatda melioratsiyani tutgan o‘rniga qarab ikkita asosiy guruhga bo‘lish mumkin:

1. Aniq qishloq xo'jalik maydonlarida yangi yerlarni o'zalashtirish hamda yuqori hosil bo'lishni ko'zda tutib, kerakli bo'lgan suv, ozuqa va issiqlik tartibotini tuproqlarda hosil va boshqarib borish asosida melioratsiya qilish.

2. Tuproqlarda har xil zararli mexanik ta'sirlarga, suv orqali tuproq eroziyasiga va ko'chkiga qarshi kurashgan holda melioratsiya qilish.

Mana shu melioratsiyaning ikki guruhi orqali yerlarning gidrologiyasi, tuproqlari va boshqa sharoitlarda o'zgarib yotadi.

Suv tartibotini boshqarib borish va yerlarni yaxshilash hamma vaqt rejali va agrobiologik talablarga javob bergan holda olib borilishi bir tomonidan bo'lsa, ikkinchi tomonidan tuproq gidrologiyasi va iqlim sharoitini hisobga olib suv tartibotini boshqarib borish asosida erishish mumkin.

Shu narsaga e'tibor berish kerakki – suv tartibotini boshqarib borish yoki tuproq qatlamlaridan oshiqcha suvni chiqarib yuborish birinchidan yerlarning qurishiga, ikkinchidan ozuqa elementlarini kamayishiga olib keladi. Qisqacha qilib aytganda, tuproqlarning unumdoorlik darajasi kamayishiga yoki shuni teskarisi ham sodir bo'lishi mumkin. Masalan, yerlarda oshiqcha jarayonlar vujudga kelib, issiqlik sig'imi ortib, ularning temperaturasi pasayadi, nati-jada botqoqlanish yuz beradi. Shuning uchun ham tabiatni qayta yaralishida, ya'ni har qanday noqulay sharoitda yerlardan oqilona, to'g'ri foydalanish, suv, ozuqa va tuz tartibotini, yerlarni sug'organda yoki quritganda hamma vaqt bir me'yorda boshqarib borish, agrotexnologik talablar hisobga olingan holda yerdan to'g'ri foydalanish va qishloq xo'jalikda melioratsiya qilinadigan yerlardan to'g'ri foydalanishni taqozo qiladi.

Shu narsaga e'tibor berish kerakki, u yoki bu o'lkalarda yerlarning melioratsiyasi uning tabiiy sharoitlari va xo'jalik vazifalari orqali belgilanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tabiatni qayta yaralishida o'simliklarning hayotiy omillarini almashtirish mumkin emas de-gan qonunga tayangan holda amalga shirish maqsadga muvofiqdir.

Biologik mahsulotlarni muntazam oshirib borish zaruriyatni har bir xo'jalik, region, provintsiya va mintaqalarning tuproq

sharoitlari to‘g‘risidagi chuqur bilimlarni talab etadi. Faqat ana shu bilimlar asosida ishlab chiqarishning ilg‘or tajribalarini hisobga olgan holda tuproq unumdoorligi keng ko‘lamda tiklashni va hosildorlikni yanada oshirishni ta‘minlovchi tabaqalashtirilgan tadbirlar tizimini ishlab chiqish mumkin. Nazariy tomondan yuqori mahsuldorli agroekologik tizimlarni boshqarish joylari, tamoyillari va parametrlari umumiyligi ko‘rinishga ega. Lekin bu ko‘rsatkichlar parametrlarining mo‘tadil darajalari, ayniqsa uning muddatlari, tuproqdagi jarayonlarning boshqarishdagi aniq usullarning birga qo‘sib olib borish xo‘jalik, region va mintaqalarning tuproq meliorativ va ekologik sharoitlarini majmualariga bog‘liq holda keng doirada farqlanadi.

Har bir yirik xo‘jalik va tabiiy-iqtisodiy hududlar (mikroregionlar) o‘zining tuproq-iqlim sharoitlariga mos keladigan qishloq ekinlari yetishtiriladigan tuproqlarning unumdoorligini qayta tiklash bo‘yicha ilmiy asoslangan tadbir va texnologiya tizimlarining is-tiqbolli dasturlarini yaratish va ularni qo‘llashni taqozo etadi.

Ilmiy va ishlab chiqarish tajribalarini umumlashtirish, tahlil qilish asosida tuproqlar melioratsiyasi faqat yerlarga sug‘orish uchun suv quyish va zah maydonlarini quritish uchun yer osti suvlarini qochirishdan iborat deb chegaralanmasdan sug‘oriladigan yerlar, yaylovlar va pichanzor maydonlarining biologik mahsuldorligini oshirishga qaratilgan barcha tadbirlami rejashtirib, amaliyotda erishish kerak bo‘lgan maqsadlar uchun qo‘llash zarur.

Melioratsiyaning qo‘llanilishidagi talab va tajribalar maydonlarga suv quyish va ularni chiqarib yuborish melioratsiyaning bir ko‘rinishi bo‘lib, umuman olganda bu meliorativ tadbirlar majmubi bilan (deflyatsiya, suv eroziyasi, tuproq zichlanishi, degumifikatsiya, ishqoriylik, ifloslanish va boshqalar) birgalikda olib borilishi kerak.

Qishloq xo‘jaligida murakkab va almashinib turuvchi melioratsiya majmualari rejashtirilishi va muntazam o‘tkazib turilishi kerak. I. Himoyalovchi ko‘rinishdagi, II. Unumsiz tuproqlarni tubdan yaxshilovchi, III. Tabiiy va sun‘iy tuproqlarni tiklash va paydo qilish bo‘yicha melioratsiyalar (Kovda 1989).

Himoyalovchi melioratsiyalar yuqori mahsuldor tuproqlarni saqlashga qaratilgan:

1. Dalalarda ekinlar yakka hokimligini yo'qotish.
  2. Dukkakli ekinlar va shudgorlar bilan almashlab ekishni joriy etish.
  3. Dala, tik qiyaliklarda eroziyaga qarshi ishlov berish (ko'ndalang, konturli, ag'darmasdan haydash), qurg'oqchilik va eroziyaga qarshi ushlab qoluvchi tadbirlarni o'tkazish.
  4. Xo'jaliklar yer maydonlarini umumiy eroziyaga qarshi tashkil qilish va tuproqlarni ishlash (dalalarni yo'l-yo'l kontur shaklida ishlov berish, yo'llarni holati, himoyalovchi o'rmon polasasi).
  5. Harakatchan qumliklar fitomelioratsiyasi, tik qoyalarda hovuzchalar tashkil etish.
  6. Fitomelioratsiya va tabiiy yaylov, tekisliklar va ayniqsa tog'li rayonlardan almashlab foydalanish.
  7. Suv manbalari ta'sirida suv bosish, botqoqlanish va tuproq sho'rланishidan himoyalovchi zovurlar.
  8. Tuproq haydalma qatlamlarini madaniylashtirish: organik moddalar bilan muntazam ta'minlash, kesaksimon-donador strukturani ushlab turish, ildiz qatlamlarining mo'tadil joylanishi, relef notekisligi va tuproq haydalma qatlaming rang-barangligi.
- Mahsuldorsiz va kam mahsuldor tuproqlarni tub melioratsiyalari:
1. Botqoq tuproqlarni quritish;
  2. Sho'rланmagan tuproqlarni sug'orish;
  3. Cho'l va yarim cho'l mintaqalaridagi sho'rlangan tuproqlar va sho'r ox yerlarni sug'orish, sho'rsizlantirish va o'zlashtirishda-gi tadbirlar majinuasi:
    - a) chuqur samarador zovur qurish;
    - b) mikroreleflı yerlarni tekislash;
    - v) kimyoviy melioratsiyani qo'llash;
    - g) sho'r yuvish meliratsiyasini o'tkazish;
    - d) ekspluatatsion sho'r yuvish;
    - e) sho'r yuvishda vegetatsion sug'orish (umumiy miqdordan 10–20%);
    - j) sho'r yuvishdagi va grunt suvlarini chiqarib yuborish uchun chuqur zovur, melioratsiya boshida umumiy miqdorning 50–80% va normal ekspluatatsiya davrida 10–15 % miqdorda.

z) Minerallashgan (1,5 – 3,0 g/l. va undan ortiq) zovur suvlarini daryolardan muhofaza (izolyatsiya) qilish va ulardan yuqori sho'rga chidamli o'simliklar va qumliklar hamda pastqamlik sho'r tuproqlardagi galofitlarni sug'orish.

Sho'rtoqlar, sho'rtobsimon tuproqlar va taqirlarning melioratsiyasiga oid tadbirlar majmui:

a) Mikroreleflarni tekislash.

b) Plantaj (agar gipsli qatlam 30–60 sm chuqurlikda joylashsa) va organik o'g'itlarning meliorativ miqdori (dozasi 100 t.gacha).

v) Gips, kislota qoldiqlari, fosfogips, ohaklarni organik o'g'itlar bilan birga aralashtirib solish, tuproqda gips bo'limgan sho'rtoqlarni sho'rsizlantirish.

g) Qorni ushlab qolish yoki kimyoviy melioratsiya reaksiyasini mahsulotlarini yo'qotish uchun tuproqni mo'tadil namlab turish.

d) O't-dalali almashlab ekish va fiziologiya nordon o'g'itlarni qo'llash, organik o'g'itlarni qaytadan solish.

Sementlashgan, o'ta zichlashgan, strukturasiz og'ir tuproqlar melioratsiyasi, chuqur ag'darmasdan yumshatish, yoriqlar barpo qilish, ohakli va organik moddalar bilan boyitish, go'ng bilan aralashtirilgan qum solish.

Jarlarni antropogen xo'jalik maqsadlari uchun o'zlashtirish, injener va o'rmon meliorativ mustahkamlash, tik qiyaliklarni o'rmonlashtirish, yuvishni oldini oluvchi injenerlik inshootlari, jarlargaga yaqin tik qoyalarni o'rmonlashtirish.

Buzilganva yangidan paydo bo'lgan sun'iy tuproqlarni tiklovchi melioratsiya:

I. Texnogen buzilgan yerkarni, ochiq shaxta qoldiqlarni, karyerlarni va boshqalarni rekultivatsiyalash.

II. To'la eroziyaga uchrangan massivlarni tekislash, ularni tuproqlashtirish, o'rmonlashtirish.

III. Mayda tosh, shag'alli maydonlarni, qumlarni kolmatjashdirish.

IV. Tog'lar va adirlarda eroziya jarayonlarini yo'qotishni ta'minlovchi kapital supachalar, zinapoyalar (terrassa) va dambalar tizimsini yaratish, sun'iy tuproqlar yaratish. va ularni bir yillik va ko'p yillik o'simliklar yetishtirish uchun o'zlashtirish.

MELJORATSIYANING ASOSIY TURLARINI QUYIDAGICHCHA BO'LISH MUMKIN			
Yer maydonlarida suv rivojlanishida defitsit omillar	Melioratsiya turlari asosiy yo'nalishi	Melioratsiya turlari asosiy yo'nalishi	Melioratsiya turlari asosiy yo'nalishi
Oshiqcha namgarchilik bo'lgan yerlarda Namlik muqarrar bo'lмаган yerlarda	Tuproqda havo ushlash, tuproq harorati, o'simliklar uchun kerakli ko'p ozuqali elementlar. Oshiqcha namgarchilik yoki namlik yetishmaydigan yerlarda tabiat territorial va havo sharoitlarini hisobga olgan qolda kerakli omillarni yetkazib berish.	Tuproq ayeratsiyasini yaxshilash hisobiga ortiqcha suvni yo'qotish, tuproq va uning ustidan oqib keladigan suvni chiqarishni tezlashtirish.	Tuproqni suv bosishdan saqlash, yerlarning ko'rinishini, suv keladigan yerlarni boshqarib borish.
Namlik yetishmaydigan yerlarda	Suv yetishmovchilgingin oldini olish, oqimni ushlab qolish va ratsional sarfash.	Melioratsiya yerlarini namlik muqarrar bo'lмаган yerlarda tabiat sharoitlarni hisobga olgan holda olib borish.	Sug'orish, tuproqni namlash, suv bostirish, mahalliy oqimni boshqarish.

# **MELIORATSIYA QILINADIGAN MAYDONLARDA TUPROQ SUV TARTIBOTI VA MELIORATSIYA TIZIMINING ASOSIY QISMI, YOG'INGARCHILIK**

Melioratsiya ishlari olib boriladigan maydonlarda suv tartiboti dinamikasini tahlil qilish juda ham katta ahamiyat kasb etadi, chunki suv tartiboti tuproqning havo, issiqlik, ozuqa va mikrobiologik jarayonlariga ta'sir ko'rsatib, uning unumidorlik omili hisoblanadi.

Suv tartibotini o'rghanishning asosiy vazifasi kirim va chiqim elementlarini hisob va prognoz qilish, uni boshqarib borish, kerakli tomonga yo'naltirish, yerlardan samarali va rejali foydalanishni, qisqasi tuproq unumdorligini oshirish imkonini beradi.

Tuproqning suv tartiboti deb, tuproqda suvning harakatini ko'rsatuvchi hodisalar majmuasi, ya'ni tuproqda suvning tushish va uning sarflanish xodisalari majmuasiga aytildi. Suv tartibotining miqdor jihatdan ifodalanishi esa tuproqning suv balansi deb ataladi, ya'ni tuproqning suv balansi deganda ma'lum vaqt ichida suv jamg'armasining o'zgarishi tuproqda ketadigan suvning tushishi (kirim) va sarflanishi (chiqim) tushuniladi.

A.N.Kostyakov suv tartiboti kirim elementlariga quyidagilarni kiritadi: 1. Atmosfera yog'in-sochinining umumiy miqdori (R harfi bilan belgilanadi). 2. Yerning ustki qismidan oqib kelayotgan suv miqdori (S bilan belgilanadi). 3. Sizot yoki filtrlangan suv miqdori (S bilan belgilanadi). 4. Tuproq qatlamlarida atmosfera namligini kondensatsiyasi (A bilan belgilanadi).

Chiqim elementlari esa quyidagicha bo'ladi: 1. Namlikni parlanishi – Ye. Bu ko'rsatkich berilgan maydonda ikki xil yo'l bilan sodir bo'lishi mumkin.

Birinchidan, tuproq qatlamlaridan va suv yuzasida parlanadigan namlik bo'lsa, ikkinchidan, o'simliklar orqali namlikni transpiratsiyasi. Bu agrotexnika, o'simliklar xili va ularning hosildorligiga bog'liq bo'lishi mumkin.

Yerning ustki qismidan oqib chiqib ketadigan suv miqdori-S (tekshiriladigan maydon bilan uning yon atrofidagi maydonlar ham kiradi).

Tuproq sizot suvining chiqib ketishi – 0 (ya’ni tekshiriladigan maydondan tashqariga). Grunt suvlarining tashqariga chiqib ketishi suv qabul qilishi (qurilmalar) orqali, daryolar, jarliklar yoki sizot suvlarining yon boshiga oqishi natijasida boshqa maydonlarga oqib chiqib ketishi bu infiltratsiya deyiladi yoki bo‘lmasa yengil mexanik tarkibli yerlar, ayniqsa, galichiklar (shag‘alli) yerlardan ham oqib chiqib ketishi mumkin. Endi beriladigan maydonda suv tartibotini quyidagi tenglamadan ko‘rishimiz mumkin:

$$\Delta w + \Delta v + (P+V-S) + (C+A-O) - \epsilon$$

bunda  $\Delta w$  – berilgan maydondan tuproqning ma’lum qatlamida-gi oqib keladigan (yoki chiqib ketadigan) jamg‘arma suv miqdori.

$\Delta v$  – berilgan (yoki tekshiriladigan) maydonda yerning ustki qismidan oqib kelayotgan (yoki chiqib ketayotgan) suv miqdori.

Bu tenglama tekshiriladigan maydonda yerning ustki qismidagi hamda tuproq qatlamlarida umumiyl suv balansini beradi, chunki tuproqdagagi jamg‘arilgan suvlar gidrologik nuqtai nazardan bir-biriga bog‘liq. Shu narsani esdan chiqarmaslik kerakki, qishloq xo‘jaligada oqib keladigan suv bilan tuproq qatlamida suvlarining miqdori ham, tarkibi ham bir xilda emas. Ma’lumki, qishloq, xo‘jalik ekinlarining barchasi uchun suvning ko‘p miqdorda tuproq qatlamlarida ushlanib turishi maqsadga muvofiq emas, chunki uzoq muddatda tuproq qatlamida bo‘lgan suv uning havo tartibotini buzadi, lekin hamma vaqt tuproqda namlik bo‘lishi lozim. Biroq bu namlik miqdori hamma vaqt o‘simpliklar tomonidan yengil o‘zlashtiriladigan shaklda, boshqacha qilib aytganda, dala nam sig‘imi ko‘rsatkichi darajasida bo‘lishi lozim. Tuproqlardagi namlik miqdori va tartibotini bilish orqali odatda u yoki bu maydonning suv balansi hisoblab chiqiladi. Namlik tartiboti deb tuproqdagagi namlikning umumiyl va qatlamlardagi jamg‘armasini o‘zgarib borishini tushunamiz. Shuning uchun tuproq qatlamlarida tekshiriladigan davrdagi namlik tartibotini aniqlash orqali unish suv balansi hisoblab chiqiladi.

Buni quyidagi tenglamada ko‘rish mumkin.

$$\Delta w + (P+V-S) + (C+A-O) - \varepsilon,$$

Bunda  $\Delta w$  – tuproq qatlamlaridan hamda o‘simliklar orqali parlangan suv miqdori.

$S$  – berilgan davrda yerning ustki qismidan oqib keladigan suv miqdori. Bu teng bo‘ladi


$$S_1 = S + \Delta w + \varepsilon - \varepsilon_1$$

Tuproq qatlamlarida oqib keladigan (yoki chiqib ketadigan) suv miqdori jamg‘arilgan va elementlarning o‘zgarshiga qarab  $\Delta w$  musbat yoki manfiy (ijobiy, salbiy) bo‘lishi mumkin.

Agar musbat (ijobiy) bo‘lsa, jamg‘arma suv miqdori tuproq qatlamlarida tekshirilayotgan davrda oshadi (ya’ni bunda tekshiradigan davrning boshidagi jamg‘arma suv).

Agar manfiy (salbiy) bo‘lsa, unda tuproq qatlamlarida jamg‘arma suvning miqdori kamayib, qurg‘oqchilikka olib keladi, ya’ni grunt suvining sathi pasayib, tuproq qatlamlarida chirindi miqdori kamayib, hosildorlik pasayadi. Misol uchun, namlik yetishmaydigan o‘lkalarni ko‘radigan bo‘lsak, unda tabiiy suv tartiboti hamma vaqt tuproq qatlamlaridan chiqib ketadigan suvlarning miqdori (ye) oqib keladigan suv miqdoridan ustunlik qiladi, ya’ni R ko‘rsatkichi manfiy (salbiy) ta’sir qilib, tuproqning ustki qismida qurg‘oqchilik boshlanib, namlik kamayadi. Bu holda o‘z-o‘zidan tuproq grunt suvlarining sathini pasayishiga olib keladi, tuproq qatlamlarida jamg‘arma suv miqdorini kamayishiga sabab bo‘lib, qurg‘oqchilik boshlanadi.

Namlik oshiqcha bo‘lgan o‘lkalarda esa tabiiy suv tartiboti kirim elementlarini chiqim elementlaridan ustunlik qilishi bilan boshlanib, suvning balansi tuproq qatlamlarida musbat (ijobiy) ta’sir etib, jamg‘arma suv miqdorlarining yuza qatlamlarida ortadi, bu esa o‘z-o‘zidan tuproq grunt suvining umumiy miqdorini ortishiga sabab bo‘ladi.



1-rasm. Tabiatda namlikning aylanishi

1. Atmosferadan tushgan yog'in-sochinning bir qismi o'simliklar tomonidan parlanishi; 2. Namlikni bir qismi; 3. Yer yuziga tushgan namlikni qiyaliklar tomon oqib ketishi; 4. Tuproq yuzasidan namlikni atmosferaga parlanishi; 5. Qolgan namlikni tuproq tomonidan yutilib, tuproq namligiga aylanishi; 6. Namlikni bir qismini o'simliklar ildizi orgali surilib, o'simlik tanasida harakat qilib parlanishi; 7. Namlikni bir qismi tuproq oraliqlaridan harakat qilib, jarlik va darslarga quyilishi; 8. Namlikni yana bir qismi tuproq quyi qatlamlariga shimilib, sizot suvlariga aylanishi; 9. Sizot suvlari o'zlarining oqimi va bosim kuchi ta'sirida yana daryo suvlariga kuyilishi; 10. Sizot suvlarining yana bir qismi tuproq qatlamlarining chuqur qatlamlariga shimilib, chuqur artizan suvlarini hosil qilishi.

Bu esa tuproq, qatlamlarida havo va issiqdik tartibotiga ta'sir qilib, tuproq, qatlamlarida anaerob protsesslari vujudga keladi keladi va nihoyat tuproqlar botqoqlasha boradi.

## SUV BUG'LANISHI VA SUV SAQLASH

Bug'lanish suyuq suvni gaz holatiga va atmosferaga diffuziya holatga uzatish hisoblanadi. Buning uchun quyosh va atmosferadagi yaroqli energiya va suyuq suv bo'lishi talab etiladi. Gidrologik siklli bug'lanishning suvgasi, yaroqli energiyaga, hudud iqlimi orqali 2 omilga bog'liq. Qish oylari davomida namgarchilik yuqori bo'lgan yerlarda bug'lanish yog'ingarchilik miqdoriga ko'ra past bo'ladi. Yoz oylarida yaroqli suv energiya serob bo'lganida bug'lanish suv balansida asosiy qismni egallaydi. Quruq oylar davomida yaroqli suv chegaralangan bo'ladi. Arid mintaqalarda bug'lanish uchun yaroqli energiya miqdori yuqori bo'ladi, lekin suv bug'lanish uchun suv yetarli bo'lmaydi.

**Ochiq suvlarning ( $E_g$ )** bug'lanishda okeanlar, ko'llar, kichik daryolar ishtirok etadi. 1.6-rasm global shaklada bo'lib, suv bug'lanishining eng kata manbasidir.

**Potensial suv (PE)** bug'lanishi yer yuzasining qatlamlarida suv chegaralangan holatda sodir bo'ladi, bu tuproq yetarlicha nam bo'lganida sodir bo'ladi. Bug'lanish uchun ortiqcha suv talab etilmaydi.

**Hozirgi bug'lanish (Et)** yetarlicha suv bo'lamagan vaqtida sodir bo'ladi. Namgarchilik yuqori bo'lganida Et PE ga teng bo'ladi, boshqa holatlarda PE dank am o'ladi. Gidrologiyada biz  $E_g$  va Et ga kata e'tibor qaratamiz, lekin PE odatda Etni talab qiladi.

Yuqoridagi ta'riflar "Yer yuzasida bug'lanish" bilan bog'liq bo'lib, yuzasidagi bug'lanishni sodir bo'lishi asosan 2-yo'l – tuproq matriklaridan harakatdagi bug'lanishga o'simliklardan transpiratsiyalanishi asosida bo'ladi.

O'simliklar transpiratsiyasi fotosintez jarayoni va yomg'ir yog'ishiga bog'liq. Transpiratsiya bargda stoma – bargdagi teshik-chalarning ochilishi va yopilishiga bog'liq bo'ladi. Transpiratsiya har bir o'simlikda poyasida suvning yuqoriga va pastga harakatlanshini aniqlanadi. Turli xil o'simliklarning transpiratsiya jarayoni ham turlicha bo'ladi, tuproqda yaroqli suv bo'lganida o'simliklar suvni tuproqdan barglari tomon yuqoriga harakatlantiradi hamda bu suv barglardan atmosferaga adsorbsiyalanadi. Bug'lanish ba'zida suv balans tenglamasi asosida suvning yo'qolishi bilan ham

tavsiflanadi. Suv balans tenglamasi gidrologik siklning matematik tenglamasidir. Tabiatda suvning yo'qolishi va sarflanishi bu yer yuzasidan suvning bug'lanishi hisoblanadi.

Vegetatsiya davrida yomg'ir yog'ishi, yer yuzasidan suvning bug'lanishi va nam barglar yuzasidan suvning bug'lanishi bilan aralashib umumiy suv bug'lanishi sodir bo'ladi. Bu uchta manba suv bug'lanishning vegetatsiya darajasiga va iqlimiga bog'liq bo'ladi. Tropik o'rmonlarda yog'ingarchilikda suv yo'qolishi dominant holda bo'ladi. Bu iqlimi sharoitda o'simliklarga tuproq yuzasidagi suvda ta'sir qilishi yetarlicha bo'lmaydi. 3-jadvalda Yangi Zellandiyadagi 2 katta bargli o'rmonlarida suv balansi tasvirlangan.

*3-jadval*

### **Yangi Zellandiyada ikkita Pinus radiata dan bug'lanishni baholash**

	Puruki (Markaziy shimoliy Islandiya, NZ) ( pastda yillik yog'in miqdori, %)	Balmoral (Markaziy janubiy Islandiya NZ) (yillik yog'in miqdori, %)
<b>Yillik yog'in</b>	1,405 mm	870 mm
<b>Yillik yog'ingarchilik yo'qolishi</b>	370 mm (26)	220 mm (25)
<b>Yillik bug'lanish</b>	705 mm (50)	255 mm (29)
<b>Yillik tuproq bug'lanishi</b>	95 mm (7)	210 mm (24)
<b>Qoldiq (yer usti yuvilishi+oqish)</b>	235 mm (17)	185 mm (21)

*Manba: Kelliher va Jackson ma'lumotlari (2001)*


O'simliklar tomonidan barglarning kichik teshikchalari (stoma) orqali suv bug'lanadi. Bu jarayon ba'zida quruq barg bug'lanishi deb ham ataladi. Stomaning suv transpiratsiyasi darajasiga, o'simlik fiziologik fenomenonga ta'siri katta. Ba'zi o'simliklar suv kam bo'lganida stoma teshiklari yoplib qoladi, shuning uchun suvdan foydalanish chegaralangan bo'ladi. 4-jadval o'simlik morfologik xusussiyatlari o'rmon turlari va yoshiga ta'sirini ko'rsatadi.

**Turli o'rmon yoshi va turiga qarab yog'ingarchilikni aniqlash**

DARAXT TURI	YOSHI	YOG'INGARCHILIK	YILLIK YOG'IN MIQDORI %
<b>DECIDUOUS QATTIQ YO'GOCHI</b>	100	254	12
<b>PINUS STROBUS (OQ QARAG'AY)</b>	10	305	15
<b>PINUS STROBUS</b>	35	381	19
<b>PINUS STROBUS</b>	60	533.4	26

*Manba: Hawlett va Nutter (1969)*

O'rmonda suv ushlash yo'qotilishning ko'p bo'lishiga sabab uning yuzasi kata hamda barglarda sodir bo'layotgan bug'lanish tufayli aerodinamik harakati yuqori bo'lishidadir (2-rasm).



2-rasm. O'rmon yuzasidan yog'in yo'qolishiga omillarning ta'siri.

(Barglar yuzasining kattaligi va ko'pligi quruq iqlim sharoitida yuqori darajada suv bug'lanishiga olib keladi).


**Bug'lanishni o'lhash.** Gazni atmosferadagi miqdorini aniqlash juda qiyin bo'lgani kabi suvning umumiy bug'lanish miqdorini o'lhash uchun foydalanadigan miqdor ham yo'q. Aslida deyarli barcha texnik bug'lanishni topish transpiratsiya koeffitsiyenti va hosil birligi orqali ishlatiladi, taxmin qilinadi. Bug'lanishni aniqlashni har bir uslubini "to'g'ri aniqlash" quyi-bo'limni o'z ichiga oladi.

**Bug'lanishni bevosita mikro-meteorologik o'lhash.** Bug'lanishni o'lhash uchun ishlatiladigan uch asosiy usullari mavjud bo'lib, ular to'g'ridan bug'lanish: oddiy tebranish (yoki korrelyatsiya), aerodinamik profili va Bowen darajasi bo'yicha aniqlash usullari mavjud. Bularning barchasi mikro-meteorologik o'lhash ekanligi va ma'lumotlarni boshqa joyda bo'lishi mumkinligidan topildi (masalan Oke, 1987). Ma'lumotlarning eng muhimi yer yuzasidan bug'lanayotgan suvning miqdorni bilishdir. Buning uchun Yerning harakat yuzasini topish juda qiyin vazifa hisoblanganidan oddy tebranish (yoki korrelyatsiya) usuli vertikal shamol tezligi va profil harorati orqali suv bug'lanishini aniqlash osonroq. Bu juda qisqa vaqt ichida aniqlanadi (masalan, mikrosekundlarda). So'nggi yillarda issiq sim anemometrlari bilan o'lhash ham mumkin. Bunda bitta qiyinchilik mavjud bo'lib, juda kichik sathlari o'lhash tufayli Gidrologik zovurlarni kattalashtirish uchun qiyin bo'lishi mumkin. Aerodinamik profil (yoki notinch uzatish) usuli bilan batafsil ma'lumotlarga asoslangan yerning ustki yuzasi energiya balansini bilib olish mumkin. Dastlabki energiya miqdorini hisoblash bilan bug'lanish tezligini aniqlash mumkin. O'lchamlar iqlim va namlikning vertikal gradiyent o'zgarishi bilan o'zgaradi. Bu metodlardan foydalanish orqali atmosfera havosi neytral va barqaror deb faraz qilinadi, hamda bu ikki holatni har doim ham amalda qo'llab bo'lmaydi. Boven nisbat metodi aerodinamik profil metodiga o'xshash hisoblanadi. U issiqlikka va radiatsiyaga, tuproq issiqligiga, harorat va namlik gradientlariga juda sezgir hisoblanadi. Shuning uchun uni aniqlash mushkul. Bu hisoblagichlarga tabiiy taxminlarni hosil qilish uchun uchun o'rtacha 30-daqqa vaqt kerak bo'ladi.

**Bilvosita mikro-meteorologik o'lhash (suv balans texnikasi).** Ko'pgina o'lhash ishlari bug'lanish tovasi orqali amalgam oshadi (3-rasmga qarang). Vaqt davomida qancha miqdordagi suv yo'qolgani katta bug'lanish tovasida suv chuqurligini aniqlash yoki qurilmani og'irligini aniqlash orqali bug'lanish aniqlanadi. Bu texnika suv balans tenglamasining aniqlashdagi qo'l usuli ham deyiladi. Bug'lanish tovasi suv o'tkazmaydigan moddadan yasalgan bo'lib, suv sathi uning pastki qismida saqlanadi, suv oqib ketishi yuz bermaydi. Bu qiyalik (*Q atama*) suv balansidan yo'qotiladi. Shuning uchun bu suv saqlash omborida evaporatsiya yo'qolishi yoki yomg'ir yog'ishga erishish deb tahmin qilanadi. Suv balansi tenglamasi tenglamada ko'rsatilgandek qayta tartiblanadi.

$$E = \Delta S - P$$

Agar yog'ingarchilik o'lchovi mavjud bo'lsa, bug'lanish tovasida tezlik bilan tutushadi, keyin *P* atamasi suv saqlash ( $\Delta S$ ) nighina og'irligi yo'qolganligi yoki suv sathida tomchi og'irligi o'lhashni o'zgartirish uchun aniqlanadi. standart meterologik stansiyada yomg'ir yog'ishi suv sathi kunlik o'lchanadi. vaqtinchalik resulyutsiyada (masalan soatbay) muntazam ravishda uyali aloqa asboblari orqali og'irlik o'lhab boriladi va yozib olinadi.



3-rasm. Bug'lanish tovasi.


(Yer yuzasida turadi (yomg'ir tushushini kamaytirish uchun) va bu qurilma yomg'ir sathini aniqlaydi)

Biz Eo – ochiq suv bug'lanishini aniqlashimiz uchun bug'lanish tovasi suv bilan to'ldiriladi. Drenejda haqiqiy bug'lanish indikatorlari sifatida (*Et*) hajmlarni qo'llashda keskin muammolar uchraydi. Birinchi muammo Eo *Et* ga nisbatan anchagina yuqori

bo'ladi, chunki drenajda asosiy bug'lanish yaroqli suv tuproq bilan bog'langan hamda chegaralangan yer yuzasi bo'ylab sodir bo'ladi. Bu esa haqiqiy bug'lanishni qayta baholashga olib keladi. Bu omil yaxshigina bizga ma'lum va bug'lanish tovasi esa drenajda suv balansini o'rganish uchun kamdan-kam holatda foydalanadi. Bu tovadan asosan ko'l va havzalarda suv sarflanishini aniqlashda keng foydalilanadi. Bug'lanish tovasi ochiq suv havzalarida bug'lanishni taxmin qilish bilan muammoli holatlar ham uchrab turadi. Standart bug'lanish tovasi A sing deb nomlanadi, uning diametri 1,207 mm va 254 mm chuqurlikka ega bo'ladi. Tova "yon atrofga ta'sir qilishga" moyil bo'ladi hamda, suv yuzasidan iliq shamol esganda ham suv yuzasidan bug'langan suvni o'ziga adsorbsiya qilib ola-di. Bir qancha tekshiruvlar shuni ko'rsatadiki, bug'lanish darajasi markazdagi suvlarga nisbatan suvning chet qismida yuqori bo'ladi. Havo, suv kam bo'lganida uni tezroq absorbsiya qilishga ega (bu yer yuzasiga ham tegishli). Ikkinci kichik muammo bor, bu bug'lanish tovasi suv bilan birga radiatsiyani ham adsorbsiya qiladi va kattaroq ko'llarga nisbatan tezroq isitadi, qo'shimcha energiya manbasini hamda yuqoriroq bug'lanish darajasini ham ta'minlab beradi.

**Lizemetrlash.** Lizemetrlash bug'lanish tovasi bilan bir xilda bo'ladi, undan asosiy farqi suv o'rniغا tuproq hamda o'simliklar bilan to'ldiriladi (4-rasmga qarang).

Lizemetrda tortish



4-rasm. Lizemetrda tortish.

(*Lizemetrda tortishda yer yuzasida qo'yiladi. Silindr tuproq bilan to'ldiriladi va o'xsash o'simliklar ekiladi*)

Lizemetrlardan foydalanishning bir necha xili bor masalan, bug'lanish tovasidan asosiy farqi, lizemetrlashdatovaning pastki

qismidan suvning sizib kirishi ham o'chanadi tova suv bilan to'ldirilmasa ham lizemetlashda suv sizib kirishi sodir bo'lishi mumkin, yana suvning qiyaliklar orqali sizib kirishi ( $Q$ ) ham taxmin qilinadi, lizemetlash uchun suv balans tenglamasida ko'rsatilgan.

$$E = \Delta S - P - Q$$

**Penman.** Penman Britananiyalik fizik olim bo'lib, u bug'lanishning terorik modelini yaratgan. Penmanning birinchi nazariy modeli ochiq suv bug'lanish bo'lib, u quyidagi tenglamada keltirilgan (Penman, 1948):

$$E_s = \frac{\Delta Q^* + \gamma E_s}{\Delta + \gamma}$$

tajribaga bog'liqligida:

$$E_s = 2.6\delta_i \left( 1 + \frac{u}{1.862} \right)$$

Bunda:


$Q^*$  = tarmoq radiatiyasi (mm/kun bug'lanish ekvivalenti bilan birligida)

$\Delta$  = harorat kam bo'lganida par singgishining oshish darajasi (kPa/ $^{\circ}\text{C}$  1 grafikga qarang)

$\delta$  = havo tanqisligida par bosimi (kPa)

$\gamma$  = o'zgarmas fizohromatik ( $\approx 0.063$  kPa/ $^{\circ}\text{C}$ )

$u$  = shamol tezligining oshishi 2 m (m/s)



1-grafik. Harorat va par bosimining singgishi o'rtaqidagi bog'liqlik.

(Bu grafik par bosimining harorat bilan oshishini hisoblashda kerak bo'ladi

D. Tenglama bog'liqlikning shaklini tasvirlaydi).

Penman formulasi qisqa va uzun radiatsiyaning tajribaga asoslangan tarmoq radiatsiyasi bilan baholanadi. Formula harorat, shamol tezligi, par bosimi va tarmoq radiatsiyasi kuzatishni talab qiladi. Bularning hammasi metiorologik aniqlashlashlarga asoslangan. Bu grafik odatda o'rtacha kunlikda ishlataladi. Shuttleworth (1988) tenglamani 10 kundan kam vaqt darajalarida ishlatalmaslikni maslahat beradi. Bu tenglama doimiy harakatga qaraganda bug'lanish absolyut hajmi hosil qilishini anglatadi. Penman uning ishini yer yuzasida vegetatsiya davomida sodir bo'lishini davom ettiradi (Penman va Scholfield, 1951), keyinchalik bu tenglamani qaytadan ishslashgan (Van Bavel, 1966). Qayta ishslashning bir qismi **aerodinamik qarshilik terminini** ( $r_a$ ) o'z ichiga olib  $E_a$  ga o'zgarishini (tenglam) o'z ichiga oladi.

Yangi aerodinamik qarshilik terminini Penman tenglamasiga va suv oqib ketishidek natijaning almashtirish mumkin (har bir 2 m hududdan kg suv). Bug'lanish tenglamasi keltirilgan:

$$PE = \frac{Q^* \Delta + \frac{\rho \cdot c_p \cdot \delta_e}{r_a}}{\lambda(\Delta + \gamma)}$$

Bunda:

$Q^*$  = tarmoq radiatiyasi (mm/kun bug'lanish ekvivalenti birligida)

$\Delta$  = harorat kam bo'lganida par singgishining oshish darjası (kPa/ $^{\circ}$ C 1grafikga qarang)

$p$ = havo zichligi ( $\text{kg}/\text{m}^3$ )

$c_p$ = havoning maxsus qizishi ( $\approx 1,005 \text{ J/kg}$ )

$\delta$ = havo tanqisligida par bosimi (kPa)

$\lambda$ = suv bug'lanish issiqligini chiqishi ( $\text{J/kg}$ ) (4-rasmga qarang)

$\gamma$  = o'zgarmas fizohromatik ( $\approx 0.063 \text{ kPa}/^{\circ}\text{C}$ )

$r_a$  = tenglamada keltirilgan suv parlanish ( $\text{s}/\text{m}$ ) transport aerodinamik qarshiliği

$$r_a = \frac{\left( \ln\left( \frac{z-d}{z_0} \right) \right)^2}{K^2 u}$$

Bunda:

$K$  = Von Karman kattaligi ( $\approx 0.41$ )

$u$  = postirma tepasida shamol tezligi (m/s)

$z$  = anemometerning og‘irligi (m)

$d$  = nol tekislikni almashtirish (m)

$z_o$  = notekislik uzunligi (vegetatsiya og‘irligida 1 dan 8 gacha baholanadi) (m).

Bu formula qiyindek tuyulgani bilan aslida juda ham oson, ya’ni formulani tushunarlibo‘lishi uchun ikkita oson formulaga ajratish mumkin. Yaroqli energiya miqdori tarmoq radiatsiyasi ( $Q^*$ ) orqali dominant holatda bo‘ladi. Atmosferada suv parining adsorbsiyalaniishi boshqa atamalar bilan bog‘liq ( $\Delta p$ ,  $c_p$ ,  $\delta_e$ ,  $\lambda\lambda$ ,  $\gamma$ , bu ta’sirchan issiqlik tashish bilan tenglashadi) va atmosferaga suv parlanish diffiziyasini abrorblanish ( $\kappa$ ,  $u$ ,  $z_o$ , boshqalar).

5-jadval

### Turli ekin turida aerodinamik va barg teshikchalari orasidagi qarshilik


Ekin turi	A e r o d i n a m i k qarshilik ( $r_a$ ) (s/m)	Qoplam qarshilik ( $r_s$ ) (s/m)
Yaylov	30	50
O‘rmon	6.5	112
Buta	6.5	160
Shirinmiya	7.0	120

Manba: Andrev va Dimond (2007)


I-grafik harorat va par bosimi o‘rtasidagi bog‘liqliknki ko‘rsatadi. O‘rtacha havo harorati quyidagi tenglamasida keltrilgan (T, °C):

$$\Delta = \frac{2053.058 \exp^{\frac{17.27T}{T+237.3}}}{(T+237.3)^2}$$

Penman tenglamasi qo'llashda 4 ta aniqlash olib boriladi: temoq radiatsiyasi, bostirma yuqorisida shamol tezligi, atmosfera namligi, iqlimi (1-3 – grafikka qarang).




2-grafik. Iqlim va yashirin issiqlik bug'lanish orasidagi farq



3-grafik. Havo harorati va zichligi o'rta sidagi farq

Bu o'chashlar bir martalik o'Ichash bo'lib, 4 turli xil tarmoq radiatsiyasi vaboshqa metirologik stansiyalarda qo'llash qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin, chunki tarmoq radiometrlari tez-tez uchramaydi. Tarmoq radiatsiyasini quyosh tizimi, yuza va kun uzunligidan baholashda turli uskunalar mavjud (Oke, 1987).

Et ni PE dan va tuproq namligi baholash oddiy. Yer yuzasida yaroqli suv tuproq namligi orqali aniqlanadi. Oddiy darajada o'zaro potensial va aktual bug'lanishni tuproq namligini aniqlash orqali baholash mumkin (4-grafik). Aniq o'Ichamlar tuproq turiga va yer yuzasidagi o'simlikka bog'liq. Bu turdag'i oddiy bog'liklik tuproq suvi budgeti modelida bug'lanish darajasida natijali aniqlangan (Davie et al., 2001), lekin modellashni o'rganishda q. Bu tuproq namligi va potensial bug'lanish ilmiy o'rgangan holda tuproq namligi va bug'lanish korrelatsiyasini aniqlash mumkin.




4-grafik. Potensial va aktual bug'lanishni nisbatini hamda tuproq namligini aniqlashning gipotek bog'liqligi.

6-jadvalda ba'zi hosil koeffitsiyentlari Xalqaro oziq-ovqat tashkiloti tomonidan keltirilgan (Allen, 1998).

**Bug'lanishni o'lhash uchun hosil koeffitsiyentlari**

<i>Hosil turi</i>	<i>Hosil koeffitsiyenti (K)</i>	<i>Izoh</i>
Loyiva va no'xat	1.05	Ba'zida 1.5 metr dan 2 metrgacha uzunlikda bo'ldi. Bunday holatda K <sub>c</sub> hajmi oshishi olinishi kerak
Bug'doy	1.15–1.20	
Makkajo'xori	1.15	
Shaqarqamish	1.25	
Uzum	0.7	

Suv saqlash suv balansi tenglamasi 1 bo'limda keltirilgan bo'lib, suv saqlash muddatini ( $S$ ) ham o'z ichiga oladi. Gidrologik sikl ichida suv saqlash uchun bir necha joy bor. Suv saqlashdan muddatidan qay yo'sinda foydalanish 5-rasmida keltrilgan bo'lib, kirish va chiqish va ular o'rta sidagi harakat tasvirlangan.



5-rasm. Suv balans tenglamasida suv omborining tasvirlanishi

Keltirilgan rasmdan ham ko'rish mumkinki, kirish va chiqish vaqt davomida teng bo'lmasi ligi kerak; agar kirib keladigan

va chiqib ketadigan suvning miqdori bir xil bo'lsa, suv saqlashni o'zgartishi kerak (S). Ma'lumki, har bir suv saqlashda kritik chuqurlik ba'zi suv saqlashda har doim mavjud bo'ladi, hattoki, aniqlash jarayonida bir xildagi suv miqdori bo'lmasa ham. Suv saqlash tafsifi daryolar yer osti suviga suv saqlash sifatida ham bir-biridan deyarli tavofut bo'imaydi, faqat tavofut oqim darajasi asosida hosil bo'lishi mumkin (masalan, suvni saqlashda qanchalik tezlik bilan harakatlanishi). Sekin oquvchi daryo ko'lga aylangan-da kritik chuqurlik chegarasi bo'lmaydi. Suv saqlashni muhimligi Yer yuzasida toza hamda yuqori miqdordagi suv aniq ma'lumotlar orqali ta'kidlanadi (7-jadval)<sup>2</sup>.

*7-jadval*

#### **Yer yuzasida ushlab turilayotgan taxminiy suv hajmi**

	Hajm ( $\times 10^3 \text{ km}^3$ )	Jami (foizda)
<b>Okean va dengizlar</b>	1,338,000	96.54
<b>Muzliklar aysberglar</b> <b>va</b>	24,064	1.74
<b>Yer osti suvlari</b>	23,400	1.69
<b>Qirov</b>	300	0.22
<b>Ko'llar</b>	176	0.013
<b>Tuproq</b>	16.5	0.001
<b>Atmosfera</b>	12.9	0.0009
<b>Botqoq/seryog'in yerlar</b>	11.5	0.0008
<b>Daryolar</b>	2.12	0.00015
<b>Biota</b>	1.12	0.00008
<b>Jami</b>	1,385,984	100.00

<sup>2</sup> Tim Davie. Fundamentals of hydrology, London and New York, 2008.

## II BOB

# NAMGARCHILIK YETISHMAYDIGAN SHAROITDA

## SUG'ORISH MELIORATSIYASI

## SUG'ORISH TALABLARI VA UNING TARQALISHI

Sug'oriladigan maydonlarda (yerlarda) melioratsiyaning asosiy vazifasi tuproqlarga bog'liq bo'lgan issiqlik, ozuqa tartiboti aniq bilgan holda qishloq xo'jalik maydonlarida shu issiqlik, ozuqa, mikrobiologik protsesslari va nihoyat tuproq uchun eng xarakterli bo'lgan unumtdorligini oshirish va qishloq xo'jalik ekinlari dan yuqori hosil olishga mo'ljallangandir.

Quruq rayonlarda (doimiy nam yetishmaydigan yerlar) qishloq xo'jaligi uchun o'zlashtiriladigan hamda dehqonchilik qilish vositasi sug'orish ishlari bilan bog'langan. Bunday rayonlarga cho'llar, chala cho'llar yoki Markaziy Osiyoning ko'pchilik rayonlari, Kavkazoldi va Kaspiyoldi respublikalari kiradi. Vaqtinchalik qurg'oqchilik bo'ladigan rayonlarga Povolje, Ukraina, Qrim, Shimoliy Kavkaz va Markaziy Qora tuproq oblastlari kirib, bu rayonlarning hammasi sug'orish orqali qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiradi.

O'simliklarni me'yor o'sishi uchun ma'lum iqlimi, tuproq va agrotexnika tadbirlari kerak bo'ladi va o'simlik o'zining vegetativ davrida tanasini yaratish, hosil qilishda ma'lum qism suvni talab qiladi va yo'qotadi.

O'simliklarning suvga bo'lgan talabi quyidagi omillarga bog'liq. Bular, birinchidan – tashqi muhitni ta'siri, bunga – temperatura, namligi, yorug'lik, tuproq namligi va unumtdorlik darajasi kiradi. Ikkinchidan – o'simlikning tarkibi, uning xili va o'stirish mahoratiga bog'liq bo'ladi. Endi o'simliklarning suvga bo'lgan talabini quyidagicha aniqlash mumkin.

1. O'simliklar ekilgan maydonlarda tajribalar o'tkazish yo'li bilan bularga suv tartiboti uning balansini aniqlash yo'li bilan.

2. Hosildorlik miqdori, transpiratsiya koeffitsient, o'simliklarni o'sish davrida ketgan suv miqdori, tuproq unumtdorligi va agrotexnika orqali. Bunda transpiratsiya koeffitsienti, o'simliklar tanasi-

da 1 kg quruq moddani hosil qilish uchun ketgan suvning miqdori bilan o'chanadi. Misol uchun, transpiratsiya koeffitsienti o'simliklarda 200 dan 800 kg suv miqdori atrofida bo'ladi.

3. Kirim – chiqim issiqligi radiatsiyasini natijasi, massa va issiqlik almashinish konven-tsiyasi, lekin bu uslub hali yaxshi ishlab chiqilmagan. Shuning uchun tajribada kam qo'llaniladi.

Sug'orish ishlari olib boriladigan maydonlarda birinchi navbatda o'stiriladigan o'simliklari transpiratsiya koeffitsientini biliш katta ahamiyat kasb etadi, chunki TK-i iqlimiш sharoit bilan, agrotexnika xarakteri va tuproq unumdoorligi bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun TK-ni o'rganish, uni hisob qilib borish maqsadga muvofiqdir. Misol uchun, Zavoljedagi Yershovskiy melioratsiya tajriba stantsiyasida ertangi bug'doyni TK-i tekshirilib ko'rilgan.

8-jadval

O'g'itlar turi	Hosildorlik 1 ga % hisobida	T-K hisobida
O'g'itsiz	100	100
100	121	91
NP	135	81

Keltirilgan jadvaldan ko'rinish turibdiki, mineral o'g'itlar hisobiga hosildorlik oshishi bilan TK kamayib borayapti. Demak, o'simliklarni o'sish davrida tuproq unumdoorligiga qarab suvga bo'lgan talabi hosil birligiga kamayar ekan. Shuning uchun qishloq xo'jalik ekinlarining suvga bo'lgan talabini hisobga olishda, hosildorlik, tuproq unumdoorligi holatiga va agrotexnikaga e'tibor berish lozimdir. Misol uchun, qishloq xo'jaligida olinadigan hosil V sentner 1 hektar bo'lsa, TKni ko'rsatkichi hosildorlikka mos ravishda teng bo'ladi va u EV bilan belgilanadi (agar V 1 sentner hosil uchun bo'lsa), unda o'simliklarning suvga bo'lgan talabi  $E=V \text{ Yeu } m^3/ga$ . Bunda o'simliklarni suvga bo'lgan talabini umumiш miqdori  $Ye$  1 hektar yerda o'simliklarni o'sishi davrida olinadigan hosilga teskari proportsional bo'ladi. Bundan shun-

day xulosa chiqadiki, TK har qaysi iqlimi sharoitda ham bir xil ko'rsatkichga ega bo'lmay, balki o'simliklar xili, tuproq sharoiti va uning qatlamlaridagi jamg'arma suvlarga ham bog'liqdir.

Tabiiy sharoitdag'i o'simliklarning suvga bo'lgan talabi quyidagi sharoitlarga bog'liqdir.

1. Atmosfera yog'in-sochini va vegetatsiya davrida namlikni kondensatsiyasi.

2. Tuproq namligini jamg'armasi, hamda tuproqning pastki qatlamlaridan yuqoriga ko'tariladigan namlik.

Bundan tashqari, belgilangan hosilni olish maqsadida o'simliklarni suvga bo'lgan talabini kamaytirish quyidagicha olib borilishi lozim. Birinchidan, tuproq unum dorligi, agrotexnika va havo namligini oshirish orqali (mikroiqlim hosil qilish orqali) o'simliklarni suvga bo'lgan talabini Ye uni hosil birligiga qarab kamaytirish mumkin. Ikkinchidan, tabiiy namlikdan (atmosfera yog'in-sochinidan) foydalanish, bahorga oqim, va tuproq namligini jamg'armasi. Uchinchidan, har tarallama tuproq namligini parlanishdan saqlash.

Buning uchun muhitni har tomonlama o'rgangan holda o'simliklarni yaxshi rivojlanishiga e'tiborni qaratish kerak, bu esa o'z o'mida tuproq strukturasini hosil qilish va uni ushlab turish, unum dorlik, almashlab ekish, tarqatuvchi yoki bo'luvchi kanallar qurish, ekin ekilgan maydonlar atrofida daraxtlar ekish tuproqni shamol eroziyasidan asrash, havo namligini oshirish, to'g'ri agrotexnika, yerlarni chuqur haydash, o'z vaqtida kultivatsiya va nihoyat o'g'ilardan to'g'ri, oqilona foydalangan holda biz sug'orish talablarini to'g'ri yo'lga qo'ygan bo'lamiz.

## SUG'ORISH MELIORATSIYASINING TURLARI

Qishloq xo'jalikning talablariga binoan, sug'oriladigan yerlarning oqib keladigan suvlarining tarkibiga, tuproq, va iqlimi sharoitga qarab, sug'orish melioratsiyasining quyidagi turlari mavjud:

1. Doimiy sug'orish – bu o'z o'mida:

a) o'z oqimi bilan dala maydoniga keladigan suv;

b) mexanik ravishda suvlarni daryolardan, suv omborlaridan yoki grunt va chiqindi suvlaridan ko‘tarib borishda (bunday sug‘orish ko‘pincha «to‘g‘ri» sug‘orish ham deyiladi) bo‘linadi.

2. Vaqtinchalik sug‘orish – bu o‘z o‘rnida:

a) bostirib sug‘orish (kanal yoki daryolar orqali fasllarga qarab);

b) limanol sug‘orish – bahorgi suvlarni dambalar orqali bir joyga yig‘ib sug‘orish uchun noqulay (notekis) yerlar bir marta sug‘oriladi.

3. Suv omborlari qurish hisobiga yoki kanallar orqali qishloq xo‘jalik suvlarini ishlanishi. Bu usul suv yetishmaydigan yerlarda kichik-kichik maydonlarni sug‘orishda qo‘llaniladi.

Tuproqlarni namlash yoki o‘simliklarni sug‘oriladigan maydonlarda suv bilan qondirish quyidagi yo‘llar bilan bajariladi:

1. Tuproq yuzasida suvning taqsimlanishi bilan (bu usulning ustunlik qiladigan xossasi).

2. Tomchilatib sug‘orish. Bunda maxsus sug‘orish mashinalari yordamida suv yomg‘irga aylantirilib sepiladi, tuproq yuza qismi hamda o‘simlik par suv tomchilarini bilan namlanadi.

3. Tuproq ostidan sug‘orish – bu usul maxsus quvurlar yordamida tuproqning ostki qismiga yotqizilib, kapillyar ko‘tarilishi orqali o‘simliklarning ildizlari namlanadi.

Yuqoridagi sug‘orish turlaridan tashqari yana maxsus sug‘orish usuli mavjud, bu: o‘g‘itli sug‘orish bo‘lib, bu usulda o‘simliklar suvda erigan ozuqa moddalar bilan ham oziqlanadi, ya’ni loyqali suv berish turiga ham kiradi. Bu turdag‘i sug‘orish ko‘pincha shaharlar chetida joylashgan zonalarni oqava suvlaridan foydalanish vaqtida ham qo‘llaniladi.

4. Zararkunanda va har xil kasalliklarga qarshi kurashgan holda sug‘orish, ya’ni dezinfektsiyalab sug‘orish ham deyiladi. Bu usulda tuproqdagi zararkunandalarni yo‘q qilish uchun ko‘pincha sug‘oriladigan suv bir oz isitiladi ham.

5. Isitilib sug‘orish. Sovuq o‘lkalarda tuproqni isitish va vegetatsiya davrini qisqartirish maqsadida ekin maydonlariga beriladigan maxsus isitgichlarda isitilib, keyin dala maydonlariga yuboriladi.

## O'SIMLIK VA HOSILNI RIVOJLANISHIDA SUG'ORISHNING TASHQI MUHITGA TA'SIRI

O'simliklarning me'yorida rivojlanishi uchun sug'orish ishlari ning ta'siri quyidagicha bo'lishi mumkin. Birinchidan, o'simliklar uchun kerakli ozuqa elementlarini va namlikni yetkazib berish. Ikkinchidan, mikroiqlimga ta'sir qilish yo'li bilan tuproqlarda biologik va fizik-ximik (protsesslarni) jarayonlarni tezlashtirish va nihoyat tuproq temperaturasini oshirishdir. Bundan chiqadigan xulosa shuki, o'simliklarni me'yorida o'sishi va yuqori hosil olish shu o'simliklarga bir vaqtning o'zida hamma fazalari uchun kerakli bo'lgan namlik, ozuqa elementlari, issiqlik, yorug'lik va havoni yetkazib berish shartdir. Shuning uchun qishloq xo'jaligida hosil olish faqat suv berish bilan belgilanmay, balki shu o'simlik uchun kerakli bo'lgan hamma sharoitlarni hisobga olib yetkazib berishdir. Misol uchun, agarda o'simliklardan yuqori hosil olish uchun faqat suv bilan ta'min etilsa, oldiniga o'simlik yaxshi o'sadi va keyinchalik esa o'zini tanasini va hosilni yaratish uchun kerakli bo'lgan elementlarni yetishmayotganligini sezadi va hosildorlik pasayib ketadi. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi uchun eng xavflisi tuproqni buzilishiga olib keladi. Bunda grunt suvlarining ko'tarilishi, yerlearning sho'rlanishi yoki botqoqlanishi mumkin. Bundan tashqari, sug'orish suvlari ta'sirida kesakchali tuproq struktura maydalanishi mumkin, diametri 2,5 mm bo'lgan kesakchalar eritmalarda 1 mm cha maydalanadi va tuproq kolloidlari kuchsizlanib, yopishqoqligi kamayadi, bu xodisa ko'proq tuproqlarning ustki qatlamlaridan ketib, yupqa havo o'tkaziladigan qatlamda hosil bo'ladi, bu esa o'z-o'zidan tuproqlarning havo tartibotiga salbiy ta'sir qiladi.

Sug'orish suvlari o'zlarini bilan sug'oriladigan maydonlarga har xil suvda eriydigan elementlarni olib keladi, bular orasida o'simliklar uchun kerak bo'lgan moddalar ham bo'ladi. Bundan tashqari, suv o'zi bilan suvda yomon eriydigan ozuqa moddalarini olib keladi. Bu esa o'z o'zidan tuproqlarni eng xarakterli bo'lgan belgisi unumdorligini tashkil qiladi.

Yana sug'orish ishlari olib borish davrida tuproqning nam-

ligini oshirish mikroorganizmlarga kuchli ta'sir ko'rsatadi. M.M.Kononova va boshqa olimlarning ko'rsatishicha, tuproq 60% dala nam sig'imiga ega bo'lgan tuproqlarda nitrofikatsiya protsessi yaxshi kechadi.

Agarda namlik 60% dan ortsa yoki kamaysa tuproqlarda nitrofikatsiya protsessi yomonlashadi yoki to'xtaydi. Shuning uchun quruq o'lkali sug'oriladigan maydonlarda bu jarayon erta bahorda va kuzda kechib, yoz oylarida butunlay to'xtaydi, lekin sug'orilib dehqonchilik qilinadigan yerlarda nitrofikatsiya jarayoni butun vegetatsiya davrida davom etishi mumkin.

Shunday qilib, sug'orish orqali tuproqlarning unumdorligi oshib, shu maydonlarda mikroiqlim hosil qiladi, bu jarayon issiq-quruq o'lkali hududlarda tuproqlarning ximik-fizik, issiqlik-biologik xossalarni yaxshilab, hosildorlikni ortishiga imkon yaratadi. Bu imkoniyatlar shu paytda ro'yobga chiqishi mumkinki, qachonki biz sug'orish ishlarini to'g'ri, oqilona, yuqori agrotexnikaga tayangan holda, suv tartibotiga katta e'tibor berib, uning vaqtini, suv berish normasini va shu maydonda yetishtiriladigan o'simliklarni suvga bo'lgan talabini aniq bilib va boshqa omillarni hisobga olgan holda olib borsak, biz oldimizga qo'ygan maqsadga erishib, kelgusida ko'zda tutilgan hosilni olib, ustiga ustak tuproq, unumdorligini oshirishga erishgan bo'lamiz.

## **SUV SIFATI, SUG'ORISH SUVLARINING SIFATI VA ULARNI ANIQLASH USULLARI**

Sug'oriladigan suvlar o'zlarining hosil bo'lish manbaiga qarab, o'zları bilan mayda zarrachalar, loyqalar va erigan tuzlarni olib keлади. Sizot suvlari tarkibida esa zarrachalar va loyqalar bo'lmaydi, lekin u minerallarga boy bo'ladi.

Daryo suvlari mineralizatsiyasi jihatidan sizot suvlardan uncha farq qilmasada, u juda ko'p miqdorda har xil zarralari borligi bilan farq qiladi. Suv havzalaridagi suvlar esa o'rta suvlar hisoblanadi.

Sug'orish suvlaring tarkibi tuproqlarda ketadigan juda ko'p jarayonlarga ta'sir qiladi. Agar suvlarning tarkibida ko'p miqdorda loyqalar va boshqa keltirmalar bo'lsa, unda tuproqlar tarkibi-

da namlik jamg' armasining ko'payishi bilan ozuqa elementlari ham ortib, tuproqlarning unumdorligi ko'payadi. Agarda suvlar minerallashgan bo'lса, unda tuproqlarning buzilishiga olib keladi, natijada noqulay sharoitlar vujudga kelib, oshiqcha maxsus tadbirlar qo'llashga to'g'ri keladi.

Daryo suvlarida oqib keladigan zarralar hamma vaqt bir xilda bo'lmay, davrga qarab o'zgarib turadi. 1) Tuproqqa oqib keladigan suvning xarakteri va qaysi joydan oqib kelishi. 2) Daryo suvlarining yil fasllarida sarflanishi. 3) Oqib keladigan suvlarning oqish tezligiga bog'liq. Shunga qarab, sug'orish suvlarining tarkibida 20–30 mingdan tortib 80 ming, hatto o'z og'irligiga nisbatan 11 mln. zarracha bo'lishi mumkin.

Ko'pchilik avtorlar daryo suvlarida oqib keladigan zarralarni quyidagi formula asosida hisoblashadi.

$$d = A \cdot L$$

bunda:  $d$  – o'rtacha yillik loyqalanish oqimi;

$A$  – daryo suvlari va tuproq o'rtasidagi koeffitsient;

$L$  – daryolarning o'rtacha gidravlik og'ishi.

Bunda  $d$  – (loyqalanish) suvning og'irligiga nisbatan olinsa, unda  $A$  teng bo'ladi: 1 dan to 9, agarda oqadigan suvlar tog'lik hududlarda bo'lса, unda tog' jinslarining yuvilish darajasiga nisbatan  $A$  teng bo'ladi: 8–12.

Agar loyqalanish ( $d$ )  $1\text{ m}^3$  suvda kilogrammda ifodalansa, unda  $d = 1000 \cdot A \cdot L \text{ kg/m}^3$ . Daryo suvlarida olinib kelinadigan loyqalar qanchalik ko'p bo'lса, daryo suvlarining sarflanishi va oqimi tezligi shuncha ortib boradi, shuning uchun zarralar miqdori daryolarning to'lib oqadigan qismida sokin hamda kam oqadigan qismiga nisbatan ko'p bo'ladi. Misol uchun, keltirilgan jadvaldan shuni ko'rish mumkinki, Markaziy Osiyo daryolarida va Volga daryosida loyqalanish darajasi uning hajmiga nisbatan  $1\text{ m}^3$  suvda bog'liqligi hisoblangan.

Agarda daryolarda suvning sarflanishi  $Q \text{ m}^3/\text{sek}$  ni tashkil qilsa, loyqalarning miqdori  $d \text{ kg/m}^3$  ga teng bo'ladi, unda daryolar olib keladigan loyqalarning (keltirmalarni) sarflanishi  $\frac{Q}{2000}$  dan toki

$\frac{Q}{250}$  m<sup>3</sup>/sek bo'ladi, umuman olib keladigan ho'l loyqalar daryolar dan 2000 dan 250 kg/m<sup>3</sup> ga teng bo'lishi mumkin. Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, daryo suvlari o'zlar bilan juda katta miqdorda har xil zarralarni olib keladi. Bu zarralar (loyqalar) o'z o'mida sug'oriladigan yerlar uchun juda katta ahamiyatga ega, chunki bu zarralar tarkibida ko'p miqdorda ozuqa elementlari bo'ladi. Lekin shuni ham aytib o'tish kerakki, daryo suvlari oqizib keladigan loyqalarning hammasi ham tuproqlar uchun katta ahamiyat kasb etavermaydi. Masalan, diametri 10 mm dan katta zarralar kanallarda tez ushlanib qoladi, diametri 10 dan 0,005 mm bo'lganlari tuproqning fizik xossalarni yaxshilashi mumkin, lekin bularning tarkibida ozuqa elementlari ham bo'ladi, tuproq unumdorligi uchun juda ham ahamiyatli, lekin shuni esdan chiqarmaslik kerakki, bu kattalikdagi zarrachalar miqdori nihoyatda ko'payib ketsa, tuproqlarni fizik xossalari yomonlashib, suv o'tkazuvchaliqi pasayadi, bu esa o'z-o'zidan tuproq aeratsiyasini yomonlashtiradi, shuning uchun sug'oriladigan tuproqlarga o'z vaqtida ishlov berish, uni har xil zararli hodisalardan saqlash lozim.

9-jadval

Daryolar	To'lib oqadigan qismida, g/l	Sekin tarqalib oqadigan qismida, g/l
Amudaryo (Chordju) Sirdaryo (quyi qismida) Volga (Zaporozje punkti)	5,0 1,4 0,2 – 0,5	0,40 0,27 0,01 – 0,05

Daryo suvlarida oqib keladigan zarralarning mexanik tarkibi davrlarida bir xilda bo'lmasdan o'zgarib turadi. Masalan, diametri 0,1–1,0 mm bo'lган zarralar Amudaryoda 9 dan 91%, Sirdaryoda 12 dan 86%, Volgada 10 dan 91%, Kura daryosida 30 dan 71%, Araks daryosida 44 dan 56% katta-kichik zarrachalar bo'lishi aniqlangan.

Agar bu daryo suvlarining kimyoviy tarkibini ko'radigan bo'lsak, asosan tarkibi bo'yicha loyqaga yaqin bo'lib, kremnezyom, glinozyom organik moddalar va Ca, Mg, K, Na tuzlarini o'z tarkibida saqlagan bo'ladi. Bu birikmalar sug'oriladigan yerkarda olib kelingandan keyin o'simliklar uchun zarur bo'lgan ozuqa moddalari bilan tuproqni boyitadi.

Grunt suvlarida esa bu ko'rsatkichlar bo'lmay, ular o'zlarining birinchidan, tarkibida hech qanday loylarning yo'qligi, ikkinchidan, kuchli minerallashganligi va o'zining tarkibida o'simliklar uchun zaharli tuzlarni ushlaganligi sababli sug'orishga yaroqsiz deb hisoblanadi.

Grunt suvlarining mineralizatsiyasi uning chuqurligi, hamda iqlimi sharoitiga bog'langanligi tufayli (asosan 2,5 dan 3,5 m gacha bo'lsa), agarda sekin oqim bo'lsa, sizot suvlarining mineralizatsiyasi uncha kuchli bo'lmaydi. Shunga binoan, sizot suvlarining sho'rланish darajasi 1 g/l dan toki 120–150 g/l gacha va undan ortiq, bo'lmasligi mumkin.

O'simlik va tuproqlar uchun mumkin bo'lgan suvda yengil erituvchi tuzlar me'yori 0,10 dan 0,15 g/l ni (1 dan 1,5 g/l) tashkil qilishi mumkin, lekin shu narsaga katta e'tibor berish kerakki, agarda suvda yengil erituvchi tuzlar 1 g/l ni tashkil qilsa, har 1000 m<sup>3</sup> suvda ming kg gacha tuz tuproqlarda to'planishi mumkin. Agarda tuzlarning miqdori 0,15 dan 0,3 (3 g/l) g/l gacha bo'lsa, unda darhol tuproq va suvni kimyoviy tahlil qilib, o'simliklar uchun zaharli bo'lgan tuzlarni umumiy miqdorini aniqlash zarur bo'ladi, chunki har xil tuzlarning o'simlik va tuproqqa ta'siri tuproq xarakteriga ham bog'liq. Masalan, suvni o'zidan yaxshi o'tkazadigan tuproqlar uchun mumkin bo'lgan tuzlar miqdori quyidagicha: Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub> 0,1, NaCl 0,2 g/l, Na<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> 0,4 g/l.

Agar yuqorida tekshirilgan tuzlar tuproqlarda bir vaqtida uchrasha, bu sonlar albatta kamayadi. Yana bir narsaga e'tibor berish kerakki, sug'oriladigai suvlar tarkibida xlorli yoki sulfatli tuzlar mavjud bo'lsa (NaCl yoki Na<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>), bu suvlarni yengil va tez so'rilaqdan tuproqlarda va sho'rланishni oldini olish tadbirlarini qo'llash orqali ishlatish mumkin. Agar sug'oriladigan suvda Na

kationi mavjud bo‘lib, Ca kationi bo‘lmasa, bu suvlarni qishloq xo‘jaligida qo‘llash tavsiya qilinmaydi, chunki bu tuproqlarni sho‘rlanishiga olib keladi.

**Suv-sifati parametrlari.** Suv sifatini daryodan aniqlash qaysi turdag'i testdan foydalanishga asoslangan. Suv sifatini aniqlashning bir necha turlari bor. Ular orasida fizik va kimyoviy parametrлarning farqlari bor. Kimyoviy parametrlar kimyoviy usullarni konsentrasiyasini aniqlashga asoslangan. Fizik parametrlar suv namunasi bilan biror miqdordagi moddani aniqlashga asoslangan.

**Suv sifatini aniqlash.** Suvning sifatini aniqlash texnikasi turli xildagi uskunalar va talabdag'i aniqlash o‘lchoviga bog‘liq. Suvni yuqori aniqlik namuna o‘lchovlari laboratoriya qayta yuboriladi, lekin har doim ham bajarilmaydi.

**Namuna olish metodologiyasi.** Suv namunasini olishning maxsus shakli yo‘q, buning eng yaxshi yo‘li turli aniqlashlarda si-novga olish hisoblanadi. Keyin statistik tahlillar olib boriladi.

**Gravimetrik usullar.** Gravimetrik usul bug‘lanish, filtrlanish yoki yomg‘ir yog‘ishi orqali namunalarni og‘irligini aniqlashga asoslangan. Laboratoriya sharoitida muvozanat og‘irliklarni aniqlash va uni quritish ishlari olib boriladi. Gravimetrik usullarga misol tariqasida umumiy erigan moddalarni aniqlashni keltirishimiz mumkin. Suv  $0.45\text{ m}^3$  hajmli suv filtrlovchi qog‘ozga filrtlanadi. Suv namunasi  $105^\circ\text{C}$  da quritiladi va umumiy erigan moddalar miqdori aniqlanadi.

**Hajmiy usul.** Hajmiy aniqlash ajratilgan moddalar konsentrasiyasini titrlash texnikasi orqali topishga asoslangan. Bu kimyoviy reaksiyaga uchraydigan modda reagentining hajmini aniqlashni talab etadi. Bu ham boshqa laboratoriya ishlari kabi pipetkalar va burchatkaldan foydalanish orqali hajmiy aniqlanadi. Hajmiy usulga misol sifatida xlorid va erigan kislородни keltirishimiz mumkin (Vinkler metodidan foydalangan holda).

**Kolorimetriya tahlili.** Kolorimetriya tahlili reagentlarni rangiga bog‘liq. Bu rang uzunligi aniqlovchi ionning proporsional miqdorini aniqlashga mo‘ljallangan. Ranglarni uzunligi to‘rt tex-

nika asosida baholanadi: quvurlarni taqqoslash, disk rangi, kolorimetr yoki spektrofotometr.

Quvurlarni taqqoslash standart qaysi reagent qo'shilishiga qarab ion eritma orqali tayyorlanadi. Standart eritma chegarasiga qarab rangli uzunligi suvdagi konsentratsiyani topiladi. Standart yechimlarga qayta tayyorlanish kerakligi uchun vaqt ko'p sarflanadi, ya'ni standart eritmalar nitayyorlash rangli disklar esa standart eritmaga o'xshash bo'ladi, faqat standartlar plastik filtr yoki rangli shishadan shakllanadi. Rangli namunalar rangli disklarni mos konsentratsiyasini taqqoslashda ishlataladi. Shuning uchun ham standart eritmada ko'ra rangligini ishlatgan ma'quldir.

Kolorimetrik subyektiv elementni baholashda olinadi. Boshqa foto elektr hujayralari devoridan yorug'lik chiqishi bilan aniqlanadi. To'qroq eritmalar dan esa kam nur o'tadi. Shuning uchun ishning oxirida standart eritma bilan taqqoslanadi.

Spektrofotometr kolorimetrik baholashning murakkab shakli hisoblanadi. Namuna (yoki tayyorlangan eritma) ma'lum bir to'lqin uzunligini oq nur shaklida uzatishga asoslangan bo'ladi. To'lqin uzunligi reagentning rangi hosilasiga bog'liq bo'ladi. Laboratoriya yoki dala sharoitida ko'plab tahlillarni bajarish va aniqlashda spektrofotometrdan ko'proq foydalilaniladi. Masalan, nitrat, nitrit, ammoniy va fosfatli elementlarni aniqlashda.

**Ion-tanlash elektrodlar.** Ion-tanlash deb elektrodlar eritmada ionlarni aniqlash va ikki reaktiv modda orasidagi potensial elektrodlarni aniqlashga asoslangan. Ion-tanlash elektrodlar yordamida erigan kislорodni, ammoniy, nitrat, kalsiy, xlorid va boshqalarni aniqlash mumkin.

**Spektra texnikalari.** Ionlar elektr yoki olov orqali o'tganida ular farqlovchi ranglarni hosil qiladi. Masalan, natriy sariq rangni hosil qilgani uchun natriyli lampalar mashinalarga va ko'cha chiroqlariga qo'yiladi. Spektral tahlillar texnikalari ionlar olovda aniqlaydi va standart ionlardan farqini topadi. Bularning ichida eng ko'p qo'llaniladigani atom absorbsiya spektrofotometri metal ionlarda qo'llaniladi<sup>3</sup>.

<sup>3</sup> Tim Davie. Fundamentals of hydrology, London and New York. 2008.

## SUG'ORISH NORMASI

Tabiiy sharoitda o'simliklarni suv bilan qoniqishi atmosferadan tushadigan yog'in-sochin, tuproq namligi hamda tuproq kapillyarlaridan ko'tariladigan sizot suvlari orqali ta'minlanishi mumkin. Lekin namgarchilik yetishmaydigan rayonlarda o'simliklarni suv bilan ta'minlash faqat sug'orish ishlari bilan amalga oshiriladi.

Sug'orish normasi (M) deb belgilangan hosilni olish maqsadida yerlarga beriladigan umumiy suv miqdoriga aytildi.

Bu quyidagi formula bilan ifodalanishi mumkin.

$$M = \epsilon \pm \Delta w + w_{ss}$$

Bunda M – sug'orish normasi;

$\epsilon$  – suvgaga bo'lgan talab (bu o'simlik va tuproqni to'la namlash uchun kerakli bo'lgan suv miqdori bo'lishi mumkin);

R – atmosfera yog'in-sochinining miqdori, faqat vegetatsiya davri uchun;

$\Delta w$  – tuproq qatlamlaridagi sarflanadigan namlik jamgarmasi;

$w_{ss}$  – sizot suvlardan keladigan namlik miqdori (hamma ko'rsatkichlar m/ga hisobida bo'ladi);

$\pm \Delta w$  – vegetatsiya davrining boshi va oxiridagi namlik jamg'armasining farqi.

Sizot suvlardan ( $w_{ss}$ ) keladigan namlik esa uning chuqurligiga, tuproqning fizik xossalariiga, iqlimiyligi sharoitga va o'simliklarni o'sishi sharoiti hamda ildizlarni rivojlanishi darajasiga qarab o'zgarib boradi. Agar sizot suvlari 2–2,5 m chuqurlikda joylashgan bo'lsa, unda tuproq suv tartibotiga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatib, undan o'simliklar ildizlari orqali bir qism namlikni o'zlashtirishlari mumkin, agar sizot suvlari 3 m dan pastda bo'lsa, tuproqning yuqori qatlamlariga namlik yetib kelmasligi mumkin va uning miqdori tajriba jihatdan hisoblanmasa ham bo'ladi.

Sug'orish normasini hisoblashda atmosferadan keladigan yog'in-sochin miqdori o'rtacha 5 mm dan oshgandan so'ng hisobga olinadi.

Issiqlik va quruq iqlimli rayonlarda sug'orish normasi o'simlikning mavsumiy rivojlanish fazalariga qarab, sug'orish soni va sug'orish normasi sifatida taqsimlanadi. Mavsumiy sug'orish

me'yori eca o'simliklarning rivojlanish fazalariga va har bir gidromodul rayondagi sug'orish sxemasiga qarab taqsimlanadi. Har bir gidromodul rayonda esa har qaysi ekin xili uchun alohida-alohida sug'orish sxemasi tuziladi.

Masalan, g'o'za o'simligi uchun sug'orish sxemasi 2-4-1 shaklida bo'lsa, shu gidromodul rayonda g'o'za mavsumda 7 marta sug'oriladi. Agar sug'orish sxemasi 2-3-1 shaklida bo'lsa, mavsumda go'za 6 marotaba sug'oriladi. Keltirilgan sxemaning birinchi raqami gullahgacha, ikkinchi raqami – gullah davridagi va uchinchi rakammi yetilish davridagi sug'orish sonini bildiradi.


Keltirilgan sxemadan mavsumiy sug'orish normasini g'o'zanining rivojlanish fazalariga qarab, quyidagicha taqsimlash mumkin: gullahga 15–20%, gullah davrvda 60–70% va yetilish davrida 15–20% suv berilishi lozim.

Bundan tashqari, eng yaxshi (optimal) sug'orish normasini belgilash uchun birinchidan, sug'orish natijasida tuproq qatlaming qanday chuqurlikkacha namlanishi, ikkinchidan, sug'oriladigan tuproq qatlaming nam sig'imi, uchinchidan, tuproq qatlaming sug'orishdan oldingi namligi, to'rtinchidan, sug'orish usuli aniq, bo'lgan bo'lishi kerak.

### III BOB SUV RESURSLARI SUVNING MUHIMLIGI, GIDROLOGIK SIKL


Suv yer yuzida ko‘p uchrab turadigan modda bo‘lib, planeta-mizning 70 % qismi okeanlardan iborat. Suv yerning iqlim o‘zgaø rishiga bog‘liq ravishda uch shaklning (gaz, suyuqlik va qattiq) hammasida kam miqdorda uchraydi. Shu uch Suv uch shakldagi yerning iqlimini tashkil qiladi va hayot shakllarini namoyish etadi: *suv iqlim melioratori* bo‘lib, energiya orqali adsorbsiyalanadi hamda turli fazalar orasida transformatsiya davomida amalga oshiriladi. Yer shari atrofida energiya transformasiyasi uchun gaz, suyuq, qattiq fazalar orasida suv muhim hisoblanadi: Ekvator hududlari dan qutblar tomonga energiya harakatlanadi. Kam miqdordagi suv transport vositalarining harakatlanishi uchun vosita bo‘ladi. Ular daryo va kanallar orqali xalqaro miqyosida harakatlanadi. Bu xususiyatlar suvning *fizik xossalari*dek tasvirlanadi va yer yuzasida ular inson uchun kritik nuqta hisoblanadi. Suvning *kimyoviy xossasi* bizning ehtiyojlarimiz uchun birdek muhim hisoblanadi. Yer yuzasida suv eng yaxshi tabiiy eritgich bo‘lib, tozalash uchun ham muhimdir, shuningdek, suvdan tuproqni yuvishda hamda ifloslantiruvchilardan halos bo‘lishda ham foydalanamiz. Suvning erituvchilik xossalari tuproqdan o‘simgliklarga muhim ozuqa moddalarini olishda ishtirok etadi, hamda bular o‘simglik strukturasida ozuqa moddalarini harakatlantiradi. O‘simglikka yaroqli suv, gazlarga parchalanadi. Bu gazlar ko‘llar, daryolar va okeanlardagi kislород hayot faoliyatni tashkil qiladi. Inson tanasining 60 % ni suv tashkil qiladi. Suvning ko‘p qismi hujayralarda bo‘ladi, lekin sezilarli miqdordagi qismi (taxminan 34 foizi) erigan kimyoviy moddalar bilan birga tanada harakatlanadi (Ross and Wilson, 1981). Bizning tanamiz ovqatsiz haftalar davomida yashay oladi lekin suvsiz 1 haftagini yashay oladi. Suvning muhimligi haqida juda ko‘p faktlar bor. Shuning uchun ham uni obi hayot deydilar va tanamizning fiziologik xususiyatlarida, aqliy harakatlarnizda ishtirok etadi.

Ko'chilik fanlarda keltirilganidek, suv xususiyatlarini o'rganishdan oldin uning xossalari e'tibor berish kerak. Suv yer yuzida eng ko'p tarqalgan moddadir. Suv molekulalari ikkita vadorod atomlarining yakka kislorod atomlariga bog'lanishidan hosil bo'lган (6-rasm). Bu bog'liqlik kovelent bog'lanishdir: har bir atomlardagi elektron qismi turg'un juftlik hosil qiladi. Bu molekulalar bilan bog'langan eng mustahkam bog'lardir. Shuning uchun ham suv molekulalari mustahkam birikmani tashkil qilgan (suv osonlikcha kislorod va vodorodga bo'linmaydi). Suvning mustahkamlik xossasi atmosferamizda suv molekula sifatida turishini bildiradi. Chunki suv molekulalarining vodorod va kislorodga ajralish uchun atmosferada yetarli kuch yo'q. 6-rasm vodorod ionlari kislorod bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lanmaganligini ko'rsatadi.



6-rasm. Suv molekulasining atom strukturasi. Kislorodda alohida elektronlar juftligi kichik chiziqda ko'rsatilgan

Vodorod ionlari  $105^\circ$  da burchak hosil qiladi. Vodorod ionlari musbat zaryadga ega va ion holatda bo'ladi. Ionlar tezda manfiy zaryadlangan ionlarni o'ziga biriktirib oladi. Bu esa molekulyar bog'liqlikni hosil qiladi (6-rasm). Suv molekulalari *ikkiqutbli* bo'ladi, ya'ni molekulada manfiy va musbat zaryadlangan ionlari mavjud bo'ladi. Suv molekulalari orasidagi bog'liqlik: suv bog'liklidir. Musbat zaryadlangan molekula manfiy zaryadlangan molekulaga hujum qiladi (7-rasm). Kuchsiz bog'langan birikmalar kam kuch ta'sirida parchalanib ketadi.



7-rasm. Suv molekulasining vodorod bog'lar bilan qayta joylashishi.  
*(Vodorod va suv atomlari orasidagi kuchli kovalent bog'lar o'zgarmas qatorlarda ko'rsatilgan).*

*Manba:* McDonald va Kaydan (1988) Redrawn va Rusell (1976)

### Gidrologik sikl

Gidrologiyani o'rGANISHNING boshlang'ich nuqtasi sifatida gidrologik silk o'rGANILADI. Suv konseptial modul sifatida qattiq, suyuq va gaz holatda Yer va atmosferada harakatlanadi.

**Global hidrologik sikl.** 10-jadvalda yer yuzasidagi jami suvni umumiy miqdori taqsimlanganligini ko'rish mumkin. Bu raqamlar taxminiy qarashlarga asoslanmagan.

10-jadval


### Yer yuzasida ushlab turilayotgan taxminiy suv hajmi

	Hajm ( $\times 10^3 \text{ km}^3$ )	Jami (foizda)
Okean va dengizlar	1,338,000	96.54
Muzliklar va aysberglar	24,064	1.74
Yer osti suvlari	23,400	1.69
Qirov	300	0.22
Ko'llar	176	0.013
Tuproq	16.5	0.001
Atmosfera	12.9	0.0009

<b>Botqoq/seryog'in yerlar</b>	11.5	0.0008
<b>Daryolar</b>	2.12	0.00015
<b>Biota</b>	1.12	0.00008
<b>Jami</b>	1,385,984	100.00

*Manba:* Shiklomanov va Sokolov ma'lumotlari (1983)

Gleick (1993) keltirgan ma'lumotlar asosida suv 1.36 dan 1.45 ming million kubik kilometrdan iborat ekanligini ko'rsatadi. Bularning asosiyalari okean va daryolarda bo'ladi. Yaroqli bo'lgan 1 km chuqurlikdagi yer osti suvlarini hisoblasak, qor va muzlarni hisobga olmagan holda, unda insonga yaroqli bo'lgan umumiy suvning hajmi 0.27 foizni tashkil atadi. Bu bir kunda har bir odamga o'rtacha hisobda 146 million litr suv to'g'ri kelishini ko'rsatadi (dunyo aholisi 7 milliard deb hisoblaganda); barcha inson ehtiyojlarini qondirish uchun bu miqdor yetarli ekanligini Stumm (1986) aniqlab berdi, (8-rasm) suvning yer-atmosferada harakatlanishi tizimi va global hidrologik siklini tasvirlab berilgan.



8-rasm. Jami global hidrologik sikl.


(Tasvirlangan raqamlar suvning jami miqdorini taxminan ko'rsatadi.  
 $E$ =bug'lanish;  $P$ -yomg'ir yog'ishi;  $Q_g$ =yer osti yuvilishi;  $Q$ =yer ustti yuvilishi)

*Manba:* Shiklomanovdan qayta chizilgan (1993)

Bu siki suvni atmosferaga bug'lanishini ham o'z ichiga oladi. Ba'zi holatlarda suv suyuq (yoki qattiq) holatga qayta o'tadi va yer yuzasiga yomg'ir sifatida tushadi. Okeanlar yomg'ir yog'ishiga qaraganda ko'proq suvni bug'lanadiradi.

8-rasmda ko'rsatilishiga suvning bug'lanishi va yomg'ir yog'ishi okeanlarga bog'liq bo'ladi. Rasmda ko'rsatilgan uch qism (bug'lanish, yomg'ir yog'ishi va qiyalik) gidrologiyaning asosiy jarayonlaridir. Diagrammada berilgan global umumiyilik aks etgan, hamda yer yuzasi katta masshtabga ega bo'lishi tasvirlangan.

9-rasmda iqlimga bog'liq ravishda umumiy yog'ingarchilikni turli xil gidrologik jarayonlar o'rtaida bo'linishi aks etgan.




9-rasm. Uch turdag'i iqlim zonasida jami yomg'ir yog'ishini bug'lanishga, yer yuzasi yuvilishiga yoki yer osti suvlariga bo'lgan proporsiyasi  
Manba: UNESCO (2006)

Yer yuzasini yangi GAT texnologiyasi bilan monitor qilish orqali hozirgi kunda yuqorida keltirib o'tilgan hidrologiyaning uch jarayoni haqida ma'lumot olish mumkin.

Yuqorida keltirganimizdek, dunyo bo'ylab suv tarqalishi turli-cha bo'lib, har bir insonga yiliga to'g'ri keladigan yaroqli suv 146

million litrni tashkil etishini aytdik, lekin bu miqdordagi suvning barchasi iste'mol uchun yaroqli emas

**Gidrologik sikldagi zovurlar.** 10-rasm global hidrologik aylanishlar jarayonlari doirasida faoliyat ko'rsatish uchun suv xavzalari moslashtirish ko'rsatadi.



10-rasm. Gidrologik sikljarayoni zovurlardagi faoliyati  
( $Q_R$ =yer osti yuvilishi;  $Q$ =yer ustti yuvilishi, TF- yondan yuvilish; I=ushlab qolish; E=bug'lanish; P-yomg'ir yog'ishi;)

Rasmda muhim uch jarayon (bug'lanish, yog'in yog'ishi va qiyaliklardan suv tushishi) faoliyati mavjud bo'lib, ular ham o'z navbatida kichik ichki guruhlarga bo'linadi. Bular ochiq havza suvlarini bug'lanish (daryolar, ko'llar); tuproq bug'lanishi; o'simliklar tomonidan ushlab olinish va transpiratsiyaning aralashmasidan hosil bo'lgan.

Yog'ingarchilik qor, do'l, yomg'ir yog'ishi yoki muz qatqalog'i arashmasi bo'lishi mumkin. Yog'ingarchilik tuproq pastki qatlami-ga suv yetib borishidan oldin o'simliklar orqali ushlab qolinishi orqali qayta bug'lanish uchun yer yuzasiga chiqadi. "Yer yuvilishi" atamasi suvning yer yuzasiga harakatlanishini o'z ichiga oladi. Suvning yer ustki qatlamlariga harakatlanishida qatlamlar orasiga sizib kirishga harakat qiladi va Yer osti sizot suvlarini hosil qiladi<sup>4</sup>.

<sup>4</sup> Tim Davie. Fundamentals of hydrology, London and New York, 2008

## SUV RESURSLARI HOLATI

Markaziy Osiyoning quruq iqlim sharoitlarida suv resurslari tabiiy ekotizimlarning barqaror muvozanatini saqlash va mintaqaning aksariyat qismi ijtimoiy-iqgisodiy rivojlanishining asosiy omillaridan biri bo'lsa, chuchuk suv tanqisligi dolzarb ekologik muammolardan biri hisoblanadi. Mintaqada toza suvdan ekstensiv foydalanishi natijasida, u asta-sekinlik bilan kamayib bormoqda.

Jamiyat va tabiiy ekotizimlarning barqaror o'zaro bog'liqligini saqlab turishga yo'naltirilgan ekologik boshqarishda ichki va tashqi daryolar, ko'llar va boshqa suv ekotizimlarini ham «suv iste'molchilari» deb tan olishni taqozo etadi. Tabiat suv resurslaridan foydalanishda teng huquqli sheriklik bo'lishi lozim. Ekologik omillarsiz suv ekotizimlari o'z ahamiyatini yo'qotadi. Qarorlar qabul qiladigan shaxslar va umuman jamiyat uchun quyidagi talablar asosiy ustuvorlikka ega bo'lishi lozim:

- suv irmoqlarida ularning barqaror hayotiyligini yoki o'z-o'zini tozalash qobiliyatini ta'minlaydigan ekologik suv sarflariga rioya qilish;
- toshqin suv sarflari va daryo suvining maqbul sifatini ushlab turish;
- zararli ingredientlarni aralashtirish uchunsanitariya oqimlariga rioya qilish;
- daryolar deltalari ehtiyojlarini qondirishva boshqalar.

Suvga nisbatan ekologik talablarga rioya qilinishi, noyob endemik turlar, noyob bioxilma-xillik, noyob landshaft, o'ziga xos ijtimoiy ahamiyati va estetik xususiyatlariiga ega bo'lgan suv ekotizimlarini himoya qilishni ham nazarda tutadi. Kichik va katta daryolar nafaqat tabiiy florasi va faunasi, balki boshlang'ich jozibadorligini ham saqlab qolishi muhimdir.

Mahalliy ekotizimlarni himoya qilish uchun asosiy e'tibor quyidagi tadbirlarga qaratilishi lozim:


- faqat kollektor-drenaj suv manbalaridan to'yinadigan suv havzalari oqimini ta'minlab turish;
- baliqchilik xo'jaligi ahamiyatiga ega bo'lgan ko'llarda suv minerallashuvi darajasini 7 g/l dan yuqori bo'lmagan va suv sathini 1,5 m dan past bo'lmagan darajada saqlab turish;

- uvulduruq sochish davrida suv sathinig keskin pasayishi va qishki davrda keskin ko‘tarilishining oldini olish;
- o‘simliklar o‘sishi uchun sayoz suv zonalarini va suv havzalaring gidrobiologik tartibotini shakllantiruvchi baliq, qushlar va boshqalarni ozuqa bilan ta’minlovchi ko‘llar havzalarini saqlab qolish.

## OROL DENGIZI HAVZASI BO‘YICHA SUV RESURSLARINING TAQSIMLANISHI

Orol dengizi havzasining asosiy hidrologik xususiyati havza hududining 2 tengsiz turli hidrologik funksiyalarga ega bo‘lgan qismiga – tog‘ va tekislik hududiga ajralganligidadir.

**Amudaryo havzasi, km, kub/yil**




11-rasm. Amudaryo havzasi suv resurslarining ko‘p yillik tavsifi

Tog‘li qismi tarmoqlangan daryolar oqimidan shakllanadi, uning maydoni havza umumiy maydonining taxminan 25% ini tashkil qiladi, bunda hududning 80% Amudaryo va Sirdaryo havzalariga to‘g‘ri keladi.

Tekislik hududlari kam yog‘ingarchilikli va yog‘ingarchiliklar miqdoridan bir necha baravar ko‘p parlanish xususiyatiga ega

bo'lib, oqim shakllanishida deyarli qatnashmaydi. Bundan tashqari, tekislik hududlari tog'li qismlardan keladigan oqimlarni parlanish va filtratsiyalanishiga sarflaydi. Bu jarayon insonning xo'jalik faoliyati bilan kuchayadi. Daryo va suv omborlaridan olingan suv kanallar bo'yicha dalalarga beriladi, bu yerda parlanish va transpiratsiyaga sarflanadi hamda kam miqdorda yana qayta oqim ko'rinishida daryolarga qaytariladi. Tog'lardan tekisliklarga suv harakatining tabiiy gidrologik tsikli bo'yicha so'nggi bosqichi Orol dengizi hisoblandi.

Suv resurslari o'chami sifatida odatda daryolarning oqim shakllanish mintaqasidan chiqish joyidagi sug'orishga olinadigan asosiy suv olish nuqtalaridan yuqorida shakllanadigan daryo oqimi kattaligi qabul qilinadi, chunki Markaziy Osiyoning tekislik qismida daryo oqimi istisno tariqasida, faqatgina sersuv yillarda shakllanishi mumkin.





Sirdaryo havzasi, km. kub/yil

12-rasm. Sirdaryo havzasi suv resurslarining ko'p yillik tavsifi

Orol dengizi havzasining suv resurslaridan uning havzasida joylashgan davlatlar hamkorlikda foydalanadi, bu suv xo'jaligi muammolarining transchegaraviy tusda ekanligini bildiradi.

Amudaryo havzasi bo'yicha daryo oqimi o'rtacha ko'p yillik resurslari yiliga  $78 \text{ km}^3$ dan ortiqni tashkil qiladi, shundan 62,9% (80% dan ortig'i) Tojikistonda shakllanadi, O'zbekiston ulushiga  $4,7 \text{ km}^3$  (6%) to'g'ri keladi (13-rasmga qarang).

O'zbekistonning suv resurslari Orol dengizi havzasining umumiy suv resurslarining faqat bir qismi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida yer usti suv resurslari qo'shni davlatlar tog'li hududlaridan daryolar bo'yicha keladigan hamda uning hududida shakllanadigan suv resurslaridan vujudga keladi. Bundan tashqari daryo oqimining bir qismi kanallar bo'yicha tushadi. Ichki suv resurslariga, shuningdek, O'zbekiston hududidagi ko'llar suvlari va muzliklardagi suv zahiralari kiradi. Orol dengizi havzasida suv iste'molining asosiy hajmlarini nisbati 3-rasmda aks ettirilgan. Sirdaryo havzasi bo'yicha daryo oqimi o'rtacha ko'p yillik resurslari yiliga taxminan  $38,8 \text{ km}^3$ ni tashkil qiladi. Bunda ko'p yillik uchun o'rtacha yiliga Qirg'izistonda  $28,0 \text{ km}^3$  (72,2%), O'zbekistonda –  $5,59 \text{ km}^3$  (14,4%), Qozog'istonda –  $4,08 \text{ km}^3$  (10,5%) va Tojikistonda  $1,1 \text{ km}^3$  (0,3%) suv shakllanadi.



13-rasm. Amudaryo havzasi bo'yicha daryo oqimining ko'p yillik resurslari

## SUV RESURSLARINING SIFATI VA TRANSCHEGARAVIY TA'SIRI

Tog'li hududlardan shakllanib keladigan daryo suvlarining sifati (O'zbekiston Respublikasi hududida) juda yuqori – bu suvlar deyarli hech narsa bilan ifloslanmagan va ularning minerallashuvi juda kam. Biroq pastga harakatlangani sari suvning sifati keskin yomonlashadi. Mintaqaning aksariyat daryolariga suvning o'rtacha oqimda 1–1,5 g/l, pastki oqimda 2 g/l va undan yuqori minerallashuvi xosdir.

Respublikaning aksariyat suv irmoqlaridagi suvning sifati qabul qilingan tasniflanishiga ko'ra, o'rtalig'iy suv ifloslangan va ifloslangan suvlar toifasiga kiradi. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Farg'ona vodiysining kollektor-drenaj suvlari hamda Toshkent shahri va Toshkent viloyatining ayrim suv oqimlari kuchli ifloslangan.

O'zbekiston Respublikasining barcha asosiy suv oqimlari bo'yicha so'nggi 20 yilda suv sifati yaxshilanishi dinamikasi kuzatilmoqda.

Amudaryoning Tuyamuyun o'zanida (o'zan O'zbekistonning Turkmaniston bilan chegarasida daryoning ifloslanishi darajasini tavsiflab berishi mumkin) neft mahsulotlari, azot ammoniysi, minerallashuvi, mis, alfa GXTSG va gamma GXTSG bo'yicha kontsentratsiyasi RECHUdan yuqoridir.

Havzaning asosiy daryosi – Amudaryo suvining kimyoviy tarkibi va ifloslanishi, ko'p jihatdan, Turkmaniston va O'zbekiston hududlaridan daryoga tashlanadigan qishloq xo'jalik oqavalari ta'siri ostida shakllanadi.

Suvlarning ifloslanganlik indeksi (SII) ko'rsatkichi bo'yicha Amudaryo suvi Termiz stvorida 1996-yildan boshlab II – toza suvlar toifasi darajasida, qolgan boshqa stvorlarda III – o'rtalig'iy suv ifloslangan toifa darajasida saqlanib turibdi, ba'zi (1989, 1991, 1996, 2001 va 2002) yillarda esa II toifaga to'g'ri kelgan.

Surhandaryo daryosi suvlar qisman Tojikiston hududida shakllanadi. Daryo suvining kimyoviy tarkibi Denov, Termiz shaharlari va Sho'rchi shahar poselkasi sanoat va kommunal obyektlaridan chiqarib tashlanadigan oqava suvlar va qishloq

xo'jaligi oqavalariga bog'liq. Daryo O'zbekiston hududida Amudaryoga quyiladi. Surhandaryo suvining sifati SII ko'rsatkichi bo'yicha, daryoning boshidan quyi oqimigacha II-toza suvlari toifasidan III-o'rta me'yor ifloslangan suvlari toifasigacha o'zgaradi, bu esa suvning 1996-yildagi sifatiga to'g'ri keladi. 2000–2001-yillarda Termiz shahri o'zanida daryo suvining sifati II toifa – toza suvlari darajasiga mansub bo'lgan.

Qashqdaryo daryosi havzasida 3 mingdan ortiq suv oqimi mavjud, ulardan atigi 33 ta daryoning uzunligi 20 km dan ortiq. Qashqdaryo va uning irmoqlari deyarli to'liq sug'orishga sarflanadi. Havzaning yer usti suv resurslari  $42,4 \text{ m}^3/\text{s}$  ni tashkil qiladi. Havzada shakllanadigan suv resurslari yetmaydi va Qashqdaryo viloyatiga Qarshi magistral kanali.(QMK) bo'yicha Amudaryo va Zarafshon daryolaridan suv beriladi va Tolimarjon suv ombori orqali boshqariladi. Iste'mol qilinadigan suv miqdorining 80% suv oqimining havzalararo tashlanishiga to'g'ri keladi.

Tog'li hududlardan keladigan yer usti suvlaring sifati asosan qoniqarli. Daryolar pastki uchastkalari gidrologik tartibi xo'jalik faoliyati natijasida o'zgardi.

Qashqdaryo daryosi suvining sifati boshlanishidan pastga qarab yomonlashib boradi. Chimqo'rg'on o'zanidagi suv ifloslanganlik indeksining yillik ko'rsatkichi 1997-yildan boshlab II toifa toza suvlarga muvofiq, 2000 va 2006-yillar bundan mustasno, chunki bu yillarda suv sifati III toifa o'rtacha ifloslangan suvlarga mos bo'lgan.

Zarafshon daryosi ko'prok transchegaraviy ta'sir ostida bo'la-di. Daryo suvining shakllanish hududida daryo suvini toksik metallar, surma, simob moddalari bilan ifoslantiruvchi Tojikiston Respublikasi tog'-kon kombinati obyektlari joylashgan. 2002-yildan boshlab alohida ingredientlar (surma, simob, kadmiy, strontsiy va boshqa) ustidan monitoring tashkil qilingan. O'zbekiston hududida Samarqand, Kattaqo'rg'on, Navoiy shaharlari sanoat korxonalari va qishloq xo'jalik oqava suvlari daryoga tashlanadi.

Daryo havzasida yer usti suv oqimlariga antropogen ta'sirni pasaytirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Suv tarkibidagi zararli moddalar miqdori muntazam kamayib bormoqda. 2000-yilgacha

Rovatxo'ja postidagi Zarafshon daryosi suvining ifoslanganlik indeksi 0,63–2,07 oralig'ida va o'rtacha ifoslangan suvlarga muvofiq edi, 2000-yildan keyin suv sifatining yaxshilanishi va toza suvlar toifasiga o'tishi kuzatilmoxda. Navoiy shahridan quyida daryo suvi sifati ham suvning ifoslanganlik indeksi bo'yicha o'zgardi. IV toifadan 2001, 2002, 2003 va 2005-yillarda III toifa o'rtacha ifoslangan suvlarga, 2004-yilda esa hatto II toifa toza suvlar toifasiga yetdi.

Sirdaryo daryosi havzasi ko'plab daryolar suvlaridan hosil bo'ladi, ulardan asosiyлари Sirdaryo, Norin, Qoradaryo, Chirchiq, Oxangaron daryolari hisoblanadi.

Chirchiq va Oxangaron daryolarigina transchegaraviy suv obyekti bo'lib hisoblanmaydi. Qolgan boshqa daryolar suvlarining barchasi (Farg'ona vodiysi kichik daryolari, Chirchiq daryosiga quyiladigan irmoqlar bilan birga) qo'shni davlatlar hududlarida shakllanadi. Sirdaryo daryosi ikki qismda O'zbekiston hududidan oqib o'tadi: yuqori qismi – Norin va Qoradaryolarning qo'shilishida va o'rta oqimdagи qismi – Oxangaron va Chirchiq daryolari quyilishi oralig'ida.

Sirdaryo daryosi suvi sifati SII bo'yicha barcha stvorlarda III – o'rta me'yor ifoslangan suvlар toifasiga to'g'ri keladi. Bekobod shahridan yuqoridagi stvor bo'yicha 2000 va 2002-yillarda II – toza suvlар toifasidan, 2001,2003 va 2004-yillarda III – o'rta me'yor ifoslangan suvlар toifasiga o'tgan, Sirdaryo daryosi suvida Tojikistondan qo'shilgan suvlар tarkibidagi alfa GXTSG va gamma GXTSG O'zbekiston hududidan o'tish jarayonida kamayishi kuzatiladi.

Qoradaryo Sirdaryo daryosini hosil qiluvchilardan biri bo'lib, oxirgi uch yil davomida suv sifati O'zbekiston hududiga SII bo'yicha II- toza suvlар toifasida oqib keldi. Respublika hududida Andijon, Asaka, Xonobod shaharlari oqava suvlari tashlamalari hamda kollektor-zovur suvlari daryo suvi sifatini yomonlashtiradi va u SII III – o'rta me'yor ifoslangan suvlар toifasiga mos bo'ladi.

Farg'ona vodiysining kichik suv oqimlarining deyarli barchasi O'zbekiston hududiga SII bo'yicha II – toza suvlар toifasi sifati bilan oqib keladi va sug'orishga olinadi.

Oxangaron daryosi suvining sifati tog'lardan tushishda 1994-yildan beri P-toza suvlar toifasiga kiradi, faqat 2003-yilda o'rta me'yor ifloslangan suvlargacha yomonlashdi, Oxangaron daryosi boshlanishidagi suv ifloslanishi indeksi kuzatilgan davr mobaynida III – o'rta me'yor ifloslangan suvlar toifasi doirasida saqlandi.

Chirchiq daryosi suvining ifloslanish indeksi:

1995-yildan beri G'azalkent shahri atrofida – II – toza suvlar toifasiga, Chirchiq shahri chegarasida 1994-yilgacha – III va IV toifalarga (o'rta me'yor ifloslangan va ifloslangan suvlar), 1994-yildan keyin esa II toifaga va muayyan yillarda III toifaga, daryo etagida esa qator kuzatuvlar davomida – III toifaga xos bo'lган.

Yirik sanoat korxonalarini joylashgan yerlarda oqim suvi sifatining lokal yomonlashuvi kuzatiladi. 1988-yilda Toshkent va Farg'ona sanoat tumanlaridagi yer osti suvlarini eng ifloslangan hisoblanardi.

Ko'p yillar davomida Toshkent viloyatida Chirchiq daryosi o'rtacha oqimida suv olinishida yer osti suvlarini ifloslanishining yuqori darajasi qayd qilingan (3–6,3 RECHU). «Elektrkimyosanoat» ICHB, O'zbekiston qiyin eriydigan issiqqa chidamli metallar kombinati (O'QEICHMK), noruda materiallari karerlari va boshqalar ifloslanish obyektlari bo'lган.

Oxangaron daryosi havzasida yer osti suvlarini minerallashuvi (1,2–1,6 RECHU), qattiqligi (1,2–1,7 RECHU), tarkibidagi kadmiy (2 RECHU) va selen (2 RECHU) miqdori bo'yicha belgilangan salbiy ta'sir chegarasidan ortishi kuzatilgan.

Farg'ona viloyati Toshloq tumanida sizot suvlarini usti 3 mm gacha qalinlikda neft qatlami bilan qoplangan, neft mahsulotlari tarqalishi maydoni qariyb  $10 \text{ km}^2$  ni tashkil qilgan, bu ichimlik va texnik suv bilan ta'minlash quduqlariga jiddiy xavf soldi, ularning bir qismi hatto ishdan ham chiqqan. Yangi Qo'qon kimyo zavodi, Farg'ona furan birikmalari kimyo zavodi joylashgan yerlarda ham yer osti suvlarining ifloslanishi kuzatilgan.

Zarafshon daryosi vodiysida yer osti suvlarini ifloslanishi minerallashuvi, umumiy qattiqligi, sulfatlar bo'yicha 10 dan 100 baravargacha ortgan.

«Gidroingeo instituti» DK ning 2006-yil oxiridagi kuzatuvlari ma'lumotlariga qaraganda, Qoraqalpog'iston Respublikasida chuchuk yer osti suvlari ( $1 \text{ g/l}$  gacha) umuman qurib qoldi. Qoraqalpog'istonning butun hududi bo'yicha ichimlik suvi minerallashuvi, umumiyligini qattiqligi, sulfatlar va xloridlar bo'yicha sifati yomonlashishi qayd qilinmoqda.

Yer osti suvlaring ifoslanishi Past Amudaryo (O'ng sohili) va Qoraqalpog'iston Past Amudaryo (chap sohili) yer osti suv manbalari bo'yicha xo'jalik-iste'mol maqsadidagi guruhli suv olish inshootlarida o'rGANildi. Bu yerda barcha joylarda minerallashuvi  $1,08\text{--}2,1 \text{ g/l}$  va umumiyligini qattiqligi  $7,6\text{--}21,5 \text{ mg-ekv/l}$  bo'lgan yer osti suvlari tarqalgan, ulardagi sulfatlar tarkibi  $510\text{--}660 \text{ mg/l}$ , xloridlar tarkibi  $358\text{--}710 \text{ mg/l}$ ni tashkil qildi.

Andijon viloyatida yer osti suvlaring ifoslanishi 6 ta yer osti suvlari hosil bo'ladigan hududlar bo'yicha o'rGANildi.

Andijon-Shahrixon yer osti suvi hosil bo'lish manbasida, asosan, uning o'rtacha va shimoli-sharqiy qismida (Andijon, Shahrixon, Asaka shaharlarida) yer osti suvlari minerallashuvi, umumiyligini qattiqligi va neft mahsulotlari tarkibi  $1\text{--}1,2 \text{ RECHU}$  oralig'ida. Manbaning janubi-sharqiy qismi Asaka adirlari bo'yab yer osti suvlari minerallashuvi, qattiqligi va sulfatlar tarkibi  $1,1\text{--}1,3 \text{ RECHUni}$  tashkil qildi.

Osh-Arvon yer osti suvi hosil bo'lish manbasi «Marhamat» uchastkasi chegarasida yer osti suvlaring minerallashuvi –  $1,2\text{--}2,5 \text{ mg/l}$  va umumiyligini qattiqligi –  $21,9\text{--}33,5 \text{ mg-ekv/l}$  bo'lib, vaziyat chuchuk yer osti suvlari nisbatan qoniqarsizligicha qolmoqda, «O'xchi» suv olinishi uchastkasi bundan mustasno. Suv hosil bo'lish manbalarining o'rtaligi (Aravansoy daryosining chiqish konusida) yer osti suvlarida minerallashuv va qattiqlik  $1,8\text{--}3,1$ ;  $12,9\text{--}33,2 \text{ mg-ekv/l}$  oralig'ida saklanmoqda.

Suv hosil bo'lish manbasining sharqiy qismidagi yer osti suvlari yaxshi sifati bilan tavsiflanadi va O'zDSt 950:2000 «Ichimlik suvi» talablariga javob beradi, minerallashuvi, umumiyligini qattiqligi va sulfatlar bo'yicha  $1,5 \text{ RECHU}$ gacha nuqtali oshishlar kuzatilgan, xolos.

Norin yer osti suv manbasida, 25 m gacha chuqurlikdagi sizot suvlari ifloslangan, ularning minerallashuvi va qattiqligi 1,5 RE-CHUgacha, shuningdek neft mahsulotlari va fenollar tarkibi yuqoriligi ta'kidlangan, biroq ekspluatatsiya gorizontlari (80–300 m) katta qumoq qatlamlari bilan himoyalangan va yer osti suvi O'2051:950:2000 «Ichimlik suvi» talablariga javob beradi.

Buxoro viloyatida yer osti suvlari minerallashuvi (1,7–3,2 g/l), umumiy qattiqligi (11,2–23,5 mg/l) va sulfatlar (625–1619 mg/l) bo'yicha O'zDSt 950:2000 ga muvofiq kelmaydi. Bu ko'rsatkichlar, asosan, Buxoro va Qorako'l manbalari (Buxoro, Shofirkon, G'ijduvon, Romitan va Jondor tumanlari) bo'yicha tarqalgan.

Jizzax viloyatida deyarli barcha tekshirilgan suv olish inshootlaridagi yer osti suvlarining qattiqligi QUER 08= 950:2000 «Ichimlik suvi»ga javob bermaydi.

Qashqadaryo viloyatida Kitob-Shahrisabz yer osti suv hosil bo'lish manbasi bo'yicha yer osti suvlari umumiy qattiqligi ortganligi kuzatildi -9–12 mg-ekv/l; O'ng sohil manbalari bo'yicha 10–12 mg-ekv/l; Chap sohil manbalari bo'yicha yer osti suvlari minerallashuvi 2,5–3 g/lni, umumiy qattiqligi 35–44 mg-ekv/l; G'arbiy Qashqadaryo bo'yicha 18–50 mg-ekv/l; Guzar – 35–40 mg-ekv/l va Langar bo'yicha 10–11 mg-ekv/l ni tashkil qildi.

Navoiy viloyatida 2006-yil uchun sug'oriladigan hududlardagi suv olish inshootlarida yer osti suvlarining sifati oshdi va faqat ba'zi suv olish uchastkalarida yomonlashuvi kuzatildi. Minerallashuvi 1–1,2 g/l va qattiqligi bo'yicha 11–12 mg-ekv/l eng kichik ko'rsatkichlar Xatirchi va Zarmiton suv olish inshootlarida, minerallashuv-1,2–1,4 g/l va qattiqlik-14–17 mg-ekv/l bo'yicha eng katta ko'rsatkichlar esa Qiziltepa suv olish inshootida kuzatildi. Sug'oriladigan zonada yer osti suvlari ifloslanishi, asosan, kollektor-drenaj suvlari hamda magistral kanallar va Zarafshon daryosiga tashlanadigan sanoat-xo'jalik oqavalari (taxminan 5–6 m/s) hisobiga ro'y beradi. Zarafshon daryosi o'rta qismidagi vaziyat yana Navoiy sanoat zonasini korxonalar (GMZ-1, «Navoiyazot» ICHB, Navoiy elektr-kimyo zavodi va boshqalar) ta'sirida yomonlashadi. Mazkur korxonalar hududlarida yer osti suvlarida sulfatlar, minerallashuvi,

umumiyligi qattiqlikning yuqori tarkibi kuzatiladi, cho'l zonasida joylashgan suv olinish uchastkalarida yer osti suvlarining sifati nisbatan yaxshi: minerallashuvi 0,7–1,2 g/l, qattiqligi 3–9 mg/l, nitratlar tarkibi 24–37 mg/l, MN<sub>4</sub> 0,7–1 mg/l. Cho'l zonalarida yer osti suvlarining ifloslanish manbalari Uchquduq tumani Shimoliy ruda boshqarmasining (GMZ-2, GMZ-3 va RU-5 ishqorli tozalash uchastkasi) sanoat oqavalari sanaladi.

Namangan viloyatida yer osti suvlari ifloslanishi faqat Olmos-Varziq yer osti suv manbasining shimoliy qismida (Shayan-Baymak chuqurligi-suv minerallashuvi 1,5 g/lgacha, umumiyligi 8,4–10,5 mg-ekv/l, chekka qismida neft mahsulotlari 1,2 RE-CHUgacha oraliqda), Kosonsoy manbasining janubiy va janubi-sharqiy qismlarida (suv minerallashuvi 1,2 g/lgacha, umumiyligi 8,9–11,5 mg-ekv/l, g'arbiy qismida neft mahsulotlari 1–2 RECHUgacha), Yaskovat-Pishkaran (Chortoq va Namangan daryosi pastlari-umumiyligi qattiqligi 7,5–14,2 mg-ekv/l), Namangan (Namangan va Chortoq shaharlari atrofida – suv minerallashuvi 1,5–2,1 g/l gacha, umumiyligi qattiqligi 9,4–25,1 mg-ekv/l) manbalarida aniqlandi.

Samarqand viloyatida Zarafshon yer osti suv manbasi bo'yicha (Oqdaryo vodiysinig markaziy-shimoliy qismi) yer osti suvlarining minerallashuvi va umumiyligi qattiqligi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar xosdir. Shimoliy tog' oldi manbasi bo'yicha yer osti suvi mi-nerallahuvi tog'dan uzoqlashgani sari ortib boradi va 1,8 g/lgacha, umumiyligi qattiqligi 9,5–13,2 mg-ekv/l gachani tashkil qiladi. G'arbiy Qashqadaryo manbalari yer osti suvlari 1,2–1,4 g/l mineralashuvga va 9,2–11 mg-ekv/l umumiyligi qattiqlikka ega, fтор tarkibi 0,8–1,19 mg/l.

Surhandaryo viloyatida sug'oriladigan maydonlardan kollektordrenaj tarmogi orqali hamda agrosanoat kompleksi ishlab chiqarish korxonalarining sanoat oqavalari va boshqa ifoslangan suvlar tashlanadigan yer usti suv oqimlari va havzalari yer osti suvlari ifloslanishining manbalari hisoblanadi.

Shimoliy Surhandaryo yer osti suv manbasi bo'yicha, asosan, alohida lokal uchastkalari markaziy va janubiy qismlarida yer osti

suvlari minerallashuvi 1,6 g/lga, umumiya qattiqligi – 18 mg-ekv/l, nitratlar – 47 mg/l, fenollar – 0,002–0,003 mg/l ga yetadi.

Janubiy Surhandaryo manbasi bo'yicha shimoliy va janubiy qismlari lokal uchastkalar bo'yicha yer osti suvlari minerallashuvi 1,4–1,8 g/l-ni, umumiy qattiqligi 15,3–25 mg-ekv/l ni tashkil qiladi.

Sherobod yer osti suvi manbasi Qr051 950:2000ga muvofiq kelmaydi, va ichimlik suv ta'minoti uchun yaroqsiz. Yer osti suvlari minerallashuvi 2,4 g/l, umumiy qattiqligi 12–16,5 mg-ekv/l, nitratlar – 47 mg/l, ammoniy – 3,12–6 mg/lga yetadi. «Yangiobod», «Sherobod», «Muzrobod» va «Angor» suv olish inshootlari bo'yicha mineralashuv 1,5–2,36 g/l, umumiy qattiqlik – 15,7–21 mg-ekv/l qayd qilingan, sulfatlar 475–663 mg/l, xloridlar 425 mg/l miqdorini tashkil qildi.

Sirdaryo viloyatida Do'stlik, Xovos yer osti suv manbasi va Yuqori plotsen manbalari g'arbiy qismi bo'yicha yer osti suvlari minerallashuvi 1,4–1,8 g/l, umumiy qattiqligi 10,8–17,5 mg-ekv/l, sulfatlar tarkibi 570–980 mg/l ni tashkil qildi.

Toshkent viloyati bo'yicha yer osti suvlari Chirchiq va Ohangaron daryolari hududlarida (Chirchiq, Toshkent, Yangiyo'l, Angren, Olmaliq shaharlarida) jamlangan sanoat obyektlari, shuningdek ikkala daryo oralig'idagi hududlarining pastki qismida joylashgan ko'p sonli agrosanoat, kommunal va boshqa obyektlar ta'sirida ifloslangandi.

Chirchiq manbasi chegarasida yer osti suvlarining neft mahsulotlari bilan ifloslanishi lokal uchastkalarda ko'rindi, ifloslanish darajasi 1,5 dan 1,7 RECHUgacha o'zgardi (Qo'yiliq, Paxtachi neft bazalari, temir yo'l uchastkalari, YoMM alohida omborlari, avtoyuwish joylari, YOQSH, Chkalov nomli Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi, TTZ, Toshmetropoliten TSAJ lariva boshqalar).

Ohangaron manbasi bo'yicha «Ko'mir» AJ qoldiq tuproqlari va chiqindilarni saqlash maydonlari joylashgan Teshik-Toshdan Qondir stvorigacha bo'lgaya uchastkada yer osti suvlari mineralashuvi 1,4 g/lga, umumiy qattiqligi 15,6 mg-elsv/l ga, sulfatlar miqdori 695 mg/lga yetadi.

Telov qishlog'idan Olmaliq shahrigacha bo'lgan uchastkada yer osti suvlari minerallashuvi 1,3–1,5 g/l-ga, umumiy qattiqligi 12,6–15 mg-ekv/lga (menej davri) yetdi, Yer osti suvlaringin neft mahsulotlari bilan ifloslanishi ko'p emas va 0,006–0,05 mg/l oralig'ida, fenollar miqdori kam (lokal uchastkalarda) uchraydi va 0,0004–0,0025 mg/lni tashkil qildi.

Pskent manbasi bo'yicha Pskent shahri hududida sizot suvlaringin minerallashuvi 1,2–1,3 g/l, umumiy qattiqligi – 12,3–18 mg-ekv/l, sulfatlar – 765 mg/l, neft mahsulotlari 0,12 mg/lni tashkil qildi. Manbaning markaziy qismida foydalanish gorizontlarida yer osti suvlari sifati yaxshi bo'lib, O'zDSt 950:2000 ga muvofiq keladi.

Ko'korol manbasi bo'yicha yer osti suvlari, asosan, 1–1,5 g/l dan 1,5–3,5 g/lgacha va undan yuqori mineralashuvga ega. Hududning uchdan bir qismiga 1 g/l gacha mineralashuv xosdir. Yer osti suvlari ifloslanishining asosiy manbasi shimoli-sharqiy qismda joylashgan OKMK birlashgan chiqindilarni saqlash maydoni hisoblanadi. Xlor va ammoniy bo'yicha ifloslanish vaqtinchalik tusga ega. Manbaning janubiy va janubi-sharqiy qismida yer osti suvlari mineralashuvi 1,6–1,8 g/l, sulfatlar – 476 mg/l, nitratlar – 15–25 mg/l. Bu yerda ifloslanish yerbargi sug'orish bilan bog'liq. Foydalanish gorizontida yer osti suvlaringin sifati O'zDSt 950:2000 muvofiq keladi.

Dalvarzin manbasi yer osti suvlari kamsho'rli, mineralashuvi 1,1–1,5 dan 3 g/l gacha, umumiy qattiqligi 10,6–21,95 mg/l. Bu yerbargi sug'orish uchun Sirdaryoning daryosining sho'rlangan suvlari ishlatalishi va Tojikiston Respublikasi hududidan sug'orish va drenaj suvlari tashlanishi bilan bog'liq.

Bekobod shahri suv olish inshootlari bo'yicha yer osti suvlari mineralashuvi 1,02–1,82 g/l, umumiy qattiqligi 11,8–19,45 mg-ekv/l, sulfatlar – 680–960 mg/lni tashkil qildi.

Farg'ona viloyati bo'yicha yer osti suvlaringin mintaqaviy va lokal ifloslanishining asosiy omili yerbargi sug'orish hisoblanadi. Isfara manbasi bo'yicha Isfara daryosining chiqish konusi boshlang'ich qismidagi asosiy foydalaniladigan suv chiqish

gorizontlari yer osti suvlari ifloslanishining chegaralarida yer osti suvlari minerallashuvi -1,2 g/l, umumiy qattiqligining – 13 mg-ekv/l eng yuqori ko'rsatkichiga ega («Yuqori» suv olish inshooti). Chiqish konusi sharqiy sektorining yuqori qismida («Ropqon» suv olish inshooti uchastkasida) yer osti suvlari minerallashuvi 1,4 g/l, umumiy qattiqligi 14 mg-ekv/l. Yuqori (50 m gacha) qatlami kesimidan tashqari manbaning qolgan maydonida O'zDSt 950:2000 «Ichimlik suvi»ga mos yer osti suvlari tarqalgan.

So'x yer osti suv manbasi chiqish konusi bo'yicha g'arbiy sektorida («Yaypan» uchastkasida) yer osti suvlari ifloslanishining asosiy omili Achchiqsuv daryosi yer usti oqimi hisoblanadi. Yer osti suvlari eng yuqori minerallashuv ko'rsatkichi 1,5–3 g/l, umumiy qattiqlik ko'rsatkichi – 20–35,4 mg-ekv/lni tashkil qiladi. So'x daryosidan chiqish konusi sharqiy sektorida (Bog'dod uchastkasi) yer osti suvlari yuqori minerallashuv (2 g/lgacha) va umumiy qattiqlik (29,45 mg-ekv/lgacha) xosdir, bu asosan chiqish konusining adir massivlari, tog' oldi tekisliklari va boshlang'ich qismlarini o'zlashtiriga va yeugorish bilan bog'liq. Ifloslanish chegarasi umumiy maydoni 252 km<sup>2</sup>, manbalarning qolgan barcha maydonida foydalanish suv olish gorizontlarining yer osti suvlari O'zDSt 950:2000 ga mos keladi.

Oltiariq-Besholish yer osti suv manbasi bo'yicha («Quva» uchastkasi) asosan Mirzacho'l qismi va Toshkent suv hosil bo'lish komplekslari yuqori qismi kuzatuvlar bilan qamrab olingan, yer osti suvlari eng yuqori minerallashuvi – 1,4 g/l, umumiy qattiqligi – 14,25 mg-ekv, sulfatlar – 600 mg/l. Aniqlangan ifloslanish chegara maydoni 72,8 km<sup>2</sup> ni tashkil qiladi.

«Toshloq» uchastkasida yer osti suvlari minerallashuvining eng yuqori ko'rsatkichi 1,7 g/l, umumiy qattiqligi – 20,05 mg-ekv/l, sulfatlar – 1000 mg/l ni tashkil qildi. Ifloslanish chegara maydoni 77,6 km<sup>2</sup>, neft mahsulotlari bilan ifloslanish esa to'liq yo'qotildi.

Yormozor yer osti suv manbasi qishloq xo'jaligi va sanoat ifloslanishi ta'siriga uchragan va hamma yerda umumiy qattiqlik, g'arbiy qismida esa minerallashuv va sulfatlarning ortishi bilan tavsiflanadi. Minerallashuv va umumiy qattiqlikning eng yuqori

ko'rsatkichlari tegishli ravishda 1,3 g/l va 15 mg-ekv/lni, sulfatlar bo'yicha – 700 mg/lni tashkil qildi. Umuman olganda manba bo'yicha gidrokimyoviy vaziyat murakkabligicha qolmoqda.

Chimyon-Ovval yer osti suvi hosil bo'lish manbasi Farg'ona va Marg'ilon shaharlarining eng yirik va istiqbolli xo'jalik iste'mol suv ta'minoti manbasi sanaladi. Yer osti suvlari ifloslanishi darajasi ortiqcha umumiyligini qattiqlik, ba'zi joylarda esa minerallashuv va sulfatlar bilan tavsiflanadi. Eng yuqori minerallashuv ko'rsatkichi -1,1 g/l, umumiyligini qattiqlik ko'rsatkichi – 13,7 mg-ekv/l ni tashkil etadi.

Xorazm viloyatida hozirgi vaqtida chuchuk yer osti suvlari (1 g/l gacha) umuman qurigan. Butun viloyat hududi bo'yicha ichimlik suvining minerallashuvi, umumiyligini qattiqligi, sulfatlar va xloridlar bo'yicha sifati yomonlashishi kuzatilmogda. Manbalar bo'yicha yer osti suvlari minerallashuvi 1–2,5 g/l, umumiyligini qattiqligi 12–20 mg-ekv/lni tashkil qiladi. Yer osti suvlaringin nisbatan qoniqarli sifati alohida kanal bo'yisi linzalarda kuzatiladi, minerallashuv – 1,5 g/l gacha, umumiyligini qattiqlik – 12–15 mg-ekv/lni tashkil qiladi.

Ko'p yillik kesmada yer osti suvlari tarkibida azot birikmalarining kamayishi kuzatilmogda.

## ZAMONAVIY SUV RESURSLARINI BOSHQARISH MUAMMOSI

Biz o'zgaruvchan dunyoda yashamoqdamiz. Evolyutsiya jaryoni nazariyasi shuni ko'rsatadiki, planetamizdagagi hamma turilar uzoq muddat davomida o'zgarib bormoqda. Suv resurslardan iste'mol uchun ishlatalishda va ularni boshqarishda bitta muammoga duch kelamiz ya'ni, iqlim o'zgarishi va aholini o'sishi davomida turli iste'mollarga qanday javobgar bo'lamiz yoki javobgarlikni bo'yinimizga olishimiz bu juda katta muammo. Bu muammo yaqin kelajakda ko'p marta muhokama qilingan va qilinmoqda, lekin haligacha asosiy javob topilmadi (McDonald va Kay, 1988; Acreman, 2000).

Suv resurslarini boshqarish muhokama qilinganda atrof-muhit haqida qanday xulosaga kelingani haligacha noma'lum. Inson nuqtai nazardan kelib chiqadigan bo'lsak u holda, "manba" atamasi

kelib chiqdi. Chunki suv manba u bizga kerakva undan biz hamma vaqt foydalanamiz. Biz suvni boshqara olamizmi yoki uni himoya qilish zarur va shartmi?

Gidrologik sikldagi hamma jarayonlarga ishlov berish mumkin deb hisoblanadi. 12-jadvalda'zi intervensiyanlar joylashtirilgan. Bunda suv resurslarini boshqarish suv taqsimotiga bog'liq bo'ladi: ma'lum hajmdagi suv uni iste'molchilari uchun ishlab chiqariladi va ularga oqimdan foydalanuvchilar (sug'oriladigan, shaharni suv bilan ta'minlaydigan) hamda oqimsiz (suv populyatsiyasini qo'llab-quvvatlash) kiradi.

*12-jadval.*

### Suv resurslarini boshqarishda gidrologik jarayonlar manipulatsiyasi

Gidrologik jarayon	Inson aralashishi	Ta'sir
<b>Yog'ingarchilik</b>	Bulut to'planishi	Yomg'ir yog'ishini ko'paytiradi
<b>Bug'lanish</b>	Irrigatsiya Vegetatsiya qoplamini o'zgartirish Ishloqlarni shaharlantirish Yerdan foydalanishni o'zgartirish Yerni quritish Suv omborlarini qurish Daryolar ko'chirish sxemasi Suv abstrakti	Suv bug'lanishini ko'paytiradi Yog'ingarchilikni o'zgartiradi Bug'lanish darajasini oshiradi Yerosti suvlar zaxirasini manipulatsiya qiladi Yer yuzasida oqim darajasini o'zgarishi

Suv taqsimoti resurslarni boshqarishda manfaatdor tomonlar guruhi o'rtasida suv resurslarining qanday adolatli va qonuniy ta'minlashini o'z ichiga oladi. Janubiy Afrikada 1998-yilda inson manfaatlari va ekologik ehtiyojlarda suvdan minimum foydalanish to'g'risida qonun qabul qilingan va bu qonun hanuzgacha kuchga ega (Jaspers, 2001).

AQShdag“suv to‘g‘riliği” yer xossalari bilan birlashadi. G‘arbiy Kolorada kabi AQShda ham suvni noyob manba hisoblashadi.

**Suv Resurslarini Boshqarishni Birlashtirish.** Suv Resurslarini Boshqarishni Birlashtirish tushunchasi “Dublin prinsiplari” deb ham nomlanadi. 1992-yilning yanvarida 80 ta xalqaro va 100 ta shaharlardan 500 ta ishtirokchilar shu qatori hokimiyat, hokimiyat bo‘limganlar ham Irlandiya, Dublinda bo‘lib o‘tgan Suv va Atrof-muhit nomli Xalqaro Konferensiyada qatnashishdi. O‘scha yildan keyin Rio de Janeyroda o‘tkazilgan keyin va keyinchalik u Yer konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Dublin prinsiplariga asosan rasmiy hisoboti bo‘lib, unda to‘rtta asosiy yo‘nalishda toza suvni boshqarish yo‘lga qo‘yilgan, ular quyidagicha:

1 Toza suv cheklangan va nozik manba, hayot uchun atrof-muhit uchun muhim hisoblangan yo‘nalishdir.

2 Suvdan foydalanishni rivojlantirish va boshqarish.

Suv rivojlanish va uni boshqarish o‘z ichigabarcha darajalarda-gi foydalanuvchilar, rejalash va siyosatchilar yondashuvi asosidagi masalalarni o‘z ichiga oladi.

3 Ayollarni suvni boshqarish va muhofaza qilishda muhim rolni o‘ynashi.

4 Suv undan foydalanuvchilarni iqtisodiy hajmga ega bo‘lishi.

Suv resurslarini, gidrologiya, ekologiya va yer resurslarini boshqarish yangi yo‘nalishlarni ishlab chiqish va ulardan hamma vaqt targ‘ib qilinadi<sup>5</sup>.

## **SUV RESURSLARINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN OQILONA FOYDALANISH USTIDAN DAVLAT NAZORATI**

1989-yilda O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tarkibida suv resurslarini muxofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish ustidan davlat nazoratini tegishli Bosh boshqarma (Boshsvunazorat) amalga oshirgan bo‘lib, uning boshqaruv apparati 8 shtat birligidan iborat bo‘lgan. Qator o‘zgarishlar dan keyin 2007-yilga kelib Yer va suv nazorati Bosh boshqarmasi tashkil etildi va atigi 2 nafar mutaxassis yer osti va yer osti suv re-

<sup>5</sup> Tim Davie. Fundamentals of hydrology, London and New York, 2008.

surslarini muhofaza qilish va oqilona foydalanish sektori bo'yicha ishlarni amalga oshirmoqda.

Yer-suv resurslari, keng tarqalgan foydali qazilmalarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish hamda chiqindilarni boshqarish Bosh boshqarmasi (Yer va suv nazorati Bosh boshqarmasi) atrof-muhit muhofazasi va yer-suv resurslaridan foydalanish sohasida davlat nazorati va tarmoqlararo boshqaruvi siyosatini amalga oshiradi, atrof tabiiy muhit holati va yer-suv resurslaridan foydalanishustidan nazorat qilish bo'yicha tegishli inspeksiyaviy xizmatlarni boshqaradi, shuningdek yer-suv resurslari sohasida muvofiqlashtiruv vazifalarini bajaradi, uslubiy ko'mak beradi, sohaga oid me'yoriy va huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi.

Davlat suv inspektorlari tomonidan korxonalar va tashkilotlarda ifoslangan oqava suvlarini tashlashni qisqartirish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha bir qator ishlar bajarildi. Masalan, Chirchiq shahridagi «Elektro-kimyoosanoat» ICHB da tozalash qurilmalarini qurish hisobiga ifoslangan oqava suvlarini Chirchiq daryosiga tashlash to'xtatildi va uning sifati yaxshilandi. Biroq ularning yetarlicha tozalanmagan oqavalar hajmi respublika umumiy hajmining asosiy hissasi bo'lib hisoblanmoqda (80%dan ortiq). Toshkent viloyatida yer usti suvlarini ifoslantiruvchi mahalliy manbalar bo'lgan tolali sanoat korxonalari tugatildi. Andijon gidroliz zavodi, Farg'on'a TETS, Oltiariq neftni qayta ishslash zavodi, Yangiyo'l yog'-moy kombinati va boshqalarda oqava suvlar oqizilishi tugatildi. Toshkent shahri bo'yicha umumiy hajmi yiliga 25,2 mln. m<sup>3</sup> bo'lgan kanallarga 43 ta oqava suvlar tashlash obyekti tugatildi («O'zkabel» QK, «Toshto'qimachi» AJ, «Toshkent-tekstil» AJ, 18-Avtosaroy, «Toshqishloqmash» AJ va boshq.). O'nlab aylanma suv ta'minoti tizimlari joriy etildi, qator mahalliy tozalash qurilmalari qurildi.

Suv va yer resurslarini ifoslantirish manbalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengashi bilan kelishilgan va tasdiqlagan ro'yxatlarbo'yichatanlov asosidatekshirish vanazoratishlari amalga oshirilmoqda. Korxonalarda suvni muhofaza qilish faoliyatining nazorati bo'yicha 1989-yilda 11034 ta suv iste'molchilari obyekti, 2007-yilda 2031 ta obyekti bo'yicha nazorat ishlari o'tkazildi.

O‘zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi Qonuning ijrosi ustidan davlat nazoratini o‘tkazish jarayonida qonunbuzarliklar aniqlanmoqda, xususan:

– suv foydalanuvchilari olinadigan yer osti suvlari sifatini kuzatishmaydi, olinadigan suvning hisoboti yo‘lga qo‘yilmagan. Aksariyat hollarda sanitar muhofaza zonalari normativ talablariga javob bermaydi;

– suvni suv obyektlari va mahalliy yerlar relefiga oqizishning tasdiqlangan shartlariga rioya etilmaydi, ko‘pincha oqava suvlaridagi ifoslantiruvchi moddalar kontsentratsiyalari salbiy ta’sir chegarasidagi tashlanmalardan (STCHT) ortiqcha;

– Urganch, Kattaqo‘rg‘on (Boynazar) shahridagi, Toshkent shahrida Bektemir tozalash qurilmalari va boshqalar samarasiz ishlamoqda;

– suv foydalanuvchilari tomonidan o‘z ifoslantiruvchi manbalari monitoringi to‘liq hajmda yuritilmaydi.

Suv qonunlarini buzganlik uchun 1989-yilda 3049 nafar va 2007-yilda 3031 nafar shaxslar ma’muriy javobgarlikka tortildi. 1989-yilda 74 mln. so‘m va 2007-yilda 31,2 mln. so‘mlik jarimalar undirildi.

Ifoslantiruvchi oqava suvlar falokatli tashlamalari bilan atrof tabiiy muhofazaga zarar yetkazganligi uchun 1989-yilda 32 da‘vodan 144 mln. so‘m va 2007-ynlda 92 da‘vodan 11,57 mln. so‘m undirildi. 1989-yilda 174 ta va 2007-yilda 5 ta korxona (uchastka, tsex) faoliyatları umuman to‘xtatildi.

1989-yilda O‘zbekiston Respublikasi asosiy daryolari ekologik vaziyat bo‘yicha «Ekologiya-89» ekspeditsion tekshirish o‘tkazildi, buning natijasida 53 ta suvdan foydalanuvchi obyekt to‘xtatildi yoki tugatildi, 20 ta obyektni daryo bo‘yidan tashqariga chiqarish talab qilindi. Buning natijasida suv oqimlarining suvni muhofaza qilish zonalarini va qirg‘oqbo‘yi polosalarini belgilash zarurati to‘g‘risida asoslanuvchi materiallar tayyorlandi va so‘ngra Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari qabul qilindi.

Bajarilgan ishlar natijasida ba’zi suv oqimlari va yer osti suvlarida suvning sifati yaxshilandi va barqarorlashdi.

## IV BOB

# SUV TARTIBOTINI TASHKIL QILISHVA UNI BOSHQA-RIB BORISH

### Sug‘orish tartiboti, uning dinamikasi va balansi

Sug‘oriladigan maydonlarda har tomonlama o‘simliklar uchun kerakli bo‘lgan iqlim va agrotexnik sharoitlar bilan birga, o‘z navbatida tuproqning ozuqa, issiqlik va tuz tartibotini, katta ta’sir qiluvchi suv tartibotini o‘rganishni hisobga olish va oldindan proqnoz qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ko‘rsatkich sug‘orish tartiboti va texnikasi orqali belgilangan agrotexnika vositasida dalalarga beriladigan suv miqdorini to‘g‘ri boshqariladigan sug‘orish shoxobchalari orqali amalga oshiriladi. Chunki dalaga suv berilgan paytda qishloq xo‘jalik mashinalari yuritish uchun xalaqit bermaslik, yerlardan foydalanish koeffitsientini pasaytirmaslik maqsadida vaqtinchalik ariqlar qazish, yetishtiradigan paytda kerak bo‘lsa, ko‘mib tashlash yoki harakatlanuvchi quvurlar yordamida (masalan, maxsus agregatlar yordamida tomchilatib sug‘orish yoki tuproqlarning aktiv qismiga quvurlar yotqizish bilan) amalga oshirish mumkin.

Boshqariladigan xo‘jaliklararo sug‘orish shaxobchalari o‘z ichiga vaqtinchalik sug‘orish ariqlari va jo‘yaklarning umumiy yig‘indisini olib, u dalalarga suvni bir xilda taqsimlash vazifasini bajaradi. Bu o‘z o‘rnida o‘simliklarga kerakli bo‘lgan namlikni yetkazib berish bilan birgalikda tuproq suv tartibotini to‘g‘ri tashkil qilish va boshqa agrotexnik tadbirlarga tayangan holda o‘simliklardan yuqori hosil olish va tuproq, unumdorligini oshirish imkonini beradi.

Bu tadbirlarni hammasi suvdan yuqori koeffitsientda foydalananish, boshqariladigan sug‘orish shoxobchalarini qurish, yuqori agpotexnikaga tayangan holda dalalarda sug‘orish usullarini barpo etishdan iboratdir. Suv balansini tenglamasi quyidagicha aniqlanadi:

Dastlabki gidrologik nuqtai nazardan bunda gidrologik siklni konseptual modelligi qayd etilgan yer-atmosfera tizimi doirasida

faoliyat ko'rsatadi. Bu shaklni suv balans tenglik tenglamasida qo'llash ham mumkin. Suv balansi tenglik tenglamasi matematik tenglama bo'lib, gidrologik jarayonlar va tamoyillar hamda energiyani uzlusiz ravishda berilgan vaqt doirasi ichida faoliyat ko'rsatadi, ya'ni gidrologik sikl ommaviy yoki energiya yaratilgan yoki unda yo'qolgan massa aniqlanadi. Uningmassasisi esasuvdir. Suv balansini aniqlashning bir necha xil usullari bor va quyidagi tenglamada boshlang'ich shaklini ko'rish mumkin.

$$P \pm E \pm \Delta S \pm Q = 0$$

Bu formuladagi aniqliklar bizning sharoitimizdagi suv balansini aniqlash formulasidan biroz farq qiladi, ya'ni bu yerda  $P$  - yomg'ir yog'ishi;  $E$  - suv bug'lanishi;  $\Delta S$  - suv saqlashni o'zgarishi va  $Q$  - qiyalik. Bunda qiyalik yomg'ir yog'ishidan farq qilishni  $Q$  qayd qilinadi.  $R$  - yomg'ir yog'ishida asosiy komponent sifatida beriladi. Siz qaysi qismga ahamiyat berganizga qarab 1.1-tenglama atamalari har qismda ijobiy yoki salbiy ravishda fakt sifatida vakil bo'ladi, masalan, yomg'ir yog'ishi yer uchun foyda (ijobiy), lekin u atmosferaga ziyon (salbiy). Shuning uchun Gidrologiya suv va yer yuzasi bilan aloqada bo'ladigan fan hisoblanadi.

Bundan tashqari tenglamalarda suv balans tenglamasi ikki va undan ortiq yo'llarini ham ifodalaydi.

$$P - Q - E - \Delta S = 0$$

$$Q = P - E - \Delta S$$

Yana shuni ham takidlash lozimki, mazkur suv balans tenglamasida suv uning bazasiga adsorbsiya bo'lishi ijobiy yoki salbiy bo'lishini ham kuzatish mumkin.

**Yomg'ir yog'ishini aniqlash.** Yomg'ir yog'ishini aniqlash asbobi *yomg'ir hisoblagich* deyiladi. Yomg'ir hisoblagich uning yuzasiga tushayotgan suv hajmini aniqlaydi (28-rasm).



28-rasm. Yomg'ir o'lchash asbobi

Yomg'ir o'lchov yuza maydonida chuqur aylanishi orqali hajm yog'ingarchilik chuqurligigacha aylanadi<sup>6</sup>.

### ASOSIY SUG'ORISH USULLARI

Sug'oriladigan maydonlarda sug'orish usuli uch qismga bo'linadi:

Birinchi usul – sug'orish suvlarini yerning ustki qismida bo'linishi, bunda suv tuproqning ustki qismidan singadi.

Ikkinci usul – maxsus apparatlar va agregatlar yordamida tomchilab sug'orish usulida sug'orish. Bu usul bilan sug'oriladigan tuproqning yuza qatlami bilan o'simliklarning yerning ustki qismidagisi ham namlanadi.

Uchinchi usul – yerning ostki qismidan sug'orish. Bunda tuproqning aktiv qismiga maxsus quvurlar o'tkazish yo'li bilan sug'oriladi, bu usul asosan tuproqning so'rish kuchiga asoslanadi.

<sup>6</sup> Tim Davie. Fundamentals of hydrology, London and New York, 2008.

Qishloq xo'jalikda yerning ustki qismidan sug'orish ko'proq qo'llaniladi, chunki bu usul kam mehnat va boshqa sug'orish usullariga qaraganda kam kapital mablag' talab qiladi. Bir narsaga katta ahamiyat berish kerakki, yerning ustki yoki ostki qismidan sug'orilganda faqat tuproq namlanadi xolos, o'simliklar esa shu tuproq eritmasida erigan moddalar bilan oziqlanadi va yomg'irlatib sug'orilganda esa uning afzallik tomoni shundaki, bunda tuproq qatlami ham, o'simliklarning yer ustidagi qismi ham namlanadi, mikroiqlim, ya'ni shu o'simliklarning normal o'sishi uchun sharoit yaratiladi.

Sug'orishda o'simliklarning o'ziga xos xarakterli belgilari mavjud. Masalan, yerning ustki qismidan sug'orish usulining xarakteri: a) tuproqning har xil qatlamlarining namlanishi; b) gravitatsion suvlarning ko'p ishtirok qilishi natijasida tuproq qatlamlarida ko'proq suv jamg'armasining to'planishi; v) sug'orish tartibotida namlikni ko'p miqdorda o'zgarishi hisobiga tuproqlarga oz miqdorda suv berish. Bu usulda yerlar tez-tez sug'oriladi, lekin kam normada suv berish tavsiya etiladi.

Yomg'ir usulida sug'orish xarakteri: a) tuproqlarning yuqori qatlamlari namlanadi; b) kuchsiz gravitatsion namlanish tuproqning yuza qatlamida sodir bo'ladi; v) kam suv sarflash hisobiga tuproqning yuza qatlamida deyarli namlanish tartibotini bir xilda ushslash va mikro-iqlimga ta'sir qilish yoki muhit yaratishga (bu usul suv yetishmaydigan va issiq o'lkalarda ko'proq qo'llaniladi) asoslangan.

Tuproqni ostki qismidan sug'orilganda, birinchidan, tuproqning ustki qismi faqat kapillyar naylar orqali namlanadi. Ikkinchidan, tuproqning ma'lum qatlamida nam ushlanadi yoki ushslash mumkin. Uchinchidan, tuproqlarda mustahkam namlik jamg'armasini yig'ish mumkin. To'rtinchidan, kerakli vaqtida oz suv sarflash orqali o'simliklarni suvg'a bo'lgan talabini qondirish mumkin.

Endi yuqorida keltirilgan uchchala sug'orish usulini bir-biridan farqini bilgan holda yerlarning holatini (issiqlik, tuz tartibotini va h.k.) o'simliklar xiliga va har qaysi iqlimi sharoitni hisobga olib, suv berish normasiga qattiq e'tibor bergen holda olib borish lozim.

Sug'orish usullari: asosan ekinlarning turiga, mexanizatsiya, agrotexnika sharoiti, sug'oriladigan yerlarning relefni, nishabi, sug'oriladigan tuproqning xususiyatiga (tuproq nam yig'imi, uning suv o'tkazuvchanligi va tarkibiy qismiga) qarab, A.N.Kostyakov mavsumiy sug'orish va bir galgi sug'orish usullarining klassifikasiyasini yaratdi.

14-jadval

Umumiy sug'orish usullari	Dalaga suv berish usuli	Bir galgi sug'orish usullari	
		Kichik bosim va oz suv sarfi bilan	Kattaroq bosim va ko'proq suv sarfi
Tuproq ustidan oqim suv bilan sug'orish (bostirib sug'orish)	Dala yuzi bo'ylab: a) yaxlit sug'orish, b) egat olib sug'orish	1. Taxtalarga bo'lib sug'orish 2. Chuqur, etagi berk egat olib sug'orish	3. Bostirib sug'orish 4. Chuqur oqmaydigan (etagi berk) egat olib sug'orish
Yomg'irlatib sug'orish	Yog'dirib sug'orish (maxsus agregatlar yordamida)	Suvni kichik bosim bilan yaqinqa otibsug'orish	Suvni katta bosim bilanuzoqqa otibsug'orish
Tuproq ostidan sug'orish (maxsus trubalar yordamida)	Suv tuproq os- tidan beriladi (haydalgan yer qatlami suvni pastdan oladi)	Muttasil ishlaydigan bosimsiz vakuumli tizimlar vositasida sug'orish	Vaqti-vaqti bilan ishlaydigan bosimni tizimlar vositasida sug'orish

Endi har bir sug'orish usulini bir-biridan har qaysi iqlimi sharoitda farqini biladigan bo'lak, bu sug'orish usullari o'zlarining tabiatdagi tutgan o'mniga qarab yana bir nechta turlarga bo'linadi.

## TUPROQ USTIDAN SUG'ORISH (BOSTIRIB SUG'ORISH)

Bu usul bilan sug'oriladigan dala maydonini yoppasiga suv bosalidi va suv yerga tikkasiga singadi. Jo'yak yoki egat olib sug'orilganda esa suv tuproqqa asosan yon tomonlardan singadi. Sug'orish usullari ekinlarning turlariga qarab tanlanadi.

Sholini sug'orishda va tuproqlarning sho'rini yuvishda asosan bostirib sug'orish usulidan foydalaniladi, beda va donli ekinlar esa taxtlarga bo'linib sug'oriladi. Poliz ekinlari jo'yaklar olib sug'oriladi. G'o'za, lavlagi, tok, makkajo'xorilar va shunga o'xshash ko'pchilik ekinlar egat olib sug'oriladi.

Suvdan to'g'ri samarali foydalanishda hamda sug'orish tizimsiga normal ekspluatatsiya qo'llashda sug'orish texnikasi katta ahamiyatga ega.

Sug'orish texnikasi: 1. Tuproqdag'i suv, havo, oziq moddalar, tuz va issiqlik tartibotlarining agrotexnika tadbirlari hamda tuproq unumdoorligi bilan to'g'ri, bog'lab sug'oriladigan ekinlardan mo'l hosil yetishtirishni ta'minlash. 2. Tuproqlarni bir tekisda va kerakli miqdorda namlanishi. 3. Tuproq struktura holatini (mayda kesakli) saqlash. 4. Dala ishlarini iloji boricha mexanizatsiyalashtirish uchun qulay sharoit yaratish. 5. Sug'orish tartibotiga qat'iy rivoja qilgan holda suvni tejab-tergab sarflash va uning isrof bo'lishiga yo'l qo'ymaslik. 6. Sug'orish ishlarini iloji boricha mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, mehnat unumdoorligini oshirish kabi asosiy talablarni qo'yadi.

## TAXTALARGA (POLLARGA) BO'LIB SUG'ORISH

Bostirib sug'orishdan oldin sug'oriladigan maydonlar oldindan tayyorlab qo'yiladi, buning uchun sug'oriladigan yerlar har xil kattalikdagi pollarga bo'linadi. Masalan, yerkarning tekisligi, nishabi va h.k. ga qarab 0,2–0,3–0,5 va 1–1,5 ga kattalikdagi pollarga bo'linadi va uning to'rt tomoniga uvat olinadi.

Yerkarning sho'rlnishi ekin maydonlaridan mo'l hosil yetishtirishga imkon bermaydi. Shuning uchun biz qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishdan oldin tuproqning sho'rini yuvib olishimiz kerak.

Yerning nishabiga qarab, pollarning eni ko'ndalanligiga 40 m dan 70 m gacha olinadi, bo'y'i esa dala maydonining uzunasiga, uning nishabiga va polga qancha qalinlikda suv bostirilishiga qarab belgilanadi. Katta nishabli yerkarda ikkala yondosh polning belgisidan ayirma 20 sm dan, kichik nishabli yerkarda esa 10 sm

dan, Shuningdek pol ichidagi nishab 0,002 dan oshmasligi kerak. Pollarga 10–15 sm gacha chuqurlikda suv bostiriladi. Bostirilib sug'orishda pollarga quyiladigan suv sarfi 25–50 l/sek bo'lishi kerak. Tuproqning sho'rini yuvib bo'lgandan keyin uvatlar tekislanib yuboriladi, chunki u qishloq xo'jalik mashinalarining terishiga xalaqit bermasligi kerak. Pollar to'g'ri to'rt burchak shaklida qilinadi. Polning uzun tomoni dalaning kichik nishabli tomoniga karab tekislanadi.

Agar polning etak qismi o'rta qismga nisbatan 1% dan ortiq namiqtirilsa, polning uzunligi quyidagi formula bilan aniqlanadi va quyidagi qonunga bo'ysunadi.

$$\delta = S \sqrt{n} l$$

Bu yerda:  $n$  – sug'orilayotgan yerning chuqurligi, sm;

$l$  – sug'orilayotgan yerning nishabi;

$S$  – tezlik koefitsienti, asosan sug'oriladigan tuproqning g'adir-budirlik darajasiga, tuproqning ishlanish xarakteriga va ekinning naviga bog'liqdir.

Suvning tuproqqa singish tezligi quyidagi qonunga (Darsi qonuniga) bo'ysunadi.

$$w = R j^3,$$

Bu yerda:  $R$  – proporsional koefitsienti.

$A = I$  bo'lganda, bu koefitsient tuproqning filtratsiya koefitsienti deyiladi.

$j$  – filtratsiya (suvning singishi) bosimning gradienti, bu quyidagi formula bilan topiladi:  $j = \frac{h+a}{d}$

Bu yerda:  $h$  – tuproq ustidagi suvning chuqurligi;

$a$  – suv singiydigan tuproq qatlaming qalinligi;

$d$  – daraja ko'rsatkichi, bu ko'rsatkich  $I$  dan 0,5 gacha o'zgarib-turadi; mayda zarrali yirik tuproqlar uchun  $d=I$ , juda yirikzarrali tuproqlar uchun  $d=0,5$ .

Sug'orish vaqtida tuproqning suv singdiruvchanligi uning qanday darajada quruq ligiga bog'liq. Suv singish bosim gradienti

$\frac{h+a}{d}$  borgan sari ozaya boradi (agar sug'orish boshida u eng kat-

ta bo'lsa, sug'orish oxirida 1 ga yaqinlashadi), shu bilan birga, tuproqning suv shimishi tezligi ham kamaya boradi. Suv shimish tezligi filtratsiya koeffitsienti (1)ga tenglashadi. Bundan tashqari, tuproq namlangan sari unda mexanik va fizik-kimiyoviy o'zgarishlar sodir bo'lib, tuproq kolloidlari maydalanadi va bo'kadi, tuproq strukturasi buziladi, sirtida qatqaloq paydo bo'ladi. Bu o'zgarishlar tuproqning suv singdirishini, ya'ni hajmini kamaytiradi.

Tuproqning suv shimuvchanligiga shu tuproqning kapillyar ku-chi va tuproq zarralari orasidagi havoning ta'siri katta.

Suvning qalinligidagi tuproqqa singish tezligi quyidagi formula yordamida topiladi.

$$w = R \frac{h + a + H_0 - L}{a}$$

bu yerda: R – filtratsiya koeffitsienti;

$N_0$  – ayni vaqtida tuproqda suvning kapillyarlar orqali ko'tarilish balandligi;

L – tuproqdagi havoning ortiqcha bosimi;

h – tuproq ustidagi suvning chuqurligi.

Bu formuladan quyidagi xulosa chiqarish mumkin: suvning singish chuqurligi (a) oshgan sari singish tezligi (w) kamaya bora-di. Bu tezlik oldindan katta bo'lib, keyinchalik asta-sekin kama-ya boradi, bunda (a) osha borgan sari kapillyar kuchlarning ta'siri ( $N_0$ ) susaya boradi: kapillyar kuchlar tuproqning shimish tezligini oshiradi, tuproq zarralari oralig'idagi qisilgan havo esa bu tezlikni kamaytiradi. Suv tuproq yonboshida shimdirliganida (egatlarda) kapillyar kuchlar suv bosimini oshiradi va egatlardan oralig'idagi suv kapillyar orqali ko'tariladi. Bu ko'tarilish tezligi esa quyidagi for-mula bilan topiladi.

$$W_{ko'tar. tez} + \frac{H_0 - d_1 - C}{a_1} R$$

bu yerda  $a_1$  – ayni vaqtida suvning ko'tarilish balandligi.

Shu sabablarga ko'ra tuproq yonboshidan (egatlardan) suvni

oldin tez shimadi, keyinchalik esa uning shimalishi sustlashadi. Shuning uchun suvning tuproqqa singish tezligi o'zgaruvchan bo'ladi. Vaqt o'tgan sari bu tezlik kamayib boradi. Endi sug'orish vaqtida suvning tuproqqa singish tezligining dinamikasini ko'radi-gan bo'lsak, bu quyidagi formula yordamida topiladi.

$$W_t = R_j t^{\alpha} = \frac{R_1}{t^\alpha}$$

bunda  $w_t$  – t ma'lum vaqt ichida suvning tuproqqa singish tezli-gi;

$R_t$  – t ma'lum vaqt ichida suvning tuproqqa singish koeffitsienti;


$j$  – suv bosimi gradienti;

$R$  – birinchi soatda suvning tuproqqa singish koeffitsienti dara-ja ko'rsatkichi (tuproqning sug'orishdan oldin namligi va boshqa xususiyatlariga qarab, 0,30 dan 0,80 gacha o'zgaradi). Tuproqlarda boshlang'ich namlik qancha ko'p bo'lsa, keltirilgan formuladagi qiymati ham shuncha oz bo'ladi. Suvning tuproqqa singish tezli-gi o'zgarishining umumiy xarakteri 20 – rasmida ko'rsatilgandek, singish koeffitsienti ( $d$ ) ning vaqt o'tishi bilan kamayishi va su-vning filtratsiya koeffitsienti ( $R$ ) ga doimiy miqdorda yaqinlashishi ko'rinish turibdi.

Ma'lum tuproqning bir soat davomida suv o'tkazish (filtratsiya) koeffitsienti quyidagi formula bilan topiladi.

$$R_t = RT^3$$

bunda  $R$  – tuproqning suv shima boshlash paytidan boshlab,  $T$  – vaqt ichida filtratsiya koeffitsienti.



7-grafik. Suvning tuproqqa shimilish sxemasi

Shunday qilib,  $t$  – vaqt ichida suvning tuproqqa singishining o‘rtacha tezligi quyidagi formula bilan topiladi.


$$\frac{1}{t} \int_0^t \frac{R}{a} dt = \frac{Rt}{1-a} \cdot -\frac{1}{-}$$

bunda  $R_0 = \frac{Rt}{1-a}$  birinchi soatda ma’lum tuproqqa singadigan suvning o‘rtacha tezligi. Tuproqlarda filtratsiya va daraja ko‘rsatki-chi ma’lum tuproq uchun tajriba yo‘li bilan topiladi.

### JO‘YAK OLIB SUG‘ORISH


Relefni noqulay, nishabi katta yerlar, asosan jo‘yak olib sug‘orildi. Jo‘yaklar ikki xil: ya’ni taroq shaklida va aylanma (ilon izi) shaklida qilib olinadi.

V



PUSHTA

V



PUSHTA

29-rasm. Jo'yak olib sug'orish sxemasi.

a – qo'sh jo'yak; b – aylanma jo'yak

Nishabi juda katta yerlar esa, aylanma jo'yak olib, ekin ekiladi, chunki bu usulda suv yo'li uzayib, yerning nishabi sun'iy ravishda kamayadi va suv jo'yaklarda sekin oqadi va tuproqning ustki unumdon qismi yuvilib ketmaydi. Jo'yaklarning uzunligini 10–30 m, chuqurligi 0,30–0,45 m va oqayotgan suvning ko'ndalang kesimi 0,60–0,12 m, pushtalarning eni esa 0,90–1,40 m bo'lmg'i lozim (29-rasm).

Jo'yak olib sug'orishning o'ziga xos kamchiliklari va afzallik tomonlari mavjud. Kamchiliklar: dehqonchilik ishlarini mexanizatsiyalash juda ham qiyin, yoki mexanizatsiyalashtirib bo'lmaydi, jo'yak olish uchun ko'p mehnat sarflanadi va yerdan foydalanish koeffitsienta (YeFK) kichik.

Afzallik tomonlari: qiya yerdarda jo'yak olinsa, suv yerni yuvib ketmaydi. Suv tuproqqa yon tomonidan shamilishi sababli haydalma qatlama bosilib zichlanmaydi va nihoyat, ekiladigan ekinlar jo'yak pushtalarida yetishtiriladi.

## EGAT OLIB SUG'ORISH

Egat olib sug'orish oqar suv bilan sug'orishning eng mukammal progressiv usulidir. Bundan tashqari, bu usul mexanizatsiyadan to'la foydalanish imkonini beradi.

Egat olib sug'orilganda, tuproq strukturasi buzilmaydi, tuproq bir tekis namlanadi, tuproq haydalma qatlami sug'orilgandan keyin zichlanmaydi va qatqaloq paydo bo'lmaydi, natijada o'simliklarning havo, issiqlik va oziqlanish tartiboti yaxshilanadi, bundan tashqari har qanday relefli yerlarni egat olib sug'orish mumkin, bunda suv tejab sarflanadi, natijada sug'oriladigan yerning zaxlanish va sho'rланish xavfi bartaraf qilinadi. Shuning uchun g'o'za, lavlagi, kanop va boshqa texnik ekinlar faqat egat olib sug'oriladi.

Egatlarni ikki xil usulda qazish mumkin: ochiq va berk.

Ochiq egatlar nishabi 0,001–0,01 yoki undan qiyaroq yerlardan olinadi, agar nishabi 0,002–0,003 bo'lsa, egat olib sug'orish yana-da yaxshiroq natija beradi.

Berk egatlar nishabi 0,001–0,0005 va undan ham kichik bo'lgan yerlar olinadi. Berk egatlarga quyiladigan suv sarfi 1–2 l/sek bo'ladi. Shunda egatlarning bo'yи 40 m dan 100 m gacha bo'ladi.

Egatlarda suvning oqish tezligi sug'oriladigan yerning relefiga va uning qay darajada tekislanganligiga bog'liq, tuproqning mexanik tarkibi yengil va mikrorelefli murakkab bo'lgan yerlarda egatlar qisqaroq olinadi. Yaxshi tekislangan yerlarda egat 400–600 m uzunlikda va undan ham uzunroq olinishi mumkin. Nishabi kichik yerlarda esa berk egatlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Egatlar yerning nishabiga qaratib olinadi, lekin yerning nishabi 0,02 dan katta bo'lsa, egatlardan suvning tez oqishga va tuproqning yuvilib ketmasligi uchun ular gorizontal chiziqlarga nisbatan sal kamaytirib olinadi.

Egatlarning uzunligini to'g'ri belgilash sug'orishni to'g'ri tashkil qilishda katta rol o'ynaydi. Egatlarning normaga qaraganda uzun olinishi o'q ariqlar olishni osonlashtiradi, lekin bunda ekinzorlarning hamma joyi bir vaqtida yetilmaydi, kultivatsiya qilish grafigi buziladi.

A.Cherkasov egatda oqayotgan suv tezligini quyidagi formula yordamida aniqlagan.

$$\partial = R_1 h \% \cdot i \%$$

$$\partial = R_2 h \% \cdot i \%$$

yoki  $h=20+15$ ;  $R_1=876$

bu yerda  $h$  – egatdagi suvning chuqurligi, m;

$\partial$  – egatdagi suv sarfi, m<sup>3</sup>/sek;  $i$  – egat nishabi.

Aniqlangan tezlik 0,1–0,2 m/sek dan ortiq bo‘lmasligi kerak, aks holda suv egatni yuvib yuboradi.

Egatdagi suvning chuqurligini taxminan quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin.

$$h=R_3 \frac{d \%}{i \%}$$

bu yerda  $d$  – egatdagi suv sarfi, m<sup>3</sup>/sek;  $R_3 = 0,35-45$

Yuqorida uchta formula bilan egatning oxirigacha suvning yetib borish vaqtini aniqlash mumkin.

## YOG‘DIRIB SUG‘ORISH USULI

Yog‘dirib sug‘orish usuli deb, uskunalar yordamida o‘simliklar va tuproqning ustidan sun’iy sug‘orishga aytildi.

Bu usul bilan sug‘orilganda, bir vaqtning o‘zida ham o‘simlik bargi tanasi orqali namlantirilsa, ikkinchidan, tuproqqa kerakli bo‘lgan namlikni yetkazib berish mumkin. Chunki keyingi vaqtda respublikada sug‘orish ishlari bir muncha orqada qolmoqda va sug‘orshi tannarxi ancha qimmatga tushmoqda. Misol uchun, bir gektar yerdagi g‘o‘zani sug‘orish uchun 10 va undan ortiq mehnat kuni sarf bo‘lmoqda, bundan tashqari egat olib sug‘orishda sug‘orish texnikasini tanlash va belgilangan ma‘lum normada sug‘orish ancha qiyindir. Shuning uchun yog‘dirib sug‘orish usuli bir muncha afzallik tomonlarga ega. Bulariga: 1. Tomchilatib sug‘orish natijasida tuproqning haydalma qatlamicina emas, balki o‘simlik va uning atrofidagi tuproq qatlamida (ya’ni mikroiqlim hosil bo‘ladi). 2. Bu usul bilan sug‘orilganda, yer mavsumiy sug‘orish

normalarida 30–40% kamayishi bilan birga, ekindan yuqori hosil olishga imkon yaratiladi. 3. Sizot suvlari yer yuziga yaqin joylashgan yerlarda suvda oson eriydigan tuzlar sizot suvi bilan birga yer yuzasiga chiqmaydi. 4. O‘q ariq va sug‘orish egatlari olishga hujat qolmaydi, yer tekislash ishlarining hajmi bir muncha kamayadi va past-balandli bo‘lgan yerlarni ham osongina sug‘orib olish mumkin. 5. Tuproq zinchlanmaydi, ya’ni cho‘kmaydi. 6. Doimiy sug‘orish kanallari o‘rniga har xil hajmdagi trubalar ishlatish yo‘li bilan sug‘orish shoxobchalarining hajmini kamaytirish mumkin. 7. Sug‘orishda chuqur oqadigan kanallarning oqadigan suvlaridan osongina foydalanish mumkin. 8. Yog‘dirib sug‘orishda paxtadan va boshqa qishloq xo‘jalik ekinlaridan olinadigan hosil bir muncha ortadi, chunki yerlar bunday usul bilan sug‘orilganda, tuproqlarda ketadigan nitrofiksatsiya protsessi ortadi va o‘simgliklarni ozuqa elementlari bilan ta’minalash metodi uzayadi. 9. Sug‘orishga ketadigan suv taxminan 50% gacha kamayadi, sug‘orish normasi esa 200–600 m<sup>3</sup>/ga boradi. 10. Yomg‘ir yog‘dirib sug‘orishda sarflanadigan suv sizot suvlariga borib qo‘shilmaydi, bu esa o‘z o‘rnida yerlarni meliorativ holatini yaxshilashga imkon beradi. 11. Yomg‘irlatib sug‘orishda planli xo‘jalik sug‘orish normasiga ega bo‘lamiz va h.k.

### 15-jadval

Tomchilatib sug‘orish usulining maksimal darajadagi normasi,  
mm/min. hisobida

Tuproqning mexanik tarkibi	Yerning nishabligi							
	0,01–0,05		0,05–0,08		0,08–0,12		>0,12	
	O‘simglik bilan birga	O‘simgiksiz						
Bir xil qatlamli yirik qatlam	0,75	0,75	0,75	0,64	0,64	0,44	0,42	0,21

har xil qatlamlili yirik qatlam	0,74	0,64	0,53	0,42	0,42	0,33	0,32	0,19
Bir xil qatlamlili yengil qumog	0,64	0,42	0,53	0,34	0,42	0,25	0,32	0,17
har xil qatlamlili yengil qumog	0,53	0,32	0,52	0,21	0,32	0,32	0,21	0,13
Bir xil qatlamlili qumog	0,42	0,21	0,34	0,17	0,25	0,13	0,17	0,09
har xil qatlamlili qumog	0,25	0,13	0,21	0,11	0,17	0,07	0,13	0,04
Og'ir qumloq va loylarda	0,09	0,07	0,07	0,04	0,05	0,03	0,04	0,03

Yomg'irlatib sug'orish usuli melioratsiya sohasida keyingi paytda ko'p qo'llaniladigan usuldır. Shuning uchun yomg'ir yog'diriladigan arpegatlarni rekonstruktsiya qilish, uning yangi markalarini o'ylab topish maqsadga muvofiqdir. Chunki yomg'irlatib sug'orish paytida suv normasi, uni o'lchash va tuproqning mexanik tarkibiga qarab, kerakli bo'lgan suvni berish mumkin. Misol uchun, "Skinner" firmasining ma'lumotiga qaraydigan bo'lsak, tuproqning mexanik tarkibi va yarning nishabiga qarab, quyidagi suv normasini ko'rish mumkin.

## YOG'DIRIB YOKI YOMG'IRLATIB SUG'ORISH TURLARI VA TIZIMLARI

Yog'dirib sug'orishning uchta turi mavjud bo'lib, oddiy, tomchilatib va yuqori napor ostida tuman hosil qilib sug'orish turlari mavjuddir.

1. Oddiy yomg'irlatib sug'orish – bu usul tuproq qatlamining 0,4–0,6 m li qatlamini hisobga olgan holda, tomchiga o'xshatib, havoning to'la namligi darajasigacha suv sepishdir.

2. Tomchilatib sug'orishning oddiy yomg'irlatib sug'orishdan farqi bunda eng avvalo o'simlikni va tuproqning ustki qismini namlatishdan iboratdir, ya'ni bu usulni oddiydan farqlanadigan joyi suvni uzluksiz va vaqtiga vaqtiga bilan sepishdir.

Tomchilatib sug‘orish maxsus apparatlarda bajarilib, unda suv alohida (kameraga) to‘planib, keyin kuchli napor bilan atmosferaga sepiladi va bu usul har 4–6 sekund (pauza) qaytarilib turadi va suv sepish davri 1–2 sekund davom etadi. Suv sepish radiusi 25–30 m bo‘lib, uning miqdori 0,02–0,8 mm/min ni tashkil qiladi. Bu apparatlarni turlari va ishslash tartibini quyida keltiramiz.

Tumanlatib sug‘orish – bu usul asosan maxsus apparatlarda yuqori temperatura va past namgarchilik bo‘lgan yerdarda yuqori bosim ostida suvni toki tuman darajasiga keltirib sepishga mo‘ljallangandir. Bunda suvni tumanlatish uchun uncha katta bo‘limgan yomg‘irlatib sug‘orish apparati qo‘llanilib, uning suv sarf qilish vaqtisi 0,03 l/s dan oshmaydi va atmosfera sharoitiga qarab 200–300 m masofada suv sepish mumkin.

Bu sug‘orish usuli boshqa tur sug‘orish usullaridan farqliroq birinchidan, namlikni o‘zini namlanishi bilan birga mikroiqlim hosil qiladi va tuproq kesakchalarini maydalanim ketishidan saqlaydi.

Yomg‘irlatib sug‘orish tizimi sug‘orish manbasida tashkil qilinib, u doimiy va vaqtinchalik sug‘orish asboblaridan iborat bo‘ladi. Doimiy sug‘orish tizimi maxsus yopiq trubalar yordamida sug‘oriladigan yerdarda mustahkam qilib o‘rnataladi va ko‘p yillar davomida bir yerdan turib boshqarib boriladi.

Vaqtinchalik yomg‘irlatib sug‘orish tizimi esa yig‘iladigan hamda bo‘laklarga bo‘linadigan apparatlar yordamida sug‘oriladigan yerdarga sug‘orish mashinalari yordamida o‘rnataladi va sug‘orib bo‘lingandan keyin yana yig‘ib olinadi.

Sug‘orish shoxobchalari ochiq yarim ochiq va yopiq qilib qurilishi mumkin. Ochiq sug‘orish shoxobchalari yerdarda ochiq betonlangan yoki lotoklar orqali quriladi, yarim ochiq, sug‘orish shoxobchalari yerdarda betonlanib qurilishi mumkin, lekin xo‘jaliklararo sug‘orish shoxobchalari suvni maxsus yomg‘irlatib sug‘orish mashinalari o‘rnatilgan holda olib boriladi. Yopiq sug‘orish shoxobchalari esa maxsus quvurlar yordamida bajariladi.

Yomg‘irlatib sug‘orish tizimi o‘zining ta’sir kuchiga qarab statsionar, yarim statsionar, harakatchan turlarga bo‘linadi.

Statsionar tizimda hamma elementlar (nasos stadionari, o'tka-zilgan trubalar, yomg'irlatib sug'orish apparatlari) doimiy qilib quriladi. Statsionar sug'orish tizimsida apparatlarni shunday maxsus quduqlar yordamida o'rnatish kerakki, uzoq, masofaga suvni kuchli bosim ostida sepib sug'orilib bo'lingandan keyin, quduqlarda ham suvning gidravlik bosimini pasaytirish kerak, chunki suv kuchli bosim orqali quduqlarda ko'tarilsa, yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Yarim statsionar sug'orish tizimi nasos markazlarida xo'jaliklararo bo'lувчи kranlar doimiy qilib o'rnatiladi va yillar davomida sug'orish mashinalari yig'ib olinishi yoki ko'chirib boshqa yerga olib borib o'rnatilishi mumkin, lekin yomg'irlatib sepuvchi agregatlar esa o'z o'rnidagi qolaveradi. Hozirgi kunda bu usul qishloq xo'jaligida keng qo'llaniladi. DDN-70, DDN-100, DDA-100m (A), Fregat, Voljanka, Dnepr, Kuban kabi mashinalar eng qulay va ixcham hisoblanadi. Harakatchan yomg'irlatib sug'orish tizimi boshqa sug'orish apparatlariga qaraganda tez yig'iladigan, qulay, metall trubalardan iborat bo'lib, yig'iladigan va olib borilishi mumkin bo'lgan elementladir. Bu qurilmalar suv ko'p talab qilinmaydigan yaylovlarda va sabzavot ekinlari maydonlarida qo'llaniladi, vegetatsiya yoki yil oxirida esa yig'ib olinadi.

## ZAMONAVIY YOMG'IRLATIB SUG'ORISH QURILMALARI

Sun'iy yomg'irlatib sug'orish qurilmalari o'zining yasalish va sug'orish obyektlariga joylashtirish sharoitiga qarab, yomg'irlatib sug'orish agregatlariga, mashinalariga va qurilmalarga bo'linadi (quyida bu sabablarning har qaysini alohida xarakterlab o'tamiz).

Yomg'irlatib sug'orish agregati joyida siljitaladigan maxsus moslama bo'lib, unga yomg'irlatib sepadigan mashina o'rnatiladi.

Yomg'irlatib sug'orish mashinasi – bir joydan ikkinchi joyga siljitaladigan maxsus moslama bo'lib, unga yomg'irlatib sepadigan mashina o'rnatiladi, lekin sug'orish agregatlaridan farqi bosim hosil qilib beradigan nasoslar, yomg'irlatib sepish mashinasi dan ajralgan holda bo'ladi. Yomg'irlatib sug'orish qurilmasi esa

bir joydan ikkinchi joyga siljitimaydigan qilib o'rnatiladi va suv sepgichga keladigan suvlar bosimli sug'orish shoxobchalari yoki nasos stantsiyalaridan olinib boriladi.

Yomg'irlatib sug'orish esa faqat suvni changlatib (changga o'xhash) sepadigan moslamadan iborat bo'lib, bu gidrantga o'rnatiladi. Gidrant – bu shunday qurilmaki, u suvni sug'orish manbaidan yoki vodoprovoddan olib, qurilmaga yetkazib beradi.

## YAQINGA OTAR YOG'DIRISH QURILMALARI

Hozirga kunda yaqinga otar yog'dirish agregatlaridan DDA-100 m, DDA-100m lar juda keng tarqalgan bo'lib, ular bog'lardan tashqari hamma ekinlarni sug'orishga mo'ljallangandir. Bu agregatlar maxsus DT-54 yoki DT-75 traktorlariga o'rnatilib, ikki tomoni yopilgan holda uzunligi 110,3 m bo'lib, pastki quvurlarda har 10 metrda teshiklar bo'lib, unga yog'dirish deflektorlari o'rnatiladi. Har bir teshikning suv sepish radiusi 5 m. Ikki tomoni bekilgan agregat traktorga nasos orqali o'rnatiladi (DDA-100m mashina uchun). Har ish kunida (8 soat) 300 m suv sepib, 6–7 hektar yerni sug'orish mumkin, bu esa har mavsumda 100–120 ga, agar DDA-100m mashinasida bo'lsa, 120–150 ga yerni sug'orish mumkin.

Sug'orish suvlari agregatlarga maxsus nasos orqali keladi. Har bir agregatning oralig'i 120 m chamasi o'rnatiladi. Sug'orish shoxobchalari (ariqlar yoki beton lotoklar)ning uzunligi 400 m dan 800 m gacha bo'lib, chuqurligi 1 m va kengligi 0,5–0,6 m bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki traktor qurilgan maxsus yo'ldan yurishi suvni bir xilda sepishiga imkon yaratadi. Bundan tashqari qurilgan yo'lning qiyaligi 0,001–0,0005 m bo'lib, agregatlarning harakati 200–1000 m/s bo'lsa, yog'ayotgan yomg'ir yerning ustki qismiga 7–20 mm qalinlikda tushib, sug'orish normasi 70–200 m /ga atrofida bo'ladi. Bu esa o'z vaqtida ham suvdan tejab-tergab foydalanish, ham yerni va o'simliklar qoplamini bir xilda suv bilan ta'minlash imkonini beradi.




30-rasm. Yomg'irlatib sepadigan «Rosa-2» apparati.

## O'RTACHA OTAR YOG'DIRISH MASHINALARI VA QURILMALARI

O'zi yurar sug'orish mashinasi, suvni 20–25 m uzoqlikka otadigan, 15–25 m suv ustuni bosimida ishlaydigan purkagichlar o'rtacha suv otar apparatlari deyiladi.

O'rtacha otar apparatlari asosan ikkiga: aktiv gidravlik trubinachali va koromisloli apparatlarga bo'linadi. Koromisloli apparatlari ham ikki xil bo'ladi. 1. Qo'zg'alma deflektorli apparat. 2. Reaktiv kurakli apparat.

1. O'rtacha otar yog'dirish qurilmalari bir necha turlardan iborat bo'lib, shulardan biri SDU № 10 qurilmasidir. Bu qurilmaning 25 m uzunlikdagi qanoti bo'lib, unga 6 ta o'rtacha otar apparat o'rnatiladi. Yomg'ir qanoti 5 m uzunlikdagi trubalardan iborat bo'lib, uning suv sarfi 6 l/sek. Bir yomg'ir sepish vaqt 0,11–0,12 mm/min. Bir joyda turib sug'ora olish maydoni 0,3–0,5 ga tengdir.




31-rasm. Ikki yoqlamali yomg'irlatib sizib sepadigan DDA-100m agregati

## 2. DU-50 o'rta yog'dirish qurilmasi.

Bu qurilmaning har birining uzunligi 246 m li ikkita yomg'ir yog'dirish qanoti va har birining uzunligi 36 m li ikkita qo'shimcha qanotli truboprovodlaridan iborat. Bu qurilmaga hammasi bo'lib 14 ta SDA-2 apparati o'rnatiladi.

3. DN-115 o'rtacha otar mashinasi, bu mashinaning yuqorida keltirilgan qurilmalardan farqi, uning ikkita konsoli bo'lib, DT-54 traktoriga osiladi. Mashina bir joyda turib, yurib turib yomg'ir yog'diradi. Bu mashina suvni ariqlardan olib, maxsus nasoslar yordamida sepatdi. Uning suv sarfi 115 l/sek, sug'orish normasi 300 m<sup>3</sup>/ga bo'lganda mashina 7–8 soat davomida sug'orish imkonini beradi.

4. Hozirga kunga kelib, keng qo'llaniladigan mashinalardan biri «Fregat» va «Voljanka»dir (DDSH-64). Bu mashinaning ish unumi katta bo'lib, har xil qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishga mo'ljallangandir. Misol uchun, Fregat mashinasini ish bajarish tizimsini ko'radigan bo'lsak, bu mashina maxsus arava tayanchlari ustiga o'rnatilgan quvurga ma'lum oraliqda joylashtirilgan purkash apparatlari (o'rtacha otar)dan hamda qo'zg'almas tayanchdan tuzilgan.



32-rasm. Reaktiv kurakli apparat

Quvur uzunligi 9,75 va 4,88 m bo‘lgan quvurlardan yig‘iladi. O‘z tuzilishi va modellarga qarab, Fregat mashinasiga 10 dan 16 tagacha arava o‘rnataladi. Mashina quvurining maksimal uzunligi 459,8 m, minimal uzunligi esa 197,2 m bo‘lib, mashina quvuri bo‘ylab har 30 m da bittadan arava-tayanch o‘rnataladi.

Mashina quvuri maksimal uzunlikda olinsa, bir joyda turib taxminan 73 (72,6) ga maydonni sug‘ora oladi, agar mashina quvuri minimal uchunlikda olinsa, bir joyda turib 16,2 ga yerni sug‘ora oladi.

«Fregat» mashinasining suv sarfi:

30–100 l/sek bo‘lib, o‘rtacha yogdirish intensivligi 0,20–0,32 mm/min. Bu mashinalar bosimli quvurlardan suv oladi.

Hozirgi kunda bu mashinaning mukammallashgani qo‘llanilmoqda. Hozirgi Fregat mashinalarining uzunligi 396 m bo‘lib, bir joyda turib 64,7 ga yerni sug‘ora oladi va shuncha gektar yerni

3–10 sutka davomida bermalol sug‘ora olish qobiliyatiga ega. Fregat mashinasining sug‘orish sxemasi 24-rasmida ko‘rsatilgan.

«Voljanka» (DKSH-54) mashinasи esa g‘ildiraklar ustiga o‘matilgan quvurdan iborat bo‘lib, bir joyda turib ishlaydi va yerda yurib, o‘zi ko‘chib o‘tadi.

Bu mashina qurilmasи quyidagicha tashkil topgan: 2 ta yog‘dirish qanoti, purkash apparatlari, yurgizish aravasi, 2 ta yurish g‘ildiraklari (har qaysi qanotga bittadan), suv olish uzeli, suv tushirish klapanlari va tormozdan iborat.

Yog‘dirish qanoti 32 ta trubadan iborat bo‘lib, ulardan 30 tasining uzunligi 12,6 m dan, ikkitasini esa 5,9 m bo‘lib, ular flanetslar vositasida ulanadi. Har qaysi zvenoning bittadan teshigi bo‘lib, unga o‘rtacha otar purkagichlar o‘rnatiladi. Mashina quvuri orqali keladigan suvni bu purkagichlar aylanma harakat qilib sachratadi. Mashinadagi quvur g‘ildiraklar yoki ko‘targichlar vazifasini ham bajaradi. Uzunligi 400 m bo‘lgan quvurga 132 ta g‘ildirak o‘rnatiladi. Mashina quvurdaga suvni to‘kish uchun (boshqa joyga ko‘chirilayotganda) teshikli klapanlari ochiladi.

Hamma yomg‘irlatib sug‘orish asboblari o‘zining suvini sepish radiusi bo‘yicha yaqiniga sepadigan ( $R < 20$  m), o‘rtacha sepadigan ( $R = 20\text{--}40$ ) va uzoq masofaga sepadigan ( $R > 40$  m) agregatlarga bo‘linadi.

Yaqin masofaga sepadigan qurilmalar past naporli, o‘rtacha sepadigani o‘rtacha naporli va uzoq masofaga sepadigani kuchli naporliga bo‘linadi.

Bu arava shvellerlardan yasalgan rama bo‘lib, unga dvigatelli reduktor, zanjirli uzatma, g‘ildiraklar va asboblar yashigi o‘matilgan bo‘ladi.

Mashina qanotlari yurish o‘qiga perpendikulyar joylashgan bo‘lishi shart, aks holda sug‘orish sifati yomonlashadi.


«Voljanka» mashinasи bir joyda turib 1,44 ga yerni sug‘ora ola-di, uning suv sarfi 63 l/sek, suv yog‘dirish intensivligi 0,25–0,80 mm/min. Sug‘orish normasi 300 m/ga bo‘lganda, u soatiga 0,75 ga yerni sug‘oradi.



33-rasm. "Voljanka" yomg'irlatib sug'orish mashinasi

Har 800 m masofaga bittadan suv borish quvurlari o'rnatilib, ularning oralig'idagi masofa 18 m dir.

Dvigatelli yurgizish aravasi suv quvurning qoq o'rtasiga joylashtiriladi.



34-rasm. O'zi yurar yomg'irlatib sepadigan "Voljanka" mashinasi

## TUPROQNI OSTIDAN SUG'ORISH TARMOQLARI VA TIZIMLARI

Yer ostida sug'orish tarmoqlari tuproqning aktiv qismiga, ya'ni 45–50 sm chuqurlikka, sopol quvurlar shox bog'lamlari, ichiga chaqich yoki tosh shag'al solingan navlar hamda g'ovak metallardan quriladi.

Yer nasos stantsiyasining bosimi ta'sirida suv bu tarmoqqa yuboriladi. Sug'orish quvurlariga (nav yoki shox bog'lamlariga) keltirilgan suv uning g'ovak joylari (quvur g'ovak bo'lса) yoki quvurning ulangan joylarida maxsus qoldirilgan tirqish (yopiq)lar (agar quvur g'ovak bo'lmasa) orqali chiqib, kapillyar qaytarilish qonuniga hamda tuproqning suv shimish (so'rish) xossasiga binoan tarmoq atrofidagi maydonni namiqtiradi.

Tuproqning ostidan (ichidan) sug'orishning ko'pgina afzalliklari mavjud:

1. Ekin maydonlariga egat olinmaydi, muvaqqat shoxobchalar qurilmaydi, bu esa o'z o'mida qishloq xo'jalik ishlarini mexani-zatsiyalashtirishga qulay sharoit yaratadi.
2. Yer tekislash ishlari kamayadi.
3. Sug'oriladigan yerlarda foydalanish koeffitsienti (YeFK) oshadi.
4. Yer sug'orilgach, uning ustida qatqalok hosil bo'lmaydi, tuproq aktiv qatlaming strukturasini buzilmaydi.
5. Yerning nami uzoq vaqtgacha saqlanadi, chunki tuproqning ustki 10–15 sm qalinlikdagi qatlami quruqligicha qoladi.
6. Begona o'tlar va o'simlik zararkunandalari rivojlana olmaydi.
7. Yerni chiqindi suvlar bilan sug'orishda sanitariya qoidalari buzilmaydi.
8. Ertangi sabzavotlarni yetishtirish maqsadida ilitma sug'orish (iliq suv berish)ga imkon yaratadi.
9. Sug'orish ishi avtomatlashtirilganligidan kam mehnat sarflanadi.


Tuproqning ostidan sug'orishning bunday afzalliklariga qaramasdan bu usul hozircha turli tuproq-gidroleologik sharoitlar

hisobiga olingan tarzda yaxshilab ishlab chiqilgani yo‘q. Bunga sabab, birinchidan – sug‘orish tarmog‘i qurishning qimmatiga tushishi, ikkinchidan – sug‘orish yo‘lining filtratsiyaga ko‘proq sarf bo‘lishi, uchinchidan – mexanik tarkibi yengil, qumloq va qumli, shuningdek, toshloq tuproqlarda bu usuldan foydalanishning mumkin emasligi, to‘rtinchidan – quvurning ichiga loyqa tiqilib qolishi kabi kamchiliklar bor.

Endi tuproq ostidan sug‘orish tizimlarini ta’riflaydigan bo‘lsak, bu tizimlar quyidagilardan iborat: 1. Nasos stantsiyasi. 2. Suv keltirish kanallari yoki quvurlar.

Sug‘orish quvurlari, inshootlari, ventillari, jo‘mraklari va bosh-qalar (35-rasm).

#### A-A qirqimi



35-rasm. Tuproq ichidan sug‘orish usuli

1. Bosh quvur. 2. Biriktirish qurilmasi. 3. Quvurning choklari (suv shu choklar orqali tuproqqa shimiladi). 4. Sopol quvurlar.

Tuproqqa suv berish usuliga qarab, tuproqni ostidan sug'orish tizimsi uchga bo'linadi: 1. Bosimli tizim; 2. Bosimsiz (oqma) tizim; 3. Vakuumli tizim (V.G.Korev tizimsi ham deb yuritiladi).

1. Bosimli tizim bosh quvur, sug'orish quvurlari va quvur-zovurdan iboratdir.

Bosh quvurlar kalta-kalta (uzunliga 75,0 sm, diametri 10–12,5 sm) sirlangan sopol quvurlardan tuziladi.

Sug'orish quvurlari ham kalta-kalta (uzunligi 30–40 sm, diametri 5–6 sm) sopol chuqurlardan tuziladi va qator oraliqlarini 1,75–2,0 m dan qilib, 40–50 sm chuqurlikda yotqiziladi. Sug'orish quvurlari esa bosh quvurga ulanadi. Quvurning bir-biriga ulangan joylari sement qorishmasi bilan suvab qo'yiladi. Quvurlar g'ovak bo'lmasa, quvurning tutashgan joylarida suv o'tadigan tirkishlar qoldiriladi. Quvurdagi suv bosimini rostlash maqsadida uning nishabligi 0,0025–0,0040 da yotqiziladi va quvur boshida uni uzunligi bo'ylab har 30–120 m masofada jo'mraklar o'rnatiladi.

Sug'orish quvurlarining etak uchlari quvur-zovurga tutashtiriladi. Quvur-zovurlar diametri 150–200 mm li asbest-sement quvurlaridan iborat bo'ladi.

Agarda tuproq o'ta namiqb qolgan bo'lsa, tarmoq ichidagi suv quvur-zovurlarga tushirib yuborilishi mumkin. Bundan tashqari quvur-zovurlardan zax qochirish maqsadida ham foydalanish mumkin. Qish faslida esa tarmoqdagagi suvni chiqarib yuborishda ham quvur-zovurlardan foydalaniladi.

2. Bosimsiz (oqma) tizim. Bu tizimda suv katta quvurlardan namiqtirish (sug'orish) g'ovak quvurlariga o'z-o'zidan oqib kiradi. Namiqtirish quvuri etak uchlari doimo ochiq turadi. Bu quvurlarga quyiladigan suvning miqdori tuproqning normal namiqishi uchun zarur bo'lgan va tuproqning to'la so'ra olishi mumkin bo'lgan miqdoriga teng bo'ladi. Quvur bo'ylab o'z-o'zidan oqayotgan suv borgan sari shimilib kamayaveradi.

Katta quvurlar bir-biridan 200–400 m masofada yotqiziladi. Katta quvurlar ulanadigan sug'orish quvurlari o'zaro parallel holda bir – biridan 1,2 m masofada yotqiziladi. Ularning uzunligi 100–


200 m bo'ladi (chunki katta quvurlar ikki tomonga suv beradigan qilib quriladi).

3. Vakuumli tizim. Bu tizim juda g'ovak holdagi (mayda teshikli) quvurlardan iborat. Bu quvurlar 40–50 sm chuqurlikda, 0,002–0,003 nishablikda yotqiziladi va ulanish joylari (uchlari) suv o'tmaydigan qilib berkitilib qo'yiladi.

Tuproqning suv shimuvchanligi uchun barcha quvur qatorlar oralig'i 1,72–2,0 m dan bo'ladi. Yotqizilgan quvurlar ustiga alebastr va gipsdan tayyorlangan qorilma quyiladi, chunki bu qorishma quvur ustida g'ovak, suv o'tkazadigan qatlam hosil qiladi. Quvurning bosh qismi esa suv keltirish kanaliga o'rnatiladi. Suv keltirish kanalidagi suvning sathi quvurdan, suv sathidan past bo'ladi.


Tizimni ishga tushirish uchun barcha quvurlar suvga to'ldiriladi I g'ovak quvurdagi suvning shimi lib borishi natijasida, quvur ichida siyraklashgan vakuum hosil bo'ladi. Vakuum ta'sirida kanaldan quvurga yana suv keladi. Tuproq ma'lum qalinlikda namiqqanicha va tuproqning sug'orish kuchi quvur ichidagi vakuum kuchiga tenglashguncha, bu protsess davom etaveradi. Shunday qilib, tuproq to'la namiqqach, bu protsessni aksi bo'ladi. Quvurda vakuum hosil bo'lish hodisasini to'g'ri belgilash yo'li bilan tuproqda o'simlik uchun zarur namlikni saqlab turish mumkin.

Sug'orish quvurlarining etak uchlari kollektorga, boshi berk quvurga berkitiladi va unga so'rish sifoni o'rnatiladi. Bu quvur ichiga kirgan havo sifon yordamida so'rib olinadi. Demak, quvur ichidagi siyraklashish kuchi bu sifon yordamida rostlab turiladi. 36-rasmida tuproq ostidan vakuumli sug'orish tizimsining ishlash sxemasi borilgan.



36-rasm. Tuproq ostidan vakuumli sug'orish tizimsining sxemasi

Tuproq ostidan uzluksiz sug'orishni boshqa tip sug'orish usuliga nisbatan bir necha kamchiliklari mavjud: 1. Bu tizimni qurish juda murakkab bo'lib, u qimmatga tushadi. 2. Suv tuproq osti qatlamlariga o'tib isroflanadi va tuproq suv qatlami hosil qilishi mumkin. 3. Quvur ichida doimo vakuum hosil qilib turishga to'g'ri keladi. Bundan tashqari yana tuproq ostidan sug'orishning yarim yopiq, va 0 yopiq tizimlari mavjud (37-rasm. Zaydelman).



37-rasm. Yarim ochiq (a) va yopiq (b) trubalarni birlashtiruvchi tuproq ichidagi sug'orish sxemasi.

Yarim yopiq tizimda kanal ochiq usulda quriladi va namlatgich trubalar tuproq bilan yopiladi.

Yopiq holdagi sug'orish tizimsining hamma sug'orib va boshqarib turish shoxobchalari yopiq (berk) trubalardan iboratdir.

Hozirgi kunda yopiq sug'orish tizimsida berkitiladigan trubalar yordamida sug'orish keng qo'llanilmoqda.

Suv keltiradagan va bo'lувчи trubalar tuproq ostidan sug'orish tizimsida oddiy alebastr va sementlardan yasalib, tuproqning 0,3–0,6 m chuqurligida ko'milib. Namlatgich trubalar esa 0,45–0,50 sm chuqurlikka ko'milib, ularning oralig'i 1,25–1,30 m dan 2,0–2,5

m masofada yotqiziladi. Namlatgich trubalar polietilen yoki sopol quvurlardan iborat bo'libuning uzunligi 150–250 m masofagacha o'rnatiladi.

Sug'orilib dehqonchilik qilinadigan, ayniqsa paxtachilikda bu tip sug'orish usuli uncha maqsadga muvofiq emas. Chunki, birinchidan – tuproq ostidan uzlusiz sug'orish natijasida tuproq ostida namlik ko'payib, unda suv qatlamini hosil qilishi va ayniqsa, qadimdan haydalib kelayotgan yerlarda, haydalma ostki qatlaming qalinligi va qattiqligi tufayli namlik tuproqning yuza qatlamiga yetmasligi mumkin.

### TOMCHILATIB SUG'ORISH USULI


Tomchilatib sug'orish usuli eng yangi usul bo'lib, oz miqdorda suv sarflash yo'li bilan o'simliklarni suvgaga bo'lgan talabini qondirishga mo'ljallangan.

Bu usul ishslash tarifi shundan iboratki, suv yetishmaydigan tumanlarda sug'orish suvi, xoh tuproqning ustidan, xoh tuproqning ostidan, bevosita o'simliklarni (rizosfera) o'sib turgan joyini o'ziga maxsus tomchilatgich yordamida tomchilatib, oz hajmdagi suv sarflashga asoslangan.

Tomchilatib sug'orish usuli asosan ko'p yillik o'simliklarni (bog'lar, uzumzorlar va ayrim sabzavot ekinlarini) sug'orishda ishlatilib, suv sarfi 0,9–9,0 l/s bo'lib, suv boshqa yerlarga shamilmasdan, to'g'ri o'simlik ildiziga tushadi.

Tomchilatib sug'orish usulining afzallik tomoni shundan iboratki, birinchidan, suv sarfini to'la tejagan holda o'simlikning o'ziga yuboriladi va shu o'simlik uchun zarur bo'lган ozuqa elementini o'simlikning oziqlanish qatlamiga yetkazib berish mumkin. Shu bilan birga bu sug'orish usuli bir muncha kamchiliklardan holi emas. Masalan, tomchilatgich apparatining teshiklarini loyqa bosib qolishi natijasida ishdan chiqishi, bu esa o'z o'rnidagi o'simliklarni oziqlanish qatlaming namligini va tuproqni namlanish konturini nazorat qilish va nihoyat, tomchilatib sug'orish natijasida tuproqning so'rish kuchi ta'siri ostida suvda oson eruvchi tuzlarning to'planishi va tuproqlarqayta sho'rланishi mumkin.

Tomchilatib sug'orish tizimi (30-rasm. Zaydelman). Nazorat tarqatuvchi blokdan ya'ni nasos, filtr, manometrlar, bosimni ko'rsatuvchi boshqarma apparati, o'simlikni oziqlanishi uchun kerak bo'lган ozuqa elementlarining qorishmasi turadigan bochka, suv va ozuqa elementini tomchilatib beradigan enjektordan iborat bo'lib, magistral quvur o'tkazgich, bo'lувчи quvur o'tkazgichlar dan iboratdir.



38-rasm. Tomchilatib sug'orish sxemasi

(1, 2-suv tuzori va napor hosil qiluvchi qurilma. 3-bosh bo'lgich, 4-filtr, 5-suv o'lhagich, 6-manometr, 7-kanallarni birlashtiruvchi qurilma, 8-o'g'it tarqatgich va suv berish qurilmasi, 9-magistral quvur, 10-bo'luvchiquvur, 11-masofali boshqarish qurilmasi, 12-suv berish quvuri, 13-tomchilatgich, 14-suv berish o'lhagini, 15-boshqarish pulti (V.K.Tubin va V.B.Gordeevlar qurilmasi bo'yicha).)

Tomchilatib sug'orish tizimsi unchalik kuchli bosim bermaydigan (30 m ga) nasoslar yordamida ishlab, unga diametri uncha katta bo'limgan 12–19 va 25 mm quvurlar ishlatiladi. Tomchilatgichlarni diametri esa 2 mm dan oshmasligi kerak, chunki suv sarfi va uning yon-atrofiga shimilib ketishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida kichik diametrli tomchilatgichlar o'rnatiladi. Bundan tashqari, tuproqlarda havo almashinish protsessini yaxshilash va quvurlarni tozalab turish maqsadida maxsus kompressorlar yordamida havo ham yuborilib turadi.

Hozirgi paytda tomchilatib sug'orish tizimsi tog'li rayonlarda ko'p ishlatilmoqda, chunki bu yerlarda yomg'irlatib sug'orish tizimsiga nisbatan (relef noqulay bo'lgan yerlarda) 50–70% suvni tejash va filtratsiya orqali suvni shimilib ketishi va nihoyat, suv eroziyasini xavfi yo'qligi bilan afzallik qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tomchilatib sug'orish tizimsi kam rivojlangan, qumli, toshli va unumdorliga past tuproqlarda bosh tip sug'orish tizimlariga qaraganda ko'proq effekt bera oladi.

## G'O'ZANI SUG'ORISH TARTIBOTI

Tuproqning suv xossalari fizik nuqtai nazardan tuproq tarkibida suv turli holatlarda uchraydi. Masalan, bog'langan holatdagi suvga kimyoviy bog'langan suv, pardasimon suv va bug'simon suvlar mansubdir, bu suvlardan o'simliklar foydalana olmaydi. Erkin suvlar esa tuproqning yirik g'ovaklarida bo'ladi. Undan o'simliklar yaxshi foydalanadi. Suv o'zining og'irlik kuchi ta'sirida yuqorida pastga tomon tuproqning suv o'tkazmaydigan qatlamiga yetguncha harakatlanadi. Tuproqning eng mayda sochsimon g'ovaklaridagi suvni kapillyar suv deb ataladi, u tuproqdag'i suvni asosiy qismini tashkil etib, o'simlik, asosan ana shunday holatdagi suvni oladi.

Sizot suvlari chuqur joylashgan yerlarda muallaq holatdagi suvning eng ko'p miqdoriga tuproqning kam namlangan sig'imini to'g'ri keladi. Sizot suvlari uncha chuqur bo'limgan yerlarda esa (2–3 m) ular cheklangan dalani nam sig'imiga mos keladi (16-jadval).

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ayonki, sog' tuproq eng ko'p, qumli tuproq esa eng kam nam sig'imiga egadir. Biroq suv zonasining hammasidan o'simlik foydalanadi, deb bo'lmaydi. Chunki suv sof holda emas, balki tutash kuchiga ega birmuncha kontsentratsiyali eritma holda bo'ladi. Ana shu kuch suvning miqdoriga qarab o'zgarib turadi: tuproqda suv nechog'liq ko'p bo'lsa, u shu qadar kam kuch bilan va aksincha bo'lganda esa juda katta kuch bilan tutib turiladi. Nam kamayganda tuproq eritmasining kontsentratsiyasi kamayadi, shu bilan birga osmotik bosim, suv tutish kuchi ham ortadi. Tuproqda suv tutish kuchi atmosfera hisobida o'lchanadi (17-jadval).

*16-jadval*

**O'zbekistonda tarqalgan asosiy tuproqlarda eng kam nam sig'imi va tuproqda tutilib qoladigan umumiyy suv jamg'armasi**

Tuproqning mexanik tarkibi bo'yicha nomi	Eng kam nam sig'imi vazniga nisbatan %	Qatlamdag suv jamg'armasi, m <sup>3</sup> /ga	
		0,5 sm	0-100 sm
Sog' tuproq	25	1815	3630
Og'ir qumoq	22	1595	3190
O'rtacha qumoq	19	1389	2760
Yengil qumoq	16	1160	2320
Qumloq	13	945	1890
Qumli	10	725	1450

*17-jadval.*

**Tuproq namligiga qarab suv tutish kuchini o'zgarishi.**

Tuproqning namliga og'irligiga nisbatan % hisobida	Tipik bo'z tuproqning suv tutish kuchi, atm.
9,4	20,0
12,2	10,0
18,3	2,0

Agar tuproqdagi tuz miqdori ko'p bo'lsa, uning suv tutish kuchi yana ham oshadi.

Tuproqlarda suv tutish kuchi uning mexanik tarkibiga ham bog'liqdir. Yengil qumoq va qumloq tuproqlar og'ir mexanik tarkibli tuproqlarga qaraganda namlikni kam kuch bilan tutib turadi.

Akademik N.Ya.Maksimov (1935) isbot qilganidek, o'simliklarda namni alohida batartib qiluvchi mexanizm bor, chunonchi tuproq eritmasining kontsentratsiyasi nechog'liq yuqori bo'lsa, o'simlik naychalaridagi eritma kontsentratsiyasi ham shu qadar yuqori bo'ladi. Biroq bu xususiyat faqat cheklangan me'yorda ta'sir ko'rsatadi, tuproq eritmasining kontsentratsiyasi yuqori bo'lgan kuchli sho'rangan tuproqlarda g'o'za o'smay qoladi. Demak, ana shu kuchni susaytirish va ildizlar suvni to'liq shimishi uchun qandaydir namlik va sho'rsizlanish sharoiti yaratish, chunonchi tuproqning suvsizlanishi va sho'rsizlanishining cheklangan darajasini muhayyo qilish zarur. Ma'lumki, mineral moddalar kontsentratsiyasi taxminan 0,08 – 0,15% bo'lgan taxminiy hisoblarga ko'ra eritmaning osmotik bosimi 1 – 1,5 atmosferadan oshmaydi.

18-jadval

#### Tuproqning tuz va nam miqdoriga qarab suv tutish kuchining o'zgarishi

Tarkibida 2,13% tuz bo'lgan kuchli darajada sho'rangan tuproq	Suv tutish kuchi	Tarkibida 0,55% tuz bo'lgan sho'rangan tuproq	Suv tutish kuchi
%	atm.	%	atm.
9,9	143	9,3	35
13,3	59	12,4	26
19,6	30	18,6	18
25,8	17	24,6	11

Tuproqning eritmasi kontsentratsiyasi kuchsiz hamda namlik kam bo'lganda tuproqning suv tutish kuchi 0,2–0,5 atmosferani tashkil qiladi.

Akademik S.N.Rijovning aniqlashicha, normal hayot sharoitidagi o'simliklar oziq moddalarni suyultirilgan eritmalaridan 1–2 atmosferadagi osmotik bosim bilan olaveradi. Har qanday sharoitda ham tuproqning sug'orish oldidagi namligi cheklangan dala nam sig'imi (CHDNS) ga nisbatan 65–70% dan kamaymasligi kerak.

Sho'rlanishga moyil yerlarda tuproq eritmasi kontsentratsiyasini pasaytirish maqsadida namlik CHDNS ga nisbatan 75% bo'lishi lozim. Shunday qilib, tuproqning fiziologik manzur namligi CHDNS ga nisbatan 30–35% ni tashkil etadi. Buni nam taqsimligi yoki sug'orish normasi deyiladi. Sug'orish normasi S.N.Rijovning taklif qilgan quyidagi formulasi bo'yicha hisoblab chiqiladi:

$$M = (w_n - w_m) \cdot 100 \cdot dx \cdot CE : k.$$

Bunda M – sug'orish normasi,  $m^3/ga$ ;

$w_n$  – dala nam sig'imi quruq tuproq vazniga nisbatan foiz hisobida;

$w_m$  – sug'orish oldidan o'sha qatlardagi namlik %;

d – tuproqning hajm massasi. U 1,3 dan 1,6  $g/sm^3$  gacha o'zgarib turadi;

CE – sug'orish paytida bug'lanib ketgan suv,  $m^3/ga$ .

Bu miqdor hisobiy qatlarning nam tanqisligiga nisbatan 10% deb qabul qilinadi. Fiziologik faol tarmoqlangan ildizlarning eng ko'p to'plangan (ildiz taraladigan) tuproq qatlarni uning aktiv qatlami deb qabul qilingan bo'lib, sug'orish normalari shunga qarab hisoblanadi.

Chuchuk sizot suvlari sathi yaqin joylashgan o'tloq tuproqlarning namiqish chuqurligi sizot suvlari orqali namlangan chegara (kapillyar xoshiya)dan oshmasligi kerak. Sizot suvlari chuqurligi hisobga olingan holda hisobiy qatlamlar (19-jadvalda) keltirilgan.

Paxta dala'larda suv balansi. G'o'zani sug'orish tartibotini to'g'ri belgilamoq uchun suv kirimi va sarfining barcha elementlarini, ya'ni paxta dalasi suv balansini bilmoq lozim (10-jadval).

Ana shu ma'lumotlar asosida aytish mumkinki, g'o'zaning vegetatsiya davri davomida jami namlikning qariyb 1/3 ulushi tuproqdan bug'lanadi va 2/3 qismi transpiratsiya tufayli sarflanadi.

Bu ma'lumotlardan ko'rinishicha, sizot suvlari sathi chuqr turadigan tipik bo'z tuproqlarda g'o'zaning o'sish davrida sarflanigan suv balansining assosiy qismini sug'orishda beriladigan suv tashkil etadi, yog'ingarchilik va kuz-qish va erta ko'klamda to'plangan tuproq namining ahamiyati esa kamroq.

Transpiratsiyaga hamda tuproq yuzasidan bug'lanishga sarflangan namlik sarfi jamlangan suv iste'molini tashkil etadi. G'o'zaning o'suv davridagi jamlangan suv iste'molini olingan birligiga taqsimlangani suv iste'moli koeffitsienti deyiladi. Jamlangan suv sarfini o'simlik quruq massasi birligiga taqsimlangan transpiratsiya koeffitsienti deyiladi. G'o'zaning suv iste'mol koeffitsienti iqlim zonalari va tuproq sharoitlariga qarab bir muncha o'zgaradi.

G'o'zaning o'sish davrida iqlim zonalari va tuproq sharoitlari ga qarab suvning sarflanishi.

Yuqorida ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, markaziy va ayniqsa, shimoliy zonaga taqqoslaganda, janubiy zonada suv iste'moli koeffitsienti ancha yuqori.

Bevosita o'tkazilgan tadqiqodlarning ko'rsatishicha, sizot suvlari yer yuzasiga nechog'lik yaqin bo'lsa, ular tuproqning ildiz o'sish qatlami namligi tartibotiga shu qadar ko'p ta'sir ko'rsatadi. Bu namning balansi tenglamasi o'lchamlari va eng muhimi, o'suv davridagi suv hajmini o'zgartiradi. Masalan, S.N.Rijov va N.F.Bespalov ma'lumotlariga ko'ra, sizot suvlari yer yuzasidan 3,0 metrdan chuqr joylashganda g'o'zaning undan ta'minlanishi nihoyatda oz qismni, 2-3 metrda esa (I gidromodul rayoni) go'za umumiy suv iste'molining 40-45%, 1-i,5 metrda esa (III gidromodul rayon) - 60-65%, qatlamlı tuzilishga ega tuproqlarda (VI gidromodul rayon) 5-10% shu kabi qatlamlarga ega bo'lgan (IX gidromodul) rayonda 25-30% ini tashkil etadi.

G'o'zaning o'sish davrida beriladigan suvdan hamda sizot suvlaridan foydalanish miqdori o'simliklarning yoshiga va ularning chuqr massasi qo'shilishi sur'atidagiga qarab o'zgaradi. O'sish davrida g'o'zaning suvga bo'lgan o'rtacha sutkalik talabi bir xil bo'lmaydi. Masalan, barg shapalog'i uncha katta bo'lman va ildiz tizimsi uncha rivojlanmagan shonalash davrida g'o'za

sutkasiga taxminan 35–40 m<sup>3</sup>/ga suv sarflaydi. Gullash-kurak tugish davrida ildiz tizimsi zo'r berib o'sadi, yon ildiz shoxlari miqdori va ularning umumiy uzunligi keskin oshadi. Shuningdek, g'o'za tupining o'sishi, barglar va hosil organlarining paydo bo'lishi jadal kuchayadi, bularning shakllanishiga ko'p miqdorda suv kerak bo'ladi. Natijada g'o'za tupining bug'lanish faoliyati kuchaya boradi. Bu davrda har gettariga ketadigan suv sarfi sutkasiga 80–90 m<sup>3</sup>/ga va bundan ham ortishi mumkin. Keyinchalik hosil organlarining shakllanishi bilan vegetativ organlarining o'sishi susaygach, ildizlarning o'sishi ham sekinlashadi. Bu davrda paxta dalasi

**Sug'orish normalarini belgilash uchun tuproqning qisobiy qatami, sm**

	Sizot suvlarini sathi, m		3-4 dan chuqur		2-3		1-2	
	Gullash-gacha	Gullash-kurak-tugishi-da	Paxta-ochiigan-da	Gullash-gacha	Gullash-kurak-tugishi-da	Paxta-ochiil-ganda	Gullash-gacha	Gullash-kurak-tugishi-da
Tuproq tasnifi	O'rtacha va yengil qumoq bir xil yoki pastga tomon yengillashgan og'ir qumoq	0-50	0-100	0-70	0-50z	1-100	0-70	Sug'oril-maydi
	Og'ir qumoqva soz tuproq bir xil yoki mekanik tarkibi bo'yicha bir xil qatlamlari	0-50	0-100	0-70	0-50	0-100	0-70	Sug'oril-maydi

sutkasiga taxminan 30-50 m<sup>3</sup>/ga gacha suv sarflaydi.

20-jadval.


**Paxta dalasining suv balansi (S.N.Rijov va V.T.Tixonova ma'lumotlari).**

Keladigan suvning turi va suv sarfi	m <sup>3</sup> /ga	Foizda
kirim		
Yog'ingarchilik	355	3,2
Sug'orishlar	10130	93,1
Tuproqdag'i suvning sarfi	465	3,7
Jami kirim sarf	10950	100
Tuproq yuzasidan	3310	30,8
Transpiratsiya	7640	69,2
Jami sarf	10950	100

21-jadval

**Tuproq iqlim zonalari (35–40 ts-ga paxta hosili olish uchun)**

Ko'rsat- kichilar	Tuproq iqlim zonalari					
	Sherobod cho'li	Och tus- li bo'z tuproq- lar	Buxoro vohasi	Mirza- cho'l	Chirchiq- Angren vohasi	Qora- qolpo- g'iston
Mavsumiy sug'orish normasi, m <sup>3</sup> /ga Solishurma suv sarfi	900 257–225	8300 237– 208	8400 239– 210	7500 210–218	6600 188–165	6500 186– 162



8-grafik. Paxta dalalariga o'rtacha bir sutkalik suv sarfi.

Sug'orish normasining va paxta dalasining o'rtacha sutkalik suv sarfi ma'lum bo'lganda sug'orish muddatlarini belgilash mumkin bo'ladi. Lekin iqlim zonalari yilning ob-havo sharoitlariga, nav xususiyatlari, tuproq unumdorligiga o'rtacha sutkalik suv sarfi ham ancha o'zgaradi. Shu boisdan g'o'zaning suvgaga bo'lgan fiziologik talabini qondirish uchun sug'orish muddatlarini to'g'ri aniqlash g'oyat katta va muhim ahamiyat kasb etadi.

G‘o‘zaning muddatlarini aniqlashda bir qator metodlar ishlab chiqilgan. Tuproq namligiga, fiziologik ko‘rsatkichlarga, o‘simliklarning tashqi belgilariga va gullash bo‘g‘inlariga qarab sug‘orish shular jumlasiga kiradi.

Sug‘orish muddatlari tuproqning namiga qarab belgilanishi eng obyektiv metod hisoblanadi. Buning uchun tuproq burg‘isi yordamida 10 sm oralatib, bir qavat chuqurligidan muayyan hisobda tuproq namunalari olinadi va ularning namligi aniqlaniladi.

Ishlab chiqarish sharoitlarida g‘o‘zani sug‘orish muddati quyidagicha hisoblanadi. 30–40 sm chuqurlikdan tuproq olinib, qo‘lda siqiladi va mushtlamay yerga tashlab yuboriladi, agar tuproq sochilib ketsa, demak, sug‘orish kerak bo‘ladi.

Sug‘orish muddatlari g‘o‘zani morfologik belgilariga, ya’ni barglar rangi o‘zgarib to‘k yashil tusga kirganda, barglardagi turgor holati susayishiga, kunduzi soat 2–3 larda bargning asosiy tomiri qirsillab ajralmasligiga qarab ham ajratish mumkin. Buning uchun uchastka-ning diagonali bo‘ylab har 1 gettardan 30–40 ta o‘simlik olinadi.

G‘o‘za gulining boshpoya o‘suv nuqtasiga nisbatan joylanishi ham (gullash – kurak tugish davri) navbatdagagi sug‘orish uchun ancha ishonchli ko‘rsatkich hisoblanadi. Bu metod boshpoyaning o‘sish suratlaridagi qonuniyatlarni hamda unda yangi hosil shoxlarining paydo bo‘lishini va gullashini (tikkasiga qarab) qisqa navbatlarining o‘tish sur’atlarini hisobga olishga asoslangan. Sug‘orishni shunday o‘tkazish kerakki, toki yuqoriga gulning o‘suv nuqtasiga nisbatan joy almashinuvi asta-sekin o‘tsin va bo‘g‘in oraliqlari aynan 4–5 sm masofada bo‘lsin. Masalan, sizot suvlari chuqur joylashgan tipik bo‘z tuproqlarda g‘o‘za gullay boshlaganida gullar bosh poyani o‘suv nuqtasidan sakkizinch – to‘qqizinch – iyul oxiri – avgust boshida yettinchi, avgustda esa to‘rtinch – beshinch – hosil shoxining birinchi o‘rnida turganida sug‘orishga kirishish mumkin.

Gullash bo‘g‘ininining balandligi aniqlangan o‘simliklar dalaing diagonali bo‘ylab shakllanmasdan olinaveradi. Har gettaridan kamida 30–40 ta o‘simlik bo‘yicha hisob yuritiladi.

G‘o‘zani sug‘orish muddatlarini fiziologik ko‘rsatkichlar, ya’ni hujayra shirasining kontsentratsiyasi, barglarning so‘rish kuchi bo‘yicha ham aniqlash mumkin.

Barglar hujayra shirasining kontsentratsiyasi bo‘yicha sug‘orish muddatini belgilash uchun kunduzi (soat 10 dan 17 gacha) o‘suv nuqtasidan uchinchi bargini yulib olib, kul terisi bilan uning shirasi sepib chiqariladi va dastaki refraktometr yordamida quruq moddalar protsenti miqdori aniqlanadi. Masalan, barglar hujayra shirasi gullahgacha 8–9%, gullah ko‘sak tugish davrida 10–11%, paxta ochilish davrida 12–13% quruq modda bo‘lganida g‘o‘zani sug‘orish kerak. Bu nihoyatda tez va sodda metod hisoblanadi, dalada 15–20 minut davomida g‘o‘zani suvga bo‘lgan talabini aniqlab olish mumkin.

Sug‘orish metodi to‘g‘ri belgilansa, g‘o‘za bo‘g‘in oraliqlari 4–5 sm bo‘lib, ixcham rivojlanadi, avgust oxiri – sentyabr oyining boshidayoq paxta pishib yetishadi. Ayniqsa, dastlabki ostki shona tugunchalarini ko‘p to‘playdi.

G‘o‘zaning dastlabki rivojlanish fazasidan gullahgacha o‘suv organlari va ildiz tizimi shakllanadi. Bu davrda o‘suv davri bir me'yorda o‘sishiga hamda ildiz tizimi nisbatan kuchli rivojlanib boradigan sug‘orish tartibotini yaratish juda muhimdir.

Tuproqning ildiz o‘sish qatlamida haddan tashqari ko‘p nam bo‘lishi g‘o‘zaning bo‘yi cho‘zilib ketishiga, bo‘g‘in oraliqlari 4–5 sm o‘rniga 6–8 sm ga yetishiga, hosil shoxlari yuqori joylashib, hosilga putur yetishiga olib keladi. Bu davrda esa quyidagi sug‘orish tartiboti tavsiya egiladi. Masalan, sizot suvlarini sathi chuqur joylashgan yerlarda bir marta, markaziy zonalarida ikki marta. Janubiy zonalarida esa 2–3-marta suv beriladi. Ostki shag‘al va qum qatlami yengil tuproqdarda gullahgacha sug‘orish soni ko‘paytiriladi.

Sizot suvlari 2–3 m chuqurlikda bo‘lgan yengil o‘tloq tuproqlarda, odatda, bir marta suv beriladi. Sizot suvlari 1–2 m chuqurlikda joylashsa, g‘o‘za sug‘orilmaydi. Yoki ayni g‘unchaga kirish oldidan sug‘oriladi. Bu davrda sug‘orish normalari gektariga 800–900 m<sup>3</sup>/ga ni tashkil qiladi, chunki tuproqning uncha qalin bo‘lgan yuqori qatlamidagina nam yetishmasligi mumkin.

Bunday normadagi suvni 12 soat, egat tashlab sug‘orilganda 18 soat davomida quyish mumkin, katta nishabli yerlardagina sug‘orishni 24 soat va undan ko‘proq davom ettirish mumkin.

## **GULLASH-KO‘SAK TUGISH DAVRIDA SUG‘ORISH**

Sug‘orsh tartibotini belgilashda bu davrda shuni e’tiboriga olish kerakki, g‘o‘za gulga kirishi bilan barglar yuzasi oshadi, ildiz tizimsi kerakli rivojlanadi va 1 m gacha va ko‘proq chuqurlashadi. Vegegativ organlari o‘sma borib, meva organlari shakllanadi. G‘o‘za tupi tobora ko‘p suv bug‘latadi. Bu vaqtida paxta dalasining suv sarflashi sutkasiga 70–90 m<sup>3</sup> gacha yetadi va undan ham oshadi. Shu boisdan ko‘plab miqdor suv va oziq moddalari kerak bo‘ladi.

Bu davrda suv vositasida, gullah davridagi kabi g‘o‘zaning rivojlanish jarayoni vegetativ o‘sishdan ustun kelishiga erishmoq kerakki, toki ostki va o‘rta yaruslarda imkonli boricha ko‘p hosil elementlari saqlanib qolsin. Buning uchun gullah – ko‘sak tugish davrida g‘o‘zani chanqatib qo‘yishga, o‘sish va rivojlanishni susaytirishga, barglarning so‘lishi va qoramtilar tus olishiga, shuningdek, tez orada bosh poyaning o‘suv nuqtasida gulning tez paydo bo‘lishiga aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Ko‘sak tugish davrida sug‘orishni ozgina bo‘lsada kechiktirilishi va barglarning to‘q tus olishi g‘o‘za tupining birinchi va o‘rta yaruslaridagi shona, tugunchalar ko‘plab to‘qilishiga sabab bo‘ladi, oqibatda hosilni so‘zsiz pasaytiradi.

Bu davrda haddan tashqari ortiqcha sug‘orish ham ancha xavflidir. Buning natijasida g‘o‘za zo‘r berib o‘sib, barglaydi va g‘ovlab ketadi. Bu hollarda g‘ovlab, ortiqcha soyalanishi hamda tuproqning ortiqcha namlanishi natijasida shona va tugunchalar ko‘p to‘qilishi mumkin. Oqibatda kurak tugilishi susayadi, hosilning shakllanishi ham kechikadi. Gullah-ko‘sak tugish davridagi sug‘orishlar tabaqalashtirish, har bir uchastkaning muayyan sharoitlari hisobga olinishi lozim. Sug‘orishni shunday o‘tkazish lozimki, toki gullar o‘suv nuqtasiga asta-sekin ko‘tarilsin, bosh-poyaning bo‘yi esa ko‘pi bilan 90–100 sm, bo‘g‘in oralig‘i qisqa (4–5 sm), yotib qolmaydigan bo‘lsin.

Bu davrda sizot suvlari chuqur bo‘z tuproqlarida ob-havo odat-dagicha kelgan yillari g‘o‘za to‘rt marta, havo salqin va sernam kelganida uch marta sug‘orilishi kerak. Janubiy paxtachilik zonasida sug‘orish soni to‘rt-beshtagacha ko‘paytiriladi, chunki janubda g‘o‘za suvga ancha talabchan bo‘ladi.

Sug‘orish normalarini tuproq sharoitlariga qarab tabaqalashtirish kerak. Qalin qumoq va sog‘ tuproqlarda sug‘orish normasi 1100 – 1200 m<sup>3</sup>/ga bo‘ladi. Ana shunday normada sug‘orilsa, tuproqning ildiz o‘sadigan qavati juda yaxshi namiqadi va sug‘orishni 14–16 kun oralatib o‘tkazish lozim bo‘ladi.

1. Yengil qumoq va qumloq, shuningdek, uncha qalin bo‘lgan qumoq va qum-shag‘al yotqiziqli yerlarda sug‘orish normalarini 700–800 m<sup>3</sup>/ga gacha kamaytirish mumkin. Katta normalarda sug‘orilganda, bu tuproqni suv tutish xossasi sust bo‘lganidan suvning bir qismi katta chuqurlikka singib ketadi va g‘o‘zaga naf bermaydi. Bunday yerlarda g‘o‘za 10–12 kun oralatib besh-olti marta sug‘oriladi.

O‘tloq tuproqlarida sizot suvlarining chuqurligiga qarab, sug‘orish normalari birmuncha kamaytiriladi va ayni vaqtida sug‘orishlararo davr uzaytiriladi. Masalan, sizot suvlari chuqurligi 2–3 m ga boradigan bo‘z-o‘tloq tuproqlarida g‘o‘za 900–1000 m<sup>3</sup>/ga normalarda uch-to‘rt marta sug‘orilishi kerak. Bu holda sug‘orishlararo davrlar 18–20 kungacha uzaytiriladi.

Sizot suvlari sathi bir-ikki m chuqurlikda bo‘lganda, 20–25 kun oralatib ikki marta sug‘oriladi. Sizot suvlari yaqin joylashgan o‘tloq tuproqlarda oxirgi suv 20–25-avgustda quyiladi. Sho‘rlanishga moyil yerlarda sug‘orishni tez-tez o‘tkazish kerak.

### **PAXTA OCHILISHI DAVRIDA SUG‘ORISH**

G‘o‘za yetilish fazasiga kirishi bilan uning o‘sish jarayonlari sekinlashadi. Bu vaqtida barglar va poyalardan kuraklar tomon zo‘r berib ozuqa moddalar oqadi. Bu davrda transpiratsiyaga va tuproq yuzasidan bug‘larga sutkasiga 30–40 m<sup>3</sup>/ga suv sarflanadi. Kechiktirilgan sug‘orish va katta normalarda suv quyilish natijasida tuproq sovib, qatorlardan havo-ning namligi ortadi, g‘o‘za tuplari keraksiz

qayta o'sa boshlaydi, o'simliklarning yetib qolishi muqarrar bo'lib qoladi. Bu esa paxta ochilishini kechiktiradi.

Paxta ochilish davrida sug'orishlarni shunday o'tkazish kerakki, bunda qayta vegetativ o'sishga yo'l qo'yilmasin va o'sayotgan kuraklarning normal oziqlanishi ta'min etilsin.

Sizot suvlar sathi chuqur bo'z tuproqlarda g'o'zaning ochilishida oxirgi sug'orish 5–10-sentyabrgacha tugallanishi kerak. Sug'orish normasi 800–900 m<sup>3</sup>/ga bo'lishi lozim. Ana shu suv defoliatsiya o'tkazishgacha tuproqni normal tutib turish uchun yetarlidir. Suv bilan yetarli ta'minlangan o'simliklarning barglari defoliatsiyada yaxshi to'qilishi qayd etilgan.

Defoliatsiya boshlashda g'o'zani sug'orish tavsiya qilinmaydi, chunki barglar yana o'sib ketadi.

Sizot suvlar bir-ikki metrgacha yaqin turganda, sug'orishni kechi bilan 20–25-avgustda tamomlash kerak, ya'ni paxta ochilish vaqtida g'o'za sug'orilmaydi.

## EGATLAB SUG'ORISH TEXNOLOGIYASI

Hozirgi vaqtda kolxoz va sovxozlarda suvni egatlardan jildiratib oqizib, shimdirib sug'orish keng qo'llanilmoqda.

G'o'zani sug'orishda, uchastkaning relefiga qarab, uzunligiga va ko'ndalangligiga qaratib sug'orishdan iborat ikki xil sxema qo'llaninadi (23-rasm).

O'qariqlar 20–25 sm chuqurlik, 50 sm kenglik va tubi 20 sm kenglikda ochiladi. Uchastkaning relefni va tuproqning suv o'tkazuvchanligiga qarab o'qariqlar orasidagi masofa 100–150–200 m va undan kamroq bo'ladi. Shu bilan bir vaqtda paykal ariqlari olinadi. Ular orasidagi masofa 200 m dan oshirilmaydi. Ular o'qariqlarga qaraganda ancha keng va chuqur qilib olinadi.

Suvni har bir egatga yoki egat oralatib oqizish tavsiya etiladi. Dastlab suvni kamroq oqizish, so'ngra egatni yuqori qismi namiqishiga qarab suv oqimini ko'paytirish kerak. Suv egat etagiga yetib borgandan keyin egat butun uzunligi bo'yicha tekis chuqurlikda namiqishi va oqava suvni kamaytirish maqsadida suv oqimi kamaytiriladi.

Egatlab sug'orishda tuproq yetarlicha namaqishi uchun oz va o'rtacha nishabli uchastkalarda sug'orishning umumiyligi bir sutkadan, suv oqimining egat oxirigacha yetib borishi esa 8–12 soatdan oshmasligi kerak. Nishabi katta va suv o'tkazuvchanligi oz dalalarda sug'orish davomiyligi bir sutkadan oshishi mumkin. Haddan tashqari (2–3 sutka) cho'zib yuboriladigan sug'orishlar ma'qul ko'rilmaydi.

Qator oralari keng olingan dalalarda egatning uzunligini 150–200 m gacha, egat chuqurligini esa 18–20 sm gacha oshirilishi kerak. Egat chuqur olinganda notejisliklar yaxshi bartaraf etiladi.

Sug'orishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish. Ilmiy sug'orishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishning ba'zi usullarini ishlab chiqishgan. Bunday usullar g'o'za yetishtirishda industrial hisoblanadi.

Egiluvchan ko'chma quvurlar vositasida sug'orish. Suvchilarning mehnat unumdorligini oshirish maqsadida hozirgi vaqtida kapron to'qimasidan qilingan egiluvchan ko'chma quvurlar keng qo'llanilmoqda. Ular diametri 200–300 mm qilib yasaladi, teshiklarida bir xil diametrli klapanlari bor. Shu boisdan har bir egatga bir xil miqdorda suv beriladi. Quvurlar o'qariqlar o'mniga ishlatiladi. Ularning har bir teshigi qator orasining qoq o'rtasiga to'g'ri keladigan bo'lib, qatorlar kundalangiga yotqiziladi. Quvurlarga suv quyilganda undagi suv egatlarga avtomatik ravishda taqsimlanadi.

Suvchi suvning to'g'ri oqishini va ayrim teshiklarning ifloslanishini bartaraf etib kuzatib boradi.

Quvurlar sekundiga 40–50 l suv o'tkaza oladi. Bu esa bir yo'la 2–3 hektar va undan ko'proq maydonni sug'orish imkonini bera-di. Sug'orishdamehnat unumdorligi 2–3 baravar oshadi, muvaqqat ariqlardabo'ladigan filtratsiyaning kamayishi hisobiga suv sarfi 8–10% pasayadi va paxta hosili 3–4 ts ga oshadi. Bundan suvning dalada ancha tekis taqsimlanishi, shuningdek o'qariqlar uchun foydalilaniladigan yer tejalishi tufayli gektarning to'liqligi muhim ahamiyat kasb etadi.

PT-250, TAP-150, TPP-200-markali sug'orish mashinalari yordamida bosim ostida suv berilganda quvurlarning suv o'tkazish xususiyati keskin oshadi. Quvurlarning suv sarfi 150–200 l/s

ga yetadi. Bu bir yo'la 4–5 hektar va undan ko'proq maydonni sug'orishni ta'minlaydi.

Tajribalarning ko'rsatishicha, metall turli polietilenden yasalgan yarim egiluvchan quvurlarni, ayniqsa, nishabli yerlarda ishlatalish eng ko'p samara beradi. Bu quvurlar yuqori bosimlarga bardoshli, pishiq bo'lib, sozlab turadigan vintli klapanlari borki, bular vositasida egatga beriladigan suv oqimini sekundiga 0,05 dan 1–2 l gacha aniq sozlash mumkin. Quvurlar vositasida sug'orish texnologiyasi nishabi sezilarli yerlarda ham bir yo'la 12–15 hektar maydonni sug'orish imkoniyatini yaratadi.

Sug'orish quvurlarini qo'llash va tuproqni yana ham namlashtirish ishlarini avtomatlashtirishni ta'min etadi.

**Yomg'irlatib sug'orish.** Sun'iy yomg'irlatib sug'orish mexanizatsiyalash usullaridan biridir. Bu usul suvdan tejamli va to'g'ri foydalanishni, shuningdek mehnat unumdarligini hamda paxta hosildorligini oshirishni ta'min etadi.

Yomg'irlatib sug'orishning afzalligi shundaki, bu usul qo'llanilganda sug'orish jarayoni to'liq mexanizatsiyalashadi, hamda har qanday sug'orish normalaridagi suv tekis taqsimlanadi. Bu sizot suvlari yaqin turadigan o'tloq yerlarda, ayniqsa, katta ahamiyat kasb etadi. Yomg'irlatib sug'orish mehnat unumdarligini 3–4 baravar oshirish imkonini beradi, bunda suvdan unumli foydalanish va har gektarining hosilini 3–4 sentnerga oshirish mumkin buladi.

Yomg'irlatib sug'orishda DDA-100m markali o'zi yurar aggregat ishlatiladi. U bir vaqtda 120 m yomg'irlatib sug'oradi va bir o'tishda gektariga 50–60 m ni tashkil etadigan suv qatlami hosil qiladi. Sug'orish normasi gektariga 700–800 m bo'lganda aggregat sutkasiga 10–13 gektar maydonni sug'oradi. Keyingi yillarda «Voljanka» markali keng qamraydigan yangi sug'orish mashinasи qurilmoqda. U suvni yana ham tekis intensivlikda yomg'irlatadi, yerni ko'loblatmagan holda yaxshi namiqtiradi. Bu mashinani afzalligi shundaki, u tuproqqa nam singish tezligida yomg'irlatish intensivligi to'liq mos keladi. Natijada, gektarga 1000 m gacha suv quyish va tuproqni 80–100 sm chuqurlikda namlashtirishimkonini yaratadi.

O'zbekiston – Quyiamudaryo (Xorazm viloyati va Qoraqalpo'g'iston), Chirchiq-Ohangaron (Toshkent viloyati), Farg'ona (Andi-

jon, Namangan va Farg'ona viloyatlari), Mirzacho'l (Sirdaryo va Jizzax viloyatlari), Zarafshon (Samarqand, Navoiy, Buxoro viloyatlari), Qashqadaryo (Qashqadaryo viloyati) va Surhandaryo (Surhendaryo viloyati) vohalarining har biri qo'lamida sug'oriladigan yerlarni gidromodul rayonlari yuzasidan gruppash o'tkaziladi. Agar vohada bo'z tuproqlar va cho'l zonasini tuproqlari bo'lsa, unda gidromodul rayonlari bu tuproqlar uchun alohida ajratiladi. Gidromodul rayonlarining ta'rifi 23-jadvalda keltirilgan.

Ko'p yillik tajribalarning umumlashgan ma'lumotlari asosida g'o'zani sug'orishning aniqlashtirilgan tartiboti tuzib chiqilgan va joriy etish uchun tavsiya etilgan (24-jadval).

Ostki shag'al qatlami uncha qalin bo'limgan tuproq sharoitlarida (I va II gidromodul rayonlari) sug'orish soni va mavsumiy sug'orish normasi taxminan 15% ga ko'paytiriladi. Bu tuproqlarning namligi sig'imi katta emasligiga bog'liq, oshirilgan mavsumiy sug'orish normalari esa tuproq namining transpiratsiyaga hamda bug'lanishga ko'p sarflangani tufaylidir.

23-jadval

Gidromodul rayoni	Aeratsiyazonasidagi tuproqlarning mexanik tarkibi, tuzilishi va taxlanishi bo'yicha ta'rifi	Sizot suvlari chuqurligi
I	Qum-shag'al yotqiziqlaridagi qalin qumli hamda uncha qalin bo'limgan qumoq va sog' tuproqlar.	3,4
II	Qum-shag'al yotqiziqlaridagi o'rtacha qumoq va sog'ham qalin qumloq tuproqlar.	_»_
III	Qalin qumoq va sog' tuproqlar.	_»_
IV	Qumli va qumoq tuproqlar.	_»_
V	O'rtacha va yengil qumoq, bir xil yoki pastga tomon yengillashadigan og'ir qumoq tuproqlar.	_»_
VI	Og'ir qumoq va sog' tuproqli bir xil, taxlanishi bo'yicha zich yoki mexanik tarkibi bo'yicha turli, tuzilishi bo'yicha qavatli.	_»_
VII	Qumli va qumoq tuproqlar.	1,2
VIII	O'rtacha va yengil qumoq, bir xil yoki pastga tomon yengillashadigan og'ir qumoq tuproqlar.	_»_
IX	Og'ir qumoq va sog' tuproqlar, bir xil, taxlanishi bo'yicha zich va mexanik tarkibi turli, tuzilishi bo'yicha qavatli.	_»_

Sho'rlanishga moyil namlikning pastki chegarasi CHDNS (cheklangan dala nam sig'imi) ga nisbatan 70–80% qabul qilinadi. Shu bilan birga sug'orish normasi sho'rlanmagan yerdagiga qara-ganda 20–30% ko'paytiriladi.

*24-jadval*

### Sug'orish sxemasi va mavsumiy sug'orish normasi

Tuproq-iqlim okruglari (vohalar)	Gidro-modul rayoni	Mavsumiy sug'orish normasi m /ga	Sug'o- rish sxemasi
Quyiamudaryo vohasi, cho'l zonasini tuproqlari	V	5000	1-4-0
	VI	5600	2-4-0
	VII	3000	1-2-0
Mirzacho'l vohasi, azaldan sug'orib kelingan zonaning bo'z tuproqlari	IX	4000	1-3-0
	V	4500	1-4-0
	VI	5500	2-4-0
	VIII	2500	0-2-0
Surhandaryo vohasi, Sherobod cho'lining taqirli, taqirli-o'tloq tuproqlari	IX	3500	1-2-0
	II	8000	3-5-1
	III	7500	2-5-1
Farg'ona vohasi, och tus bo'z, bo'z-o'tloqi tuproqlari	VI	7000	2-4-1
	IX	5000	1-4-1
	II	7000	3-4-1
	III	6600	2-4-1
	VI	5000	1-4-1
	VII	6000	2-4-1
	VIII	3000	1-2-0
	IX	4000	1-3-0

### DARYODAN TO'G'ON QURMASDAN SUV OLİSH

Magistral kanalining sug'oriladigan barcha yer maydoniga  
suv bera olish nuqtasi A va suv sarfi Q aniqlangan bo'lsa, daryoda  
to'g'on qurmasdan suv olinadigan joy quyidagicha belgilanadi.

A nuqta yerning otmetkasini  $N_A = 251$  m deylik. A nuqtadan suvning barcha yeriga o'z-o'zidan oqib borishni ta'minlash uchun shu nuqtadagi yer otmetkasiga  $h=0,5$  m ga teng qiymat qo'shilishi kerak, ya'ni magistral kanaldagi A nuqtadan suv sathining otmetkasi

$$N_A = N_A + \Delta h = +0,5 = 251,5 \text{ m.}$$

Kanalning taxminiy gidravlik radiusi esa S.A.Girshkan formulasi yordamida topildi.

$$R = 0,5 Q^0 \quad (1)$$

Suvning kanalda yo'l qo'yiladigan oqish tezligini prof. A.A.Cherkasovning quyidagi formulasidan topish mumkin.

$$\partial_{yo,yo} = 0,95 \partial_{RM^m} \quad (2)$$

bu yerda  $\partial_0$  – gidravlik radiusi  $R=1$  m bo'lgan kanal uchun tuproqning yuvilishini e'tiborga olgan holda yo'l qo'yiladigan sun'iy oqish tezligi (kritik tezlik);  $m$  – gruntning bo'sh va qattiq bo'lishiga bog'liq daraja ko'rsatkichi, o'rtacha hisobda  $m=1/3$ .

Kanalning nishabi (kritik nishablik) Shezi formulasidan topiladi.

$$i_k = \frac{\partial^2 \epsilon \cdot \epsilon}{\tilde{N}^2 R} \quad (3)$$

Topilgan nishabga asosan kanalning A nuqtadan B nuqtagacha bo'lgan uzunligani IR ni o'lchab suv sathining B nuqtadagi otmetkasi (4) formuladan aniqlanadi.

$$H_B = H_A + I_R \cdot L_R \quad (4)$$

Misol:  $L_g = 0,008$  (daryo nishabi)  $L_k = 5$  km;  $N_0 = 248,5$  m (daryodagi hidrologik kuzatish stvoridagi suv sathining otmetkasi).

$L_g = 2$  km (stvordan B nuqta to'g'risigacha bo'lgan masofa) bo'lsa, B nuqtadagi suvning sathini otmetkasi  $N_b = 251,5 + 5000 + 0,004 = 271,5$  m bo'ladi.

Daryodagi suv sathi magistral kanal boshidagi suv sathidan yuqori turishini tekshirib ko'radigan bo'lsak, hidrologik kuzatishlar o'tkaziladigan stvordan(m. uchun 251 – gorizontaldan) B nuqta to'g'risigacha bo'lgan daryo uchastkasining uzunligini aniqlaymiz

(5-formuladan B nuqta to‘g‘risidagi daryo suvi sathini otmetkasini topamiz).

$$N_B - N_0 + l_g L_g$$

Misol:  $H_Q = 248,5$   $I_0 = 2000$ ,  $l_g = 0,008$  bo‘lsa, daryodagi suvning B nuqtadagi sathi  $N_s = 248,5 + 2000 \times 0,008 = 264,5$  m bo‘ladi.

Agar gidrologik kuzatishlar o‘tkaziladigan stvor B nuqtadan yuqorida joylashgan bo‘lsa, (5) formula quyidagicha o‘zgaradi.

$$H_A = H_0 + l_g L_g$$

Magistral kanaldagi bosh inshootga suv oqib kirayotganda suv bosimi 20–30 sm pasayadi. Shuni e’tiborga olgan holda daryoning gorizonti B nuqtada qanday bo‘lishini quyidagi formuladan aniqlash mumkin.

$$N_B + z < N_B'' \quad (b)$$

Bu shart qanoatlantirilmagan taqdirda, ya’ni  $N_B + z > N_B''$  bo‘lsa, suv daryoning boshqa joyidan  $I$  ya’ni, S nuqtadan olinishi kerak. B nuqtadan S nuqtagacha bo‘lgan masofani  $I_s$  bilan belgilab, quyidagi tenglamani yoza olamiz:

$$H_B' + l_c I_k + z = H_B + l_c I_g \text{ yoki } N_B - N_B'' + z = I_s (l_g - l_k).$$

$$\text{Bundan } I_s = \frac{H_B' - H_B'' + z}{l_g - l_k}$$

Yuqorida keltirilgan va aniqlangan barcha ma’lumotlarga asosan qo‘shimcha salt uchastkaning uzunligi

$$I_c = \frac{271,5 - 264,5 - 0,3}{0,008 - 0,004} = 1825$$

Demak, S nuqtada daryodan magistral kanalga to‘g‘on qurmasdan suv olish mumkin ekan.

Agar kanalning qismi juda uzun chiqadigan bo‘lsa yoki daryo yoqalab kanal trassasi o‘tkaziladigan joydagi geologik sharoit noqulay bo‘lsa, yo shu uchastkada daryo barqaror bo‘lmasa, kanal trassasini daryodan uzoqlashtirish iqtisodiy jihatdan muvofiq topilmasa, suvni S nuqtada emas, balki B nuqtada (injenerlik usulida to‘g‘on yoki nasos stantsiyasi qurib) olish ma’qul.

Tuzilgan loyiha variantlarining qaysi biri afzalroq va qulayroq ekanligi, joylardagi inshootlarni qurish va ekspluatatsiya qilish xarajatlari hisoblab chiqiladi va aniqlanadi.

Kanal qazish, unda bir xilda suv oqimini ta'minlash – shu tuproq qatlamlarini tuzilishi, mexanik tartibi, hajmi og'irligi va bir qancha ko'rsatkichlarga bog'liqdir. Shuning uchun biz tuproq qatlamlari va gruntlar to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'lishimiz kerak.

## TUPROQ QATLAMLARI

Kanal o'tadigan yerlarni ko'ndalang va bo'ylama profilining tuzilishi va uning xarakteriga qarab suv nobudgarchiligini kamaytirish maqsadida kanalga har xil qoplamalar (beton, asfalt, kimyoviy moddalar va h.k.) yotqizish tadbirlari avvaldan belgilanadi.

Bizning sharoitimizda kanal qazishda quyidagi gruntlarga duch kelinadi:

1. Qoyalar. Ular deyarli siqilmaydi, suv singdirmaydi va juda mustahkam bo'ladi (granitlar, bazaltlar, ohaktoshlar va qum toshlar bir-birlari bilan mahkam bog'langan, ya'ni sementlangan bo'ladi). Hajm og'irligi  $2300-2900 \text{ kg/m}^3$  atrofida bo'ladi. Bunday gruntli yerlar portlatish yo'li bilan qaziladi. Qoyani yorib o'tkaziladigan kanallar g'oyat turg'un bo'ladi. Ularning otkoslari deyarli tik olindadi, bu kanallarda suvning oqish tezligi juda katta bo'lib, ularda suv kam nobud bo'ladi.

2. Chala qoyalar. Bu gruntlar asosan mergel, soz tuproq, chaqmoqtosh, kremen sement aralashgan qumtoshlardan iborat bo'lib, bosim ta'sirida birmuncha siqilish xossasiga ega. Bundan tashqari, suvda oz eriydigan yoki shunga o'xshaydigan gruntlar gips aralashgan qumtoshlar, konglomeratlar va shunga o'xshagan minerallar ham chala qoya gruntlari jumlasiga kiradi. Bu gruntlarning hajmiy og'irligi  $1900-2200 \text{ kg/m}^3$ . Bunday yerlar ham ko'pincha portlatish yo'li bilan qaziladi va suv isrofgarchiligiga yo'l qo'ymaslik maqsadida bu kanallar ko'pincha beton yoki asfaltlanadi.

3. Yirik donador gruntlar. Bu gruntlar bir-biri bilan birikmagan uvoq tosh jinslar (shag'al, chaqiq tosh, yirik qum, mayda toshlar)

dan iborat bo'lib, hajmiy og'irligi  $1400\text{--}1700 \text{ kg/m}^3$  atrofidabo'la-di. Bunday yerlar asosan ekskavatorlar bilan qaziladi. Bunday gruntlar tabiiy holatda juda ko'p suv singdiruvchan bo'ladi.

Kanalning F.I.K. (foydali ish koeffitsienti)ini oshirish uchun ko'pincha kanal o'zanlarini turli xil materiallar bilan qoplanadi.

4. Quruq qumli gruntlar. Bunday gruntuarning zarralari bir-birlari bilan qovushmaydi, quruq holda sochilib turadi. Hajmiy og'irligi o'rtacha  $1600 \text{ kg/m}^3$  dan oshmaydi. Bunday yerlarni har qanday yer qazish mashinalari yordamida qazish mumkin. Qumli gruntuarda qazilgan kanallarning F.I.K. ini oshirish uchun kanal g'o'zani kolmataj (loyqa cho'ktirish) qilinadi yoki boshqa xil materiallar (beton, asfalt) bilan qoplanadi.

Ba'zi paytlarda bunday gruntuarda qum va qumoqlar suv bilan birga oqa boshlaydi. Shuning uchun bunday gruntu ko'pincha oqma funtlar ham deb yuritiladi. Oqma gruntuarda qazishdan oldin ba'zi bir tadbirdarni amalga oshirish talab qilinadi, jumladan – gruntu muzlatish, kanal qiyaliklarini yotiqroq olish, shpunkt qoqish va shunga o'xshash tadbirdarni qo'llash lozim. Bunday gruntuarning g'ovakligi kam – taxminan 25%, hajmiy og'irligi katta –  $1900\text{--}2000 \text{ kg/m}^3$  bo'ladi.

5. Soz tuproqli funtlar. Zarralari qovushqoq, plastiklik soni birdan ortiq bo'lgan gruntu soz tuproqli funtlar deyiladi. Bu funtlarni hajm massasi  $1200\text{--}1600 \text{ kg/m}^3$  bo'lib, yer qazuvchi mashinalari bilan kovlanadi. Kanallarning F.I.K.ini oshirish uchun tuprog'i shibbalanadi yoki qoplama (beton asfalt) yotqiziladi.

25-jadval

#### Soz tuproqli gruntlar

Tuproq nomlari	Tarkibida 0,01 mm dan kichik fraktsiyalar miqdori	Plastiklik soni (w)
Soz tuproq	>50	>17
Qumoq tuproq	50–20	>17–7
Qumloq tuproq	20–10	7–1

Gruntning cho'kuvchanligi. Tarkibida 0,05–0,005 mm kattalik-dagi changsimon zarralari 50% dan ortiq gruntlar lyosslar deyiladi. Lyossgruntlarning tabiiy g'ovaklari 45% dan ortiq va hajm masasining og'irligi 1,40 g/sm<sup>3</sup> dan kichik bo'lsa, ular cho'kuvchan bo'ladi. Lyossning cho'kishi quyidagi formula asosida topiladi:

$$i = \frac{h - h_o}{h_o}$$

bunda  $h$  – tabiiy nam grunt namunasining  $R_{\frac{d}{h}}$ , bosimda siqilgan-dan keyingi balandligi;

$h'$  – o'sha namuna namiqlantirilgandan keyin  $R_{\frac{d}{h}}$ , bosimda siqilgandagi balandligi.

$h_o$  – grunt namunasining tabiiy namlikdagi balandligi ( $R=0$ ).

Agar  $i=0$  bo'lsa, grunt cho'kmaydigan;

$0 < i < 0,02$  bo'lsa, grunt salgina cho'kadi;

$0,02 < i < 0,07$  bo'lsa, funt o'rtacha cho'kadi;

$0,07$  bo'lganda esa grunt ancha (tez) cho'kadi.

Demak, irrigatsiya tizimlari loyihasini tuzishda bajariladigan turli xil agromeliorativ tadbirlarning xarakteri grunt turlariga qarab belgilanar ekan. Bundan tashqari sug'orish tartibotini bilish va uni belgilash uchun yuqorida aytilganidek tuproqni xususiyatlarini, undagi gidrogeologik shart-sharoitlarini va shu rayonning iqlimiylarini bilish ham kerak.

Yana shu narsaga katta e'tibor berish kerakki, sug'oriladigan rayonlarda (ayniqsa, biz yashab turgan rayonlarda) tuproqlar, qumloq, bo'z va qumoq hamda soz qumoqlardan iborat bo'lib, bu tuproqlarning sho'rланish xarakteri va sho'rланish darajasi har xildir. Shuning uchun gruntlardan kanallar o'tkazish paytida uning atrofida tuproqning sho'rланishiga yo'l qo'ymaslik tadbirlarini oldindan o'ylab belgilash kerak.

## **SHOLINI SUG'ORISH TARTIBOTI**

Sholi serhosil donli o'simlik hisoblanib, yer sharining yarmidan ko'p aholisining eng keng iste'mol qiladigan oziq-ovqati hisoblanadi.

Sholi asosan tropik va subtropik iqlimli mamlakatlarda o'stiriladi va bunday sharoitda sholidan 2–4 marotaba hosil olinadi. Sholini butun vegetatsiya davri deyarli suvda o'sishiga qaramasdan, u issiq seuvuchchi o'simlik hisoblanadi. Shunga binoan yoz oylarining umumiy temperatura yig'indisi  $2000^{\circ}\text{C}$  dan oshsa, o'simlik yaxshi rivojlanadi. Sholini sug'orish doimiy suv ostida va tez-tez bostirib sug'orish bilan olib boriladi (39-rasm), shulardan eng ko'p qo'llaniladigan bostirib sug'orishdir. Bunda tuproq sharoitiga qarab suv berish uchta tartibotda olib boriladi.

1. Doimiy bostirib sug'orish – sho'rangan ifloslangan yerlarda qo'llanilib, zaharli tuzlarni miqdori 2% dan oshsa va filtratsiya koeffitsienti ( $F_k$ ) 0,5 sm/sut dan kichik bo'lsa, bu tartibot yaxshi effekt berishi mumkin, lekin o'simlikning unib chiqishi siyraklashadi. Shuning uchun qisqartirilgan sug'orish tartiboti qo'llansa yaxshiroq bo'ladi.

Bu usulda suv oz miqdorda, lekin bostirib beriladi, unda urug' unib chiqadigan paytda suv bo'ktirib berilmaydi va tuproq sho'rangan yoki o'rtacha sho'rangan yerlarda  $F_k$  0,5 sm/sut dan yuqori bo'lgan yerlarda yaxshi natija beradi.

Suv o'tkazuvchanligi yaxshi  $F_k$  2 sm/sut dan oshiq bo'lgan tuproqlarda vaqtı-vaqtı bilan bostirib sug'orish tavsiya etiladi. Bostirib sug'orish vaqtı har 5–6 kunda qaytariladi va bu usul bilan sug'orilganda, sug'orish normasi ikki va undan ortiqqa qisqartiriladi.

Tropik mamlakatlardagina (Vietnam, Hindiston va boshqalar) bir sug'orish usuli mavjud bo'lib, u daryo bo'ylarida qo'proq qo'llaniladi. Bu usulda sholi sug'orilganda toshqin suvlari bilan 2–3 m qalnlikda suv quyiladi. Sholi poyasi esa elastik holga kelib rivojlanadi.

Sholini sug'orish tizimsida sug'oriladigan kartalarga uzunasi-ga 400 dan 1500 m ga, eni esa 150–250 m qilib olinadi va chor

atrofiga marzalar qurilib, gektarga bo'linadi. Cheklarni maydoni 0,24 – 4 ga dan oshishi kerak emas. Bundan tashqari marzalar shunday qurilishi kerakki, u qishloq xo'jalik mashinalariga xalaqit bermasligi kerak hamda bir vaqtning o'zida sug'oriladigan suv bir nechta cheklarga bir vaqtning o'zida beriladi, chunki bu chiqindi kanallarga suvni bir vaqtda chiqishini taminlaydi. Bizning sholi yetishtiriladigan rayonlarimiz yaxshilab tekislanadi hamda urug'i ekilib olinadi. Sholi suv va issiqlikni ko'p talab qilganligi uchun butun vegetatsiya davri davomida 10–15 sm suv qatlami ichida o'sadi.

Sholi dastlab 20–30 kun suvga bostiriladi. Bu davrda sizot suvlarning yuza yoki chuqur turishiga hamda sholipoyadagi suvning oqib ketish tezligiga qarab, har gektariga 20000–30000 m suv sarflanadi.

Bu mavsum davomida sholiga berilish lozim bo'lgan suv normasining 35% ishlataladi.

Suvga bostirishning ikkinchi davrida sholipoyaga suv 10–15 sm qalinlikda muttasil oqizib qo'yiladi. Bu davr 70–80 kun davom etadi va beriladigan suv normasining 55 foizi shu davrda sarflanadi. Sholi pishish davrida esa pollardagi suv chiqindi kanallar orqali chiqarilib yuboriladi. Bu davrda berilgan suv mavsumiy sug'orish normasining 10% ni tashkil etadi. Suvdan foydalanish belgilangan planlarda mavsumiy sug'orish normasi 20–30 ming m<sup>3</sup> belgilansa ham, odatda sholini sug'orish uchun mavsum davomida 45–60 ming m<sup>3</sup> suv sarflanadi. Sholini har 5–10 kunda sug'orib turilganda mavsumiy sug'orish normasini 20–25 ming m<sup>3</sup> ga kamaytirish mumkin. Sholipoyalarda issiqlik tartibotini bir me'yorda saqlash maqsadida sholi doim suvda o'stililadi. Shunday qilinganda tuproq-dagi kunduzgi maksimal temperatura pasayadi, tungi minimal temperatura esa ko'tariladi. Shuning uchun suv tanqis bo'lgan paytlarda sholini sug'orish tizimsida vaqt – vaqt bilan sug'orish lozimdir.

**V BOB. SHO'RLANGAN TUPROQLAR  
MELIORATSIYASI.  
TUPROQ VA UNING QATLAMLARINING ASOSIY  
SHO'RLANISH OMILLARI**


Tuproq va uning qatlamlarida tuzlarning to‘planishiga asosiy sabab birinchidan atmosfera yog‘in-sochini, ikkinchidan sizot suvlari, uchinchidan tuproq hosil qiluvchi ona jinslar va nihoyat shamol harakati hamda oqar suvlarning sustligidir.

Bu hodisa ko‘pincha issiq va quruq iqlimli zonalarga xos bo‘lib, Markaziy Osiyo, Kavkaz oldi, Qora tuproqli o‘lkalarda keng tarqalgandir.

Sho‘rlangan tuproqlar tarkibida suvda oson eriydigan tuzlarni umumiy miqdori 0,25% dan katta va madaniy o‘simliklarni o‘sishi-ga halaqit beradigan yoki o‘stirmaydigan tuproqlarga aytildi.

Zaharli tuzlar tarkibiga xlоридлардан  $\text{NaCl}$ ,  $\text{MgCl}_2$ ,  $\text{CaCl}_2$ , sul-fatлардан  $\text{Na}_2\text{CO}_3$ ,  $\text{Mg}_2\text{CO}_3$  lar kiradi. Bundan tashqari sho‘rlangan tuproqlar sho‘rxoklar, sho‘rtoblar va solodlashgan tiplarga bo‘linadi.

Tajriba nuqtai nazaridan olib qaraganda, tuzlar ko‘pincha oqar suvlar yoki sizot suvlar bilan birgalikda tuproqqa kelib to‘planadi.



~~|||||~~ tog‘ jinsi ~~○○○○~~ shag‘al ~~×××~~ qumlar, yirigi va maydasi ~~— — —~~ qumloq va qumoqlar ~~|||||||~~ loylar

47-rasm.

Tuzlarning suv bilan kelib tuproqqa tarqalishi, ko'proq quyidagi mahalliy tabiiy sharoitlarga: joyning relefi va geologik tuzilishiga, tuproq-gruntining suv o'tkazadigan (filtrlash) xossalari va boshqalarga ham bog'liq. Misol uchun daryolarni olib qaraydigan bo'lsak, ular o'zlarining oqish tezligi va oqib chiqadigan manbalariga qarab har xil, katta-kichik toshlar, shag'allar, qumlar va h.k.larni olib keladi, oldin katta-katta tosh siniqlarining minerallari, keyinchalik kichiklari va daryo o'zanida qumoqlar holida loylar to'planadi. V.V.Yegorov tuzlarni oqar suvlar bilan oqib kelishi quyidagi qonuniyat asosida ro'y berishini keltirgan.

Keltirilgan rasmdan ko'rinish turibdiki, tog' jinslari hamda tuzlar qandaydir bir ma'lum qonuniyat asosida yotar ekan. Bu qonuniyatlar tuproq tarkibida tuzlarning tarqalishi geografiyasini aniqlab, quyidagi omillarga bo'linadi.

1. Tuproq tarkibida tuzlarni to'planshi va aralashishida iqlimning roli.

Biz yuqorida aytganimizdek, sho'rlangan tuproqlar cho'l zonasining issiq va quruq oblastlarida keng tarqalganligini faqatgina tuzlarni oz qismi boshqa zonalarda tuproqni sho'rlangan jinslarida va atmosfera namligi yuqori bo'lmagan hamda dengiz qirg'oqlarida suvlar olib kelgan tuzlar tarqalgan.

Quruq va issiq o'lkalarda tuzlarni hosil bo'lishi atmosfera yog'in sochinining yerning chuqur qatlamlarigacha namlatmasligi, grunt suvlarining tuproq yuzasiga yaqin joylashganligi va parlanishning nihoyatda ko'pligi, tuproq va grunt suvi tarkibida tuzlarning ko'pligi tuproq va grunt suvi tarkibida zaharli tuzlarning to'planishiga sabab bo'lmoqda. Bizga ma'lumki, parlanish miqdori iqlimi sharoitlarga bog'liq ravishda ikki xil ko'rinishda bo'ladi. Birinchidan, erkin suv yuzasidan parlanish, ikkinchidan tuproq yuzasidan parlanish. Keltirilgan jadvaldan shu narsa ko'rinish turibdiki, shimoldan janubga qarab yurgan sari bug'lanish ortib borishini ko'ramiz, shunga ko'ra parlanish ham bir me'yorda ortib boradi.

V.A.Kovdaning ta'riflashicha, atmosferadan tushadigan yog'in-sochin, o'simliklar qoplami va sizot suvlarining yer yuzasiga uzoq-yaqin joylashganligiga qarab parlanish shimoldan janubga tomon iqlimni quruqlasha borishi bilan orta boradi (27-jadval).

## Har xil zonalarda namlikni bug'lanishi va parlanishi, mm

Zonalar	Bug'lanish	Parlanish
Tundra	200–300	70–120
Tayga	300–600	200–300
Aralash o'rmon	400–850	250–430
Dasht	600–1100	240–550
Chala cho'llar	900–1000	180–200
Cho'llar	1500–2000	50–100
Subtropik	800–1300	300–750

Keltirilgan jadvaldan ko'rinish turibdiki, tuproqlarning sho'rلانishi iqlimi o'zgarishi bilan ortib bormoqda, u o'rmon dasht zonasidan boshlanadi.

Sho'rланган tuproqlarda hamma zonalar uchun parlanishni o'zgarishi iqlim bilan bog'liqligi hamda havoning nisbiy namligi va atmosfera yog'in-sochinligini yozning ikkinchi yarmidan yog'ishi bilan o'zgarishi ko'rinish turibdi.

## Sho'rланган tuproqlarda iqlimi sharoitda parlanishning o'zgarishi (V.A.Kovda ma'lumoti).

Iqlimiyl zonalar	Temperatura, °C			Sovuqsiz davrlar	Havoning nisbiy namligi ikki quruq oylarda, %	Atmosfera yog'ingarchiligi, mm	Yillik parlanish, mm
	o'rtacha	Iyul	yanvar				
Cho'llarda	15–18	20–30	5– 102	200– 240	20 va	80–200	2000– 2500
Chala cho'llarda	10–12	24–26	-5–10	180– 200	20–30	200–300	1000– 1500
Dashtlarda	5–10	20–25	-5–15	150– 180	35–45	300–450	800– 1000
O'rmon- dasht	3–5	20–22	-5–16	120– 150	40–45	350–500	500–800

Dasht va o'rmon-dasht zonasida sho'rxok va sho'rxoklashgan tuproqlar, sho'rlangan gruntlardan yoki yer osti suvlari chuqur joylashmagan, minerallashgan (1,5–2,5) sizot suvlardan paydo bo'ladi. Qo'riq dasht zonasida esa tuproqlarning sho'rlanishi yog'ing archilikni ozligi va uning yil davomida bir xilda tarqalmasligidan va bahor, yoz oylarining uzoq davom etishidan va nihoyat atmosferadan tushadigan yog'in yerning chuqur qatlamlarini ( $N_1 q1, 65$  m) namlatmasligidan hosil bo'ladi. Bunday sharoitda ko'proq solodlashgan tuproqlar paydo bo'ladi. Sho'rlangan va solodlashgan qatlamlar yer yuzasidan uncha chuqur joylashmagan bo'lib, sizot suvining kapillyar tartiboti tipi ostida dasht zonasiga qaraganda ko'proq tuz to'planadi.

Cho'l va chala cho'l zonalarda esa boshqa zonalarga qaraganda atmosferadan keladigan yog'ingarchilikning ozligi (yog'ingarchilik asosan bahor va qish oylarida) va bu tuproqni chuqur qatlamlarini namlata olmasligi, parlanishni nihoyatda ko'pligi oqibatida bu zonalarda tuzlar to'planishi tez va ko'p miqdorda bo'ladi. Bundan tashqari, sizot suvlari yer yuzasidan chuqur joylashmagan bo'lsa, u tuproq kapillyarlari orqali ham ko'tarilib, tuproqni sho'rlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Cho'l zonalarida tuproqlarni sho'rlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri shamoldir. Bu zonalar yoz oylari shamol tartiboti bilan bog'liq bo'lib, yerning ustki qismini ko'rinishini va chang hamda tuzlarni uchirib olib ketishi bilan xarakterlanadi va tuproqni shamol eroziyasiga uchratadi. Misol uchun, Orol dengizini ko'rish mumkin.

Amudaryo hamda Sirdaryoning suvlari Orol dengiziga yetib bormasligi oqibatida suvdan bo'shab qolgan qumli va sho'rli maydonlar dengiz akvatoriyasida 2,5–3 mln ga tashkil qiladi. Mana shu yerlarda har yili 125–175 mln tonna qum changlari va 20–40 tonna tuzlar shamol orqali dehqonchilik qilinadigan yerlarga olinib kelmoqda. Bu esa o'z o'rnida yerlarni sho'rlatib, oqar suvlarni zaharlanishiga olib kelmoqda. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tuproq qatlamlarida tuzlarni to'planishi va aralashishida joyning iqlimi sharoiti katta rol o'ynar ekan. Shuning uchun u joylarda

iqlimiy sharoitlarni hisobga olib yangi yerlarni o'zlashtirish, uning hosildorligini meliorativ nuqtai nazardan oshirish hamda agrotexnikaga tayangan holda tuproqlarni sho'rланishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

2. Tuzlarni tuproq qatlamlarida to'planishida yerning geologik tuzilishi va geomorfologik sharoitlarining roli.

Nuragan qobig'ining yotqiziqlarida, tuproqlarda hamda sizot suvlarida tuzlarning to'planishi yerning geologik tuzilishi va geomorfologik sharoitlariga bog'liqdir. Misol uchun Karpat, Krim va Kavkaz oldi tog' tizmalarini yonbag'irlari va tekisliklarni ko'radian bo'lsak, bu yerlar hosil bo'lish jarayoniga ko'ra sho'rangan (iqlimiy sharoitga qarab), lekin bu yerlarda sho'rangan tuproqlar ko'proq uchraydi. Buning sababi shundaki, birinchidan bu yerlarda tog' jinslari va ularni tashkil qilgan mineralallarni yuvilishi bo'lsa, ikkinchidan cho'kindi jinslardir. O'rta yer dengizi geosinklinal oblastlarini ko'rsak, bu yerlarni bir necha marotaba dengiz suvi bosganligi ma'lum. Keyinchalik esa bu yerlar suvdan bo'shab, dengiz yotqiziqlari bilan qoplanishi natijasida tuzlar to'plangan.

Yerning geologik strukturasi uning qatlamlari morfogenezisini va litogenezisini kelib chiqishini hamda gidrogeologik jarayonlari rivojlanishi tuproq qatlamlarida va sizot suvlarida tuzlarni to'planishida katta rol o'ynaydi.

Sho'rangan tuproqlar asosan yerning tekislik qismida keng tarqaladi, faqat ozroq qismigina tog'liklarning yon bag'irlarida sho'rangan delyuvial va prolyuvial jinslarni yuvilishidan hosil bo'ladi.

Yerning tekislik qismida sho'rлarni 3 xil tip tarqalish qonuniyatları mavjud bo'lib, ular birlamchi (dengiz osti yotqiziklari) akkumulyativ (sochilgan) va denudatsion (qoldiq) yotqiziqlariga bo'linadi.

Birlamchi tekislik yotqiziqlari dengiz osti quruqliklarini har xil eleyrogen ko'rinishlari natijasida hosil bo'lgan sho'rli jinslardir. Bunday yotqiziqlarga Turon, Betpak-Dala, Ustyurt, Markaziy Qizilqum, Zaungus va Qoraqumlar kiradi.

Sho'rlangan dengiz osti yotqiziqlari har xil yoshda birlamchi tekislik bo'lib, asosan unchalik qalin bo'Imagan elyuviy qatlami bilan qoplanadi. Iqlimning quruq va issiqligidan tuzlar faqatgina dengiz osti jinslari ichida ham uchrab, sahro tuproqlari paydo bo'lishi jarayonida ishtirok etgandirlar.

Akkumulyativ tekisliklarni asosiy yotqiziqlari har hil tarkibli va qatlamli keltirilmalardan iborat bo'lib, o'zlarining xarakteriga qarab flyuviognyatsial-muzlik, allyuvial va tog' osti prolyuvial-al-lyuvial tekisliklarga bo'linadi.

Bu tekisliklarning asosiy yotqiziqlari suvli-muzlik qoplamini qumoq qumli hamda loyli karbonatli, ayrim joylar karbonatsiz al-lyuvial jinslardan iboratdir.

Bu jinslar V.A.Kovdaning ko'rsatishicha muzliklarning siljishi natijasida birinchi vaqtida G'e va Al oksidlarini cho'kishi, keyinchalik bular bilan birgalikda kremniy gidroksidini lyossli jinslar bilan qo'shib,  $\text{CaSO}_4$  va  $\text{MgCO}_3$ , ayrim joylarda, hattoki, soda moddasini hosil qilishini aniqladi. Shu sababli, bu yerlarda oldin solodli sho'rlanish, keyinchalik solodlashgan va solodli tuproqlarni hosil bo'lishi bilan tuproqlar tarkibida tuzlar to'yingandir.

Kaspiy oldi pastekisligining ko'pchilik maydonlarida Sivash oldi, Kumr-Makich pastligi, Kura-Araks pastligini allyuvial tekisligini unchalik chuqur bo'Imagan tuzli jinslarida har xil o'zgarishlar natijasida tuzlarni intensiv to'planishi aniqlangan. Shunga ko'ra, bu maydonlarning ko'pchilik qismi sho'r tuproqlardan iborat.

Markaziy Osiyoning allyuvial tekislik qismida daryo delta-lari juda katta maydonni egallab, Sirdaryo-Amudaryo va Atrek va boshqa yerlarni o'z ichiga oladi. Bu tekisliklarda tuzlarni geologik va geomorfologik nuqtai nazardan tarqalishiga sabab. daryolarning hosil bo'lish manbai yer ustki va ostki suvlarining harakati natijasidir. Markaziy Osiyo daryolari o'zlarining oqish tezligiga qarab o'zlar bilan juda ko'p miqdorda suvda erigan tuzlarni olib keladilar, daryo oqimining sustlashishi bilan bu tuzlar tuproq tarkibidagi boshqa modda bilan birikib, uning qatlamlarida to'plana boradi. Ayniqsa, tuzlarni akkumulyativ sizot suvlari ham katta rol o'ynaydi.

Markaziy Osiyoning tog‘ osti oblastlarida sho‘rlangan tuproqlar epeyrogenik harakatlar va boshqa vertikal bioklimatik poyaslarga bog‘liq ravishda o‘zgarib boradi. Masalan, gidromorf sho‘rlangan tuproqlar o‘tloq-bo‘z, sho‘rsizlanayotgan tuproqlar – och tusli, bo‘z tuproqlar qoldiq tuz dog‘li, tipik bo‘z tuproqlar – to‘q tusli, bo‘z tuproqlar-sho‘rlanmagan, tog‘ o‘rmon-jigarrang tuproqlarga bo‘linadi. Bu tuproq qatorlarini to‘rtlamchi davrini ikkinchi yar-mida dengiz sathidan 500–1000–1500 m balandliklar hosil bo‘lishi jarayonini aniqlash mumkin.

Shunga ko‘ra, o‘rmon zonasida tuzlarni bo‘lmasligi tuproq temir va alyumin birikmalari bilan bog‘langanligi, to‘q tusli bo‘z tuproqlar zonasida esa karbonatlarni to‘planishi hodisalari, ularning chuqur qatlamlarida gips qatlamini saqlanishi, tipik bo‘z tuproqlar zonasida gapsni qatlami 100–150 m chuqurlikda uchrashi hamda suvda eruvchi sulfat va xloridli birikmalarini tuproq qatlamlarida yotishi, och tusli bo‘z tuproqlarda tuzlarni tuproqni yuqori 0,5 m qatlamidan boshlab to‘planishi va nihoyat bu tuzlar sahro zonasining tuproqlarida 0,1–0,3 m uchrashiga asosiy sabab, yerlarning tektonik harakatlari oqibatida uning faqatgana gidrogeologik sharoitlariga ta’sir qilmay, balki tuproq hosil bo‘lishi protsesslariga ham ta’sir qilib, tuproq evolyutsiyasini ham belgililar ekan.

Denudatsion (qoldiq) tekisliklar tektonik harakatlar to‘xtashi bilan paydo bo‘lgan maydonlardir, bularga Betpak-Dala platosini sharqiy qismi va Qozog‘iston maydonlarining mayda balandliklari kiradi. Bular oldin tog‘liklar bo‘lib, denudatsion protsesslari oqibatida maydalanim ketgan tekislikdir. Bu tekisliklar har xil tarkibli qattiq jinslardan iborat bo‘lib, elyuvial hamda delyuvial yotqiziqlardir. Delyuvial jinslar qo‘sishimcha sho‘rlangan bo‘ladi, chunki nurash jarayonida delyuvial suvlar ta’sirida qiyaliklardan tuzlar yuvilib, pastliklarda to‘planadi.

Bundan tashqari, tuzlarni geomorfologik oblastlarda to‘plani-shida relefning ham ta’siri katta. Masalan, oqimsiz pastqamliklar oldingi yoki hozirgi davrda yerning ostki va ustki oqimini yig‘uchi qumlardan iborat bo‘lib, o‘ziga nisbatan balandliklarga qaraganda ko‘proq sho‘rlangan bo‘ladi. Relefi unchalik pastlik

bo'Imagan yerlarda, mahalliy oqimni yig'ish natijasida tuproq qatlamlari yomg'ir hamda erigan qor suvlari bilan namlanadi va yarim gidromorf tuproqlar hosil bo'ladi. Bu tuproqlar unchalik sho'rangan bo'imasada, lekin solodlashgan bo'ladi. Bunday yerlar ko'pincha Kaspiy oldi hamda G'arbiy Sibir pasttekisliklariga xosdir.

Cho'l va chala cho'l tekisliklarida yer yuziga sizot suvlarini yaqinligi uning kuchli minerallashganliga oqibatida bu yerlar ko'proq sho'rxok va sho'rxoklashgan tuproqlar bilan banddir. Relefi baland joylarda yerning chuqurlik qatlamlarida tuz qoplamlaridan iborat bo'lgan tuproqlar tarqalgan bo'lib, o'z-o'zidan mikrorelefga bog'liq ravihda o'zgarib boradi.

Daryo bo'yalarining pastki mintaqalarida esa vaqt-i-vaqt bilan suv bosishi natijasida boshqa mintaqalarga qaraganda ko'proq sho'rланади. Bundan tashqari, daryolarning o'ng qirg'oqlari ko'p yuvilishi va yer ostki suvlarining oqimi yaxshiligidan chap qirg'og'iga qaraganda kam sho'rланади.

Daryo qirg'oqlaridan uzoqlashgan sari esa yer ostki suvlarining oqimi qiyinlashgan sari, sho'rланish kuchaya boradi, bunga sabab tuproqning mexanik tarkibini daryo qirg'og'idan uzoqlashgan sari og'irlashib borishi hamda sizot suvlaridir.

## **TUZLARNING TO'PLANISHI VA ARALASHISHIDA DARYO SUVLARINING ROLI**

Yer ustki yoki daryo suvlari tarkibidagi suvda yengil erituvchi tuzlar kontinental tsiklda ularning geoximik aylanashida katta ahamiyat kasb etadi. Daryo suvlarining hosil bo'lish manbalari:

1. Atmosfera yog'in-sochini va erigan qor suvlarini hosil bo'lishi va ularning yerning ustki qismida tarqalishi.
2. Muzliklarni erishi natijasida hosil bo'lgan suvlar.
3. Sizot suvlari.

Yer ustki, ayniqsa yer ostki suvlari aralashishi jarayonida tuproq, uning qatlamlarini har xil tuzliklar bilan boyitadi. Daryo suvlari o'zları bilan birga juda ko'p miqdorda tuzlarni olib keladi, bu tuzlarni bir qismi daryolarning quyi oqimlarida dengiz hamda

okeanlarga olib ketiladi, bir qismi esa daryo qirg' oqlarini vaqtiga bilan suv bosishi va uning quyi oqimlarida tuproq ustki qismiga kelib uning qatlamlariga hamda sizot suvlariga qo'shiladi va uning sho'rلانish darajasini orttiradi. Sug'oriladigan yerlarda esa sug'orish suvlarining ko'pchiligi parlanishga, transpiratsiyaga hamda tuproqqa shimalib ketishga moyil bo'ladi. Shu suvda erigan tuzlarni bir qismi tuproq qatlamlariga, qolgan qismi esa sizot suvlarini tarkibiga qo'shiladi va ularni yana qaytadan sho'rлатади.

29-jadval

### Orol-Kaspiy daryolarida tuzlarni olib kelinishi. Kaspiy dengizi daryolarida

Daryo-lar			Oqim			Za-harli tuzlar, mln t
	Suyuq qismi			zarra-chalar	kimyo-viy	
	Km <sup>3</sup>	g/l	mln t	g/l	mln t	
Volga Ural	255,7	0,12	31,80	0,207	50,0	9,0
Terek Kura va boshqa kichik daryolar	11,04 11,0 18,0 1,11	0,37 2,34 1,41	4,08 25,80 25,40 4,006	0,310 0,281 0,249	3,32 3,09 4,39 0,416	1,55 1,37 1,44 0,21
Jami	296,85	-	91,086	-	61,216	13,507

#### Orol dengizi daryolari

#### Orol dengizi daryolarida

Amudaryo	42,0	4,0	168,0	0,40	17,74	5,35
Sirdaryo	13,5	1,9	26,0	0,448	6,05	2,604
Zaraf-shon	2,5	2,1	5,25	0,400	1,0	0,50
Jami	58,0	-	199,25	-	24,79	7,89
Hammasi	354,85	-	290,336	-	86,006	21,397

Daryolar o'zlarining hosil bo'lish manbalarining, oqish tezligi, yerning geologik tuzilishi, geomorfologik va iqlimiylar sharoitiga qa-

rab o'zgarish bilan har xil miqdorda organik va mineral moddalarni olib keladi. Misol uchun, shimoliy daryo suvlarida organik moddalar ko'p bo'lib, sulfokislotalar va kremnezyomlarni olib keladi. Bu suvlar tarkibida temir va alyuminiy birikmalari kam bo'lib, karbonat va bikarbonatlar bo'lmaydi. Dasht zonasining daryolarida organik moddalar kam bo'lib, ularda sulfatlar ham, karbonatlar ham bo'ladi. Janubiy oblastlarning daryolarida esa sulfat hamda xloridli birikmalar juda ko'p miqdorda bo'ladi. Bu suvlarni mineralizatsiyasi juda yuqori bo'lib, ular sizot suvlarini bilan bog'langan bo'ladi.

Daryo suvlarini tarkibidagi erigan moddalardan tashqari, juda ko'p miqdorda qattiq mayda zarrachalarni olib keladi, buni quyida keltirilgan jadvaldan ko'rish mumkin.

Hozirga kelib bu ma'lumotlar o'zgargan, misol uchun Orol dengiziga shu kecha-kunduzda Amudaryo va Sirdaryodan umuman suv bormaydi, lekin shunga qaramasdan keltirilgan jadvaldan ko'rinish turibdiki, Kaspiy dengizi daryolarida yilning suv miqdori  $300 \text{ km}^3$  bo'lib, shundan 91 mln tonnasi qattiq zarralar bo'lib, 61 mln tonnasi esa kimyoviy elementlardir, shundan 13,5 mln tonnasi zaharli tuzlarga to'g'ri keladi. Orol dengizi daryolari esa o'zlarining loyqaligi va mineralizatsiyasini kuchliligi bilan boshqa daryolardan farq qiladi. Yuqorida keltirilgan jadvaldan ma'lumki, 24,8 mln tonna kimyoviy elementlardan 7,9 mln tonnasi tuzlarga va uning qirg'oqlariga o'rtacha 8 mln tonna tuz kelib qo'shilar ekan. Hozirgi kunda esa bu tuzlarning ko'pchilik qismi sug'oriladigan va yangi o'zlashtiriladigan yerdarda qolib ketmoqda. Bu esa o'z o'mida tuproqlarni yanada kuchli sho'rланishiga olib kelmoqda. Shu narsa fanda aniqlanganki, Amudaryo suvining mineralizatsiyasi  $0,47 \text{ g/l}$  bo'lib, shundan har yili 3592 ming t xlor, 1262 ming t  $\text{SO}_4$ , 2089 ming t Na, K va 537,5 ming tonna Mg elementlari olib kelinadi. Hammasi bo'lib 748,5 ming t zaharli tuzlar bo'lib, bu tuzlarni 39,6% tashkil qiladi, qolgan 11428 ming tonnasi  $\text{CaCO}_3$  va  $\text{MgCO}_3$  (32%) to'g'ri keladi.

Keltirilgan ma'lumotlardan shu narsa ko'rinish turibdiki, daryo suvlarining kimyoviy tarkibi va uning mineralizatsiyasi, oqimdag'i zaharli tuzlar miqdori, yerning geologik tuzilishi va daryolarning

hosil bo‘lish manbaiga qarab olinib kelinadigan tuzlar 1–2 g/l dan toki 5 g/l gacha (Atrek, Guzardarya, Sherobod) bo‘lar ekan. Bu tuzlarni ko‘pchiligi sug‘oriladigan va yangidan o‘zlashtiriladigan yerlarda to‘planadi va bundan tashqari sho‘rlangan yerlarni melioratsiya qilish maqsadida zovurlardagi sho‘r suvlari yana qaytadan daryolarga quyilishi natijasida uning mineralizatsiya yanada oshib boradi (masalan, Sirdaryo suvining mineralizatsiyasi qish oylarida 0,5 g/l, yoz oylarida esa zovurlar orqali sho‘r suvlarni qaytadan daryoga quyish oqibatida uning mineralizatsiyasi 0,8 g/l ga oshadi).

## **TUZLARNING TO‘PLANISHI VA ARALASHISHIDA SIZOT SUVLARINING ROLI**

Tuproq va uning qatlamlarida tuzlarni to‘planishida va aralashishida sizot suvlari asosiy omillardan biri hisoblanadi. Sizot suvlari deb tuproqning bo‘shliq qatlamlarida erkin suvlarni to‘planishiga aytamiz. Vaqtinchalik to‘planadigan hamda yer yuzasiga yaqin joylashgan suvlarni esa davriy suvlар deb yuritiladi.

Sizot suvlari atmosfera yog‘in-sochinidan, yer ustki suvlardan, suv havzalaridan, irrigatsion va bug‘simon suvlarni yerning chuqur qatlamlarida kondensatsiyasidan hosil bo‘ladi. Sizot suvining sathi tuproq qatlamlarida suvning harakati, uning sarflanishi, oqimi hamda parlanishiga bog‘liq ravishda davrlarga qarab ko‘tarilib pasayib turadi.

Sizot suvlarining oqimi va chiqimi tuproq qatlamlarining xarakteri, yerning nishabligi va gidravlik bosimga bog‘liqdir.

Yengil mexanik tarkibli jinslarda sizot suvlarining oqimi bir munkha tez bo‘lib, yerning nishabi va bosimga nisbatan metr/soat bilan o‘lchanadi. Agar yerning nishabligi kam bo‘lsa, sizot suvlarining oqimi sekinlashadi.

Davrarda va yillarda sizot suvlarining sathini o‘zgarishi tuproq va uning qatlamlarida tuzlarni to‘planishi va aralashishida katta rol o‘ynaydi. Agar sizot suvlari yer yuzasidan chuqur (5–7 m) joylashgan bo‘lsa, tuproq namligi tartibotiga ta’sir qila olmaydi, agarda sizot yer yuzasiga yaqin joylashgan bo‘lsa, tuproq suv tartibotiga uning kapillyarlari orqali ta’sir qilib, biologik protsesslarni o‘zgarishiga olib keladi.

Agarda tuproqlar davrlar mobaynida kapillyarlar orqali namlanib tursa, yarim gidromorf tuproqlar hosil bo‘ladi (bo‘z-o‘tloqli, taqir-o‘tloqli va h.k.). Agar tuproq va uning qatlamlari hamma vaqt sizot suvlari ta’sirida namlanib tursa, (2–3 m va undan past) gidromorf tuproqlar vujudga keladi (o‘tloqi, botqoq-o‘tloqi va botqoqlar). Tuproqlar mineralizatsiyalashgan (sho‘rlangan) sizot suvlari ta’sirida sho‘rlanadi, agar tuproq kuchli mineralizatsiyalashgan (kuchli sho‘rlangan) sizot suvlari ta’sirida bo‘lsa, sho‘rxoklarga aylanadi.

Gorizontal qonunga bo‘ysungan holda sizot suvlaring sathi shimoldan janubga tomon oshib boradi va har qaysi tuproq zonasining ichidagi sizot suvlarning sathi relefga va tuproq qatlamining tarkibiga bog‘liq ravishda o‘zgarib turadi. Markaziy Osiyo tekisliklarida sizot suvlari yer yuzasidan chuqr joylashgan bo‘lib, faqat daryolarning pastki mintaqalarida va nishabi past joylarda yer yuzasidan 0–3 m da uchraydi.

Tog‘ oldi tekisliklarida va yonbag‘irlarida sizot suvlari yer yuzasidan chuqr joylashgan bo‘ladi, lekin ayrim vaqtarda tog‘ yonbag‘irlarida tuproq jinslari joylanib qolishi natijasida hamda yer ostki suvlarini oqimi yomonlashib qolishi natijasida sizot suvlari yer yuzasiga yaqinlashadi va buloq suvlari ko‘rinishida yer yuzasiga sizib chiqadi. Bu hodisani gidrogeologik zamini ustunlik qiladigan qismi deb ham yuritiladi (zona vklinivaniya). Tog‘ osti tekisliklarida yer osti suvlarini qiyinchilik bilan oqishi va uni parlanishi hamda transpiratsiya orqali sarflanishi gidrogeologik zonada sochilgan (rasseivaniya) sizot suvi deb yuritiladi.

Qiyalik va past nishablik tekisliklarida yer osti suvlari past oqimli yoki umuman harakatsiz joylarda sizot suvlarini qaytadan ko‘tarilishi natijasida tuproqlar botqoqlanishi va sho‘rlanishi mumkin. Sun‘iy sug‘orilganda esa sizot suvlarini ko‘tarilishiga sug‘orish suvlari sabab bo‘ladi. Masalan, kanallardan, ariqlardan hamda zovurlardan oqadigan suvlari yer ostiga filtrlanib, sizot suvlariga qo‘shiladi va uning umumiy sathi ortadi. Shunga binoan sizot suvlarini ko‘payishi va sarflanishi sharoitiga qarab, sizot suvlarini tartibotini beshta asosiy tipga bo‘lamiz. Bular klimatik,

allyuvial, sozli, padrogeologik, aralashgan va irrigatsion tiplarga bo'linadi.

Klimatik tipda sizot suvlarining sathini oshishi atmosfera namligi bilan bog'liq bo'lib, uning sarflanishi esa parlanish va transpiratsiya bilan bog'liq bo'ladi. Bu tip transpiratsiya va suv tartiboti sizot suvlari yer yuzasiga yaqin bo'lgan va kirim-chiqim elementlari hajmi kam bo'lgan, yer osti oqimi yomon bo'lgan maydonlarga xosdir.

Sizot suvlarining ko'tarilishi yoki pasayishi sathini amplitудasi, yog'ingarchilikni umumiy miqdori, yil fasllarida taqsimlanishi hamda havoning nisbiy namligiga bog'liq ravishda o'zgarib turadi. Bundan tashqari shu yerda o'sib turgan o'simliklar qoplami va uning turlariga ham bog'liqdir.

Allyuvial tip daryo vodiylariga xos bo'lib, daryo suvlarini sathini o'zgarishi bilan uning yon atrofidagi sizot suvlari ham o'zgaradi. Daryo suvining sathi pasayganda uning qirg'oqlaridagi tuproq sizot suvlari siqilib, daryo tomoniga harakat qiladi va uning sathi borgan sari pasayib boradi yoki daryo suvining sathi ortishi bilan shuning teskarisi bo'lishi mumkin. Vaqt vaqt bilan daryo o'zining past mintaqalarini bosib turishi sizot suvlarining sathini ortishida katta rol o'yndaydi.

Sozli tip tog' yonbag'irlaridagi tekisliklarda keng tarqalgan bo'lib, yer osti suvlarining bosimi ustunlik qilgan paytlarda vujudga keladi. Yer osti suvlari qiyaliklardan pastlikka tomon harakat qilganda yoki uning oqimi qiyinlashgan paytda bu tip suv tartiboti hosil bo'lishi mumkin, ya'ni bosimli suv og'ir mexanik tarkibli jinslar bilan uchrashganda uning filtrlanishi qiyinlashib, shu yerning o'zida yuqoriga qarab harakat qiladi va o'ziga xos sizot suvlarining tartibotini hosil qiladi.

Gidrogeologik tip – sizot suvlari yer yuzasidan chuqur joylashgan yerkarda xos bo'lib, uning hosil bo'lishi kondensatsiya protsessi va kirim suvi hisobiga bo'lib, sarflanishi esa chiqim suvlari va tuproq oraliqlaridagi namlikni parlanishiga bog'liqdir. Uning sathini amplitудasi kirim va chiqim suvlarining miqdoriga bog'liq bo'ladi.

Aralash tip suv tartiboti sizot suvlari yer yuzasiga yaqin joylashgan yerlarga xos bo'lib, uning hosil bo'lishi atmosfera yog'in-sochini orqali tuproqlarni namlanishi va kirim suvlariga bog'liq bo'lsa, sarflanishi esa tuproq qatlamlaridan namlikni, transpiratsiya va chiqim suvlarining miqdoriga bog'liqdir. Bu tip suv tartibotini o'zgarish sathi kirim va chiqim suvlarining nisbatiga bog'liq bo'ladi. V.A.Kovdaning ko'rsatishicha, bu tip suvi tartibotini o'zgarishi yoki bir-birini o'rnni (chiqim va kirim suvlarini) qoplashi, birinchidan yer yuzasidan chuqur joylashgan sizot suvlarini oqimi hisobiga, ikkinchidan sizot suv kritik chuqurlikdan pastda bo'lsa, chiqim va o'simliklar orqali namlikni parlanishi va nihoyat, uchinchidan sizot suvlarini yer yuzasiga yaqin joylashgan yerlarda parlanish va transpiratsiya orqali bir-birini o'rnni qoplaydi.

Irrigatsion sizot suvlarining tartibotini tipi sug'oriladigan maydonlargaxosbo'lib, sizotsuvlarninghosilbo'lishisug'oriladigan suvlarini dala maydonlariga shimalishi, kanal va ariqlardan suvlarini filtrlanishi va nihoyat, atmosfera yog'in-sochinidir. Bu tip suv tartibotni hosil bo'lish xarakterlaridan biridir, yuqorida keltiriltan sizot suvlaridan farqli o'laroq, bir-birini o'rnni qoplashi tartibotini ustunlik tomoni yil sayin sizot suvining sathi ortib boradi, chunki sug'orilish kanallaridan har yili umumiy suv miqdorini 40–60 foizi tuproqqa shimalishi oqibatida sizot suvlarining umumiy miqdori orta boradi. Transpiratsiya va tuproq qatlamlaridan parlanadigan suv miqdori tuproqqa tushadigan umumiy suv miqdoridan ancha kam bo'ladi. Bundan tashqari, irrigatsion suv tartibotida tuproqning suvli-fizik xossasi ham katta rol o'yaydi: suv o'tkazuvchanlik, tuproq nam sig'imi, mexanik tarkibi, struktura holati va tuproq qatlamlarini tuzilishi misol bo'la oladi.

Agar tuproqni suv o'tkazuvchanligi . va struktura holati yaxshi bo'lsa, sizot suvlarini yer yuzasiga ko'tarilishi yaxshi bo'ladi, uning pasayishi esa parlanish miqdori tuproq va uning qatlaming kapillyarlari, temperatura, namlik, shamol tartiboti va h.k.larga bog'liqdir.

Sizot suvlarining parlanishini sekinlashishi yoki to'xtashi tuproq qatlamlarining xarakteri va uning sathiga bog'liq ravishda

kechadi. Masalan, Mirzacho'l yerlarining lyosslar (Sog' tuproqlar) ustida hosil bo'lgan och tusli bo'z tuproqlarda sizot suvlaring sathi 3,5–4 metrga kengayganda parlanish to'xtaydi, Farg'ona vodiyisining og'ir prolyuvial qumoqlar ustida hosil bo'lgan o'tloq tuproqlarda sizot suvleri sathi 2 m da, qumli tuproqlarda esa 1–1,2 m da parlanish to'xtaydi.

Bundan tashqari, sizot suvlaring sathini o'zgarishi sug'orish tartibotiga hamda sug'orish soni va suv berish normasiga bog'liqdir. Masalan, dasht zonasining donli o'simliklari namlikni asosan yoz oyalarida ko'proq xohlaydi. Bu sharoitda bu yerlarda tuproqlarni namlatish bilan o'simliklarni suvgaga bo'lgan talabi qondiriladi – ya'ni vegetatsiya davrida 1–2 marta kichik suv normasi berilsa yetarli bo'ladi. Shuning uchun sug'orish suvleri faqat sizot suvleri yer yuzasiga yaqin joylashgan yerkargagini ta'sir qiladi.

Cho'l va chala cho'llarda – quruq va issiq o'lkali mamlakatlar-da bu o'simliklar vegetatsiya davrida 4–5–7 marotaba sug'orish bilan hosil beradi. Shu sabab sizot suvlaring ko'tarilishi tezlashadi. Bu esa o'z o'rnida tuproqlarni qayta sho'rلانishiga olib keladi.

Sizot suvlaring tartibotiga oqar suvlarni boshqarish va suv omborlari qurish ham katta ta'sir qiladi. Suv omborlari qurilgan yerlarda tuproq qatlamlari qattiq jinslardan iborat bo'lgan taqdirda ham suvni shimilishi shu suv omborining atrofida bir necha o'n kilometr masofagacha borishi mumkin. Bu hodisa faqat suv omboridan suvlar qo'yib yuborilganda to'xtab, suv yig'ilishi bilan yana davom etadi.




## SIZOT SUVLARING MINERALLASHGANLIGI XIMIZIMI

Sizot suvleri o'zlarining tarkibida juda ko'p miqdorda organik va mineral moddalarni va kolloidlarni ushlaydi. Sizot suvlaring tarkibida eng oz miqdordan boshlab, toki 200 va undan ortiq gramm/litr erigan moddalar bo'ladi. Bular jumlasiga silikatlar, karbonatlar, bikarbonatlar, xloridlar, sulfatlar, nitratlar va ishqoriy yer metallari kiradi. Bundan tashqari kremluy gidritlari, temir, allyuminiy va gumin kislotasini suvda eriydigan formalari ham uchraydi.

Sizot suvlarning mineralizatsiyasi tuproq va uning qatlamlarida tuzlarni to'planishi va aralashishida katta rol o'yaydi.


Oqindi jinslar tarkibidagi suvlarning mineralizatsiyasi kuchsiz bo'ladi va ko'pincha ishqorli silikatlar ( $\text{Na}_2\text{CO}_3$ ), karbonatlar va bikarbonatlar, ishqoriy yer metallari ustunlik qiladi. Ishqoriy jinslarni tarkibida uchraydigan suvlarning mineralizatsiyasi 200 mg/l gacha bo'lib, kimyoviy tarkibi  $\text{O}_2$  va  $\text{N}_2$  dan iborat bo'la di va uning miqdori 1,5–0,33 mg/l gacha bo'ladi. Bu elementlar sizot suvlari tarkibidagi ishqoriy karbonatlar bilan reaksiyalarga kirishib, sodani hosil qiladi va nihoyat, bu elementlar reaksiyani davom ettirib, Ca, Va, Mg karbonatlari va sulfatlari bilan reaksiyaga kirishib,  $\text{CaSO}_3$  va  $\text{MgCO}_3$  hosil qiladi, bular o'z o'rniда  $\text{SO}_2$  va  $\text{N}_2\text{O}$  bilan qo'shib, kremnezyomni hosil qiladi, cho'kmaga tushgan  $\text{CaSO}_3$ , yana oz miqdorda  $\text{SO}_2$  va  $\text{N}_2\text{O}$  bilan reaksiyaga kirishib  $\text{CaSO}_3 = \text{SO}_2 + \text{N}_2\text{O} = \text{Ca}(\text{NSO}_3)_2$  ni hosil qiladi.

Cho'kindi jinslar tarkibida uchraydigan suvlari o'zlarini tarkibi bilan boshqacharoq bo'ladi. Bu jinslar tarkibidagi suvlarda mergellar, dolomitlar, karbonatlar va bikarbonatlarning kalsiy va magniyli birikmalari ko'p bo'ladi, lekin bular suvda eriydi. Shuning uchun ularni miqdori 1 g/l atrofida va undan oz bo'ladi. Tuzli den giz jinslarining tarkibida esa ko'proq xloridlar va sulfatlar uchraydi va ularning miqdori 200–300 g/l va undan ko'p bo'ladi. Grunt suvlari o'zining oqimiga qarab har xil jinslar va ularning tarkibidagi moddalar ioni bilan o'zaro reaksiyaga kirishib, o'z tarkibini va miqdorini o'zgartiradi. Bunda asosan tuproqni suv almashinadigan qatlamida tuproqni singdirish kompleksidagi kolloid ionlarni tarkibi o'zgaradi.




cho'kmaga tushadi.

Almashinish reaksiyasi natijasida hosil bo'lgan  $\text{CaSi}_2$  va  $\text{MgCl}_2$ ,  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  ishtirokida  $\text{CaSO}_4$  va  $\text{MgSO}_4$  ni hosil qiladi.




Sizot suvlarining ximizmiga o'simliklar ham katta ta'sir ko'rsatadi, eritmadan o'simliklar o'zlarini tanasini yaratish uchun Ca, P, K va h.k. larni oladi.


O'z-o'zidan ko'rinish turibdiki, sizot suvi tarkibida bu elementlar kamayadi va o'simliklar orqali singdirilmagan  $\text{SO}_4$ , Cl, Mg, Na elementlarining miqdori ortadi. Demak, sizot suvlarini mineralizatsiyasi Mg elementi hisobiga oshar ekan. Bundan tashqari, tuproqlarda yashovchi mikroorganizmlar ham oksidlanish va qaytarilish reaksiyalariga ta'siri orqali sizot suvlarining ximizmini o'zgartirar ekan. Misol uchun sizot suvlariga tushgan nitratlar anaerob sharoitda oddiy azotgacha aylanadi. Sulfatlar organik moddalar ishtirokida  $\text{H}_2\text{S}$  gacha aylanadi.





Sizot suvlarining kimyoiy tarkibi undagi almashinish reaksiyalarini ta'sirida ham o'zgarishi mumkin. Bunday reaksiyalarga silikatlarni gidrolizi misol bo'la oladi:



Bu reaksiya ta'sirida kremnezym cho'kmaga tushadi, sizot suvi tarkibida esa soda paydo bo'ladi.



Bunday reaksiya oqibatida  $\text{CaSiO}_3$  cho'kmaga tushadi va shu zahotiyoy  $\text{Na}_2\text{SiO}_3$ , yana  $\text{MgSO}_4$  bilan o'zaro reaksiyaga kirishadi. Sulfat va karbonatlar o'rtasidagi almashinish reaksiyasi quyidagi-cha bo'ladi.



Oxirgi reaksiya dolomit hosil bo'lishi bilan yakunlanadi. Tuzlarni kontsentratsiyasini oshishi, suvda oson eruvchi tuzlarni

eruvchanlik darajasiga qarab davom etadi. Agar tuzlar bilan to‘la to‘yinsa, cho‘kmaga tusha boshlaydi. Tuzlarning cho‘kmaga tushishi, shu tuzlarni tarkibiga, eritmadagi har xil gazlarni miqdoriga  $\text{SO}_3$  ga va temperaturaga bog‘liq bo‘ladi va h.k.

Umuman sizot suvlari tarkibidagi  $\text{NSO}_3$  ionini miqdori 0,5–0,6 mg/l atrofida bo‘lishi mumkin,  $\text{SO}_4$  esa kuchsiz sho‘rlangan sizot suvlari tarkibida  $\text{NSO}_3$  ga yaqin yoki teng bo‘ladi. Sizot suvlari tarkibidagi sulfatlar esa qaysi kation bilan bog‘lanishiga qarab har xil ko‘rsatkichlarda bo‘lishi mumkin. Masalan, suvlarda  $\text{SO}_4$  Ca kationi bilan bog‘langan bo‘lsa (gips), sizot suvlarini to‘yinishi 1–2 g/l. Agar bular tarkibiga xlor ioni qo‘shiladigan bo‘lsa, uning miqdori bir necha barobar ortadi. Agar  $\text{SO}_4$  Na kationi bilan bog‘langan bo‘lsa, uning miqdori taxminan 100 g/l atrofida bo‘ladi. Sizot suvlari tarkibida xlor ioni ustunlik qiladigan bo‘lsa (Mirzacho‘lda), sho‘rlanish tipi xlorli-sulfatli bo‘lib, 20–40 g/l bo‘lishi mumkin. Farg‘ona vodiysida esa sulfatli tip sho‘rlanish darajasi 200 g/l bo‘lishi mumkin.

Xlor ionining miqdori sizot suvlari tarkibida umumiy tuzlarni miqdorini oshib borishi bilan orta boradi. Masalan, Vaxsh vodiysida xlor ionining kontsentratsiyasi umumiy tuzlarni miqdori 5–6 g/l da Mirzacho‘lda 20, Buxoro vodiysida 60–80, Farg‘onada 100 g/l ga yetganda xlor ionining ko‘rsatkichi juda yuqori bo‘lganligi to‘g‘risida aniq ma’lumotlarga egamiz. Bundan tashqari, kuchsiz mineralizatsiyalashgan sizot suvlari tarkibida magniy kationiga nisbatan kalsiy kationining sizot suvlarida to‘yinish chegarasi 2–3 g/l atrofida bo‘ladi. Markaziy Farg‘ona, Amudaryo suvlarida sulfat bilan to‘yinish chegarasi 4–4,5 g/l, magniy esa 2–3 g/l bo‘lishi mumkin.

Natriy kationining umumiy miqdorini ortishi sizot suvlari tarkibida xlor va sulfat ionining ortishi bilan birga boradi va xloridli hamda sulfatli sho‘rlanish tiplariga o‘tadi. Faqat sizot suvlarida quruq qoldiqli umumiy miqdori 40–60 g/l ga yetganda natriy kationining umumiy miqdori xlorga nisbatan kamayishi mumkin, unda suv tarkibida magniy xlorid miqdori ortadi.

Sizot suvlarining mineralizatsiyasini darajasini quyidagi guruhlarga bo‘lishimiz mumkin. Agar sizot suvining minerallanish darajasi-

1 g/l dan kichik bo'lsa – shirin suv hisoblanadi;  
1–3 g/l bo'lsa – juda kuchsiz minerallashgan;  
3–4 g/l bo'lsa – kuchsiz minerallashgan;  
5–10 g/l bo'lsa – o'rtacha minerallashgan;  
10–20 g/l bo'lsa – kuchli minerallashgan;  
20–40 g/l bo'lsa – juda kuchli minerallashgan;  
40–50 g/l bo'lsa – namakobga yaqin;  
50 g/l dan katta bo'lsa – namakob deyiladi.

Tuzlarni tarkibi bo'yicha esa sizot suvlari quyidagi tiplarga bo'linadi. Agar umumiy tuzlarni miqdori

0,65 g/l dan kichik bo'lsa – gidrokarbonatli, kalsiyli;  
0,5–5 g/l bo'lsa – sodali;  
5–10 g/l bo'lsa – xloridli-sulfatli, Mg, Ca;  
10–16 g/l bo'lsa – xloridli-sulfatli, Na;  
16–25–50 g/l bo'lsa – sulfatli-xloridli, Na;  
50–80 g/l bo'lsa – xloridli, Na;  
50–200–300 g/l bo'lsa – xloridli, Na, Mg, Ca bo'ladi.

Sizot suvlaringin har qaysi tuzlar bilan to'yinishi shu sizot suvlaringin tuzlar bilan to'yinishi tiplarini belgilaydi.

Sho'rланish jarayoni eng kichik gidrokarbonatli tip sho'rланishdan boshlanib, toki kuchli xloridli tip sho'rланishgacha yetishi mumkin. Parlanish kuchli ketadigan yerlarda sizot suvlaringin kontsentratsiyasi osha borib, oxiri cho'kmaga tusha boshlaydi, eritmada kimyoviy reaksiyalar ketishi davom etib, sizot suvlaringin tarkibidagi kationlar tuproqlarni singdirish kompleksidagi kationlar bilan o'rin almashinadi, natijada sizot suvlaringin minerallanish tipi o'zgaradi.

Sizot suvlaringin minerallanish darajasi va tuzlarning tarkibiy qismi shimoldan janubga tomon o'zgarib boradi. Shimoliy rayonlarda sizot suvlari shirin va organik moddalarni (sulfatokislotalar), unchalik ko'p bo'lмаган kremniy, alyuminiy va temir gidrooksiddida o'zida ushlangan bo'ladi. Janubga yurgan sarimiz esa sizot suvlari tarkibidagi kremniy gidrooksidi erigan silikatlar, temir va alyuminiy gidrooksidlari cho'kmaga tushib, uning o'rniga tuzli ishqoriy yer elementlarining kationlari to'plana

boradi – oldin kal'tsiyli karbonatlar va bikarbonatlar, magniy va natriy, keyin sulfatlarni ishqoriy va ishqoriy-yer elementlari va xloridlarni ishqoriy va ishqoriy-yer elementlari to'plana boradi. Oqim yaxshi bo'lgan yerlarda tuproq va uning qatlamlaridagi tuzlar sizot suvlari orqali dengiz va okeanlarga olib ketiladi. Kuchsiz oqimli yerlarda esa sizot suvlarining minerallanishi va uning tuproq qatlamlaridagi tuzlar bilan aralashishi yuqori relefli yerlardan pastga tomon o'zgarib boradi, past namlik yerlarda to'planib qoladi. Tog'likdan tekislikka tomon tuzlar harakat qilib, pastqamlik yerlarda to'planadi va uning minerallanishi yerlarni sho'rлатади. Bunda gidrokarbonatlar suvi joylarni pastqamlanishi bilan sulfatli-gidrokarbonatli, gidrokarbonatli-sulfatli, xloridli-sul'fatli, sulfatli-xloridli va xloridli tuzlarga aylanadi.

Daryo vodiylarida sizot suvlarining mineralizatsiyasi daryoning yuqori qismidan quyi qismiga qarab orta boradi. Hozirgi zamon daryo deltalarida sizot suvlarining minerallanishi daryo qirg'oqlarini suv vaqt-vaqt bilan bosish davriga, relefga hamda o'simliklarga bog'liq ravishda o'zgarib turadi. Daryo bo'yli qirg'oqlarining sizot suvlari shirin suv hisoblanadi, chunki daryodan suv hamma vaqt filtratsiya (sizilishi) orqali bu suvlar chuchuklashadi va yer yuzasidan chuqur joylashadi. Daryo suvlari vaqt-vaqt bilan o'z qirg'oqlarini bosib turadigan yerlarda esa sizot suvlari bir oz sho'rangan bo'lib, yer yuzasidan unchalik chuqur joylashmaydi. Sizot suvlarini sho'rangan qismi daryo suvlari yerni bosmaydigan qismida yuqori relefli joylarga xosdir. Bu yerlarda sizot suvlarini ko'p qismi parlanishga sarflanishi oqibatida sizot suvlari sho'rلانади. Sizot suvlarining kuchli minerallashgan qismi daryo oldi deltalariga xos bo'lib, odatda bu yerlarning sizot suvlari juda kuchli sho'rangan bo'ladi. Bu yerlarda sho'rланмаган sizot suvlari namakobli dengiz suvlari orqali siqiladi va pastqam yerlarda dengiz suvlari shamol ta'sirida qirg'oqlarga urilib, u yerlarni bosib o'tishi natijasida sizot suvlari sho'rланади.

Sug'orish ishlari yerning gidrogeologik sharoitlarini tubdan o'zgartiradi. Kanal va ariqlardan filtrланayotgan (sizilayotgan) suvlar dala maydonlarning sizot suvlarini sathini ko'tarib, uning

minerallanish (sho'rlanish) darajasini orttiradi. Agar sug'oriladigan yerkarning sizot suvlarini oqimi yaxshi bo'lsa, tuproq va uning qatlamlaridagi tuzlar siqilib chiqib, sizot suvlarining sho'rlanishi bo'lmaydi, balki u borgan sari chuchuklasha boradi.

Agar tabiiy oqim yomon bo'lsa, sug'orish natijasida sizot suvlarining umumiy sathi ortib (desuktsiya protsessi) tuproq va uning qatlamlarida tuzlarni miqdori orta boradi va tuproq qayta sho'rlanadi. Misol uchun, Amudaryo suvi bilan sug'oriladigan yerkarni ko'rsak, sizot suvlarining tarkibidagi tuzlarni miqdori juda o'zgaruvchan bo'ladi. Daryo va kanallarga yaqin bo'lgan yerlarda sizot suvlarining tuz tarkibi Amudaryo suviga yaqin turadi. Daryo va kanallardan 100–200 m, sho'rlanish darjasasi 0,7 dan 2,4 g/l gacha, 3 kilometrli masofada esa 1,8 dan 4 g/l gacha, tashlanib yuborilgan va sho'rxokli yerlarda 27 dan 32 g/l gacha.

Daryoning qadimgi deltalaridagi taqirli va qoldiq sho'rxokli yerlarda 16–25–60 g/l gacha bo'lib, voha oralig'idagi sho'rxokli tuproqlarda sizot suvlarining sho'rlanish darjasasi 55 dan toki 100 g/l gacha yetadi.

Sizot suvlari tarkibidagi tuzlarni to'planishi yillar davomida Amudaryo suvini sug'orishda ishlatishdandir. Sizot suvlarining tuzlar bilan to'ynishi uning tuproq suv almashinishi jinslari tarkibidagi  $\text{SaSO}_3$ , va gipsni ortishi bilan boshlanadi. Bunday paytda sizot suvlari tarkibida  $\text{NSO}_3$ , va  $\text{O}_2$  ni miqdori kamayib, uning o'rniga xlor, Na va Mg ni miqdori ortadi.

Sizot suvlarining sho'rlanish darjasasi 25–30 g/l bo'lsa, uning tarkibidagi  $\text{SO}_2$  ni miqdori daryo suvlariga nisbatan ko'p bo'ladi, chunki Ca kationi bilan qo'shilib ( $\text{SaSO}_3$ ) formulasida cho'kmaga tushadi. Sizot suvlarining sho'rlanish darjasasi ortib borishi bilan uning tarkibida Na va xlor ionining miqdori ham ortadi, lekin Na kationining ortishi xlor ioniga nisbatan sekin boradi, chunki sizot suvlari tarkibidagi Na tuproq va uning qatlamidagi Ca va Mg ioni bilan o'rin almashinadi.

Shunga binoan P.A.Letunov Amudaryo quyi oqimida tuzlarni cho'kmaga tushishi quyidagi navbatda ketishini aniqladi.

Letunovning ko'rsatishicha, birinchi navbatda sizot suvlarning sho'rланish darajasi 1–2 g/l bo'lganda, cho'kmaga Ca va Mg karbonatlar tushadi. Bunda karbonatlarni umumiy miqdori daryo suvlariga nisbatan 10–20% ni tashkil qiladi.

Sizot suvlarning sho'rланish darajasi 4–7 g/l ga yetganda karbonatlarning cho'kmaga tushishi 40–50 foizni tashkil qiladi.

Agar sho'rланish darajasi 25 g/l ga yetganda karbonatlarni cho'kishi 50–51 foiz, sho'rланish 25 g/l dan oshsa, karbonatlarni cho'kmaga tushishi to'xtab, uning o'rнига  $\text{CaSO}_4$  cho'kmaga tusha boshlaydi. Bu protsess, ya'ni davr, sizot suvlarning sho'rланish darajasi toki 40 g/l ga yetguncha davom etadi. Sizot suvlarning sho'rланish darajasi 26 g/l gacha bo'lganda tuproq almashinuvchi Ca va Mg bilan to'yinib, Na kationini siqib chiqaradi. Eritmaning kontsentratsiyasi ortishi bilan tuproq singdirish kompleksidagi zaharli Ca va Mg ni miqdori kamayadi, eritmaning kontsentratsiya-


si yanada yuqori bo'lganda  $\frac{\text{Na}}{\text{CaMg}}$  nisbatingsadirish kompleksida Na kationi o'tadi. Ca va Mg kationi siqibchiqariladi. Tuproq qatlamlarida va sizot suvlari tarkibida to'plangan tuzlarni kontsentratsiyasi voha chetlariga qarab surila boshlaydi, Ca kationi cho'kmaga tushishi bilan  $\text{SaSO}_3$  va  $\text{CaSO}_4$  singdirish kompleksdan siqilib, (oldin Mg keyin Na) sizot suvlari tarkibidagi natriy sulfat va natriy xlorni miqdori orta boradi. Shuning uchun yer osti suvlarning oqimi yomon bo'lган Sirdaryo, Amudaryo va Orol bo'yи rayonlarida hamma vaqt sizot suvlari tarkibidagi zaharli tuzlarni miqdori orta boradi. Tog' yonbag'irlarida va daryolarni yuqori oqimlarida bu jarayonning teskarisi bo'ladi va bu suvlarni is'temol qilish va sug'orish uchun ishlatish maqsadga muvofiqdir.

## YER OSTI SUVLARI

Yer osti suvlari ikki qismga to'yingan va to'yinmagan qism-larga ajraladi (4.2-rasm). To'yingan zonadagi suv yer osti suvlari sifatida ifodalaniladi va suvning harakat havzasi ostida uchraydi. Bu zonadagi suv feratik zona deyiladi

To'yinmagan zonada suv tuproq suvi sifatida shaklida ifodali-

naladi va yuqoridagi suvning harakat havzasida ko'rsatiladi. Bu havzadagi suv vadason havza deyiladi.



48-rasm.

Suv Yer yuzasining ostidan saqlanadi. Yog'ingarchilikto'yinmagan hudud orqalito'yingan zonatomon kirib boradi. Tushgan liniyalar suv stolini tasvirlaydi, diagramma dalolat sifatida to'yinmagan hududdan to'yingan hududga bosqichma-bosqich o'tishni isbotlaydi

Umuman yer yuzasi ostidagi barcha suvlardan hisoblanadi, lekin yuqorida keltirilgandek ular to'yingan va to'yinmagan qismlarga bo'linib, hidrologlar tomonidan shunday atamlar ishlatiladi. 48-rasmda vertikal infiltratsiya va goizontal oqimga qarab suvning harakatlanishi keltirilgan (aslida bu vektor ta'sirida birikadi), bo'lib, to'yingan va to'yinmagan havzalarda ularni aniqlash muhim hisoblanadi<sup>7</sup>.

## SIZOT SUVLARINING KRITIK CHUQURLIGI VA ULAR-NI ANIQLASH

Sizot suvlarining kritik chuqurligi deb – sizot suvlari ta'sirida tuproq va uning qatlamlarida tuzlarni to'planish ko'rsatkichi, shu sizot suvlarining yuqoriga ko'tarilish va parlanishii boshlanishi

<sup>7</sup> Tim Davie. Fundamentals of hydrology, London and New York, 2008

vaqtiga aytildi. Bu ko'rsatkich ma'lum chuzurlik – N va sizot suvlarining ko'tarilish vaqt bilan o'lchanadi.

Buni quyidagi formula bilan ifodalaniladi:

$$H = [H_{km} + H_{kp}] - [m^4(p^l - d)].$$

Bunda:  $N_{km}$  – sizot suvlarni eritmasini kapillyar menisk kuchlar orqali ko'tarilish balandligi.

$N_{kr}$  – kapillyar-plenkali ko'tarilish balandligi;

m – parlanish, har xil ko'tarilish ko'rsatkichining balandligi chegarasi; p<sup>l</sup>-ko'rsatkich, atmosfera yog'in-sochini ta'sirida sizot suvlari eritmasining ko'tarilishi;

d – diffuzion tuzlarni ko'tarilish balandligi.

Agar sizot suvlarini ko'tarilish chegarasi ma'lum omillarga, ya'ni (t va r) ga bog'liq bo'lmaganda edi, tuzli eritma tuproq va uning qatlamlarida ( $N_{km}$  va  $N_{kr}$ ) to'planish chegarasi bo'lib, tuzlarni tuproqning yuqori qatlamlarida to'planishi faqat vaqt bilan o'lchanar edi.

Tuproqlarning sho'rланishi issiq iqlimli va yuqori parlanish bo'ladigan yerlarda tez ketadi. Bunga sabab quruq oblastlarda sizot suvlari boshqa yerkarda nisbatan kuchli sho'rланган va sizot suvlarini ko'tarilish balandligi kritik nuqtaga yetishi bilan tuproqlarni sho'rланishi tezlashadi, chunki sho'rланган sizot suvlari kritik nuqtaga yetishi bilan ko'proq kapillyarlari orqali ko'tariladi va tuproq yuza qismiga yaqinlashganda namlik parlanib, uni tarkibidagi tuzlar esa tuproqning yuza qismida to'planadi va tuproq sho'rланади.

Sizot suvlarining kritik chuzurligi uning tuzlar bilan to'yinishiga bog'liq, sizot suvlarining mineralizatsiyasi pasayishi uning zaharli tuzlari miqdorini ozayishiga bog'liqdir. Misol uchun, Farg'ona vodiysining tog'li rayonlaridan pastga qarab oqayotgan daryolar tekislikka yaqinlashganda sizot suvlarining paydo bo'lishi zonasida sho'rланish darajasi 2–3 g/l bo'lib, tuproq sho'rланмаган va daryo tekislikka chiqqanda sho'rланish darajasi 4–6 g/l ga yetib, bu yerlarda tuproqlar ham ma'lum darajada sho'rланадир.

<b>Sizot suvlarining kritik chuqurligi, m</b>	<b>Mumkin bo'lgan sizot sathining Mineralizatsiyasi</b>	
	<b>umumiy tuzlar</b>	<b>xlor</b>
0,8 -1,0	1 atrofida	0,17
10-1,5	1,0-2,0	0,17-0,27
1,5- 2,5	2,0-3,0	0,27-0,37
2,5- 3,0	3,0-5,0	0,37-0,69
3	5	0,6

O.A.Grabovskaya va P.A.Kerzumlar shu narsani aniqlashganki, sizot suvlarining sho'rlanish darajasi ortishi bilan uning kritik chuqurligi ham ortib borar ekan. Agar sizot suvlarning sho'rlanish darajasi kamaysa, uning kritik chuqurligi ortsa ham tuproqlar sho'rlanishdan holi hisoblanadi. Shunga binoan sizot suvlarining chuqurligiga qarab mumkin bo'lgan sho'rlanish darajasi mavjuddir. Misol uchun, Vaxsh vodiysining sug'oriladigan tuproqlari sizot suvlarini kritik chuqurligi va mumkin bo'lgan sho'rlanish darajasini tekshirish mumkin.

Shu narsani esdan chiqarish kerak emaski, sho'rlangan shirin sizot suvlarining sathini pastga tushirish maqsadga muvofiq emas, chunki bu yerlarda shu sizot suvlari ta'sirida o'tloqlanish protsessi davom etadi, bu esa o'z-o'zidan tuproqlarda chirindining ko'payishiga va struktura holatini yaxshilashga olib keladi. Agar shunday yerkarni sug'orish kerak bo'lsa, sizot suvlari 2-4 m pastda bo'lganda, biz tuproqlardan to'g'ri foydalangan bo'lamiz.

Shuning uchun sizot suvlarini kritik chuqurligini bilish tuproqlardan to'g'ri va oqilona foydalanish bilan birga kollektor va zovurlar qurish uning oralig'ini aniqlash bilan uning parlanishiga ta'siri, tuproqni mexanik tarkibiga, struktura holatiga va nihoyat

yetshtiralayotgan o'simliklarni hosildorligi ta'sirini, tuproqni bilishimiz mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, sizot suvlarning chuqurligi tuproq qatlamlarida tuzlarni to'planishini va tarqalishini aniqlaydi. Sizot suvlar qanchalik yer yuziga yaqin bo'lsa, tuproqlarda o'simliklarning oziqlanish qatlamida shunchalik tuz ko'p to'planadi va yuqoriga qarab harakat qiladi.

Gidrologiya nuqtai nazardan tuproq suvi tarkibi asosan hajmiy tuproq namligini yoki tuproq namlik fraksiyasida ifodalanadi va 4.1-formuladagi Yunon belgisi teta  $\theta$  da belgilanadi.

$$\theta = \frac{V_w}{V_t}$$

- $V_w$ - tuproq namunasida suv hajmi
- $V_t$ - tuproq namunasining umimiy hajmi.

Tuproqning hajmiy suv tarkibi gravitatsion tuproq namlik tarkibi orqali tasvirlanadi ( $G$ ). Gravitatsion namlikni (svuning zichligi) suv og'irligi tuproq og'irligidan ko'proq bo'lishi kerak. Gravitatsion namlik va hajmiy tuproq suvi tarkibi tuproq zichlik sig'imiga bog'liq bo'ladi va quyidagi tenglamadan topiladi:

$$G = \frac{M_w - M_d}{M_d} = \frac{\theta}{\rho_b \rho_w}$$

$G$  – Gravitatsion suv tarkibi ( $g/g$ );

$P_b$  – tuproq zichlik sig'imi ( $g/sm^3$  quyidagi tenglamaga qarang);


$P_w$  – suv zichligi ( $g/sm^3$ ).

Suvning zichligi 1  $g/sm^3$  ga yaqin bo'lganda uni e'tiborga olinmaydi.

Tuproq zichlik sig'imi  $P_b$  quruq tuproq massasining umimiy tuproq hajmidagi nisbati quyidagi tenglamada berilgan.

$$\rho_b = \frac{M_d}{V_t}$$


Yuqorida tasvirlangandek, suv sig‘imi 1 g/ sm<sup>3</sup> ga yaqin bo‘ladi (lekin haroratga bog‘liq bo‘ladi, 1.3-rasmga qarang). Shuning uchun suv og‘irligi suv hajmiga o‘xshashligi taxmin qilinadi. Tuproqqa nisbatan esa bunday deb bo‘lmaydi, ya’ni tuproq zichligi tuproq tarkibidagi minerallarga va bir-biriga birikkan zarrachalaraga bog‘liq bo‘lib, uning hajmiga bog‘liq bo‘lmaydi. Tuproq zichlik sig‘imi haydalgan yer yuzasiga 1 g/sm<sup>3</sup> miqdor atrofida tuproq zichligiga indikat vazifasini bajaradi. Yer osti qismi esa 1.6 g/sm<sup>3</sup> hajmga ega bo‘ladi (McLaren and Cameron, 1996). Demak, gravitatsion tuproq namligini tarkibi tuproqning hajmiy namligi bilan bir xilda bo‘lmaydi.




9-grafik. Harorat bilan suv zichligi. Egri chiziqlar 3.98 C° da yuqori darajada suv zichligini ko‘rsatadi

Tuproq suv tarkibini tasvirlashda uchunchi yo‘li, bu to‘yinganlik darajasi, to‘yingan suvda tuproq maksimum darajada suvni o‘ziga ushlab turishi tushuniladi. Yana shuni ham bilish zarurki, yer osti va osti suvlari o‘rtasidakompleks bog‘liqlik bo‘ladi, u hududiy vaziyatlarga bog‘liqligi 49-rasmda aks etgan holdaturli xildagi ikki vaziyat ya’ni yer osti suvlari va ularni oqimni tasvirlangan bo‘lib, 49 (a) rasmda yer osti suvlari oqimini oqishiga qo‘shtigan hissasi 49 (b) rasmda suv havzasi past va oqimi suvi yer osti suvigiga hissa qo‘shtigan.

(a)




(b)




49-rasm. Dengiz va yerosti suvlarining bog'liqligi.

((a) da yerosti suvi oqimga hissa qo'shamoqda, (b) oqim suvi yer osti suviga hissa qo'shamoqda.)



50-rasm. Neytron tekshirish uskunasi kirish trubasindida  
(Qora kabelda tezkor neytronlar manbasini pastga uzaytiradi.)




51-rasm. Teta tekshirish uskunasi

(*Delta-T qurilmasi tomonidan ishlab chiqilgan*). Reflex qurilmasiga vaqt dominant bo'jadi va daladagi tuproq namligini aniqlashda qo'llaniladi. Metal tig 'tuproqqa tiqiladi va uning yaqinidagi namlik darajasi aniqlanadi.)

Gidrologiyada qor chuqurligini ham aniqlash mumkin. Qor chuqurligni aniqlashning eng oddiy usuli o'zak namunasidan foydalanish hisoblanadi. Bu qor o'zagini chuqurlini yozib olish orqali aniqlanadi. Qor namunasi ekvivalent chuqurlini eritishdan hosil bo'lib, bu gidrologiyaning eng muhim aniqlash usullaridan biri hisoblanadi.

Qor chuqurligini aniqlashning ikkinchi usuli *qor yostiqlaridan* foydalanishdir. Bu plastic yostiq muzlamagan va bosim bilan aloqasi bo'lgan o'tkazuvchi bilan to'ldiriladi (52-rasmga qarang). Biz qish oylarida qor yog'ganida aniqlaganimizda qor yostiqlari eng yuqori bosimni ko'rsatadi vayog'gan qorni qayta aniqlashga to'g'ri keladi. Qor yostiqlari qorning oqib ketishiga halaqt bermasligi muhimdir. Bu uskunadan uzlucksiz foydalanish qor chuqurligini eng yaxshi ko'rsatkichini olishimizni ko'rsatadi.

Qor qatlami



52-rasm. Qor yostig'i qor og'irligini aniqlashi. Qor og'irligi yostiqda bosim o'tkazish orqali aniqlanadi.

An'anaviy gidrologiya hududda suvni hosil bo'lishiga suv sifatiga qiziqishgan. Bu fizik gidrologiya sifatida qaraladi. Nega gidrologiya suv sifatini aniqlash kerakligi to'g'risida 3 ta sabab bor:


1. *Suv sifati va miqdori orasidagi o'zaro chambarchas bog'liqlik bo'lib, ko'plab suv sifati masalasi ifloslanishlar dispersiyasi va konsentratsiyasidagi suv miqdori bilan o'zaro bog'langan.* Ular manbalarda tabiiy va antropogen bo'ladi. Ularni bir-biridan ajratib o'rGANIB bo'lmaydi.

2. *Gidrologik jarayon va suv sifati o'rtasidagi o'zaro chambarchas bog'liqlik bo'lib, bu usul quruqlikdan suvni muhitiga ya'ni dala maydonlariga ko'chirish orqali gidrologik yo'llar bilan bog'langan, shuning uchun gidrologik jarayon bu hududlarda yuz beradi. Bunga yaxshi misol sifatida dala maydonida suvga ko'chirilgan gerbisidlar mexanizmi ilzarrachalarini tutishda oqim yo'llari bilan bog'langanligini (Heppel (1999)) ko'rsatish mumkin.*

### 3. Gidrologiklarning fan va ishlab chiqarishdagi xizmatlari.

Hech qanday muammosiz gidrologlar suv sifati bilan suv resurs boshqarishda tashvishlanishi mumkin, chunki suv sifatini yaxshilash, uning ichimlik suviga aylandi degani emas, lekin keng masshtabda daryolar va oqimlar ta'sirida suv sifati yaxshilanishi mumkin.

Suv sifatining yana bir katta muammosi borki, tabiiy jarayonlar natijasida daryolarda yig'ilgan cho'kindilardir. Yig'ilgan cho'kindilarni ichimlik suvlarining keskin aralashmalari bor. Daryo to'silganda suv tezligi sekinlashadi. Hjulstrom egri chizig'inining oddiy shakllari bu jarayon yig'ilgan cho'kindilar hisobiga sodir bo'lishini ko'rsatadi (10-grafik).



10-grafik. Hyulstrom egri chizig'i turli xil kattalikdagi zarrachalarning eroziya uchrashida oqim tezligini ko'rsatadi. Aniqlanishicha oqim tezligi qanchalik katta bo'lsa, shuncha yirik zarrachalarni olib ketishi, oqim qanchalik sekin bo'lsa aksincha bo'lishi tasvirlangan.

Damba orqasida qoldirilgan qoldiqlar kamayadi. Yuqori energiya daryo tizimida keskin kamayish sig'imiga 2 yoki 4 asr sarflanadi. Janubiy Koreada suv ombori boshqarish yomg'irli kunlar davomida cho'kindi jig'ani suv omboriga kirishini

to'xtatishni hamda namgarchilik sharoiti davomida cho'kindi suvni murakkab darajada bir-biriga biriktirishiga erishish va danbalardan cho'kindini qochishini hisobga olib boshqariladi (Kim et al., 2007).

Suv sifatiga joyga oid holda xilma-xilligiga turli omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin (iqlim, geologik, nurash jarayoni, vegetatsiya va antropogen omillar). Bu omillarning aralashishi ko'pincha suv sifati muammosini ma'lum bir hududda oshiradi. Bunga misol qilib shimoliy Amerika va Skandinabiyadagi kislotali yomg'irni keltirish mumkin.

Gidrologiya jihatdan suv sifatini aniqlashimizdan oldin daryoga tushadigan ifloslanishlarni ko'rib chiqishmiz kerak. Suv ifloslanishio'rtaсидаги manba nuqtasi va diffuziya ifloslanish farqlar mavjud. Bu manba nuqtasi termini ifloslanish qayerdan kelganligini bildiradi. Diffuziya ifloslanish esa keng masshtabda yerlarni ifloslanishiga aytildi. Diffuziya ifloslanishga qishloq xo'jaligida foydalilaniladigan pestisidlar va mineral o'g'itlarni misol keltirishimiz mumkin.

Suv ifloslanishini o'rganishda uni kategoriyalarga ajratiladi. Fanda uch turdag'i turli xil ifloslanish turlari bor.


- *Toksik birikmalar*, suvli atrof-muhitda biologik ifloslanishlar ta'sirida kelib chiqadi.

- *kislород баланси та 'сирі бирікмалары*, kislородli yoki kislородsiz sharoitda havo va suv o'rtaSIDA sodir bo'ladi. Bu termastatik ifloslanishni ham o'z ichiga olib, termastatik ifloslanish sovuq suvdek issiq suv kislорodni o'ziga biriktirmaydi.

- *Suspend suyuqliklar* – inert suyuq zarrachalarni suvdagi suspenziyasi

Iflosnaish yuqoridagi ifloslanishlarning uch turiga, iqlimga va suvning muhitiga pH, oqadigan suvning yo'naliishiga hamda unga birikadigan birikmalarga bog'liq. Oxirgi ikkitasi yillardagi vaqtga va daryoning tabiiy oqimiga bog'liq.

Bulardan tashqari yana kislородli ifloslanish mavjud bo'lib, uning manbasi kislородli egri chizig'i rasmidan ko'rish mumkin.



11-grafik. Ergan kislorod egri chizig'i.

(Birinchi pastga tushgan egri chiziq organik iftoslatuvchilar manbasi.)

Bu egri chiziq eritilgan kislorod miqdorining daryodan oqishi ko'rsatilgan. Bunda daryodagi organik moddalar hisobiga oziqlanayotgan bakteriya va boshqa mikro-organizmlar va yaroqli ergan kislorod sabab bo'ladi<sup>8</sup>.

## SHAMOL YORDAMIDA TUZLARNI OLIB KELINISHI

Tabiatda elementlarni geoximik aylanishida, ayniqsa, tuzlarni va tuproqlarni sho'rланishida shamolni ta'siri kattadir. Shamol orqali tuzlar, changlar va mayda zarrachalar bilan dengizlardan olib kelinib, shamol pasayganda yoki yomg'ir yoqqanda ular tuz jamg'armasi hisobida yerlarni ustki qismida yig'iladi. Bundan tashqari yana tuzlarni migratsiyasida vulqonlar otilib chiqishi natijasidan ulardan ajralib chiqqan gaz holdagi xlor, oltingugurt, xlorid kislotalari ham ro'l o'yashi mumkin. F.Klarni ma'lumotlariga qaraganda har yili yerga atmosferadan 2 dan to 20 t/km<sup>2</sup> natriy xlorid to'planar ekan. Shulardan eng ko'pi dengiz oldi oblastlariga tushar ekan. P.S.Kossovich agar shu olib kelingan tuzlar yuvilmaganda edi, 1200-yil ichida hamma tuproqlar sho'rланib ketar edi, degan ma'lumotlarni keltiradi. K.Kosnazarovni keltirgan ma'lumotlariga

\* Tim Davie. Fundamentals of hydrology, London and New York, 2008.

qarasak, Orol bo‘yi maydonlariga har yili dengizdan 170–800 kg/ga tuzlar shamollar yordamida olib kelib yotqizilar ekan.

V.A.Kovdaning ma'lumotlariga ko‘ra, daryo, vodiylardan olinib kelishi mumkin bo‘lgan yengil eruvchi tuzlar quyidagicha:

*31-jadval*

Daryolar	Daryo vodiylari ning maydoni, km <sup>2</sup>	Shamol orqali tuzlarni olib kelinishi amaliyoti, t/km	Daryolar bilan olinib kelinayotgan tuzlarni umumiy miqdori, t	Daryolarni past qirg‘oqlarida tuzlarni olib kelinishi, kg
Volga	1401949	2	2804000	8000000
Amudaryo	308804	10	3090000	22600000
Sirdaryo	246861	10	265000	-

Keltirilgan jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Volga daryosida tuzlarni shamol orqali olib kelinishi solishtirma og‘irligi umumiy tuzlarni kimyoviy oqimiga nisbatan 30%ni tashkil qilib, Amudaryoda esa faqat 1,5%ni tashkil qiladi.

Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, daryolar o‘zlarining hosil bo‘lish manbalariga va unda erigan tuzlarni miqdoriga qarab juda ko‘p miqdorda tuzlarni olib kelib dengizlarga yotqizar ekan, lekin bu tuzlar shamollar ta’sirida sug‘oriladigan va quruq yerlarga olib ketilib, tuz jamg‘armasi sifatida to‘planadi.

## TUZLARNI TO‘PLANISHI VA ARALASHISHIDA BIOLOGIK SIKL

O‘simliklar, hayvon organizmlari va mikroblar o‘zlarining haxoti jarayonida ko‘p miqdordagi mineral moddalarni o‘zlariga jalb qilishadi. Organik moddalar minerallashgandan keyin tuproqlarda to‘planadi va boshqa yangi geoximik aylanish tsikliga o‘tadi. Bunda moddalarning bir qismi tuproqdan yuvilib ketadi, bir qismi esa qatlamlarida kam harakatchan ikkilamchi minerallarga aylanib, tuproq tomonidan singadi, yana bir qismi esa boshqa organizmlar tomonidan so‘rilib, yana yangi biologik tsiklga o‘tadi.

V.I.Vernadskiyini hisobiga ko'ra, organizmlarni umumiy massasi bizning planetamizda  $10^{17}$ - $10^{18}$  t ga teng, yoki bu taxminan yerning 16 km chuqurlikkacha bo'lgan massasini 0,1–0,01% ini tashkil qiladi. Shulardan 65–70% kislorodga 10% vodorodga to'g'ri kelsa, qolgan 20–25% har xil kul elementlarini tashkil qilar ekan. BulargaS, Ca, Mg, kremniy, temir, kaliy, oltingugurt, natriy, alyuminiy, xlor va boshqa elementlar kiradi. Shu elementlar o'simliklarni xiliga qarab K- 15–30%, Ca – 5–10%, Mg – 2–4%, Na – 2–4% va h.k. larni tashkil qiladi.

O'simliklar o'zlarining hayoti jarayonini o'tab bo'lgandan keyin tuproqda yashovchi mikroorganizmlar tomonidan bir qismi so'rildi va qolgan qismi o'zining tarkibidaga yengil eruvchi tuzlari yerning yuza qismida to'plana boradi. Buni quyidagi keltirilgan (V.A.Kovda ma'lumotiga ko'ra) jadvaldan ham ko'rish mumkin.

32-jadval

### Dasht va sahro o'simliklari tarkibidagi kul elementlarining miqdori

O'simliklar	Kul elementlar	Kul elementlari nisbatan % hisobida							
		xlor	O	O	R,O,	N	K	Mg	Ca
Semiz sho'ra	40-45	15-17	10-17	0,86-0,4	0,6-0,4	22-30	1-3	0,3-2	0,3-1 (1-3)
Yarim quruq sho'ralar	20-30	(30-40) 4-15 30	3-15 2-3,6	2-4 10	1-3 1-4 7	12-26	2-8 14	2-3	3-6 11-22
Quruq sho'ralar	10-20	3,5	4-11 (18-22)	1,5-5 (21-62)	4-9	4-9 (30-65)	4-12	0,5-1,5	4-12 (15-22)
Shuvoqlar	5-10	4-8	4-8 (15-30)	19	6-15 (28)	1-5 (10-20)	6-13	0,5-18	10-15 20

*Eslatma: Qavs ichidagi sonlar eng yuqori ko'rsatkich.*

Yuqorida keltirilgan jadvaldan ko'rinish turibdiki, sho'ra o'simliklari tarkibidagi kul elementlar 15–20% dan toki 80–85% ni tashkil qiladi. Bundan shuni aniqlash mumkinki, har yili o'simliklar orqali gektariga 200–500, hattoki 1000 kg gacha kul elementlari qolishi mumkin. Yana shuni aniqlash mumkinki, sho'ra o'simliklarni ayrim turlari (biyurgin) o'zlarining tarkibida juda katta miqdorda Na kationini ushlaydi.

Bu o'simliklar minerallashgandan keyin tuproqlarni sho'rtob-lanishiga olib keladi. Lekin ko'pchilik sho'ra o'simliklari Na bilan birgalikda Ca elementlarini ham ushlagani uchun tuproqlarni sho'rtoblaydi, ammo boshqa yengil eruvchi tuzlar ko'p miqdorda to'planadi va tuproqlar sho'rxoklanadi.

Efemer o'simliklar esa tuproqlarda unchalik ko'n yengil eruvchi tuzlarni to'plamaydi, chunki bu o'simliklarni ko'p qismida Na ga nisbatan Ca elementlari ko'proq bo'lib, vaqt o'tishi bilan tuproqi singdirish kompleksidan Na ni siqib chiqaradi va bu jarayon tuproqlarda sho'rtobsizlanish deb yuritiladi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, tuzlarni tuproq va uning tarkibida to'planishida va tuproq tarkibidan tuzlarni chiqib ketishi-da o'simliklarni xili va ularni biologik jarayonlari katta ahamiyat kasb etar ekan.

## TUZLARNING TO'PLANISHINING ASOSIY TIPLARI

Yuqoridagi boblarda tuzlarning tuproq qatlamlarida aralashi-shida va to'planishida yerlarning biologik – geomorfologik, gidrogeologik sharoitlari va iqlim, sug'orish ta'sirida vujudga kelishini keltirganmiz. Endi tabiatda shu tuzlarning o'ziga xos tuproq jinslarini hosil bo'lish jarayonida to'planish tiplari mavjuddir. Bularga: dengiz oldi, ellyuvial, delyuvial, prolyuvial (konusli), allyuvial, deltali, atmosferali (impulverizatsiya) biogen tuz to'planishi va nihoyat, sug'orish natijasida tuproqlarni qayta sho'rланish tiplariga bo'linadi.

Bulardan biologik jarayonda tuzlarni shamol orqali olib kelini-shi yuqorida keltirilgan.

### Dengiz oldi tuzlarining to'planish tipi.

Bu tip – tuz to'planishi dengiz oldi pastqam joylariga xos bo'lib, vaqt-vaqt bilan dengizlar o'z qirg'og'ini bosishi yoki uning chekinishi, daryolar suvini sug'orish ishlariga ko'p ishlatilishi natijasida dengizga suv yetib bormasligi (Amudaryo quyi oqimida hozirgi kunda ro'y berayotgan o'zgarishlar) va parlanishni nihoyatda ustunligi oqibatida bu yerlarda tuzlar to'plana boradi.

Dengiz ostidagi jinslar oralig‘ida tuzlar eritma holda bo‘ladi va dengiz ostki jinslarini oralig‘idagi bo‘shliqni to‘ldirib turadi. Dengizlarni chekinishi oqibatida bu tuzlar yerning betiga chiqib to‘planadi va dengiz oldi sho‘rxoklariga aylanadi.

V.V.Yegorov dengiz oldi sho‘rlanishini iflos namakobli sho‘rlanish deb ataydi, chunki bu sho‘rlanish dengiz osti balchiqlarini bir vaqtlar to‘ldirgan bo‘lib, dengizlar chekinishi bilan bu tuzlar asta sekinlik bilan yer betiga chiqqa boshlaydi. Suv ostida tuzlarni miqdori 1–0,5% ni tashkil qilgan bo‘lsa, bu balchiqlar qurishi bilan tuzlarni miqdori 13–14% ga oshishi sho‘rxoklar hosil bo‘linishini ilmiy asosda isbotlagan.

Shu jarayon davom etishi natijasida sho‘rlangan taqirsimon va taqirlar paydo bo‘ladi. Bu Orol va Kaspiy oldi yerlariga xosdir.

Ellyuvial tip – bu tip sho‘rlanish issiq va quruq iqlimli o‘ikalarga xos bo‘lib, murakkab turli jinslardan tashkil topgan bo‘lib, yerning yuza qismiga chiqib qolgan jinslardir. Bularga, Turon pastekisligi-Ustyurt, Zaunguz, Qoraqum, Markaziy Qizilqum, Devxona platosi, Betpak Dala pastekisligi kiradi. Bundan tashqari elyuvial sho‘rlanish tipi past tog‘liklar, ularning yonbag‘irlari va adirlarda keng tarqalgan turli jinslar bo‘lib, o‘zlarining litologik tuzilishi bo‘yicha har xil ohaktoshlar (Ustyurda), qumlar (Zaungus, Qoraqum, Devxona platosida), loylardan, mergallar, qumlar (Markaziy Osiyo adirlarida) tashkil qilingandir. Bu jinslar tarkibidagi yengil eruvchi tuzlar jins plastinkalari va toshli tuzlar eng oz miqdordan toki 2–3 va undan ortiq foizni tashkil qiladi.

Sho‘rlangan elyuvial jinslar ustida hosil bo‘lgan tuproqlar sho‘rxoklangan, sho‘rtobli-sho‘rxoklangan, jigarrang, surtusli qo‘ng‘ir va bo‘z tuproqlardan iborat bo‘lib, ko‘pincha yer yuzasidan chuqr joylashmagan, jipslashgandir. Bu tuproqlarni sizot suvlari yer yuzasidan chuqr joylashgan bo‘lib, u tuproq hosil bo‘lish protsessiga ta’sir qilmaydi.

Delyuvial tip. Bu tip sho‘rlanish shunday sho‘rlanishki, tog‘liklarning yuqori qismidan delyuvial suvlari, yani erigan qor suvlari bilan olinib keligan sho‘rlangan tuproqlar Kura-Araks pastekisligida Ozarbayjonda (1,1 mln ga) Kopettog‘ oldi tekisligi-

da Turkmanistonda, Zarafshon tog‘ining Janubiy sklonida va Qarshi cho‘lida juda keng tarqalgan sho‘rliklardir.

Delyuvial sho‘rlanish tipi ta’sirida hosil bo‘lgan sizot suvlari asosan taqirli tuproqlar bo‘lib, sizot suvlari hech qanday ro‘l o‘ynamaydigan, faqat yomg‘ir hamda erigan qor suvlari ta’sirida olib kelingan (saralangan) tuzli jinslardir. Delyuvial va prolyuvial-delyuvial sho‘rlanish formasini eng xarakterli joylaridan biriga Kopettog‘ oldi tekisligi kirib, N.I.Bazilevichni ko‘rsatishicha, bular sho‘rlangan paleogenal va neogen jinslar bo‘lib, bu jinslar shu Kopettog‘ jinslari hisoblanadi. Jinslar tarkibidagi tuzlari asosan 3–10 mm yog‘ingarchilik bo‘lishi bilan eriy boshlab, yerning ustki oqimi bilan ro‘yobga chiqishi mumkin.

Bundan tashqari, delyuvial sho‘rlangan suvlari o‘zлari bilan juda ko‘p miqdorda saralangan loyqalarni olib keladi va taqirlar ustidagi bu loyqalar o‘zлarining kimyoviy tarkibi bo‘yicha ancha murakkab bo‘lib, N.I.Bazilevichni ma’lumotiga ko‘ra, 2–3,8 g/l tuzlar tarkibida sulfatlar va xloridlar ustunlik qiladi.

Eriган tuzli oqimlar tekislikka yetishi bilan mahalliy oqim bilan aralashib, yerning pastqam joylarida to‘planadi va parlanish kuchaygan sari uning sho‘rlanish darajasi ortadi.

Mahalliy oqim suvlari o‘zлarining hosil bo‘lish sharoitiga binoan sho‘rlangan bo‘ladi va u bikarbonatlar hamda oz miqdorda xlor va sulfatlar bilan aralashgan bo‘lib, umumiy mineralizatsiyasi 0,3–0,6 g/l ni tashkil qiladi. Bu suvlar yernning qiyaligi bo‘yicha harakat qilib, tuzlar va o‘simliklar qoldig‘i bilan boyib, sho‘rlanish darajasi 1,2 g/l ga yetadi va bu daraja pastga tushgan sari ortib, to 20 g/l gacha yetishi mumkin. Tuproqlarni delyuvial sho‘rlanishiga tipik misol, Norin vodiysini o‘rab turgan uchlamchi davr sho‘rlangan yotqiziqlarini olsak bo‘ladi. Bu yotqiziqlarni ostki qismi qizg‘ish rangdagi dengiz paleogenal yotqizig‘i bo‘lib, ustki qismi rang-barang qoplamdan iborat bo‘lib neogen yotqiziqlardir.. Qizg‘ish rangdagi yotqiziq N.Norbayevning ma’lumotiga ko‘ra pH – 8,4–9,2 karbonat angidrid 5,7–5,9%, gips 0,107–0,269%, quruq qoldiq 0,274–0,935% ni tashkil qiladi. Tuzlardan esa natriy sulfat va natriy xlor ustunlik qiladi. Ionlarni bir-biridan ustunligi esa quyidagicha bo‘ladi.

Anionlar xlor, sulfat, gidrokarbonat qatlamlaridan natriy, kalsiy, magniy, rang-barang neogen qatlamlarda esa qumoq va loylar ko'pincha qumlar bilan almashgan holda tuz tog'lari va gipsli qatlamchalar bilan farqlanadi.

Kimyoviy tarkibiga ko'ra pH – 8,2–9,3, S<sub>O</sub><sub>4</sub><sup>2-</sup> – 4,54–9,64%, gips 0,063–2,104%, quruq qoldiq 0,554–4,57% bo'lib, natriy xlor tuzining ko'pligi bilan, ayniqsa, boshqa qatlamlardan farq qiladi. Bu tuzlar yog'ingarchilik vaqtida bir oz yuvilshi mumkin, lekin yoz oylarida yana o'rni qoplanadi.

Prolyuvial (konusli) sho'rlanish tipi – tog' oldi tekisliklariga xos bo'lib, tog' daryolarining konusli va yoyilmali pastqamliklariga to'g'ri keladi. Misol uchun, Tyanshan, Pomir, Oloy, Kopettog' tizmalarining ostki qismlari bu tipdaga sho'rlanish bilan qoplan-gandir. Daryolar tog'liklardan tekislikka chiqishi bilan uning qiyaliklari (ya'ni konusdan vo'nosgacha tomon) kamayib boradi va yoyilib oqadi, nihoyat daryolar konusdan chiqishi oldidan o'zi bilan har xil kattalikdagi shag'allarni, kryashlarni olib keladi (vinosga) tekislikka yaqinlashgan sari bu jinslar qumliklar bilan almashinadi. Bu jarayon davom etib, daryo suvlari sekinlashgan sari qumliklarni ham oqishi sekinlashib, uning o'rniga har xil mexanik tarkibli, ya'ni og'irlashgan mexanik tarkibli elementlarni olib kelib, yotqiza boshlaydi. Bundan tashqari, Ber qonuniga muvofiq, daryolar o'zining qiyaliklariga qarab, konusdan chiqishi bilan o'ng tomonini yemirib oqadi, bunday paytda shu joylarda sizot suvlari yer yuzasidan uzoqlashadi. Daryo tekislikka (vinosga) kirishi bilan uning qiyaligi pasayganligi, oqimni sekinlashishi natijasida daryo suvlari tuproq tarkibiga so'rilib, sizot suvlarini hosil qiladi, bu suv o'ng qirg'oqqa qaraganda, yer yuzasiga yaqin joylashadi va kunlar isishi bilan tez va ko'p miqdorda parlanishi natijasida bunday yerlar tez sho'rlanadi. Misol uchun, Oltiariq, Sherobod, Guzardaryo, Sho'rg'ob, Todjen daryolarining suv yig'ilishi maydonlarda sho'rlangan jinslar ko'p bo'lib, bu yerlarda sho'rlanish keskin ortadi. Sizot suvlarining mineralizatsiyasini o'zgarishi bilan tuproqlar tarkibidagi tuzlarni sifati va miqdori ham o'zgaradi. Sho'rlanish prolyuvial yotqiziqlarni chetki qismlarida to'plana boradi.

Birinchi sho'rlanish davri sulfatli tip sho'rlanishdan boshlanib, sho'rlanish darajasi ortishi bilan oldin xlorli-sulfatli va nihoyat, sulfatli-xloridli sho'rlanishga qadar yetadi. Sho'rlanishning eng kuchli qismi daryolarning konusli-chiqimli, ya'ni tabiiy hosil bo'lgan jinslariga yetganda keskin ko'payadi. Vaqtı-vaqtı bilan suv bosib turadigan, o'zlashtirilmagan yerlarda yoki sug'orish suvlari tashlanib yuboriladigan pastqamlik joylarda o'tloqi-sho'rxok tuproqlar hosil bo'ladi. Suv bosmaydigan yerlarda esa tipik sho'rxoklar hosil bo'ladi.

Bo'z tuproqlar zonasining konusli-chiqimli yerlarda (Sharqiy Farg'ona) sho'rlanish saxro zonasining konusli-chiqimli yerlariga (Qashqadaryo, Sherobod, Murg'ob) nisbatan oz bo'ladi.

Sizot suvlari yer yuziga yaqin bo'lgan o'tloqi va botqoq-o'tloqi tuproqlarning ostki qatlamlari mergallahsgan va qattiqlashgan (sementga o'xshash) karbonatli plitalardan iborat bo'ladi. Bunday qatlamlar kuchli sho'rlangan bo'lsa, uning kimyoiy tarkibiga ko'ra gidrokarbonatli-sulfatli va sulfatli tip sho'rlanish bo'lib, uning ustki tuproq qatlami yana qattiqlashadi va gips ham karbonat bilan birikib, arziqlarni hosil qiladi yoki bunday sho'rlanishni arziq deb yuritiladi.

Agar sizot suv tarkibida magniy kationi ko'p bo'lsa, shoxli qatlamning ustida magniy karbonatlar va bikarbonatlar yig'ilib, o'simliklar uchun juda xavfli hisoblanadi.

Allyuvial sho'rlanish tipi. Allyuvial sho'rlanish tipiga uchragan tuproqlar bizning mamlakatimizda oqar daryolarning vodiylarida (quyi oqimida) keng tarqalgandir. Oqar daryolarning ko'pchiligi jumhuriyatimizda tog'liklardan boshlanib, o'zlarining suvlarini dengiz va ko'llarga quyadi.

Zarafshon, Qashqadaryo, Murg'ob, Tedjan singari kichik daryolarning suvi butunlay sug'orishga sarflanadi. Sug'orish davridan ortib qolgan suvlар esa vaqtinchalik suv havzalariga, qumliklarga hamda qurib qolgan ko'llarga quyiladi. Bu suvlar yer ustiga so'rilib, sizot suvlarini sathini oshiradi va yerlarni sho'rлатади.

Keyingi paytda bunday isrofgarchilikka bir oz chek qo'yilib, suvlar suv omborlariga yig'iladi. Tog'liklar oraliqlaridan oqib

chiqadigan daryolar o'zlarining hosil bo'lishiga qarab, bir necha mintaqalarni (4-6-8 va h.k.) hosil qiladi. Daryolar tekislikka chiqishi bilan oqish tezliklarini susaytiradi va mintaqalar hosil bo'lishi kamayadi. Natijada daryo suvlari yer ostiga so'rlishi tezlashib, sizot suvlarini hosil qiladi va uning miqdorini oshiradi. O'z-o'zidan ma'lumki, daryolar o'zлari bilan juda ko'p miqdorda suvda yengil eruvchi tuzlarni olib keladi. Bu tuzlar oqar suvlar bilan yer ostiga shimilib, sizot suvlarini sho'rланish darajasini orttiradi.

Sahro va quruq dasht o'lkalarini daryo suvlari boshqa o'lkalarni daryo suvlariga nisbatan sho'rланган hamda ximik tarkibi bo'yicha quyi oqimida keskin ortadi. Markaziy Osiyo daryo suvlarini sho'rланish darajasi shimoldan janubga tomon ortib boradi. Daryolar pastga tomon yoki quyi oqimiga yetib kelganda suvda yengil eruvchi tuzlar hisobiga uning sho'rланish darajasi keskin ortadi, oldin sulfatlar, keyinchalik xloridlar hamda karbonatlar hisobiga ortadi. Daryolarni o'rta oqimida sizot suvlarining hosil bo'lishi daryo mintaqalarini suv bosishi hisobiga hosil bo'ladi. Shuning uchun bu sizot suvlarining kimyoviy tarkibi daryo suvining kimyoviy tarkibiga yaqin bo'ladi. Sizot suvlarining yuqorigi qismi esa o'zidan baland mintaqalar hisobiga hosil bo'lib, pastki mintaqaga sizot suviga qaraganda ancha sho'rланган bo'ladi, chunki yuqori mintaqalardan tuzlar sizot bilan pastki tomonga oqib keladi. Eng yuqori mintaqaga esa tog'liklardan oqib keladigan suvlar hisobiga hosil bo'ladi. Bundan tashqari biz yuqorida aytganimizdek, daryolar o'zining o'ng qирг'ог'ига yemirilishi hisobiga mintaqalarni hosil qilib, ularning tarkibidagi tuzlarni eritib, quyi tomonga olib borib yotqizadi. Shu sababli ko'philik Markaziy Osiyo daryolarining quyi oqimi nisbatan ko'p sho'rланган bo'ladi.

Bundan tashqari ko'philik daryo vodiylari murakkab jinslar bilan to'silgan bo'ladi. Daryo suvlari shu to'siqni kesib o'tishi bilan va tekislikka chiqishi bilan daryo vodiyisini orachiq konus-vinosini hosil qiladi. Shu hosil bo'lgan murakkab jinsli to'siq yer osti sizot suvining umumiyligi sathi ko'tarilib, uning sho'rланish darajasi ortadi va tuproqlar sho'rланади. Bu hodisani Sirdaryo vodiyisining Farg'она vodiyisiga kirgan qismida, Zarafshonni tog'ligidan chiqib, shu

yuqorida aytilgan to'siqni kesib o'tishi sharqiy Buxoro havzasida va undan Buxoro vohasi bilan Qorako'l vohasining chegarasida ko'rish mumkin. Bu yerlarda sizot suvlarining sho'rланish darajasi bir to'siqdan ikkinchi to'siqqa tomon daryo vodiysini oqish tomoni bo'yicha keskin ortadi.

Deltali sho'rланish tipi. Sirdaryo, Amudaryo, Atrek, Kura, Araks daryolari kuchsiz nishablik va tekislik qismida har xil harakatlar tufayli o'zining o'zanini o'zgartirishi hisobiga hozirgi va qadimgi zamon deltalarini vujudga kelgan va bu deltalar juda katta maydonni egallaydi. Bundan tashqari yana dengiz va ko'l oldi deltalarini ham mavjud bo'lib, hosil bo'lish jarayoni daryolar o'zining oqish davrida bir qancha o'zanlar, ko'llar, ko'lliklar hosil qiladi. Daryolar o'zining quyi chegarasiga yaqinlashishi bilan oqim o'z-o'zidan sekinlashadi va hosil bo'lgan ko'llar, o'zanlar tuproq qatlamlarini namlatib, sizot suvlarini sathini oshiradi. Buning oqibatida tuzlarni akkumulyatsiyasi ortib, sho'rланish kuchayadi.

Bundan tashqari deltalarda tuproqlarni sho'rланishida o'simliklarning geokimyoviy oqimi ham katta rol o'ynaydi.

Akkumulyatsiya jarayonida deltalarda yig'iladigan elementlar (moddalar) bioklimatik sharoitga katta ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, shimoliy o'lkalarda sizot suvlarini oz minerallashgan bo'lib, ular tarkibida bikarbonatlar kalsiy va temir kationlari bilan birikadi va mergallahgan sizot tuproq qatlamlarini hosil qiladi. Shuning uchun bu yerlarda botqoqlashgan tuproqlar ko'p uchraydi. Namgarchilikni oshishi bilan esa tuproqlar torflarga aylanadi. Uning tarkibidagi yengil eruvchi tuzlar esa dengiz tomon yuvilib ketadi. Nam subtropik o'lkalarning daryo deltalarida esa tuproqlarda ortiqcha nam bo'lishi, suv bosishi va atmosfera yog'insochinining nihoyatda ko'pligi tufayli hamma yengil eruvchi tuzlar (sulfatlar va xloridlar) va qiyin eruvchi karbonatlar dengizga yuvilib tushadi va buning o'rniga torflar to'planadi (misol uchun, Kavkaz oldi rayonlarida).

Dasht zonasining daryo deltalarida (Kuban, Don, Dnepr va h.k.) yaxshi klimatik sharoit hisobiga organik moddalar tez parchalanadi va torf hosil bo'lish jarayoni sekinlashadi. Bu yerda chirindiga

boy bo'lgan chimli qatlam katta rol o'ynaydi. Bu yerlarda asosan karbonatlarni, sodani, sulfatlar va ayrim joylarda xloridlarni to'planishi tezroq ketadi va tuproqlar sho'rlanadi.

Cho'l va sahro zonalarining daryo deltalarida (Amudaryo, Sirdaryo, Atrek) ishqoriy-yer karbonatlari sulfatlar va xloridlar tezlik bilan to'planadi. Bu yerlarda torflar hosil bo'lish jarayonlari bo'lmaydi. Daryolar deltalarining o'rta va quyi qismi kam suv bosishi natijasida kuchliroq sho'rlanadi, chunki bu yerlarda daryolarning deltalarini yuqori qismiga qaraganda suv oz va kam vaqt tuproqlarni bosishi tufayli va parlanish yuqori darajada bo'lganligi sababli tuproqlar tez va ko'p miqdorda sho'rlanadi.

Suv havzalarini qurishi natijasida esa sizot suvlari kritik chuqurlikdan pastga tushib ketadi va qamish o'simliklari orqali transformatsiya koeffitsienti katta bo'lganligi sababli tuproq sho'rlana olmaydi, natijada bu yerlarda taqirlanish jarayoni tezlashib, taqirlar va taqirli tuproqlar hosil bo'ladi.

Tuproq eritmasi deltalarda juda ko'p miqdorda xloridlardan tashkil topgan bo'ladi. Bundan tashqari yil fasllarida tez-tez o'zgarib turadi. Shuning uchun har qaysi daryo deltasidagi tuzlarni sifati va miqdori bir-biriga o'xshamaydi. Misol uchun, Sirdaryo deltalarida ko'proq xloridli-sulfatli sho'rlanish tipi mavjud bo'lsa, Amudaryo deltalarida kuchsiz sho'rlangan tuproqlarda xloridli-sulfatli va kuchli sho'rlangan yerlarda esa sulfatli-xloridli hattoki, xloridli sho'rlanish tipi mavjud.

Bundan tashqari daryo deltalarining tuproqlarini sho'rlanishiga dengizlardan esadigan shamollar ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bunga misol qilib, biz yuqoridagi boblarda keltirganimizdek, Orol dengizining qurigan maydonidan har yili shamol orqali olib kelinadigan tuzlarni miqdori 20–40 tonnani tashkil qilishining o'zidan, bu yerlarda qanchalik darajada tuproqlarni sho'rlanishini bilib olsak bo'ladi.

## **TUPROQLARNING TUZ TARTIBOTI**

Tuproqlarni tuzli tartiboti deganimizda tuproq qatlamlarida tuzlarni sho'rlanishi va uning profillaridan chiqib ketishini

tushunamiz. Tuproq tuz tartibotini ikkita tsiklga bo'lishimiz mumkin.

1) Yillik davr-bunda tuproq qatlamlari mavsumda gidrogeologik, tartibotga bog'liq ravishda yil davomida o'zgarishiga aytildi.

2) Ko'p yillik davr-bunda iqlimi sharoitga va tuproqning gidrogeologik tartibotiga bog'liq ravishda tuzlarni yillar davomida o'zgarishiga aytildi. Misol uchun, iqlimi sharoitini o'zgarishi bilan tuproq va uning qatlamidagi namlik o'zgara boradi, bu holat tuproqlarni gidrogeologik sharoitlarini ham o'zgarishiga olib keldi.

Tuproq qatlamlarida tuzlarni sho'rlanishi va aralashishida plyonkali-kapillyar suvlari tuproq qatlamlariga so'rilib yerning nishabligi tomon harakat qiladi va sizot suviga qo'shiladi. Shu jarayonni yillar davomida qaytarilishi natijasida tuproq va uning qatlamlaridagi tuzlar miqdori o'zgarib turadi.

Suvda yengil eruvchi tuzlar tuproq va uning qatlamlarida eritma holida bo'ladi va uning kontsentratsiyasi ortishi bilan cho'kma-ga tushadi. Bu tuzlarni umumiy yig'indisi suvli so'rim yordamida aniqlanadi.

Tuproq eritmasidagi tuzlarni umumiy miqdorini bilish uchun tuproq tarkibidagi suvni maxsus presslar yordamida siqib chiqariladi va shuning tarkibidan aniqlanadi.

Tuproq eritmasidagi tuzlarni miqdori suvli so'rim eritmasidagi tuzlarni miqdoridan kam bo'ladi, chunki tuproqlarga ishlov berilganda, sug'orilganda tuproq qattiq fazasidagi tuzlar ham erib suvli so'rimga qo'shiladi.

Bular orlig'idagi farq tuproqni sho'rlanish darajasi ortishi bilan ortadi. Tuproq qatlamlaridagi tuzlarni kontsentratsiyasi sizot suviga nisbatan ortiq bo'ladi: misol uchun, Mirzacho'ldagi sho'rxoklarda 420, Farg'ona vodiysining sho'rxoklarda 250 g/l bo'ladi.

Tuproq eritmasining mineralizatsiyasi (sho'rlanish darajasi) vaziyatga bog'liq ravishda tuproq namligi o'zgarishi, atmosfera yog'in-sochini, sug'orish suvlarining yo'qolishi, parlanish va transpiratsiyasiga sarflanishi orqali o'zgarib turadi.

Eritmada tuzlarni kontsentratsiyasi bahor oylaridan kuzga tomon ortib boradi va qish oylarida keskin kamayadi. Misol uchun, sho'rxoklarda kuz oylarida tuzlar keskin ko'payadi va qish oylarida atmosfera yog'in-sochini orqali yuvilishi hisobiga bu tuzlarni umumiy kontsentratsiyasi keskin kamayib ketadi.

Sho'rlanmagan tuproqlarni eritmasida osmotik bosim 1,37–3,29 atm., o'rtacha sho'rlangan 2,3–6 sho'rxoklarda 8,54–24,39 atm. bo'lib, o'simliklarni ( $g\cdot o^{\circ}zani$ ) optimal ko'rsatkichi 2–4,3 atm. bo'lishi kerak. Osmotik bosim 5 atm. ga yetganda o'simlik so'liy boshlaydi, 8,5 atm. da esa urug' unib chiqmaydi. Shuning uchun tuproq eritmasining kontsentratsiyasini ma'lum osmotik bosimda ushslash maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, parlanish kuchaygan sari tuproq eritmasining kontsentratsiyasi ortadi va tuproq eritmasidan cho'kmaga tusha boshlaydi. Oldin qiyin eriydigan temir, kremnezyom va karbonatli Ca va Mg li birikmalar, keyinchalik  $CaSO_4 \cdot 2H_2O$  (gips), natriy sulfat ( $Na_2SO_4$ ) va eng oxiri natriy xlor cho'kmaga tushadi. Shu narsani esdan chiqarish kerak emaski, xloridlar tuproq eritmasining kontsentratsiyasi 300–350 g/l ga yetganda cho'kmaga tusha boshlaydi.

V.A.Kovda shu narsani aniqlaganki, tuproq va uning qatlamlari ko'pincha o'zining tarkibidagi Na va Mg sulfatlarni va gipsni to'playdi. Na va Mg xloridlari juda kam, faqat tuproq yuqori qatlamlari kuchli sho'rlangan paydagina to'planadi. Bahor oylarida esa tuzlarni ishqorsizlanishi tufayli tuproq eritmasini kontsentratsiyasi kamayadi va asta-sekinlik bilan tuproqlarni ustki qatlamlari sho'rlana boshlaydi. Bu vaqtida esa sulfatlarni to'planishi xloridlarga qaraganda bir muncha oz bo'ladi. Shuning uchun tuproqning ustki qatlamidagi sulfatli tip sho'rlanish kuz oylariga kelib, sulfatli-xloridli sho'rlanish tipiga aylanadi.

Qish va bahor oylarida sho'rlangan tuproqlarni ishqorsizlanishi tezlashib, birinchi navbatda natriy xlor va magniy xlor ishqorsizlanadi, cho'kmaga tushgan kalsiy karbonat va kalsiy sulfat hamda natriy sulfat tuproq qatlamlaridan chiqib ketmay, yildan-yilga tuproq qatlamlarida to'plana boradi.

Tuproq va uning qatlamlarida tuzlarning aylanishi uning kapil-lyarlik xossasiga va sizot suvlarining sathiga bog'liqdir.

O.A.Grabovskayaning ma'lumotiga qaraganda sho'rlanmagan qatlamlardan minerallashgan sizot suvlari 4 oy davomida 2 m dan to tuproqning yuqori qatlamigacha ko'tarilgan. Parlanish boshlanmasdan oldin tuproq va uning qatlamlarida hamda sizot suvlari tarkibidagi tuzlarni tarqalishi bir xilda bo'lган. Tuproq eritmasi uning kapillyarlari orqali yuqoriga ko'tarilishi bilan parlanish boshlanib, zaxarli tuzlar tuproqning yuqori qatlamiga to'plana boshlaydi va sulfatli tuzlar o'mini xloridli tuzlar egallaydi. Bu ko'rinish tuzlarni mavsumiy juda tez va yaxshi o'rinal mashinuvidan dalolat beradi.

Tuproq eritmasi bilan yuqoriga ko'tarilgan Na ikki valentli kolloid kationlar bilan reaksiyaga kirishib, uni tuproq singdirish kompleksidan siqib chiqaradi. Siqib chiqarilgan Ca, kalsiy xlorid yoki  $\text{SO}_4$  bilan qo'shilib, gipsni hosil qilib, cho'kmaga tushadi.

Qishki va bahorgi yog'in-sochin tuproq qatlamidagi tuzlarni ko'p miqdorda pastga yuvib tushiradi. Bu tuzlar ichida eng ko'p xloridlar yuviladi. Yoz oylarida esa bu tuzlar yana tuproqning yuqori qatlamlarda to'planadi.


Vaqt o'tishi bilan tuproqning yuqori qatlamida xloridlarni umumiyy miqdori kamayib, uning o'rniga sulfatlarni miqdori ortadi va tuproq 2–3 yildan keyin sulfatli-xloridli sho'rlanish tipidai xloridli-sulfatli sho'rlanish stadiyasiga o'tadi va tuproqning qattiq fazasi qismida gips miqdori orta boradi. Sizot suvlari chuqur joylashgan yerlarda ham jarayonni o'zi davom etadi, lekin bu tuzlarni to'planishi sekinlashadi. Shuning uchun tuproqlarni xloridli-sulfatli tip sho'rlanishi Grabovskayani ko'rsatishicha uch yildan keyin ro'yobga chiqadi.

Shularni hisobga olib, V.A.Kovdatuproq va uning qatlamlaridagi tuz jamg'armasining xarakteriga qarab uning tabiatda aylanishini uchta tipga bo'ladi:

- 1) Tuzlarni jamg'armasi davrdan-davrga oshib boradi (mavsumiy qaytarilmaydigan sho'rlanish tipi);
- 2) Tuzlarni jamg'armasi o'zgarmasdan qoladi (mavsumiy qaytariladigan sho'rlanish tipi – sho'rsizlanish deyiladi);
- 3) Tuzlar jamg'armasi davrdan-davrga kamayib boradi (mavsumiy qaytarilmaydigan tip – sho'rsizlanish).

Kovda tuzlarni umumiy yig‘indisini sho‘rsizlanish yoki sho‘rlanish jarayonini, alohida ko‘rsatkich bilan belgilab, koeffitsient qo‘yishni taklif qiladi va bu koeffitsient fanda o‘z o‘rnini topadi. Bu koeffitsient (SAS) – TMA tuzlarni mavsumiy akkumulyatsiyasi deb belgilanadi va ularning munosabatini, tuzlarning umumiy miqdorini kuzdan bahorga qarab o‘zgarishini, tuproq profillaridagi tuzlarni miqdoriy yoki tonna hisobida ifodalaydi.

Misol uchun, Kopettog‘ yon bag‘irlarida, g‘arbiy gissar tog‘ining atrofida, Sirdaryo va Amudaryoning qadimgi deltalarida hamda Qarshi cho‘lida juda katta maydonni egallab yotibdi.



53-rasm.

Bu maydonlarni iqlimiylar sharoiti sur-tusli va boshqa tuproq zonalariga o‘xhash bo‘lib, tuproq ustki qismi yupqa qatlam bilan qoplangandir. Yengil mexanik tarkibli tuproqlar tarqalgan yerlarida yog‘ingarchilik ko‘p bo‘lgan vaqlarda tuproqni 50 sm

gacha namlatish mumkin va tuproq 10–20 kun davomida to‘la nam sig‘imga ega bo‘lishi mumkin va shu vaqlardagina o‘simliklar yaxshi rivojlanadi. Yoz oylarida esa namlik maksimal gigroskopik namlikdan ham kam bo‘lib, o‘simliklar o‘sishi uchun sharoit bo‘lmay qoladi. Shuning uchun bu yerlarda tuzlarni harakati qish va bahor oylarida ko‘zga ko‘rinadi. Yoz oylarida tuzlar tuproqning yuqori qatlamlarida to‘planadi. Bu paytlarda tuzlarni umumiy miqdori 0,6 sm da 0,2% dan hatto 0,50% gacha yetadi. Pastki qatlamlarda esa mavsum davomida tuzlarni miqdorini o‘zgarishi sezilmaydi. Yuqori qatlamlarda tuzlarni miqdorini o‘zida natriy xlori aralashishi orqali vujudga keladi. Shuning uchun yoz oylarida tuzlarni miqdori bahor oyiga nisbatan 2–3 barobar ortib ketadi. Mavsumiy tuzlarni tuproq qatlamlarida aralashishi natriy kationining tuproq singdiruvchi kompleksida o‘tirishi bilan boshilanib, toki sodani hosil qilguncha davom etadi. Bu jarayon tuproqlarda taqirli profilni ro‘yobga kelishi bilan yakunlanadi.

Bundan tashqari, cho‘l zonasiga tuproqlari ichida anchagina maydonni qoldiq sho‘rxoklar egallab yotadi. Bunday yerlarda asosan oldin sug‘orilib, keyin tashlab yuborilgan yerlar ko‘p tarqalgan. Bu yerlardagi tuproqlarning sizot suvlari bir vaqtida yer yuzasiga yaqin bo‘lib, keyinchalik sug‘orish ishlarini to‘xtatilishi bilan bu tuproqlarni sizot suvlari past tushib ketgan. Lekin o‘sha paytlarda tuproqlar qatlamidagi mavjud tuzlar qolib ketgan. Misol uchun, Amudaryo deltalarida tarqalgan sho‘rxok tuproqli qoldiq berilgan rasmdan (41) ko‘rinib turibdi. 23 m da sizot suvini sati bo‘lgan bu tuproq qatlamlari kuchli sho‘rlangan. Tuz ichida xloridlar ustunlik qiladi. Bu jarayon ham yuqorida keltirilgan tuzlarni tartibotiga o‘xshagan holda hosil bo‘lgan.

## TUPROQLARNING SUV VA TUZ BALANSI

Tuproqlarni suv balansi deyilganda, uning qatlamlarida namlikni to‘planish va sarflanish jarayoni tushuniladi. Tuz balansi esa tuproq va uning qatlamlarida tuzlarni to‘planishi va tuproq sizot suvlaridan chiqib ketish jarayonining umumiy olingan ma’lumoti tushuniladi.

Tuproq suv va tuz balansi qatiyatlik bilan alohida ekin maydonlarida, tuproq-meliorativ rayonlarida, oblastlarida, sug'orishni boshqaruv inshootlarida olib boriladi va tuproq hamda uning butun qatlamlari bilan birga toki sizot suvigacha yoki tuproqning havo almashinish qatlamigacha hisoblanadi va ma'lum davrda olib boriladi.

Tuproq suv balansi A.A.Rode taklif etgan formula bo'yicha tuproq va uning qatlamlarida namlikni to'planish va sarflanish jarayoni hisoblanadi.

$$V_1 = V_0(O_s + GrP) - (D + Isp + VPS + GrS)$$

Bu yerda  $V_1$  – tuproq va uning qatlamlaridagi suv jarayonini tekshirish davrining oxiridagi jamg'armasi.

$V_0$  – tuproq namligini tekshirishni boshlash oldidagi jamg'armasi.

$O_s$ -tekshirish davridagi atmosfera yog'in-sochinining umumiyligi yig'indisi.

K – tekshirish davridagi kondensatsiya ko'rsatkichi.

GrP – tekshirish davridagi sizot suvlari orqali tuproq qatlamlarida namlikni to'planish miqdori.

D – tekshirish davridagi disuktsiya ko'rsatkichi.

Isp – tekshirish davridagi fizik parlanish ko'rsatkichi.

VPS – tekshirish davridagi namlikni tuproq qatlamlaridan yon-atrofga oqimining ko'rsatkichi.

GrS – tekshirish davrida sizot suvlari oqimining ko'rsatkichi.

Sug'oriladigan maydonlarda keltirilgan formulaga qo'shimcha ravishda ya'ni sug'oriladigan suvni miqdori (OB) va tashlanib yuboriladigan suvni miqdori (Sb) qo'shiladi. Bu ko'rsatkich quyidaga formulada ifodalanadi.

$$V_1 = V_0(O_s + GrP + OB) - (D + Isp + GrS + Sb)$$

Dala maydonlariga oqib keladigan yoki chiqib ketadigan suvning miqdori mm suv ustuniga yoki m bir gektarga yoki butun maydon bo'ylab hisoblanadi.

Tuproqlarning suv hamda tuz balansi uch xil ko‘rinishda, ya’ni ijobjiy – bunda tuproq va uning qatlamlarida tekshirish davrining oxirida suv jamg‘armasi ortadi. Salbiy holatda esa namlik jamg‘armasi kamayadi va nihoyat, uchinchi holatda bir xil miqdorda bo‘lishi mumkin. Bunday holatda oqib keladigan va chiqib ketadigan namlikni miqdori tekshirish davrining oxirida bir-biriga teng bo‘ladi.

Buni N.M.Reshatkina tomonidan keltirilgan jadvalda ko‘rish mumkin. Sho‘ruzak vpadinasing umumiy maydoni 6,4 ming gektar bo‘lib, yerdan foydalanish koefitsienti 0,66 ga teng.

Tuz balansi esa quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi.

$$\Delta S = S_2 + (S_{kw} - S) + S_{iw} - S_v$$

Bu yerda  $S_2$  – ma’lum vaqtida tuzlarni hech qanday o‘zgarishsiz miqdori.

$S_{kw}$  – sizot suvlari orqali tuzlarni kelishi.

$S_{iw}$  – sug‘orish suvlari orqali tuzlarni kelishi.

$S_v$  – hosil orqali tuzlarni chiqib ketishi.

$S$  – tuzlarni sizot suvlari orqali chiqib ketishi.

Misol uchun, P.A.Kerzum va V.A.Kovdalarning Vaxsh vodiysi uchun hisoblangan tuz balansini keltirish mumkin (keyingi betda).

33-jadval

### Sho‘ruzak suv balansi (bir yillik, mln m<sup>3</sup> hisobida).

To‘planish va sarflanish	Vegetatsiya davri	davr
Namlikni to‘planish davri:		
1. Sug‘orish shoxobchalaridan filtratsiyalanadigan namlik	110,0	155,1
2. Sug‘orish suvlarini ekin maydoniga kelishi	313,1	387,3
3. Yog‘ingarchilik	56,6	171,0
4. Yer osti suvlarni kirishi	53,3	102,3
Jami	532 0	

Namlikni sarflash davri:		
1. Kollektor va zovurlardan suvning oqimi	141,0	158,0
2. Yer osti oqimi	—	—
3. Jami parlanish	385,1	547,7
Jami farqi	526,1	805,7

Keltirilgan jadvaldan ko'rinib turibdiki, tuz balansi bir, ikki yil davomida 17 ming tonnaga ortar ekan.

Tuz balansining o'zgarish davri sho'rsizlanish balansi yil davomida o'zgarmay, bir xil miqdorda qolishi mumkin.

34-jadval

Tuzlarni balans davri	Tuzlar miqdori ming t
Tuzlarni to'planish davri 2,22 m tuproq va uning qatlamlarida tuz jamg'armasi	8640
1 m <sup>3</sup> li sizot suvining tarkibidagi tuz jamg'armasi	1,664
Jami	10304
1yil davomida sug'orish suvlari orqali kelgan tuz miqdori (0,8 g/l minerallashgan bo'lib, suv miqdori 568,6 mln m <sup>3</sup> )	455,0
Jami	10759
Tuzlarni sarflanish davri Kollektor zovurlar orqali tuzlarni chiqib ketishi	376,4
Vaxsh daryosi orqali tuzlarni chiqishi	70,6
Jami	438,0
1 yil davomida tuz jamg'armasining farqi	10321,0

Bu ko'rsatkichlar ko'pchilik vaqtda nisbiy ravishda olinadi, chunki tuzlarni tuproq va uning qatlamlarida to'planishi hamda chiqib ketishini aniq hisobga olish qiyin, lekin ularning miqdori qaysi tomonga o'zgarishi, ya'ni sho'rланish yoki sho'rsizlanish jarayonini bilishni hisobga olish mumkin.

Tuproq tuz balansini o'rganish yerlarni meliorativ holatini yaxshilanishda juda katta ahamiyat kasb qilib, hisob qilish esa vegetatsiya davrining boshida hamda oxirida amalga oshiriladi.

## VI BOB. YER RESURSLARI. YER RESURSLARIDAN FOYDALANISH VA UNING HOLATI

O'zbekistonda milliy iqtisodiyotning islohoti iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida nodavlat sektor paydo bo'lishi va bozor jarayonini rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan o'ta murakkab siyosiy va iqtisodiy sharoitda kechmoqdaki, u davlat boshqaruvining aniq va samarali mexanizmini yaratilishini talab etadi. Ushbu masala yer resurslarini boshqarish sohasida, bir tomondan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy manbai, imoratlar, inshootlar, yo'llar, ko'kalamzorlashtirish uchun maydonchalar bo'lsa, boshqa tomondan ko'chmas mulkni soliqqa tortish, investitsiya obyekti, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vositasi, milliy boylikning bir qismi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi agrosanoati kompleksi barqaror rivojlanishini ta'minlashhamda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini kengaytirishning asosiy shartlari qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerkarning hosildor qatlamini saqlash, qayta tiklash va ulardan oqilona foydalanish hisoblanadi. Yerkarning tuproq unumdarligi boshqa tabiiy omillar bilan birgalikda qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarish samaradorligi va uning tannarxiga ta'sir etuvchi ishlab chiqarish salohiyati asosini tashkil etadi.

Xo'jalik faoliyatida, yerkarning unumdarligini saqlash va ulardan oqilona foydalanish, katta ahamiyat kasb etadi. U dehqonchili-kni rivojlantirishning tabiiy sharti bo'lib, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi va yalpi hosilning ko'payishiga yordam beradi, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerkarning nafaqat ishlab chiqarish obyekti sifatida, balki biosferaning tashkiliy bir bo'lagi sifatida ham qadrini oshiradi.

Sug'orishga yaroqli bo'lган yer resurslari, turli hisob-kitoblarga ko'ra 7 dan 10 mln. gektargachani tashkil etadi. Jumladan, o'tloqli bo'z tuproqlar 16%, o'tloqlar 44%, bo'z tuproq 30%, taqirsimon-o'tloq 10% yerkarni tashkil etadi. Ta'kidlash joizki, sug'oriladigan yer maydonlarining jadal suratda kengayishi 1970-yildan 1985-yillarga to'g'ri keladi. Ushbu davr mobaynida

Respublikadagi sug'oriladigan yer maydonlari 2,8 dan 4,0 mln. gektargacha yoki 43% ga oshdi. Yangi yerlarni yoppasiga o'zlashtirish, bir tomondan, mavjud suv resurslaridan to'liq foydalanishga olib kelgan bo'lib, Orol dengizi misolida namoyon bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa iqtisodiyotga demografik yukni yumshatish imkonini yaratdi hamda oziq-ovqat va boshqa masalalarni hal qilishni yengillashtirdi.

Hozirgi vaqtida, joylarda yerdan oqilona va samarali foydalananish ishlari olib borilmoqda. Jumladan, qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarni ekologik va agrokimyoviy, avtotexnik holatini va sug'orish ishlarini yaxshilash maqsadida, sug'orish tizimini takomillashtirish, o'simliklarni iqlim, tuproq holatini hisobga olgan holda joylashtirish va yuqori hosildorlikni ta'minlash, yer holatini saqlash va yer hosildorligini oshirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Shunga qaramay, republikada yer hosildorligining kamayishi va umumiyligi ekologik holatining yomonlashuvi tamoyili saqlanib qolmoqda, jumladan, ayrim hududlarda quyidagi salbiy jarayonlar kuzatilmoqda:

- sug'oriladigan yerkarning maydoni kamayishi, meliorativ holatining yomonlashuvi va xo'jalikda foydalanish;
- sho'rangan va eroziyaga uchragan yerkarning ko'payishi;
- sug'orma yerkarning haydaladigan qatlamlari osti zichlanishi;
- haydaladigan yerkarda gumus va ozuqa elementlari muvozanatining salbiy tomoniga oshib borishi.

Ko'rsatib o'tilgan salbiy jarayonlar, qishloq xo'jaligida foydalilanayotgan yerlar maydonining kamayishiga, yerning kimyoviy, suv-fizikaviy, fizik-kimyoviy holati buzilib, hosildorligining kamayishiga olib keladi. Tabiiy tizimning ekologik barqarorligi ko'rsatilgan jarayonlar natijasida keskin pasayadi.

## YER RESURSLARINING MELIORATIV HOLATI

Amudaryo va Sirdaryo havzalari tekis maydoni umumiyligi past-tekislikni tashkil etib, drenaj suvlarini quyilish ehtimoli kam, iqlimning quruqligi, atmosfera yog'ingarchiligining kamligi hamda yuqori parlanish yerning yuqori gorizontidagi tez eruvchan

tuzlarning yig‘ilishiga olib keladi. Shuning uchun, tog‘ oldi quyi qismidan boshlab, sug‘oriladigan yerlardan foydalanishda, to‘sama tuproqlarning hozirgi va qadimiy sho‘rlanganligini, ikkilamchi sho‘rlanish xavfini inobatga olish kerak.

So‘nggi 3–4 yillar mobaynida kompleks tadbirlarni joriy qilish yo‘li bilan sug‘orma yerlar unumdorligining jadal sur’atlar bilan barqaror o‘sish tendentsiyasi kuzatilmoxda, qishloq xo‘jaligi ekinlarining o‘sishi va rivojlanishiga salbiy ta’sir etuvchi obyektiv va subyektiv sabablarni baholash gidromeliorativ tizimlarini rekonstruksiyalash va qurish ishlari olib borilmoqda, ularning texnik holati yaxshilanmoqda. Bunda katta e’tibor xo‘jaliklararo bo‘lgani kabi ichki xo‘jalik drenaj tarmoqlarini ham tozalashga qaratilmoqda, har yili sho‘rlangan yerlar yuvilib, taqchil sug‘orish suvi tejamkorona ishlatilmoqda.

Biroq shunga qaramay, sug‘oriladigan yerlarda tuz to‘planishi va ikkilamchi sho‘rlanish xavfi bartaraf bo‘lmayapti, tuproq zaharli tuzlarning ta’siridan unumdorligini yo‘qotishda davom etmoqda, sho‘rlanishga qarshi chora-tadbirlar yetarlicha bo‘Imaganligi sababli, sug‘oriladigan yerlarning qishloq xo‘jaligi aylanmasidan chiqish holatlari kuzatilmoxda.

O‘zbekiston Respublikasidagi sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash muhimligini hisobga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 29-oktyabrdagi «Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘grisida»gi PF-3932-sonli Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 31-oktyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi yerlarning meliorativ holatini yaxshilash fondi jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida» gi PQ-718-sonli Qarori qabul qilingan. Ularning amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 19-martdagи «2008–2012-yillar davrida sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat Dasturi to‘g‘risida» gi PQ-817-sonli Qarori qabul qilingan bo‘lib, unda 2008-yildagi melioratsiya ishlarga davlat byudjetidan 75 mlrd.so‘m ajratish ko‘zda tutilgan.

## O'zbekiston Respublikasi barcha xo'jaliklarida foydalaniladigan yerlar (ming/ga)

Yer toifaları	1985-y.	1988-y.	1989-y.	1990-y.	1995-y.	2000-y.	2001-y.	2002-y.	2003-y.	2004-y.	2005-y.	2006-y.	2007-y.
Yerlar, jumi	45585	45585	45585	45585	44457,	44410,3	44410,3	44410,3	44410,3	44410,3	44410,3	44410,3	44410,3
sh.j. sug'oriladigan	3976,6	4205,5	4225,2	4221,8	4297,9	4273,3	4278,8	4278	4275,3	4279	4295,3	4303	4305,3
Shudgor	4203,5	4370,5	4248,1	4176,5	4092,8	4056,6	4056,6	4052,7	4042,7	4049	4057,2	4064,2	4068,6
sh.j. sug'oriladigan	3406,2	3592,5	3475,2	3407,3	3339,4	3308,3	3309,4	3307,4	3297,7	3296,3	3303,6	3303,5	3310,7
Ko'pyilk ko'challar	325,7	337,1	351,6	366,8	374,5	346,9	3426	336,4	337	338,8	335,8	339	3423
sh.j. sug'oriladigan	317,5	324,8	333,4	354,5	361	332,3	328,1	323,1	323,5	322,7	322,7	325,5	329
Bo'z yerlar	46,8	52,6	60,4	62,1	96,2	82,8	85,6	85	84,5	83,9	83,6	82,6	82,5
sh.j. sug'oriladigan	22	12,9	21	25,9	36	48,4	48,9	48,4	48,3	48,1	48,4	48,3	48,3
Pichanzerlar	119,5	112,5	112,4	112,7	109,4	112,3	111,2	101,3	101,3	101,6	101,7	106,6	
sh.j. sug'oriladigan	30,5	27,4	27,4	27,6	25	27,6	27,6	27,1	27,1	27,1	27,1	27,1	
Yaylovlar	23423,7	23404	23393,6	23362,3	22393,3	22134,1	22098,5	21265	21115,8	21595,5	21105,7	20751	20872,2
sh.j. sug'oriladigan	34,4	704	8,3	9,7	17	16,7	16,7	16,8	16,8	16,3	16,3	16,2	43,1
Qishloq xo'jaligi maqsadidagi yertlar	23119,2	28277	28166,1	28080	27039,1	26734,5	26694,1	25841,1	25651,3	25687,4	25683	25343,8	25365,6
sh.j. sug'oriladigan	3762,9	3965	3865,3	3825	3778,4	3733,3	3730,7	3722,8	3713,4	3713,4	3718,1	3125,6	3731,1
Tomorqa, bog'lar va sabzavotchilik	225,5	257	382,5	451,3	601,5	649,2	665,6	675,4	682,1	687,4	698,5	699,3	6933
sh.j. sug'oriladigan	184,9	211	315	365,5	471,2	408,9	501,4	505	514,2	517,6	528,4	527,7	5183

Meliorativ holatda bo'lganyerlar	149,4	131,6	101,6	103,7	753	82,8	803	79,5	79,5	78,7	78,6	77,1
O'rmonlar	1415,4	1402,4	1409	1410	1254,7	1373,1	13743	2259,8	2703,3	2693,8	2697	3104,4
sh.j. sug'oriladigan	28,8	29,5	30,3	31,3	39,2	46	46,7	47,2	47,7	47,8	48,8	49,7

2000–2007-yillar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi va Respublika viloyatlari bo'yicha  
sug'oriladigan maydonlarning sho'rhanish darajasi

№	Hudud nomi	Yillar	Jani sug'oriladigan maydon, ming ga'	Sho'rhanmagan maydon		Jami sho'rhangan maydon (%)	Kam sho'rhangan		O'rinch sho'rhangan	Kuchli sho'rhangan			
				ming ga'	%		ming ga'	%					
1. Respublika bo'yicha	2000	4245,7	1944,6	45,8	54,2	1263,3	29,8	847,6	20	190,1			
	2001	4252,6	1923	45,3	54,7	1212,9	28,5	893,3	21	218,4			
	2002	4253,8	2030	47,7	52,3	1241,9	29,2	784,4	18,4	197,5			
	2003	4261,3	2043,6	48,1	51,9	1282,9	30,1	752	17,6	178,2			
	2004	4266,7	2079,7	48,7	51,3	1271,8	29,3	740	17,3	114,7			
	2005	4273,6	2103,1	49	51	1172,7	31	695,4	16,3	161,3			
	2006	4270,4	2109,1	49,3	50,7	1244,6	31,4	663,5	15,5	162,6			
2. Qoraqalpog'iston Respublikasi	2000	4297,1	2125,4	49,5	50,5	1344,6	31,1	664,4	15,5	162,7			
	2001	500,1	47,5	9,5	90,5	246,11	49,2	158,71	31,7	47,73			
	2002	500,2	50	10	90	215,8	43,1	172,1	34,4	62,3			
	2003	500,3	73,8	14,8	85,2	169,7	31,9	192,2	38,4	64,5			
	2004	500,4	78,7	15,7	34,3	173,4	34,7	190,7	38,1	57,5			
	2005	500,5	93,1	18,6	81,4	179,5	35,9	170,8	34,1	56,7			
	2006	500,4	103,1	20,6	79,4	163,4	33,7	172	34,4	56,6			
3. Andijon viloyati	2007	500,4	105,1	21	79	153,4	31,7	175,9	35,2	61			
	2000	264,5	245,9	93	7	10,5	4	84	3,1	0			
	2001	264,3	240,6	91	9	12	4,5	11,7	4,4	0			
	2002	263,9	245,7	93,1	6,9	8	3	10,2	3,9	0			
	2003	263,9	243,4	94,1	5,9	9,2	3,5	6,3	2,4	0			
	2004	263,8	247,9	94	6	9,1	3,7	6,3	2,4	0			
	2005	265,3	249	91,9	64	10,1	3,9	6	2,3	0			
2006	265,8	250,3	94,4	5,6	10,2	3,8	4,7	1,8	0	0			
	2007	273,2	258,3	94,5	5,5	10,2	3,7	4,7	1,7	0			

4	Buxoro viloyati	2000	273.3	102	3.7	96.3	147.5	52	89.2	32.6	31.9	11.7
		2001	274.2	112	4.1	95.9	131.4	47.9	94.8	34.6	36.8	13.4
		2002	274.2	161	5.9	94.1	140.8	51.3	85.7	31.1	31.6	11.5
		2003	273.2	252	9.2	90.8	143.8	54.4	76.3	28.1	22.9	8.4
		2004	273.1	229	8.4	91.6	151.2	55.2	77	28.1	22.6	8.3
		2005	274.6	263	9.6	90.4	156.1	56.8	74.4	27.1	17.8	6.5
		2006	274.9	267	91	90.2	150.5	58	72.6	26.4	15.3	5.7
		2007	274.9	27	98	90.2	150.5	58	72.6	26.4	15.3	5.7
5	Jizzax viloyati	2000	300.6	43	14.3	35.7	137.8	45.9	115.4	38.4	4.3	1.4
		2001	301.5	45.6	15.1	84.9	125.1	41.5	122.6	40.7	8.2	2.7
		2002	301.3	45.9	15.2	34.8	143.3	47.7	103.9	34.5	7.7	2.6
		2003	301.2	50	16.6	33.4	142.4	47.3	101.1	33.6	1.1	2.6
		2004	301	45.9	15.3	34.3	143.9	49.5	93.3	32.3	7.3	2.4
		2005	299.3	43.3	14.4	35.6	156.6	62.2	92.4	30.3	7.5	2.5
		2006	299.3	43.8	14.6	35.4	161.6	53.9	87.2	29.1	7.2	2.4
		2007	299.6	43.6	14.6	35.4	161.6	53.9	87.2	29.1	7.2	2.4
6	Qashqadaryo viloyati	2000	497.7	254.9	51.2	48.3	164.1	33	60.5	12.2	38.2	3.6
		2001	498.6	250	50.1	49.0	165.4	33.4	62.7	12.6	19.5	3.9
		2002	498.6	252	50.5	49.5	170	34.1	60.4	12.1	16.2	3.2
		2003	505.4	253.2	50.1	49.9	177.1	35	59.6	11.8	15.4	3.1
		2004	505.4	260.3	51.5	48.5	170.1	33.7	59.6	11.3	15.4	3
		2005	505.4	263.3	52.1	47.9	171	34.1	56.6	11.7	14.5	2.9
		2006	505.8	264.4	52.3	47.7	175.5	34.7	51.7	10.2	14.3	2.3
		2007	512.6	271.1	52.9	47.1	175.5	34.2	51.7	10.1	14.3	2.8
7	Navoiy viloyati	2000	127.4	163	13.2	36.3	65.6	51.5	37.2	29.2	7.8	6.1
		2001	125.9	163	13.3	86.7	62.3	49.5	34.3	27.2	12.5	9.9
		2002	125.4	16.8	13.4	86.6	67.3	54.1	29.3	23.4	11.5	9.2
		2003	127.2	163	13.2	36.8	72.9	57.3	27.4	21.5	10.1	7.9
		2004	131.8	16.8	12.7	37.3	78.7	59.7	26.9	20.4	9.4	7.1
		2005	131.8	16.8	12.7	37.3	30.2	60.3	25.3	19.6	9	6.3
		2006	131.8	16.8	12.7	87.3	83.1	63.1	23.2	17.6	3.7	6.6
		2007	121.8	38	7.1	92.9	83.1	67.1	23.2	18.7	3.7	7

8	Namangan viloyati	2000	273.2	215.3	84.3	15.2	27.5	0.9	1.1	4.7	1.9	0.7
		2001	273.5	244.5	37.3	12.2	22.2	8.2	10	3.6	1.2	0.5
		2002	279	242.9	37.1	12.9	20.3	7.3	13.2	4.7	2.6	0.9
		2003	279.5	246.3	38.3	11.7	17.8	6.4	12.6	4.5	2.3	0.8
		2004	279.4	241.3	89	11	13.7	6.7	9.3	3.5	2.2	0.8
		2005	273.9	251.7	90.2	9.1	12.1	6.1	8.9	3.2	1.2	0.4
		2006	231.6	254.9	90.5	9.4	17.4	6.2	8.1	2.9	1	0.4
		2007	212.6	256.1	90.6	9.4	17.4	6.2	8.1	2.9	1	0.4
9	Samarqand viloyati	2000	373.2	359.3	96.4	3.6	3.6	2.3	4	1.1	0.8	0.2
		2001	376.1	367.4	97.7	2.3	6.8	1.8	1.9	0.5	0	0
		2002	376.5	371.4	98.6	1.4	4.6	1.2	0.5	0.1	0	0
		2003	376.4	371	98.6	1.4	4.3	1.3	0.6	0.2	0	0
		2004	376.6	363.4	97.3	2.2	7.3	1.9	0.3	0.2	0.2	0
		2005	376.4	367.9	97.7	2.3	3	2.1	0.4	0.1	0.2	0
		2006	376.3	366.7	97.3	2.7	9.7	2.6	0.4	0.1	0.03	0
		2007	377.9	362.3	97.3	2.7	9.7	2.6	0.4	0.1	0.03	0
10	Surhantaryo viloyati	2000	324.6	205.4	63.3	36.7	55.1	17	53.1	17.9	6	1.8
		2001	324.6	195.5	60.2	39.8	65.4	20.1	60	18.5	3.7	1.1
		2002	326.6	203.3	63.9	36.1	74	22.2	41.2	12.6	2.6	0.8
		2003	326.1	223.6	63.6	31.4	67.9	20.3	33	10.1	1.6	0.5
		2004	326	220.5	67.6	32.4	53.9	18.1	44	13.5	2.7	0.8
		2005	325.7	202.6	62.2	37.8	70.1	21.5	50.7	15.6	2.3	0.7
		2006	325.7	203.9	64.1	35.9	65.2	20	49.8	15.3	1.8	0.5
		2007	325.7	203.9	64.1	35.9	65.2	20	49.8	15.3	1.8	0.5
11	Sirdaryo viloyati	2000	239.3	133	1.3	93.7	150.3	51.9	112	33.7	23.2	3
		2001	291.6	33	1.1	98.9	157.2	53.9	104.4	35.8	26.7	9.2
		2002	290.7	87	3	97	173.6	61.4	85.4	29.4	18	6.7
		2003	290.7	77	2.6	97.4	176.6	60.7	37.4	30.1	19	6.5
		2004	290.7	64	2.2	97.8	177.8	61.2	93.1	12	13.4	4.6
		2005	290.5	73	2.5	97.5	211.8	72.9	61.6	21.2	9.8	3.4
		2006	290.7	79	2.7	97.3	219.5	75.5	54.3	18.3	8.5	2.9
		2007	292.2	94	3.2	96.8	219.5	75.1	54.8	18.3	8.5	2.9

12	Nöshkent viloyati	2000	385.2	370.1	96.1	3.9	12.6	3.3	1.8	0.5	0.8
		2001	383.7	373	97.2	2.8	5.9	1.5	3.7	1	0.3
		2002	382.4	371	97	3	6.5	1.7	3.8	1	0.3
		2003	382.4	367.1	96	4	10	2.6	4.4	1.2	0.9
		2004	383	367	95.8	4.2	8.4	2.2	5.3	1.4	2.3
		2005	389	378.9	97.4	2.6	6	1.5	3.7	1	0.4
		2006	389	378.6	97.3	2.7	8.4	2.2	2	0.5	0
		2007	394.2	383.8	97.4	2.6	3.4	2.1	2	0.5	0
13	Farg'onha viloyati	2000	355.1	151.3	42.6	57.4	119.8	33.7	72.7	20.5	11.3
		2001	357.4	130.1	36.4	63.6	112.2	31.4	101.6	28.4	13.5
		2002	358.7	176.9	49.3	50.7	117	32.6	55.7	15.5	9.1
		2003	358.7	160.1	44.6	55.4	135.4	37.7	54.8	15.1	8.4
		2004	357.4	181.8	50.9	49.1	109.7	30.7	55.2	15.4	10.7
		2005	358.8	183.1	51	49	109.9	30.6	56.5	15.7	9.3
		2006	358.8	184.5	51.4	48.6	126.2	35.2	40.2	11.2	7.8
		2007	359.8	185.6	51.6	48.4	126.3	35.1	40.2	11.2	7.8
14	Xorazm viloyati	2000	276	0	100	122.8	44.5	116.9	42.4	36.2	13.1
		2001	276	0	100	129.7	47	113.5	41.1	32.8	11.9
		2002	276.3	0	100	140.8	51	102.9	37.2	32.6	11.8
		2003	276.3	0	100	146.6	63.1	97.3	35.2	32.4	11.7
		2004	277.4	0	100	152.9	55.1	92.6	33.4	31.9	11.5
		2005	277.3	0	100	153.2	57.1	86.4	31.2	32.7	11.8
		2006	279.3	0	100	149.8	53.6	93	33.3	36.5	13.1
		2007	280.2	0	100	149.8	53.5	93.9	33.5	36.5	13.

## TUPROQ EROZIYASI

Tuproqning unumdorligiga salbiy ta'sir etuvchi asosiy jarayonlardan biri – suv va irrigatsiya eroziyasidir. Irrigatsiya eroziyasiga asosan sug'orma och va to'q tusli bo'z tuproqli yerlar moyil bo'ladi. Bu maydonlarning yarmiga yaqini bo'laklangan relefli joylar va ularda irrigatsiya eroziyasi rivojlanish ehtimoli cho'l hududlaridagiga nisbatdan ko'prokdir. Tuproqlarning yuvilishi qiyalik 1–2° ga yetganda boshlanib, qiyalik oshgan sari eroziya jarayoni jadallahadi.

Eng xavotirlisi shundaki, irrigatsiya eroziyasi natijasida tuproqlardan gumus va oziqlantiruvchi moddalari yo'qoladi. Buning oqibatida, qishloq xo'jaligi yer aylanmasidan qimmatbaho sug'oriladigan yerlar chiqmoqda. Bundan tashqari, tuproqlargà solinadigan o'g'it va zaharli komyoviy moddalarning uchdan bir qismi tuproqdan yuvilib, suv havzalarida yig'ilib, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Respublikaning 643,2 ming ga sug'oriladigan yerlari irrigatsiya eroziyasiga duchor bo'lgan. Qashqadaryo (159,7 ming ga), Toshkent (138,6 ming ga), Samarcand (121,9 ming ga) viloyatlarining sug'oriladigan yerlari irrigatsiya eroziyasiga ko'proq duchor bo'lgan. Suv eroziyasiga (jami 746,4 ming ga) Qashqadaryo, Toshkent, Samarcand, Surhandaryo va Farg'ona viloyatlaridagi lalmi yerlari uchragan. Shuning uchun, ushbu yerlarda eroziyaga qarshi, aniq maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim.

O'zbekistonda, shamol ta'siri ostidagi tuproq deflyatsiyasi 50% ortiq cho'l va bo'z tuproq mintaqalarini qamrab olgan. Farg'ona vodiysining g'arbiy va markaziy qismi, Buxoro vohasi, Mirzacho'lning shimoliy-g'arbiy cho'li, Qarshi va Sherobod cho'llari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatining sug'oriladigan yerlari, shamol ta'siri ostida ko'proq deflyatsiyasiga uchragan. Tuproqning uchirilishi natijasida ekilgan qishloq xo'jaligi ekinlarining nobud bo'lishi ko'proq Farg'ona vodiysi va Buxoro vohasida sodir bo'lmokda. Shamol ta'siri ostida yemirilishga, yengil mexanik tarkibli qumloq, qum tuproq, yengil

qumloq tuproq bo‘lgan yerlarga uchramoqda. 2007-yili Fargona viloyatining Yozyovon tumanidagi 75 km uzunlikdagi latok va ariqlar, shamol ta’siridagi deflyatsiya oqibatida ko‘milib qoldi.

Shunday qilib, respublika hududida barcha turdagи tuproq eroziyalari va deflyatsiyalar tarqalgan. Bunda eroziya jarayonlarining jadalligi va eroziyaga uchragan tuproqlarning tarqalishi shimoldan janubga qarab o‘sib boradi. Zarafshon, Amudaryo suv oqimlari loyqaliligi Chirchiq va Angren daryolariga nisbatan yuqoriligi bunda misol bo‘la oladi.

## YERLARNI SUV BOSISHI

O‘zbekiston hududining 20% dan ziyodroq maydonini suv bosgan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm va Navoiy viloyatlarida sug‘oriladigan yerlarning 40% dan ko‘prog‘i, Farg‘ona vodiysi va Samarqand viloyatlarida 30–40%, Toshkent, Sirdaryo, Jizzax va Buxoro viloyatlarida 20–30% suv bosishga uchragan. Ko‘pchilik sug‘orish massivlaridagi suv bosishlarga yuqori relefli yerlarning o‘zlashtirilishi va sug‘orilishi sabab bo‘limoqda.

Suv bosish jarayonining oldini olish uchun sizot suvlari sathini pasaytirish;

- kollektor-drenaj tarmoqlari zichligini oshirish;
- gidrotexnik inshootlarni loihalardan tozalash, agrotexnik tadbirlarga rioya etish;
- suv va yer resurslaridan oqilona foydalanishni amalga oshirish lozim.

## 2005-yilda O'zbekistonning mineral o'g'itlarga ehtiyoji

Qishloq xo'jaligi ekinlari	Ekinlar maydoni, ming ga	Hosil, ts/ga	O'g'itlar, amaldagi moddaning ming t		
			N	R	K
Paxta	1362.3	26.4	288.32	194.38	128.65
Don sug'orishda	1083.0	40.5	217.35	147.99	56.10
Don lalmida	290.0	10.0	13.6	11.6	0
Sholi	81.0	34.5	17.62	11.01	8.18
Yem doni	51.0	45.0	12.53	8.25	5.39
Shakar lavlagi	10.0	220.0	1.47	0.95	0.85
Kartoshka	21.6	144.3	2.66	1.83	1.18
Sabzavotlar	48.8	173.5	5.05	3.45	1.73
Makkajo'xori silosda	192.2	118.0	7.13	4.56	3.10
Beda	130.0	67.0	6.58	3.17	2.75
Beda	125.3	48.0	2.51	7.27	1.61
Yem lavlagi	16.07	400.0	2.48	1.67	1.03
Poliz ekinlari	21.3	140.0	1.69	1.62	0.54
Texnik ekinlari	49.8	30.0	11.31	7.21	2.73
Urug'li ekinlari	4.9		0.95	0.60	0.35
Boshqa boshqolilar	12.6	31.0	1.97	1.22	0.82
JAMI:	3209.87		579.60	395.18	21
Bog'lar	148.3	67.0	16.41	11.25	8.03
Tokzorlar	96.8	85.0	17.15	7.63	7.72
Meva ko'chatlari	6.8		0.67	0.33	5.00
Tutzorlar	67.2		6.72	3.36	0.20
Takror yem ekinlari	250	130.0	17.04	15.65	2.02
Takror sabzavot ekinlari	220	283.5	25.43	17.37	7.6
JAMI:	3998.97		657.02	450.77	9.6
Dehqon xo'jaliklari ekinlari					250.17
JAMI respublika bo'yicha	634.6		93.2	55.9	28.0
	4633.57		761.82	518.27	278.12

**1991–2007-yillarda O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha qishloq xo‘jaligi ekinlari uchun mineral o‘g‘itlar yetkazib berish  
(amaldagi moddalar 100% hisobida), ming t**

Yil	Azot	Fosfor	Kaliy	Jumladan, g‘o‘zaga			Boshqoli ekinlarga		
				Azot	Fosfor	Kaliy	Azot	Fosfor	Kaliy
1991	635,2	436,8	147	410,06	244,8	86,92	225,14	192	60,08
1992	568,1	358	118,5	388,4	201,42	74,89	179,7	156,58	43,61
1993	633,1	303,5	35,7	420,8	182,6	29,6	212,3	120,9	6D
1994	450,5	143,1	0,7	326,3	96,28	0,62	124,2	46,82	0,06
1995	453,6	110,6	0	292,62	64,66	0	160,98	45,94	0
1996	549	107	22,4.	314,59	62,19	13,62	234,41	44,81	8,78
1997	705,4	199,4	143,8	361,75	109,68	66,58	343,65	89,72	77,22
1998	666,2	109,8	48,4	353,09	67,63	38,4	313,11	42,17	10
1999	586,7	154	35	391,46	79,94	26,13	195,27	74,06	8,87
2000	551,2	110,6	15,3	290	62,01	6,5	263,2	48,59	8,8
2001	511,5	100,1	6,7	269,14	50,62	4,51	242,36	49,48	2,19
2002	563,5	172,15	15,3	260,98	79,86	15,32	302,54	92,29	0
2003	533,2	125,48	10,3	287,91	89,48	21,5	245,3	36	10,27
2004	520,6	120,6	24,97	300,71	67,132	22,5	219,89	53,468	2,095
2005	470,1	103,71	20,43	304,34	68,18	16,96	165,76	35,53	3,47
2006	462,45	88,12	15,64	303,63	52,19	12,58	158,82	39,92	12,58
2007	447,51	86,52	11,77	319,85	54,07	8,47	127,64	32,55	3,3

## VII BOB. SHO'RLANGAN VA BOTQOQLANGAN YERLARNI MELIORATSIYA QILISH. MELIORATIV TADBIRLAR TARTIBI

Qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish, paxta va boshqa ekinlarning hosildorligini oshirish bo'yicha yuklangan vazifalarni bajarish uchun yerning sho'rланishiga va botqoqlanishiga qarshi kurashish tadbirlarini amalga oshirishning katta ahamiyati bor.

Sho'rланish va botqoqlanish hodisalarining oldini olishda avvalo shu hodisalarni keltirib chiqaruvchi quyidagi asosiy sabablarni bartaraf qilish kerak:

- 1) suv isrofgarchiligiga yo'l qo'ymaslik (chunki bu suvlari sizot suvlarga qo'shilib, ularning sathini ko'taradi);
- 2) tuproq namligining bug'lanishini har taraflama kamaytirish;
- 3) yuza joylashgan sho'r yoki chuchuk sizot suvlari sathini pasaytirish.

Tuproq yumshoq va mayda donador holatda bo'lsa, undan namlik kamroq bug'lanadi, ekinlarning tezroq rivojlanishi uchun sharoit yaratib beriladi. Bunday natijalarga erishish uchun ixota o'rmon polosalari o'tkazish, g'o'za-bedani almashlab ekish, ekin ekishning ratsional agrotexnikasidan foydalanish zarur.

Shunday qilib, tuproq holatini tubdan yaxshilash uchun odatda bitta tadbirdan emas, balki kompleks meliorativ tadbirlar tizimidan foydalanish lozim.

Har bir konkret maydon uchun shunday tadbirlar tizimsi shu yerning tabiiy va xo'jalik shart-sharoitlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi lozim.

Ko'rildigan barcha tadbirlar ma'lum izchillikda, o'z vaqtida va yuqori sifatli qilib amalga oshirilishi lozim.

Zarur meliorativ tadbirlarni aniqlashda yerdan foydalanish katta ahamiyatga ega.

Sug'oriladigan zonada yerdan foydalanish koefitsienti (YeFK) sug'oriladigan maydonning shu xo'jalik umumiyligi maydoniga bo'lgan nisbatini bildiradi. Masalan, xo'jalikning umumiyligi yer maydoni 3500 ga, sug'oriladigan maydoni 2600 ga desak,

$$YeFK = \frac{2600}{3500} = 0,74 \text{ bo'jadi.}$$

Yerlari sho'rlangan sug'oriladigan rayonlarda tabiiy va xo'jalik sharoitlariga qarab YeFK qiymati har xil: 0,3–0,4 dan 0,6–0,85 gacha va undan ham katta bo'jadi.

Sug'oriladigan yerlar orasida sug'orilmaydigan yerlar bo'ladidi. Shu sug'orilmaydigan yerkarga sug'oriladigan yerkardagi sizot suvlar oqib boradi. Shuningdek, sho'r yuvish jarayonida ham sug'oriladigan yerkarning sho'rini ketkazish ancha oson bo'jadi. Bu yerlar sho'rlanishga uncha moyil bo'lmaydi va zovur qazishni ham talab qilmaydi.

Sug'orilmaydigan yerkarning sug'oriladigan yerkarga ta'siri (sizot suv oqimining sug'orilmaydigan maydonga tomon intilish ta'siri)ga quruq zovur degan nom berilgan.

Faqat zovur maqsadida yerning bir qismidan foydalanmaslik qishloq xo'jaligida sug'orib dehqonchilik qilinadigan maydonlar uchun to'g'ri kelmaydi, chunki quruq qoldirilgan yer minerallashgan sizot suvlarining bug'lanish havzasasi bo'lib qoladi va tez kunda sho'r bosib, yaroqsiz holga keladi. Uni qayta o'zlashtirish, hosildor qilish uchun ko'p mablag' sarflashga to'g'ri keladi.

Ikkinchisi tomondan xo'jalikning barcha yerlarini sug'orib, ekin ekiladigan qilish uchun ancha vaqt va mablag' sarflanadi. Shuning uchun sug'orib dehqonchilik qilinadigan rayonlardagi noqulay yerkarni hammasidan ham melioratsiya ishlarida foydalanilayotgani yo'q. Yerdan foydalanish koeffitsientining qiymatini belgilashda ham shu narsa nazarda tutiladi.

Yerdan foydalanish koeffitsienti qancha katta bo'lsa, sizot suv oqimi ham shuncha kam, demak, sho'rlanishning oldini olish bo'yicha qilinadigan tadbirlar (suv-xo'jalik, agromeliorativ) ning zarurati ham katta bo'jadi.

Sizot suvlar oqimi kuchsiz bo'lgan rayonlarda zovur qazimasdan sug'orish uchastkalarini kengaytirish sizot suv sathining ko'tarilishiga, yerning sho'rlanishi yoki botqoqlanishiga sabab bo'jadi.

Melioratsiya ishlarini amalga oshirishda meliorativ tadbir (suvxo'jalik, agromeliorativ, injenerlik-melioratsiyasi) larga quyidagi texnik tadbirlarni qo'yish juda muhim:

- a) suv, yer va mexanizmlardan unumli foydalanish maqsadi-da xo'jalik maydonini to'g'ri tuzish;
- b) sug'orish va kollektor-zovur tarmoqlarini ekspluatatsiya qilishni yaxshi uyushtirish va yerni melioratsiya jihatidan kontrol qilish;
- v) meliorativ tizimlarni loyihalash, qurish va ekspluatatsiya qilish bo'yicha malakali kadrlar yetishtirish;
- g) suv-xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash tadbirlarini amalga oshirish.

## **YERLARNI MELIORATIV VA GIDROMODULLASH JI-HATIDAN RAYONLASHTIRISH**

Tuproq unumdorligini uzliksiz ko'tarish, yer va suv resurslaridan unumli foydalanish uchun xo'jalik, rayon, voha hududlarida melioratsiya tadbirlarining differentsiyalangan kompleksidan va gidromodullash jihatdan rayonlashtirilmoqda.

Ayrim rayon xo'jaliklar yer massivlarini, hatto dalalarini meliorativ jihatdan sinchiklab rayonlashtirish agromeliorativ rayonlashtirish deyiladi.

Markaziy Osiyo hududini gidrogeologik jihatdan, tuproq-meliorativ va gidromodul jihatidan rayonlashtirishda M.A.Shmid, M.M.Krilov, L.P.Rozov, V.A.Kovda, A.N.Rozanov, B.V.Fyodorov, V.R.Shreder va boshqalarning asarlari katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Yerlarni meliorativ rayonlashtirishda sizot suvlarning chiqib ketish va ayrim yernarning sho'rlik darajasi bir-biridan farq qilishi ni analiz qilishga katta e'tibor beriladi.

Tabiiy zovurlashtirilganlik darajasiga ko'ra maydonlar quyida-gi meliorativ zonalarga bo'linadi:

- a) sizot suvlar o'z-o'zidan tabiiy oqib ketadigan zona;
- b) sizot suvlar tabiiy kuchsiz oqib ketadigan zona;
- v) sizot suvlar tabiiy oqib ketmaydigan yoki zovurga oqib ketadigan zona.

Yerning balandligi va sizot suvlari (mahalliy) chiqib ketish sharoitiga qarab har bir meliorativ zona meliorativ zonachalar (rayon) ga bo'linadi (42-jadval).

42-jadval

### Mirzacho'lning meliorativ zona va zonachalari.

(B.V.Fyodorov ma'lumotlaridan, 1953-y)

No	Zona va zonachalarning nomi va sharoiti	Maydonning umumiy maydoniga ko'ra maydoni, %
I	Tog' oldi zonasasi. Sizot suv sathi doimo chuqurroq bo'ladi, tuprog'i qaytadan sho'rланmaydi va botqoqlanmaydi.	4
II	Soz-sho'rxok zona. Sizot suv sathi doimo yuza joylashib, kuchsiz sho'rланgan bo'ladi, tuprog qaytadan sal sho'rланgan.	6
III <sup>a</sup>	Sho'rxok zona. Sizot suv sathi turg'un emas, minerallashgan, xloridli-sulfatli xarakterigaega. Tuprog'i bo'z va o'tloq bo'lib sho'rланadi va botqoqlanadi.	80
III <sup>b</sup>	Sho'rxok zonacha. Sizot suvi doimo bir xil chuqurlikda turmaydi, minerallashgan bo'ladi. Tuprog qayta sho'rланadi va botqoqlanadi.	
III <sup>b</sup>	1. Platonig baland qismi zonachasi. Sizot suvi qoniqarli darajada chiqib ketadi.	3
	2. Platodagi depressiya zonachasi. Sizot suv yetarli darajada oqib ketmaydi. Tuprog'iintensiv suratda sho'rланadi.	4
IV	Sho'rxok zonacha. (Sirdaryoning hozirgi sohili) minerallashgan sizot suv sathining chuqurligi o'zgarib turadi. Tuprog'i qaytadansho'rланади va botqoqlanadi.	
	1. Sohilning baland qismi zonachasi. Sizotproror 2. Adoqdagi depressiya zonachasi. Sizot suvi yetarli darajada oqib ketmaydi. O'zlashtirilmaydigan qumliklar va botqoqliklar	3
JAMI		100

Meliorativ zonachalar tuprog'ining xarakteri va xossasiga, sho'rlanganlik darajasiga, sizot suvlarining joylashiga, chuqurligiga qarab farq qilishini nazarda tutib, agromeliorativ kichik zonacha (rayoncha) larga, bular esa o'z navbatida tuproq gruppalariga bo'linadi.

Shu sharoitga qarab, har bir meliorativ zona va zonachalar uchun asosiy meliorativ tadbirlar qurish tavsiya etiladi. Agromeliorativ kichik rayonlar va tuproq gruppalari uchun ekinlarni sug'orish tartiboti, almashlab ekish turi, agrotexnik xususiyatlari va boshqalar belgilanadi.

Zarur kompleks meliorativ zona, zonacha, kichik zonacha va tuproq gruppalari uchun belgilab chiqiladi. Dastlab asosiy tadbirlar, keyin boshqa tadbirlar (zovur qazish zarur-zarurmasligi, sho'r yuvish muddatlarini va normalarini to'g'ri aniqlash, almashlab ekish sxemalarini joriy qilish, ixota daraxtazorlar barpo qilish, kanallardan suvning filtratsiyasi isrof bo'lishiga qarshi kurashish, ekinlarni sug'orish tartibotini aniqlash va boshqalar)ni amalgalashirish kerak.

Sug'oriladigan zonada ekinlarini sug'orish tartiboti va o'lchami kompleks meliorativ tadbirlarning ajralmas qismidir. Shuning uchun yerlarni meliorativ jidatdan rayonlashtirish odatda gidromodul jihatdan rayonlashtirishni ham o'z ichiga oladi.

Gidromodul jihatdan rayonlashtirish katta ahamiyatga ega. Bunda yerlarning gidromodul rayonlari uchun suvdan tejamli va ratsional foydalaniлади hamda ekinlardan yuqori hosil yetishtirish tartiboti va o'lchami belgilanadi.

Suvdan foydalanish rejasini tuzish, yangi sug'orish tizimlarini qurish va eskilarini qayta qurish loyihalarini tuzish, ularni amalgalashirayotgan xo'jaliklararo, rayonlararo, oblastlararo ahamiyati ga ega bo'lган kanallar suvini xo'jaliklar, rayonlar va oblastlarga to'g'ri taqsim qilish uchun bunday rayonlashtirishning ahamiyati juda katta.

Iqlimiш sharoitlarga ko'ra Markaziy Osiyo va Janubiy Qozog'iston maydonsi Shimoliy, Markaziy va Janubiy paxtachilik zonalariga bo'lingan.

Sug'oriladigan har bir iqlim zonasining o'zi sizot suv sathining joylanishiga qarab to'rtta guruhga bo'linadi.

- 1) sizot suv sathi 3 m dan chuqur;
- 2) sizot suv sathining chuqurligi 2–3 m;
- 3) sizot suv sathining chuqurligi 1–2 m;
- 4) sizot suv sathining chuqurligi 0–1 m (vegetatsiya sug'orish davrvda).

Ko'rsatilgan har bir guruh (oxirgisi bundan mustasno) chegarasida tuproq xillari suv-fizik xossalariiga ko'ra birlashtirilgan. Shunuqtai nazardan uchta guruhga ajratilgan:

- a) mexanik tarkibi yengil tuproqlar;
- b) mexanik tarkibi o'rtacha tuproqlar;
- v) mexanik tarkibi og'ir tuproqlar.

Yengil tuproqlarga qumli, qumoq va yengil qumloq, og'ir, tuproqlarga og'ir qumoqlar va soz tuproqlar kiradi.

Shunday qilib, har bir iqlim zonasasi bo'yicha 10 ta gidromodul rayon (sizot suv sathi 3,0 m dan chuqur uchta rayon; sizot suv sathi 2–3 m bo'lgan uchta rayon va sizot suv sathi chuqurligi 0–1 m bo'lgan bitga rayon) ni ajratish mumkin.

Yuqoridaqilar hisobga olinganda, gidromodul rayonlar tarkibi quyidagicha bo'lishi mumkin (44-jadval).

44-jadval

#### Yerlarni gidromodul rayonlarga bo'lish

Gidromodul rayon nomerlari	Tuproqlar	Sizot suv sathining. chuqurligi, m
1	Suv o'tkazish kuchli	3 dan chuqur
2	Yengil	3 dan chuqur
3	O'rtacha va og'ir	3 dan chuqur
4	Yengil	2–3
5	O'rtacha va og'ir	2–3
6	Yengil	1–2
7	O'rtacha va og'ir	1–2
8	Mexanik tarkibi turlicha	0–1

Lekin suvdan foydalanish va suv taqsimlash praktikasi uchun tuproqni mexanik tarkibini uch gruppaga emas, balki: a) yengil tuproq, b) o'rtacha va og'ir tuproq gruppalariga bo'lish kerak.

Shuningdek, juda yaxshi suv o'tkazuvchan rayonlari ham gidromodul rayonlar qatoriga qo'shish zarurligini tajriba ko'rsatmoqda. Bunday tuproqlarni (sizot suv sathi 3 m dan chuqur bo'lgan yerlar):

b) qumli tuproqlar;

v) yaqinda o'zlashtirilgan g'ovak tuproqli yerlar qatoriga qo'shish mumkin. Sizot suvlari chuqur bo'lgan murakkab yerlarni ham shu tuproqlarga qo'shish kerak.

Gidromodul rayonlar sonining kamaytirilishi suvdan foydalanish planini tuzish, rayon hamda xo'jaliklar uchun kanallardan qancha suv berilishini hisoblashda ancha yengillik tug'diradi.

## YERLARNI MELIORATIV JIXATDAN NAZORAT QILISH

Suvdan foydalanish sharoitiga, agrotexnika va meliorativ tadbirdirlarga qarab, gidrogeologik zona sizot suvlari sirtga tekkan va tarqalgan, Shuningdek, qayir va delta maydonlarida sug'oriladigan yerning meliorativ holati yaxshilanishi ham, yomonlanishi ham mumkin. Shuning uchun har bir xo'jalikdan foydalaniladigan yerlarning meliorativ holatini nazorat qilib turish kerak:

1. Sizot suv sathining joylashish chuqurligi;
2. Sizot suvning sho'ranganlik darajasi;
3. Tuproqning sho'ranganlik darajasi.

Sizot suv sathini kuzatib borish uchun maxsus quduqlar qaziladi. Bu quduqlar meliorativ sharoit va baland-pastliklarga xarakterli yerlar, pastliklardan qaziladi. Yerning baland-pastligiga qarab, uchastkadagi quduqlar 3–5 m chuqurlikda qaziladi.

Turg'un bo'limgan oqma gruntlarda burg'-quduqlarga, odatda diametri 8–10 sm bo'lgan asbosement quvurlar o'tqaziladi, Trubalarni o'rnatishdan oldin ularning pastki qismlari g'alvirak qilib teshiladi. Quvurlarga shu teshiklardan suv yig'ilib kiradi. Quduqda o'rnatilgan quvur tevaragi filtr balandligida shag'alga

to‘ldiriladi, ya’ni teskari filtr quvurni loyqa bosishdan saqlaydi. Quvur filtrning tubiga ham 10–15 sm qalinlikda shag‘al tashlanadi. Quvur og‘zi tiqilib qolmasligi, yog‘in suvlar oqib kirmasligi uchun metall qopqoq bilan yopib qo‘yiladi.

O‘pirilmaydigan zich gruntlarda kuzatish quduqlari ichiga quvur o‘rnatilmaydi. Quduqning ust qismiga qisqa (70–80 sm) yog‘och, asbosement og‘iz yasash kerak.

Sizot suvining sati doimo quduq og‘zidan boshlab o‘lchanadi. Xo‘jalik maydoni va meliorativ sharoitiga qarab kuzatish quduqlari 5–15 tagacha va undan ham ko‘p bo‘ladi. Barcha quduqlar maydon planiga tushiriladi va nomerlab chiqiladi.

Tuproqning sho‘rlanishi har yili kuzda tekshiriladi. Planda kuchsiz, o‘rtacha va kuchli sho‘rlangan yerlar konturi, shuningdek unga qanday ekin ekilishi ko‘rsatiladi.

Tuproqdagi tuzlaring miqdori va tarkibini aniqlash uchun bahorda ekish oldidan va kuzda vegetatsion sug‘orishlar tugaganidan keyin har 1–1,5 oyda ayrim tipli uchastkalardan tuproq namunalari olinib, analiz qilinadi. Tuproq va sizot suvlar xo‘jalik yoki tajriba stantsiyalarining agroximiy laboratoriylarida analiz qilinadi.

Olib borilgan barcha kuzatish va analiz dalillari asosida sizot suv tartibotini va yerning meliorativ holatini tubdan yaxshilash tadbirlari ko‘riladi.

## **SUV DAN FOYDALANISHNI YAXSHILASH VA SUV ISROFGARCHILIGIGA QARSHI KURASHISH**

Yer botqoqlanishi va sho‘rlanishining oldini olish hamda unga qarshi kurashishga doir suv-xo‘jalik tadbirlari eng muhim va birinchi navbatda qilinishi zarur bo‘lgan tadbirlardan hisoblanadi. Bular suvdan foydalanish va sug‘orish tarmoqlarini ekspluatatsiya qilishni to‘g‘ri tashkil qilish, suv isrofgarchiligiga qarshi kurashish, sizot va yer osti suvlari (artezian suvlar)ni suv ta’midotida foydalanish va sug‘orishdan, ratsional foydalanishdan iboratdir.

Suvdan planli foydalanish – eng yaxshi agrotexnik muddatlarda suvni isrof qilmasdan unumli foydalanish yoki sug‘orish tarmoqlaridagi isrofgarchilikni minimal darajaga keltirish, kollektor-zovurlar tarmoqlariga tashlab yubormasdan ekin sug‘orishdir.

Suvni to‘g‘ri taqsimlash, ekin maydonlarini o‘z vaqtida tayyorlab qo‘yish va o‘z vaqtida sug‘orish uchun suvdan foydalanish planida: qaysi kanal bilan qancha suv berilish, qaysi brigada va uchastkaning qaysi ekini hamda necha getkar yeri sug‘orilish, sug‘orish uchun necha suvchi va qator oralariga ishlov berish uchun necha traktor kerakligi ko‘rsatiladi.

Sug‘orishning yangicha tizimsiga ko‘chganda sug‘orish tarmoqlari qayta ko‘riladi. Uchastkalar 8–12 ga, yer tabiiy tekis bo‘lib, daraxt bo‘limganda esa 20–25 ga gacha yiriklashtirish tavsiya etiladi. Yangicha sug‘orish tizimsining amalgaga oshirilishi natijasida suvning filtratsiyaga sarflanishi kamayadi, yerdan foydalanish oshadi, suv va mexanizmlardan unumli foydalaniladi. Suvning sug‘orish kanallaridan filtratsiya bo‘lib ketishiga qarshi kurashish tadbirleri juda muhim hisoblanadi. Yyetarli zovurlashtirilmagan va qayta sho‘rlanadigan yerlarda bu tadbir ayniqsa muhim.

Melioratsiyada eng muhim problemalardan biri – kanallardan suvning isrofgarchiligiga qarshi kurashishdir, chunki o‘zani hech narsa bilan qoplanmagan kanallardan 40–50 foiz suv filtratsiya bo‘lib ketadi. Sug‘orish tarmoqlaridan filtratsiya bo‘lib isroflangan suv ba’zan sizot suv balansining 60–70 foiziga to‘g‘ri keladi.

Sharoitga qarab suvning filtratsiya bo‘lib ketishiga qarshi kurashishda turli usullardan foydalanish mumkin.

Sug‘orish kanallari bo‘ylab daraxt o‘tkazish. Katta daraxtlarning ancha chuqur o‘sib borgan baquvvat ildiz tizimsi kanaldan filtratsiya bo‘lib ketadigan suvni tuproq-grunt suvi bilan birga o‘zida ushlab qoladi va undan transpiratsiyada foydalaniladi.

Kanallar o‘zanini kolmotaj qilish, ya’ni kanallarning ho‘llangan perimstriga loyqa cho‘ktirish. Loyqa kanal yaqinidagi maxsus hovuzlarda tayyorlanadi. Bu usuldan qumli va shag‘alli gruntlardan o‘tkazilgan kanallarda foydalananiladi.

Kanallarni oqizindilardan tozalashda kolmotaj qilingan qatlama tegmaslik zarur.

Kanal perimetrini zichlash. Zichlanuvchan grunt (qumoq lyoss) lardan o‘tgan kanallarning tubi va qiyaliklari qulachokli (g‘altak) molalar bilan bir necha o‘tishda yoki mexanik usulda zichlantirila-

di. Birinchi holda grunt 0,25–0,30 m chuqurlikda, ikkinchi holda 0,6–1,60 m chuqurlikda zichlanadi.

Sho'rtoblash (ximik usul) yoki sun'iy gleylash (bioximik usul). Bu usul juda qimmatga tushishi, tarkibida gips yoki karbonatlar bo'lgan tuproq qatlamlarida uning yetarli darajada ta'siri yo'qligi tufayli foydalanilmay qo'yildi.

Sun'iy gleylash usulida kanalning tubi va qiyaliklarida 5–7 sm qalinlikda maydalangan o'simlik chiqindilari yotqiziladi. Bu qatlam ustidan grunt suviga to'la namiqqan organik moddlar chiriydi.

Neftlash, bitumlash, silikatlash. Bu usulda g'ovaklarini yopish-qoq yoki qotiruvchi moddalar bilan to'ldirish maqsadida foydalaniladi.

Filtratsiya bo'lib ketadigan suv isrofgarchiligiga qarshi qator muhim tadbirlar sug'orish kanallarini qurishda ishlatilishi mumkin. Ularga quyidagilar kiradi:

Portlatish suli. Suv o'tkazmaydigan ekranlar hosil bo'lish. Yangi kanal qazishda va eskisini kengaytirishda portlatish usulida o'zan shibbalanadi. Portlash to'lqini gruntuancha chuqurlikkacha juda yaxshi zichlantiradi. Natijada mexanizmlar bilan qazilgan kanallarga qaraganda bu kanallarda filtratsiyada tezligi 10–20-martagacha kamayadi.

Suv o'tkazmaydigan ekranlar hosil qilish. Bu usulda kanalning tubi va qiyaliklari ostiga gil eritmalar, polimer parda va boshqa materiallar yotqiziladi.

Filtratsiyaga qarshi qoplamlalar to'shash. Bu usulda kanal tubi va qiyaliklariga beton, temir-beton, asfalt, gil qoplanadi. Temir-beton qoplama juda ham chidamlidir. Ayniqsa, kanal qiyaliklari tik yoki gruntu bo'sh bo'lib, sizot suv bosimi kuchli bo'lganda hamda kanal qiyaliklari o'pirilib tushayotganda temir-beton qoplamlaridan foydalanish zarur.

Deformatsiya bo'lmasligi uchun gruntu yaxshi cho'ktirish maqsadida dastavval kanal o'zaniga suv quyib namiqtiriladi va keyin beton quyiladi.

Temir-beton novlardan foydalanish. Bunda sug'orish tizimsi o'zanlari yerdan (tuproqdan) iborat bo'lmay, ayni maqsad uchun

maxsus suv o'tkazmas temir-beton novlar o'rnatiladi. Novlarning bir-biri bilan tutashadigan choklari bitum mastikasi bilan to'ldiriladi. Novlarning (yotqizilish) balandligi 60, 80 va 100 sm, suv o'tkaza olish qobiliyati 0,2–0,6 m /sek gacha.

Suv novga yerda qazilgan monolit qulqoq boshi orqali kirib keladi, so'ngra suv chiqargichlar yordamida novlardan egiluvchan truba provodlarga taqsimlanadi. Nov-kanallardan to'g'ri foydalanishda sug'oriladigan maydonning barcha yeriga suv chiqarish mumkin, suv nobudgarchiligidagi barham beriladi, sug'orish tizimlarining foydalanish koeffitsienti ancha oshadi.

Yopiq sug'orish tarmoqlaridan foydalanish. Ko'pgina xo'jaliklar (Mirzacho'ldagi "Farhod" xo'jaligi, Gagarin nomidagi sovxozi va boshqalar)da yerni yopiq tarmoqlaridan sug'orish sinovida gidrantlar va egiluvchan trubopravodlardan foydalanilmogda. Yopiq sug'orish tizimlari (quvurlar)dan foydalanish suvning bug'lanish va filtratsiyaga sarflanishini bartaraf qilishga imkon beradi va dalalarda suv isrofgarchiligini minimumgacha kamaytiradi. Bu sug'orish tizimlarda FIK 0,90–0,95 ga yetadi.

Suv isrofgarchiligini kamaytirish va undan foydalanishni yaxshilash bo'yicha hamma uchun majburiy bo'lgan ekspluatatsiya tadbirleri: kanallarni oqizindi va o'simliklardan o'z vaqtida tozalash, ichki xo'jalik suv oborotini amalga oshirish, suvdan kecha-kunduz bab-baravar foydalanish, sug'orilmaydigan davrda kanallarni berkitib qo'yishdan iborat.

Kanallar o'z vaqtida oqizindi va o'simliklardan tozalab turilsa, kanaldagi suv sarfi va suv tezligi katta bo'ladi. Bu esa filtratsiyani kamaytiradi.

Suv oboroti joriy qilinmagan xo'jaliklarda suv ko'p kanallarda oz-ozdan bog'lanadi va bitta brigadaning bir qancha uchastkalari ga bo'lib beriladi. Natijada, kanaldagi suv sarfi oz bo'lganligidan gruntga singib kirib, umumiy suv isrofgarchiligi ancha ko'payadi.

Xo'jaliklarda suv oboroti joriy qilinganda boshqacha natijalariga erishish mumkin. Bunda suv yirik kanallardan (ayrim brigadalar uchun) doimiy oqimda berib turiladi. Lekin har bir brigadada suv

oboroti tashkil qilinadi, yirik uchastkalarni sug'orish navbatи belgilab qo'yiladi.

Suv oborotining amalga oshirilishi ekinlarni to'g'ri sug'orishga, shuningdek qator oralariga ishlov berish, egat olishda traktordan unumli foydalanishga sabab bo'ladi.

Suvdan sutka buyi foydalanish-uning isrof bo'lishiga qarshi ko'rildigan eng zaruriy tadbirlardan biridir.

Barcha xo'jaliklarda ham biror ekin maydoni sug'orilayotganda unga kechayu kunduz, uzluksiz suv berib turish, suvni kollektor-zovur tarmoqlariga bekor tashlab qo'yish qat'iy man qilanadi. Buning uchun suvchilarining kunduzgi va tungi smenalarini belgilab qo'yish, ularni zarur inventar bilan ta'minlash, tunda sug'orish uchun maydonni o'z vaqtida tayyorlab qo'yish shart. Xo'jalikka keragidan ortiqcha suv oqib kelayotgan bo'lsa, uni kamaytirish zarur.

Sug'orilmaydigan davrda kanallardagi suvni berkitib qo'yish suv isrofgarchiligiga qarshi kurashishda suv xo'jalingining muhim tadbirlaridan biri hisoblanadi.

Sug'orish kanallarining kuz-qish va erta bahorda 3-4 oyga berkitilib qo'yilishi natijasida sizot suv sathi odatdagiga qaraganda ancha pasayadi. Irrigatsiya inshootlarini o'z vaqtida remont qilish va ishga yaroqli holda saqlash, irrigatsiya kanallarining juda to'lib oqishiga ruxsat etmaslik kanaldagi suv isrofgarchiligini kamaytiruvchi ekspluatatsiya tadbirlaridan hisoblanadi.

## SIZOT VA YER OSTI SUVLARIDAN FOYDALANISH

Sizotsuv va yerosti (artezian) suvlardan suv ta'minoti, sug'orish va sho'r yuvish maqsadida foydalanishning katta suv xo'jalik hamda meliorativ ahamiyati bor. Yuqorida aytilgan suvlardan foydalanishning suv xo'jaliga jihatidan quyidagi afzalliklari bor: suv resurslari hamda sug'oriladigan yer maydonlari ham ko'payadi, bu suvlardan foydalanishda magistral, taqsimlash va keng tarmoqlari sug'orish shoxobchalari hamda ko'plab gidrotexnik inshootlar qurish talab qilinmaydi. Sug'orish tarmoqlarining salt qismi uncha uzun bo'Imaganligidan undan suvning filtratsiyaga isrof bo'lishi

kam, foydali ish koeffitsienti va sug'orish qobiliyati katta bo'ladi, suvda muallaq zarrachalar juda kam va minerallashganligidan kanallarni deyarli loyqa bosmaydi va yovvoyi o'tlar juda kam o'sadi, natijada ularni ekspluatatsiya qilish xaratatlari kamayadi.

Meliorativ jihatdan ham suvlardan foydalanishning yaxshi tomonlari ko'p: daryodan irrigatsiya tizimlariga suv olish kamayadi, natijada suvning filtratsiyaga sarflanishi kamayadi va sizot suv sathi pasayadi; zovur suvidan foydalanilganda kollektor va zovurdagi suv sathi pasayadi, natijada ularning ish chuqurligi va samarali ta'siri zo'rayadi.

Muayyan minerallashgan va muayyan tuproq-meliorativ sharoitlarida bu suvlar ko'pincha tuproqqa va ekinlarga hech qanday zarar yetkazmaydi.

Tuzgachidamli ekinlar (oqjo'xori, lavlagi), tuzga uncha chidamli bo'limgan ekinlar (beda, no'xat, makkajo'xori va boshqalar) ancha minerallashgan suvlar bilan sug'orilganda ham zarar yetkazmasligi mumkin. Suvda qancha ko'p tuz bo'lsa, u sug'orish uchun shuncha yaroqsiz bo'ladi. Ayniqsa, tarkibida zaharli xlor ionlari tuzlari bo'lgan suv bilan ekin sug'ormaslik kerak. Suvning tarkibida Na kationi ko'p bo'lqanda ham undan foydalanish tavsiya etilmaydi, chunki uning ta'sirida tuproq sho'rtoqli bo'lib qolishi mumkin. Soda bilan sho'rangan suvlar sug'orishga yaroqsiz hisoblanadi.

Suvda tuzlarning ruxsat etiladigan miqdori tuzlarniig suv-fizik xossasiga va sug'oriladigan maydonning meliorativ sharoitiga ham bog'liq. Agar tuproq ancha suv o'tkazuvchan va yaxshi zovur-lashtirilgan sizot suv sathi va suv to'sar qatlama juda chuqur joy-lashgan bo'lsa, ancha minerallashgan suv bilan ham ekin sug'orish mumkin.

Sug'orish normasi tuproq hisobiy qatlamidagi namlik defitsitidan oshmasligi kerak, chunki tuproqning ildiz tarqalgan zonasida asta-sekin sho'r yig'ilal boshlashi va tuproq ancha sho'rланib qolishi mumkin.

A.N.Kostyakov ma'lumotlariga ko'ra o'simlik va tuproq uchun ruxsat etiladigan sug'orish suvidagi eruvchan tuzlarning miqdori 0,10 dan 0,15% (yoki 1,0 dan 1,5 g/l gacha) dir. Shunday

kontsentratsiyadagi suv bilan sug'organda ham ehtiyot bo'lish kerak, chunki 1 litr suvda 1 gramm tuz bo'lganidan har 1000 m<sup>3</sup> suv bilan 1000 kg tuz tuproqqa qo'shiladi. Suvda eruvchi tuzlar 0,15 dan 0,3% (3 g/l) gacha bo'Iganda, tuzning kimyoviy tarkibini analiz qilish kerak, chunki turli tuzlar tuproq va o'simliklarga turlicha ta'sir qiladi.

Shunday qilib, chuchuk ariq suvi yetishmaganda g'o'za va boshqa ekinlarni minerallashgan suv bilan sug'orilsa ham bo'ladi. Ekinlardan yuqori hosil olish va tuproqning sho'rlnib qolmasligi nazarda tutilsa bas. Mavjud dalillardan va yuqorida aytib o'tilgan talablarni hisobga olganda quyidagicha minerallashgan suv bilan g'o'zani sug'orish (25–30 ts/ga hosil olish mo'ljallanganda) mumkin (36-jadval).

Agar suvning tarkibidagi tuzlar ruxsat etiladigan darajadan ko'p bo'lsa, unda ariq suvini chuchuk suv qo'shish yo'li bilan yaroqli holga keltirish mumkin.

Ko'pgina rayonlarda ekin sug'orish uchun suv omborlari va ko'llardan ko'p suv olish mumkin. Shuningdek, kollektor-zovur suvlaridan keng ko'lamda foydalanish imkoniyatlari ham bor.

Sizot suvlar qo'shimcha muhim sug'orish manbai hisoblanadi. Bu suvlar ochiq transheyalardan, quduqlardan tortish yo'li bilan, shuningdek, buloq va korizlardan olinishi mumkin.

Koriz – sizot suvni yig'ib yer yuziga chiqarish uchun qilingan yer osti galereyasidir. Koriz: a) bir yoki bir necha suv yig'ish galereyasi; b) magistral kanal; v) kuzatish-sharmollatish quduqlari; g) chiqarish qismi yoki labdan iborat, yer ustti suvlari yetishmaydigan rayonlarda, masalan, Turkmaniston va Ozarbayjonning g'arbiy rayonlarida korizdan keng foydalaniladi.

Sizot suvi chuchuk yoki kuchsiz minerallashgan yerlarda muayyan sharoitlarda sug'orish davrida kollektor zovurlarni bo'g'ib qo'yish yo'li bilan tuproqni ostidan sug'orish (subirrigatsiya) mumkin. Kollektor-zovurlar bo'g'ib qo'yilganda suv sathi o'simlik ildizlarigacha ko'tariladi.

<b>Tuproq-meliorativ sharoiti</b>	<b>Suvning ruxsat etiladi-gan minerallanishi, g/l</b>	
	<b>Qattiq qoldiq</b>	<b>Xlor</b>
Suv to'sar qatlam yoki sizot suv sathi yaqin (1,5 m gacha) joylashgandagi mexanik tarkibi og'ir suvni kam o'tkazuvchan va kuchsiz zovurlashgan tuproqlar.	1-1,5 1,5-2	0,3 0,1
Sizot suv sathi 1,5-3 m chuqurlikda bo'lganda suv o'tkazuvchanligi va zovurlashtirilish darajasi o'rtacha bo'lgan tuproqlar.	1,5-2 3-4	0,5 0,2
Suv to'sar qatlam chuqur sizot suv sathi 3-4 m dan pastda joylashgandagi mexanik tarkibli yengil, yaxshi zovurlashtirilgan tuproqlar.	2-3 4-5	0,7 0,3

**Ichimlik-xo'jalik ehtiyojlariga mo'ljallangan suvning sifati  
(Lisitsin ma'lumotlari)**

<b>Suvning sifati</b>	<b>Suvning tarkibidagi mineral</b>			<b>Umumi qattiqligi, gradus</b>
	<b>quruq qoldiq</b>	<b>xlor</b>	<b>sulfat kislota</b>	
Xo'jalik ehtiyojlariga ishlatalidigan va ichiladigan eng yaxshi chuchuk suv. Ichish uchun yaroqli, lekin xo'jalik ehtiyojlariga yaramaydigan chuchuk suv.	0,6 dan ko'p emas	0,1 dan ko'p emas	0,2 dan ko'p emas	20 dan ko'p emas
Ichishga ruxsat etiladi, xo'jalik ehtiyojlariga yaroqsiz sho'r suv.	0,6-1	0,1-0,15	0,2-0,3	20-30
3,0-4,0	0,2-0,4	0,5-1,0	40-60	
5,6 gacha	0,4-0,8	1,0-1,5	60-150	
Mollarni sug'orishgayaroqli suv.	3,0 gacha	3,0 gacha	300 gacha	

Artezian suvlardan suv ta'minoti va sug'orishda foydalanish mumkin. Muayyan sharoitda sho'rangan yerlarni yuvishda minerallashgan suvlardan foydalansa bo'ladi. Chunki har qanday sho'r yuvishda, shu jumladan, faqat chuchuk (ariq) suvidan foydalanganda ham ma'lum darajada chuchuk suv yoki uncha minerallashmagan suv bilan yuvilsada, pastki qatlamlari turli kontsentratsiyali tuzli eritmalarda yuviladi.

Sho'r yuvish uchun ishlataladigan suvdagi tuz kontsentrasiyasi yuvilayotgan tuproqdagi tuz kontsentrasiyasidan ancha kam bo'lgandagina, tuproqdagi tuz yuvilib, undagi tuz miqdori kamayadi. Yuvishdan keyin ham tuproqda qolgan tuzlar chuchuk suv bilan (sho'r yuvish umumiyligi normasiga nisbatan 25–30%) yuvib yuboriladi.

Mirzacho'l, Farg'onada o'tkazilgan tajriba sho'rangan yerlarni minerallashgan suvlar bilan yuvish mumkinligini isbotladi. Masalan, Quva rayonidagi (Farg'ona oblasti) Chkalov nomidagi jamoa xo'jaligida 1954–1957-yillarda 300 ga sho'rangan yer kollektor-zovurlarining minerallashgan suvi bilan yuvilib o'zlashtirilgan.

Aholi yashaydigan punktlarda, mol fermalarini, remont ustaxonalarini suv bilan ta'minlashda mexanizatsiya qurollaridan ko'p foydalanish, suvni zarur tozalikda, o'z vaqtida yetarlicha berib turish juda muhimdir.

Xo'jalik-ichimlik suv, avvalo belgilangan sanitariya talablariga javob berishi (unda terlatma bakteriyalari, hashorot urug'lari, organizmga zararli aralashmalar bo'lmasligi) kerak.

Suvning sathi unda eruvchan tuzlarning bo'lishiga va qattiqlik darajasiga qarab o'zgaradi.

Suv ta'minoti uchun birinchi navbatda sifatli tabiiy suv manbalari (daryo suvlari, yirik buloqlar) dan foydalanish lozim. Suv shu manbalardan xo'jaliklarga vodoprovodlar orqali berilgani ma'qul.

Bunday suvlar bo'limganda sizot suvlari va chuqur yer osti (artizian) suvlardan foydalniladi. Chuchuk suvlari avvalo ichiga va xo'jalik ehtiyoji uchun ishlataladi. Bunday suv yetarli bo'limgan taqdirda, mollar sal sho'rangan suvlari bilan sug'oriladi.

## *Agromeliorativ tadbirdlar*

Sug'oriladigan yarlarning botqoqlanishi va sho'rланishini oldini olish va unga qarshi kurashishda yerni tekislash, daraxt o'tkazish, g'o'za-beda almashlab ekish, sho'rni yaxshilab yuvish, agrotexnika tizimlaridan to'g'ri foydalanish asosiy agromelioratsiya tadbirdardan hisoblanadi.

## **SUG'ORILADIGAN DALALARNI TEKISLASH**

Bunda barcha pastlik va balandliklar tekislاب yuboriladi, balandroq yarlarning tuprog'i qirqilib, pastroq yerlarga to'kiladi, jo'yak va do'ngliklar tekislanadi. Keyin butun dala yaxlit qilib tekislanadi.

Dala tekislashning katta agrotexnik va meliorativ ahamiyati bor. Tekislanmagan yerdarda suv tekis oqmaydi, natijada sug'orish va sho'r yuvish sifati pasayadi va ortiqcha suv sarflanadi. Tekislanmagan uchastkalarning balandroq joylaridagi o'simliklar nam yetishmasligidan qovjiraydi.

Sho'rangan yarlarni tekislashda avvalo meliorativ talablar hisobga olinishi kerak. Bunday yerdarda bo'ylama va ko'ndalang nishabliklar shunday bo'linishi kerakki, sho'r yuvishda suv bostiriladigan polning o'lchamlari juda kichik (0,1 ga dan kichik) bo'lmasin, pol ichidagi baland otmetkalar farqi esa 5–7 sm dan oshmasin. Shu hisobga olinganda tekislanadigan uchastkaning bo'ylama nishabi 0,002–0,003 dan, ko'ndalang nishabi esa 0,0012–0,0018 dan oshmasligi kerak. Tekislanadigan uchastkaning sirti minimal nishablikda bo'lsa, yana ham yaxshi.

Yer tekislash uch xil bo'ladi: qisman tekislash, asosli tekislash,yengil tekislash.

Qisman tekislashda uchastka sirti umumiy xarakterini yo'qotmaydi. Bunda ko'zga tashlanadigan ayrim do'nglik va chuqurliklar tekislanadi.

Asosli tekislash (kapital) dalaning umumiy nishabi eng foydalitomonga butunlay o'zgartiriladi.

Qisman tekislash vaqtida sug'orish uchun yaxshi sharoit yaratish mumkin bo'Imagan taqdirda asosli tekislashdan foydalaniladi.

Yengil tekislash – har yili ekish oldidan mayda o‘nqir-cho‘nqir-liklarni tekislاب yuborish maqsadida qilinadi. Yengil tekislashda yer ishlari hajmi, odatda 150–200 m<sup>3</sup> ga dan, tuproqni singdirish chuqurligi esa 10–15 sm dan oshmaydi.

Asosli tekislashda uchastkalarning sharoiti va sug‘orish talabi-ga qarab turlicha loyiha yuzalar belgilanadi.

a) yerning mavjud nishabligiga yaqinlashuvchi umumiy nishablikdagi qiya yuza;

b) yerning mavjud nishabligiga maksimal yaqinlashuvchi o‘zgaruvchan nishablikdagi topografik yuza;

v) gorizontal yuza.

Loyiha yuza sug‘orish texnikasida qabul qilingan yuzaga mos kelishi kerak. Asosli tekislash loyiha asosida olib boriladi. Bunda avvalo, tekislanadigan uchastkaning relefi s‘yomka qilinadi.

S‘yomka 20x20 m o‘lchamli kvadratlar bo‘yicha, murakkab relefli bo‘lsa, 10x10 m o‘lchamli kvadratlar bo‘yicha nevilir bilan qilinadi. O‘nqir-cho‘nqir nuqtalari aniqlangach, ularga qarab yol 2000 masshtabda plan tuziladi yoki vertikal masshtabi 1:100 bo‘lgan bo‘ylama profili tuziladi.

Oddiyligi, yaqqolligi va yetarlicha aniqligiga ko‘ra bo‘ylama profili bo‘yicha yer tekislash loyihasini tuzishdan tobora ko‘proq foydalanimoqda.

Relefi murakkab bo‘limgan va sug‘orish yo‘nalishi bo‘ylab (tekislanadigan maydon chegarasida) nishabi uncha o‘zgarmaydigan maydonlarni tekislash ish sxemasini yanada osonroq usulda tuzish mumkin. Relef instrumental s‘yomka qilinmaydi. Kvadratlar setkasida qirqiladigan va to‘qiladigan tuproqning balandliklari vizirok yordamida aniqlanadi. Bunda veshka-vizirkalar va nevilirlash reykasi-vizirkasidan foydalaniлади.

Sholi ekiladigan yerlar gorizontal qilib tekislanadi, chunki pol-larga suv bostiriladi.

Paxtachilik xo‘jaligida ham bunday tekislashlar bor, masalan: «Paxtaorol» xo‘jaligida tekislash tufayli yaxshi natijalarga erishildi. Nishabi 0,0005–0,001 dan katta bo‘lgan joylarda yerni gorizontal qilib tekislash kerak emas, chunki bunda yer ishlari hajmi kattalashib ketadi.

Yer tekislashda turli qurollardan foydalaniladi.

Asosli tekislashda buldozer, skreper, greyder, volokusha tipidagi planirovshiklari va boshqa qurollar ishlataladi.

Buldozer katta do'ng va tepaliklarni tekislashda, gruntni yaqin masofa (40–60) m ga surib borishda ishlataladi.

Skreperlar (g'ildirakli va sudralma bo'ladi) do'ngliklarni qirqish, pastliklarni to'ldirishga mo'ljallangan. Gruntni uzoq (100–300 m gacha va undan uzoq) qa surib borishda ishlataladi. Sud-ralma skreperlar kovshining sig'imi 0,75–1,0 m, g'ildirakli skreperlarniki 1,5–2,75 dan 6,0 – 10,0–15 m gachadir.


Greyderlar (og'ir va o'rtacha tipidagi pritsepli, shuningdek, avtogreydeyrlar) alohida balandliklar va pastliklarni yo'qotish, uvatlarni, sug'orish kanallarini to'la tekislash kabi ishlarda ishlataladi (54-rasm).

Volokusha tipidagi planirovshiklar (PR-5, PV-7,3) dala yuzasini yaxlit tekislashda ishlataladi. Planirovshiklarda tekislash sek-siyalari bo'lib, ko'ndalang va diagonal o'rnatilgan tig'li burchakkiliklar ularning ish organi hisoblanadi.

Umumiy tekislashda VNIIGiM ishlab chiqqan uzun bazali planirovshiklarlan keng foydalanilmoqda.

Asosli tekislashda ishlar: 1) tayyorgarlik ishlari; 2) asosiy ishlardan iborat.

Uchastkani o't-o'lan va butalardan tozalash, qirqiladigan va to'qiladigan yerlar qattiq bo'lsa, ularni yumshatish, keraksiz eski ariq va yo'llarni tekislash tayyorgarlik ishlariga kiradi.



54-rasm. D-20-markali feyder.

Yer asosli tekislangandan keyin tuprog'i qirqib surilgan joylar mineral va ayniqsa, organik o'g'itlar bilan oshirilgan normada o'g'itlanishi kerak. Shunday qilinganda tuproqning unum dorligi tezroq tiklanishi mumkin. Masalan, Mirzacho'ldagi tajriba uchast-kasida usti 20 sm chuqurlikda olingandan keyin yaxshilab o'g'itlangan yerlardagi paxta hosili birinchi yili 20,7 ts/ga, ikkinchi yili – 39,4 ts/ga bo'ldi. Yengil tekislash majburiy agrotexnik komplekslar tarkibiga kirib, kolxoz va sovxo zning o'z kuchi bilan bajariladi. Yengil tekislash 2 etapda bajariladi: yer haydal gandan keyin hosil bo'lgan note kisliklar – ag'darmalar oraliq'i, qayirilish polosalari darhel tekislanadi, bahorda esa ekin oldidan dala yuzi yaxlit qilib tekislanadi. Birinchi ish o'rtacha tipdag'i (D-241) greyder bilan, ikkinchisi volokusha tipidagi planirovshik yoki mola bilan bajariladi.

Dala beti volokusha (PR-5, PV-7,3) tipidagi qurollar bilan yengil greyder yoki traktor mola yordamida umumi tekislanadi. Shunday qilib, yerni asosli va yengil tekislashda yer kovlash qurollaridan foydalaniladi.

Quyida jadvalda dala tekislashda ishlatiladigan yer kovlash qurollari va ularning ish unumi to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar keltirilgan.

*47-jadval*

#### **Yer tekislash kurollari va ularning ish unumi normalari**

Mashina markasi	Traktor markasi	Kovshi (lotogi) ning hajmi, otvilarning uzunligi	Soatlik ish unumi	Yoqilg'i sarfi	Gruntni surib borish masofasi (ish normasi) va yurish uzoqligi, m

Dala tekislash (do'ngliklarni qirqish va pastliklarni to'ldirish)  
 Buldozer S-80 2,5 m<sup>3</sup> 21–210 3,0–37,6 5–60 D-157  
 Buldozer DT-54 1,2 m<sup>3</sup> 11–71 5,3–45 2–40 D-159  
 G'ildirakli S-80 6–6,5 15,9–71 14,9–68 50–300 skreper D-147 va D-222

G'ildirakli DT-54	2,25	10–42	13,8–60	50–300
skreper D-183B				
va D-230				
Sudralma DT-541–1,1		11,5–24	29,2–68,6	30–100
skreper va				
KPU-2000A				
skreper,...				
Sudralma DT-54	0,75	9,1–18	37,8–82,5	30–100
skreper...				
Og'ir tipli S-80	3,66 (5,46)	12–25,5	45–96,7	30–100
D-20A greyder				
O'rtacha tipli DT-54 va 3 (3,8)		5,3–12,5	143–196	30–
100				
D-241 greyder ASXTZ-				
NATI				
Ag'darmalarni va jo'yaklarni tekislash				
O'rtacha tipli DT-54 3 (3,8) m		1,45–2	3,87	200–1500
D-241 greyder		km/soat	kg/km.	
Ekish oldidan dalani tekislash				
PR-5 plani- DT-54 5 m	1,64–2,12	3,41–4,91	100–1200	
rovshik ga/soatkg/ga				
PV-7,3 plani- DT-54	7,3	2,08–2,62	2,55–3,03	
100–200				
rovshik				
KZU-0,38 pla- DT-54 2,8		1,81–2,19	3,36–3,88	100–1200
nirovshik.				

### **DARAXT O'TKAZISH**

Mamlakatimizning qurg'oqchil rayonlarida, shu jumladan, sug'oriladigan rayonlarda daraxt o'tkazishning xalq xo'jaligida juda katta ahamiyati bor. Daraxt o'tkazish maydon va suv resurslarini ko'paytirishga, joyning sanitariya-gigiena sharoitlarini yaxshilashga juda katta ta'sir qiladi.

Daraxt, avvalo, yerning mikroiqlimini yaxshilaydi: shamolning esish tezligi va kuchi kamayadi, havoning temperaturasi pasayadi, namligi oshadi. Mikroiqlim yaxshilanishi bilan tuproqdag'i namlikning bug'lanishi kamayadi, suv tartiboti yaxshilanadi, o'simliklarning bargidan bug'latishi (transpiratsiyasi) ham kamayadi.

Shamol kuchli esadigan yengil va qumli (qumli va qumloq) tuproqli rayonlarda o'rmonzor yaratishning roli juda katta. Bunday rayonlarda shamol ta'sirida tuproq eroziyasi sodir bo'ladi. Natija-da urug' unib chiqayotganda unga havo tegadi yoki o'simlik ildizi ochilib qoladi va u nobud bo'ladi. Unib chiqqan o'simliklarning esa barglari zararlanadi, ko'pincha ularning shoxchalari va hatto o'zi sinib tushadi.

Daraxt barglaridan bug'lantirib yuborganligi uchun vegetatsiya davrida maydonlaridagi sizot suv sathining joylashish chuqurligi (sug'orish kanallari va yo'llar bo'ylab o'tkazilgan daraxtlarga) ancha pasayadi. Masalan, "Paxtaorol" xo'jaligida daraxt o'tkazilayotganda, sug'orish kanallaridan turli uzoqlikda turgan sizot suvlarning sathi quyidagicha bo'lgan.

48-jadval

#### Vegetatsiya sug'orish davrida sizot suv sathining chuqurligi

Yillar	Daraxt-ning yoshi	Masofasi					
		K-20-37 sug'orish Kanalida			Qarama-qarshi turgan K-20-39 kanalida		
1940	12	4 m	55 m	154 m	179 m	79 m	4 m
1943	15	370	352	317	339	391	373
1944	16	271	239	203	210	278	288
		309	260	211	198	237	241

*Eslatma: Burg' quduqlarning ikkita o'rtacha nuqtalari o'rta-sidagi masofa 100 m. Daraxt polosalarning ta'siri 150–200 m gacha cho'ziladi, polosa yaqinida sizot suv sathi 50–100 sm pasayadi.*

Daraxt polosasining ta'sirida sizot suv sathining depression egriligi sun'iy zovur qaziganidagidek bo'ladi. Shu sababli, daraxt polosasining sizot suviga ko'rsatadigan ta'siri ko'pincha biologik yoki o'simlik zovuri deb yuritiladi.

Sug'orish kanallari bo'ylab daraxt o'tkazishning ahamiyati yana shundaki, bunday kanallarga soya tushib turadi va unda o't – o'lan o'smaydi, daraxt ildizlari kanal qiyaliklarini mahkamlaydi.

Kuchli shamol esadigan va qurg'oqchil rayonlarda esa davlat yirik ixota daraxtzorlari barpo qilishi zarur.

Sug'orish kanallari yoqasiga va dala maydonlariga tol, terak, tut, qayrag'och, eman, chinor, zarang daraxtlarini o'tkazish mumkin; botqoqlanadigan yerlarga tol, terak, botqoqlik kiparisi; qurg'oqchilikka va sho'rga chidash beradigan daraxtlardan gleditsiya, oq akatsiya, jiyda, turang'il o'tkaziladi.

Yo'l yoqalariga tut bilan birga mevali daraxtlar o'tkazishga ham e'tibor berish kerak. Ma'lumotlarga ko'ra daraxtlar katak qilib o'tkazilganda, ya'ni polosalar o'zaro perpendikulyar bo'lgani 400 – 500 m, kenglikda esa 12–15 m (5–6 kator) qilib olish tavsiya etiladi.

O'rmon polosalarining strukturasi va xili o'sha yerning iqlimi va tuproq melioratsiya sharoitiga qarab belgilanadi.

## ALMASHLAB EKISH

To'g'ri almashlab ekish sho'rlnadigan va botqoqlanadigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilaydi, tuproq unumdorligini oshiradi, hosildorlikni ko'paytiradi.

Almashlab ekishning meliorativ ta'siri bor: tuproq hosildor bo'ladi, unda organik va ozuqa moddalar ko'payadi, fizik xossasi yaxshilanadi, namlik esa kamroq bug'lanadi.

Sug'oriladigan rayonlarda yetarlicha hosildorlik bo'lмаган, sho'rланаб турадиган ўерларда беда ekishning ahamiyati katta. Bedaning melioratsiya ta'sirini quyidagi sabablar bilan tushuntirish mumkin:

a) beda yerning betini yam – yashil qoplab, tuproqni qizishidan va shamol ta'siridan himoya qiladi. Shuning uchun undan namlik kamroq bug'lanadi yoki butunlay bug'lanmaydi. Beda

sug'orilganda suv chuqurroqqa singib kiradi va tuproq asta sekin sho'rsizlanib boradi;

b) beda tuproqning strukturasini yaxshilaydi, bug'latashni kamaytiradi va tuproqni sho'rsizlantiradi;

v) bedaning ildiz tizimlari juda chuqur (3–4 m va undan hamchuqur ketadi), bargi esa qalin bo'ladi. Shuning uchun u juda ko'pmiqdorda tuproq grunt suvlarini bug'lantirib yuboradi.

Sug'oriladigan xo'jaliklar sharoitida melioratsiyalash o'simligi sifatida bedaning katta ahamiyati borligini ko'pgina tadqiqotchilar (N.I. Kurbatov, V.S.Maligin, Ye.G.Petrov, B.V.Fedorov, B.S.Konkov va boshqalar) ko'rsatib o'tdilar. Sug'orib paxta ekiladigan rayonlardagi xo'jaliklar maydonida, odatda bir necha almashlab ekish dalalari o'zlashtiriladi.

Markaziy Osiyoda ko'pgina sug'oriladigan rayonlarda dehqonlar sho'rланib turadigan yerlardan turli chuqurlikda zovurlar qaziganlar, yerning sho'rini yuvganlar. Hozircha Markaziy Osiyo zonasida ochiq gorizontal zovurlardan ko'p foydalani moqda. Markaziy Osiyo va Zakavkaze respublikalarida ochiq zovurlardan tashqari, yopiq gorizontal va vertikal zovurlarni loyihalash hamda qurish avj oldirib yuborildi.

Melioratsiya tadbirlari ko'rildigan yangi va eskidan o'zlashtirilgan yerlarda zovur qazishdan asosiy maqsad quyidagilardan iborat:

a) sizot suvlar sathini normal, ya'ni yer sho'rланmaydigan va botqoqlanmaydigan chuqurlikka tushirish;

b) tuproqdan suvda eriydigan ortiqcha zararli tuzlarni yuvib yuborish;

v) chuchuklashtiriladigan yoki chuchuklashtirilgan sizot suvlarini tuproqning qayta sho'rланishiga imkon bermaydigan va unumdarligini ta'minlaydigan darajada saqlash.

## ZOVURNING ROLI VA AHAMIYATI

Sho'rangan sizot suvlar yetarli darajada oqib keta olmaydigan yerlarda dalani tekislash bilan birga zovur ham yerlarning sho'rini yuvish, tuproqni chuqur qatlamlarigacha sho'rsizlantirish, sizot su-

agini chuqurlashtirishda asosiy va hal qiluvchi tadbirlardan hisoblanadi. Zovurlar yaxshi ishlaydigan yerlarda suv – xo‘jalik va agromeliorativ tadbirlar tizimsidan to‘g‘ri foydalanilganda yangidan o‘zlashtirilgan, shuningdek, eskidan sug‘orilib kelingan yerlarni yanada hosildor qilish oson bo‘ladi.

Zovuryerning sho‘rlanishi va botqoqlanishiga qarshi kurashdagi aktiv vosita bo‘lib, undan chet ellarda (AQSH, Avstraliya, Misr, Hindiston, Jazoir, Italiya va boshqa mamlakatlarda) keng foydalanilmoxda. Lekin avval zovurdan uncha foydalanilmadi. Bunda V.R.Vilyamsning sug‘oriladigan dehqonchilikning o‘t-dalali tizimsi ishida tuproqning qayta sho‘rlanishiga qarshi kurash tadbiri sifatida sun‘iy zovurning mutlaqo foydasiz va iqtisodiy jihatdan zarur emas, degan fikri jiddiy rol o‘ynadi. Akademik V.R.Vilyams tuproq sho‘rlanishining asosiy omili (tabiiy sharoitda ham, sug‘orishda hamda qurg‘oqchilik bo‘lib turadigan viloyatlarda, sug‘oriladigan yerlarda butunlay strukturasiz tuproqlarda bo‘lgani singari) kapillyar suvlarning bug‘lanishi jarayonidir, deb hisoblagan edi. Shuning uchun tuproqning sho‘rlanishiga qarshi yagona kurash universal vositasi o‘t-dalali almashlab ekin ekish tizimsi deb ta‘kidlagan edi. Bunday tizim tuproqda mustahkam struktura hosil qilar emish.

Qirqinchini yillarga kelib V.R.Vilyamsning bu noto‘g‘ri mulohazalari ko‘pgina ilmiy xodimlar, injener va agronomlar orasida keng tarqalgan, prof. V.A.Shaumyan va boshqa olimlar zovurga keskin qarshi chiqqanlar.

1950-yilga kelib o‘t ekish yo‘li bilan sho‘rlanishga qarshi kurashning natijasizligi isbotlangandan keyingina zovurdan foydalanishda katta burilish bo‘ldi.

Tabiiy va sun‘iy zovurlar yordamida sizot suvlari qancha chuqrushirilsa va sizot suvlarning oqimi kuchli bo‘lsa, tuproqning sho‘ri ham shuncha yaxshiroq ketadi.

Mirzacho‘ldagi Oq oltin (sobiq Oltin o‘rda), Farg‘ona viloyatidagi Fedchenko va boshqa rayonlardagi meliorativ stantsiyalarning kuzatishiga qaraganda zovur qazilmagan maydonga nisbatan zovur qazilgan maydonda tuproq yaxshiroq va chuqurroq

sho'rsizlanadi. Masalan, Oq oltinda sho'r yuvishgacha (o'rtacha va og'ir qumoq tuproqlarda) sizot suvlar chuqurligi 2,5 – 2,6 m bo'lib, tuproqlarning 1 metr qatlamida 0,183 – 0,273% xlor bo'ladi. Gektariga 5700 – 9100 m<sup>3</sup> yuvish normasi berilganda zovur qazilmagan sharoitda 1 m qatlamdagi xlor 0,074 – 0,029% kamayib, tuproq 0,7 m chuqurlikkacha sho'rsizlanadi. Zovur qazilgan joylarda esa tuproq 2 m chuqurlikkacha tuzlardan tozalanadi va bir metr qatlamda hammasi bo'lib 0,004 – 0,01% xlor bo'ladi.

Zovur qazilgan va qazilmagan maydonlarda tuproqni sho'rsizlantirish dinamikasi Oq oltin tajriba stantsiyasining olgan ma'lumotlaridan ko'rinish turadi.

49-jadval

#### Sho'r yuvishda tuproqni sho'rsizlantirish dinamikasi

Tuproq qatlami, sm	Sho'r yuvish-dan oldin	Gektariga m norma bilan yuvilgandan keyin		
		3540	5960	8830
		8,1	28,1	12,11

#### Zovur qazilgan sharoitda, 1939–1940-yillar

0–20	0,241	0,006	0,005	0,004
20–40	0,215	0,008	0,004	0,004
40–60	0,219	0,040	0,005	0,004
60–80	0,213	0,061	0,007	0,004
80–100	0,198	0,093	0,010	0,004
0–60	0,225	0,018	0,005	0,004
0–100	0,217	0,042	0,006	0,004
	23.XI	2800	5000	8800
		24.XP	30.XII	6,1

#### Zovur qazilmagan sharoitda, 1942–1943-yillar qazilmagan sharoitda, 1942–1943-yillar

0–10	0,416	0,082	0,043	0,038
10–20	0,300	0,159	0,192	0,078
20–30	0,183	0,203	0,164	0,135
30–50	0,189	0,198	0,169	0,052
50–70	0,140	0,176	0,067	0,059

70–100	0,092	0,109	0,067	0,054
0–50	0,256	0,168	0,147	0,073
0–100	0,183	0,151	0,107	0,064

Zovur tarmoqlarining yaxshi ishlashi, ya’ni ularga sizot suvlarning ravon oqib kelishi ko‘pgina omillarga – zovurlarning planli joylanishi chuqurligi, bir-birlaridan uzoqligi, tuproq-gruntning suv – fizik filtratsiya xossasiga va boshqalarga bog‘liqdir.

## **ZOVURLARNING REJALI JOYLASHTIRILISHI, CHUQURLIGI, ORALIG‘IDAGI MASOFASI**

Zovur qazishda kollektor – zovur tarmoqlarini rejada to‘g‘ri joylashtirishning muhim ahamiyati bor. Zovurni yerning asosiy nishabi bo‘ylab sug‘orish kanallari o‘rtasidan o‘tkazish ma’qul. Bu holda zovurga qo‘shti bo‘lgan ikkala sug‘orish kanallaridan singib kirgan suvlarning bosimi ta’sirida sizot suvlar tuproqqa oqib kelib yig‘iladi, tuproq sho‘rdan tez va sifatli tozalanadi.

Sizot suvlar oqimi yo‘nalishidagi zovurlar sizot suvlarning oqib ketishi uchun eng yaxshi gidravlik nishablikka ham ega. Bo‘ylama va ko‘ndalang (sizot suvlar oqimiga ko‘ndalang) zovurlarga nisbatan tekis va ancha katta bosim bilan ishlaydi; shuning uchun ham bu zovurlarda sizot suvlar katta tezlikda oqib turadi.

Kanallar bir tomonlama suv beradigan bo‘lsa, kanalga yaqin joylashtirilgan suv yig‘ish zovurlaridan sizot suvlar yaxshi oqib ketmaydi.

Kanallar ikki tomonlama suv beradigan sharoitda suv yig‘ish zovurlarini ularning oralig‘i o‘rtasidan o‘tkazish maqbul bo‘ldi.

Zovurni chuqurlashtirgan sari sizot suvlar bosimining ta’siri ham zo‘rayib boradi va zovurda suv oqimining ko‘payishiga sharoit yaratadi. Zovur qancha chuqur bo‘lsa, sizot suvlar sathi ham shunchalik pasayadi va zovurning ta’sir doirasi ham shuncha uzoq bo‘ladi.

Zovur va suv to‘sar qatlam kancha chuqur, maydondagi tabiiy zovur-suv singdirish qancha yaxshi bo‘lsa, zovurlar o‘rtasidagi masofa ham shuncha katta olinadi. Tuproq-gruntning filtratsiya va suv berish koeffitsienti oshganida masofa kattalashib boradi.

Filtratsiya koeffitsienti (FK) tuproq-grunt qatlamini to'yintirgan suvning sizib kirish tezligi (m-sutka) bilan aniqlanadi. Bu koefitsientning qiymati sutkasiga 0,1–1 m dan (suv shimishi yomon bo'lgan juda og'ir tarkibli funtlar uchun) 5–10 m gacha bo'ladi.

Suv berish koeffitsienti (CK) to'la nam sig'imigacha to'yingan tuproqdan erkin oqib chiqqan suv hajmining shu grunt hajmiga bo'lgan nisbatini ko'rsatadi.

Zovurlar orasidagi masofani hisoblashda zovur suvi oqimining berilgan moduli nazarda tutiladi. Drenaj oqimining moduli vaqt birligida har gektardan keladigan suv sarfidir. Drenaj oqimi modulining qiymati ortsa, zovurlar oralig'idagi masofa qisqaroq olinadi va aksincha, modul miqdori kamaysa, zovurlar oralig'idagi masofa kattaroq olinadi. Zovur oralig'idagi masofa zovur chuqurligiga va sizot suv sathining pasayish tezligiga ham bog'liq. Zovur qancha chuqur, sizot suv sathi qancha tez pasaysa, zovur oralig'i ham shuncha qisqa bo'lishi lozim.

2–2,5 m chuqurlikdagi zovurlar og'ir tarkibli gruntu larda 100–125 m, yengil tarkibli gruntu larda 200–300 m masofadagi sizot suv sathini pasaytira oladi. O'rta va kuchli sho'rlangan yerlarda qazilgan zovurlarning oraliq masofalarini taxminan 41-jadvaldan olish mumkin.

*50-jadval*

#### **Chuqurligi 2–2,5 m bo'lgan zovurlarning tavsiya etiladigan oralig'i**

Zovurni qazishdan oldin sizot suvining chuqurligi, m	Zovurlar oraligi, m		
	og'ir tuproqlarda	o'rtacha tuproqlarda	yengil tuproqlarda
2–3	250–300	300–400	400–600
1–2	200–250	250–300	300–400
0–1	100–150	150–200	200–300

#### **MUVAQQAT SAYOZ ZOVURLAR**

Ochiq zovurlarning ishlatalishi va kamchiliklari. Sho'rlangan yerlarni melioratsiyalashda uzluksiz ishlaydigan chuqur zovurlar-

dan tashqari yana ko'pgina hollarda muvakqat yordamchi sayoz zovurlardan ham foydalanish maqbul bo'ladi. Agar doimiy zovurlar oralig'idagi masofa keragidan ham katta bo'lsa, muvaqqat qo'shimcha zovurlardan foydalanish yaxshi natija beradi va bunda qo'shimcha chuqur zovur qazishga ehtiyoj qolmaydi.

Muvaqqat zovurlar sho'r yuvish oldidan DT-75 yoki S-100BX markali 2 ta traktorga tirkalgan katta kanavokopatellar bilan bir o'tishda qaziladi. Zovurda suv yaxshi oqishi uchun tubi shu zovur suvi tushadigan kollektor tubidan kamida 30–50 sm baland bo'lishi kerak. Kollektor bilan uning suvi tashlanadigan yerda ham shunga amal qilish kerak. Bunda suv qabul qilgichdagi suvning eng baland sathi hisobga olinishi kerak. Agar zovurlardan yirik kollektori larga, kollektori lardan suv yig'gichlarga suv erkin oqib tusha olmasa, nassos stantsiyalari yordamida chiqarib yuboriladi.

Tashlanma suvlarning kollektor va zovurlarga oqishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Har xil suvlar tushirilganda zovurdagi suvlar sathi ko'tariladi, bu esa uning ish chuqurligini va suv yig'ishini kamaytiradi,

Tushirilgan suvlar zovurni loyqa bosishga, qiyaliklarining qo'porilib tushishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, zovurdagi suvning chuchuklanishiga imkoniyat beradi va natijada zovur tarmoqlarini o't bosib ketadi.

Sho'r yuvish va sholi sug'orish paytida suvning filtratsiyasi zovur va kollektor qiyaliklariga yetmasliga kerak. Aks holda zovur qiyaliklari qo'porilib tushadi. Katta suv normasi berib, uzlusiz sug'oriladigan yerlar bilan zovur va kollektorlar orasida 7–20 m kenglikda sug'orilmaydigan ixota polosasi qoldirilishi kerak.

Ochiq zovur hozirgi vaqtgacha ishlab chiqarish praktikasida bo'lgan zovurlarning asosiy tipi hisoblanadi. Uni qazishga uncha mablag' sarflanmasada, lekin bir qancha kamchiliklari bor:

a) u tez ko'milib qoladi va ichini o't bosadi. qiyachiklari o'pirilib, yuvilib ketadi va buziladi, shuning uchun ham uni vaqtiga vaqtida tozalab turishga, to'lib qolgan joylarni qayta qazishga katta mablag' sarf bo'ladi;

b) zovur va kollektorlarni hamisha ham vaqtida tozalab turishga imkoniyat bo'lmaganligidan, ko'pincha uning ish chuqurligi yetarli bo'lmaydi va sho'r yuvish ta'siri kam bo'ladi;

v) ochiq zovur va kollektorlar ancha ekin maydonini band qilib turadi.

Bundan tashqari, qishloq xo'jalik ishlarini mexanizatsiyalashga, transport harakatiga xalaqit beradi.

Shuning uchun ham gorizontal yopiq yoki vertikal zovurlar eng samarali va tejamli hisoblanadi.

## GORIZONTAL YOPIQ ZOVURLAR

Gorizontal yopiq zovurlar odatda, muayyan chuqurlikka gorizontal ko'milgan quvur tarmoqlaridan iborat. Quvur-zovurlardan ko'proq foydananiladi.

Gorizontal yopiq zovurlarning ish prinsipi, sizot suvi o'z ta'siri doirasida taqsimlanishi, suv oqimining yo'nalishi gorizontal ochiq zovurniki singaridir.

Zovurlarning chuqurligi va oralig'idagi masofa ochiq gorizontal uchun qanday olingan bo'lsa, yopiq zovurlarda ham xuddi shunday olinadi.

Yopiq zovur qurishda ko'p kovshli ekskavator bilan qiyaligini tik qilib tegishli chuqurlikda transheya qaziladi. Bo'sh gruntlarda transheya qiyaliklari taxta bilan mahkamlab qo'yiladi.

Zovurning ishlash sharoitiga va unda oqadigan suvning miqdoriga qarab quvur diametri tanlanadi. Boshlang'ich zovurlar gruppasi uchun quvurlarning ichki diametri tanlanadi, 12–15 dan 20–25 sm gacha, kollektorlar uchun 50 sm gacha qabul qilinadi.

Zovurlarni qazish uchun har 150–250 m da beton yoki asbotsement quvurlardan nazorat quduqlar qilinadi. Bu quduqlar zovurdagi suvning oqishini nazorat qilib turish va oqizindilarni olib tashlash uchun quriladi. Quduqlar beton plita ustiga qo'yiladi. Usti qopqoq bilan yopiladi.

Quduqning tubi unga kirib turgan zovur quvuridan 30–45 sm pastda turishi kerak. Shu chuqurlikka asta-sekin cho'kib qolgan loyqa oqizindi vaqt-vaqtida chiqarib tashlanadi. Kollektorning etagi suv qabul qilgichga suv ko'p to'lgan vaqtdagi suv sathi ot-

metkasidan baland bo'lishi kerak. Buning iloji bo'limasa, suvning qaytib kollektorga tushib ketmasligi uchun quvurning og'ziga zich berkiladigan avtomatik klapan o'rnatiladi.

Yopiq zovurlar qurishni tezlashtirish uchun transheya qazish, filtrlash uchun shag'al to'kish, quvur yotqizish, zovurni tuproq bilan ko'mish kabi ishlarni mexanizatsiyalashtirish kerak.

Zovurlar quvurlar butun aylanasi yoki yarim aylanasi bo'ylab sepilgan filtrlovchi material bilan ko'miladi. Quvurlar yarim aylanasi ko'milganda, ustidan polietilen, tol yoki suvga chidamli qog'oz qoplanadi. Quvurlarga loyqa cho'kib qolishdan saqlash uchun filtr materiali sifatida qum, shag'al, saqich, tosh ishlataladi.

## VERTIKAL ZOVURLAR

Vertikal zovurlardan foydalanganda yer osti suvi chuqur burg' quduqlarorqali chiqazib olinadi. Quduqlar chuqurlikda suv tortadigan nasoslar bilan uskunalangan bo'ladi. Yerni melioratsiya qilishda bu eng foydali usulidir.

Tuproqning sho'ranganligiga qarshi kurashish va ayni vaqtda, ekin sug'orishda yer osti suvlaridan foydalanish maqsadida bunday tipagi zovurlar birinchi marta (1918-y) AQShning Arizona va Kaliforniya shtatlarida qazilgan. 1950-yilga kelib, AQSH dagi vertikal zovurlar soni 130 mingga yetdi. Hozirgi vaqtda Misr, Hindiston, Jazoirda ham vertikal zovurlardan keng foydalanilmoqda.

Usti mayda tuproqli, ostki qatlami asosan og'ir tarkibli gruntlardan iborat bo'lib, suv o'tkazish xususiyati yomon bo'lgan qatlamning tagi suvni yaxshi singdiradigan va o'tkazadigan jinslar (shag'al, qum-shag'al, qum) dan iborat bo'lgan yerlardagina vertikal zovur ko'p foyda keltiradi. Qum-shag'al allyuvial yotqiziqli yerlarda bunday zovurlardan foydalanish, ayniqsa, yaxshi natija beradi. Daryolarning etak va deltalarida chuqur qumoq-gil qatlamlili gruntlarda bunday zovurlar uncha yaxshi natija bermaydi.

Sho'rangan yerlarda vertikal zovurlar qurish natijasida sizot suvlari sathi ancha pasayadi. Oqibatda, yerning ustki qatlami samarali ravishda sho'rsizlanadi. Gorizontal zovurlarga qaraganda vertikal zovurlar tuproqgruntini sho'rsizlantiradi.

Sho'r yuvish va sug'orish ta'sirida vertikal zovur qazilgan yerdagi tuproq-gruntni ustki qatlamlari ancha sho'rsizlana borishi va tuz zapaslarining juda chuqur qatlamlarga tushib ketishi kuza-tilgan.

Vertikal zovurlar bilan yer ostidan chiqarilgan suv ta'minotida ekinlarni sug'orishda yoki sho'r yuvishda foydalanish mumkin. Shu bilan birga, unga ko'pgina rayonlarda yetishmaydigan sug'orish suvi to'ldiriladi yoki suv resurslari yetarli bo'lganda suv olinadigan joylar soni qisqaradi. Bu esa suvning filtratsiya isrofgarchiligining kamayishiga va yer meliorativ holatining yaxshilanishiga imkoniyat yaratib beradi.

Vertikal zovurlarni qurishdan oldin quduqlarning ratsional chuqurligini va ularning vaziyatini tanlash, tuproq qatlaming geologik tuzilishini aniqlash, burg' quduqlar qazish va gidrogeologik taddiqot ishlari olib borish lozim.

Gruntning xarakteri va xossasiga qarab, vertikal zovur quduqlari turlicha olinishi mumkin.

Yer osti suvini chiqarib tashlashda har bir quduq shu joy uchun vertikal zovur hisoblanadi.

Vertikal quduqlarning atrofidagi maydon ta'siri sizot suvlarining bir-biridan ajralmay, chambarchas gidravlik aloqador ekanligiga asoslangan. Buning oqibatida sizot suvlar chiqarib tashlangan vaqtida ularning pezometrik bosimi kamayadi va sizot suvlarining sathi pasayib, depression egri chiziq shakliga kiradi.

Sho'rangan yerdagi vertikal quduqdar sho'r yuvish va vegetatsion sug'orish natijasida tuproqning ustki qatlamlaridagi eng ko'p minerallashgan sizot suvlar sathini pasaytirib, yerni astasekin sho'rsizlantira boradi. Sug'orishda vertikal zovurlardan foydalanilganda, ularni vaqt-vaqt bilan to'ldirilib turish ham mumkin. Buning uchun qish faslidagi va toshqin vaqtidagi suv singdiruvchan yerkarta yoki suv yutadigan maxsus quduqlarga tushirib, suvli qatlamga singdiriladi.

## ZOVURDAN FOYDALANISH QOIDALARI

Sho'rlangan yerbargan tubdan melioratsiya qilish tuproq-grunt va sizot suvlarini chuqur va yaxshilab sho'rsizlantirishdir. Tuproq va sizot suvlarini bunday sho'rsizlantirishda asosiy tadbir zovur intensiv ishlab turgan yerlardagi tuproq-gruntni kapital yuvishdir.

Melioratsiya tekshirishlariga ko'ra, sho'rlangan yerbargan zovurlar sizot suvlar sathini pasaytirib, hatto kritik chuqurlikda ham (pastda bo'lса) pastda saqlay olar ekan. Sizot suvlarning sathi kritik chuqurlikdan pastda bo'lса, tuproqning sho'rланishi kamayib asta-sekin sho'rsizlana boradi. Ma'lum bo'lishicha, mineralallashgan sizot suvlar sho'rlangan yerbargan melioratsiyalash-ning asosiy obyekti ekan. Zovur qazishda tuproq gorizontini va o'simliklarning ildiz tizimsini sizot suvlardan ajratib qo'yish ko'zda tutilmaydi. Tuproq va sizot suvlarni sho'rsizlantirish uchun zovur tuproqning suv o'tkazish gorizontida suv almashinish protsessining uzuksiz borishini ta'minlashi, shu bilan birga tuproqdagi ildiz yoyilgan zonaning sizot suvlar bilan kapillyar namlanishini saqlab qolish kerak. Kapillyarlar hoshiyaning ustki chegarasini haydalma qatlamga yaqin joylashgan sug'orishlar soni va ekin sug'orish normasini minimumgacha kamaytiradi. Suv tartiboti tipidagi melioratsiya qilinib sug'oriladigan tuproq gidromorf bo'lib qoladi. Tuproq hosil bo'lish protsessi bo'yicha ular unumdor daryo odog'i yerbargining sho'rланмаган o'tloqi-chim gidromorf tuprog'iga o'xhash yoki shunga yaqin bo'ladi.

Suv rostlash inshootlari qurilmagan, suvdan foydalanish to'g'ri yo'lga qo'yilmagan va yetarli zovur tarmoqlari bo'lmagan zamondarda Xorazm vohasiga ortiqcha suv kelar ekan.

## VIII BOB. SHO'RLANGAN YERLARNI TUBDAN MELIORATSIYALASH

### TUPROQ – GIDROGEOLOGIK, AGROTEXNIK VA ME- TEOROLOGIK OMILLARIGA QARAB SHO'R YUVISH SAMARALILIGI

Sho'r yuvishda erishiladigan muvaffaqiyat birinchi navbatda tuproqdan tuzlarni yuvish jarayonida suvdan qanchalik samarali foydalanishga bog'liq.

Suvning yuvish ta'siri samaraliligin muayyan koeffitsienta (K) bilan ifodalash qulay. Bu koeffitsientning qiymati tuproqdan yuvilgan tuzlar miqdorini shu tuzlarni yuvishga ketgan suv hajmi bilan taqqoslab aniqlanadi.

Sho'r yuvishda tuproqdan tuzlarni ketkazish agrotexnik, tuproq-gidrogeologik, meteorologik omillariga bog'liq. Tuproq agrotexnika jihatidan yuvishga tayyorlash va sho'ri eng yaxshi muddatlarda yuvilganda yuvish samaraliligi asosan tuproq-gidrogeologik omillarga bog'liq bo'ladi.

Bularning asosiylari:

- tuproq-gruntning suv fizik xossasi va tuzilish xarakteri;
- tuproqning sho'rlnish darajasi va tuzlarning tarkibidir.

51-jadval

Sizot suv sathining joylashish chuqurligiga qarab sho'r yuvish samarasi

Sizot suv sathini chuqurligi (birinchi va oxirgi sug'orishda), m.	Tuzlarni chiqarib yuborish umumiy normasi, m / ga.	Tuproqdag'i xlor (0–100 sm), %		Xlor bo'yicha koeffitsienti, kg
		yuvishga- cha	yuvish- dan keyin	
Mexanik tarkibiga ko'ra o'rtacha tuproqlar				
2,6–1,3	9070	0,311	0,031	3,9
2,4–0,8	10090	0,314	0,099	2,6
2,6–1,3	8950	0,346	0,038	4,2
2,6–0,6	8580	0,350	0,146	2,9
3,5–2,0	6540	0,225	0,014	4,0
2,4–0,8	8500	0,265	0,035	3,3

### Mexanik tarkibiga ko‘ra og‘ir tuproqlar

3,0–1,-	10580	0,288	0,109	2,3
1,5–0,3	8090	0,286	0,173	1,9
2,5–1,0	4780	0,183	0,074	3,1
1,5–0,3	5690	0,166	0,074	2,2
2,5–1,0	4570	0,104	0,057	1,4
1,5–0,3	6610	0,101	0,076	0,7

Har qanday tuproq sharoitlarida ham sizot suv sathi qanchalik chuqur (sho‘r yuvish boshida va sho‘r yuvish oxirida) bo‘lsa, sho‘r yuvish samarasini ham shuncha yuqori bo‘ladi.

Bu holni deyarli bir xil sharoitda, ya’ni tuprog‘i bir xil darajada sho‘rlangan, sho‘r yuvish uchun bir xil miqdorda suv berilgan yerlardagi sizot suvlar sathi turlicha chuqurlikda joylashgan tuproqni yuvishdan olingan natijalarni solishtirish yo‘li bilan tasdiqlash mumkin.

Jadvaldan ko‘rinishicha, sho‘r yuvishda sizot suv sathi qancha yuza joylashgan bo‘lsa, suvning sho‘r yuvish samarasini ham shuncha kam, shunga binoan tuproqning sho‘rsizlanish darajasi ham kam bo‘ladi. Sizot suv sathi yuza joylashganda mexanik tarkibi og‘ir bo‘lgan tuproqlarning sho‘rsizlanish jarayoni ham juda sust bo‘ladi. Bunga sabab, sizot suv sathi yuza joylashganda tuproqning erkin suv sig‘imi juda kichik bo‘lib, unga suv juda kam sig‘adi suv oqimining tezligi esa juda past, sust bo‘ladi. Bunday sharoitda sho‘r yuvish ham ancha qiyinlashadi, chunki tuproq kapillyar damlangan nam bilan kuchli to‘yingan bo‘ladi.

Sho‘r yuvishgacha, yuvish jarayonida va sho‘r yuvigandan keyin sizot suv sathining joylashish chuqurligi yerning zovurlashtirilganlik darajasiga bog‘liq. Yer qanchalik ko‘p (tabiiy yoki sun‘iy) zovurlashtirilgan bo‘lsa, sho‘r yuvishda tuproq shunchalik yaxshi sho‘rsizlanishi mumkin. Zovur qazilganda qazilmagandagiga qaraganda suvni baravar yoki kam sarf qilib, tuproqni chuqurroq va yaxshiroq sho‘rsizlantirish mumkin ekanligini jadvaldan bilsa bo‘ladi.

Sug‘oriladigan yerlarni imkonli boricha zovurlashtirish – sho‘r yuvish samarasini oshiruvchi, asosiy va hal qiluvchi omildir.

Mexanik tarkibi yengil tuproqlarga qaraganda, mexanik tarkibi og'ir, zich tuproqlardan sho'r kam va qiyin yuviladi. Tuproqning tagida qum qatlami tursa, sho'r yuvish osonlashadi, zich, soz qatlami turganda esa qiyinlashadi.

52-jadval

### Zovurlashtirilgan va zovurlashtirilmagan sharoitda sho'r yuvish samarasи

Tajriba o'tkazilgan joy va yil. Tuproqlar	Zovur-lar oralig'i, m	Yuvishdan oldin sizot suv chuqrili-gi, m	Sho'r yuvish normasi, m <sup>3</sup> /ga	Tuproqdagi xlор (0–100 sm)		Tuproqni 0,02% xlорга-cha sho'r sizlantirish chuqurligi, m	Xlor bo'yи-cha koef-fitsient (K), kg
				Yuvishgacha	Yuvishdan keyin		
Oq oltin, o'rtacha qumoqlar 1943–1944-y.	—	2,6	9100	0,273	0,029	0,7	3,4
Oq oltin, o'rtacha qumoqlar 1942–1943-y. edchenko, 1948-y. og'ir qumoqlar Yuqoridagining o'zi Buxoro, og'ir qumoqlar 1943–1944-y.	— — — —	2,6 1,65 1,65 1,4	8800 6910 10450 6820	0,183 0,206 0,193 0,129	0,064 0,072 0,013 0,038	0,0 0,55 1,0 0,1	1,7 3,0 2,5 2,0

Zovur qazilgan yerlarni yuvish							
Oq oltin, o'rtacha qumoqlar 1937–1938-y.	132 2,4– 2,8	2,5	5000	0,248	0,010	2,2	14,2
Yuqoridagining o'zi	132	2,5	1000	0,171	0,009	3,0	4,7
Oq oltin, o'rtacha va og'ir qumoqlar 1939–1940-y.	2,4– 2,8	2,4	8830	0,217	0,004	3,5	6,0
Fedchenko, og'ir qumoqlar 1940–1941-y.	265 2,5– 2,7	1,6	6250	0,261	0,030	0,7	6,1
Yuqoridagining o'zi	100 1,5	1,6	11300	0,303	0,077	1,85	1,9
	100 1,5						

Tarkibida qumloq, yengil va o'rtacha qumoq ko'p bo'lgan donador uvoqli tuproq va gruntlar kam suv sarf qilgan holda juda tez yuvilib, sho'rsizlantiriladi. Suvning sho'r yuvish samarasi tuz tarkibiga va tuproqning sho'rланish darajasiga bog'liq bo'ladi.

Bu qonuniyat tajriba dalillari jadvalida yaqqol ko'rindi (52-jadval).

Tuproqda tuz qanchalik kam bo'lsa, uni yuvish shunchalik qiyinlashadi.

Qish fasilda tuproqning pastki gorizontallaridan ustki gorizontallariga suv bug'lari tez va ko'p chiqib kelishi mumkin. Bu bug'lar tuproqning ustki gorizontallarida sovib, suyuqlik holiga keladi, natijada tuproqni sho'rsizlantirish oqimini hosil qiladi. Shu bilan birga, tuproqni atmosfera suv bug'lari hisobiga ham kondensatsiya namligi bilan boyitish mumkin.

## Tuproqning sho'rlanish darajasiga qarab sho'r yuvish suving samarasi

Tajriba o'tkazilgan yer, yil va sharoit	Tuzlarni chiqarib yuborish umumiy normasi, $m^3/ga$	Tuproqdagi xlor (0–100 sm), prots.		Xlor bo'yicha koeffitsient (K)	
		yuvish- gacha	yuvish- dan keyin	birinchisi marta sho'r yuvishda	Jami sho'r yuvish- da
Oq oltin, 1943–44 y.					
O'rtacha qumoq, sho'r yuvishdan oldin sizot suv sathining chuqurligi 2,6 m	9840 8950 8760	0,417 0,346 0,273	0,046 0,038 0,029	9,7 7,8 6,1	4,6 4,2 3,4
Fedchenko, 1942–43 y.					
Soz tuproqli gipslangan yotqiziklardagi og'ir qumoklar. Yuvishdan oldin sizot suv sathini chuqurligi 1,2 m	6630 5600 5430 3960	0,293 0,149 0,104 0,069	0,072 0,026 0,030 0,030	11,2 8,2 4,1 3,2	4,4 2,9 1,8 1,3
Chorjo'y, 1946-y. Qum qatlam ustida joylashgan og'ir qumoqlar.	2650 2490 1903	0,221 0,155 0,112	0,145 0,092 0,066	— — —	4,3 3,8 3,1
Yuvishdan oldin sizot suv sathining chuqurligi 2,0 m	2050	0,041	0,011	—	2,2

### TUPROQNI YUVISHGA TAYYORLASH

Suvni oz sarflab, tuproqdan ko'p tuzlarni yuvib yuborish uchun qator agrotexnik shartlarga rioya qilish zarur. Sho'r yuvishdan oldin dalani yaxshilab tekislab chiqish eng muhim shartlardan hisoblanadi. Agar sho'ri yuviladigan dalaning yuzi notejis bo'lisa, u yerni tekis va yetarlicha sho'rsizlantirib bo'lmaydi. Sharoitga qarab sho'r yuvish natijalari turlichay bo'ladi. Sug'oriladigan sho'rlangan yerlarni yuvishga oid ma'lumotlarni misol qilib keltiramiz

(53-jadval). Turlicha asosiy ishlov berishlar bilan birqalikda sho'r yuvish samaraliligi sho'r yuvish muddatiga bog'liqdir.

Yerning sho'ri kechiktirib yuvilganda (fevral-mart oylarida) kuzgi shudgorlash o'zining effektini ancha yo'qotadi. Bu holda paxta hosili ham shudgorlashgacha yuvilgandagiga qaraganda kam bo'ladi. Ikkinchchi holda sho'r yuvish oldidan dalani g'o'zapoyadan tozalanadi olinadi hamda tuproq chizel bilan yumshatiladi.

Paxta bir necha marta terilganda 20–25-sentyabrdan 20-oktyabr-1-noyabrgacha muddatda sho'r yuviladi. Kuchsiz sho'rlangan tuproqda sho'r yuvish normasi 1800 dan 2500 m<sup>3</sup> gacha. Sho'r yuvish uchun eski egatlar orqali suv quyiladi, suv sug'orilayotgan uchastkadan boshqa yoqqa tashlab qo'yilmaydi va mavjud sug'orish tarmoqlari (o'q ariqlar, muvaqqat ariqlar) dan bo'g'ot-uvatlar sifatida foydalilaniladi.

Demak, ekish oldidan sho'ri yuviladigan yerning iqlim sharoitiga va tuproq meliorativ xususiyatlariga qarab tuprog'iga ishlov berish va sho'rini yuvish lozim ekan.

### **SHO'R YUVISH MUDDATI VA USULLARI**

Sizot suv sathi juda chuqur joylashgan paytda sho'r yuvish ma'qui. Bunda suv oz sarf qilingani holda tuproq tuzlardan yaxshiroq tozalanadi va ekish vaqtiga kelib yanada sho'rsizlanadi.

Sug'oriladigan yerdarda sho'r yuvish uchun eng yaxshi vaqt oktyabr, noyabr va dekabr oylaridir.

Qishda sho'r yuvish ancha qiyinlashadi, ko'pchilik rayonlarda esa bahorda sho'r yuvishning foydasi kam. Yyetarlicha zovurlashtirilmagan va sizot suv sathi yuza joylashgan yerlar kechiktirib yuvilganda tuproq tuzlardan chuqurroq tozalanmaydi, yuvish ta'sirida ko'tarilgan suv sathi pasayishga ulgurmaydi, oqibatda tuproqning ustki gorizonti sezilarli darajada qaytadan sho'rlana boshlaydi. Tuproqqa ishlov berish sifati yomonlashadi, natijada ekin siyrak bo'lib qoladi, yomon o'sadi, kechikib rivojlanadi, olinadigan hosil kamayadi.

Shunday qilib, sho'r yuvish kechiktirilgani sari va u bahorga qoldirilganida sho'r yuvish effekti ham kamaya boradi. Quyidagi tajriba ma'lumotlari Shuni tasdiklaydi.

Sho'rlangan tuproqlarda asosan tuproqqa suv bostirib yuvish usuli har taraflama qo'llaniladigan usul bo'lib qoldi. Bunday usul bilan sho'r yuvishda uchastka muvaqqat ariq va uvatlar yordamida chek(pol)larga bo'lib chiqiladi. Jo'yaklarga suv muvaqqat ariqlaridan beriladi.

54-jadval

### Sho'r yuvish muddatlari

Tajriba o'tkazilgan joy	Tajriba o'tkazilgan yil	Sho'r yuvish vaqtı (oylar)				
		XI	XII	I	II	III
Fedchenko tajriba dalasi	1938-1939	-	37,2	39,3	-	33,3
Paxta orol tajriba dalasi	1938-1939	31,2	-	26,0	25,8	-
Chor jo'y tajriba dalasi	1941-1942	43,1-	-	-	40,6	-
Xorazm tajriba stantsiyasi	1940	31,2	-	-	18,0	15,2-
Toshovuz tajriba stantsiyasi	1941-1942	22,9-	-	-	22,6	21,422,5
	1936-1937	-	-	-	-	
	1939	-	-	-	27,7,	
		24,3	-	29,8		

Sho'ri yuviladigan pollar turlicha kattalikda bo'lishi mumkin. Dalaning yuzi qanchalik yaxshi tekislangan, nishabi qanchalik kichik va suv singdiruvchanligi qanchalik oz bo'lsa, pol maydoni ham shuncha katta bo'lishi mumkin. Nishabi kichik bo'lgan yerlarda polning o'lchamlarini quyidagicha olish tavsiya etiladi.

55-jadval

### Yuviladigan polning kattaligi

Dalaning tekislanganlik darjası	Pollarning maydoni, ga hisobida		
	suv o'tkazuvchanligi yaxshi, yengil tuproq	o'rtacha tuproq	suv o'tkazuvchanligi yomon, og'ir tuproq
Yaxshi	0,2-0,15	0,15-0,20	0,20-0,25
O'rtacha	0,08-0,10	0,10-0,12	0,12-0,15
Yomon	0,04-0,05	0,05-0,06	0,06-0,08

Zovur qazilmagan sharoitda: a) sug'orish tarmoqlaridan isrof bo'lgan suvning sizot suv sathining ko'tarilishiga ta'sirini; b) ekin ekilayotgan qo'shni maydonlarda sizot suv sathining ko'tarilishini maksimal cheklab qo'yish zarurligini ham nazarda tutish lozim.

### 56-jadval

#### Zovur qazilmagan sharoitda ruxsat etiladigan chegaraviy sho'r yuvish normasi va tuproq sho'ranganligi.

Yuvish oldidan sizot suv sathining chuqurligi, m	Taxminiy miqdorlari keyingi yog'ingarchiliklarni ham birga qo'shib kuzgi sho'r yuvishning chegaraviy normasi, m <sup>3</sup> /ga	tuproqni xlor bilan chegaraviy sho'ranganligi (0–100 sm), %
1,5	700–1300	-
2,0	1800–2000	0,025
2,5	2500–3300	0,03–0,05
3,0	3500–4000	0,05–0,11
3,5	4300–5200	0,11–0,20

Mexanik tarkibiga ko'ra o'rtacha va og'ir tuproqlarni zovur qazilmagan sharoitda yuvish natijalari analiz qilinganda ruxsat etiladigan chegaraviy sho'r yuvish normasi bilan tuproqni faqat dastlabki sho'ranganlik darajasi jadvalda ko'rsatilgandek bo'lgandagina qoniqarli sho'rsizlantirish mumkinligi aniqlanadi.

### SHO'R DOG'LARNI YUVISH VA O'ZLASHTIRISH

Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holati yomon bo'lgan ba'zi xo'jaliklardaga sho'r dog'lar umumiy ekin maydonlariga nisbatan 20–25 foizni tashkil etadi. Agar sho'r dog'larga qarshi kurash olib borilmasa, u yerlarda tuz to'planishi va sho'r dog'lar yanada ko'payishi mumkin. Natijada paxta hosili kamayadi, mehnat sarfi oshadi.

Relefiga qarab: 1) do'ng, 2) chuqr, 3) yassi dog'lar bo'lishi mumkin.

## Sho'r dog'lardagi tuproqlarda xloring tarkibi

Tuproq gorizonti, sm	Tuproqdagi xlor			1943yilga nisbatan, protsent hisobida
	1943	1944	1945	
0–20	0,159	0,201	0,324	204,0
20–40	0,101	0,201	0,201	288,0
40–60	0,089	0,080	OD 37	154,0
60–80	0,089	0,065	0,200	225,0
80–100	0,085	0,080	0,080	94,2
0–100	0,093	0,125	0,176	189,2

Yassi hamda chuqur dog'lar ko'pincha mexanik tarkibi og'ir, tuzilishi jihatidan qattiq tuproqlarda uchraydi. Bunday yerlarda, odatda, ekin unib chiqmaydi, unib chiqqani ham sho'rxok o'tlar orasida quriydi. Bunday sho'r dog'li yerlar, odatda, tekis va ko'piicha bir metrli qatlami kuchli sho'rlangan bo'ladi.

Do'ng dog'lar asosan mexanik tarkibi o'rtacha va yengil tuzilgan yumshoq tuproqli yerlarda uchraydi. Ularni odatda sho'rxok o'tlar qoplagan bo'ladi, butunlay suv chiqmaydigan yoki qiyinchilik bilan chiqadigan baland relefli yerlarga to'g'ri keladi. Bunday yerlarda tuzning ko'p qismi tuproqning ustki gorizontlarida bo'ladi. Tekshirishning ko'rsatishicha, do'ng sho'r dog'lar ko'rindiganiga qaraganda ko'proq o'rinni egallar ekan. Shuning uchun ham ekin maydonlarida dog' yaqqol ko'rini turadigan joylardagina emas, shu bilan birga, bilinar-bilinmas dog'li joylarida ham ko'rildi.

Xiyla yengil, yumshoq tuproqlardagi do'ng dog'lar yer tekislash va sho'r yuvish yo'li bilan yo'qotiladi.

Mexanik tarkibi yengil va o'rtacha bo'lgan tuproqli dog'larning 0–100 sm qatlamida 0,10–0,20 va 0,20–0,30 foiz xlор bo'lganda, umumiyoq sho'r yuvish normasi birinchi hol uchun 3000–5000 m<sup>3</sup>/ga, ikkinchi hol uchun 5000–7000 m<sup>3</sup>/ga. Mexanik tarkibi og'ir va zinch tuproqlarni yuvish normasi tegishlicha 4000–7000 va 7000–10000 m<sup>3</sup>/ga gacha yetadi.

Agar dog'lardan tashqari qolgan maydonlar ham ozgina sho'rangan bo'lsa, unda yer tekislanib, o'g'itlanib bo'lgandan keyin pollarga bo'linadi. Sho'r yuvish dog'lar bor joydan boshlanadi. Ularning sho'riganish darajasiga qarab bir necha marta suv beriladi, undan keyin oxirgi marta barcha maydon bo'ylab suv quyiladi va yaxshilab yuviladi.

## **SHO'R YUVILGANDAN KEYIN DALAGA QARAB TURISH**

Sho'r yuvishdan keyin tuproqning sho'rsizlanishi ko'pgina omillarga yog'ingarchilik, havo temperaturasi, shamol ta'siri, yuvilgan maydonlarga agrotexnik qarov va boshqalarga bog'liq bo'ladi.

Yeg'ingarchilikning kam, shamolning tez-tez va qattiq esishi, sizot suv sathining yuza joylashishi hamda uning yetarli darajada oqib keta olmasligi tuproqning qayta sho'riganishiga imkon beradi.

Sho'r yuvilgandan keyin yer yetilishi bilanoq uni boronalab qo'yish kerak. Shunda boronalash sifati yaxshilanadi.

Yer boronalanganda o't bosib ketmaydi, ekish oldidan ishlov berish sifati yaxshilanadi, sho'r bosmaydi va ekish vaqtigacha namlik saqlanadi. Yog'ingarchilik kam, shamol kuchli esadigan rayonlarda buning ahamiyati ayniqsa katta.

Sug'oriladigan unumdor yerdarda sho'riganish alomati ko'rinishi bilanoq darxol profilaktik sho'r yuvish suvi berilishi kerak.

Kuzgi shudgorlashdan keyin, qish va bahor yog'inlari tushishidan oldin 1500–2000 m<sup>3</sup>/ga normada suv berilgani ma'qul.

## **SHO'R XOK YERLARNI O'ZLASHTIRISH**

Sho'rxok yerkari, o'zlashtiriladigan rayonlar. O'zlashtiriladigan yerdarning tuproq-meliorativ sharoitlari.

Irrigatsiya-melioratsiya va agrotexnika tadbirleri kompleksidan to'g'ri foydalanilganda, sho'r yerkarni muvaffaqiyat bilan o'zlashtirish mumkin. Bu yerkar unumdor, o'zlashtirilishi oson. Unda g'o'za, don ekish, yem-xashak yetishtirish, shuningdek, bog' va polizlar barpo qilish oson.

Yerlari o'zlashtirilayotgan ayrim rayonlarning tuproq-meliorativ sharoiti har xil. Bir rayonning o'zida ham sharoit bir xil emas. Buni Mirzacho'l, Farg'onan yerbasi misolida ko'raylik.

Mirzacho'lning janubiy tog' oldi maydonlari juda oson o'zlashtiriladi. Bu yerda sizot suv sathi juda chuqur joylashgan bo'lib, yaxshi oqib ketadi. Ammo Sirdaryoga yaqin sharqiy qismida sizot suv qiyinchilik bilan oqib ketadi. Shuning uchun meliorativ tadbirlar kompleksiga riosa qilinmasa, yer sho'rlnib ketishi mumkin. Tarkibida chang zarralari ko'p bo'lgan tuproqning namiqishi va o'pirilishi natijasida Mirzacho'lida qo'riq yernarning ko'p joylari cho'kadi.

Sog' tuproqli tekislikning ko'p sho'rlangan joylari asosan eski o'zan va pastliklarda (Yettisoy, Karoy, Sardoba, Sho'ro'zak pastligi) to'g'ri keladi.

Sizot suvlari sathi turlicha 3–5 m gacha va undan ham chuqurda joylashgan. Ular turli joyda turlicha menerallahgan bo'lib, qattiq qoldig'i 10–20–40 g/l gacha yetadi. Bunday yerkarni yaxshi zovurlashtirilgan sharoitda va asosli tekislashdan keyingina o'zlashtirish mumkin.

Davriy agromeliorativ tadbirlar ko'rish jihatidan Markaziy Farg'onanining barcha yerbasi uchta asosiy gruppaga: bo'z-o'tloqi tuproqlar asosan mexanik tarkibi og'ir qum, hamda qumoq gruntlar ustidagi qatlamlili soz tuproqli va og'ir tuproqli yerdan iborat bo'lib, ular kuchli gipslangan va suvni kam o'tkazadi. Tuprog'ida organik moddalar kam.

O'tloqi tuproqli (Damko'l massivi) – yerkarni mexanik tarkibiga ko'ra o'rtacha qumoq, sho'rlangan sizot suv sathi 1–1,8 m chuqurlikda joylashgan yerdadir. Tuprog'i yumshoq, strukturali, organik moddalarga boy.

Qumloq tuproqlar va yengil tuproqlar – bu yerkarni tuprog'inining yumshoqligi va suv o'tkazuvchanligiga ko'ra yuqoridagi ikki gruppa o'rtasida turadi. Sizot suvlari sho'r, suvning sathi 1,65–2,3 m chuqurlikda.

Tuproq-gruntini sho'rsizlantirish va zovurlashtirishning eng samarali metodlaridan foydalanish, tuproqni yuvishga tayyorlash

usullar, sho'r yuvish normasi va boshqa tadbirlarni amalga oshirish yuqorida ko'rsatilgan shart-sharoitlarni aniqlaydi.

58-jadval

**Tuproqdag'i tuzlar miqdori, % hisobida; sizot suvlarining minerallanishi, g/l hisobida**

Obyekt	Tuproq qatlami, sm hisobida (sizot suv sathining chuqurligi, m hisobida)	Qattiq qoldiq	Shu jumladan						
			HCO	Xlor	SO <sub>4</sub>	Ca	Mg	Na	
Qiziltepa massivi									
Tuproq	0-20	5,057	0,006	0,143	1,393	0,320	0,012	0,373	
Tuproq	0-100	2,884	0,008	0,089	0,835	0,189	0,010	0,228	
Sizot suv	4,05	22,800	0,189	10,832	9,694	0,346	0,376	0,550	
Damko'j massivi									
Tuproq	0-20	3,929	0,012	0,655	0,360	0,310	0,970	0,683	
Tuproq	0-100	1,934	0,016	0,267	0,894	0,132	0,043	0,339	
Sizot suv	2,28	6,220	0,329	0,464	3,537	0,514	0,101	0,854	
G'arbiy Yozyovon massivi									
Tuproq	0-20	1,510	0,018	0,010	0,778	0,256	0,004	0,061	
Tuproq	0-100	1,336	0,018	0,012	0,700	0,223	0,005	0,079	
Sizot suv	3,00	5,160	0,152	0,120	2,909	0,505	0,319	-	

Amalda sho'rxok tuproqlar ikki usuldan foydalanib o'zlashtiriladi: a) zovurlashtirilgan uchastkalarda kuzgi-qishki sho'r yuvish; b) zovurlashtirilgan sharoitda yozda sho'r yuvish.

**SHO'RXOK YERLARNI O'ZLASHTIRISHDA KUZGI – QISHKI SHO'R YUVISH**

Sho'rxok yerlarni o'zlashtirishda ham dalalarni tekislash, sho'r sizot suvlarni chiqarib yuborish uchun zovur qazish, tuproqni tuzlardan yuvish asosiy meliorativ tadbirlardan hisoblanadi.

Tuproqning mehanik tarkibi va sho'rlanganlik darajasiga, shuningdek, sizot suv sathining joylashish chuqurligiga qarab, 4-5

mingdan 8–12 ming m<sup>3</sup> /ga gacha va ba'zan 15 ming m<sup>3</sup> /ga gacha sho'r yuvish normasi berilgan.

Shunda tuproq-grunt 1,5–2,5 m chuqurlikda sho'rsizlangan. Qatlamdagi xlor tuzlari 0,20–0,35 dan 0,01–0,015 foizgacha kamaygan.

Sho'r bosgan bo'z va qo'riq yerlar ikki asosiy bosqichda o'zlashtiriladi: 1) irrigatsiya-melioratsiya jihatidan o'zlashtirish-sug'orish va sho'r yuvish tarmoqlarini qurish, ularga suv bog'lash inshootlari, nov, ko'priklar qurish, yerlarni asosli tekislash va boshqalar; 2) xo'jalik jihatdan o'zlashtirish, sho'rini yuvish, ekin ekib, qishloq xo'jalik oborotiga kiritish, o'zlashtirilayotgan yerlar tekislanayotganda qalin ustki unumdar qatlamdan 50–60 sm gacha qirqib olish mumkin. Yer profili bo'yicha organik moddalar tekis tarqalmagan bo'lsa, unumdarligini saqlash maqsadida ustki unumdar qatlam ozroq, 30–35 sm gacha olinadi.

Kuchli sho'rangan va sho'rxok yerlar 5–6 martadan yuviladi. Yaxshi natijalarga erishish uchun birinchi va ikkinchi, ikkinchi va uchinchi sho'r yuvishlar oraliq'idagi vaqt 1–2 kun bo'lishi kerak, keyingi sho'r yuvishlar oraliq'idagi vaqt 3–7 kungacha cho'zilishi mumkin.

Beda eng yaxshi o'zlashtirgich hisoblanadi. U yolg'iz yoki rapsga qo'shib ekiladi. Beda tuzga chidamsiz bo'lganligi uchun uni ustki qatlamlari yetarlicha sho'rsizlantirilgan tuproqlarga ekish mumkin. Yaxshi yuvilgan asosiy yerlarga esa chigit ekilishi kerak. Yyetarli darajada sho'rsizlantirilmagan uchastkalarga makkajo'xori ekish yaramaydi. U tuzga chidamsiz bo'ladi, bunday uchastkalarga faqat tuzga chidamli ekinlar (lavlagi, oq jo'xori, kungaboqar) ekish mumkin. Kungaboqar va oq jo'xori silos uchun ekiladi.

## SHO'RLANGAN YERLARNI SHOLI EKIB O'ZLASHTIRISH

Mexanik tarkibi og'ir, kuchli sho'rangan, katta sho'r yuvish normasini talab qiluvchi yerlarni sholi ekish yo'li bilan o'zlashtirish foydali. Sholi ekilganda sho'r yozning eng issiq, tuproq va suvning eng qizigan vaqtida yuviladi. Shunda tuproqdagi tuzlar yaxshiroq va tezroq yuviladi.

Yer o'zlashtirish va tuproq yuvish maqsadida sholi ekiladigan bo'lsa, qator meliorativ talablarga to'la rioya qilinishi kerak, eng avval sholi ekiladigan yerga yondosh uchastkalarning botqoqlanishi va sho'rланishiga qarshi, shuningdek, kollektor-zovur tarmoqlarining buzilib ketishga qarshi tadbirlar ko'rilishi kerak.

Sholi ekiladigan yerda yetarlicha zovur tarmoqlari qazilgan bo'lishi kerak. Zovur qanchalik yaxshi ishlansa, sholi sug'orishda u yerning tuprog'i shunchalik chuqurroq va yaxshiroq yuviladi.

Agrotexnika qoidalarining buzilishita qaramay, ba'zi tajriba variantlari juda yaxshi natija berdi.

Dam berib sug'orish tartibotida suv yaxshi tejaladi va ko'p sholi hosili olinadi, 10 kun suv quyib, 5 kun dam bergandagi sug'orish tartibotida tuproq va sizot suvlar ham yaxshi sho'rsizlanadi.

### 59-jadval

#### Sholini sug'orish normasi va olinadigan hosil

Ko'rsatkichlar	Dam berib sug'orish (10 kun suv quyib, 5 kun damberish)	Dam berib sug'orish (10 kun suv quyib, 10 kun dam berish)	Uzlucksiz sug'orish (poldanpolga suv berib sug'orish)
Sug'orish normasi (netto), m <sup>3</sup> /ga	21860	—	36260
Sholi hosili, ts/ga	12,4	15,3	10,6
Sug'orish normasi (netto), m <sup>3</sup> /ga	33450	35390	59380
Sholi hosili, ts/ga	22,2	19,0	22,7
Sug'orish normasi (netto), m <sup>3</sup> /ga	22540	29436	38972
Sholi sug'orish, ts/ga	42,2	29,6	19,3

## Sholi sug'orishda tuproq-grunt va sizot suvning sho'rsizlanishi

Sug'orish normalari (netto) m <sup>3</sup> /ga	Tuproq qatlami, sm	Tuproqdagi xlor, % (sizot suvdagi xlor g/l)		
		sug'orishdan oldin	sug'orishdan keyin	dastlabki tarkibiga nisbatan %
21860	0–100	0,242	0,008	3,3
	100–200	0,187	0,039	20,9
	Sizot suv	6,89	2,137	31,0
33450	0–100	0,531	0,017	3>2
	100–200	0,288	0,022	7,6
	Sizot suv	15,870	6,619	41,6
22540	0–100	0,688	0,025	3,6
	100–200	0,293	0,062	21,2
	Sizot suv	10,481	2,848	27,2

Intensiv zovurlashtirilgan yerlarga sholi ekish mumkin. Bu holda tuproqdan sho'r yaxshi va tez yuviladi, kollektor-zovur tarmoqlar shikastlanmaydi, sug'orish suvi tejaladi va sholi ekilgan yerlarga qo'shni bo'lган uchastkalarni suv bosmaydi.

Tuproqning sho'rланганлик darajasiga qarab bir yerning o'ziga 1–2 yil ichida sholi ekish mumkin. Hosil o'rib olingach, yaxshi zovurlashtirilgan uchastkalarda sizot suv sathi pasayganligi uchun tuproq fizik jihatdan tezroq yetiladi. Bunday sharoitda tuproqni sho'rsizlanganligicha saqlash va unumdorligini oshirish maqsadida kuzgi arpa ekish mumkin. Yaxshilab sho'rsizlantirilgan yerni kuzgi shudgor qilib qo'yish, g'o'za va boshqa ekinlar ekishga tayyорlash lozim.

Kuzda yoki yozda sho'r yuvish yo'li bilan o'zlashtirilgan barcha yerlar sho'rланmasligi va doimo unumdor bo'lishi uchun kompleks agromeliorativ tadbirlar – ixota daraxtzorlari barpo qilish, almashlab ekishni to'g'ri amalga oshirish, tuproqqa ishlov berish tizimsidan foydalanish, ekinlarni ratsional usulda sug'orish zarur.

## **SHO'RLANGAN, O'ZLASHTIRILADIGAN YERLARNI INTENSIV ZOVURLASHTIRISH VA JADAL YUVISH USULLARI**

Kuchli sho'rlangan sho'rxok tuproqlarni o'zlashtirishda ularni melioratsiya qilish ikki davrga:

- a) meliorativ jihatdan o'zlashtirish;
- b) ekspluatatsiya qilish davrlariga bo'linadi.

Zovurning birinchi davrdagi vazifasi tuproq-gruntni yuvish yo'li bilan ekin uchun optimal suv-tuz tartibotini hosil qilish va ikkinchi davrdagi vazifasi shu tartibotini doimo saqlab qolishdir.

Tuproq-gruntini chuqurroq sho'rsizlantirishning dastlabki vazifasi zovurlar turli tipda bo'lishi va sho'r turli usulda yuvilishidir.

AzNIGiMning melioratsiya bo'limi (E.S.Varuntsyan) ishlab chiqqan doimiy va muvaqqat chuqur zovurlardan foydalanib, sho'rlangan yerbarni jadal yuvish usuli ancha samaralidir. Sho'rlangan yerbarni jadal yuvish metodini 1963–1964-yillarda Mirzacho'ldagi 4-sovxozda VNINGiM tekshirib ko'rdi. AzNINGiM ishlab chiqqan jadal usulda sho'r yuvish metodini barcha tuproq meliorativ sharoitlari uchun universal va samarali deb bo'lmaydi. Oqib kelish-ketish qurilmalarining joylashishi sharoitiga qarab, ularning bir-biridan uzoqligi turlicha bo'lishi mumkin. Yonlama sho'r yuvish variantlari ham turlicha. Masalan: a) bir pog'onali yuvish, b) ikki pog'onali yuvish va boshqalar. Tuproqning sho'ri ko'pgina operatsiyalardan foydalanib yuviladi:

- 1) suv keladigan yoki chetlari ko'tarilib qo'yilgan polosa suvga bostiriladi.
- 2) oqib kelish-ketish qurilmalari o'rtasidagi butun maydonni sho'rsizlantirish maqsadida tuproqning ustki qatlqidagi tuzlarni pastroq tushirib, yuza yuviladi.
- 3) polosa yoki kanallarga uzlusiz suv berish yo'li bilan tuz eritmalarini va tuproqning ustki qatlqidagi minerallashgan sizot suvlarni yonlamasiga surib tashlanadi.
- 4) melioratsiya qilinadigan maydon obdon yuvshshdi.

## **SHO'RTOB TUPROQLARNI YAXSHILASH VA TAQIR TUPROQLARNI O'ZLASHTIRISH**

Markaziy Osiyoning bo'z tuproqli poyasida sug'oriladigan, shuningdek, o'zlashtirilishi kerak bo'lgan dalalar orasida tuprog'i ma'lum darajada sho'rtoblanib qolgan yerlar uchrab turadi.

Dog'lar mexanik tarkibiga ko'ra turlicha: soz, qumoq, birinchi va ikkinchi metrli qatlamlarida qum va qumoq holida bo'ladi.

Sho'rtob tuproqlarni yaxshilash va hosildor qilish uchun singdiruvchi kompleksdagi ortiqcha natriyni chiqarib, kalsiyni almashtirish, fizik xossasini yaxshilash zarur, tuproqning sho'rtoblanish darajasiga qarab, ularni o'zlashtirish va yaxshilashda agrotexnik, biologik, kimyoviy usullardan foydalaniлади. Sho'rtoбли tuproqlarni kalsiy zapaslari hissobiga ham o'zlashtirish mumkin, sho'rtoбли qatlam tagidagi gipsli qatlamlar yuza joylashgan yerdagining shunday qilish mumkin. Keyinchalik sho'r yuvish jarayonida suvda oson eriydigan tuzlar tuproqdan chiqib ketadi. Gips bilan ohak natriyning kalsiy bilan almashishiga ta'sir qiladi.

### **SEL OQIMI VA UNGA QARSHI KURASHISH**

Sel hosil bo'lishi tog' yonbag'irlaridagi tuproq eroziyasi bilan chambarchas bog'liq. Tuproq ildiz tizimlari bilan mustahkamlanmagan, yer usti oqimi katta bo'lganida sel oqimi hosil bo'ladi.

Sel to'satdan boshlanib, qisqa vaqtda to'xtashi mumkin. Sel oqimiga qarshi kurashishda agro-o'rmon meliorativ va gidrotexnika tadbirleri ko'rildi. Agro-o'rmon meliorativ tadbirler tog' va tog' oldi yerlarida amalga oshiriladi. Bu tadbirler bu yerda mol boqishni tartibga solish, tik yonbag'irlarni haydamaslik, daraxtazorlar barpo qilishdan iborat. Yalanib ketgan va yuvilgan yonbag'irlarga ko'p yillik o't ekilganda, tuprog'i, ayniqsa, ikkinchi yilidan boshlab unumdar bo'lgan va o'simlik yaxshi rivojlangan.

Mexanik to'siqlar hozirga qadar qo'lda qurilayotgan bo'lib, bu ancha mashaqqatli ish. Ko'pincha ko'chma qumlarni mustahkamlash va o'zlashtirishda unumli va tejamli usullardan ham foydalaniлmoqda. Hozirgi vaqtga qadar traktor seyalkalari sinab ko'rilmoxda.

Qumliklarni sug‘oriladigan o‘simliklar yordamida ham o‘zlashtirish mumkin. Masalan, Qizilqum chorva mollarini boqish uchun juda katta maydonlarda pichan yetkazish ishlari qilinmoqda, meva daraxtlari o‘tkazilmoqda va poliz ekinlari ekilmoqda.

Hozirgi vaqtida qumlarni fizik-kimyoviy metodlar bilan mustahkamlash yo‘llari o‘rganilmoqda.

## **QUMLI VA QUMOQ TUPROQLARNI O‘ZLASHTIRISH**

Markaziy Osiyoda yirik qum massivlari bilan birligida qumli va qumoq tuproqlar maydonlari bor. Shu maydonlarni o‘zlashtirib, qishloq xo‘jaligida foydalanish mumkin. Qumli va qumoq tuproqlardan noto‘g‘ri foydalanilganda, ularning ustki gorizonti yumshoq qumli yotqiziqlardan iborat bo‘ladi.

Qumli va qumoq tuproqlarni o‘zlashtirish uchun mayda zarrachali tuproq bilan boyitish maqsadida kolmataj qilinadi. Buning uchun qumli dalaga mayda zarrachali tuproq oqizindilari ko‘p loyqa suv beriladi. Kolmataj qilishda loyqa zarrachalar tuproqning ustki qatlami cho‘kib qolib, kolloid zarrachalarning bir qismi qum ichiga singib kiradi.

Chet ellarda qumli tuproqlarni tubdan yaxshilash tajribasi diqqatga sazovordir. Masalan, Vengriyada tuproqqa chuqurroq qilib 3–4 qatlam organik moddalar solinadi. Har bir qatlamning qalinligi 1 sm dan bo‘lib, 1-qatlami 45–65 sm chuqurlikda, 2- va zarur bo‘lsa 3-qatlami esa 3 yildan keyin oldingisiga qaraganda 15 sm balandroq qilib yotqiziladi. Shunday qilinganda, shu qatlamda o‘simliklarning ildizlari kuchli rivojlanadi va bir-biriga chirmashib zinchashib qoladi.

Qumli tuproqlarni o‘zlashtirishda almashib ekishning muhim ahamiyati bor. Ayrim qumli uchastkalarda, qum erman (shuvoq), qum qiyos kabi o‘simliklar ekilib, undan yaylov sifatida foydalaniladi. Bu o‘simliklar yetarli darajada rivojlansa, ularidan qimmatbaho yem-hashak tayyorlanadi. Bunda ham ma’lum tartibotga, ya’ni yaylovdan foydalanish tartibiga rioya qilish zarur.

## SHO'RXOKLAR

Eng ustki 0–30 va 0–40 sm qalinlikda 1–3%, va unda ko‘p suvda eruvchi tuzi bo‘lgan tuproqlarni biz sho‘rxok tuproqlar deb ataymiz.

Tabiiy sharoitda sho‘rxok tuproqlarda o‘simlik o’smaydi yoki galofit sukkulet o‘simliklarigina o‘sadi.

Kolxoz, sovxoziqlar uchun tuproqlarning sho‘rlik darajasi kartogrammalarni tuzishda biz suvda eruvchi tuzlarning kimyoviy tarkibiga qarab sho‘rxok tuproqlarni quyidagicha bo‘lamiz:

Sodali tuproqlar. Bularda asosan Na va qisman Mg tuzlari bo‘lib, bu tuzlarning o‘simlikka zararlilik darajasi eng yuqoridir. Buning sababi, bu tuzlarning ishqoriy darajasi 9,5–10,5 bo‘lishida. Bu tuproqlarni o‘zlashtirish uchun melioratsiya davrida tuproqning suv o‘tkazishini yaxshilash, chuqur qilib plantaj bilan haydash, vaqtinchalik foydalanish uchun sayoz, lekin qalin zovur-ariqlarni o‘tkazish, gips va kislota qoldiqlari so‘lib, tuproq muhitini neytrallash kerak. Sholi ekib, bu tuproqlarni yozda yuvish yaxshi natija beradi.

Bunday tuproqlar O‘zbekistonda juda oz tarqalgan, lekin Orol dengizining quriyotgan yerlarida uchramoqda.

Sulfatli sho‘rxoklar tarkibiga tuzlar bilan sho‘rxoklar kira-di. Sulfat tuzlarining o‘simlikka toksik (zararli) miqdori unchaliq yuqori emas, tuproq fizikasi ham ancha yaxshi, tarkibida gips bo‘lganligi tufayli yuvilganda sho‘rtoblashmaydi, zovur kanallari sho‘r yuvish davrida yaxshi fonda beradi.

Xloridli sho‘rhoklar. Bu tuproqlarning tarkibida  $\text{Cl}^-$  va  $\text{ba}^{+2}$   $\text{SO}_4^{2-}$  tuzlari bo‘lib, bu tuzlarning toksik darajasi yuqori. Xlorid sho‘rxoklari va bularning sizot suvlarida umumiy tuz miqdori hamma vaqt yuqori bo‘ladi.

Nitratli sho‘rxoklar tarkibiga  $\text{NaNO}_3$ , tuzlari bo‘lgan tuproqlar kiradi. O‘simliklarga zararliligi jihatidan bu sho‘rxoklar xloridli sho‘rxoklari bilan teng. Tuproqning sho‘rlik darajasi qancha ko‘p bo‘lsa, bunday sho‘rxoklarda xlor tuzining miqdori ham shunchaliq ko‘p bo‘ladi va aksincha, sho‘rlik darajasi kamayishi bilan sulfat tuzlari, ishqoriy karbonat tuzlarining miqdori ortadi.

Aktiv shurxoqlar. Bu sho'rxoklar sizot suvlari bilan bog'liq bo'lib, "pardali kapillyar" suv yer betigacha ko'tarila olishi mumkin bo'lgan chuqurlikda yotadigan yerdarda hosil bo'ladi. Agarda bunday tuproqlarning sizot suvlari 5–10 g/l atrofida sho'rangan bo'lsa, u vaqtida bunday tuproqlarning tuzini 5000 m<sup>3</sup> suv bilan yuvish yaxshi natija beradi.

Bunday tuproqlarning sho'rini yuvish va melioratsiya davrida ko'pincha sayoz, oralig'i 30–40 metrdan o'tkazilgan vaqtinchalik zovurlardan foydalaniadi.

Qoldiq (quruq) sho'rxoklar. Aksariyat quruq arid iqlimli zonaqlarga sizot suvlari 10–15 m va undan ham chuqurroqda joylashgan bo'lsada, lekin maksimum tuzi tuproqlarning ustki qatlamida bo'lgan sho'rxoklar bor. Bu sho'rxoklarning orasida "soxta qum" deb ataluvchi chang zarrachalari bilan tuz aralashmalaridan hosil bo'lgan tuz barxanlari ham uchraydi. Bunday tuzdan tashkil topgan dyunalar, barxanlar shamol bilan tarqalib, atrof tuproqlarni sho'rlatuvchi manbalik rolini o'ynaydilar.

Bunday sho'rxoklarni o'zlashtirishda uning ustki tuz qatlamini mexanik yo'l bilan surib tashlash mumkin, so'ngra tuprog'iga qarab, 7–10 ming kub suv bilan dastlab zovurlarsiz, so'ng sizot suvi ko'tarilib, bu yer betidan 3,5–5,0 m chuqurlikdan so'ng zovurlar yordamida yaxshilab yuvish tavsiya qilinadi.

## SHO'RXOKLASHGAN TUPROQLAR

Sho'rxoklashgan tuproqlar deb, biz 30 sm dan 1 m chuqurlik-kacha 0,3–0,8% (maksimum) suvda eruvchi toksik tuzlari bo'lgan tuproqlarni aytamiz.

Tabiatda sho'rxoklashgan tuproqlarning sodali, sulfatli, sodali-xloridli, sulfatli-xloridli turlari ko'proq tarqalgan. Sho'rxoklar singari bu tuproqlarni ham sizot suvlarining chuqurligi va gidro-geologik sharoitiga qarab, sho'rxoklashgan o'tloqi va sho'rxoklashgan turchalarga ajratamiz.

Sho'rxoklashgan o'tloqi (hozirgi zamон aktiv) tuproqlar unchaliq chuqur joylashmagan (1,65–3 metr), bir litrida o'rtacha 0,5–3-5 g/l tuzi bo'lgan sizot suvlari bilan oziqlanadilar. Yilning quruq va

issiq oylarida bu tuproqlarning maksimum tuzi tuproqning ustki qatlamliga ko'tarilib, yog'ingarchilik oylarida tuproqning chuqur-roq qatlamlariga yuvib tushiriladi.

Bu tuproqlarni o'zlashtirish sho'rxoklarga nisbatan yengil.

Bunday tuproqlar melioratsiyasining asosiy sharti oralig'i 0,5–1,0 kilometrik chuqur zovurlar yordamida har bir hektariga 2–3 ming m<sup>3</sup> suv bilan yaxshilab yuvishdir. Agar tuz tarkibida soda bo'lsa, tuproqqa gips, oltingugurt yoki kislota mahsulotlari (ish-qorlarini neytrallash uchun) solib yuvish yaxshi natija beradi.

Bu tuproqlardan sug'orilmaydigan (lalmikor) ekinlar ekib foy-dalanish yoki tabiiy o'tidan zo'riqtirib, yaylov sifatida foydalanish, albatta tuproqning kuchli sho'rланishiga olib keladi.

Qoldiq (chuqur) sho'rxoklashgan tuproqlar. Bu tuproqlarning sizot suvlari chuqur (10–20 metr va undan ko'p), lekin har bir litrida 10–30 g/l tuzi bo'lgan va kapillyar suvlari tuproq betigacha ko'tarila olmaydigan yerlarda tarqalgan. Shuning uchun ham bu tuproqlarning maksimum tuzi 30–50 sm dan 100 sm gacha chuqurlikda bo'lib, umumiy tuzining miqdori 0,3–0,8% atrofidadir.

Tuzning tarkibida soda ishtirok qilsa, tuproq sho'rtoblik xossalari ega bo'ladi. Sho'rtoblik alomatlarini bu tuproqlarning tashqi ko'rinishi (morfologiyasi) hamda kimyoviy xossalardan ustunsimon strukturasi, almashinuvchi natriy ionining bo'lishi bilan bog'liq ishqorlarning yuqori bo'lishidan bilamiz.

Aksariyat qoldiq sho'rxoklashgan tuproqlarning tuzli qatlamlari qatori gips qatlamlari ham bo'ladi.

Ko'p vaqt bu tuproqlarni shoshqaloqlik bilan shirin tuproq deb (tuzi chuqurda joylashgani uchun efemer o't o'simliklari normal rivojlanadi) qabul qilinib, melioratsiyada juda katta xatoliklarga yo'l qo'yiladi. Bunday tuproqlardan melioratsiyasiz lalmikorlarda foydalanish mumkin. Lekin suv chiqarib sug'orilsa, ko'p o'tmay sizot suvlari ko'tarilib, tuproqning progressiv sho'rланishi boshlanadi. Qoldiq sho'rxoklashgan tuproq aktiv sho'rxok tuprog'iga aylanadi.

Adabiyotdan ma'lum bo'lган ko'pchilik sug'oriladigan yerlarning sho'rланib, ishdan chiqishi ham shu bilan bog'liqidir. Bu

tuproqlarda tartibga solingan sun'iy yog' in apparatlaridan foydalanib sug'orishni tashkil etish – tuproqdag'i tuzlarni sekin-asta pastki qatlampariga yuvilib, yuqori unumdarli shirin tuproqlarning hosil bo'lishiga olib keladi. Hech qanday melioratsiyasiz bu tuproqlardan lalmikorliqda foydalanish mumkin.

Tuproq qancha sho'r bo'lsa va uning sizot suvi yer betiga qancha yaqin tursa, shu qatori bunday tuproqlarni gidroizolyatsiya qilinmagan ochiq kanallar orqali o'z oqimi bilan oqadigan ariqlar yordamida sug'orilsa, bunday yerkarning tuprog'i tez sho'rlna boshlaydi.

Agarda sho'rxoklashgan tuproqlarning tuzli qatlami 25–30 sm chuqurlikda bo'lib, tuzning miqdori 0,5–0,8% bo'lsa, u vaqt-da o'zlashtirish tuproqni yuvishdan boshlanishi kerak. Tuproqni chuqur haydab, iloji bo'lsa, beda ekib, har gektariga 1,5–2 ming m<sup>3</sup> suv bilan tuproq sho'rini yuvish yaxshi natija beradi. Sug'orilib turiladigan bedaning ikki-uch yoldayoq tuproqning chuqur qatlamlarigacha tuzdan tozalay olishi amalda tasdiqlangan.

## SHO'RTOB TUPROQLAR

Sho'rtoblar asosan dasht va o'rmon-dasht zonalarida tarqalgan, kam unumli yoki mutlaqo unumsiz o'ziga hos tuproqlardir. Bular alohida landshaftlarni egallab, singdirish kompleksida almashinuvchi natriy ioni saqlangani uchun o'ta ishqoriy reaksiyaga egadir.

Bir-biridan keskin farq qiluvchi uch xil xususiyatli genetik qatlam bu tuproqlar uchun xosdir. Bular quyidagilar: 1. Ellyuvial "A" qatlami, sho'rdan yuvilgan, chirindili ishqoriy degradatsiyaga uchragan (solod tuprog'iga o'tish jarayoni), yaproqsimon strukturali va yengillashgan mexanik tarkibli. Bu qatlarning qalinliga 5–15–20 sm gacha; 2. Illyuvial "B" qatlami, qalinligi 5–15–20 sm gacha, ustunsimon prizmasimon strukturali zich konsistensiyali, ishqoriy reaksiyaga ega suvli so'rim bilan aniqlanadigan umumiyl ishqorlikning miqdori 0,1% atrofida, pH-9 atrofida almashinuvchi natriy ioni singdirish sig'imining 20–25% idan ko'prog'ini tashkil qiladi; 3. Karbonat, sulfat 18 xlorid tuzlarining kristallari va

cho'kmalari ko'p bo'lgan, tuproq hosil bo'lish jarayoni ta'sirida unchalik o'zgarmagan, tuproq hosil qiluvchi ona jinsidir. Bu qatlam tuzlarga juda boy.

Sho'rtob tuproqlar ham gidrogeologikrasmga qarab, ikkiga bo'linadi: 1. O'tloqi sho'rxoklashgan sho'rtoblar. Sizot suvi 3–5–8 m chuqurlikda. 2. Sizot suvlarning chuqurligi 20–30 m va undan ortiq bo'lsa, dasht sho'rtobi deb ataymiz.

## **SHO'RTOBLASHGAN DASHT VA CHO'L TUPROQLARI**

Dasht zonasining janubiy qismlarida qora, kashtan va qo'ng'ir tuproqlari, shuningdek, cho'l zonasining surtus-qo'ng'ir tuproqlari orasida sho'rxok tuproqlari bilan bir qatorda sho'rtoblangan tuproqlar ham tarqalgan. Bu tuproqlarda yog'ingarchilik yetarli bo'lgan yillarda g'alla ekib, yuqori hamda a'lo sifatli hosil olish mumkin. Lekin namgarchilik tanqis bo'lgan yillari esa hosil va uning sifati juda yomonlashib, hatto hosil mutlaqo bo'lmashligi ham mumkin. Umuman sho'rtob va sho'rtoblashgan tuproqlarni o'zlashtirishda asosan uni muhitini fiziologik nordon tomonga o'zlashtirish uchun nordon o'g'itlar, go'ng, o'simliklarning ildiz qoldiqlari, oltingugurt, gips ko'plab ishlatiladi. Bularidan tashqari chuqur qilib ag'darib haydalgan yer oftobda yaxshilab, toblanib quritilishi, qishda esa muzlatishi ham yaxshi natija beradi.

Taqir tuproqlari. Cho'l zonasining sho'ri yuvila boshlagan o'ziga xos, alohida landshaftlarining unumsiz, tashqi ko'rinishida "kaftdek" tekis, tuproq sirti bir xildagi poligonal yoriqli g'ovak qatqaloq bilan qoplangan oliy o'simliklarsiz – yalang'och, lekin lishaynik va suv o'tlarining nishonlari bo'lgan tuproqlardir. Bu tuproqlar asosan, Amudaryo, Sirdaryo, Murg'ob, Tedjen daryolarining Kura del'talari va Qoraqum hamda Qizilqumning yirik barxan qumlar oraliqlarida keng tarqalgan. Suv o'tkazish juda yomon bo'lganligi uchun bu tuproq yog'ingarchilikdan so'ng sayoz ko'llarga aylanib, mana shu vaqtida lishaynik va suv o'tlari shiddatli rivojlanadilar. Bu ko'llar efemer ko'llar bo'lib, tezda qurib ketadi. Taqir tuproqning mutlaqo unumsizliklari, dastlab suv va fizik xossalalarini o'ta yomonligi, yuqori ishqori muhiti

o'ta qoldiq sho'rliqi, tuproq chirindisining juda ozligi, nihoyat hamma tuproqlar uchun xos bo'lgan zamburug' va bakteriya mikrofloralarning bu tuproqlarda yo'qligidadir.

Taqir tuproqlar juda yomon suv o'tkazish va fizik xossalarga ega, shunga ko'ra, bular sug'orish uchun berilgan suvlarni ham juda yomon qabul qilib, haydalgan qatlarni yirik kesaklarga palaxsa-palaxsa bo'lib bo'linib, bu hosil bo'lgan yirik kesaklarni tuz bilan to'yingan holda tezda qotib qoladilar. Taqir tuproqlarni ham fizik xossalari, kimyoviy tarkibi va taqirlik xususiyatlarining namoyon bo'lishiga qarab, bir qancha gruppalarga bo'lish mumkin. Taqir tuproqlarning sizot suvlari chuqur bo'lganligi uchun uni o'zlashtirganda zaxkash va zovur kanallarni sizot suvining ko'tarilish tezligiga qarab, 2–6 va hatto, 10 yillikdan so'ng ham o'tkazish mumkin. Sizot suvlarning ko'tarilish tezligi tuprokning mexanik tarkibi, sug'orish tartiboti va joyining gidrologik sharoitiga qarab o'rtacha bir yilda 1 m ga to'g'ri keladi.

## **SUG'ORILADIGAN TUPROQLARNING IKKILAMCHI SHO'RLANISHI VA UNING OLDINI OLİSH**

Ikkilamchi sho'rланish deb, sug'oriladigan shirin tuproqlarning tezda unumdoorligi pasayib, turli darajadagi sho'rangan tuproqlarga aylanish jarayoniga aytamiz. Ikkilamchi sho'rланish yangidan ochilib, sug'oriladigan yerlarda va yangidan qurilgan, lekin foydali ish koeffitsienti kichik bo'lgan irrigatsiya tarmoqlarida, sug'orish ishlarining boshlanishidan ko'p yil o'tmay rivojlanadi. Hozirgi zamon gidroizolyatsiyasiz o'tkazilayotgan sug'orish kanallarining foydali ish koeffitsienti 0,5–0,6 dan kichik, buning ustiga ekinlar sug'orilmagan vaqtida ham dalalarimizdan juda ko'p suv foydasiz oqib, yer ostiga shimilib yotadi. Bu yer ostiga shimilayotgan suvlar o'zi bilan birga tuproq qatlamlaridagi yotqizilgan kurna tuzlarni eritib, sizot suvlariga tushiradi. Bu hol, birinchidan, sizot suvlari mineralizatsiyasining oshishiga va joyining oqimi yomon bo'lganligidan uni yana yer betiga ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Ikkilamchi sho'rланishning ikkinchi davrida yirik va o'rta kattalikdagi irrigatsiya kanallarining har ikki tomonlarida

turli kenglikdagi turg'un dehqonchilikni davom ettirish mumkin bo'lgan chuchuk sizot suvlik zonasini hosil bo'ladi, qolgan 50–60% yer maydoni kuchli sho'rلانishi tufayli xo'jalik oborotidan chiqib qolishi mumkin. Ikkilamchi sho'rلانishni oldini olishning asosiy choralariga sug'orishda suvdan foydalanish intizomiga qattiq riosa qilish, suvdan foydalanish koeffitsientini 0,8–0,9 gacha ko'tarish, kanallarni betonlash, polietilen trubalardan foydalanish, sun'iy yomg'ir usulida sug'orish qish kunlari kanallarni berkitib qo'yish, kanal yoqalarida ixota daraxtzorlarni o'tkazib, biologik drenajni kuchaytirish va boshqalar kiradi.

Xullas, yer betiga yaqin joylashgan sho'r sizot suvlari ta'sirida hosil bo'lgan hozirgi kunda ikkilamchi sho'rланangan tuproqlarning tuzdan tozalash uchun yuqorida aytilgan ogohlantirish choralar bilan bir qatorda, sizot suvlarini kritik chuqurlikda pastga tushirish uchun yetarli miqdorda zovur kanallari qurilib, sizot suvlarini tezlashtirish, uni chuchuklatish, bir yo'la eritish kabi ishlarni olib borish kerak. Quruq va issiq iqlimli sharoitlarda ekinlarimizni 10–12-marotaba sug'oramiz. Sho'r yuvish bilan sug'oriladigan yerlarniig tuproq eritmasining kontsentratsiyasi 15–20 g/l dan ortmasligi kerak. Shuning uchun ham bunday tuproqlarni sug'orish tartiboti tuzlarning yuvish tartibotida o'tkazilishi kerak. Boshqacha qilib ayt-ganda, yaxshi ishlaydigan zovur kanallar yordamida tuzlarning doimiy yuvilib, ekin maydonidan chiqib ketishini, tuproq eritmasini yangi chuchuk sug'orish suvlari bilan almashinib turishini ta'minlash kerak. Aytilganlarga xulosa qilib, quyidagilarni tavsiya qilamiz:

- a) sug'oriladigan suvning sho'rligi bir litrda (1–2 g/l) dan ortmagan, sug'orish natijasida tuproqda yig'ilib qolish mumkin bo'lgan tuzlarni yuvib turish uchun har yili bir marotaba vegetativ sho'r yuvish o'tkazilib turishi kerak;
- b) sug'oradigan suvning mineralizatsiyasi 4–5 g/l bo'lsa, har 4–5 oddiy sug'orishdan so'ng bir marotaba sho'r yuvilishi bo'lishi kerak;
- v) sug'oradigan suvning sho'rligi 10–12 g/l bo'lsa, u vaqtida zinch o'tkazilib, yaxshi ishlaydigan zovur kanallari yordamida har gal bostirib sug'orish kerak;

g) sug‘oradigan suvning mineralizatsiyasi 7–8 g/l bo‘lsa, har ikki sug‘orishdan so‘ng uchinchisi sho‘r yuvish sug‘orish bo‘lishi kerak.

Ko‘rsatilganlarga rioya qilmaslik, yuqorida aytganimizdek, og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkin.

## **SHO‘RXOKLASHGAN VA SHO‘RXOK TUPROQLARNING MELIORATSIYASI**

Sho‘rxok tuproqlarning melioratsiyasi haqida juda ko‘p ishlar qilingan. Shu qatori keyinga yillarda o‘zbek olimlarimizdan prof. L.Tursunov va O.Komilovning olib borayotgan ishlari diqqatga sazovordir. Sho‘rxoklashgan va sho‘rxok tuproqlarning muvaffaqiyatli melioratsiyasida biz tuproqning haydaladigan va o‘simlik ildizlari tarqaladigan qatlamidagi suvda eruvchi tuz miqdorini 0,3–0,4% dan sizot suvlaridagi erigan tuzlarni har bir litrida 2–3 g/l keltirib, bu ikki ko‘rsatkichni o‘simliklarning butun vegetatsiyasi davrida shu miqdordan oshirmsandan saqlashga erishmog‘imiz shart.

Agarda sho‘rxok tuprog‘i – aktiv sho‘rxok gruppasiga kirsa, unda bu tuproqlarni tuzdan tozalash uchun albatta yaxshi ishlaydigan gorizontal yoki vertikal zovurlarning yaxshi ishlashini ta’minlab, so‘ngra yuvish kerak. Tuproqning sho‘r yuvishlik darajasi (quruq qoldiq 2%) mexanik tarkibi qumoq, sizot suvi o‘rtalari sho‘rlangan bo‘lsa:  $U=1x400x2-100=700$  bo‘ladi. Tabiiy, shuncha suvni tuproqqa bir yo‘la sig‘dirib bo‘lmaydi, shuning uchun ham umumiy suv normasini 150–200 mm dan yoki har gektariga bir yarim – ikki ming kubometrdan qilib taqsimlab, uni erta kuz va bahor oylarida beramiz. Sho‘rxok va sho‘rxoklashgan tuproqlarning tuzlarini yuvilib ketishi juda uzoqqa cho‘ziladigan jarayondir. Tuzlarning muvaffaqiyatli yuvilishi hamda oldin yuvilib, tuzidan tozalangan tuproqni shirin saqlab turishga faqatgina sun‘iy o‘tkazilgan tizimlarning beto‘xtov, yaxshi ishlab turishlari orqali erishish mumkin. Ko‘p yillik tajribalardan ma’lum bo‘lishicha, bu borada gorizontal ochiq va yopiq zovurlar ekonomik jihatdan eng arzoni va foydali deb topilgan. Sho‘rxok tuproqlarning

melioratsiyasi davrida gorizontal zovurlar quyidagivazifalarni bajarishi shart.

1) Sho'r sizot suvlarning eng kamida kritik chuqurligidan 30–40 sm pastga tushirilishi;

2) Sizot va zovur sho'r suvlarini sug'oriladigan yer maydonidan tashqariga oqib turishi va shu borada tuproq va sizot suvlarning chuchuk suvlar bilan almashinuvini;

3) Sug'oriladigan ekin maydonini tabiiy oqimsizlikdan qutqarib, sizot va zovurlar suvlarini umumiy oqimini ta'minlashni va nihoyat, tuzlarning qaytadan restavratsiyasi orqali tuproqlarni sho'rlatishdan saqlovchi tuz va suv tartiboti hosil qilib, uni saqlashni ta'minlash kerak.

Meliorativ davrda zovur tizimlari sho'rxok va sho'rxoklashgan tuproqlarning sho'rini yuvish va yuvindi sho'r suvlarni maydon dan tashqariga chiqishini ta'minlash kerak. Bu davrni ham ikki bosqichga bo'lamiz:

a) tuproqning o'simlik ildizlari tarqaluvchi qatlamini optimal darajagacha tuzdan tozalash davri;

b) sho'rxok tuproqlarning ostidagi sizot suvlarning kontsentratsiyasini optimal sho'rlik darajasigacha kamaytirish davri. Bu davrning birinchi bosqichida katta suv normalari bilan 2–3 yil sho'r yuvish ishlariolib boriladi. Shuning uchun bu bosqichda, zovur kanallari sho'r yuvish uchun berilgan suvlarning 60–80% ini maydondan tashqariga tashlashni ta'minlash kerak. Bu zovurlardan foydalanishning ikkinchi bosqichida, asosan, sizot suvlarning tuzini kamaytirish ko'zda tutiladi. Biroq sizot suvlarni chuchuklashtirish og'ir, uzoq muddatga cho'ziladigan va juda ko'p suv talab qiladigan ish. Sho'rxoklar melioratsiyasining bu bosqichida sizot suvlarini chuchuklashtirish va tuproqlarni tuzdan tozalash, ekinlarni normal sug'orish bilan qo'shib olib borilishi mumkin. Bularidan tashqari, vaqtiga vaqtida 1–3 m<sup>3</sup> suv bilan kuzg qishki tuproq yuvish ishlarini ham o'tkazib turish kerak. Meliorativ davrning bu bosqichida sug'orish uchun beriladigan suvning 25–30%i zovurlar orqali chiqarib tashlanadi.

Melioratsiyaning ikkinchi davri – ekspluatatsiya (normal ish-lash) davrida tuproq tuzlardan tozalanib, sizot suvlarning sho'rlik darajasi bir litr suvda 2–3 g dan ozaygandan so'ngboshsheklidagi. Sizot suvlarning mineralizatsiyasi kritik sho'rlikdan ozaygandan so'ng, bu suv eng qimmat xo'jalik suviga aylanib, bu suvdan ariq suvi qatori madaniy o'simliklar ham foydalana oladilar. Melioratsiyaning bu davrida shlyuzlash yo'li bilan sizot suvlarni yanada yer betiga yaqinroq chuqurlikda saqlab turish ham mumkin. Bu yo'l bilan subirrigatsiyaga erishish, saqlab turish, o'tloqi tuproq hosil bo'lishi jarayonlarini ta'minlash orqali tuproqlardan yuqori hosil olishga erishish mumkin. Shunday qilib, sizot suvlari to'liq chuchuklashganidan so'ng, zovurlar tuproqni tuzdan tozalash bilan birga, o'simliklarning yer ostidan sug'orish subirrigatsiya rolini bajarishi kerak.

Hurmatlm o'quvchilar! Tuproqni tubdan melioratsiya qilish masalalari hozircha to'liq hal bo'lmagan. Ayniqsa, hozirgi qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan xalqimizni to'liq ta'minlash, yerlarimizning unumdorligini oshirish, tuproqlarni suv, shamol eroziyasidan, ikkilamchi sho'rلانish va botqoqlanib unumdorligini yo'qotish, bu orqali butun biosferadagi tuproqning roli va o'rni yo'qolib, biogeotsenozli – jarayonlar oqimining buzilishidan saqlash, tuproq melioratsiyasida qilinadigan murakkab va og'ir ishlarning bir qismi xolos. Tuproq xalqimizning eng noyob va qimmatli boyligidir. Uni seving, undan to'g'ri foydalaning, kelajak avlodlarimiz uchun serunum, yuqori darajada madaniylashgan tuproqlar qolsin.

61-jadval

**Tuproqlarni sho'rlanish darajasiga qarab klassifikatsiyalari.****1. Ozarbayjon tuproqlari uchun A.A.Shonin taklif qilgan klassifikatsiya**

Tuproqlar	Suvli so'rimda aniqlanuvchi umumiy tuzlar quruq qoldiq miqdori, % hisobida		
	Xlorli sho'rlanish ustunlik qilganda	Gips zonasasi oz bo'lib, xlorli sulfatlari sho'rlanishda	Gips zonasasi ko'p bo'lib, sulfatlari sho'rlanish ustunlik qilganda
Kuchsiz sho'rlangan O'ta darajada sho'rlangan	0,2-0,6	0,4-0,8	1,0-1,3
Kuchli sho'rlangan O'ta kuchli sho'rlangan	0,6-1,0 1,0-2,0 2,0-3,0	0,8-1,2 1,2-2,2 2,2-3,2	1,3-1,7 1,7-2,7 2,7-3,7
Sho'rxoklar	3,0	3,2	3,7

62-jadval

**2. Vaxsh vohasi tuproqlar uchun O.A.Grabovskaya taklif etgan klassifikatsiya**

Tuproqlar	Tuproqning 0-50sm qalinligidagi suvda eruvchan umumiy tuzlar (quruq qoldiq), % hisobida	
	xlor ionining miqdori, % hisobida	
Sho'rlanmagan	0,35	0,03
Kuchsiz sho'rlangan	0,35-1,6(0,68)	0,03-0,20
Kuchli sho'rlangan	0,6(0,8)-1,0(1,5)	0,20-0,40
Sho'rxok	1,0 (1,5)	0,40

63-jadval

**3. O'zboy o'zani(markaziy Qoraqum cho'li) tuproqlari uchun  
A.N.Rozanova va Ye.V.Lobovalar taklif etgan klassifikatsiya**

Tuproqlar	Suvda eruvchan umumiy tuzlar (quruq qoldiq), % hisobida
Kuchsiz sho'rlangan	0,25-0,65
O'ta darajada sho'rlangan	0,50-0,70
Kuchli sho'rlangan	0,7-1,0
Sho'rxok	1,0

**4. Sho'rlangan tuproqlarning sho'rلانish darajasi va sifatiga qarab klassifikasiyasi (Qishloq xo'jalik ekinlari uchun)**

	O'rtacha tuzga chidamli qishloq xo'jalik ekinlarning holatiga qarab darajasi	Tuz tarkibiga ko'ra tuproq turi						tuproqning 0–60 sm qalinligidagi qurugqoldiq % hisobida	tuproqning 0–100sm qalinligidagi qurugqoldiq % hisobida
		Sodali	xloridli-sodali	sulfatli-sodali	xlorili	sulfatli-xlorili	xlorli-sulfatli		
O'simlikning rivojanishi va hosili normal	Juda kuchsiz sho'rlangan tuproq yokishirin tuproq	<0,10	<015	<015	<0,15	<0,20	<0,25	<0,30	<0,30
O'simlik kuchsiz shikastlanganva hosil 10–20 % ga kamaygan	Kuchsiz sho'rlangan	0,10 0,20	0,15 0,25	0,15 0,30	0,15 0,30	0,20 0,30	0,25 0,40	0,30 0,60	0,30 0,60
O'simlik o'rtacha shikastlangan, hosil 20–50%ga kamaygan	O'rtacha sho'rlangan	0,20 0,30	0,25 0,40	0,30 0,50	0,30 0,50	0,30 0,60	0,40 0,70	0,60 1,0	0,60 1,0
O'simlik kuchli shikastlangan, hosil 50–89 % ga kamaygan	Kuchlisho'rlangan	0,30 0,50	0,40 0,60	0,50 0,70	0,50 0,80	0,60 1,0	0,70 1,20	1,0 2,0	1,0 2,0
Yakkandukkan o'simlik qolib, hosil multaqo bo'lmag'an	Sho'rxok	>0,50	>0,60	>0,70	>0,80	>1,0	>1,20	>2,0	>2,0

## 5. Amudaryo quyi oqimidagi tuproqdar uchun V.B.Gussak taklif etgan klassifikatsiya

Tuproqlar	Quriq qoldiq, % hisobida	Xlor, % hisobida
Sho'rlanmagan kuchsiz	0,3	0,01
sho'rlangan o'rtacha	0,3–0,7	0,01–0,06
kuchli	0,7–1,0	0,0–0,10
sho'rxok	1,0–2,0 2,0	0,10–0,20 0,20

## 6. Xlor ionining sulfat kislotasi ioni nisbatiga qarab tuproqlarning sho'rlanish turi klassifikatsiyasi

Tuproqning sho'rlanish turi	Xlor ioni $\text{SO}_4^{2-}$ ga nisbatan		
	S.V.Zonin bo'yicha 1934-y.	Ye.N.Ivanova va A.N.Rozanova bo'yicha 1939-y.	O.A.Grabovskaya bo'yicha 1947-y.
Xlorli	5	2	4
Sulfatl xlorli	1–5	1–2	1–4
Xlorli-sulfatl	0,5–1	0,2–1	0,5–1
Sulfatl	0,5	0,2	0,5

Qishloq xo'jaligining bundan keyishi rivojlanish mexanizasi, melioratsiya va selektsiyagagina emas, balki qilinadigan ishlarning joyini, regional sharoitini hisobga olib rayonlashtirishga ham bog'liqdir. Shu bilan birga tuproqshunoslar tuzgan yirik masshtabli tuproq eroziyasi, tuproqlarning sifati va ekonomik bahosi kabi kartalari, qishloq xo'jalik ishlarini olib borilishida asos qilib olinishi kerak. Maksimum tuzi bo'lgan qatlarning joyylanish chuqurligiga qarab tuproqlar quyidagicha bo'lingan: Maksimum tuzi 150 sm dan chuqurlikda joylashgan bo'lsa – shirin; 100–150 sm oralig'ida bo'lsa – chuqur sho'rlangan; 70–100 sm oralig'ida bo'lsa – chuqur sho'rxoklashgan; 30–70 sm oralig'ida bo'lsa – o'rta sho'rxoklashgan; 5–30 sm oralig'ida bo'lsa yuza sho'rxoklashgan tuproqlar deb aytildi.

**7. Tarkibida soda bo‘lgan sho‘r tuproqlarning ionlarini  
bir-biriga nisbatiga qarab Ye.N.Ivanova va A.N.Rozanova tak-  
lif etgan klassifikatsiya.**

Tuz tarkibiga qarab tuproq turi	Ionlarning nisbati			
	$\text{HCO}_3^- / (\text{Cl}^- + \text{SO}_4^{''})$	$\text{Cl}^- / \text{SO}_4^{''}$	$\text{NSO}_3^- / \text{SI}$	$\text{NSO}_3^- / \text{SO}_4^{''}$
Sulfat-xlorli-sodali	1	1	—	—
Xlorli-sulfatli-sodali	1	1	—	—
Xlorli-sulfatli-sodali	1-0,2	1	1	—
Sodali xlorli-sulfatli	1-0,2	1	1	—
Sulfatli-sodali-xlorli	1-0,2	1	—	1
Sodali-sulfatli-xlorli	1-0,2	1	—	1

**8. Tarkibida sodasi bo‘lmagan tuproqlar uchun klassifikatsiya.**

$$\frac{\text{Cl}'}{\text{SO}_4^{''}} > \text{bo‘lsa, xlorli.}$$

$$\frac{\text{Cl}'}{\text{SO}_4^{''}} = 1-2 \text{ bo‘lsa, sulfatli-xlorli}$$

$$\frac{\text{Cl}'}{\text{SO}_4^{''}} = 0,2-1,0 \text{ bo‘lsa, xlorli-sulfatli}$$

$$\frac{\text{Cl}'}{\text{SO}_4^{''}} < 0,2 \text{ bo‘lsa, sulfatli}$$

$$\frac{\text{Na}'+\text{K}'}{\text{Ca}^{''}+\text{Mg}^{''}} > 4 \text{ bo‘lsa, natriyli sho‘rxok}$$

$$\frac{\text{Na}'+\text{K}'}{\text{Ca}^{''}+\text{Mg}^{''}} = 1-4 \text{ bo‘lib } \frac{\text{Mg}^{''}}{\text{Ca}^{''}} > 1 \text{ bo‘lsa, magniyli-natriyli sho‘rxok}$$

$$\frac{Na' + K'}{Ca'' + Mg''} = \text{bo'lib } \frac{Mg''}{Ca''} < 1 \text{ bo'lsa, kalsiyli-natriyli shoxok}$$

$$\frac{Na' + K'}{Ca'' + Mg''} < 1 \text{ bo'lib } \frac{Mg''}{Ca''} > 1 \text{ bo'lsa, magniyli shoxok}$$

$$\frac{Na' + K'}{Ca'' + Mg''} < 1 \text{ bo'lib } \frac{Mg''}{Ca''} < 1 \text{ bo'lsa, kaltsiyli shoxok}$$

68-jadval

### 9. B.V.Fedorov va V.R.Shrederlar taklif etgan tuproqlarning sho'rланish darajasiga qarab klassifikatsiyasi

Sho'rланish darajasiga qarab tuproq turi	Quruq qoldiq, % hisobida	Xlor ionı, % hisobida	SO <sub>4</sub> ionı, % hisobida
Sho'rланмаган Kuchsiz sho'rланган	0,3 0,3–1,0	0,1 0,01	0,1 0,1
O'rtal sho'rланган	0,3 1,0–2,0	0,01–0,04 0,01–0,04	0,4 0,4
Kuchli sho'rланган	0,3–1,0 1,0–2,0	0,04–0,1 0,1–0,3	0,6 0,8
Sho'rxok	2,0–3,0 3,0 3,0	0,04–0,01 0,1 0,3	0,8

Hamma jadvalda ham ionlarning bir-biriga nisbati milligramm  
ekvivalent hisobida olinadi.

### 10. Sizot suvlarining sho'rlik darajasiga qarab klassifikatsiyasi (bir litr suvda erigan tuzlarning gramm miqdori)

Shirin 0–1 g/l

Kuchsiz sho'rланган 1–3 g/l

O'rtacha sho'rланган 3–10 g/l

Kuchli sho'rланган 10–15 g/l

Namakob 50 g/l

## SHO'RLANGAN TUPROQLAR VA ULARNING MELIO-RATSIYASI

Sho'r tuproqlar tarqalgan hududlar katta miyosdagi tuproq-geokimyoviy formatsiya bo'lib, turli xil tuproqlarni o'zida birlashtiradi. Uning umumiy belgilari quyidagilardan iborat: akkumulyativ yoki paleakkumulyativ landshaftlarda hosil bo'lishi, yuqori kontsentratsiyadagi eritmalarida suvda oson eruvchi tuzlarning tuppoq hosil bo'lish jarayonlarida ishtirok etishi, o'simliklarning yoxud tuproq eritmalarining yuqori kontsentratsiyasi yoxud u yoki bu tuproq qatlamlaridagi o'ta yuqori ishqoriylik sababli normal o'sishi va rivojlanishi uchun noqulay sharoitlarni vujudga kelishi (bundan sho'r tuproqlarda o'suvchi galofitlar mustasno) va boshqalar.

Sho'rlangan tuproqlar deb tuproq profilida madaniy o'simliklar (galofit bo'lman - sho'rga chidamsiz) ning rivojlanishi uchun zaharli ta'sir etuvchi suvda oson eruvchi tuzlarning miqdoriga aytildi. Suvda oson eruvchi tuzlarga sovuq suvda gipsning ( $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ) eruvchanligidan (2 g/ l. atrofida) ortiq eriydigan tuzlar kiradi.

Tuproqning yuqorigi 0–30 sm li qatlamida 0,6% ortiq soda 0,1% dan. ortiq xlor va 2% dan ortoq -sulfatlar ushlagan sho'rlangan tuproqlar sho'rxoklar deb ataladi. Bunday tabaqalanish tuzlarning turlicha zaharligidan kelib chiqadi. Masalan, eng zaxarlituz soda ( $\text{Na}_2\text{CO}_3$ ) hisoblanib, uning 0,6% miqdori tuproqni butunlay unumsiz yerga aylantirib, 0,1% atrofidagi miqdori o'simliklarning normal o'sishi va rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi. Dunyo tuproq xaritasidagi (FAO) tuproqlar tizimstikasida (tizimida) yuqorigi 0–15 sm li qatlamda 3% dan ortiq miqdorda tuz ushlagan tuproqlar sho'rxoklar guruhiga kiritilgan.

Yuqorida ko'rsatilgan miqdordagi tuzlar tuproqning yuza qatlamida emas, balki chuqurroq qatlamlarida bo'lган tuproqlar sho'rxokli tuproqlar va shu miqdordan kam bo'lган lekin tuproqning hohlagan qatlamlarida joylashsa sho'rxoksimon tuproqlar deb ataladi.

Demak, tuproqlar tuzlarning tuproq profilida joylanishiga qarab yuza va chuqur sho'rxoksimon bo'lishlari mumkin.

Sho'rxoklarning tarqalgan asosiy hududlari subboreal va subtropik mintaqalarning dasht va yarim dasht mintaqalari hisoblanadi. Sho'rxoklar maydoni yer sharida 69,8 mln. hektarni, barcha sho'rangan tuproqlar maydoni esa 240 mln. hektarni tashkil etadi (Kovda, Rozanov, 1988).

Sho'rangan tuproqlar va sho'rxoklarning paydo bo'lishi uchun ikki xil jarayon – landshaftlarda (tabiatda) erkin harakatlanuvchi va ularni tuproqda to'planishi sodir bo'lishi kerak tuzlar hosil bo'lishining asosiy manbalari tog' jinslarining nurashi ta'sirida hosil bo'ladigan, o'zida tuz ushlovchi va tuproq hosil qiluvchi har xil jinslar hisoblanadi.

Ma'lumki, dunyo okeanlariga quruqlikdan yiliga 3 mlrd. tonna suv oqimlari bo'lmagan kontinentlarga 1 mlrd. tonnagacha har xil tuzlar kelib qushiladi. Tuz to'plovchi manbalardan, ya'ni tarkibida tuz ushlovchi tuproq hosil qiluvchi jinslar, tuzlarning dengizdan quruqlikka shamol ta'sirida kelib qo'shilishi (impulverizatsiya), atmosfera yog'inlari, tuproq-grunt suvlari, o'simliklar, sug'orish suvlari va boshqalar hisoblanadi.

Tuzlar hamma joylarda paydo bo'lib, yer yuzasining ustki qatlamlarida yig'iladi. Shunga qaramasdan sho'rangan tuproqlar maydoni va ayniqsa sho'rxoklar maydoni yer sharida unchalik katta maydonlarni egallamaydi, chunki tuzlarning tuproqda yig'ilishi ma'lum shart-sharoitlarni taqazo etadi. Agar atmosfera yog'in-sochinlari miqdori, namlikning bug'lanishidam ortiq bo'lsa, tuproqda tuz to'planishi sodir bo'lmaydi, chunki bunday sharoitda yuvuluvchi suv tartibotiustunlik qiladi, tuproqda tuzlar bug'lanish atmosfera yog'in-sochinlaridan ortiq bo'lганда yuz beradi. Eng ko'p tuz to'planishi cho'l mintaqasida bug'lanish atmosfera yog'in-sochinlaridan 13–20-marta ortiq bo'lgan hududlarda sodir bo'ladi.

Turli landshaft – geokimyoviy holatlarda turlicha tuzlar to'planiadi. Namlikbirmuncha ko'proq iqlim sharoitlarda kam eriydigan tuzlarto'plangani holda suvda ko'proq eriydigan chuqur qatlamlarga tuproq ona jinsi va grunt suvlarigacha yuvilib ketadi. Iqlim sharoiti qurg'oqchiligi ortgan sari suvda ko'proq eriydigan tuzlar to'plana boshlaydi.

Kuchsiz sho'rlanishning boshlang'ich davrida soda ko'proq to'plana boshlaydi. Sho'rlanish kuchaygan sari birinchi o'rinni sulfatlar, undan keyin xloridlar egallaydi.

Tuproqda tuz to'planish asosan makroreleflarning pastqam joylarida, turli moddalarning ko'proq yig'ilgan uchastkalarida rivojlanadi. Relefning balandroq shakllari uchun tuzlarning oqib chiqib ketishi xarakterlidir. Yer usti va yer osti tuproq-grunt suvlarini bilan ular relefning pastqam joylariga oqib o'tib depressiya tuproqlarini sho'rlanishiga olib keladi.

Grunt suvlarining kimyoviy tarkibi, ularning mineralizatsiyasi ga chambarchas bog'liq kam kontsentratsiyadagi grunt suvlarida gidrokarbonatlar, mineralizatsiya-sining ortishi bilan xloridlar katta rol o'yнaydi.

Sho'rxok o'simliklari onda-sonda yakka-duCCA tarzda rivojlangan bo'lib, ular sho'ra o'simliklarini turli ko'rinishlarini namoyon qiladi. (sertuz va yuqori osmotik bosimli tuproq eritmasida hayot kechirishga moslashgan qora sho'ra, sarsazan, sho'ra, burgan, shuvoq, kurmak kabi) va ildiz tizimlarining chuqr ketishi va kul moddasining yuqori miqdorda bo'lishi bilan farqlanadi. Sho'ralarning ayrim turlarida kul elementlarining miqdori 20–30% ni tashkil etadi, kul tarkibida xlor, oltingugurt, natriy elementlari ko'proq uchraydi.

## Turli landshaftli mintaqalarda tuzlarning tarqalishi

Landshaft mintaqalari	Yog'in-sochin-larning o'rtacha yil miqdori, mm	Yillik o'rtacha bug'lanishi, mm	Qurug'davrlar havoning nisbiy namligi, %	Grunt suvlari uing eng yuqori miner. g/l	Tuproq-dagi yengil eruvchi tuzlar-ning miqdori %	Tuproq tarqalgan tuzlar
Cho'l	100	2000–2500	20	200–350	25–50	NaCl, KNO <sub>3</sub> , MgCl <sub>2</sub> , MgSO <sub>4</sub> , CaSO <sub>4</sub> , CaCl <sub>2</sub> , NaBr,
Yarim cho'l	200–300	1000–1500	20–30	100–150	5–8	NaCl, Na <sub>2</sub> SO <sub>4</sub> , CaSO <sub>4</sub> , MgSO <sub>4</sub> ,
Dasht	300–450	800–1000	35–40	50–100	2–3	Na <sub>2</sub> SO <sub>4</sub> , NaO, Na <sub>2</sub> CO <sub>3</sub> , NaHCO <sub>3</sub> ,
O'rmon dasht	350–500	500–800	40–45	1–3	0,5–1	NaHCO <sub>3</sub> , Na <sub>2</sub> CO <sub>3</sub> , Na <sub>2</sub> SO <sub>4</sub> , Na <sub>2</sub> SiO <sub>3</sub>

Sho'rxoklar, qabul qilingan tuproqlar tizimtikasiga ko'ra, avtomorf – grunt suvlari chuqur joylashgan maydonlarda o'zida tuz ushlangan jinslardan va gidromorf – minerallashgan grunt suvlari ta'sirida hosil bo'lgan sho'rxoklarga bo'linadi. Avtomorf sho'rxoklar quyidagi tipchalarga: tipik – qoldiq, qaytalangan va taqirlashgan; gidromorf sho'rxoklar esa tipik, o'tloqi, botqoq, shorli (sor), loy-vulqonli va tepa-dunglik tipchalariga bo'linadi. Yana sho'rxoklar sho'rланish ximizdmi (tipi)ga qarab xloridli, sulfat-xloridli, xlorid-sulfatli, sulfatli, soda-xloridli, soda-sulfatli, xlorid-sodali, sulfat-sodali, sulfat yoki xlorid-gidrokarbonatli

turkumlarga hamda sho'rlanish manbalariga ko'ra – litogenli, qadimiy gidromorfli va biogenli turkumlarga ajraladi. Sho'rxoklar tuproq profilidagi tuzlarning tarqalish xarakteriga ko'ra: ustki, yuzaki (agar tuzli qatlam 0–30 sm da tarqalgan bo'lsa) va chuqur profilli (agar butun profil sho'rxoklar darajasida sho'rlangan bo'lsa) guruhlarga bo'linadi.

Morfologik tashqi ko'rinishga ko'ra sho'rxoklar quyidagi mayin, qatqaloq, qora va ho'l guruhga bo'linadi. Qatqaloq sho'rxoklarning betida yupqagina tuz qavati (qatqaloq) hosil bo'ladi va bu qatqaloq tarkibida asosan xlorid tuzlar ( $\text{NaCl}$ ) bo'lib, sulfatlar oz uchraydi. Mayin sho'rxoklarning ustki qavati quruq, g'ovak va juda mayin bo'ladi, kishi oyog'i oson botadi va iz tushadi. Bu xildagi sho'rxoklar tarkibida asosan sulfatlar ayniqsa  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  ko'p bo'ladi. Qopa sho'rxoklarda soda ( $\text{Na}_2\text{CO}_3$ ) ko'p bo'lganligidan tuproq gumusi tarkibidagi gumin kislotasi eriydi va qora tus hosil bo'ladi. Ho'l sho'rxoklar tarkibi asosan  $\text{CaSi}_2$  va  $\text{MgCl}_2$  tuzlaridan iborat bo'ladi.

## O'ZBEKISTONNING SUG'ORILADIGAN SHO'RLANGAN TUPROQLARI

O'zbekistonda sug'oriladigan sho'rlangan tuproqlar turli horizontal-kenglik zonalarida uchraydi: janubiy (Surhandaryo, Qashqadaryo, Buxoro viloyatlari), markaziy (Farg'ona vodiysining ko'p tumanlari, Mirzacho'l, Jizzax, Samarqand viloyatining ayrim tumanlari) va shimoliy (Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston respublikasi). Bu yerlarni sho'rxokli va sho'rxoksimon tuproqlar tashkil etadi. Bulardan tashqari tuproq singdirish kompleksida singdirilgan natriy yoki magniyning miqdorlari yuqori bo'lgan agrofizi-kaviy xossalari o'ta yomon sho'rtobsimon tuproqlar ham uchraydi. (Buxoro, Qashqadaryo viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi).

Sug'oriladigan sho'rlangan tuproqlarning hosildorligi tuproq hosil qiluvchi jinslarning xarakteriga, tuproq tiplariga, sug'orish davrlariga, sho'rlanganlik darjalariga hamda ularda o'tkazilayotgan agrotexnik va meliorativ tadbirlarning majmuasiga bog'iq.

O'zining kelib chiqishiga ko'ra sug'oriladigan sho'rangan tuproqlar turli tiplarga, jumladan och tusli bo'z, o'tloqi-bo'z, bo'z-o'tloqi, o'tloqi, botqoq-o'tloqi, taqirli, taqir-o'tloqi va bosh-qalarga xosdir. Bu tuproqlarning mexanik tarkiblari har xil bo'lib, og'ir qumoqli tuproqlar asosiy o'rinni egallaydi.

Sho'rangan, sug'oriladigan tuproqlardagi suvda oson eruvchi tuzlar asosan uch kation ( $\text{Na}^+$ ,  $\text{Ca}^{++}$ ,  $\text{Mg}^{++}$ ) va turt anion ( $\text{Cl}^-$ ,  $\text{SO}_4^{++}$ ,  $\text{NSO}_3^-$ ,  $\text{SO}_3^-$ ) ning kimyoviy birikishi natijasida hosil bo'lgan 12 xil tuzdan iborat. Ular quyidagi tuzlar:

$\text{NaCl}$	$\text{MgCl}_2$	$\text{CaCl}_2$
$\text{Na}_2\text{SO}_4$	$\text{MgSO}_4$	$\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$
$\text{Na}_2\text{CO}_3$	$\text{MgCO}_3$	$\text{CaCO}_3$
$\text{NaHCO}_3$	$\text{Mg}(\text{HCO}_3)_2$	$\text{Ca}(\text{HCO}_3)_2$

Bu siniq chiziqning yuqorisida joylashgan 8 xil tuz o'simliklar uchun zaharli, pastdag'i 4 xili deyarli zararsiz. Bularning ichida eng xavfli  $\text{Na}_2\text{CO}_3$ , keyingi o'rinda  $\text{MgCl}_2$  tuzlar. Bular ichida eng zararsiz tuz ( $\text{CaSO}_4$ ) va ( $\text{NaSO}_3$ ) hisoblanadi.

O'zbekistonning ko'p viloyat va tumanlarida tuproqdag'i sulfatlar miqdori ko'p holatlarda xloridlardan ancha yuqori, tabiiyki sho'rلانish xlorid-sulfatli yoki sulfatli. Buxoro viloyatining tumanlarida va Farg'ona vodiysida tuzlar tarkibini asosan sulfatlar tashkil etib, xloridlar juda kam miqdorda uchraydi, shu bois bu yerlarda tuproq sho'rلانish tipi sulfatli. Boshqa ayrim tumanlarda sulfat-xloridli va kam holatlarda xloridli sho'rلانish tiplari uchrab turadi. Sug'oriladigan tuproqlarning ayrim qismlarida gidrokarbonatli chuchuk grunt suvlari yer yuzasiga yaqin joylashgan maydonlarda sho'rلانishning o'ziga xos magniy karbonatli turi aniqlangan bo'lib, ular Samarqand, Farg'ona va Toshkent viloyatlarining qator tumanlaridagi o'tloqi-botqoq tuproqlarida uchrab, ko'pgina maydonlarni ishg'ol qiladi.

Suvda eruvchi tuzlarning yuqori harakatchanligi bois sug'oriladigan sho'rangan tuproqlar maydonlari doim o'zgaruvchan. Tabiiy va xo'jalik omillari sharoitlariga bog'liq ravishda ularga nisbatan qisqa vaqt ichida ortishi yoki kamayishi va bir vaqtning

o‘zida sho‘rlanganlik darajalari kuchayib yoki pasayishi mumkin.

Sug‘oriladigan tuproqlar sho‘rlanganlik darajasiga qarab 5 ta asosiy gruppaga – sho‘rlanmagan, oz sho‘rlangan, o‘rtacha sho‘rlangan, kuchli sho‘rlangan va sho‘rxoklarga bo‘linadi. Sho‘rlanish darjasini asosan tuproqning sho‘rlanish ximizmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Xlorid-sulfatli sho‘rlanishdagi tuproqlar uchun tuzlar miqdori quyidagi jadvalda keltirilgan miqdorda bo‘lishi kuzatilgan.


#### 70-jadval

#### Tuproqlarning sho‘rlanganlik darjasini bo‘yicha bo‘linishi

№	Sho‘rlanganlik darjasini	0–100 sm li qatlamdagisi tuzlar miqdori	
		Quruq qoldiq	shu jumladan xlor
1	Sho‘rlanmagan	<0,3	<0,01
2	Kuchsiz shurlangan	0,3–1,0	0,01–0,05
3	O‘rtacha shurlangan	1,0–2,0	0,05–0,10
4	Kuchli shurlangan	2,0–3,0	0,10–0,15
5	Sho‘rxoklar	>3,0	>0,15

Sug‘oriladigan sho‘rlangan tuproqlarni melioratsiyalashga qaratilgan meliorativ tadbirlarni aniqlashda albatta u yoki bu tuproqlarning o‘ziga xos xossalari-sho‘rlanganlik xarakteri, darjasini va tuzlarning tarkibi hisobga olinishi kerak.

Qit‘a ichkarisida yer osti suvi oqimsiz katta hududni egallagan Markaziy Osiyoda suvda eruvchi tuzlarning asosiy birinchi manbaalari quyidagilardan iborat: tog‘ jinslari va minerallarning nurash jarayonlari va bu tuzli birikmalarni yer ustini va ostki suvlari yordamida grunt suvlariga pastda joylashgan tuproq gruntlarga yotqizilishi (55-rasm).



55-rasm. Geomorfologik va topografik profillar bo'yicha tuzlarning qayta taqsimlanish sxemasi.

Tuzli cho'kindi tog' jinslardan tuproq sho'rланishi, sug'orishning rivojlanishi va sho'rланishga olib keluvchi yer osti grunt suvlarining yer yuzasiga joylashishidan paydo bo'ladi. Bu suvlarning bug'lanishidan tuproqning yuqorigi qatlami doimiy sho'rланib boradi. Issiq va quruq iqlim tuzlarning yer yuzasiga yaqin joylashgan va minerallashgan grunt suvlaridan kapillyarlar orqali ko'tarilishi keng tarqalgan.

Har qaysi geomorfologik hududning eng baland qismi suv taqsimlagich zonasidan pastki daryo o'zanlarigacha bo'lgan maydonlardagi tuproqlarning meliorativ holati turlicha ko'rinishga ega. Ular asosan joyning tabiiy sharoitlariga keng doirada bog'liq: iqlim, yerning joylashish holati va uning nishabligi, litologik tuzilishi, tuproq gruntlarning suv-fizik xossalari va ayniqsa gidrogeologik sharoitlari, ya'ni grunt suvlarining chuqurligi va xarakati va boshqalar.

Yuqorida aytilgan sharoitlardan kelib chiqib sug'oriladigan hududlar bir nechta gidrogeologik zonalarga bo'linadi: ustki va grunt suvlarining pastki qatlamlarigacha singib ketish zonasasi; grunt suvlarining yer yuzasiga sizib chiqish (buloqlar ko'rinishida) zonasasi va tarqalib ketish va qayir zonalari.

Birinchi zona – katta nishablik va yillik atmosfera yog'in-sochinlari ko'p bo'ladigan (500–600 mm) tog' oldi baland yerlardan iborat. Bu yerlarda suvni o'zidan yaxshi o'tkazuvchi mayda tosh,

shag‘al, qum qatlamlari yer yuzasiga yaqin (1,5–2,0 m) joylashgan. Grunt suvlari chuchuk bo‘lib, yer yuzasidan 10–30 m va undan kam past chuqurlikka joylashib, o‘zining nihoyatda yuqori tezligi (sutkasiga yuz metr atrofida) bilan farqlanadi. Tuproq qatlamlari va grunt suvlarida nishablikning kattaligi tuproq-gruntlarning suv o‘tkazuvchanligining yuqori bo‘lishi va grunt suvlari oqimining yuqori darajada ta’minlanganligi sababli bu yerlarda sho’rlanish sodir bo‘lmaydi, barcha pastki gidrogeologik zonaga oqizib yuvilib ketiladi, shu bois birinchi zona yerlari meliorativ qulay yerlar hisoblaniib, sho’rlanishga va 6otqoqlanishga moyil emas.

Ikkinci gidrogeologik zona (yer osti suvlarining yer ustiga sizib chiqishi zonası) quyi, pastki chegaralaridan boshlanib, pastki uchinchi zona oraliqlaridagi nishabi nisbatan kamroq maydonlarni egallaydi. Tuproqning ustki mayda zarrachali qatlami, qalin soz va og‘ir qumoqli mexanik tartibga ega. Grunt suvlari o‘z yo‘nalishida og‘ir tarkibli qatlamlarga duch kelib va qarshiligiga uchrab siqilish sharoitida joylashadi. Bu suvlar yer yuzasiga yaqin (0,5–2,0 m) ko‘tarilishi yoki sizib chiqishi mumkin va o‘zining oqimini sekinligiga qaramasdan (sutkasiga 10 lab metrlar) grunt suvlarining oqimi mavjud bo‘ladi va chuchuklik darajasini saqlab qoladi (tuzlar miqdori 0,2–0,4 g/l.) va tuproqlar deyarli sho’rlanmaydi, faqat botqoqlanish jarayoni yuz berishi mumkin.

Zonaning quyi qismlarida grunt suvlari harakatining susayishi va mineralizatsiyasining ortishi (1,5–2,0 g/l. va undan ortiq) tufayli tuproqlarda sho’rlanish jarayonini kuzatish mumkin. Meliorativ tadbirlarning kam ishlatalishi yoki uni butunlay yuqligi oqibatida sug‘oriladigan tuproqlar sho’rlanishi asosan uchinchi zonada grunt suvlarining bug‘lanish zonasida sodir bo‘lishi mumkin.

O‘zbekistonda ana shu mintaqaga mansub maydonlar yer yuzasi nishabi kichik bo‘lgan 0,0001–0,001 katta tekisliklar kengliklaridan tashkil topgan. Bu yerlarning iqlimi quruq va jazirama, yillik bug‘lanish (600–1200 mm) atmosfera yog‘inlaridan (100–300 mm) bir necha barobar yuqori. Tuproq-gruntlar deyarli og‘ir mexanik tarkibli bo‘lib, suv ko‘tarish qobiliyati nisbatan baland. Qum-shag‘alyotqiziqlari chuqur joylashgan (10–30 m va ko‘p). Grunt suvlari sho’rlangan va yer yuzasiga yaqin joylashgan.

Ularning yer osti tabiiy oqimi juda sekin ifodalangan yoki butunlay oqimsiz.

Tabiiy sharoitning mana bunday majmuidan kelib chiqib, sho'rlangan grunt suvlari katta miqdorda bug'lanishga sarflanadi. Bunday holatda suvlar doimiy bug'lanib turadi, tuzlar esa asta-sekin to'planib tuproqni sho'rlantiradi. Havo quruq va uning xarakatiqancha yuqori, tuproqning suv ko'tarish qobiliyati kuchli va grunt suvlaring joylanishi yer yuzasiga qancha yaqin va uning mineralizatsiyasi yuqori bo'lsa, tuproq sho'rlanishi jarayoni shunchalik jadal kechadi.

O'zbekistonda sho'rlangan va sho'rlanishga moyil yerlar Farg'ona vodiysida, Mirzacho'lda, Buxoro viloyatida, Amudaryo quiyi qismlarida katta maydonlarni egallaydi. To'rtinchı zona qayir yerlarining meliorativ holati turlicha bo'lishi mumkin. Grunt suvlari chuchuk bo'lgan hududlarda (Chirchiq, Angren, Zarafshon, Norin, Qoradaryo bo'yalarida) qayir yerlar sho'rlanmagan, biroq ayrim joylar botqoqlashgan. Grunt suvlari minerallashgan (yer yuzasiga nisbatan yaqin joylashgan – 1,5–2,5m gacha va oqimi sust, masalan Sirdaryoning chap sohili) maydonlarda qayir yerlar sho'rlangan va meliorativ tadbirlar o'tkazishni taqozo etadi.

## ZARARLI TUZLARNING SUVDA ERUVCHANLIGI

Sug'oriladigan sho'rlangan tuproqlarda o'simliklar uchun zararli bo'lgan asosiy tuzlar: xloridlar sulfatlar, karbonatlardir.

71-jadval

### Tuproq-gruntlardagi asosiy suvda eruvchi tuzlar

Xloridlar	Sulfatlar	Karbonatlar	Bikarbonatlar		
NaCl (natriy xlorid)	Na <sub>2</sub> SO <sub>4</sub> (natriy sulfat)	Na <sub>2</sub> CO <sub>3</sub> (natriy karbonat)	NaHCO <sub>3</sub> (natriy bikarbonat)		
MgCl <sub>2</sub> (magniy xlorid)	MgSO <sub>4</sub> (magniy sulfat)	MgCO <sub>3</sub> (magniy karbonat)	MgHCO <sub>3</sub> (magniy bikarbonat) :		
CaCl <sub>2</sub> (kalsiy xlorid)	CaSO <sub>4</sub> · 2N <sub>2</sub> O (kalsiy sulfat)	CaCO <sub>3</sub> (kalsiy karbonat)	CaHCO <sub>3</sub> (kalsiy bikarbonat)		
Tuzlar	Na <sub>2</sub> CO <sub>3</sub>	NaCl	MgSO <sub>4</sub>	NaHCO <sub>3</sub>	Na <sub>2</sub> SO <sub>4</sub>
Zararlilik darajasi	10	5–6	3–5	3	1

Tuzlarning zararlilik darajasi har xil. O'simliklar uchun eng zararli va xavfligi, soda ( $\text{Na}_2\text{CO}_3$ ) hisoblanadi. Soda suvda erib natriy ishqorini ( $\text{NaOH}$ ) hosil qiladi va bu tuz o'simliklarga zaxarli ta'sir etadi. Xlor tuzlari ham juda zararli, sulfat tuzlari esa nisbatan kamroq zararli hisoblanadi. Qiyin eruvchi tuzlar ( $\text{CaSO}_4$ ,  $\text{CaCO}_3$ ) ning yuqori miqdorlari ham o'simliklar uchun zararsiz. Sho'rlangan tuproqlarda natriy va magniyning oson eruvchi tuzlari ko'proq uchraydi. Ularning qiyosiy zararliliginu quyidagi raqamlar nisbati bilan joylashtirish mumkin.

Tuzlarning suvda erish jarayoni qattiq modda yuzasiga ikki qutbli (dipol) suvning ta'sir etishidan boshlanadi. Agar suvning dipol (ikki kutblilik) vaqtida atomlar, ionlar va molekulalarning ushlab turuvchi kristal reshetkasidan yuqori bo'lsa, u holda ular qattiq moddadan ajralib eritmaga o'tadi. Tuzlarning eruvchanligi ularning suvda erigan modda va gazlarning tabiatiga, temperaturasiga va bosimiga bog'liq bo'ladi. Suvda xloridlar ko'proq erisa, sulfatlardan  $\text{MgSO}_4$  tuzi yaxshi eriydi,  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  va  $\text{K}_2\text{SO}_4$  tuzlari kamroq,  $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{N}_2\text{O}$  (gips) juda yomon eriydi. Temperaturaning ortishi bilan bir qator tuzlarning eruvchanligi ( $\text{MgCl}_2$ ,  $\text{CaCl}_2$ ,  $\text{MgSO}_4$ ,  $\text{Na}_2\text{SO}_4$ ) ortadi, gipsning eruvchanligi temperaturaga deyarli bog'liq bo'lmaydi.  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  tuzining eruvchanligi  $0^\circ$  dan  $10^\circ$  gacha temperaturada past,  $30^\circ$  gacha ortganda kam hollarda eruvchanligi ortadi. Keyinchalik esa butunlay o'zgarmaydi. Tuzlarning suvda eruvchanligi  $\text{SO}_2$  miqdoriga ham bog'liq. Agartuproq havosida  $0,2\%$   $\text{SO}_2$  bo'lsa  $\text{SaSO}_3$  ningeruvchanligi odatdag'i ( $\text{SO}_3 - 0,03\%$ ) ga nisbatan 15-marta ortadi. Bir qancha tuzlar ishtirokida tuzlarning eruvchanligining kamayishi kuzatilgan. Tuproqeritmasida  $\text{NaCl}$  ning yuqori miqdori qayd etilganda gipsning eruvchanligi keskin ortadi va u kapillyar suvlar orqali yuqoriga ko'tarilib, natijada tuproqning ustki qatlamida gipsning to'planishi sodir bo'ladi.  $\text{MgCl}_2$  tuzining eruvchanligi  $\text{SaS}_1$  ishtirokida keskin kamayadi, xuddi Shunday holatni  $\text{CaSO}_4$  tuzining  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  va  $\text{MgSO}_4$  ishtirokida kuzatish mumkin.  $\text{SaSO}_3$  ning eruvchanligi  $\text{NaCl}$  ishtirokida taxminan 22-martaga,  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  ning ishtirokida esa 50-martaga ortadi.  $\text{MgCO}_3$  ning eruvchanligi  $\text{NaCl}$  ishtirokida 4 marta,  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  ishtirokida esa 5 marta ortadi.

Eritmaning ma'lum bir kontsentratsiyasida tuzlar kristall modda shaklida cho'kmaga tushadi. Tuzlarning cho'kmaga tushishi boshlangan kontsentratsiya ko'rsatkichi teperaturaga, bosimga va boshqa tuz vagazlarning ishtirok etishiga bog'liq bo'ladi. Ko'p komponentli eritmalaridan tuzlarning cho'kmaga tushish (ket-ma-ketligi) ularning erish darajasiga bog'liq. Kuchsiz eriydigan tuzlar pastroq, yaxshi eriydigan tuzlar esa yuqori kontsentratsiyada chukmaga tusha boshlaydi. Tuzlarning cho'kmaga tushishining umumiyligini qonuniyatlar quyidagi qatorlar bilan ifodalanadi, ya'ni kationlar quyidagi tartib bo'yicha cho'kmaga tushadilar:



Tuzlarning eruvchanligiga va ularning eritmadan cho'kmaga tushishidan suv singdiruvchi gruntlar va tuproqlarning xossalari (mexanik tarkibi, suv xossalari, singdirilgan asoslar tarkibi, pH,  $\text{CO}_2$  karbonatlar va boshqalar) katta ta'sir ko'rsatadi.

### TUPROQDAGI TUZLARNING O'SIMLIKLAR VA HOSIL MIQDORIGA TA'SIRI

Tuzlarning o'simliklarga ko'rsatadigan ta'siri ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Tadqiqotlar natijalari tuzlarning o'simliklarga ko'rsatadigan salbiy ta'siri sulfat-xloridli tipdagi sho'rangan tuproqlarda xlorid-sulfatli sho'rланishga qaraganda birmuncha ko'proq ekanligini ko'rsatadi. Xloridli sho'rланishda esa sulfatli sho'rланishga nisbatan juda yuqoriligi isbotlangan.

Tuzlarning o'simliklarga ko'rsatadigan ta'siri o'ta xilma-xil. U o'simliklardagi qator biokimyoiy va fiziologik funksiyalari, ularning suv va oziqlanish tartibotlari va ildiz tizimlari holatini buzilishiga olib keladi. Tuzlar ta'sirida fotosintez jarayonlari jadalligi, o'simliklarning nafas olishi pasayadi, modda almashinishi susayadi, organik moddalarning to'planishi kamayadi, transpiratsiya orqali suvlarning sarflanishi pasayadi. Tuzlarning o'simliklarga zararli ta'siri urug' chigit unib chiqish fazasidan ko'rina boshlaydi.

Tuproq sho'rlanganligi yuqori darajada bo'lganda urug'larni unib chiqishi ancha davrga kechikadi.Urug' yaxshi o'sishi zarur bo'lgan namlikni o'zlashtira olmaydi. Shu bois urug'larning unib chiqish energiyasi kamayadi yoki urug' butunlay unib o'smaydi. Natijada ekinlarning yakka-dukka o'sib chiqishi kuzatiladi, o'simliklarning gektar hisobidagi soni kamayadi, tuproq yuzasida sho'r dog'lar paydo bo'ladi, o'simliklarning nobud bo'lishi kuzatiladi.

Tuproq sho'rlanishi qishloq xo'jalik ekinlarining ildizlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.Tuz zaxiralarining katta miqdori ildizlarning pastki qatlamlarga o'tishini kechiktiradi.

Tuzlardan o'simlik ildizlariga eng zararli ta'sir etuvchi normal soda ( $\text{Na}_2\text{SO}_4$ ) hisoblanadi.U ildizlarni kesib, ularni qoraytirib, nobud bo'ladi. Sho'rlangan tuproqlar o'simliklarga ayniqsa vegetatsiya davrida katta ta'sir ko'rsatadi. Sho'rlanmagan tuproqlarda o'simliklar tarkibida uglevodlarning umumiyligi miqdori va azotli moddalar ancha ortadi, shunga qaramasdan kraxmal kamayadi. Bu esa ildizdan oziqlanishning buzilishi oqibatidir.

Sho'rlangan tuproqlarda o'simliklar tomonidan suvni o'zlash-tirishi sekinlashadi va transpiratsiyaga sarf qiladigan suvning miqdori kamayadi. Tuproqdan o'simliklarga suv ozuqa moddalari bilan ularning ildiz va barglarining so'rish kuchi ta'siri ostida so'rildi. So'rish kuchi o'simliklarning hujayra shirasi so'rish bosimi tufayli sodir bo'lib, u o'simliklarda bir xil emas. Masalan, bir qator sabzavot va poliz ekinlari uchun, jumladan bodringlarda so'rish kuchi bor-yo'g'i 2–5 atm., sho'rlanmagan tuproqlardagi g'o'zada 10–15 atm., sho'rlangan tuproqlardagi 15–25 atm. Tuproqlarda yana suv ushlab turuvchi kuchlar mavjud bo'lib, bu kuchlar katta oraliqda o'zgarib turadi. U tuproqda qancha tuz ko'p bo'lib, nam kam bo'lsa, shuncha katta bo'ladi. Sho'rlanmagan tuproqlarda namlik 9,4% bo'lsa, bu kuch 20 atm. ni va kuchsiz sho'rlangan tuproqlarda 35 atm. ni va kuchli sho'rlangan tuproqlarda 143 atm. ni tashkil etadi. (63-jadval).

Tuproqning suv ushlab turuvchi kuchi va o'simliklarning surish kuchi ko'rsatkichlari nisbati o'simliklarni suv bilan ta'minlanishini aniqlaydi. Agar tuzli eritma kontsentratsiyasi va tuproq eritmasining

so'rish bosimi yuqori bo'lsa, o'simliklar suvni o'zlashtira olmaydi yoki juda oz miqdorda o'zlashtiradi. Bunday hollarda tuproqda namlikning bo'lishiga qaramay tuproqda o'simliklarni nobud bo'lishiga (nimjon o'sishiga), ularning o'sish va rivojlanishini susaytiruvchi «fiziologik quruqlik» sodir bo'ladi.

Sho'rangan tuproqlarda mineral oziqlanishning buzilishi sodir bo'ladi. Bu holat o'simliklarning qator muhim ozuqa elementlarining yetarli darajada o'zlashtiraolmasliklari (kalsiy, fosfor, manganets, temir) va aksincha zararli elementlarning (xlor, natriy, magniy) ko'plab o'zlashtirilishi bilan ifodalanadi. Kuchli sho'rangan tuproqlardagi o'simliklarda xlor miqdori me'yordan 3–4 marta, natriy 5–10-marta ortib ketishi mumkin. O'simliklarda tuzlarning katta miqdorda to'planishi, ularni tuzlar bilan zaxarlanishiga olib keladi.

#### 72-jadval

#### Tuproqning suv ushlab turuvchi kuchini tuzlar miqdori va namlikga bog'liqligi

Sho'rланмаган тупроqlar		Kuchsiz sho'rangan tuproqlar (0,55 % tuz)		Kuchli sho'rangan tuproqlar (2,13 % tuz)	
Tuproq namligi, %	Suv ushlab turuvchi kuch, atm	Tuproq namligi, %	Suv ushlab turuvchi kuch, atm	Tuproq namligi, %	Suv ushlab turuvchi kuch, atm
9,4	20	9,3	35	9,9	143
12,2	10	12,4	26	13,3	59
18,3	2	18,6	18	19,6	30

Tuproqdagagi tuzlarning yuqori kontsentratsiyasidan o'simliklarning zaxarlanishi asta-sekin ortib boradi, barglarning sulishi va nihoyat qurishi boshlanadi. Ko'p holatlarda barglarning buralib qolish holatlari kuzatiladi. Kuchli zaxarlanish natijasida o'simliklar barglari sarg'ayadi, ularda tuzli dog'lar paydo bo'ladi. Bunday barglar keyinchalik to'kilib ketadi.

Tuzlar ta'sirida tez, bir necha soat davomida yosh nihollarning kuchli jabrlanishi va xalok bo'lishi hollari uchraydi. Bunda

yosh, yaxshi rivojlangan niholning katta normalardagi bиринчи sug'орishдан, yoki kuchli yoqqan yomg'irdan so'ng nobud bo'lishi hollari uchraydi. Bunday hollarda o'simliklarning nobud bo'lishi sabablari tuproqlarda ishqoriylikning vaqtincha ortib ketishi hisoblanadi. Ishqoriylikning birdan ortib ketishi tuzlari yaxshi yuvilmagan tuproqlarda namlikning keskin ko'payishi natijasida natriy sulfat va kalsiy karbonat tuzlarining o'zaro almashinish reaksiyasidan sodir bo'lishi mumkin. Bunda tuproq eritmasida soda, natriy ishqori va gidrooksil ionlari hosil bo'lib, o'simliklarga o'ta zaharli, nobud qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Ayrim hollarda o'simliklarning jabrlanishi (zaharlanishi) tuzlarning bevosita emas, balki bilvosita ta'siri ostida tuproqni fizikaviy xossalaring yomonlashuviga va tuproq eritmasidagi ishqoriylikning ortib ketishiga sabab bo'luvchi tuproqning singdirish kompleksidagi singdirilgan natriydan hosil bo'lgan soda hisobiga sodir bo'lishi mumkin.

Tuzlarni o'simliklarning biokimyoviy va fiziologik jarayonlariga hamda tuproqning fizik-kimyoviy xossalariiga ko'rsatadigan zararli ta'siri, oxir oqibatda o'simliklarning yomon o'sishi, ularning rivojlanish fazalarining kechikishi, unumdorlikning pasayishi va qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligining kamayishini belgilaydi.

Ma'lumki, kuchsiz sho'rangan tuproqlarda paxta hosildorligi sho'rланмаган tuproqlarga qaraganda 10–15, o'rtacha sho'rangan tuproqlarda 30–35, kuchli sho'rangan tuproqlarda 60–65% ga va undan ortiq kamayadi. Tuproqda tuzlarning, shu jumladan xlor ionining ko'p miqdorda bo'lishidan o'simliklarning ko'p qismi nobud bo'ladi, qolgan qismlarining hosildorligi keskin kamayadi.

Sho'rangan tuproqlar hosildorlikning nafaqat miqdoriga, balki sifatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Tuproq sho'ranganligi darajasining ortib borishi bilan o'simliklar sifati yomonlashib boradi. Jumladan paxtaning tola uzunligi kamayadi, bir tekislik darajasi yomonlashti va tolaning mustahkamligi (qattiqligi) pasayadi. Sho'rangan tuproqlar kartoshka mevasi sifatini ham yomonlashtiradi. Shu bilan bir qatorda, ayrim o'simliklarda tuproq sho'rланishining kam-

roq miqdori mahsulotlar sifatini yaxshilaydi. Masalan, qovunlarda qand moddasi g'alla ekinlarida oqsil moddasi ortadi, qand lavlagi, uzum, mevalarda qand miqdori ko'payadi.

## **QISHLOQ XO'JALIK EKINLARINING TUZGA CHIDAMLILIGI VA TUPROQDAGI TUZLARNING MO'TADIL MIQDORI**

Qishloq xo'jalik ekinlarining tuzga chidamliligi deganda tuproqdag'i va tuproq eritmasidagi tuzlarning o'simliklarga nisbatan ularning normal o'sishi va rivojlanishi uchun zarar yetkazmaydigan miqdori tushuniladi. Turli tuproq sharoitlarida o'suvchi o'simliklarning tuzga chidamlilik darajasi bir xil emas. Ular bir qator omillarga: o'simlik turlari va biologik xossalariiga, aynan o'simliklar navi, o'simliklar yoshiga, tuproqdag'i tuzlar tarkibiga, ozuqa moddalari va namlikka, ayniqsa tuproqdag'i organik moddalar miqdoriga bog'liq. Madaniy o'simliklar umuman olganda sho'rga chidamsiz yoki kam chidamliligi bilan xarakterlanadi, ular ichida dukkakli ekinlar (mosh, lovil, nuxat) tuzga juda kam chidamli hisoblanadi. Ayrim o'simliklar tuzga o'ta chidamli, masalan lavlagi (qand lavlagi, osh lavlagisi, yem sifatida ishlatalidigan xashaki lavlagi), oq jo'xori. Nisbatan sho'rga chidamli ekinlarga paxta, ayniqsa uning ingichka tolali navlari (*Gossipium barbadense* L) o'rta tolali (*Gossipium hirsutum* L) navlarga nisbatan sho'rga chidamli hisoblanadi.

Sho'rga chidamlilik o'simliklarning yoshiga qarab o'zgarib turadi. Tuzni o'simliklarga dastlabki ta'siri, urug'larning unib chiqishi nihollarning o'sish va vegetatsiyaning boshlanish davrlariga to'g'ri keladi.

O'simliklar uchun nisbatan zararsiz bo'lgan sulfat tuzlari ko'p bo'lgan tuproqlarda (Farg'ona vodiysi, Buxoro viloyati) ekinlarning tuzga chidamliligi yuqoriroq, xlor tuzlari ko'p bo'lgan tuproqlarda esa kamroq. O'simliklarning sho'rga chidamliligini belgilovchi muhim omil tuproq namligi sanaladi. Tuproqlarda tuzlar tarkibining bir xilda bo'lishiga qaramay, o'simliklarning tuzga chidamliligi tuproq namining ortib borishi bilan ortadi, chunki bu vaqtda tuproq eritmasining kontsentratsiyasi ortadi.

O'simliklarning tuzga chidamliligi borasida tuproqdagi ozuqa moddalarning miqdori ham ahamiyatga ega. Yuqori unum-dor tuproqlarda va dalalar organik moddalar bilan o'g'itlanganda o'simliklar tuzlarning salbiy ta'siriga kamroq duchor bo'ladilar. Biroq, yuqori darajada sho'rangan tuproqlarga katta normalarda mineral o'g'itlarni bir tomonlama solish foyda keltirmaydi. Aksincha, zarar keltirishi mumkin, chunki shunday ham tuproq eritmasining yuqori kontsentratsiyasi yanada ortib ketishi mumkin.

O'simliklarning sho'rغا chidamlilik darajasiga ularning o'sish va rivojlanish hamda muhit sharoitlarining katta ta'siri yuqorida aytilgan fikrlardan va quyidagi 64-jadvalma'lumotlaridan ko'rinish turibdi.

Tuproq sho'rhanishini mavsumiy tiklanishini takrorlamaslik va barcha dala ekinlaridan, shu jumladan tuzga kam chidamli o'simliklardan yuqori hosilni ta'minlash uchun xlor ionining miqdori 0,01%dan katta bo'lmashligi kerak.

Poliz va sabzavot ekinlarining tuzga chidamliligi ham turli-cha. Bu xil ekinlardan bodring, pomidor, tarvuz tuzga juda kam chidamli; karam, qovunlarko'proq chidamli hisoblanadi. Mevali daraxtlar (urug'li mevalar) ichida olma va nok tuzga kamroq chidamli. Danakli mevalar (o'rik, olcha, tog'olcha) tuzga ancha chidamli. Eng ko'p chidamli uzum hisoblanadi.

Turli tuman va mintaqalarda ularning tabiiy sharoitlari, tuproq qoplami xarakteri, qishloq xo'jalik ekinlarining normal o'sishi uchun tuproqlardagi tuzlar miqdori normalari (me'yordi) turlichagini ta'kidlash zarur.

O'zbekistonning qator sug'oriladigan zonalarida bu ko'rsat-kichlar turlicha (64-jadval).

Farg'ona vodiysi va Buxoro viloyatlari tuproqlarida tuzlarning yuqori me'yoriy miqdori (0,75–1,0% gacha) bu viloyatlar tuproqlardagi tuzlar tarkibida sulfat tuzlarining o'simliklar uchun kamzararli tuzlarning ko'p bo'lishi bilan, xlorning yuqori me'yoriy miqdorining Xorazm va Qoraqalpog'iston rayonlarida ko'p bo'lishi esa (0,03–0,04%gacha) bu rayonlar tuproqlari va grunt suvlarida tuzlarning toksik (zaxarli) ta'sirini susaytiruvchi kalsiy kationining ko'p miqdorda bo'lishi bilan bog'liqidir.

**O'simliklarning tuzga chidamliligi va ularning vegetatsiya davrini birinchi bosqichlarida normal o'sishi uchun tuproqdagi xloring me'yoriy miqdorlari (15.05. – 1.06 gacha)**

Tuzga chidamlilik darajasi	Qishloq xo'jalik ekinlari	Tuproqda xlor miqdorining chegarasi %	Tuproq eritmasining xlor bo'yicha kontsentrasiyasiga g/l
Juda kam	Beda, mosh, loviya, no'xot	0,008–0,01	0,42–0,53
Kam	Bug'doy, arpa, makkajo'xori	0,01–0,015	0,53–0,79
O'rtacha	Paxta, shabdar	0,015–0,02	0,79–1,05
Yuqori	Lavlagi, oqjo'xori	0,03–0,04	1,58–2,10
Baland	Kungaboqar	0,04–0,06	2,10–3,16

**O'simliklarning normal o'sishi uchun tuproqdagi tuzlarning me'yoriy miqdori**

Hudud	Tuzlarning me'yoriy miqdori, %		
	Quruq qoldiq	Sulfat ionlari	Xlor ionlari
Mirzacho'l	0,25–0,30	0,10–0,15	0,008–0,01
Farg'ona vodiysi Buxoro viloyati	0,75–1,00	0,30–0,40	0,01–0,0015
Qoraqalpog'iston Respublikasi Xorazm viloyati	0,30–0,50	0,20–0,25	0,03–0,04

### SHO'RTOBLANGAN TUPROQLARNI YAXSHILASH

Markaziy Osiyoning, shu jumladan O'zbekistonning sug'oriladigan, shuningdek, o'zlashtirilishi kerak bo'lgan yerlar orasida tuprog'i ma'lum darajada sho'rtoblanib qolgan yerlar uchrab turadi. Ular mexanik tarkibiga ko'ra turlichay: soz, qumoq, birinchi va ikkinchi metrli qatlamlarida qum va qumoq holda bo'ladi.

Sho'rtoblangan tuproqlarni yaxshilash va hosildor qilish uchun tuproqning singdiruvchi kompleksidagi ortiqcha natriyni siqib chiqarib, kalsiyga almashtirish, fizik xossasini yaxshilash zarur. Tuproqning sho'rtoblanish darajasiga ko'ra ularning o'zlashtirish va yaxshilashda agrotexnik, biologik, kimyoviy usullardan foydalaniladi. Sho'rtobli tuproqlarni kalsiy zahiralari hisobiga ham o'zlashtirish mumkin. Sho'rtobli qatlam tagidagi gipsli qatlamlar yuza joylashgan yerlardagina shunday qilish mumkin. Sho'rланган tuproqlar gipslash natijasida fizik- kimyoviyxossalari yaxshilanadi. Keyinchalik sho'r yuvish jarayonida suvda oson eriydigan tuzlar, shu jumladan, natriy sulfat tuproqlardan chiqib ketadi. Gips natriyning kalsiy bilan almashishiga ta'sir qiladi va tuproq sog'lomlashadi, fizik xossalari yaxshilanadi. Ushbu tuproqlarga mahalliy va mineral o'g'itlar solish, almashlab ekishni joriy qilish ularning unumdorligini tiklash va oshirishni ta'minlaydi. Xullas, yer betiga yaqin joylashgan sho'r sizot suvlari ta'sirida hosil bo'lgan hozirgi kunda ikkilamchi sho'rланган tuproqlarning tuzdan tozalash uchun yuqorida aytilgan ogohlantirish choralar bilan bir qatorda, sizot suvlarini kritik chuqurlikda pastga tushirish uchun yetarli miqdorda zovur kanallari qurilib, sizot suvlarini tezlashtirish, uni chuchuklatish, bir yo'la eritish kabi ishlarni olib borish kerak. Quruq va issiq iqlimli sharoitlarda ekinlarimizni 10–12-marotaba sug'oramiz. Sho'r yuvish bilan sug'oriladigan yerlarniig tuproq eritmasining kontsentratsiyasi 15–20 g/l dan ortmasligi kerak. Shuning uchun ham bunday tuproqlarni sug'orish rejimi tuzlarning yuvish rejimida o'tkazilishi kerak. Boshqacha qilib ayt-ganda, yaxshi ishlaydigan zovur kanallar yordamida tuzlarning doimiy yuvilib, ekin maydonidan chiqib ketishini, tuproq eritmasini yangi chuchuk sug'orish suvlari bilan almashinib turishini ta'minlash kerak.

## QUMLI VA QUMLOQ TUPROQLARNI O'ZLASHTIRISH

Markaziy Osiyoda yirik qum massivlari bilan bиргаликда qumli va qumloq tuproqli maydonlar bor. Shu maydonlarni o'zlashtirib, qishloq xo'jaligida foydalanish mumkin. Qumli va qumloq

tuproqlarni o'zlashtirish uchun, mayda zarrachali tuproq bilan boyitish maqsadida kolmataj qilinadi. Buning uchun qumli dalaga mayda zarrachali tuproq oqizindilar, ko'p loyqa suv beriladi. Kolmataj qilishda loyqa zarrachalar tuproqning ustki qatlamiga chiqib qolib, kolloid zarrachalarning bir qismi qum ichiga singib kiradi. Chet ellarda qumli tuproqlarni tubdan yaxshilash tajribasi diqqatta sazovordir. Masalan: Vengriyada tuproqqa 3–4 qatlam organik moddalar solinadi. Har bir qatlamning qalinligi 1 sm dan bo'lib, 1- qatlami 45–65 sm chuqurlikda, 2- va zarur bo'lsa, 3-qatlami esa 3-yildan keyin oldingisiga qaraganda 15 sm balandroq qilib yotqiziladi. Shunday qilinganda shu qatlamda o'simliklarning ildizlari kuchli rivojlanadi va bir-biriga chirmashib zichlashib qoladi. Qumli tuproqlarni o'zlashtirishda almashlab ekishning va organik o'g'itlar qo'llash, struktura hosil qiluvchi polimerlardan foydalanishning muhim ahamiyati bor. Ayrim qumli uchastkalarda, qum ermon (shuvoq), qumqiyoq kabi o'simliklar ekilib; unda yaylov sifatida foydalilanadi. Bu o'simliklar yetarli darajada rivojlansa, ulardan qimmatbaho yem-xashak tayyorlanadi. Bunda ham ma'lum tartibotga, ya'ni yaylovdan foydalanish tartibiga rioya qilish zarur. Ushbu hududlarda shamol eroziyasiga qarshi tadbirlar qo'llash maqsadga muvofiqdir.

## GIPSLI TUPROQLAR VA ULARNING MELIORATSIYASI

Sho'rangan tuproqlar ichida tarkibida gips –  $\text{CaCO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  mavjud bo'lgan tuproqlar alohida o'rinn tutadi. Tuproq profili bo'yicha gipsning to'planishi va uning miqdori qishloq xo'jalik o'simliklarning yetishtirishda va tuproqni sug'orishda bu omilni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Qo'riq va lalmikor yerlarni o'zlashtirishda va qishloq xo'jaligida foydalanishda ko'pgina maydonlarni egallagan gipsli tuproqlar qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bu qiyinchiliklar avvalo gipsli tuproqlarning unumдорлик darajasining pastligi, sho'ranganligi, gumus va ozuqa elementlari zaxiralarining kamligi, agrofizikaviy xossalaring noqulay – yomonligi, biologik faolliginining pastligi bilan belgilanadi va uning yana bir salbiy jihatni allyuvial va lyosli

tekisliklar tuproqlari uchun ishlab chiqilgan va qo'llanib kelinayotgan sug'orish uslublari, ushbu tuproqlar uchun yaroqsizligidir.

Ishlab chiqarish qobiliyati jihatidan gipsli tuproqlarning sifati yuqori emas, shu bilan birga ular qiyin sho'rsizlanadi. Ushbu tuproqlarning qoniqarsiz fizik xususiyati, gipsning miqdori, turi va uning joylashgan chuqurligi bilan bog'liq bo'lган bo'lib tuproqning unumdorligini anchagina pasaytiradi. Agar 60 sm gacha chuqurlikda gips bo'lib, uning miqdori 30–40% dan ko'p bo'isa, bunday tuproqlar ko'pgina o'simliklar uchun sug'orishga yaroqli emas.

Gipsli tuproqlar-o'zining tuproqda to'planish sharoitlari, gips manbalari, hamda tuproq hosil bo'lishning zonal xususiyatlariga bog'liq holda genetik xilma-xildir. Bunday tuproqlarning xossalari dagi farqlari, gips miqdori va shakllari, gips qatlamining joylashish chuqurligi va qalinligi orqali namoyon bo'ladi. Bu ko'rsatkichlar agromeliorativ va agro ishlab chiqarish ahamiyatini kashf etadi. Chunki u gipsli tuproqlarning lalmikor yoki sug'orma dehqonchilikka yaroqligini baholaydi va ekin turlarini aniqlaydi.

Shunday kilib, gipsli tuproqlar qatoriga profilda genetik gipsli gorizonti bo'lган va gips miqdori 10% dan ortiq bo'lган tuproqlarni qo'shish mumkin. Gips gorizonti uning paydo bo'lishi sharoitlari va miqdorlariga bog'liq holda turli ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Qum va chang o'Ichamidagi ko'proq qiyin aniqlanadigan gips to'plamlari undagi aralashmalarga bog'liq holda turlicha ranga: oq, och jigarrang, pushti, kul rang, qora, bo'z va boshqa bo'lishi mumkin.

Gipsli tuproqlar arid mintaqasining turli tuproq geografik sharoitlarida uchraydi. Gipsli tuproqlarning meliorativ sifatlarini baholash geomorfologik va gidrogeologik sharoitlariga bog'liq bo'lган. Hozirgi tuproq hosil bo'lish yo'nalishlarini to'g'ri tahlil qilish katta axamiyatga ega va bu belgilariga ko'ra gipsli tuproqlar 2 gruppaga bo'linadi: akkumulyativ va eluvial-akkumulyativ.

Akkumulyativ gipsli tuproqlar hozirgi zamон melkozem va suvda eruvchi tuzlar to'planish oblastlarida tarqalgan. Bu tuproqlar hozirgi akkumulyativ ko'hna allyuvial va tekisliklarda va tog'oldi

teksliklarining eng past qismlarida hosil bo‘ladi. Akkumulyativ gipsli tuproqlarga sho‘rxok soz, o‘tloqi botqoq, bo‘z o‘tloqi tuproqlar va sho‘rxoklar, ya’ni doimiy yuqori namlikda bo‘lgan tuproqlar kiradi. Bu gruppaga yana qumli cho‘llar ichidagi past qatlamlilik tuproqlari, hamda cho‘l va yarim cho‘l mintaqalari qadimiy vohalaridagi sho‘rxoklar kiradi. Barcha bo‘z tuproqlar grunt, qisman yer usti suvlaridan uzoq va hozirgi tuz to‘planish tartibotlarida rivojlanadi. Tuz va gips ko‘p hollarda tuproq yuzasida melkozem to‘planish bilan bir vaqtida sodir bo‘ladi.

Eluvial – akkumulyativ tuproqlar hozirgi denudatsion viloyatlarga mansub bo‘lib mahalliy eroziya bazasiga nisbatan ko‘tarilgan hududlarni egallaydi. Bu guruuh tuproqlar akkumulyativ guruhlarga qaraganda keng tarqalgan va ular gipsli birikmalarning kelib chiqishi va shakllariga ko‘ra bir xil emas. Ularni bir guruuhga shunday bir o‘ziga hoslik birlashtiradi, ya’ni hozirgi davr sharoitida ular eroziya bazasiga nisbatan ko‘tarilgan maydonlarda rivojlanib gravitatsion kuchlar ta’sirida eritma va zarrachalarning chiqib ketishiga ko‘mak beradi.

Grunt suvlarining chuqur joylashishi oqibatida tuproqning katta mikyosida qurishi yuqoriga gorizontlarda eroziya va deflyatsiya ga imkon yaratib beradi. Bu tuproqlarning ustki qismi mikrorelef bo‘yicha hamma vaqt murakkab va u kancha ko‘hna bo‘lsa, shunchalik ko‘p yemirilsa, profil oralig‘ida juda tez-tez turli rivojlanish sharoitlaridagi tuproq va grunt gorizontlari kuzatiladi. Tuproq profilari dagi gorizoitlarning kelib chiqishi va tarkibiga ko‘ra geterogenligi gipsli tuproqlar qoplamlarining xarakterli belgilari hisoblanadi. Bu guruuhga lyossimon va toshli-qumoq yotqiziqlardan hosil bo‘lgan gipsli bo‘z tuproqlar va tosh-shag‘al-qumoq prolyuvial, qum toshlar ohakli yotqiziqlarda hosil bo‘lgan sur – qo‘ng‘ir gipsli tuproqlar kiradi.

Gipsli tuproqlarning akkumulyativ va eluvial-akkumulyativ guruhlarga ajratilishi nafaqat genetik, balki meliorativ ahamiyatga ham ega. Ular sug‘orish ta’sirida turlicha o‘zgaradilar. Barcha eluvial-akkumulyativ tuproqlar erozion va suffozion xavfli, ularning ustki qatlamlari va gorizontlari deformatsiyaga uchragan.

Akkumulyativ tuproqlarda suffozion jarayonlar odatda uchramaydi, lekin tuproqlarni sug'orishda zovurlar atrofida lokal suffozion voronkalar sodir bo'lishi mumkin. Akkumulyativ tuproqlarda asosiy muammolardan biri sho'rланishga qarshi kurash va ularning fizikaviy xossalarini yaxshilash hisoblanadi.

Gipsli tuproqlarning turli genetika tiplari unumdorligi va meliorativ sifatlari bilan gips gorizontlarining joylashish chuqurligi va qalinligi hamda gips miqdori va shakllarga bog'liq holda bir-biridan farqlanadi.

Tuproq xaritalarida respublikamizda gipslashgan tuproqlar va gipsning joylashgan chuqurligiga qarab tuproq ayirmalari ajratiladi. Chuqurlik bo'yicha gipsning yuqori chegarasidan boshlab, uning joylashish chuqurligi – 30 sm gacha – yuza gipslashgan; 30 sm dan 50 sm gacha sayoz gipslashgan; 50 sm dan 100 sm gacha chuqur gipslashgan; 100 sm dan 200 sm gacha juda chuqur gipslashgan, tuproqlar guruhiга ajratiladi. Gips miqdoriga ko'ra 10% gacha gipslashmagan; 10% dan 20% gacha kuchsiz gipslashgan; 20 % dan 40; gacha o'rtacha gipslashgan; 40% dan yuqorisi kuchli gipslashgan tuproqlarga ajratiladi (Tuproq xaritalari va yerlarni baholash hujjalardan foydalanish», T. 2000).

79-jadval

**Gipsli qatlamning yuqori chegarasini joylashish chuqurligiga ko'ra guruhlarga bo'linishi (Minashina va Yegorov ma'lumotlari).**

No	Guruhlari	Gipsli gorizontning yuqori chegarasi chuqurligi, sm.
1	Ustki gipslashgan	<30
2	Yuza gipslashgan	30–60
3	Chuqur gipslashgan	60–100
4	Chuqurroq gipslashgan	100–200
5	Grunti-gipslashgan	>200

Gips qatlamining qalinligiga ko'ra 3 gradatsiyaga bo'linadi (N.Minashina):

- Kam qalinlikdagi-gipsli qatlam, 40 sm dan kam.

- O'rtacha qalinlikdagi-gipsli qatlam, 40–100 sm.

- Qalin-gipsli qatlam, 100 sm dan ko'proq.

Gipslashganlik darajasiga ko'ra quydagи tuproqlarga bo'linadi:

- Kuchsiz, gips miqdori <25%

- O'rtacha, gips miqdori 25–50%.

- Kuchli, gips miqdori >50%

Gipsning shakllariga ko'ra quydagи guruhlarga bo'linadi.

- Gajali-gips mayda unsimon, kristallarining o'lchami 0.1 mm dan kichik.

- Mayda donador-gips kristallarining o'lchash 0.1–1.0 mm.

- O'rta donador-gips kristallarining o'lchami 1.0 dan 10 mm ga-cha.

- Yirik donadorli zich gipslashgan 10–100 mm.

- Yirik bo'lakli 100 sm ko'p.

Tuproqlarda bir gorizontda ham har xil gorizontlarda gipsning turli shakllari bo'lishi mumkin. Bu holatda 70% dan ortiq bo'lган kristal shakllarini hisobga olib nom beriladi.

Gipsli qatlamning tuzilishiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

- Quriq holatda zich, lekin suvga to'yinganda donador masalarigabo'linib ketadi.

- Sementlashgan suvga to'yinganda ham ho'llanmaydi va o'zining monolitligini va tuzilishini saqlab qoladi.

- Yumshoq donador gorizont mexanik buzilganda (haydal-ganda) quriqholatda yengil bo'laklarga bo'linib ketadi.

- Tayoqchasimon prizmatik o'rtacha va yirik kristalli gipslar bo'sh bir-biriga chirmashgan ko'rinishdagi kristallar bo'lib yirik bo'shliqlar orasida tuproq namlanganda o'z tuzilishini saqlab qoladi.

Gipsli tuproqlarda qishloq xo'jalik ekinlarini holatini kuzatish gipsli gorizontlarning kam unum dorliligini, o'simliklarini suv-ozuqa tartibotlarini kerakli oraliqda ushlab turishga qodir emasligini bir so'z bilan isbotlaydi. Past unum dorlik sabablari turlichay. Gips tuproq eritmasida o'rtacha eriydigan tuz bo'lib, kalsiy sulfat tuzi kontsetratsiyasini 1.5–2.5 g/l atrofida tashkil etadi. Bu o'z-o'zidan

o'simliklar suv bilan ta'minlash tartibotiga ta'sir ko'rsatmaydi (agar eritmani boshqa tuzlar bo'lmasa) biroq osmotik bosimning oshishi natijasida o'simliklar o'zlashtira olmaydigan namlikning yuqorigi chegarasini oshiradi. Eritmada boshqa tuzlar, ayniqsa xloridlar va nitratlar mavjud bo'lsa, gipsning eruvchanligi ortadi, oqibatda tuproq eritmasi osmotik bosimini ortishga va o'simliklar o'zlashtira oladigan nam zaxirasini kamayib ketishga olib keladi. Bu omil qishloq xo'jalik ekinlariga mineral o'g'itlar qo'llashda ham o'z ta'sirini ko'rsatadi, ya'ni tuproq eritmasi osmotik bosimi ni oshiradi.

Bu o'rinda shuni anglamoq kerakki, ya'ni gipsli tuproqlar alohida, o'ziga xos sug'orish tartibotini, alohida suv normalarini va o'g'itlar turini talab qiladi. Bu tuproqlarning sug'orishdan oldingi namligi odatdag'i (gipslashmagan) tuproqlarnikiga qaraganda yuqori bo'lishini esdan chiqarmaslik kerak.

Gips o'simliklarining oziqlanish tartibotiga ham ta'sir ko'rsatib, fosfat ionining kalsiyli fosfat ko'rinishida bog'laydi, shu bilan birga fosfatlarni o'simliklar uchun qiyin o'zlashtiriladigan shakliga o'tkazadi. Kalsiyning eritmadagi yuqori miqdori, shuningdek kaliyни kalsiyga bo'lgan nisbatini (K:Ca) kamayishiga olib keladi, magniyga kambag'al tuproqlarda esa magniyning kalsiyga bo'lgan nisbati (Mg:Ca) kamayadi, tuproqdagi temir birikmalarining eruvchanligi qisqaradi, natijada oziq elementlarining balansi buziladi. Shuning uchun gipsli tuproqlar azot, fosfor va kaliyli o'g'itlarning yuqori normallariga va o'simliklar xloroziga qarshi vositalar qo'llashga muhtojdirlar. Gipsli tuproqlar organik o'g'itlarga talabchan. Hattoki mineral o'g'itlarning yuqori normalari o'simliklarni ozuqa moddalari bilan ta'minlash muammosini hal qilmaydi. Lekin mineral va mikro o'g'itlarni go'ng bilan birga qo'llash har doim ijobiy natijalar beradi. Ekinlar hosili bunda talaygina ortadi.

Gipsli sho'rxoklarni qo'llanadigan tadbirlar majmuasida melioratsiyalashda tuproqni organik moddalari bilan boyitish benixoyat ahamiyatli. Kultivatsiyalash va aralash o'tlarni haydash tuproqni butun biologik faoliyatini faollashtiradi. Unda gumus, azot, yalpi

organik massalar, mikrojonzotlar to‘planishini ko‘paytiradi. Oxir oqibatda tuproqning unumdorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Gipsli tuproqlar uchun qishloq xo‘jalik ekinlari yetishtirishni tanlashda o‘simliklarni kalsiyga munosabatini hisobga olish kerak.

Sho‘rlanmagan unsimon shakldagi gipsli tuproqlarda gipsli qatlam tuproq yuzasidan 30 sm dan chuqurroqda joylashgan taqdirda uzum qatorlari, beda, makkajo‘xori, oq jo‘xori yetishtirish ijobiy, bug‘doy esa qoniqarli darajalar beradi.

Tuproq yuzasida joylashgan gajali va mayda donador kuchsiz gipsli tuproqlarda ham qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirish mumkin, lekin ular bir muncha jabirlangan poyalari qisqa va sinuvchan ko‘rinadi. G‘o‘zani gipsli gajali tuproqlarda gips qatlami 40 sm dan chuqurroq joylashganda yetishtirilishi mumkin.

Tayoqchasimon prizmatik shakldagi gips kristalli gipsli tuproqlarda, agar ular 60 sm dan yuqorida joylashgan bo‘lsa, paxta uchun yaroqsiz hisoblanadi. Mayda va o‘rta donador yuza gipslashgan tuproqlarda sholi yetishtirish shunga olib keldiki, qaysiki tuproqlar uzoq muddat suv bilan to‘yinganda oltingugurt birikmalari bilan to‘yinishi tufayli qoramitir rang tusini oladi. Oltingugurt vodorod ( $H_2S$ ) hidi seziladi va qoniqarli natija olinmaydi.

Umumiyligida qilib aytganda gipsli tuproqlar jadal sug‘orishni talab etmaydigan qurg‘oqchilikka chidamli ekinlar uchun ko‘proq yaroqli deb hisoblash mumkin. Namni sezuvchi ekinlar sug‘orishning jadal tartibotida tuproq namining ortishi bois gipsli tuproqlarda qaytarish reaksiyasi va oltingugurt vodorod gazi hosil bo‘lishi uchun sharoit yaratiladi.

Gipsli tuproqlar gips ustki qatlamlarining nam qarab kichik hajmda tez-tez beriladigan suv me’yorlarini talab etadi.

Shu bois gipsli tuproqlar uchun suvni avtomatlashtirilgan mashinalar yordamida berish usullari qo‘llanilishi kerak va uning tuproq yuzasida bir tekisda taqsimlanishini ta‘minlash kerak. Shular bilan bir qatorda kichik normalarda tez-tez sug‘orishni ta‘minlashga qodir bo‘lgan yomg‘ir usuli va tomchilatib sug‘orishni yo‘liga qo‘yish zarur.

Irrigatsion-avtomorf va irrigatsion yarim gidromorf tartibotlarida o‘z oqimi bilan sug‘orish usullari gajalidara jali turli tuproqlardan boshqa barcha gipsli tuproqlar uchun yaroqsiz hisoblanadi yoki sug‘orish ariqlari uzunligini 50 m va undan kamroqqacha qisqartirishni va barcha suv oquvchi tarmoqlarni to o‘q ariqlargacha suvni filtratsiyalanishini oldini oluvchi qoplamlar bilan ta‘minlashni talab etadi.

Gravitatsion usulda sug‘orishda karstli va suffozion voronkalar paydo bo‘ladi. Tuproq ustining buzilishi, deformatsiyasi kuzatildi. Bu o‘z vaqtida tez-tez tekislak turishni talab qiladi va sug‘orish suvlarining katta miqdorda gruntlarga sizib ketishi ta‘minlanadi.

Gipsli tuproqlarni sug‘oriladigan dehqonchilikda o‘zlashtirish tadbirlari gips usti tuproq qatlaming qalinligini ko‘paytirishiga va saqlab qolinishiga javob berishi kerak. Gips usti qatlaming qalinligi 30 sm dan kam bo‘lgan tuproq tekislash ishlari maqsadga muvofiq emas, negaki ochilib qolgan gipsli qatlamda, dog‘lar tushib qolishi mumkin. Tayoqchasimon prizmaning shakllari yirik va o‘rtalik donador gipsli yuza joylashgan o‘rtalik va kuchli gipslashgan tuproqlarda, Shuningdek kuchli gipslashgan gajali tuproqlarda gips usti qatlami qalinligi 30 sm dan kam bo‘lgan taqdirda ulardan sug‘oriladigan yaylovlarning sifatida foydalanish mumkin. Kuchsiz darajada gipslashgan yuza gipsli tuproqlar gipsning har qanday formalarda ham organik va mineral o‘g‘itlarning yuqori normalari ko‘llanganda beda oq jo‘xori, o‘t o‘simliklari hamda don ekinlari uchun gips qatlami 30–60 sm chuqurroq bo‘lgan hollarda yopiq sug‘orish tizimlari mavjud bo‘lib, yomg‘ir usulda sug‘orilganda don, sabzavot, beda, o‘to‘simliklari, makkajo‘xori va boshqa ekinlar uchun yaroqli.

Gipsning unsimon shakldagi qatlamini joylashish chuqurligining yuqorigi chegarasi 30–60 sm bo‘lgan gipsli tuproqlar kuchli va boshqa hamma darajada gipslashgan tayoqchasimon o‘rtalik va yirik kristall gips shaklidagi tuproqlar-toklar transheyali tizimda ekilsa boshqa bog‘ ekinlari (o‘rik, olma, shaftoli,) uchun yaroqli.

Gipsli qatlamni joylashish chuqurligining yuqorigi chegarasi 60–100 sm oralig‘ida bo‘lgan chuqur gipslashgan tuproqlar gipslash-

ganlikning barcha darajalarida sug'orishning alohida tartibot va texnikalari (quyidagi sug'orish tarmoqlari, yomg'irlatib sug'orish, tomchilatib sug'orish usullari yoki juda qisqa) qo'llanilganda barcha ekinlar uchun deyarli yarokli. Chuqurligi 100 sm dan ortiq bo'lganda tuproqlar odatdagи sug'orish tartibotida, lekin karstli va suffozion jarayonlarga qarshi qaratilgan tadbirlar saqlanganda chegaralanmagan miqdorda barcha ekinlar uchun yaroqli.

## TUPROQ QATQALOG'I VA UNGA QARSHI KURASH

Tuproq strukturasi buzilganda tuproq yuzasi tez-tez qurib yoriqlar bilan plitalarga yoki harsanglarga bo'lingan mustahkam qatkaloqlar hosil qiladi. Tuproq qatqalog'i o'simliklarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Urug'ning unib chiqishida yosh nihollar ko'p holatlarda tuproq qatqalog'idan o'tolmay nobud bo'ladilar. O'simlik poya va ildizlarini siqib qatqaloq ularning o'sishiga to'sqinlik qiladi. Yoriqlar hosil bo'lishida ildizlarning uzilishi sodir bo'lib, o'simliklarga zararli ta'sir ko'rsatadi. Qatqaloq tuproqning suv va havo tartibotini buzadi, suv tuproqqa yomon singadi va yaxlit o'tgan kapillyarlar orqali juda tez bug'lanadi. Tuproq va atmosfera o'rtasidagi havo almashinishi qatqaloq bo'lganda juda sekin kechadi.

Katqaloq paydo bo'lishi sabablari turli xil tuproqlarda bir hil emas. Janubiy qurg'oqchil hudud tuproqiarida qatqaloq singdiruvchi kompleksda natriy mavjudligi sababli yuzaga keladi. Suv ta'siridan kolloidlar dispers holatga o'tadi, tuproqlar qovushib yopishqoq bo'lib qoladi, bo'kadi va suvni o'tkazmaydi. Qurish natijasida zarrachalar mustahkam qovushadi, tuproq hajmi massasi kamayadi. Ular qotib yoriqlar paydo bo'ladi.

Qatqaloq tuproqqa ishqoriy suvlar bilan ta'sir etib ham paydo bo'ladi. Bu holatlarni cho'l zonasida tuproq yuzasini yomg'ir suvlar, toshqin va sel oqimlari bilan qoplanguanda kuzatish mumkin. Dispergen massalar quriganda tuproq yuzasida yoriqsimon qatqaloqlar hosil bo'ladi.

Sho'rtob bo'Imagan tuproqlarda qatkaloq tuproq strukturasi ning buzilishidan paydo bo'ladi. Strukturasizlangan changsimon suv bilan namlangan tuproq massasi yopishqoqlanib u qurigach qattiq qatqaloqqa aylanadi. Qatqaloqdagi tuproq zarrachalarining

sementlashishida karbonatlar muhim rol o'ynaydi. Misol uchun kalsiy bikarbonat ( $\text{Ca}(\text{NSO}_3)_2$ ) tuproqning qurish jarayonida kalsiy karbonat ( $\text{Ca SO}_3$ ) shakliga o'tadi va tuproq zarrachalarini bir-biri bilan sementlab qatqaloq hosil qiladi. Sug'oriladigan maydonlarda qatqaloq sug'orish suvi ta'sirida makro va mikroagregatlarning buzilishidan hosil bo'ladi. Bu parchalanish va tuproq zarrachalarini yopishtirib turgan moddalarning suvni mexanik ta'siridan gidratatsiya va erishi natijasida sodir bo'ladi.

Qatqaloqqa qarshi asosiy kurash tadbirlari; ko'p yillik o'tlar ekish va tuproqga organik o'g'itlar solish yo'li bilan strukturasini yaxshilash hamda sun'iy struktura hosil qiluvchi moddalari solishdan va sho'rtob tuproqlarni gipslashdan iborat.

## **TOSHLOQ TUPROQLAR VA ULARNI MELIORATSIYASI**

Melioratsiyaga muhtoj tuproqlar ichida hoh u o'zlashtirish davrida, hoh qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan bo'lmasin toshloq tuproqlar alohida o'rinn egallaydi.

Ayrim, to'la rivojlanmagan tuproqlarning unumдорligiga o'z tarkibida Imm dan yirik mexanik elementlarni mujassam etgan tuproq-skeletlari (toshloqligi) yetarlicha ta'sir ko'rsatadi.

Kachinskiy klassifikatsiyasiga ko'ra kattaligi 1–3 mm bo'lган shag'al va 3 mm dan katta bo'lган mexanik elementlari toshlariga ajratiladi. Tuproq skeleti (har xil tosh-shag'al) o'zlarining kelib chiqishlariga ko'ra turlicha: ohakli, mergelli, granitli, slanetsli, kvartsli bo'lishlari mumkin. Tuproqda ko'p miqdordagi skelet materiallarining bo'lishi, uning fizik xossalarni yomonlashishiga, namlikning keskin kamayishiga va tuproqning oziq moddalari bilan ta'minlashishining kamayishiga, tuproqqa mexanik ishlov berishda ishlov beruvchi qurollarning ko'proq yemirilishi tufayli, surf-xarajatlarning ortishiga olib keladi.

Qirrali shag'al miqdoriga qarab tuproqlar quyidagi guruhgaga bo'linadilar:

- mayda zarrachali skelet miqdori 10% dan kam,
- kam chag'ir mayda tosh 10–30%,

- o'rtacha chag'ir mayda tosh 30–50%,
- kuchli xryashli-50% dan ortiq.

Toshloqlik bo'yicha N.A.Kachinskiy tomonidan quyidagi klasifikasiya tavsiya qilingan:

- toshloq bo'lмаган-toshlar miqdori 0.5% dan kam,
- oz toshloqli – 0.5–5.0% ,
- o'rtacha toshloqli – 5–10%,
- kuchli toshloqli – 10% dan ortiq.

Tuproq skeleti qismining xarakteriga qarab toshloqlik tiplari belgilanadi:

- valunli,
- toshli,
- shag'alli.

Tuproq skeleti miqdorining ortishi ko'pgina ekinlarni hosilini kamayishiga olib keladi. Ayrim o'simliklarda, masalan, toklarda bu jarayon juda kam seziladi.

O'zbekistonda toshlok tuproqlar konus yoyilmalarining yuqorigi qismi daryo va uning irmoqlarining quyi terrasalarida uchraydi. Bulardan tashqari tuproqlarning bir qismi irrigatsion va fuqaro qurilishlari natijasida toshlar bilan ifloslangan. Daryo konus yoyilmalarida taraqqiy etgan tuproqlar ko'proq xo'jalik ahamiyatiga ega.

O'zining ko'rinish shakllariga ko'ra toshloq tuproqlar konturlari konus yoyilmalarining bosh qismidan cho'zinchok ko'rinishdagi polosa (yo'lka) larni eslatadi. Bu polosalar o'z navbatida qator tilchalarga bo'linib, bu tilchalar ham bir joydan tarqalgan bo'lishi mumkin. Toshloq tuproqlar konturlari shakllarining bunday xarakteri, ularning toshli materiallarini sel oqimlari bilan olib kelin-ganligidan dalolat beradi. Sel oqimlarining yo'nalishi, kuchi va harakati davriyiliги har doim bir xil bo'lмаганligi bois tuproqlarning toshloqlik darajasi hamda toshli gorizontlarni tuproq profilida joylashishi turli xil ko'rinishga ega bo'ladi. Odatda yuqori toshloqlik darajasi konus yoyilmalarining yuqori qismida kamroq darajasi esa relefning pastki qismida kuzatiladi. Ayrim hollarda bunday qonuniyatlardan chekinish hollari ham sodir bo'ladi. Tuproqning bir xil ayirmalarida toshloqlik ularning faqat yuqorigi gorizontlari uchun xos bo'lsa, boshqa ayirmalarida tosh materiallari tuproq profilining o'rta qismiga tegishli bo'ladi. Yana

ayrim holatlarda toshloqlik tuproqning pastki tuproq hosil qiluvchi jinslarda to'shalgan bo'lib, ustki qatlamlar mayda zarrachali tuproqlardan iborat bo'ladi. Va nihoyat tuproqning Shunday ayirmalari borki, unda butun tuproq profili toshlardan iborat (I.Aliyev. 1969; 73-jadval).

Ayrim tuproqlardagi toshli materiallar fraktsion tarkibining og'irlik va hajmiy aniqlanishlari ularning katta-kichikligi bir necha millimetrdan bir metr va undan ortiq bo'lishini ko'rsatadi.

Tuproqning ko'pchilik ayirmalari uchun turli o'lchamdag'i zarrachalarning bo'lishida muayyan bir qonuniyatlar xarakterlidir. Toshloqligi kam darajadagi tuproqlarda (bundan toshlar bilan ifloslangan tuproqlar mustasno) yirik tosh fraktsiyalar uchramaydi, ya'ni ularning toshloqligi skeleti fraktsiyalardan tashkil topgan. Toshloqlik darajasi yuqori tuproqlarda kam toshloqlangan tuproqlarda uchraydigan fraktsiyalar miqdori ortadi, bunda ko'pchilikni eng yirik o'lchamlardagi emas, balki o'rtacha o'lchamlardagilar tashkil etadi.

82-jadval

### Skeletli tuproqlarning unumдорлигиги

Skelet bo'yicha tuproq guruhlari	Skelet miqdori, %	Unumдорлик, %		
		G'alla (don)	Bog'lar	Uzumzor
Toshsiz tuproqlar	<10	100	100	100
Kuchsiz chag'ir mayda toshli	10–30	100–90	100	100
O'rtacha chag'ir mayda toshli	30–50	90–70	100–70	100
Kuchli chag'ir mayda toshli	50	70–50	70–50	100–70
Chagir mayda toshli- kirlali chag'ir toshli	10–30	90–70	100	100
Qirrali chag'ir toshli	30–50	70–50	70–60	100–70
Qirrali chag'ir toshli	50–70	50–30	50–30	70–50
Toshloq	70–90	0–30	0–30	20–50
Skeletli	>90	0	0	20

Tekislangan yerlarda, ayniqsa chetki qismlari tekislangan tuproqlarda tosh materiallarini fraktsion tarkibi bir muncha boshqacharoq – bu sharoitda eng yirik tosh fraktsiyalari ko'pchi-

likni tashkil etadi. Tosh materiallarning tahminan Shunday miqdorlari yirik valunli birikmalarda ham uchraydi. Bir xil darajada toshloqlangan tuproqlarda tosh materiallarining granulometrik tarkibi deyarli bir xil.

Tuproq profilida toshloq gorizontlarning turlicha joylashishi, toshloqlilik darjasini, toshloq tuproqlardagi skelet-toshloq materiallarni granulometrik va petrografik tarkibi, ular ayirmalarining har xilligidan guvohlik beradi. Xuddi Shunday tuproq ayirmalari yuqori qatlamlarda 15–20 sm li tosh bo‘laklarini ushlagan taqdirda qishloq xo‘jalik mashinalari bilan ishlov berishga imkoniyat bermaydi.

Toshloq tuproqlarning melioratsiyasi quyidagi yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin: toshlarni terib tashlash va kolmatajlash. Meliorativ ishlar hajmi bu tuproqlarni haydalma yaroqli qilishga intilishga karatilgan bo‘lishi kerak. Melioratsiya qilingan tuproqlarning haydalma qatlamlarida 15–20 sm li toshlar yo‘qotilganda maqsadga erishildi deb hisoblash mumkin. Bunday tuproqlarni keyinchalik yaxshilanib borishi qishloq xo‘jaligida foydalanish jarayonlarida amalga oshiriladi.

I.Aliyev (1969) toshloq tuproqlarni rang-barangligiga qarab 4 ta melliorativ guruhga ajratadi:

- Yirik-valunli dalalar. Yuqori gorizontlarning toshloqligi 70% dan ortiqroqni, shu jumladan 50 sm dan yirik xarsanglar 45–50% nitashkil etadi.

- Xarsang-galechnikli yerlar – toshloqlik 70% gacha boradi, 15% atrofida 10–30 sm razmerdagi valunlar va kam holatlarda yirikbo‘laklardan tashkil topgan.

- Mayda chag‘ir toshli yerlar. Toshloklik 25–50 foizni tashkil etadi. Toshloqlikning yuqori darajasida volunlar uchraydi.

- Toshli-mayda chag‘ir toshlar bilan.

To‘rtinchi kategoriyadagi yerlarda toshloq haydalma osti qatlamni bo‘lмаган hollarda toshlarni kamaytirishga qaratilgan ishlar ni o‘tkazmasdan ularni tekislash va haydash mumkin. Mayda chag‘ir-toshli dalalar, – 3-kategoriyali yerlar yirik toshlar va mayda valunlardan tozalashni talab etadi.

2-kategoriyadagi yerlar ham toshlardan albatta tozalashni talab etadi.

1-kategoriyadagi yerlar iqtisodiy nuqtai nazardan o'zlashtirishga yaroqsiz hisoblanadi.

Tuproq profilining o'rta va pastki qismidagi toshloq tuproq ayirmalarini mumkin qadar tekislamaslik lozim, chunki toshloq qatlamlarning tuproqli qatlamlar bilan aralashib ketishi oqibatida ular unumdorligini yo'qotish mumkin. Bunday yerlardan yomg'irlatib sug'orishda foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tuproqda tosh (shag'al, chag'ir tosh va boshqalar) aralashganligi haydov qatlamida bo'lsa, tuproqga ishlov berish qiyinlashadi. Yuqorida qayd etilganidek bu tuproqlarning suv o'tkazuvchanligi kuchli, nam sig'imi past, gumus va ozuqa elementlar bilan kam ta'minlangan bo'ladi. Toshli yerlarda yosh niholning unib chiqishi qiyin bo'ladi va toshlarga tegib turgan niholni kuydirishi mumkin. Bunday tuproqlarda suv tartibotini yaxshi ushlab turishi uchun gidromodul rayonlashtirish tartibotini hisobga olib, tez-tez sug'orib turish kerak bo'ladi. Bunday yerlardan yomg'irlatib yoki tomchilatib sug'orishda foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

83-jadval

### Tuproqlarning toshloqligiga ko'ra qishloq xo'jalik ekinlariga beriladigan azot hisoblab chiqish koefitsienti

Ko'rsatgich	Koeffitsent
Toshloqli qatlam chuqurligi, sm.	
0–30	1,40
30–50	1,30
50–100	1,20
100–200	1,00
Skelet miqdori, %	
0–30	1,40
30–50	1,30
50–100	1,20
100–200	1,00

Mineral va organik o'g'itlarning solinadigan miqdori 15–25 % ko'p bo'lishi kerak. Bunday tuproqlarga ishlov berishda mashinalar mexanizmiga va detallariga qarshilik ko'p bo'lib, yoqilgi va moylash mahsulotlari ko'p sarflanadi. Shuning uchun bu xarajatlarni oldindan hisobga olish zarur.

**Toshloq tuproqlarni guruhlarga ajratish (toshloqlik darajasi****bo'yicha, 0-1m qatlamlagi tuproq ayimnalari), I. Aliyev og'irlik, %, hajm, %**

Kuchsiz toshloqli 25:20	Ortacha toshloqli 25-50:20-40	Kuchli toshloqli 50-75:40-60	Juda kuchli toshloqli 75:60
<b>I-guruh. Toshli guruntlar yotqiziqlardagi tuproqlar</b>			

Tuproq normal profilda. Pastida ayrim lochlari bo'lishi mumkin. Suv o'lkazuvchanlik sezilarli kamayadi. Kapital tekislashda qirqib olinigan qatlarning qaliliga qarab 2-3 va 4 guruhga o'rachva kuchli tuproqlarga o'tadi

**I-guruh. Toshli guruntlar yotqiziqlardagi tuproqlar****2-guruh. Tuproq profilining pastki qismalarida toshloq**

Tuproq normal profilda. Toshloqlik asosan mayda chag'irtosh va qirrali chag'ir lochlari hollarda valunlar. TDNSni kamayishi 5-10%. Yetishsurilgan ekinlarda kuchsiz nim jonlik. Tuproq qatlami kesiganda 3 va 4 guruh o'racha va kuchli toshloq tuproqlariaga aylanadi.	Tuproqlar deyarli normal profililik. Toshloqlik toshli valunli qirrali chag'irtoshli. Xarsanglar aralash TDNSni kamayishi 10-15%. O/x ekinlari kam jabrlangan. Tuproq qatlami kesiganda 3 va 4 guruh tuproqlarining kuchli va juda kuchli ayimnalariiga aylanadi.
---	---

### 3-guruh. Tuproq profiliining o'rtacha va yuqoriqi qismalarida toshloq

Profilda tuproqlar noaniq tabaqalashgan. Tosh-loqlik mayda chag'ir toshli, qirrali chag'ir toshli, ayrim hollarda valunli. TDNSning kamayishi 10%. O/x ekinlari kam zararlangan. Yuqori qatlamlarni kesilganda 3 guruh tuproqlarining kuchli va juda kuchli toshloqli ayirmalariga aylanadi.	Profilning o'rta va pastiki tuproqlar noaniq tabaqalashgan. Toshloqlik mayda chag'ir toshli valunli xarsanglar aralashsa. TDNSning kamayishi 20–30%. Q/x ekinlari o'rtacha jabriangan. Yuqori qatlamlar qirqligandi 3 guruh tuproqlarining kuchsiz, o'rtacha va tez-tez juda kuchli toshloqli ayirmalariga aylanadi.

### 4-guruh. Butun profil bo'yicha tuproqlar toshloq

Profilda tuproqlar noaniq tabaqalashgan. Toshloqlik mayda chag'ir toshli, qirrali chag'ir toshli yoki ayrim valunlar. Toshli bo'laklar melkozenida osuzib yuradi». TDPSning kamayishi 10%. Q/x ekinlari kam zararlangan. Tekis-lashda 4 guruhnинг kuchli toshloq toshloqli ayirmalariga aylanadi.	Tuproqlar profil bo'yah yomon tabaqalashgan. Toshloqlik mayda chag'ir toshli valunli xarsanglar aralashgan. TDNSning kamayishi 10–20%. Tabiy O'simliklar jabrlan-gan. Tekislashda tosh-loq tuproqligicha qo'adi yoki 4 guruh tuproqlarining kuchli toshloq ayirmalariga aylanadi.

Gorizontlardagi tabaqalanshi deyari yo'q. Melkozeni toshlar orasiga joylashtigan bo'llib zonalik belgililarini mijassamlash kiradi. Toshloqlik qirrali mayda chag'ir toshli valunli xarsanglar ara-astagan. TDNSning kamayishi 50% dan ortiq. Tabiy o'simliklar sur rivojlayagan.

Juda yomon tabaqalashgan profilli tuproqlar. Melkozem "inlar" shakilda toshlar orasida joyalash-gan. Toshloqlik mayda qirrali chag'ir toshli valunli xarsanglar aralashgan. TDNSning kamayishi 20–50%. Tabiy o'simlik kuchli jabriangan. Tekislashda kuchli toshloqli-gicha qoldi yoki 4 guruh tuproqlari-ning judakuchli toshloqli ayimlariga aylanadi.

Juda yomon tabaqalashgan profilli tuproqlar. Melkozem "inlar" shakilda toshlar orasida joyalash-gan. Toshloqlik mayda qirrali chag'ir toshli valunli xarsanglar aralashgan. TDNSning kamayishi 20–50%. Tabiy o'simlik kuchli jabriangan. Tekislashda kuchli toshloqli-gicha qoldi yoki 4 guruh tuproqlari-ning judakuchli toshloqli ayimlariga aylanadi.

Respublikamiz sug‘oriladigan yerlarining 162 ming gektardan ortig‘ini toshloq yerlar tashkil qiladi (85-jadval). Toshloq yerlar Andijon viloyatining Buloqboshi va Andijon tumanlarida, Buxoro viloyatining Shofirkon, Qorovulbozor va G‘ijduvon tumanlarida, Jizzax viloyatining Forish tumanida, Navoiy viloyatining Qiziltepa va Nurota tumanlarida, Namangan viloyatining Chust va Pop tumanlarida, Samarqand viloyatining Qo‘schrabot va Bulung‘ur tumanlarida, Surhandaryo viloyatining Boysun, Sarosiyo va Qiziriq tumanlarida, Toshkent viloyatining Bo‘stonliq, Bekobod, QuyiChirchiq, Toshkent, YuqoriChirchiq va Ohangaron tumanlarida, Farg‘ona viloyatining So‘x, Rishton, O‘zbekiston va Quva tumanlarida, Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz, Muborak, Fuzor va Kitob tumanlarida tarqalgan.

*85-jadval*

### Respublikadagi mavjud toshloq yerlar maydoni

Viloyatlar	Toshloq yerlar m. hisobida			
	Jami	Shu jumladan		
		Kam	O‘rtacha	Ko‘p
O‘zbekiston Respublikasi	162045	115120	36696	10229
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	-	-	-	-
Andijon	26436	15789	6407	4240
Buxoro	30432	24032	6400	-
Jizzax	7159	6520	639	-
Navoiy	-	-	-	-
Namangan	42962	30168	9242	3552
Samarqand	16759	15087	1566	106
Sirdaryo	100	100	-	-
Surhandaryo	9478	6725	2662	91
Toshkent	7597	2089	4297	1211
Farg‘ona	20802	145	5463	749
Xorazm	-	-	-	-
Qashqadaryo	320	20	20	280

## **SUG'ORILADIGAN TUPROQLAR UNUMDORLIGINI SAQLASH, QAYTA TIKLASH VA OSHIRISHGA OID TAVSIYALAR**

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligida foydalanilayotgai yerlarmizning meliorativ-ekologik holati talab darajasida bo'limganligi tufayli ularning samarali unumdorligi yuqori emas. Yildan-yilga sug'oriladigan yerlarda sho'rланish, eroziya, deflyatsiya jarayonlarining kuchayishi kuzatilmokda. Buning obyektiv va subyektiv sabablari bor. Lekin hamma joyda ham Shunday deyish xato. Ilmu fanning asosli tavsiyalariga, minglab yillik dehqonchilik tajribalariga tayanib ishlayotgan dehqon, fermer, shirkat xo'jaliklarida tuproq unumdorligi kamaymasdan, balki oshganligi kuzatilmogda.

Shuning uchun qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida yer tuzishni to'g'ri va mukammal tashkil etmoq zarur. Bunda detallashsган tuproq xaritalari, tuproqning kimyoviy, fizikaviy, agropomik xossalari bo'yicha xaritagramma va ilmiy hujjatlar asos bo'ladi. Bu hujjatlar asosida ekiladigan ekinlar nisbati, ularni tanlab olish, joylashtirish, almashlab ekish, eroziyaga va deflyatsiyaga qarshi qo'llaniladigan tadbirlar, melioratsiya va agrotexnik uslublar, o'g'itlarning me'yori va tarkibi, hosilni oshirish istiqbollari belgilanadi. Bu tadbirlarning hammasi tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan bo'lishi hamda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini chiqindisiz, atrof-muhitni ifloslaitirmaydigan ekologik toza texnologiyalarga asoslanishi kerak.

Bundan tashqari qishloq xo'jaligida agrokimyoviy xizmat ko'rsatishni markazlashgan asosda yo'lga qo'yish lozim. Bu tuproqlarning samarali unumdorligini oshirishda va saqlashda juda ham zarurdir. Tuproq sharoitiga va o'simliklar talabiga qarab tabaqalashtirilgan holda mineral, organik va noan'anaviy o'g'itlarni qo'llash, sug'oriladigan va lalmi tuproqlarni ekologik holatini sog'lomlashtirish va unumdorligini oshirishga xizmat qiladi. Rivojlanayotgan jamiyatning bozor iqtisodiyoti islohotlarini amalga oshirishda dehkon, fermer va ijara chilar uchun, ya'ni sug'oriladigan yerlardan uzoq muddatda foydalanuvchilar uchun tuproq-bonitirovka, meliorativ xaritalari va agrokimyoviy xarita-grammala-

rini katta va detal o'lchamlarda har 5 yillikda yangilash maqsadga muvofiqdir. Bu ana shu yerdan foydalanuvchilar faoliyatini, hosildorlik me'yorini va yerlarning holatini doimiy nazorat qilish imkonini yaratishga zamin bo'ladi.

Tuproq unumdorligini saqlash va uni muhozafa qilishda muhim tadbirlardan biri tuproqlarni pasportizatsiya va sertifikatsiya qilishni tashkil etishdir. Bu qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini oshirishga tuproq unumdorligini saqlab qolishga va o'simliklardan ekologik toza mahsulot olishga tuproqlarda kechayotgan salbiy yoki ijobiy jarayonlarni nazorat qilishga xizmat qiladi va yerdan foydalanuvchilar faoliyatini nazorat qilish, zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish imkonini yaratadi.

O'rta arid o'lkalarda, jumladan bizning respublikamizda tuproq unumdorligini belgilovchi omillardan biri sug'orish muammo-sidir. Suvning umumiyligi yetishmasligiga qaramasdan, ko'p joylarda sug'orish normalari juda yuqori. G'o'za qatorlariga bir necha kun davomida ko'p miqdorda suv quyiladi, sug'orish oraligidagi davr uzaytiriladi. Suv juda ko'p sarflanadi va xuddi shu vaqtida o'simlikka namlik yetishmaydi. Bundan tashqari, katta miqdordagi suv tuproq tarkibidagi gumus va ozuqa elementlarining yuvilib ketishi-ga sabab bo'ladi. Shuning uchun sug'orish me'yorlari, davrlari har bir tuproq-iqlim mintaqasida qatiy ravishda tuproqlarning xossa va xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

Hozirgi kunda meliorativ holati yomonlashgan, sho'rlangan yerlar umumiyligi maydoni 2 mln. hektardan oshdi. Buning asosiy sabablaridan biri tuproq sharoitini hisobga olmasdan sug'orish suvlarini katta me'yorda ishlatalishi va kollektor zovur tarmoqlarining talab darajasida emasligidadir. Natijada grung suvlarining sathi ko'tarilmogda va avtomorf tartibotdagi tuproqlar yarim gidromorf va gidromorf tartibotlarga o'tmokda. Sug'oriladigan tuproqlar meliorativ holatining yomonlashishi oqibatida o'rtacha va kuchli sho'rlangan tuproqlarda paxta hosildorligi 40–60 % gacha kamaymoqda.

Sug'oriladigan yerlar unumdorligini oshirish va qishloq xo'jaligi ekinlari-dan yuqori hosil olish uchun quyidagi meliorativ tadbirlarni o'tkazish tavsiya etiladi:

1. Sug'oriladigan maydonlarning deyarli yarmisida kollektor-zovur tarmoqlarini qayta qurish, ya'ii ularning hajmini (uzunligini) gektariga 40–50 pogon metrga yetkazish, qolgan maydonlarda esa kapital ta'mirlash ishlarinn o'tkazish birinchi va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan hisoblanadi.

2. Bular amalgga oshgunga qadar yer osti sizot suvlarining oqimini ta'minlash va ikkilamchi sho'rланishni oldini olish maqsadida xo'jaliklararo va xo'jalik ichidagi zovurlarni har yili 45- 50 % ini sifatli tozalab turish zarur.

3. Hozirda mavjud kollektor-zovur tarmoqlari va tik kuduqlar (skvajinalar)ning texnik nosozligi va ish samarasining (unumining) o'ta pastligi bois vujudga kelgan gidromorf suv tartibotini yarim gidromorf suv tartiboti bilan almashtirish eng maqbul meliorativ tartibot hisoblanadi. Bunda yer osti sizot suvlarini sathini «kritik» chiqurlikdan pastda ushlab turishga qaratilgan barcha tadbirlar majmuasi o'z aksini topishi lozim. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida yarim gidromorf meliorativ tartibotni qo'llanishi sug'oriladigan sho'rangan tuproqlarning qo'lay meliorativ holatda ushlab turilishiga imkon yaratadi.

4. Meliorativ tadbirlar ichida tuproq sho'rini yuvish muhim tadbirlardan hisoblanadi. Bu borada haydalib, yaxshi tekislangan maydonlarda olingan cheklarga suv bostirish yo'li bilan tuproq sho'rini yuvish, bu tadbirni o'tkazishdan oldin barcha mavjud kollektor-zovur tarmoqlarini ishchi holiga keltirish (tozalash), tuproqning sho'ranganlik darajasi, mexanik tarkibi, suv o'tkazuvchanlik xossalarni hisobga olgan holda sho'r yuvish me'yorlarini belgilash muhim ahamiyat kashf etadi. Sho'r yuvish ishlarini Amudaryoning quyi qismi hududlarida (Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati) kuz-qish hamda bahor oylarida (sho'r yuvish suv me'yorlarining 2/3 qismi kuz-qish oylarida, 1/3 qismi bahorda beriladi qolgan viloyatlarda kuz-qish oylarida o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

5. Respublikamizning ko'pgina viloyatlarda keng tarqalgan gipsli tuproqlarning meliorativ holatini yaxshilash va ularning unumdarligini oshirish alohida tadbirlar majmuasini talab etadi.

Bunday og'ir melioratsiyalanuvchi tuproqlarda yarlarni chuqur haydash, organik o'g'itlar solib sho'r yuvish ishlarini sifatli o'tkazish yaxshi samaralar beradi.

Melioratsiyalangan bunday tuproqlarning unumdorligini saqlab qolish uchun almashlab ekish tizimlarini yaxshi yo'lga qo'yish, o'g'itlardan to'g'ri foydalanish, tabaqalashtirilgan ishlov berish va zaruriyat tug'ilganda kimyoviy melioratsiya tadbirlarini o'tkazish yaxshi samara beradi. Shoxli va arzikli o'ta zinch sementlashgan va o'ta unumdorligi past (asosan Farg'ona vodiysida tarqalgan) yuqori qatlamlarida 40–60 % karbonatli minerallar va 20–30 % dan 70 % gacha gips bo'lgan tuproqlar molioratsiyasi asosan shox va arzik usti qatlamlirini chuqur haydash yo'li bilan amalga oshirib borishdan iborat.

Tuproqlarning unumdorligiga shamol va suv eroziyalari katta ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda 2 mln. getktardan oshiqroq yer deflyatsiyaga uchragan.

Mamlakatimizda sug'orish eroziyasiga qarshi olib boriladigan ko'rash choralarini asosan 4 guruhg'a ajratish mumkin:

1. Sug'orish texnikasini mukammallashtirish. Tuproq yuza qismi qiyaligining katta – kichikligiga qarab sug'orish me'yorlarini belgilab berish.

2. Sug'orish eroziyaga qarshi kimyoviy vositalarni qo'llash. Bu maqsadda sintetik polimerlar, polikomplekslar (K-4, K-9, TNM1) va gumin preparatlarini (gidrolizgan lignin, ammoniyalashtirilgan kumir, gumofos, gumin kislotasi) qo'llash zarur. Sintetik polimerlar tuproq yuza qismida sun'iy struktura hosil qiladi. Yaxshi strukturalangan tuproqlarda eroziyaga qarshilik ko'rsata olish qobiliyati yuqori bo'ladi. Har bir sug'orishdan avval juyakka 20 kg/ga miqdorida K-9 polimer solish natijasida eroziyaga uchragan tuproqlarda suvga chidamli agregatlar miqdori oshadi, ularning suv-fizikaviy va agrokimyoviy xossalari yaxshilanadi, g'o'za va boshqa ekinlar hosildorligi ortadi.

3. Sug'orish eroziyaga qarshi biologik vositalarni qo'llash. Eroziyaga qarshi biologik vositalardan biogumus, xlorella va ko'k-yashil suv o'tlarini qo'llash mumkin. Bu biologik vositalar tuproqni

organik moddalar bilan boyitadi va strukturasini yaxshilaydi, foy-dali mikroorganizmlar turi va sonini ko‘paytiradi, g‘o‘za va boshqa ekinlarhosildorligini oshiradi.

4. Sug‘orish eroziyasiga qarshi turli agrotexnik usullarni qo‘llash. Ushbu yo‘nalishda respublikada quyidagi tadbirlarni amalga oshirish mumkin: oraliq ekinlar ekish, eroziyaga uchragan tuproqlarning suv-fizikaviy xossalari yaxshilash uchun qator oralariga bentonit solish va tuproqning yuvilganlik darajasiga qarab organik va mineral o‘g‘itlarni tabaqalab qo‘llash.

Shamol eroziyaga qarshi esa asosan quyidagilar qo‘llaniladi: oralik, mexanik, biologik va kimyoviy chora- tadbirlarni shamol yo‘nalishiga perpendikulyar joylashtirish. Bunda yengil qumoqli tuproqlarga oralik ekinlar ekish birinchidan, shamol tezligini kamaytiradi, ikkinchidan, yer haydalganda tuproqni organik moddalar bilan boyitadi.

Tuproq unumdorligini oshirishning asosiy yo‘llaridan biri ishlov berishni tartibga tushirish, uni minimallaشتirishdir. Bizning tuproqlarimizning strukturasi kam. Doimiy ishlov buni yanada kamaytiradi, tuproqlarning zichlanishi ortib boradi. Tuproqlarda optimal suv, suv- fizik sharoitlarini hosil qilish agrotexnik tadbirlar yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Bular quyidagilardir:

1. G‘o‘za chigitini oldindan tayyorlangan pushta va qo‘sh pushtalarga ekib o‘stirish texnologiyasi. Bu texnologiya o‘rtacha sho‘rlangan o‘tloqi tuproqlar sharoitida, o‘rtacha sho‘rlangan, o‘rta va og‘ir mexanik tarkibli taqirsimon tuproqlar sharoitida sinovdan o‘tkazilgan. Pushta va qo‘sh pushtalarni cho‘l zonasini sharoitida bahorda olish zarurligi isbotlangan, ularni 90 sm qator oralig‘ida ishlatiladigan kultivator ocharlari orqali olish tavsiya etiladi.

G‘o‘za chigitini oldindan tayyorlangan pushta va qo‘sh pushtaga ekilganida chigit va g‘o‘za uchun tuproqda mo‘‘tadil zichlik, suv, issiqlik, ozuqa va mikrobiologik sharoit yaratiladi va natijada qo‘srimcha hosil olish mumkin bo‘ladi.

2. Tuproq yuzasini yaltiroq polietilen pylonka bilan mulchalash texnologiyasi. Bu texnologiya Toshkent viloyati eskidan sug‘ori-

ladigan oddiy bo‘z va o‘tloqi tuproqlarida va Samarqand viloyati oddiy bo‘z va och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida sinovdan o‘tkazilgan. Yaltiroq pylonka bilan muchalash texnologiyasining samarasi mulchalangan maydon kengligiga to‘g‘ri proportionaldir. Shuning uchun bu texnologiyani paxta 60 sm qator oraligiga ekilgan sharoitlar va mexanik tarkibi o‘rta qumoqdan past bo‘limgan, sho‘rlanish darajasi esa o‘rtachadan yuqori bo‘limgan tuproq sharoitlari uchun tavsiya etiladi. qalinligi 100 mm va eni 90 sm ga teng bo‘lgan pylonkalardan foydalanish zarur. Bunda paxta 60 sm qator oralig‘iga ekilganda gektariga 550–600 kg pylonka ishlataladi. Pylonkani chigit ekip bo‘lgandan keyin yoki ekish bilan birgalikda qo‘l bilan yoki ma’lum moslamalar yordamida yopiladi. Yopiladigan pylonka bir qator oralig‘ini to‘la va qo‘shni qator oraliqlaridan 5 sm dan egallangan holda yopiladi. Pylonkaning ikki chekasi 5–10 sm chuqurlikda tuproqqa ko‘miladi va zichlanadi. Bir qator oralig‘i qoldirilib, keyingi qator oralig‘i yana pylonka bilan yopiladi. Shunday qilib, har ikkinchi qator oralig‘i bo‘sh qoladi va undan g‘o‘zani sug‘orish va oziqlantirish uchun foydalilanildi. Pylonka bilai yopilgan qator oralig‘iga vegetatsiya davrida hech qanday ishlov berilmaydi. Pylonka ostida chigit unib chiqqanidan so‘ng diametri 20 mm dan katta bo‘limgan teshikchalar hosil qilinadi.

Tuproq yuzasini yaltiroq polietilen pylonka bilan mulchalanganda chigitni to‘la unib chiqishi ochiq joyga nisbatan 9 kunga, shonalashi 16 kunga, gullashi 18 kunga, ko‘saklarni ochilishi 25 kunga tezlashadi, qo‘shimcha hosil olinadi. Sentyabr oyi ichida yalpi hosilning 80–90 foizigacha yig‘ib olinadi.

3. Tuproq yuzasini maydalangan go‘ng bilan mulchalash texnologiyasi. Paxtani 60 sm qator oralig‘iga ekilgan sharoitda ikki qator g‘o‘za oraligi go‘ng bilan mulchalanib, keyingi bir qator oralig‘i ochiq qoldiriladi. G‘o‘zani oziqlantirish, sug‘orish va qator oralig‘iga ishlov berish ochiq qoldirilgan egatlar orqali beriladi. Shunda namligi 15 % atrofida bo‘lgan bir gektar maydonga diametri 1–2 sm bo‘lgan elakdan o‘tkazilgan go‘ngdan 60 tonna sarflanadi. Tuproq yuzasini go‘ng bilan mulchalash uchun KRX-4 kultivatori moslashtiriladi.

Go'ng bilan mulchalash texnologiyasi tuproqning fizik xossalari yaxshilash bilan birga ko'saklar ochilishini tezlashtiradi va qo'shimcha hosil olish imkonini beradi.

4. Kompost solish yo'li bilan tuproq unumdorligini oshirish texnologiyasi.

Organik kompostni tayyorlash uchun go'ng (yirik Qoramol), shahar chiqindilari, paxta zavodi chiqindilari, chuchuk suv loyqasidan foydalaniлади.

Tuproqqa har yili 20 tonna kompost solinganda undagi organik moddalar miqdori 0,09–0,20 % Ko'payadi. Katta me'yordagi gung bilan tayyorlangan kompost tuproqqa azot- fosfor o'g'ilari bilan birgalikda berilganda o'simliklarning oziqlanish sharoiti tuproqlarda azot, fosfor, kaliy va mikroelementlarining o'simliklar o'zlashtira oladigan shakli ko'payishi hisobiga yaxshilanadi.

5. Tejamli va samarali sug'orish texnologiyasi.

Respublikamizning turli iqlim sharoitlari uchun ishlab chiqarilgan va rayonlashtirilgan gidromodul sxemalari bo'yicha sug'orish me'yorlari 400–500 dan 700–800 va 900–1000 m<sup>3</sup> gacha bo'lishiga qaramasdan ko'pgina xo'jaliklarda sug'orish me'yordan 2–3 barobar, ya'ni 1600–1800 dan 2500 m<sup>3</sup> gacha suv miqdori bilan sug'orish kuzatilmoxda. Shu bilan birgalikda tuproqlarning suv-fizik xossalari, tarkibi va tuzilishi, grunt suvi chuqurligi, o'simliklarning o'sish davri, suvga talabi va boshqalar to'laligicha hisobga olinmaydi. Natijada katta miqdordagi suv tuproqning xaddan tashqari namligini oshishiga, sizot suvlari sathining ko'tarilishiga yoki zovurlar orqali chiqib ketishiga sarflanadi.

Dala nam sig'imining 65–70 % hisobida g'o'za (o'sish davriga qarab) 700 dan 900–1000 m<sup>2</sup>/ga miqdor suv bilan sug'orilganda tuproq zichligi bo'yicha umumiyligi g'ovakligi, havo almashishi, havo tarkibi, oqsidlanish-qaytarilish potentsiali, harakatchan temir miqdori, tuproq namligi tartiboti va suv sarflanishi bo'yicha eng yaxshi sharoit yaratiladi.

Yuqoridagi aytilgan fikrlardan kelib chiqib, quyidagilarni tavsya etish mumkin:

- Tuproqda nam yetishmasligini hisobga olgan holda sug'orish tuproq dala nam sig'imi 65–70 % dan kam bo'Imagan holatlarda amalga oshirilishi kerak.

- Tuproq sharoitlari va o'simliklarning o'sish davrini hisobga olgan holda sug'orish me'yorlari quyidagicha tartibga solinadi: sug'oriladigan o'tloqi- botqoq tuproqlarda birinchi sug'orish o'simlik gullagunga qadar (0–50 sm tuproq qatlami hisobida) 700–750 m<sup>3</sup>/ga suv miqdorida amalga oshiriladi. G'o'za o'sish davrining keyingi davrlarida hisobli qatlam 0–70 sm dan oshmasligi hamda sug'orish me'yori 850–900 m<sup>3</sup>/gani tashkil qilishi kerak.

- Sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar uchun sug'orish gullagunga qadar 700–750 m<sup>3</sup>/ga 0–50 (60) sm tuproq qatlami, gullah boshlanishi davrida 850–900 m<sup>3</sup>/ga 0–70 (80) sm qatlam va undan keyingi davrlarda 1000–1200 m<sup>3</sup>/ga 0–100 sm qatlam uchun sarflanishi zarur.

- Sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar uchun birinchi suv 700–750 m<sup>3</sup>/ga 0–70 sm tuproqqatlami uchun gullah davrida 900–950 m<sup>3</sup>/ga va undan keyingi davrlarda 1100–1200 m<sup>3</sup>/ga hisobli namlanish tuproq qatlami 0–100 sm ni tashkil qilishi kerak.

Yaxshi strukturali, suv o'tkazuvchanligi yuqori va sizot suvlari yaqin joylashgan yerlarda egat oralatib (o'rtada bir egat qoldirib) sug'orilishi zarur.

Sug'orish tuproqlarning nam yetishmasligini hisobga olgan holda, egat uzunligi o'tloqi- botqoq tuproqlarda 130 m dan, sug'orish muddati 20 soatdan oshmasligi, sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarda esa egat uzunligi 150 m dan, sug'orish muddati 24 soatdan oshmasligi, sug'oriladigan bo'z tuproqlar uchun egat uzunligi 150 m dan va sug'orish muddati 30 soatdan oshmasligi zarur. Har qator orqali sug'oriladigan suv oqimi miqdori 0,4–0,5 l/s va kator oralatib sug'orilganda esa 0,5–0,6 l/s bo'lishi kerak.

6. Yerni kuzda shudgorlash, erta bahorda olib boriladigan barcha agrotexnikaviy jarayonlar (chizellash, boronalash, molalash) paxta va boshqa qishloq xo'jaligi o'simliklarini ekish muddatlarini belgilash, o'simlik vegetatsiyasi davrida amalga oshiriladigan agrotexnik tadbirlar tuproq xaritalari va boshqa tavsiyanomalar asosida tashkil etilishi lozim.

Oxirgi yillarda sug'oriladigan tuproqlarda gumus moddasining kamayib ketishi kuzatilmogda. Ozuqa elementlarining asosiy qismi

o'simlik biomassasi bilan tuproqdan olib chiqilib ketilmoqda va tuproqqa qaytib tushadigan yoki sun'iy o'g'it sifatida be-riladigan miqdori sezilarli darajada kam. Natijada sug'oriladigan yerlar kambag'allashib ketgan, ularning fizikaviy-kimyoviy xususiyatlari yomonlashgan.

Chorvachilikning rivojlanishi go'sht va sut mahsulotlarini ko'payishiga olib kelishi bilan bir vaqtida tuproq unumdorligini oshirishning real manbai-organik o'g'itlarni yetarli bo'lishini ta'minlaydi. Bunda organik modda yig'ilishi har tomonlama ta'minlanadi.

1. O'simliklarni almashlab ekish, oraliq ekinlar yetishtirish natijasida ildiz va ildizpoya qoldiqlari tuproqda ko'p miqdorda to'planadi va ikkinchidan, organik o'g'it-go'ngning to'planishi ortadi.

2. Mineral o'g'itlar, ayniqsa fosforli o'g'itlar tanqis bo'lган hamda tannarxi ortib borayotgan hozirgi sharoitda mamlakatimiz hududida mavjud bo'lган tabiiy agrorudalardan, sanoat chiqindilaridan oqilona foydalanish o'simliklar tomonidan tuproqdan olib ketilayotgan ozuqa moddalarini o'rnni qoplash, elementlar muvozanatini saqlash imkonini beradi, buning natijasida tuproq unumdorligini pasayishining oldi olinadi, hosildorlik esa ortadi. Bunda eng asosiy masalalardan bo'lib ilmiy-amaliy tomonidan har tomonlama o'rganilib, samaradorligi ekologik jihatdan tozaligi aniqlangan agrorudalardan bentonit, glaukonit kabilarni tuproq sharoitini hisobga olingen holda ma'lum miqdorda o'simliklar xiliga mos holda qo'llash hisoblanadi.

3. Tarkibida fosfori kam bo'lган fosfor rudasi-fosforitni turli yo'llar bilan boyitish, tarkibiga ma'lum miqdorda kimyoviy reagentlar, azotli va fosforli o'g'itlar qo'shish mol va tovuq go'ngi qo'shilgan kompostlar tayyorlash hamda ularni tuproq sharoitini hisobga olgan holda g'o'za va bug'doy ekinlarida gektariga ikki-uch tonna miqdorida qo'llash tuproqdag'i harakatchan fosfor elementi miqdorini ortishiga, undagi gumusni ko'payishiga tuproq xossalari yaxshilanishiga va natijada hosildorlik ortishiga olib keladi.

4. Ammosos ishlab chiqarish korxonalari chiqindisi-fosfo-gips tarkibidagi fosfor, kalsiy va oltingugurt (ularni miqdori mo'tanosib

ravishda 2–3 foiz va 17–18 foiz) dan samarali foydalanish ham tuproq unumdorligini va ekinlar hosilini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Buning uchun tuproq sharoitini o'simlik xilini hisobga olgan holda fosfogipsni va fosfogips asosida tayyorlangan organik, mineral o'g'it va kompostlarini gektariga 3–5 tonna atrofida qo'llash tavsiya etiladi.

Hozirgi sharoitda dehqonchilikni mineral o'g'itlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ular yuqori hosil olishning muhim omili. Shuning uchun tuproq unumdorligini oshirish maqsadida mineral va organik o'g'itlarni tuproq sharoiti va o'simliklar talabiga mos ravishda ishlatish katta ahamiyat kasb etadi. Bunda quyidagilarga amal qilish tavsiya etiladi:

1. Asosiy mineral o'g'itlarni tuproqlarning ular bilan ta'minlanish xaritagrammalari va o'simliklar talabi asosida qo'llash (Azotli o'g'itlar bo'yicha institutimizda ishlab chiqilgan (1989-y) azotli o'g'itlarni differentsial qo'llash texnologiyasini hududlarining tuproq va regional xususiyatlarini hisobga olgan holda qo'llash).

2. Azotli o'g'ntlarni yuqori normada (200–250 kg/ga) qo'llash kuchli sho'rangan yerlarda iqtisodiy va ekologik jihatdan, salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini e'tiborga olish.

3. Yengil mexanik tarkibga ega tuproqlarda ayniqa cho'l mintaqasida, karbamid-formaldegid o'g'it (KFU) larini qo'llash ammaki selitraga nisbatan samarali ekanligini e'tiborga olish.

4. Tuproqdan azot yuvilishini oldini olish maqsadida, sholi ekiladigan yerlarda tarkibida ammoniy holda azot saqlaydigan, azotli o'g'itlar qo'llash (moche-vina, ammoniy sulfat).

5. Azotli o'g'itlarning o'simliklar tomonidan o'zlashtirish koeffitsientini oshirish va tuproqdan yo'qolishini oldini olish maqsadida tarkibida amid va ammoniy tutgan (mochevina, ammoniy sulfat) o'g'itlarni nitrifikatsiya ingibitorlari bilan qo'llash.

6. Mineral o'g'itlar qo'llashda, tuproq tarkibidagi oziq elementlarning bir-biriga nisbatini e'tiborga olish.

7. Mikroo'g'itlar qo'llashda dalaning mikroelementlar bilan ta'minlanganligiga va ekiladigan o'simlikka ahamiyat berish.

8. G'o'zapoya va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlari poya va qoldiqlarini maydalab shudgor ostiga berish.

9. G‘alla ekinlari poya qoldiqlarini yoqib yuborish hollariga barham berish, chunki bu holda tuproqning unumdorligini yaratuvchi organik moddalarga va tuproqning tirik fazasiga o‘ta kuchli zarar yetkaziladi.

Respublikada sug‘orishga yaroqli, unumdorligi nisbatan yuqori bo‘lgan tuproqlarning deyarli hammasi o‘zlashtirilib bo‘lingan. Keyingi yillarda o‘zlashtirilgan va yaqin yillarda o‘zlashtirilishi mumkin bo‘lgan tuproqlar unumdorligi past, sho‘rlangan, gipslashgan, toshloqli qiyin o‘zlashtiriladigan tuproqlar kategoriyasiga mansubdir.

Ularni o‘zlashtirish juda murakkabligi sababli har tomonlama chuqur o‘ylab amalga oshirilishi lozim. Ular asosan taqirli, taqir, bo‘ztusli qo‘ng‘ir tuproqlar va qumlar majmuasidan iborat. Ularning unumdorligini oshirish uchun o‘zlashtirish davri belgi-lanishi kerak. Tajribalar bu davr 10 yil atrofida ekanligini ko‘rsatadi. Bu davrda o‘tlar, dukkakli, boshqoli, oraliq ekinlar ekilishi kerak. Shu vaqt ichida madaniy lashgan, chirindili, haydalma qatlama vujudga keladi. Aks holda qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi uzoq yillar davomida pastligicha qoladi. Yerga ishlatilgan o‘g‘it, suv, mehnat sarfi qoplanmaydi.

Tuproq unumdorligini saqlash va oshirishning asosiy omillaridan biri qishloq xo‘jalik ekynlarii tuprqlarning ekologik meliorativ sharoitini, ularning xossa xususiyatlarini hamda hududlarning suv bilan ta’min-lanishini hisobga olib tabaqlashtirib joylashtirishdir. Bu texnologiyaning mohiyati, asosiy ekinlardan olinadigan yalpi hosilni kamaytirmasdan sifati yomon yerlarda agrotexnik, meliorativ tadbirlar asosida ularning unumdorligini qayta tiklashdir. Masalan: Buxoro viloyatida tuproq unumdorligini qayta tiklaydigan o‘simglik beda keskin kamayib ketgan (2,4–4,0 %). Tuproq unumdorligini saqlash va qayta tiklash uchun viloyatda beda maydoni miqdori o‘rtacha 16,6 foizni tashkil etishi kerak. Jumladan, tuproq sifati o‘rtachadan past maydonlarda (21–40 balli yerlarda) uning miqdori 30 % gacha oshirilmoq lozim, ana shunda viloyatda unumdorlik darajasi yaxshi bo‘lgan yerlarda g‘o‘za va boshqoli don ekinlarining hosilini oshirish va sifatini

yaxshilash hisobiga, yalpi yetishtiriladigan paxta va galla miqdorini kamaytirmsandan, sifati yomon bo‘lgan yerkarning unumdorligini qayta tiklashga va oshirishga erishiladi. O‘simliklarni bunday joylashtirish tizimini respublikamizning hamma viloyatlari uchun, ularning tuproq sifatini hisobga olgan holda ishlab chiqiliishi va joriy qilinishi lozim. Bunda kuchli sho‘rlangan yerkarda beda o‘rniga shirinmiya ekishni tavsiya etish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, tuproqlarimizning unumdorligini oshirish, qishloq xo‘jalik ekinlaridan yuqori hosil olish ko‘p jihatdan ham ilmiy tashkilotlar, ham ishlab chiqarish xodimlaridan o‘z vazifalariga o‘ta yuqori mas’uliyat bilan yondoshishlarini taqozo etadi. Shuni ham ta‘kidlash lozimki, toki qishloq xo‘jaligi amaliyotida faoliyat ko‘rsatuvchi xodimlarning ona tuprog‘imizga bo‘lgan munosabati, ya’ni uni o‘rganishga, asrashga, unumdorligini va o‘z malakasini oshirishga bo‘lgan qiziqishi kuchaymasa, mas’uliyat va javobgarlik hissini sezish oshmasa, har qanday oqilona va ilmiy tavsiyanomalarining ijobiliy ta’siri bo‘lmasisligi mumkin.

## **TUPROQNI MUHOFAZA QILISH – JAHONSHUMUL MUAMMO**

Yer-xalq boyligi, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishning bosh vositasi. Tuproq unumdorligini va ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish ko‘p jihatdan unga ehtiyojkorlik va tejamkorlik bilan munosabatda bo‘lishga, uni yaxshilashga qaratilgan muhim chora-tadbirlar majmuasiga bog‘liq.

Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni izchillik bilan jadal-lashtirish, yer fondidan oqilona foydalanish, sug‘oriladigan har gektardan olinadigan hosildorlik, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan bog‘liq muammolar, yechimini ishlab chiqarish g‘oyat katta ahamiyat kashf etadi. Bu borada tuproq unumdorligini bir me'yorda saqlash, yil sayin unumdorligini muntazam oshirib borish qishloq xo‘jalik mutaxassislari zimmasidagi muhim vazifalardan hisoblanadi.

Respublikada qishloq xo‘jaligidan foydalaniladigan yerkarning meliorativ holatini yaxshilashga benihoyat katta e’tibor karatilgan

bo'lib, yerlarni loyihalash, meliorativ tizimlarni tuzish va foydalanish hamda meliorativ tadbirlar o'tkazishga davlatning katta mablag'lari ajratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasiga muvofiq tabiiy obyektlar, jumladan yer, umumxalq boyligi hisoblanib, davlat muhofazasida turadi. Yerdan oqilona foydalanish va tuproqni muhofaza qilish, meliorativ holatni yaxshilash, tabiiy resurslardai oqilona foydalanish alohida o'rin tutadi. Tabiatshunos olimlar, ekologlar, tuproqshunoslar, melioratorlar, iqtisodchilar, huquqshunoslar tuproq qatlaming tez buzilib va ba'zida o'rnini to'ldirib bo'lmaydigan talofatlardan, Shuningdek keng tarqalayotgan tuproq inqirozi holatlaridan chuqur tashvishga tushib qolishgan, bu holatlarga jiddiy e'tibor berib kelinmagan, chunki tuproq qatlami eng avvalo dehqonchilik, suv va o'rmon xo'jaligida, sanoat, qurilish, transport, aloqa xo'jaligida, geologiya-qidiruv ishlari va boshqa mahsulot ishlab chiqarish uchun qabul qilinib kelingan, yerdan oqilona foydalanish va muhofaza qilishga qaratilgan qonunlar yetarli ishlamagan va takomillashtirilmagan, natijada yer resurslaridan oqilona foydalanilmagan, meliorativ holati yaxshilanmagan, tuproqlar sho'rlanishi, degumi-fikatsiyasi, eroziyasi, parchalanishi, agroximikatlar va og'ir metallar bilan bulg'alanish, sahrolanish yoki o'ta namlanishi, qishloq xo'jalik bilan aloqador bo'lmagan maqsadlar uchun yerlarni tejab-tergamasdan ajratilishi va hakozolardan muhofaza qilinmagan yer, yerlar jadallik bilan tanazzulga yuz tutgan.

O'zbekiston Respublikasi istiqlolga erishishi, mustaqil davlat deb e'lon qilinishi va huquqiy jamiyat qurishi, o'z hududida yer munosabatlarini tartibga solishda va rivojlantirishda to'la mustaqillikka erishganligi, uning yerlardan oqilona foydalanish, meliorativ holatini yaxshilash va muhofaza qilishning huquqiy asosini yaratish va takomillashtishtirishning imkonini berdi. Mamlakatimiz agrar sohasida islohotlarni huquqiy jihatdan ta'minlash maqsadida bir qancha qonunlar qabul qildi. Shu jumladan, yer munosabatlarini huquq asosida rivojlantirish va tartibga solish, yerlardan oqilona foydalanish, meliorativ holatini yaxshilash, unumdorligini oshirish,

yer tuzish ishlarini olib borish, yerning sifat bahosini aniqlash, xo'jalik faoliyatiga baho berishga va hokazolarga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi "Yer kodeksi" hamda "Davlat yer kadastrı" to'g'risidagi qonun va boshqa qishloq xo'jalikdagi islohotlarni chuqurlashirishga doir qonun va me'yoriy hujjatlar qabul qilinishi respublikamizda qishloq xo'jaligini rivojlantirishga katta xissa qo'shish bilan birga, kelajak avlodlarimizga sog'lom, unumdar yerlar qoldirish yo'lida katta qadam bo'ladi, negaki insonlarni taqdiri ko'p jihatdan yer, tuproq taqdiriga bog'liqidir.

Biosferada, atrof muhitda tuproq qatlamini mutlaqo almashtirib bo'lmaslik to'g'risidagi xulosaga olib keladi. Hatto biosferada tuproq qatlamini almashtirib bo'lmaslik qonuni to'g'risida ham gapirish mumkin. Sayyoramizning tuproq zaxiralari o'z maydoni va sifatiga ko'ra cheklangandir. Quruqlikning 70 foiziga qadari yaxshilanishini talab etadi va melioratsiyaga muhtojdir. Keyingi 75–100 yil mobaynida sayyoraning tuproq qatlami tez kamayib borganligi ham muammoni keskinlashtirmoqda. Bunga e'tibor berilmagan edi, chunki tuproq qatlami eng avvalo dehqonchilik va o'rmon xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish uchun bir zamin sifatida «shaxsiy talab» nuqtai nazaridan qabul qilib kelindi. Ammo kislород, ozon va uglekislotaning jahon balansida ehtimol tutilgan o'zgarishlar, toza suv zaxiralarining kamayishi. suv havzalarining evtatrofikatsiyasi tufayli yuzaga kelgan, tashvish tuproq qatlaming ahamiyatiga alohida e'tibor berishga majbur qildi. Bugungi kunda tuproq qatlami yemirilmoqda, kamayib bormoqda, tobora jadallik bilan tanazzulga yuz tutmoqda. Tarixiy davr mobaynida 2 milliard gektarga yaqin yerdan mahrum bo'lingan (shaharlar, manzilgohlar, inshootlar, yo'llar bilan band bo'lган, eroziya yemirigan, shur bosgan, bulg'alangan va hokazo) hozirgi vaqtida butun sayyorada 1,5 milliard hektar yerga qishloq xo'jalik ekinlari ekladi. Har yili jahonda 6–7 million gektargacha yerdan mahrum bo'linadi (Kovda, 1978). Yer kurrsasi aholisining uchdan ikki qismi qashshoqlik va ochlik sharoitida yashayotganligini hisobga oladigan bo'lsak, hozir sayyoramizning har bir aholisiga haydaladigan yer 20–30 yil avvalgidan kamroq to'g'ri kelishini nazarda tutsak,

tuproq unumdorligini oshirish, qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosil-dorligini ikki karra, uch karra ko‘paytirish eng yaqin kelajakda dehqonchilikning asosiy vazifasi bo‘lib qolishi lozimligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Yer resurslaridan har tomonlama oqilona foy-dalanmay, tuproq qatlarni turli yemirnlish va bulg‘alanishlardan muhofaza qilish choralarini kuchaytirmay, qishloq xo‘jaligi bilan aloqador bo‘limgan maqsadlar uchun yerlarni tejab-tergab ajrat-may turib, bu g‘oyat mushkul vazifani hal etishning iloji yo‘q. Insonning noto‘g‘ri tashkil etilgan turli xil faoliyati ta’siri ostida tuproq qatlami eroziyaga duchor bo‘ladi, ikkilamchi sho‘rlanadi, degumifikatsiya bo‘ladi, agroximikatlar, og‘ir metallar va boshqa-lar bilan ifoslanadi, ximik va biologik toksikozga uchraydi va h.k.

Tuproqni eroziyadan saqlash muammosi dunyoning arid iqlimi-li mintaqasida joylashgan ko‘pgina mamlakatlar uchun, shu jum-ladan, yuqorida qayd etilgandek, O‘zbekiston hududi uchun dolz-arb muammodir.

Sug‘orma dehqonchilik uchun o‘zlashtirish ko‘zda tutilgan yerlarning muayyan qismi eroziya – akkumulyativ tsiklining Toshkent terrassasiga va adirlarga to‘g‘ri keladi. Sug‘oriladigan va sug‘orish uchun loyhalashtirilayotgan yerlar umumiy maydonining 45 foizdan 80 foizga qadarini nishabligi  $3^{\circ}$  va undan ko‘proq bo‘lagan yerlar tashkil etadi. Bunday relef lalmi yerlarda jala yomg‘ir eroziyasi, sug‘orish boshlangandan keyin esa irrigatsiya eroziyasi avj olishiga sabab bo‘ladi.

Arid mintaqada hududlarning tabiiy sharoitlari uyg‘unlashuvi-yer yuzasidagi katta nishabliklar, tuproqning va tuproq hosil qiluvchi, tuproq ona jinslarining eroziyaga qarshi tura olmasligi, ayniqsa bahor davrida jala-yomg‘irlar yog‘adigan paytda eroziya hosil bo‘lishining jiddiy xavf-hatarini vujudga keltiradi. Shunday yomg‘irlarning katta qismi (100 mm. dan ko‘prog‘i) dalalarga ishlov berilgan, tuproq yuzasi esa o‘simliklar bilan biroz qoplangan mart-aprel oylariga to‘g‘ri keladi. Shu paytda jala-yomg‘irlar tuproq qatlarning tarkibini mexanik buzishga va eng unumdor bo‘lgan yuqori qatlarni yuvib ketishga olib keladi. Chorva mollarni haddan tashqari ko‘p o‘tlatib boqish chog‘ida o‘t-o‘lanlar

siyraklashib ketib, tuproq yuzasi zichlashishi sababli tabiiy eroziya ko'rinishi keskinlashadi. Chorva mollar o't-o'lan qoplamini 50 foiz va undan ham ko'proq yo'q qilinadi yuza eroziyasining kuchayishi va so'ngra ko'pdan-ko'p taram-taram yemirilishlar hosil bo'lishi kuzatiladi. Chorvani muntazam suratda tartibsiz boqish, lalmi va sug'oriladigan yonbag'ir yerlardan foydalanish chog'ida eroziyaga qarshi talabiariga rioya etmaslik natijasida respublika tuprog'ini talaygina qismi eroziyaga uchraydi.

O'zbekistonda eroziyaga uchragan tuproqlarning tasnifi ishlab chiqilgan va respublikadagi eroziya xavf solayotgai yerlarning xaritasi tuzilgan. Eroziya holatlarining ta'siri ostida biroz yuvilgan, o'rtacha yuvilgan, kuchli yuvilgan tuproq va yuvilib to'plangan turoqlar hosil bo'ladiki, ular tuproq qatlaming qalinligi, gumus, ozuqa elementlari (makro va mikroelementlar) zaxirasi va tarkibi, mikroorganizmlar miqdori va sifati, kimyoviy va fizikaviy xossalari bioenergetika ko'rsatkichlari o'zgarishi tufayli unumdonlik darajalari turlicha ekanligidan dalolat beradi. Shu narsa ma'lumki, irrigatsiya eroziyasi natijasida tuproq yuvilishi har yili gektariga 100–150 tonnagacha va undan ham oshib ketishi mumkin (nishabligi 5° dan ko'proq bo'lgan qiyaliklarda gektariga 500 tonnaga qadar boradi), ana shu tuproq bilan birga gumusning yillik nobudgarchiligi gektariga 500–800 kg., azot-gektariga 100–120 kg., fosfor 75–100 va undan ko'proq kilogrammni tashkil etishi mumkin. Shuni qayd etish kerakki, eroziya jarayonlari tuproqdagagi ekotizimlar biomassasida foydalanilgan quyosh energiyasi miqdoriga ham ta'sir o'tkazadi. Chunonchi, Respublikaning bo'z tuproq yerlaridan nishablikning holati va tuzilishiga qarab to'plangan energiya zaxirasi gektariga  $20-100 \cdot 10^6$  kilokalloriyani tashkil etadi, ayni vaqtida yuvilib to'plangan tuproq-eroziyalanmagan-kuchsiz eroziyalangan-o'rtacha eroziyalangan-kuchli eroziyalangan tuproqlar qatorida enegiya zaxirasi kamayib boradi. Eroziya jarayonlari natijasida fitomassada, gumusda va tuproq tarkibidagi mikroblarda yutilgan quyosh energiyasining 30–50 foizi va undan ko'prog'i yo'qotiladi, tuproqda sodir bo'ladigan jarayonlarining intensivligi asosan quyosh energiyasining

zaxiralari va u sochayotgan nur ko'tinishining o'zgarishlari bilan bog'liq ekanligi e'tiborga olganda eroziya tomonidan ekotizimga yetkaziladigan zarar miqiyoslarini tasavvur etish mumkin.

Suv eroziyasidan yo'q bo'layotgan azot va fosfor miqdorini mineral o'g'itlar tarkibida ekinlarga solinayotgan azot va fosfor miqdori bilan taqqoslaysidan bo'lsak, suv eroziyasiga uchragan maydonda har yili solinayotgan azotning 50 – 70 % va solinayotganiga qaraganda 20 – 50 % fosfor ko'p yuvilib ketayotgani ma'lum bo'ladi, bu esa ekinlar hosildorligiga salbiy ta'sir qilishi shubhasizdir.

Eroziyaga uchragan tuproqlar mavjudligini va ularning maydonlarini hisobga olmay turib yer resurslaridan to'g'ri foydalanib bo'lmaydi. Respublika yerlarida eroziyaga qarshi tadbirlarni rejalashtirish bo'yicha ishlar keng avj oldirilayotgani holda tuproq eroziyasi to'rli tiplarning tarqalishini o'rganish va ularni kartografiyalash tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Turli darajada eroziyaga uchragan tuproqlar odatda komplektlarni hosil qilishi munosabati bilan kartografiyalash chog'ida eroziga uchragan tuproqning turli kategoriyalari ajratiladi, ular tuproqning har xil unumidorligidan, agro ishlab chiqarish ta'riflaridagi turli bonitet ballaridan dalolat beradi. Bundan tashqari Shuni ta'kidlash kerakki, hatto bitta konkret joydagi unumidorlik darajasi nishablikning holati va tuzilishiga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Chunonchi, shimoliy va sharqi qiyaliklarning holatlari janubiy va g'arbiy qiyaliklarning holatlariga qaraganda relefining bir muncha yumshoqligi, tosh-shag'allarning kamligi, o'simlik qoplaming yaxshiroq rivojlanganligi, tuprog'i eroziya bilan kamroq yemirilganligi bilan farq qiladi. Shu munosabat bilan yirik miqyosli xaritaga tushirish chog'ida janubiy qiyaliklarning tuproqlari shimoliy yonbag'irlarning tuprog'iga qaraganda past bonitetga eng ko'p eroziyaga uchragan tuproq jumlasiga kiritilishi kerak. Bundan tashqari, yuvilma (namty) tuproqlar ko'proq bonitetga, eroziyaga uchramagan tuproqlar kamroq bonitetga va qiyaliklarning tuproqlari eroziyaga uchragan tuproqlar eng kam bonitetga mansub yerlar qatoriga qo'shilishi kerak.

Eroziya dalalar va yaylovlardan tuproqni hamda o'simliklarni oziqlantiruvchi elementlarni olib ketadi, tuproq unumdarligini keskin pasaytiradi, jariklarni vujudga keltiradi, ularni ko'mib tekislash uchun ko'p mablag' talab etiladi, ammo ularga qarshi kurash olib borilmasa yana ham qimmatga tushadi. Eroziya avtomobil va temir yo'llarni yuvib ketadi, molxonalar va uy – joylarni vayron qiladi. U daryo suvlarini hamda suv havzalarini, kanallarni balchiq va loy bilan bug'laydi. Tuproq yemirilishiing ma'suli bo'lmish moddalar vodiylarning unumdar yerlarini nisbatan unumsiz oqiziq cho'kindilar bilan qoplaydi.

Eroziyaning qyshloq xo'jalik ekinlari hosildorligiga ta'siri g'oyat katta. Tadqiqotlar Shuni ko'rsatadiki, eroziyaga uchragan tuproqda g'o'za bosh poyasining balandligi yuvib ketilmagan tuproqdagiga nisbatan pasayadi, yuvilma tuproqda esa bo'y yana ham baland bo'ldi. Yuvib ketilgan tuproqdagagi gul, g'uncha va ko'saklar soni eng kam, hosil nishonalarining to'qilishi esa eng ko'p bo'ldi. Paxta hosildorligi ham mana shu xususiyatlarga muvofiq shakllandi. Yuvilma eng yuqori-gektariga 36,8–37,3 sentner hosil oladi, ammo g'o'za rivoji orqada qolganligi sababli bu yerda sovuq tushgangacha yig'ib-terib olingan hosil eng past 34,0–37,2 foiz bo'ldi. Yuvib ketilgan tuproqda hosildorlik eng kam gektariga 16,1–24,7 sentnerni tashkil qildi, lekin bu yerda yuvib ketilgan tuproqning noqo'lay agrokimyoviy, agrofizikaviy, biologik xossalari sababli g'o'za siqib qo'yilganligi natijasida, u tez yengildi vasovuq tushgungacha yig'ishtirib olingan hosil 72,1–81,1 foizni tashkil etdi. Faqatyuvib ketilmagan tuproqda yaxshi hosil-gektariga 32,4 sentner paxta olindi, sovuq tushgungacha yig'ishtirib olingan hosil ham yuqori 61,1 foiz bo'ldi, bu esa gektariga 19,8 sentnerni tashkil qildi, vaholanki yuvilma tuproqda gektariga 12–14 sentnerni va yuvib ketilgan tuproqda 13–18 sentnerii tashkil qilgan edi.

Eroziya hosil miqdorigagina emas, balki tolanning sifatiga ham ta'sir qildi. Tuproq yuvib ketilishining ta'siri ostida bitta kesakning massasi kamaydi, yuvilma tuproqdagagi ko'sak massasi esa oshdi. Tolanning pishiqligi ham huddi Shunday nisbatlarda o'zgardi.

Yuvib ketilgan tuproqda tolaning chiqishi ham eng past darajada bo'ldi. Eroziya ta'siri ostida chigitning holati keskin o'zgarishini qayd etib o'tish muhimdir. 1000 dona chigit massasi yuvib ketilgan tuproqda eng kam, yuvib ketilmagan va cho'kindi tuproqda esa eng ko'p bo'Igan. Yuvib ketilgan tuproqda yetishtirilgan paxtaning chigit ekish uchun yaroqli emas. Irrigatsiya eroziyasi tuproq unumdorligiga o'rnni to'ldirish qiyin bo'Igan ziyon yetkazibgina qolmay, hosildorlikni pasaytirib va paxta tolasini sifatini yomonlashtiribgina qolmay, balki o'simliklarning nasliga ham salbiy ta'sir qilib, navning buzilishiga olib keladi.

Eroziya hamma ekinlarga-g'alla, ozuqabop, mevali, sabzavot-poliz ekinlari va boshqalarga salbiy ta'sir qiladi. Masalan, paxtadan keyin huddi o'sha yerga ekilgan makkajo xorining o'sishi, rivojlanishi va hosildorligi tuproqning yuvilish darajasiga qarab aynan g'o'zaniki kabi farq qildi. Yuvib ketilmagan tuproqda uning bo'yi 196,7 smni, yuvib ketilgan tuproqda faqat 92,6 yuvilma tuproqda esa 300 sm dan ko'proqni tashkil qildi. Makkajo xorisi quruq massaning hosili har bir tupga hisoblanganda tegishli ravishda 144, 30 va 248 g ga teng bo'ldi. Irrigatsiya eroziyasi makkajo xoriga g'o'zadan ham ko'proq keskin ta'sir qiladi (X. Maxsudov).

AQSH da dehqonchilikning noxush misoli g'oyat ibratlidir Konke, Bertran, 1969. AQSH da tuproq eroziyasi rasmiy ravishda ofat deb e'tirof etilgan. 1933-yilning kuzida tuproq eroziyasi ga qarshi kurashuvchi xizmat tashkil qilingan edi. U 1935-yilning 27-apre-lidan AQSH Kongressi tomonidan qabul qilingan qonunga binoan Dehqonchilik vazirligi tarkibida tuproqni muhofaza qilish xizmati etib qaytadan tashkil qilindi. Tuproqni muhofaza qilish okruglari tuzilib, ular joylarda tuproq eroziyasiga qarshi jamoa bo'lib kurashish uchun yerdan foydalanuvchilarni birlashtirdi va tuproq eroziyasiga qarshi kurashda xukumatga yordam berdi. Eroziyaga qarshi chora-tadbirlarning samaradorligi, shu qadar yuqori bo'ldiki, natijada hosildorlikning pasayishi to'xtatibgina qolinmay, balki 10 yil ichida mamlakat bo'yicha makkajo xorining o'rtacha hosildorligi 33,5 foiz, paxta hosili esa 67,8 foiz ko'payadi.

Dehqonchilikning yangi tuzimi butun mamlakat bo'yicha hosilni 33 foizdan ham ko'proq oshirdi va u tobora ortib bormoqda. Insoniyatning bundan buyon yashashi uchun tuproqning muhimligini tan olish AQSH da va boshqa mamlakatlarda aholini tuproqni muhofaza qilish usullariga keng ko'lamda o'qitishga olib keldi. Boshlangich mактабдан to universitetgacha texnikaviy bilimlar bilan birga tuproqqa g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lish tuyg'usi singdirib boriladi. Bu qishloq xo'jalik amaliyatida, qishloq ta'tillarida, ishlab chiqarish faoliyatida va gazeta-jurnallarning ko'pgina maqolalarida asosiy mavzuidir. Fermerlarni tuproq muhofazasi chora-tadbirlarini qo'llanishga majbur etish uchun ularga pul to'lash mumkin, albatta. Qonunlarni qabul qilish yo'li bilan ham huddi shu maqsadga erishish mumkin. Ammo tuproqni muhofaza qilishning iqtisodiy afzalliklarini va har bir fuqaroning dav-datga nisbatan burchlarini aholiga tushintirish, Shuningdek yerga bepisandlik va uni suiste'mol qilish jamiyatga zid hatti-xarakat deb qaralishi uchun uning to'g'risida jonkuyarlik qilish odatida hosil qilish eng demokratik yo'l bo'ladi.

Eroziyaga uchragan yerlarda tuproqni eroziyadan himoya qilish va uning unumdorligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni qat'iy ravishda, bilimdonlik bilan, markazlashtirilgan tarzda amalga oshirish zarur. Bu tadbirlar qishloq xo'jaligi ekinlarini lalmi yerlarga taram-taram qilib ekish, kontur usulida sug'orish, suvni o'zgaruvchan tarzda sarflab juyaklarni sug'orish, eroziya darajasini hisobga olgan holda o'g'itlarni tabaqalashtirib solish, mikroo'kitlar, organik o'g'itlar, go'ng, biogumus, lignin, shahar chiqitlarini solish, ko'k o'g'itlardan fodalanish, ko'p yillik o't-o'lanlarni sepish, struktura hosil qiluvchilarni qo'llanish, cho'kirtak poyalar va ang'izdagи qoldiqlar bilan yopish, ekilgan yaylovlarni, ihota daraxtzorlarini barpo etish, suv tashlanadigan pastliklarga chim bostirish, maqsadga muvofiq almashlab ekishlarni, terrasalashni joriy etish, tuproqqa chuqur ishlov berish kabi va boshqa tadbirlarni o'z ichiga oladi. Jarliklarni ko'mib tekislash hamda ko'p miqdordagi organik o'g'itlarni solish, ko'p yillik o'tlarni ekish, sug'orish texnikasini tartibga solish va ariq-zovurlarning o'pirilishiga yo'l qo'ymaslik, gidrotexnika inshootlari qurilishida

agrotexnika tadbirlarini qo'llash yo'li bilan tuproq unumdorligini tezlik bilan oshirish mumkin va unumdorligini tezlik bilan oshirish mumkin va zarurdir. Jarliklar atrofidagi partov yerlarni qishloq xo'jalik matqasdarda foydalanish uchun jalg etish zarurdir.

Shunday qilib, oldimizda hozirgi avlodnigina emas, balki kelgusi avlodlarning ham manfaatlarini ko'zlab, eroziyaga uchragan yerlardan fodalanish amaliyotini yanada ham takomillashtirish vazifasi turibdi. Mana shu yerlardan xo'jasizlarcha foydalanilgan taqdirda ular yaqin 10 yillar ichida o'nglab bo'lmas darajada yemirilishi mumkin.

Shu tariqa tuproq unumdorligidan foydalanishdagi oqilona ilmiy ekologik prinsiplarning qo'pol ravishda buzilishi qanchadan-qancha mablag', mehnat sarflanishiga, mexanizatsiyalash, o'g'it-lashga, melioratsiyalashga qaramay hosilning tegishli darajada ko'payishiga olib kelmadi. Shu munosabat bilan xo'jaliklardagi rahbar hodimlarning tuproq va agroekologiya sohasidagi savodxonlik darajasini oshirishni maqsadga muvofiqdir.

Tuproqni muhofaza qilish-hozirgi kunning g'oyat o'tkir jahon shumil muammosidir. Tuproqni muhofaza qilish shunchaki bir maqsad emas. Uni muhofaza qilish va ifodalanish yaxlit bir butun, yer resurslarini muhofaza qilishga, sifatini yaxshilashga va ulardan oqilona foydalanishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidir.

Bu tizim tuproq unumdorligini saqlab qolish va oshirish uchun, agroxilma-xillikni, biosferani saqlab turish uchun zarurdir. Shu narsa ravshanki, tuproqni saqlash, yer resurslaridan oqilona, tejab-tergab foydalanish hozirgi vaqtida nafaqat qishloq xo'jaligi, balki umumsayyora ahamiyatiga ham egadir.

Shu bois akademik A.P.Vinogradov: «Bugungi kunda biosferaga taalluqli narsalarning hammasi eng avvalo Yerning tuproq qatlamiga taalluqlidir», - deb ta'kidlagani tasodifiy emas. Darhaqiqat, odamlarning taqdiri ko'p jihatdan yer va tuproq taqdiriga bog'liqdir.

Buyuk ma'naviy merosimiz «Avesto»dagi atrof muhitni, tabiatni, ona-zaminni toza, pok saqlash borasidagi «Inson butun umri davomida suv, tuproq, olov umuman dunyodagi jamiyki yaxshi narsalarni pok va bus butun asrashga burchlidir» degan ibratli ko'rsatmalar butungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagandir.

## SHO'RLANGAN TUPROQLAR MELIORATSIYASINING DOLZARB MUAMMOLARI

Sug'orma dehqonchiligidan bir tabiiy kushandasiborki, u ham bo'lsa tuproqning sho'rlanishidir. Uning qishloq xo'jaligiga yetkazadigan zarari nihoyatda katta. Kuchsiz sho'rlangan yerlarda paxta hosildorligi 20–25 foizdan, kuchli sho'rlangan yerlarda 80 foizgacha kamayishi ilmiy tajribalarda aniqlangan. Agar respublikamiz sug'oriladigan maydonlarining 60 foizidan ortiqrog'i har xil darajada sho'rlangan tuproqlardan iborat ekanligini nazarda tutadigan bo'lsak, u holda har yili o'rtacha 1,5 mln. tonna atrofida paxta hosilidan mahrum bo'layotganimizni tasavvur qilish qiyin emas.

V. A. Kovdaning (1984) ma'lumotlariga qaraganda, yer sharida sug'oriladigan yerlar maydoni 1980-yillarga kelib 230–240 mln. hektarni tashkil etgan, asr oxirida 300 mln. hektarga yetishi mo'ljallangan. Planetamizning 40 foizdan 60 foizgacha sug'oriladigan yerlari sho'rlangan. Dunyo miqyosida tuproq sho'rlanishi va botqoqlashuvidan yo'qotish har yili 3 mlrd. dollarni, bundan tashqari sug'orma dehqonchilikdan chiqib ketayotgan yer maydonlari 500–600 mln. hektarni tashkil etadi.

Xalqaro oziq-ovqat va qishloq xo'jalik tashkiloti (FAO) ning ma'lumotlariga qaraganda sug'oriladigan sho'rlangan yerlar maydonlari dunyoning turli mamlakatlarda 29,7 mln. hektarni tashkil etadi Eron, Misr va Argentinada 30–34, AQSH va Pokistonda 26–27, Xitoy va Hindistonda 15–17, Tailand, Avstraliya va boshqa mamlakatlarda 10–12 foizgacha sug'oriladigan maydonlar ikkilamchi sho'rlanishga uchragan.

Sug'oriladigan sho'rlangan tuproqlar Markaziy Osiyoda, jumladan, asosiy texnik va oziq-ovqat ekinlari paxta, sholi, g'alla, makkajo'xori yetishtiriladigan O'zbekistonda ham keng tarqalgan, bunday tuproqlar melioratsiyasi asosiy dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Jahon Bankining (1995) ma'lumotlariga qaraganda 1994-yil holatiga ko'ra Orol havzasidagi 7,8 mln. hektar sug'oriladigan maydonlarning 59 foizga yaqini yoki 4601,8 ming hektari har xil darajada sho'rlangan bo'lib, undan 2222,5 hektari

(48,3%) o'rtacha va kuchli sho'rangan yerkarda to'g'ri keladi (86-jadval). 70 foiz maydonlar sun'iy zovurlashtirish, hamda murakkab agrotexnik va meliorativ tadbirlar o'tkazishni talab etuvchi hududlarda joylashgan.

*86-jadval*

### Markaziy Osiyodagi sug'oriladigan sho'rangan yerlar maydonlari

Davlatlar	Ekiladigan maydon, ming.ga	Sug'oriladigan maydon, ming. ga	Sho'rangan yerlar maydoni, ming.ga			
			Jami		Shundan o'rta va kuchli sho'rangan maydonlar	
			Ming.ga	%	Ming.ga	%
Qozog'iston	630,8	786,2	576,1	73	206,8	35,9
Qirg'iston	311,8	429,9	21,2	5	8,5	40,1
Tojikston	639,1	653,1	116,7	18	39,8	34,1
Turkmaniston	1458,3	1744,1	1664,9	95	1117,5	67,1
O'zbekiston	3580,0	4202,4	2222,9	53	789,9	35,5
Jami	6620	7815,7	4601,8	59	2222,5	48,3

O'zbekiston Respublikasi Yer Resurslari davlat qo'mitasining qiyosiy ma'lumotlari mamlakatimizda keyingi 10 yil ichida tuproq meliorativ holatida sezilarli o'zgarishlar bo'lganligini tasdiqlaydi. 2000-yilda kuchsiz sho'rangan yerlar maydonlari 1990-yilga nisbatan 288,2 ming getktarga (8,4%), o'rtacha sho'rangan yerlar 63,3 ming getktarga (2,1%) va kuchli sho'rangan yerlar maydoni 210,0 ming getktarga (5,7%) ortgan, Respublikamizda jami sho'rangan yerlar maydonlari hozirda 64,4 foizni, shundan o'rtacha va kuchli sho'rangan yerlar 29,1 foizni tashkil etadi (78-jadval).

Ajablanarlisi shundaki, ayrim viloyatlarda (hududlarda) tuproq sho'rلانish jarayonlarini jarayonlarining yuqori sur'ati kollektor-zovur tarmoqlarining

yetishmasligi natijasida sodir bo'lsa, aksariyat ko'pchilik viloyatlarda bu jarayon zovurlar solishtirma uzunligining gettar hisobiga ortib borishi va yaxshi yo'lga qo'yilgan sifatli sho'r yuvish ishlardida keyin ham sodir bo'lmoqda (Nasonov, Ro'ziyev, 1998).

Buxoro, Sirdaryo, Jizzax, Xorazm viloyatlari va Qoraqalpog'ston respublikasida kollektor zovur tarmoqlarining solishtirma uzunligi respublika o'rtacha ko'rsatgichlaridan (28,0 m/ga) ancha yuqori (38–46 m/ga) bo'lishiga qaramasdan turli darajada sho'rangan yerlar maydonlari aynan shu viloyatlarda 75–90 foizni tashkil etadi.

Aksariyat viloyatlaring kuchsiz, o'rtacha sho'rangan va hatto yuvilgan tuproqlar orasida 20–30, ayrim hollarda 50 foizgacha sho'rxokli dog'lar uchraydi.

Bunday kichik va katta sho'rxokli yerlardagi dog'lar mavjud kollektor-zovur tarmoqlarining texnik nosoz holatga kelib qolganligi, ish samarasining o'ta pastligi va ayrim joylarda ularning yetishmasligi bois asta-sekin kengayib, ekin maydonlarining yoppasiga sho'rلانishiga olib kelmoqda, bu o'z navbatida yerlarimizning bir qismini sug'orma dehqonchilikdan chiqib ketishiga sabab bo'lmoqda.

Agar sug'orma dehqonchilikdagi tuproq sho'rланishi jarayonlari shu tarzda davom etadigan bo'lsa qishloq xo'jaligining kelgusidagi ayanchli ahvolini tasavvur qilish qiyin emas. Bu borada Prezidentimiz I. Karimovning «Yerlarni meliorativ holatiga katta e'tibor berilmog'i lozim. Agar biz Shunday qilmasak istiqbolimizdan mahrum bo'lamiz» (1993-yil 2-sentyabr) degan so'zlarini eslash kifoya.

Yuqorida bayon qilingan fikrlarni tahlil qilib, qishloq xo'jaligida, jumladan, sug'orladigan tuproqlar meliorativ holatida sodir bo'lgan noxushsalbiy vaziyatning

kelib chiqish sabablariga to'xtaladigan bo'lsak, ular quyidagi lardan iborat:

1. 1950–1960-yillarda va undan keyingi davrlarda qurilgan kollektor zovur tarmoqlarining loyiha ko'rsatkichlaridan ancha kamligi, bajarilgan ishlarning sifatsizligi, ular ustidan nazoratni ta'minlanmaganligi, hozirga kelib yotiq yopiqzovurlarning 50 foizdan ortiqrog'i tik zovurlar asosiy qismining ishdan chiqqanligi, qolganlari samaradorligini o'ta pastligi;

2. Sug'orish va zovur tizimlarining texnik mukammallashmaganligi, sug'orish me'yorlariga amal qilmaslik va nazoratsiz foyda-

lanishdagi sodir bo‘lgan salbiy oqibatlar sizot suvlarining yer yuzasiga keskin ko‘tarilishi, mineralizatsiyasining ortishi natijasida ikkilamchi sho‘rlanish jarayonlarining jadallanishi;

3. Suv tanqisligi bois minerallashgan (sho‘r) zovur suvlaridan ekinlarni sug‘orishdagi ko‘p yillik nazoratsiz fondalanish oqibati-da nasaqat tuproq meliorativ va ekologik holatlarni yomonlashuvi, balki daryo suvlarining ifloslanishi va tuproq unumdorligining pasayishi;

4. Keyingi 20–30 yil mobaynida ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar sabab xo‘jaliklararo va xo‘jaliklar hududidagi kollektor-zovur tarmoqlarining tozalanmasligi (tozalanadigan xo‘jaliklarda 15–20 foizdan oshmaydi); sug‘oriladigan yerlarning melibrativ holati, sifatini hisobga olib borishning o‘ta qoniqarsiz yo‘lga qo‘yilganligi.

5. Tuproqniq turli meliorativ guruhlari xossa va xususiyatlari ni hisobga olmay o‘zlashtirish, jumladan, kuchli gipslashgan, shoxli, arziqli va shunga o‘xhash mahsuldorligi o‘ta past, zichlashgan, o‘zidan deyarli suv o‘tkazmaydigan, sho‘rlashgan tuproqlarni «ananaviy» o‘zlashtirishdagi xato va kamchiliklar, shu bois hosildorlikning o‘ta pastligi;

6. Muhim meliorativ tadbirdardan hisoblangan sho‘r yuvishda tuproqning sho‘rlanganlik darajasi, sho‘rlanish ximizimi (tiplari), mexanik tarkibi, suv o‘tkazuvchanligini hisobga olmaslik, sho‘r yuvish me’yorlariga va muddatlariga amalqilmaslik, oqibatda suv tartibotining keskin buzilishi;

7. Sug‘oriladigan tuproqlar unumdorligini pasayishi va meliorativ holatining yomonlashuviga – organik o‘g‘itlardan ko‘p yillik o‘tlar va sideratlardan foydalanilmagan holda, ko‘p yillar davomida mineral o‘g‘itlar va pestitsidlarini yuqori me’yorlarda ishlatish bilan bokliq agromeliorativ tadbirdarni buzilishi;

8. Almashlab ekishdagagi hozirda ham xukm surib kelayotgan nomuttonosiblik, aksariyat ko‘philik xo‘jaliklarda (dehqon-farmer, shirkat va boshq.) paxta ekini bir necha o‘n yillar davomida beda va boshqa ko‘p yillik o‘tlar bilan almashtirilmagani holda, uning salmog‘i hozirda ham 80–85 foizni tashkil etishi.

## Respublika sug'oriladigan sho'riangan maydonlarning o'zgarish dinamikasi (ming/ga)

№	Viloyatlar	Yillar	Jami sug'oriladi-gan q/x yerlari	Shu jumladan sho'rianganlik darajasi bo'yicha kuchsiz				Shu jumladan sho'rianganlik darajasi bo'yicha kuchli				Jamisho'rlangan yerlar	
				ga	%	ga	%	ga	%	ga	%	ga	%
1	Qoraqalpog'iston	1990	457,2	167,3	36,5	183,7	40,2	74,6	16,3	425,0	93,1		
1	Respublikasi	2000	462,1	110,4	23,9	151,7	32,8	142,9	30,9	405,0	87,6		
2	Andijon	1990	245,3	42,3	17,3	16,5	8,7	4,8	2,0	63,6	25,9		
2		2000	244,4	51,8	22,8	20,3	8,6	4,9	2,2	67,0	23,9		
3	Buxoro	1990	228,0	133,2	58,4	57,3	25,1	16,5	7,2	207,0	90,7		
3		2000	229,2	125,8	54,9	48,2	21,0	31,2	13,6	205,2	89,5		
4	Jizzax	1990	267,3	61,8	23,1	20,0	7,5	8,4	3,1	90,2	33,7		
4		2000	275,7	63,9	36,5	75,7	27,5	38,8	4,1	215,5	78,2		
5	Qashqadaryo	1990	452,3	63,9	30,0	76,7	16,3	38,4	6,3	268,3	59,3		
5		2000	452,2	216,9	48,0	63,3	14,0	31,5	7,0	311,7	68,9		
6	Navoiy	1990	102,1	7,5	7	7,7	70,2	3,1	7,2	92,5	90,6		
6		2000	103,7	49,8	46,7	59,3	7,7	6,7	3,2	76,4	75,4		
7	Namangan	1990	236,7	58,7	25,7	8,7	7,7	6,8	3,2	82,4	34,9		
7		2000	236,5	39,7	2,0	5,6	7,7	7,7	3,1	84,8	34,6		
10	Samarqand	1990	375,3	104,3	33,7	59,9	6,6	0,0	0,0	378,8	41,6		
10		2000	377,0	65,3	32,7	44,7	15,6	4,6	3,3	379,1	40,8		
11	Surhandaryo	2000	279,3	108,4	38,8	47,6	17,0	22,5	8,1	178,5	63,9		
11		1990	233,0	129,3	45,9	59,3	21,0	38,5	13,6	227,6	80,4		
12	Sirdaryo	2000	273,8	115,7	42,3	70,0	25,6	48,9	17,9	234,6	85,7		
13	Toshkent	1990	354,4	29,6	8,4	29,6	0,8	0,3	0,3	328,9	93,5		
13		2000	357,4	63,9	20,8	13,7	3,9	1,0	0,6	360,5	93,5		
14	Farg'ona	1990	307,0	109,0	34,0	30,8	3,8	0,9	0,6	408,4	73,8		
14		2000	306,0	108,0	30,8	30,8	2,9	1,2	1,4	429,9	73,8		
15	Xorazm	1990	241,1	106,0	44,7	31,7	4,8	1,4	1,3	284,4	73,8		
15		2000	241,0	106,0	44,7	31,7	4,8	1,4	1,3	291,9	73,8		
Respublika bo'yicha				182,6	379,4	379,4	602,3	58,2	206,5	416,5	505,5	48,2	
Farqi				182,9	379,9	379,9	603,6	58,2	206,3	416,3	505,3	48,2	
Ciklar				183,2	383,2	383,2	605,6	58,3	206,3	416,3	505,3	48,2	
Farqi				184,7	384,7	384,7	606,6	58,3	207,3	417,3	506,3	48,2	

Hozirgi kunga kelib qishloq xo'jaligida sug'oriladigan yerlar melioratsiyasi borasida tezkorlik bilan hal qilinishi kerak bo'lgan qator vazifalar yirik muammolar vujudga keldiki, bu o'z navbatida mutaxasislar va melioratsiya fanining dehqonchilikka bevosita xizmat qiluvchi amaliy sohasi oldida ham o'ta dolzarb muammolarni qo'yemoqda. Bu muammolarni yechish qator muhim meliorativ tadbirlar o'tkazishni taqazo etadi.

Ikkilamchi sho'rланish jarayonlarini oldini olish va tuproq sho'rsizlanishini ta'minlashning birinchi (radikal) meliorativ tadbiri-hozirda mavjud kollektor-zovur tarmoqlari va tik quduqlar (zovurlar) ning texnik nosozligi va ish samarasnning o'ta sustligi bois vujudga kelgan gidromorf suv, tartibotini yarim gidromorf suv tartibotiga o'tkazish hisoblinadi. Bunda yer osti sizot suvlari sathini «kritik» chuqurlikdan (3,0 m) pastda ushlab turishga qaratilgan barcha tadbirlar majmasi o'z aksini topishi lozim. Bunday qulay meliorativ tizimni yaratish uchun sug'oriladigan yerlarning deyarli yarmisida kollektor-zovur tarmoqlarni qayta qurish, qolgan maydonlarda esa kapital ta'mirlash ishlarini o'tkazish, ularning solishtirma uzunliklarini gektariga 40–50 metrga yotkazish talab etiladi. Bu tadbirni o'tkazish o'ta serxarajat va katta hajmlari kapital mablag'larni talab qilishi bois hozirgi vaqtida joriy etilayotgan xo'jalik shakllarining birortasi ham buni bajara olmaydi. Shuning uchun bu soha markazlashgan uslubda davlat tomonidan to'liq tasarruf etilishi kerak.

Ikkinci asosiy tadbir-sug'oriladigan hududlarda (yerlarda) suv balansining halokatlizmuzilishiga va sizot suvlaringin ko'tarilishiga olib keluvchi sug'orish tarmoqlarini ta'mirlash va texnik qayta jihozlash (gidroizolyatsiya, oblitsovkalash) orqali hozirda ko'pgina sug'orish tizimlarda 40 foizgacha yo'qotilayotgan (sizib ketayotgan) tanqis suvni ortiqcha sarflanishini oldini olishdan iborat.

Meliorativ tadbirlar ichida tuproq sho'rini yuvish muhim tadbirlardan hisoblanadi. Biroq ko'pgina viloyatlarda bu muhim meliorativ tadbirni o'tkazishga yetarlicha ahamiyat berilmaydi, texnik nosoz, ish samarasi past kollsktor-zovur tarmoqlari yordamida sho'r yuvish me'yorlariga amal qilinmagani holda o'tkaziladi, bu ishlar

o‘z navbatida salbiy oqibatlarga olib keladi. Tuproq sho‘rini yuvish tadbirini o‘tkazishdan oldin esa barcha mavjud zovur tarmoqlarini ishchi holatiga keltirish (tozalash), tuproqning sho‘rlanganlik darajasi, sho‘rlanish tipi (ximizmi), mexanik tarkibi, suv o‘tkazunchanlik xossalalarini hisobga olgan holda sho‘r yuvish me’yorlarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tadbirni o‘tkazish (sho‘r yuvish) uning birinchi etapida tuproqni sizot suvlarigacha bo‘lgan qatlamlaridagi zararli tuzlardan mumkin qadar tozalangaida, ikkinchi etapida esa sho‘r yuvish va zovurlar yordamida sizot suvlarini mineralizatsiyasi maqbul ko‘rsatgich litrda 2 grammgacha kamaytirilgan xolatlarda sifatli o‘tkazilgan hisoblanadi.

Sho‘r tuproqlar melioratsiyasi muammolarida yuqorida bayon etilgan uchta muhim meliorativ tadbirlardan tashqari yana bir qator muammolar borki ularning yechimini nazarimizdan tushirib qoldirmasligimiz zarur. Jumladan,

- Sug‘oriladigan yerlar sifati va mahsuldorligini kuzatib borish qoniqarsiz tashkil etilgan, bu ishlar aniq kartografik asosga va har 5 yilda o‘tkazilib turiladigan maxsus tuz xaritalar (solevaya s‘yomka) materiallariga suyanmagan. Melioratsiyalangan yerlar holatiga oid zarur ishonarli ma’lumotlar taminlanmagan, tuproq sho‘rlanishdagi har yilgi o‘zgarishlar qayd etilmaydi va bular noma’lumligicha qolib ketadi.

- Melioratsiyaluvchi yerlarda inventarizatsiya ishlarini o‘tkazish, ularni hisobga olishda har bir xo‘jalik, tuman va viloyatlar doirasida melioratsiya, agromelioratsiya hamda, madaniy-texnik tadbirlar talab etuvchi alohida yer maydonlari aniqlanib ajratilmaydi. Keyiichalik esa melioratsiyalangan dalalarda muntazam kuzaishlar olib borilmaydi.

- Sug‘oriladigan yerlar ichidagi 30–40 foizgacha maydonlarda sho‘rxokli dorlar alohida o‘ziga xos meliorativ tadbirlarnitalab etadi. Amalda esa bu yerkarda bir xilda ishlov berilib paxta(ekinlar) ekiladi. Natijada normal hosil-tuzlardan tozalangan (yuvilgan) va qisman kuchsiz sho‘rlangan maydonchalardan olinadi. Sho‘rxok dog‘li yerlarda sifatli planirovka (tekislash) o‘tkazish va bu “dog‘larni” to‘la sho‘rsizlanguncha yuvish amalda yo‘q.

- Yirik masshtabdagi tuproq, tuproq-meliorativ, tuproq bonitirovkasi va boshqa xaritalar, turli xaritogrammalar tuzishda yanada tezkor uslublar ishlab chiqilmagan. Xaritalash va xaritogrammalash jarayonlari zamonaviy uskuna va kompyuterdan foydalanish asosida avtomatlashtirilmagan, respublika tuproqlarining universal bank ma'lumotlari to'la yaratilmagan, respublikaning barcha hududlarida ekologiya-meliorativ monitoring stantsiyalari hanuzgacha tashkil etilmagan, shu bois tuproq unumdorligi xolatlari muntazam kuzatilmaydi.

- Sug'oriladigan yerlar unumdorligini boshqarishdagi matematik modellashtirish murakkab va hozirgacha hal etilmagan muammo bo'lib qolmoqda. Sug'oriladigan va melioratsiyalangan tuproqlarni agromeliorativ holatini va sug'orish suvlari sifatini baholash vanazorat qilishning tezkor uslubiyotlari mukammallashmagan va amalda qo'llanilmaydi.

- Melioratsiyalananuvchi yerkarni va ularni holatini masofadan-turib (distantsionnoe zondirovanie), ya'ni aerokosmik materiallar yordamidasifat va miqdoriy aniqlash (hisobga olish) tajribasi yo'q va ulardan deyarli foydalanilmaydi. Tuproq sho'rlanganligini baholovchi xalqaro standart va uslublar sust darajada joriy etilgan.

Ko'zlangan maqsadga faqat sug'orish va zovur tizimlarini mu-kammal ta'mirlash va qayta qurish kabi umum tadbirlarini o'tkazish, yangi turdag'i zovurlar tizimi texnologiyasini, sug'orma dehqonchilikda tuproq gumus balaney notanqisligini ta'minlovchi va tuproq suv-fizik, fizik-kimyoviy, biokimyoviy, meliorativ xossalari mutadilligini ta'minlovchi yangi qator umum tadbirlar ishlab chiqish orqali erishish mumkin. Bu ishlar umumiyligi va Tuproq melioratsiyasi sohasida ilmiy – tadqiqot ishlarini yanada rivojlantirishni va takomillashtirishni taqazo etadi.

## **OROL DENGIZI HUDUDI TUPROQLARINING EKOLOGIK VA MELIORATIV HOLATI**

Tabiat va inson o'rtaсидаги о'заро муносабатлар ма'lum qonuniyatlar asosida sodir bo'ladi, uning buzilishi esa ekologik halokatlarga olib keladi. Orol dengizining asosiy suv manbaalari

bo‘lgan Amudaryo va Sirdaryoning maqsadsiz sug‘orishlarga ishlatilishi dengiz sathining oldingi geografik chegaralaridan keskin pasayishiga, Orol ekologik tangligini (buhronini) rivojlanishiga olib keldi.

Orol havzasi cho‘l zonasida tez suratlar bilan ortib borayotgan aholi muhtojligini ta‘minlash maqsadida 1959–1990-yillar mobaynida Markaziy Osiyoning barcha (5 ta) respublikalarida o‘ndan ortiq kichik (5 ming gektargacha) muhim sug‘orish tizimlari (massivlar), umumiyl maydonlari 1687 ming gektardan ortiq bo‘lgan 11 ta yirik vohalar tashkil etildi, 20 dan ortiq turli suv omborlari, gidrotexnik inshootlar qurildi. Orol dengizi akvatoriyasi maydonlarining qisqarish jarayonlari, Amudaryo va Sirdaryo hamda dengizga tutash boshqa hududlar deltasidagi namlik zonalarining yo‘qolishi (sahrolanish) qum-tuz sahrosini, kuchli shamol jarayonlari bazisini keltirib chiqardi.

Orol dengizi to‘rtlamchi davrda paydo bo‘lgan yirik kontinental botiqlik, pastqamlikdan iborat. 1960-yilda Orol dengizi yuzasi 65,3 km<sup>2</sup> maydonni egallab, mineralizatsiya darajasi 10–12% g/l bo‘lgan 1062 km<sup>2</sup> hajmdagi suvni o‘zida to‘plagan, suv sathi 53 m absolyut belgida joylashgan. Dengizning o‘rtacha chuqurligi 16, eng chuqur joyi esa 68 metrni tashkil etib, bu davrda dengiz suv balansida deyarli tenglik saqlangan suvning bug‘lanishga sarflanishi yiliga 60 km<sup>2</sup> (1900 m<sup>3</sup>/s), atmosfera yog‘inlari 6,6 km<sup>3</sup> (207 m<sup>3</sup>/s), Amu va Sirdaryodan kelib quyiladigan suv hajmi 53,4 km<sup>3</sup> (1693 m<sup>3</sup>/s) ni tashkil etgan. 1960-yillardan boshlab suv balansidagi tafovut keskin buzilib, yiliga suv sathining 0,2–1,0 m tezlik bilan sayozlanib ketayotganligi kuzatilmoxda. 1989-yilda dengiz suv sathi maydoni 397 ming km<sup>2</sup> ga teng bo‘lib undagi suv hajmi 405 km<sup>3</sup> ni, mineralizatsiya darajasi o‘rtacha 13–15 g/l ni tashkil etib, 40 metrga teng bo‘lgan absolyut belgida joylashgan bo‘lsa, 1991-yilda suv sathi 37,4 m belgigacha, suv yuzasi maydoni 35 ming km<sup>2</sup> ga ga va yeuv hajmi 335 km<sup>2</sup> ga ga qisqardi. Shunday qilib o‘tgan 30 yil maboynda dengiz suv hajmi 692 m<sup>3</sup> (yiliga o‘rtacha 23 km<sup>3</sup>) ga qisqardi, suvining sho‘rlanganlik darajasi 20–25 g/l gacha oshdi. Undan keyingi davrlarda (1991–2011) bunday salbiy jarayonlarni yanada jadallahayotganligi kuzatilmoxda.

Ma'lumotlarga qaraganda 1960–1990-yillar mobaynida Markaziy Osiyoda sug'oriladigan yerlar maydoni 4,5 mln. hektardan 7,8 mln. hektarga ko'paygan. Region aholisi esa 14 mln. dan 50 mln. kishiga yetgan. Shu bois xalq xo'jaligidagi suvga talab 60 km<sup>3</sup> dan 120 km<sup>3</sup> gacha ortgan. Orol dengizini hozirgi xolatda saqlab qolish uchun esa dengizga har yili 23–25 km<sup>3</sup> suv tushirish talab etiladi. Dengizni suv omborlari bilan ta'minlovchi asosiy daryolar Amudaryo va Sirdaryo suvlardan noto'g'ri va ilmiy asoslanmagan maqsadlar uchun foydalanish Orol halokatini keltirib chiqardi, uni endilikda asrab qolish nafaqat O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari muammolariga, balki xalqaro muammoga aylandi.

1974-yilda Amudaryoda Taxiatosh platinasi, bir necha yildan keyin esa Tuyamuyin suv ombori qurildi. Natijada Amudaryo suvi oqimi keskin qisqardi, suv sathi pasaydi bu o'z navbatida yer osti suvlarning 4–6 metrgacha pasayishiga va to'qayzorlarni buzilishiga sabab bo'ldi. 70-yillarning o'rtalaridan boshlab Amudaryo o'zanida (quyi qismida) Yevroosiyoda eng yirik hisoblangan maydoni 600 ming hektardan ortiq to'qayzorlar (to'qay, o'rmonlar) quriy boshladи, hozirga kelib ayrim-ayrim joylarda saqlanib qolgan, holos. Bugungi to'qayzorlar ko'p jihatdan o'zining ekologik ahamiyatini yo'qotdi lekin tabiatni asrash vazifasini bajarib, daryo qirg'oqlarini yemirilishidan, buzilishidan saqlab kelmoqda.

Qurg'oqlanish va sahrolanish jarayonlari oqibatida o't-pichan va yaylovlar maydonlari keskin qisqardi, ularning hosildorligi kamaydi. 1960-yillardagi 420 ming hektar o't-pichan (senokos) maydonlaridan 1980-yil oxiriga kelib bor-yo'g'i 70–75 ming hektari saqlanib qolindi. Bu maydonlarning 6 marta qisqarishi natijasida doimiy namlanib turadigan hududlarda senokoslarning hosildorligi 15–40 sentnerdan (o'simlik quruq massasi hisobida) 3–16 sentnerga, namlanmaydigan, sahrolanib borayotgan hududlarda esa 7–22-marta kamayib 6,7–0,8 sentnerga tushib qoldi. Katta o'zgarishlar boshqa o'simlik qoplamlarida ham sodir bo'lmoqda. Har yili tuproq sho'rланishining ortishi bois o'simliklar olamida namni sevuvchi va sho'rga chidamsiz o'simliklar yo'qolib ketmoqda.

Dengiz qurigan tubidagi chang-tuzli tuzonlarni shamol yordamida tarqalishi natijasida boshqa tutash qo'shni hududlarda tuproq sho'rланishining jadallahuvি ancha ortdi. Bir qator pastqam maydonlarda (dengiz atrofi, polosalarida) sho'rxoklarning shakllanishi tezlanib asosiy ozuqa hisoblangan o't o'simliklar deyarli nobud bo'ldi.

1985-yildan boshlab Amudaryo suvining mineralizatsiyasi keskin ko'tarildi. 1960-yillar ko'rsatkichlariga qaraganda hozirda suvning o'rtacha yillik mineralizatsiyasi 2,5- 3,0 barobar oshgan. Orol bo'yi regionida (Qoraqalpog'iston) yagona ichimlik suv manbai bo'lgan Amudaryo suvining sho'ranganligi ortgan.

Bir paytlar odamlar orasida deyarli uchramaydigan "ekologiya", "atrof-muhit tozaligi" kabi tushunchalar bugungi kunga kelib nafaqat kundalik suhbatlar, balki davlatlar siyosatidan muhim joy oldi. Orol dengizi va uning atrofida yuzaga kelgan ekologik "bo'ron" insoniyatning yuqorida aytilgan ana Shunday nooqilona harakatlari natijasi ekani hech kimga sir emas. Bugun nafaqat O'zbekistan, Markaziy Osiyo, balki qo'shni qit'alar xalqlari hayotiga ham xavf solayotgan bu ofat o'z ko'lami bilan keyingi yuz yillikning yirik fojealaridan biriga aylandi. Suv sathi 16 metrgacha keskin pasaygan orol o'z dardiga insondan najot kutmoqda. 3,3 million gektardan ortiq suvi qochgan yerlardan ko'tarilayotgan millionlab tonna qum-tuzli tuzon esa sayyoramizning olis nuqtalariga yetib borayotir.

Orol dengizi hududlari inson nazoratidan butunlay chiqib nosog'lom mintaqqa deb e'lon qilingan. Bu regionda tuproqlarning ekologik va meliorativ holatlari o'ta yomonlashib, kuchli sho'rangan yerlar maydonlari yil sayin ortib borishi mintaqada murakkab iqtisodiy va sotsial muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bundan nafaqat qishloq xo'jaligi, balki qadimiy arxeologik yodgorliklar, yuqori kuchlanishdagи elektr simi tarmoqlari va simyoroch fundamentlari ham katta zarar ko'rmoqda, ularni ta'mirlash esa katta mablag' va mehnat talab etmoqda. Yaqin vaqtlargacha Ellikqal'a tumanida 50 ga yaqin tarixiy yodgorliklar mavjud bo'lgan bo'lsa, hozirda ularning soni 30 taga yaqin. To'rtkul tumanida eramizdan

oldingi IV asrda ko‘rilgan va o‘z faoliyati bilan observatoriya hisoblangan «Qo‘yqirilgan qal’ा» butunlay yo‘qolib ketdi.

Keyingi o‘nyil ichida (1990–2011-yil) turli darajada sho‘rlangan yerlar maydoni Qoraqalpog‘iston respublikasida 87,4 foiz dan 93,1 foizgacha, Xorazm viloyatida 72,3 foizdan 89,7 foizgacha ko‘paydi, shundan hosildorlikni 40–60 foizgacha kamaytiradigan o‘rtacha va kuchli sho‘rlangan yerlar maydoni 63,7 va 50,3 foizni tashkil etadi. Regiondagи meliorativ vaziyatning yomonlashuvi sug‘orish suvlari sifatining yomonlashuviga va mineralizatsiyasining ortishiga sabab bo‘lmoqda, tozalanmagan zovur suvlarining daryolar va boshqa suv manbalariga tashlab yuborilishi kayta sug‘orishda ikkilamchi sho‘rlanish jarayonlarini faollashuviga olib kelmoqda.

1990-yilgacha sug‘oriladigan har bir gektar yerga o‘rtacha 700–1000 kg mineral o‘g‘itlar ishlatildi. Qo‘llangan azotning faqat 35–40 va fosforning 15–20 foizi o‘simliklar tomonidan o‘zlashtirildi, qolgan qismlari qiyin o‘zlashtiriluvchi formalarga aylanib yoki gurunt suvlarigacha yuvilib ketdi. Tadqiqotlar zovur suvlarini tarkibida 25 foizgacha azot 5–10 foiz fosfor mavjudligini isbotladi, Yerlarga solinayotgan zaharli ximikatlar (inseltitsidlar, gerbitsidlar, fungitsidlar, defo-lyantlar va boshqa.) gektariga o‘rtacha 50 kg ni, bu ko‘rsatkich sobiq ittifoq bo‘yicha qo‘llanilgai me‘yordan 25-marta ortiq me‘yorni tashkil etib, tuproqdan olib chiqib ketilishi 4–5 foizdan oshmagani holda qolgan miqdorlari tuproqda barqaror ushlab qolinib o‘simlik va boshqa tirik organizmlar tomonidan o‘zlashtirildi, natijada olinyotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifatiga putur yetdi.

## TUPROQ – MELIORATIV MONITORINGI

Tuproq meliorativ holatini yaxshilash, oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish ishlari tuproq holatlari, uning inson faoliyatini ta’sirida o‘zgarishlari to‘g‘risidagi barcha ma’lumotlarni taqazo etadi.

Yer qobig‘i, gidrosfera, atmosfera va quruqlikda hayot kechiruvchi organizmlar o‘rtasida moddalar almashuvida sodir bo‘ladigan jadal jarayonlarda biosferaning aloqa vositasi bo‘lgan tuproqning roli nihoyatda katta, u atrof muhitni keng doirada

kuzatishning ayrim qismi bo‘lgan tuproq holatlarini alohida kuzatish zarurligini belgilaydi.

Monitoring deganda yer fondlari holatini baholash va bashorat qilish, tuproqdan oqilona foydalanish va muhofaza qilish maqsadida bo‘layotgan o‘zgarishlarning uzoq muddatli kuzatishlari tushuniladi. Kuzatishlar global, regional va lokal bo‘lishlari mumkin. Global kuzatishlar biosferaning umumplanetar, qit‘a o‘zgarishlarining kuzatishlar tizimi. Regional kuzatishlar yirik tabiiy-iqtisodiy mintaqalar, tumanlar miqyosidagi kuzatishlar va lokal ma’lum bir hudud, joyning o‘zgarish jarayonlarini kuzatishni o‘z ichiga oladi.

Tuproq qatlamlari, shu jumladan, tuproq-meliorativ holatini kuzatish xizmatlarini tashkil etish zaruriyati yildan-yilga muhim va o‘tkir muammo bo‘lib qolmoqda, chunki insонning tuproqqa ko‘rsatayotgan ta’siri suratlari doimo oshib bormoqda. Ikkinchisi tomonidan global antropogen o‘zgarishlarning tuproqga ko‘rsatayotgan ta’sirining umumiyligi hajmi tabiiy omillar ta’siri bilan qo‘shilib ketgan (79-jadval).

Yerlarning meliorativ holatini kuzatish oldida turgan vazifalarning umumiyligi ro‘yxati yetarlicha katta. Kelajakda yangi vazifarlar qo‘shilib, bugungi kundagi vazifalarning bir qismi kun tartibidan olib tashlanishi mumkin. Lekin hozirgi vaqtida Shunday nazorat hali zarur. Tuproqtsan foydalanishning ayrim hollarida sodir bo‘ladigan jarayonlarda kun tartibidan kuzatishlar va nazorat qilish aslo olinmaydi.

Hozirgi davrda yerlarning meliorativ holatini kuzatishning muhim vazifalari quyidagilardan iborat:

- Hududlardagi sho‘rlangan tuproqlarni aniqlash va baholash, nazorat qilish, tuproqlarni tuz tartibotlari o‘zgarishni nazorat qilish.
- Ikkilamchi sho‘rlanishga uchragan tuproqlarni bashorat qilish va baholash.
- Suv, shamol va irrigatsion eroziyaga uchragan yerlarni o‘z vaqtida payqab olish va hisobga olish.
- Eroziya rivojlanishi natijasida tuproqning o‘rtacha yillik yo‘qolishini baholash.

- Tuproqda gumusning kamayish jarayonlarini baholash va nazorat qilish.
- O'simliklarning asosiy ozuqa elementlari balansi tanqis regionlarini aniqlash va bu elementlarini miqdorini nazorat qilish.
- Tuproqda kislotali va ishqoriy muhitning o'zgarishini nazorat qilish.
- Tuproqni o'ta zichlanishini nazorat qilish.
- Tuproqni og'ir metallar bilan ifloslanishini nazorat qilish.
- Tuproqning sanoat korxonalari ta'siri zonasida, transport-magistrallarida og'ir metallar va radionukleidlardan lokal ifloslanishini, Shuningdek agroximikatlar, pestitsidlardan va aholi zich joylashgan hududlarda sanoat chiqindilardan foydalanishni nazorat qilish.
- Tuproqdagagi namlik, harorat, struktura holati, suv-fizikaviy va fizik-mekanik xossalalarini davriy va uzoq muddatli nazorat qilish.
- Gidromorf va yarim gidromorf sharoitlarda grunt suvlarining chuqurligini, mineralizatsiyasini va ifloslanishini davriy va uzoq muddatlar nazorat qilish.
- Yerlarni gidroqurilish jihatdan loyihalashda, melioratsiyalashda, dehqonchilikni yangi tizimlarini joriy qilishda, o'g'itlar, o'simliklarni kimyoviy himoya qilish vositalari va turli biotexnologiyalar ko'llanilganda tuproqda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni aniqlash va nazorat qilish.

Haydaladigan yaroqli unumdar tuproqlarni, ayniqsa meliorativ maqbul, kulay yerlarni sanoat va kommunal maqsadlari uchun ajratishda ularning maydoni va to'g'rilingini inspektorlik nazorat qilish.

Yerlardan foydalanishning to'g'rilingini, ilmiy asoslanganligini, Shuningdek melioratsiyaga muhtoj (sho'rangan, eroziyaga, uchragan, toshloq, o'ta zichlashgan, gumusi kamayib ketgan, ifloslangan, o'ta namlangan, qurib ketgan va boshqalar) tuproqlarda agrotexnik va agromeliorativ tadbirlarni aniqligi va to'g'rilingini inspektorlik nazorat qilish.

**Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan barcha MDH yerlarning melioratsiyaga muhtojligi (V.A.Kovda ma'lumotlaridan)**

Qish. xo'j. yerlar hosildorligini cheгараловчи омиллар	Hayda- ладиган верлар	O't-o'lan maydon лар, yaylov- лар	Qishloq xo'jaligidagi верлар hosildorligini cheгараловчи омиллар	Hay- да- диган верлар	O't- o'лан maydon лар, yaylov- лар
Qurg'oqchilik	160	300	Toshloq verlар	7	30
Suv eroziysi	120	195	Texnogen buzilgan verlар	2	-
Deflyatsiya (shamol eroziysi)	12	80-195	Strukturani yo'qolishi	200	-
Nordon muhit	64	13	Gumusning yo'qotilishi	200	-
Ishqoriy muhit	22	67	Fosforning o'tkir tanqisligi	100	-
O'ta namlanish	10	17			

Yuqorida sanab ko'rsatilganlar ko'proq umumiylar tarzda va mumkin qadar to'la bo'lmagan vazifalar ro'yxati bo'lib, ular Respublikaning tuproq-geografik, iqlimiylar va iqtisodiy rayonlashtirish, tuproq kuzatish obyekti, shu jumladan yerlarning meliorativ holatini kuzatishdan kelib chiqib tabaqlashtirilishi mumkin.

Tuproq melioratsiyasi qat'iy ilmiy yondoshishga asoslangan doimiy ish hisoblanib, bu O'zbekistonning qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturining va yerlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilishning huquqiy asosini yaratishning muhim qismi bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi» hamda «Davlat yer kadastri», «Dehqon xo'jaligi to'g'risida» «Fermer xo'jaliklari to'g'risidagi» va boshqa qonunlar va me'yoriy hujjatlarda o'z aksini topgan.

Shu bois hozirgi davrda Tuproq melioratsiyasi ning asosiy vazifalariga tuproq qoplamlari va tuproq meliorativ holatlarini chuqur va har tomonlama batafsil o'rganish asosida respublika tuproqlarini to'la tekshirish o'tkazish, geosfera va iqtisodiy rivojla-

nish tabiiy resurslari tizimlarining bir dinamik tizimchasi sifatida ularning holati va potentsial imkoniyatlariga baho berish, shular asosida barcha holatlarni hisobga olgan holda yerlarni muxrfaza qilish, meliorativ holatini yaxshilash va unumdorligini oshirishga qaratilgan ekologik va iqtisodiy asoslangan texnologiyalarni ishlab chiqish kiradi.

## IX BOB. SUBTROPIK SUG'ORILADIGAN HUDUDLARINING TUZ-SUV TARTIBOTLARI

Sun'iy sug'orish yuqori potentsial cho'l va cho'l-dasht tupoqlarini uyg'otuvchi yagona kuchli vosita hisoblanadi. Markaziy Osiyo quruq subtropiklarining dasht tumanlarida sug'orish tadbirlarini keng rivojlantirish natijasida unumsiz ulkan maydonlar gullab-yashnagan yuqori hosildor vohalarga aylanib bormoqda (Mirzacho'l, Qarshi cho'li, Vaxsh va Surhandaryo vodiysi).

Ammo sug'orish natijasida mazkur bo'z yerlarda asrlar davomida to'plangan barcha geokimyoviy jarayonlar o'zgaradi. Bunda, suv balansining o'zgarishi va uning natijasi o'laroq, tuz balansining o'zgarishi sug'orishning muhim oqibatlaridan biri hisoblanadi. Dastlab daryo arteriyalaridan (Sirdaryo, Amudaryo, Zarafshon va b.) sug'orilmaydigan maydonlar orqali yakuniy bug'latuvchi-havzaga (Orol dengizi) o'tib kelgan tuz massalari endilikda sug'orish suvlari bilan dalalarga tushmoqda va vaqtincha ushlanib qolmoqda. Suv balansining o'zgarishi natijasida ayrim maydonlarda ba'zan yuqorigi qatlamlarda ko'plab tuz to'planishi kuzatilmoqda, tuproq sho'rланib sug'orish mashaqatlari qadrsiz bo'lib qolmoqda. Bu holat yuzaga kelmasligi uchun sug'orish bilan bir qatorda tuz massalarini sug'oriladigan maydonlardan davomli olib chiqib ketishga yo'naltirilgan (uning vaqtinchalik bo'lsada to'planib qolishiga yo'l qo'yilmagan holda) texnik choralar qo'llash lozim (Tojiyev, 1969, 1970).

Quyida O'zbekiston vodiylarini sug'oriladigan tumanlarida jumladan, Mirzacho'l, Surhandaryo, Qashqdaryo va Zarafshon vodiysida yuqori miqdordagi tuz zahiralariga ishlov beri shva tuz to'planish jarayonlarini muvaffaqiyatli boshqarish natijasida yuzaga kelgan tuz-suv balansi miqdoriy bog'liqliklari to'g'risidagi ayrim mulohazalar ustida to'xtalib o'tamiz.

Maydonning tuz balansi uzlusiz ravishda suv balansiga bog'langan. Agarda tuzning shamol orqali ko'chishi va diffuziya yo'li bilan harakatlanishini e'tiborsiz deb qabul qilinsa, u holda amalda uning yagona transport vositasi harakatlanuvchi suv bo'lib qoladi. Kuchli darajada qurg'oqchillashgan tuproqlarda tarqalgan

tuz massalari nisbatan harakatsiz bo‘ladi, ular tuproq eritmalarini bilan asriy harakatni kechiradi xolos.

U yoki bu qatlamdagi tuz kontsentratsiyasi va zahirasi miqdori, har qanday sharoitda ham, muayyan nisbatdagi suv balansiga bog‘liq. Faqatgina to‘g‘ri yo‘naltirilgan holda mazkur nisbatni o‘zgartirish orqali maydon chegarasida tuz zahiralarini boshqarish va ularni biror ruxsat etilgan darajada ushlab tura olish mumkin. Shu bois, tuz balansi haqida gapirar ekanmiz, hammadan ham ko‘ra, turli gidrogeologik sharoitlardagi suv balansi xususiyatlari to‘g‘risida to‘xtalish lozim.

Maydon suvining umumiyligi balansi kirim qismi – atmosfera yog‘inlari miqdori ( $W_{os}$ ), sizot ( $W_{gr}$ ) va sug‘orish ( $W_{or}$ ) suvlardan, chiqim qismi esa – tuproq ichida oqishi ( $W_{gr}$ ), tabiiy yoki sun’iy zovur tizimi orqali oqib ketishi ( $W_{dr}$ ) va bug‘lanish ( $Ye$ ) dan iborat. Demak, balans davri uchun suv balansi qoldig‘i ( $\Delta W$ ) quyidagicha:

$$\Delta W = (W_{gr} + W_{os} + W_{or} - W_{gr} + W_{dr} + E). \quad (1)$$

Sug‘orilmaydigan massivlarda  $W_{or}$  darajasi zovurlanmagan tarmoqlardagi  $W_{dr}$  sarfi kabi mavjud emas.

Maydonning sizot suvlari balansining kirim qismi baland joylashgan massivlardan oqib keluvchi sizot suvlari ( $W_{gr}$ ) va yuza qatlamdan sizib kirgan ( $J$ ) suvgaga to‘yinishidan iborat, chiqim qismi esa – past joylashgan massivlarga sizot suvlaringin oqib ketishi ( $W_{gr}$ ), zovur oqimi ( $W_{dr}$ ) va bug‘lanishdan ( $Ye_{gr}$ ) iborat, demak sizot suvlari balans qoldig‘i ( $\Delta W_{gr}$ ) quyidagicha:

$$\Delta W_{gr}^{obsh} = (W_{gr} + J) - W_{gr} + W_{dr} + E_{gr}. \quad (2)$$

Suvning kirim va chiqim balansi jami o‘lchamiga bog‘liq ravishda qoldiq nol, mubat yoki manfiy ko‘rsatkichlarda bo‘lishi mumkin. birinch holatda, ya’ni kirim chiqimga teng bo‘lsa, maydon suvining statistik zahirasi doimiy bo‘ladi va sizot suvlari sathi balans davri oxirida dastlabki chuqurligida ifodalanadi. Ikkinci holatda, ya’ni kirim chiqimdan ko‘p bo‘lsa, suvning statistik zahirasi  $\Delta W_{gr}$  da ortadi va sizot suvlari sathi asta-sekin ko‘tarilib boradi. Uchinchi holatda, ya’ni chiqim kirimdan ko‘p bo‘lsa, suvning statistik

zahirasi  $\Delta W$  sarflana boshlaydi va balans davri oxirida sizot suvlari sathi dastlabkidan ancha pastga tushib ketadi.

Suv balansi kirim va chiqim qismlarining yuqorida keltrilgan nisbatga bog'liq holdagi sizot suvlarining mazkur uchta asosiy tartibini V.A.Kovda (1946) quyidagicha farqlaydi: 1) kompensatsiyalangan holda o'rashgan (davriy); 2) o'rashmagan, musbat kompensatsiyalangan; 3) o'rashmagan, manfiy kompensatsiyalangan.

Sizot suvlari chuqur joylashgan sug'orilmaydigan massivlarda uchinchi ko'rsatmaning balansi sizot suvlarining oqib Kirishi va oqib ketishi bilan belgilanadi. Mazkur sharoitlarda bug'lanish va o'simliklar orqali transpiratsiyada faqatgina atmosfera yog'inlari sarflanadi xolos. Agar uning bir qismi kuchli sariq tuproq qatlami orqali singib sizot suvlarigacha yetib borsa ham, u muayyan joylarda (jarlik, turg'unliklar) juda ham seztarsiz miqdorlarda bo'ladi. U sizot suvlari balansini sezilarli o'zgartira olmaydi. Shu bois, mazkur holatda sizot suvlari tartibi doimiy – o'rashgan, ya'ni sizot oqimlari hisobigagina kompensatsiyalangandir. Bunda, sizot suvlari balans darajasi  $J=E_{gr}$  nolga yaqin,  $W_{gr}$  esa  $W_{gr}$  ga teng, demak:

$$\Delta W_{gr}^{obs}=W_{gr}-W_{gr}=0$$

Sizot suvlari sathi yaqin joylashgan sug'orilmaydigan massivlarda yer osti sizot oqimlari ( $W_{gr}$ ) odatda pastqam yerlar sizot oqimi ( $W_{gr}$ ) va chuqur tabiiy zovurlardan ( $W_{dr}$ ) ko'proqdir. Bunda tashqari, atmosfera yog'inlarining bir qismi nisbatan kuchsiz aeratsiyalangan mintaqalar orqali singib sizot suvlarigacha yetib boradi va ularning ( $J$ ) qo'shimcha to'yinishini yuzaga keltiradi. Agar sizot suvlari ko'tarilib, yer sathiga nisbatan muayyan chuqurlikkacha yetib kelsa, u holda bug'lanish ( $Y_{gr}$ ) kabi suv zvhirasini boshqaruvchi kuchli omil ham qo'shiladi. Sizot suvlari ko'tariliishi asnosida, ularning bug'lanishga sarflanishi ham ortib boradi (to bug'lanuvchanlik o'lchamiga yetmaguncha). Sizot suvlarining to'yinishi bug'lanuvchanlikdan yuqori bo'lgan maydonlarda suv

sathi yuzagacha yetib keladi va botqoqlik, ko'l yoki yuza oqimlar hosil bo'ladi (masalan, Arnasoy ko'li, Dengizko'l va b.).

J va  $Ye_{gr}$  o'lchamlari mavsumlar bo'yicha o'zgarib turadi. Uning yillik doira bo'yicha kechishini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$(W_{gr} + J) = (W_{gr} + W_{dr} + E_{gr}) \text{ yoki } E = (W_{gr} + J) - (W_{gr} + W_{dr}).$$

Yozda bug'lanuvchanlik keskin ortadi. Sug'orilmaydigan dalalarda bu vaqtida  $J$  o'lchami nolga teng bo'ladi,  $Ye_{gr}$  sizot suvlarining to'yinishi va ularning oqib ketishi o'rtasidagi tafovutni oshiradi. Bunda suvning bug'lanishga sarfi oqimning kelib turishiga tenglashmaguncha sizot suvlarining sathi pasayib boraveradi. Kuzda sizot suvlari bug'lanishining pasaya borishi bilan, ularning sathi yana ko'tarila boshlaydi. Qishda bug'lanish minimal o'lchamga kelib qoladi, atmosfera yog'inlarining sizib o'tishi esa sizot suvlarining to'yinishini oshiradi. ularning zahirasi ortadi va bahorga kelib ularning sathi dastlabki, eng yuqori bo'lgan holatiga qaytadi. Mazkur holatdagi tartibda ham balans o'rnatshgan hisoblanadi, ammo u faqatgina oqib ketish emas, balki bug'lanish bilan ham kompensatsiyalangan.

Sug'oriladigan maydonlarning suv balansi [tenglama(1)] mazkur balansgacha bo'lgan lalmi yerlardagidan kuchli farq qiladi: birinchidan, bu yerda kirimning Yangi tarmog'i ishtirok etadi – sug'orish suvlari ( $W_{or}$ ); ikkinchidan, chiqim qismida bug'lanish o'lchami ( $Ye$ ) ortadi.

Sizot suvlari chuqr joylashgan lalmi yerlarda faqatgi-na atmosfera yog'inlari bug'lanadi, uning miqdori bug'lanuvchanlikdan bir necha marta kichik. Sug'oriladigan tumanlarda esa yog'ingarchilikdan tashqari, sug'orish suvlari ham bug'lanadi, shu bois bu yerda bug'lanish keskin ortadi va bug'lanuvchanlik o'lchamiga yaqinlashadi. Sug'orish tizimlariga berilgan suvning miqdori, amalda har doim uning bug'lanishga sarfidan yuqori bo'ladi hamda sug'orish suvlarining katta qismi pastga singadi va hatto eng chuqr sizot suvlarigacha yetib boradi.

Agarda barcha irrigatsiya tizimlari izolyatsiyalansa va suv tuproqning ildiz joylashgan qatlamigagina talabga ko‘ra aniq sarflansa, u holda bir necha yillardan so‘ng tuproq sug‘orish suvlari keltirgan tuzlar bilan u yoki bu darajada sho‘rlanib qoladi. Bu holat yuzaga kelmasligi uchun vaqtiga vaqt bilan tuzlarni yuqorida pastki qatlamlarga va sizot suvlariga haydash uchun sho‘r yuvish tadbirlari o‘tkaziladi. Binobarin, hattoki ideal darajada tashkil etilgan sug‘orishda ham sizot suvlarining to‘yinishi ortadi va uning sathi u yoki bu tezlikda ko‘tarila boshlaydi. Mazkur holatda sizot suvlari sathi tartibi musbat dekompensatsiyalangan hisoblanadi.

Tuproqdagi tuz zahirasini boshqarish zaruriyati orqali yuzaga kelgan sizot suvlarining qo‘srimcha to‘yinishi odatda yuqori emas. Ayrim hollarda u qiyalikning ortishi hisobiga sizot suvlarining oqib ketishi bilan kompensatsiyalanganadi. Mazkur holatda sug‘orish tarmog‘iga berilgan suvning qariyb 50% i yerga singib ketadi. Bunday sharoitda sizot suvlari oqib ketishining ortishi faqatgina mustasno hollardagina sizot suvlarining qo‘srimcha to‘yinishini kompensatsiyalaydi (masalan, baland jarlikka ega bo‘lgan Surhandaryo, Qashqadaryo, Zarafshon, Chirchiq daryolarining nisbatan tor terrasalari). Ko‘pgina sug‘oriladigan tumanlarda sizot suvlari sathi ularni bug‘lanish va zovur tizimi orqali oqizish yo‘li bilan barham bermagunga qadar ko‘tarilib boradi.

Shunday qilib, sizot suvlarining sobiq lalmi sharoitlardagi, oqi ketish bilan kompensatsiyalangan o‘rnashgan tipdag‘i tartibi sug‘orishning boshlanishi bilan o‘rnashmagan, musbat dekompensatsiyalangan tipga aylandi. Oxirgisi o‘z navbatida yana o‘rnashganga qaytdi, ammo u endilikda faqatgina sizotning oqib ketishi bilan emas, balki bug‘lanish bilan ham kompensatsiyalandi.

Mirzacho‘l, Surhandaryo, Qashqadaryo va Zarafshon vodiylarida yuqori terrasalar chegarasida sizot suvlarining sathi sug‘orish boshlangunga qadar (1935–1950-yillar) 30–50 m chuqurlikda bo‘lgan. Mirzacho‘lda sug‘orish boshlanishi bilan u yiliga 2–4 m tezlikda ko‘tarilgan (Komilov, 1978). Tojikistonning Yavon vodiysida esa karbonatli qo‘ng‘ir tuproqlarni ikki yil mobaynida (1969–1971-yillar) sug‘orish natijasida sizot suvlarining sathi

dastlabkiga (6 m) nisbatan 1,5–2,0 m ga ko‘tarilgan (Vasilchikova, 1976). Nihoyat, Tojikistonning Vaxsh vodiysida sizot suvlari sathi sug‘orish asnosida yiliga 2,0–2,5 m tezlikda ko‘tarilgan (Planin va Dabut, 1964).

Mazkur maydonlarda sizot suvlari allyuvial va prolyuvial tuproqlardan pastlik yerlar tomonga erkin oqib ketish oqimiga ega bo‘lsada, uning sathi yiliga ko‘tarilavergan. Sug‘orish boshlangandan 10–30 yil o‘tgach ayrim maydonlarda sizot suvlarining sathi bug‘lanish mintaqasigacha yetib kelgan. Bunda esa uning ko‘tarilish jadalligi sekin-asta kuchsizlanadi, mavsumiy o‘zgarishlar amplitudasi esa 1,0–2,0 m ga qadar keskin ortadi (Bespalov, 1976; Axmedov, 1978).

Ko‘rinib turganidek, suv balansining kirim va chiqim qismi muayyan vaqtga kelib tenglashadi. Natijada sizot suvlarining o‘rnashmagan, dekompensatsiyalangan tartibi o‘rnashgan tartibga o‘tadi. Bunda aksariyat hollarda ortiqcha to‘yinish bug‘lanishning ortishi bilan kompensatsiyalanadi. Bu tuz balansida muhim qiymatga ega bo‘ladi.

Maydonga tuz suv balansining barcha kiruvchi tarmoqlari orqa-li tushadi. Uning chiqib ketishi esa faqatgina oquvchi suv bilangina ( $W_{gr} + W_{dr}$ ) amalga oshadi. Bug‘lanishda ( $Ye$ ) faqatgina suv ketadi, undagi tuzlar esa tuproq eritmalari va sizot suvlarini qo‘sishma sho‘rlagan holda qolib ketadi. Shu bois, balansda ham, maydon tuz zahiralarining shakllanishida ham suv balansining chiqim qismida oqib ketish va bug‘lanish nisbati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ta’kidlash joizki, «tuz balansi» degan ifoda shartlidir. Suv va tuproqdan ajratib olingan suvli eritmalarni tahlil qilishda tuzlar emas, balki erigan tuzlarning ionlari aniqlanadi. Shu bois, amalda hisob qilishda alohida ionlar balans iva ularning yig‘indisi hisoblaniladi. Faqat ayrim hollardagina ionlar tuzlarga o‘tkazilib hisoblaniladi (masalan, tuproq va suvning u yoki bu tipda sho‘rlanganligiga xos bo‘lgan nisbat to‘g‘risida aniq ifodaga ega bo‘lish uchun). Tuz balansini hisoblashda «ionlar yig‘indisi» yoki shartli «tuz yig‘indisini» «quruq qoldiqqa» almashtirish noto‘g‘ri bo‘ldi. So‘ngisi, ionlar tahlilida aniqlanmagandan tashqari, quritishda

tushuvchi, organik moddalar qoldig‘i va boshqa shu kabi biror doimiy bo‘limgan miqdordagi kristallahgan suv tuzlarini ham o‘z ichiga oladi. Tuz zahiralarining shakllanishini tavsiflovchi quyida keltiriladigan tenglamalar tuzlar yig‘indisiga ham, har bir alohida ion uchun ham taalluqlidir. Bundan keyingi sharhlarda «tuz» deganda yengil eruvchan tuzlarni tushunamiz.

Massiv yoki maydon chegarasidagi umumiy, jami tuz zahiralari ularning tuproqni suv chiqarilgan mintaqasidagi va aeratsiyalangan mintaqasidagi zahirasidan to‘planadi. O‘z navbatida butun maydon uchun ham, har bir ko‘rsatilgan mintaqqa uchun ham *dinamik* va *statistik tuz zahiralari* ajratiladi.

*Dinamik tuz zahiri* – ularning balans davri mobaynidagi kelib-ketuvchi miqdorini ifodalaydi (masalan, sho‘rlanish – sho‘rdan holi bo‘lishning yillik doirasi).

*Statistik zahira* – bu tuz zahirasining balans davri mobaynida pasayib boruvchi eng kichik o‘lchamidir (sho‘rlanish – sho‘rdan holi bo‘lishning doirasi).

Tuzlarning dinamik zahiri aeratsiya mintaqasida sizot suvlaridan ajrab yuqoriga yo‘nalgan holda va tuproq eritmalar bilan pastga sizgan holda vertikal holatda yuzaga keladi. Suv chiqarilgan mintaqalarda u nishablik bo‘yicha sizot suvlarining yonlama harakati va aeratsiya mintaqasida vertikal tuz almashinuv bilan bog‘langan. Butun maydon bo‘yicha dinamik tuz zahirasining o‘lchami ularning mazkur maydonga tashqaridan kelib tushishi va oqib ketuvchi suvlar bilan olib ketilish darajasiga bog‘liqu

Barcha turdag‘i tuz zahiralarining miqdoriy ifodasi u yoki bu holatda maydonning suv balansiga bog‘langan va u alohida tarmoqlar nisbatiga bog‘liq ravishda shakllanadi.

Bundan buyon biz massiv yoki maydonning umumiy (jami) tuz balansini va suv chiqarilgan qatlam hamda aeratsiya mintaqasidagi xususiy (umumiyning tarkibiy qismi sifatida) tuz balansini ko‘rib chiqamiz.

V.A.Kovdaning (1946) ta’kidlashicha, maydon va tuproq tuz balansining tenglamasini umumiy ko‘rinishda quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\Delta S = S_z + (S_{uw} - S_{ww} + S_{iw} - S_v), \quad (3)$$

bu yerda  $\Delta S$  – tuzlarning jami zahirasidagi o‘zgarish,  $S_z$  – balans davri boshidagi tuz zahirasining jami,  $S_{ww}$  – tuzning sizot suvlaridan kelishi,  $S_{uw}$  – tuzning sizot suvlariga olib ketilishi,  $S_{iw}$  – tuzning irrigatsiya suvlari bilan kelishi,  $S_v$  – tuzlarning o‘simliklar hosili bilan olib ketilishi.

Mazkur tenglamada tuzlarning baland joylashgan maydonlar dan sizot suvlarining oqib kelishi va atmosfera yog‘inlari bilan tushishi, Shuningdek uning sizot va zovur oqimlari bilan olib ketilishi kabi balansi hisobga olinmagan. Shu bois, u qaysidir darajada aeratsiya mintaqasidagi tuz balansinigina ifodalaydi (butun maydon bo‘yicha jami tuz zahirasidagi o‘zgrishni emas).

Butun maydon bo‘yicha jami tuz balansini quyidagi oddiy tenglama bilan ifodalash mumkin:

$$\Delta S = MW - mw, \quad (4)$$

$$\text{yoki, } w = (W - E) - \Delta W_{gr},$$

$$\Delta S = MW - m(W - E - W_{gr}), \quad (5)$$

bu yerda  $\Delta S$  – balans davri oxirida statistik tuz zahirasining o‘zgarish o‘lchami yoki tuz balansi qoldig‘i;

$M$  – maydonga kelib tushgan suvning o‘rtacha muallaq mineralashganligi,  $\text{kg/m}^3$ ;

$m$  – oqib ketuvchi suvning o‘rtacha muallaq mineralashganligi,  $\text{kg/m}^3$ ;

$W$  – suvning jami kelishi,  $\text{m}^3$ .

Suv hajmi va mineralashganlik ( $M$  va  $m$ ) nisbatiga bog‘liq ravishda quyidagicha holat bo‘lishi mumkin:

$$MW \geq mw$$

$MW > mw$  da dinamik tuz zahirasi  $mw$  ga teng,  $\Delta S$  esa statistik zahiraning ortish o‘lchamini tashkil etadi. Agar  $MW < mw$  bo‘lsa, u holda dinamik zahira o‘lchami  $MW$  bilan belgilanadi va  $\Delta S$  da

statistik zahiraning sarflanishi kuzatiladi.  $MW=mw$  bo'lsa dinamik zahira Ushbu kattaliklarning istalgani bilan ifodalanishi mumkin, chunki mazkur holatda  $\Delta S=0$  va balans davri oxirida statistik zahira o'chami dastlabki darajada qoladi.

Ko'riniib turibdiki,  $\Delta S$  musbat, manfiy yoki nolga teng bo'lishi mumkin. V.A. Kovda (1946) tasnifiga ko'ra, birinchi holatda sho'rlanish, ikkinchisida – sho'r dan holi bo'lish, uchinchisida – barqaror bo'ladi.

Tog' qiyaliklariga qarab ko'tarilib boruvchi terrasali keng vodiylarda turlicha tipdagi tuz balansiga ega bo'lgan massivlar kuzatiladi. Sizot suvlari chuqur joylashgan yuqoriterrasalarda u barqaror yoki sho'r dan holi bo'lish tipida bo'ladi, bunda pastga qarab tuz to'plana boradi. Ayrim vaqlarda tuproqning ba'zi mintaqalarida qarama-qarshi jarayonlar ham yuzaga kelish mumkin, ya'ni aeratsiya mintaqasida tuz to'planadi, suv chiqarilgan joylarda esa ularning zahirasi kamayib sizot suvlaringin minerallashuvi pasayadi, va aksincha.

Butun vodiy bo'yicha umumiy jami tuz balansi alohida maydonlar tuz balansining natijalari hisoblanadi. U vodiy chegarasida ilgarigi to'plangan tuz zahirasining ortayotganligi, yoki aksincha kamayayotganligidan dalolat beradi. Bu esa yerning meliorativ holatini aniqlashda muhim ahamiyatga ega, chunki umumiy tuz zahirasining kamayishi asnosida tuproqning sho'rlanish jarayoni kuchsizlanadi, zahira ko'payganda esa sho'rlanish kuchayadi.

Jami tuz zahirasi katta bo'lgan hududni o'zlashtirishda manfiy qoldiqli sho'r dan holi bo'lish balansi vujudga keltirilishi lozim. Nol qoldiqli barqaror balans va musbat qoldiqli sho'rlanish tipidagi balansga bu yerda ruxsat etilmaydi. Noqulay umumiy balans yuzaga kelgan holatlarda alohida massivlar tuz balansini tahlil qilish yo'li bilan noqulay mintaqalar aniqlanadi va tuzlarni yo'qotish uchun tezkor tadbirlar qo'llaniladi.

Maydon va uning tarkibiy massivlari umumiy tuz balansining tenglamalari bir xil bo'lib, faqatgina alohida tarmoqlarda ayrim miqdoriy ifodalar bilan farqlanadi xolos. Aeratsiya mintaqasi va suv chiqarilgan qatlarning xususiy tuz balansi boshqa turdag'i tenglama bilan ifodalanadi.

Bug'lanish ( $Ye$ ) va sizot suvlari qadar singib borish ( $J$ ) kabi suv balansi tarmoqlari xususiy tuz balansi tarmoqlarining mos holdagi qarama-qarshi ko'rsatkichlarini belgilaydi. Kapillyar oqimlar bo'y lab yuqoriga yo'nalgan sizot suvlarining bug'lanishi-da ( $Ye_{gr}$ ) suv chiqarilgan qatlamda suv va tuzlar miqdori kamayadi. Sizot suvlarining bug'lanishiga bog'liq bo'lgan mazkur miqdordagi tuzlar aeratsiya mintaqasi tuz balansining kirim qismiga qo'shiladi. Yuzadan sizot suvlari qadar singib boruvchi suv ( $J$ ) aeratsiya mintaqasi tuz balansining chiqim qismi o'lchamini va suv chiqarilgan qatlam balansining kirim qismi o'lchamini belgilaydi.

Sug'orish mavjud bo'limganda sizot suvlari chuqur joylashgan massivlarning (baland terrasalar, tog'oldi tekisliklari va oqiziqlar konusining yuqorigi qismi) tuz balansi quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$\Delta S = M_{os} E_{os} + M_{gr} W_{gr} - (m_{gr} w_{gr} + m_{dr} w_{dr}), \quad (6)$$

bu yerda  $\Delta S$  – tuz balansi qoldig'i;

$M_{os}$  – atmosfera yog'inlarining minerallashganligi;

$M_{gr}$  – oqib keluvchi sizot suvlarining minerallashganligi;

$m_{gr}$  – oqib ketuvchi sizot suvlarining minerallashganligi;

$m_{dr}$  – tabiiy zovurlar bo'yicha oqib ketuvchi suvlarning minerallashganligi;

$Ye_{os}$  – bug'lanuvchi atmosfera yog'inlari miqdori;

$W_{gr}$  – oqib keluvchi sizot suvlari hajmi;

$w_{gr}$  – oqib ketuvchi sizot suvlari hajmi;

$w_{dr}$  – zovur orqali oqib ketuvchi suv hajmi.

Mazkur sharoitda sizot suvlarining bug'lanishi ham, ularning yuzadan to'yinishi ham mavjud emas. Sizot suvlarining oqib Kirishi ularning oqib ketishi bilan kompensatsiyalanadi va suv chiqarilgan qatlarning tuz balansi barqaror bo'lib qoladi. Baland yerlardan oqib keluvchi sizot suvlari bilan kelgan yengil eruvchi tuzlar tuproqning pastki qatlamlariga tranzit holda o'tib ketadi. Ba'zan tuproqning fizik xossalalari o'zgarishi bilan va sizot suvlari harakati asnosida uning harorat va gaz tartibi o'zgarishi bilan mazkur massivlarga eritmalaridan muayyan miqdorda o'rtacha

va qiyin eriydigan tuzlar ( $\text{CaSO}_4$ ?  $\text{CaCO}_3$ ?  $\text{MgCO}_3$  va b.) tushib qolishi mumkin.

Bunday holatda aeratsiya mintaqasining yuqorigi qismi-da faqatgina atmosfera yog‘inlari bug‘lanadi. Ularning mineral-lashganligi sizot suvlarining minerallashganligiga nisbatan juda past bo‘lib, qisqa davr uchun tuz balansini hisoblashda uni hisobga olmasa ham bo‘ladi. Ammo, ming yillar mobaynida atmosfera yog‘inlari bilan tushgan tuzlar muayyan miqdorda bo‘ladi, ularni hisobdan butunlay chiqarib tashlab bo‘lmaydi. buni hisobga olgan holda aeratsiya mintaqasining tuz ( $S_a$ ) zahirasi  $t$  yil uchun quyidagicha bo‘lishi mumkin:

$$S_a = t M_{os} E_{os}. \quad (7)$$

O‘zbekiston va Tojikiston vodiylarining yuqori terrasalari quruq sariq tuproq va qumloq sariq tuproqlari qatlamlarida o‘rtacha 200 t/ga gacha ( $20000 \text{ t/km}^2$ ) xlor ionining o‘zi mavjud (boshqa tuzlarni hisobga olmaganda).

Sariq tuproq qatlaming keng o‘sishi va bo‘z sharoitlarida yuvilishning mavjud emasligini hisobga olib xulosa qilish mumkinki, ulardagi tuz zahirasining katta qismi asosan atmosfera yog‘inlariga uzviy bog‘liqdir. Odatda mazkur tuz zahiralariga e’tibor berilmaydi, chunki ular sariq tuproq qatlamida kuchli tarqalgan holatda joylashgan bo‘lib, o‘simliklarga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi. Maydon suv balansining o‘zgarishi natijasida sizot suvlarining sathi ko‘tarilsa (masalan, sug‘orishda) mazkur tuz massalari harakatga keladi. Bunda ular yuza qatlamda to‘planib, katta maydondagi madaniy yerlarda halokatli sho‘rlanishni keltirib chiqarishi mumkin.

Sizot suvlari chuqur joylashgan sug‘oriladigan massivlarda tuzlar asosan sug‘orish suvlari bilan tushadi. Qisqa muddat mobaynida (masalan, o‘n yillik uchun) atmosfera yog‘inlari bilan tushgan tuzlar miqdori yuqori emas va ular muayyan darajada hosil orqali chiqib ketish bilan kompensatsiyalanadi. Shu bois, sug‘oriladigan maydonlarning tuz balansini hisoblashda (bundan buyon sizot suvlari yuza joylashgan sug‘orilmaydigan massivlarda ham) mazkur miqdordagi tuzlar e’tiborga olinmaydi.

Mazkur holatda aeratsiya mintaqasining tuz balansi qoldig‘ini ( $S_a$ ) quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\Delta S_a = M_{or} E_{or} - m_{or} J, \quad (8)$$

bu yerda  $M_{or}$  – sug‘orish suvlarining minerallashganligi;  
 $m_{or}$  – pastga singuvchi suvlarning minerallashganligi;  
 $Y_{or}$  – bug‘lanuvchi suv miqdori;  
 $J$  – pastgu singuvchi suv miqdori.

Sug‘orish bo‘yicha tavsiyanomalarda odatda suvning ildiz joylashgan qatlamdan o‘tib ketmasligi uchun aniq talab bo‘yicha sug‘orish o‘tkazish tavsiya etiladi. Bunday holatda  $m_{or} \times J = 0$ , bunda:

$$S_a = t M_{or} E_{or}. \quad (9)$$

ta’kidlash joizki, Ushbu talabga qat’iy rioya etilganda ham bir necha yillardan ( $t$ ) so‘ng tuproqdagi tuz zahirasi ( $S$ ) ruxsat etilgan o‘lchamdan oshib ketadi va hosil kamaya boshlaydi (1-jadval). Bu aynilsa suvi yuqori darajada minerallashgan Vaxsh, Sirdaryo, Zarafshon, Qashqadaryo, Amudaryo, Surhandaryo va boshqa shu kabi sug‘orish tizimlarida yaqqol ko‘rinadi, ularda xlor ionii miqdori o‘rtacha  $70 \text{ mg/l}$  ( $7 \cdot 10^{-5} \text{ g/m}^3$ ) ni tashkil etadi.

O‘zbekiston va Tojikistonning sizot suvlari chuqur joylashgan vodiylarida dalalarga suv berish yiliga 11–11,5 ming  $\text{m}^3/\text{ga}$  ni tashkil etadi. Ildiz joylashgan qatlamda (1 m) xlor ionining ruxsat etilgan zahirasi 3 t/ga atrofida. Agar sug‘orish suvlarida xlor ionining miqdori  $7 \cdot 10^{-5}$  bo‘lsa va sug‘orish talabga ko‘ra aniq o‘lchamda berilsa, u holda tuzning mazkur zahirasi quyidagicha yilda to‘planadi:

$$t = \frac{3,0}{7 \cdot 10^{-5} \cdot 11000} = 4 \text{ yil.}$$

Amalda buni biz mustasno ko‘rinishda kuzatdik. Odatda bu sodir bo‘lmaydi. Tuproqdagi tuz zahiralarining bir qismini atmosfera yog‘inlari yuvib ketadi. Bundan tashqari, hamma joyda sug‘orish me‘yorlari qat’iy talab etilgandan ortiqcha beriladi va sug‘orish suvlarining bir qismi ildiz joylashgan qatlamdan o‘tib, sizot suvlariga qadar yetib boradi. Bunda ham tuz zahiralarining muayyan bir qismi tuproq qatlidan yuvilib ketadi. Mazkur jarayon hozirgi kunda hech qanday hisob-kitobsiz kechmoqda

va suv sizot suvlari chuqur joylashgan tuproq qatlamida tuz zahiralarini boshqarish uchun zarur bo‘ladigan miqdordan ham ko‘proq miqdorda pastga singib ketmoqda.

Ko‘pincha yuvish uchun zarur suv miqdorini hisoblashda bir kub metr (yoki 1 t tuzni yuvish uchun zarur miqdordagi kub metr suv) suv bilan yuviladigan tuz o‘lchamining absolyut o‘lchami qidiriladi. Uning o‘lchami juda ham noaniq va ularni balans hisoblarida qo‘llab bo‘lmaydi.

Suvni pastga singdirish uchun tuproq namligini dalaning namlik sig‘imi darajasigacha yetkazish kifoya. Mazkur miqdordagi suv yengil eruvchi tuzlarni eritma holatiga keltirish uchun yetarli hisoblanadi. Keyingi yuvishlar esa mazkur tuz eritmalarini yuqorida berilgan chuchuk suv bilan pastga chekintirishni ko‘zda tutadi. Biror miqdordagi eritmani, uning kontsentratsiyasiga bog‘liq bo‘limgan holda, pastga haydash uchun yuqorida muayyan hajmdagi suv berilishi kerak. U yoki bu hajmdagi eritma bilan olib ketilgan tuzning miqdori uning kontsentratsiyasiga yoki boshqacha qilib aytganda yuvilgan qatlampagi tuz zahirasiga bog‘liq. Qatlam qanchalik qalin bo‘lsa, yuvilgan suv hajmi birligidagi ularning absolyut miqdori shunchalik katta bo‘ladi. Har bir navbatdagi yuvish suvi portsiyasida eritma kontsentratsiyasi pasayib boradi. Shu bois, suv hajmi birligi bilan olib ketilayotgan absolyut tuz miqdori yuvgan sari kamayib boraveradi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, tuz zahirasini u yoki bu nuqtadan yo‘qotish uchun zarur suv hajmining biror absolyut yoki taxminiy o‘lchamlarini belgilab bo‘lmaydi.

Markaziy Osiyo quruq subtropiklari vodiylarini sug‘orishda yuvish me’yorlarini hisoblash uchun suv hajmi birligi bilan tuzlarni yuvish (yuvish jadalligi) yuviladigan qatlampagi dastlabki zahiraga nisbatan foizlarda ifodalanadi. Bunda yuvish suvining hajm birligi sifatida uning yuviladigan qatlam dala namlik sig‘imi chegarasiga teng bo‘lgan hajmi qabul qilinadi. Bunday miqdordagi suvning yuviladigan qatlam orqali singishi eritmaning shartli – bir martalik smenasi deb ataladi. Tuproq g‘ovakligi, agregatliligi va diffuziya oqimlarining bir turli bo‘imasligi oqibatida eritma butunlay

chechinmaydi va u yoki bu sharoitda tuzning olib ketilishi yuqori yoki past doimiy bo‘lib qoladi. U juda kichik tuz zahiralaridagina pasayadi xolos.

Sizot suvlarining 300 g/l gacha minerallashuv bilan to‘yinishi Markaziy Osiyoda faqatgina tuzli qubbalarda uchraydi. Qolgan barcha holatlarda ular to‘yinmaydi (hattoki ba’zan sho‘rxok maydonlarning yuqorigi qatlamlarida ularning minerallashuvi 100–170 g/l gacha ko‘tarilsa ham). Shuningdek aeratsiya mintaqasida yengil eruvchi tuzlarning doimiy (statistik) qattiq zahiralari mavjud emas. Ammo qiyin va yengil eruvchi tuzlarning ( $\text{CaSO}_3$ ,  $\text{MgSO}_3$ ,  $\text{CaSO}_4 \times 2\text{N}_2\text{O}$ ) katta cho‘kindi qatlamlari tez-tez uchrab turadi.

Bu bir qancha saablar bilan tushuntiriladi. Birinchidan, oqib kiruvchi sizot suvlarining minerallashganlik darajasi past va tuzlar tarkibidagi kalsiy bikarbonat, magniy va kalsiy sulfatlar yengil eruvchi tuzlardan ko‘pdir; ikkinchidan, ko‘rinib turibdiki,  $R$ ,  $R$ , va  $w$  omillari nolga yaqin bo‘lgan massivlar mavjud emas.

V.A.Kovda (1965) ta’kidlaydiki, geologik tarix nuqtai nazari dan Markaziy Osiyoning tuprog‘i nisbatan yoshdir. Mazkur holat tuz to‘planish jarayonlarida muhim ahamiyatga ega va uni Yevroosiyoning janubida subtropik tuproq hosil qiluvchi sug‘oriladigan yerlarida tuz to‘planish jarayonlarining shakllanishini ta‘minlovchi to‘rtlamchi Markaziy Osiyo yotqiziqlarida tuz zahiralarining to‘planishi to‘g‘risidagi masalalarni yechishda albatta hisobga olish lozim.

## MELIORATIV HOLATINI YAXSHILASHGA QARATILGAN TAKLIF VA TAVSIYALAR

O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari davlat kadastr, geodeziya va kartografiya davlat qo‘mitasi ma’lumotlariga qaraganda respublikamizda sug‘oriladigan sho‘rlangan yerlar maydoni keyingi 20 yil ichida 800 ming getktarga, 1990–2017-yillar mobaynida esa 608,1 ming getktarga, shu jumladan kuchsiz sho‘rlangan yerlar maydoni 229,3, o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlar-117,9 va kuchli sho‘rlangan tuproqlar maydonlari 261,0 ming getktarga oshdi. 1990-yilda sho‘rlangan yerlarning umumiyligi maydonlari 48,2 foizni

tashkil etgan bo'lsa, 2017-yilga kelib 65,9 foizga yetdi. Hozirda sho'rangan yerlar maydonlari Toshkent, Andijon, Namangan va Samarqand viloyatlarida jami sug'oriladigan yerlarining 25–42, Surhandaryo, Qashqadaryo, Navoiy, Farg'ona va Jizzax viloyatlarida 63–78, Sirdaryo, Buxoro, Xorazm viloyatlari va Qoraqalpog'istonda 85–96 foizini, shu jumladan, hosildorlikni 40–50 foizgacha kamaytiruvchi o'rtacha va kuchli sho'rangan yerlar maydonlari 44–64 foizni tashkil etadi (111-jadval).

Respublikamizning ko'pgina mintaqalarida, jumladan, Qoraqolpog'iston res-publikasi, Xorazm, Buxoro, Sirdaryo, Jizzax, Farg'ona va boshqa viloyatlarda sug'ori-ladigan yerlarining meliorativ va ekologik holatlari yomonlashdi, tuproqda qator salbiy holatlар sodir bo'ldi. Minerallashgan sizot suvlarining sathi ko'tarilib, tuproqda tuz to'planish jarayonlari kuchaydi, bu o'z navbatida tuproq unumdorligiga, pirovard natijada esa ekinlar hosildorligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

1950–80 yillar mobaynida paxtaning o'rtacha yillik hosildorligi respublikada gektariga 32–34 sentnerni tashkil etgan bo'lsa, keyingi 7–8 yil ichida 22–23 sentnerga tushib qoldi. Sug'oriladigan yerlarning aksariyat ko'pchilik qismida vaziyat hamon qoniqarsi-zligicha qolmoqda, tuproqda tuz to'planish va ikkilamchi sho'ranganish jarayonlari jadal sur'atlar bilan davom etmoqda, tuproq unumdorligi pasayib, hosildorlik kamayib bormoqda.

Orol dengizi hududlari inson nazoratidan butunlay chiqib ekologik nosog'lom mintaqqa deb e'lon qilingan. Bu hududda tuproqlarning meliorativ holati o'ta yomonlashib, kuchli sho'rangan yerlar maydonlarining yil sayin ortib borishi mintaqada murakkab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bundan nafaqat qishloq xo'jaligi, hatto qadimiy arxeologik yodgorliklar va yuqori kuchlanishdagi elektr simi tarmoqlari ham katta ziyon ko'rmoqda.

Ko'pgina sug'orish tizimlarida, massivlarda (xo'jalik, tuman, viloyatlarda) yetarli hajmdagi kollektor-zovur tarmoqlari (kzt) bo'lishiga, har yili sho'r yuvish ishlari amalga oshirilishiga qaramasdan, sug'oriladigan dehqonchilik mintaqasi-ning birorta hudu-

dida tuproqning suv-tuz tartibotini maqbul darajada boshqarishga erishilmadi.

Hozirgi kunda qishloq xo‘jaligi dehqonchilik tizimida sug‘oriladigan tuproqlar melioratsiyasi borasida izchil va tezkorlik bilan hal qilinishi shart bo‘lgan qator vazifalar, yirik muammolar vujuduga keldiki, bu o‘z navbatida nazariy va amaliy jabhalarda strategik o‘zgarishlar zarurligini, ularning yechimi qator agromeliorativ tadbirlar majmuasini yaratish va ishlab chiqarishga tezkorlik bilan tadbiq etishni taqozo etadi.

Tuproq sho‘rlanishini oldini olish va unga qarshi kurash bir qator profilaktik meliorativ tadbirlar tizimini o‘z ichiga olib, ulardan eng asosiylari quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan:

**Respublika sug‘oriladigan sho‘rlangan yerlar maydonlарining o‘zgarish dinamikasi  
(ming. ga). 1990–2000–2017-yillar mobaynida**

Viloyatlar	Yillar	Jami sug‘oriladigan q/x yerlari	Shu jumladan sho‘rlanganlik darajasi bo‘yicha						Jami sho‘rlangan yerlar	
			Kuchsiz	o‘rtacha	%	ga	%	ga	%	ga
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1990	457,2	167,3	36,6	183,7	40,2	74,6	16,3	425,6	93,1
	2000	462,1	110,4	23,9	151,7	32,8	142,9	30,9	405,0	87,4
Andijon	1990	245,1	42,3	20,8	16,5	8,4	4,8	2,3	63,6	39,6
	2000	227,4	51,8	22,6	20,3	8,8	4,9	2,1	77,0	33,8
Buxoro	1990	228,1	133,2	58,4	57,3	25,1	16,5	7,2	207,0	90,7
	2000	229,2	125,8	54,9	48,2	21,0	31,2	13,6	205,2	89,5
Jizzax	2001	227,4	79,6	35,0	93,4	41,1	45,2	19,9	218,2	96,0
	1990	267,3	61,8	23,1	20,0	7,5	8,4	3,1	90,2	33,8
Qashqadaryo	2000	275,7	101,0	36,6	75,7	27,5	38,8	14,1	215,5	78,2
	1990	452,5	163,3	36,1	76,6	16,9	28,4	6,3	268,3	59,3
Navoiy	2000	452,2	216,9	48,0	63,3	14,0	31,5	7,0	311,7	68,9
	1990	102,1	17,5	17,1	71,7	70,2	3,3	3,2	92,5	90,6
Namangan	2000	108,1	49,8	46,1	19,6	18,1	6,7	6,2	76,1	70,4
	1990	239,7	28,1	11,7	17,5	7,3	6,8	2,8	52,4	21,8
	2000	236,1	51,1	21,6	18,1	7,7	13,1	5,5	82,3	34,9

Samarkand	1990	356,5	39,1	11,0	5,6	0,1	0,0	44,8	12,6
	2000	300,5	104,3	33,7	19,9	6,4	4,6	128,8	41,6
Surxondaryo	1990	287,0	65,2	22,7	44,7	15,6	7,2	2,5	40,8
	2000	279,3	108,4	38,8	47,6	17,0	22,5	8,1	63,9
Sirdaryo	1990	283,0	129,8	45,9	59,3	21,0	38,5	13,6	227,6
	2000	273,8	115,7	42,3	70,0	25,6	48,9	17,86	234,6
Toshkent	1990	351,1	29,6	8,4	2,9	0,8	0,3	0,1	32,8
	2000	337,4	67,6	20,0	13,07	3,9	5,3	1,6	86,0
Farg'ona	1990	307,7	33,2	10,8	10,8	3,5	2,8	0,91	46,8
	2000	296,0	108,0	36,5	67,5	22,8	42,9	14,5	218,4
Xorazm	1990	234,3	119,0	50,8	35,7	15,2	14,8	6,3	169,5
	2000	240,1	106,8	44,5	506	21,1	23,2	9,7	180,6
	2001	238,6	94,1	39,4	60,0	25,1	60,2	25,2	214,2
Respub lika bo'yicha jami	1990	3811,6	1029,4	27,0	602,3	15,8	206,5	5,4	1838,2
	2000	3726,9	1317,6	35,4	665,6	17,9	416,5	11,2	2399,7
	2001	3711,3	1258,7	33,9	720,2	19,4	467,5	12,6	2446,3
Farqi ±		Gektar	229,3		117,9		261,0		608,1
	%%		6,9		3,6		7,2		17,7

1) kollektor-zovur tarmoqlarini muntazam yaxshi holatda ushlab turish va foydali ish koefitsienti ish samaradorligini pasayishiga yo'l qo'ymaslik. 2) sug'orish tartibotlariga qat'iy riosa qilish, suvlardan me'yorsiz va nazoratsiz foydalanishga, hamda tanqis suvni ortiqcha sarf bo'lishiga chek qo'yish. 3) sho'r yuvish me'yorlariga qat'iy riosa qilgan holda tuproqning sho'rланганлик darajasi va sho'rланish tiplari, hamda uning xossa-xususiyatlaridan kelib chiqib sifatli sho'r yuvishdan iborat.

Tuproqda tuz to'planish va ikkilamchi sho'rланish jarayonlari oldini olish, maqbul suv-tuz tartibotini barpo etish va tuproq sho'rsizlanishini to'la ta'minlash uchun, birinchidan hozirda kzt va vertikal skvajinalar (tik quduqlar)ning texnik nosozligi va ish samarasining o'ta pastligi bois vujuduga kelgan gidromorf suv tartibotini (sizot suvlari chuqurligi 0,0–2,0 m), yarim gidromorf (2,5–3,0 m) suv tartibotiga o'tkazish eng maqbul meliorativ tadbir hisoblanib, bu sug'oriladigan yerlarni yaxshi meliorativ holatda ushlab turilishiga to'la imkon yaratadi.

Ikkinchidan, maqbul yarim gidromorf meliorativ tartibotini barpo etish uchun esa xo'jalik, tuman, viloyatlar sug'oriladigan yerlarining va umuman sug'orish tizimlarining asosiy qismida ya-roqsiz holatga kelib qolgan kzt ni qayta qurish; qolgan maydonlarda esa kapital ta'mirlash ishlarini o'tkazish talab etiladi. Tuproqni to'la sho'rsizlantirish, unumdotrligini mo'tadil darajaga keltirish va kafolatli yuqori hosil olish uchun zovur tarmoqlari solishtirma uzunliklarini gektar boshiga kamida 45–50, ayrim kuchli va juda kuchli sho'rланган, suv o'tkazuvchanligi past, og'ir mexanik tarkibli tuproqlarda 80–110 pogon metrga yetkazish zarur.

Uchinchidan, bunday serxarajat va og'ir mehnat talab etuvchi ishlar amalga oshirilguniga qadar yer osti sizot suvlari oqimini vaqtincha ta'minlash va ikkilamchi sho'rланish jarayonlarini oldini olish maqsadida xo'jaliklararo va xo'jaliklar hududidagi zovur tarmoqlarini har yili kamida 60–65 % ini sifatli tozalab turish (hozirda 12–15 % dan oshmaydi) maqsadga muvofiq va zarur tadbirdan hisoblanadi.

Sug'oriladigan yerlarda yer osti sizot suvlari balansini halokatliz bilishi va ularning sathini ko'tarilishiga, shu bois tuproq sho'rла-

nishiga olib keluvchi sug'orish suvlaridan unumli va samarali foy-dalanish muhim ahamiyatga ega. Kanallar, sug'orish tarmoqlari va beton-lotok tizimlarini texnik qayta jihozlash va sifatli ta'mirlash (gidroizolyatsiyalash, oblitsovkalash) orqali hozirda ko'pgina xo'jalik sug'orish tizimlaridan yo'qotilayotgan tanqis suvlarni ortiqcha isrof bo'lishini oldini olish, suvdan foydalanish samaradorligini oshirish va nazorat qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirilishi zarur.

Sug'oriladigan hududlarning geografik joylashishi, iqlim, gidrogeologik va tuproq sharoitlari, ekinlar yetishtirish texnologiyasi va turlari, o'sish davri va suvgaga ta'labi, tuproqning suv-fizik xossalari va tarkibi, sizot suvlarning chuqurligini hisobga olgan holda sug'orish muddati soni va me'yorlarini to'g'ri belgilash alohida ahamiyat kashf etadi. Hozirgi suv resurslari tanqisligi sharoitida belgilangan suv me'yorlari dalani tekis namlanishini ta'minlagani holda, o'simlik iste'molidan ortib ketmasligi kerak.

Keyingi yillarda suv tanqisligi kuzatilmogda, suv yetishmasligi ayniqsa o'simliklarning vegetatsiya davrida keskin sezilmoqda. Shu bois, ko'pgina viloyat, tuman, xo'jaliklarida bir hatto ikki marotaba yuqori darajada minerallashgan zovur suvlari bilan ekinlarni sug'orish amalda keng qo'llanilmoqda. Bunday minerallashgan suvlar bilan ekinlarni sug'orish tuproq unumdarligini pasaytirib, bir qator salbiy holatlarni keltirib chiqaradi, tuproqning suv-fizik xossalari yomonlashib, sho'r yuvishning tezligi va sifatini pasayishiga sabab bo'ladi, tuproq unumdarligi va hosildorligining uzoq davrlar kamayib ketishiga olib keladi. Bunday holatlarga zaruriyat tug'ilganda faqat mexanik tarkibi yengil, kuchli va juda kuchli sho'rlangan tuproqlarni mineralizatsiya darjasasi 4–5 g/l dan oshmagan zovur suvlari bilan sug'orish, har bir sug'orishdan keyin esa albatta chuchuk daryo (kanal) suvlari bilan sug'orib, tuproqda to'plangan zararli tuzlarni yuvilib ketishiga imkon yaratish zarur.

Respublikamizning ko'pchilik sug'oriladigan dehqonchilik mintaqalarida (Mirzacho'l, Malikcho'l, Qarshi, Jizzax cho'llarida, Farg'ona vodiysi, qisman Samarqand viloyatida) «Qiyin melioratsiyalaruvchi» yoki «qiyin o'zlashtiriluvchi» deb ataluvchi, tuproq

profilida gipsli, shoxli va arziqli qatlamlari bo‘lgan, past unumli tuproqlarni hozirda mavjud an-anaviy texnologik usullar yordamida sog‘lomlashtirish nihoyatda mushkul va kam samarali hisoblanadi. Bunday tuproqlar tarqalgan maydonlarda agrotexnik va agromeliorativ tadbirlar yetarli darajada o‘tkazilishiga qaramasdan paxta hosildorligi 6–8 sentnerdan oshmaydi. Har bir sentner hosilga sarflanayotgan tanqis suv o‘z qiymatini (mehnat sarfi va boshqa xarajatlarni ham) oqlamaydi. Mazkur yerlarga qilinayotgan sarf-xarajatlar hozirgi zamon talabi-bozor iqtisodiyoti tamoillariga mutlaqo javob bermaydi. Agar har yili Shunday unumsiz yerlarga berilayotgan suvni va undan mutlaqo keraksiz foydalanishni nazarda tutsak qadimdan sug‘oriladigan, hozirda esa suv yetishmayotgan yerlardan bir necha milliard so‘mlik hosil olish mumkin.

Cheklangan suv zahiralaridan samarali foydalanishning qo‘sishimcha omillaridan biri, bu yuqorida aytib o‘tilgan «Qiyin melioratsiyalanuvchi» yerlarni qishloq xo‘jalik paxta tasarrufidan chiqarib, vaqtinchalik boshqa yerlar toifasiga o‘tkazish masalasini hal qilish kerak bo‘ladi.

Aksariyat ko‘pchilik tuman, viloyatlar sug‘oriladigan tuproqlari orasida o‘ziga xos ko‘rinishga va sho‘rlanishga ega bo‘lgan «dog‘li» sho‘rxok maydonchalar ko‘plab uchraydi. Bunday sho‘rxokli «dog‘lar» sho‘rlanmagan, kuchsiz va o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlar ichida 20–30, hatto 40–50 foiz maydonlarni tashkil etib, hosildorlikni gektaridan 8–11 sentnergacha kamaytirishga sabab bo‘ladi. Eng xatarlisi shundaki, bu sho‘rxokli dog‘lar o‘z vaqtida yo‘qotilmasa dastlab fasliy, keyinchalik doimiy dog‘li ko‘rinishda sodir bo‘lib, asta-sekin «yoppasiga» sho‘rlanish ko‘rinishga aylanadi, natijada katta-katta ekin maydonlari qishloq xo‘jalik aylanmasidan chiqib ketish holatlari sodir bo‘ladi.

Fasliy ko‘rinishdagi sho‘rxokli dog‘larni sizot suvlari sathini pasaytirish va tuproqdan nam (suv) bug‘lanishini kamaytiruvchi ekspluatatsion va agrotexnik tadbirlar yordamida oson yo‘qotilsa, doimiy dog‘lar ko‘rinishidagi sho‘rlangan maydonlarni muntazam planirovkalab (tekislab) borish, sug‘orish texnologiyasidan to‘g‘ri foydalanish, sizot suvlari sathining ko‘tarilishiga yo‘l qo‘ymaslik,

ishlov berish sifatini yaxshilash, sug‘orish va ishlov berish oraliq‘idagi buzilishlarga chek qo‘yish, beda almashlab ekishni joriy etish yo‘li bilan erishish mumkin.

Melioratsiya muammolarini muvaffaqiyatli hal etish uchun har bir xo‘jalik, tuman va viloyatlarda sug‘oriladigan yerlar har yili muntazam inventarizatsiya qilinishi, birinchi navbatda melioratsiyalanadigan maydonlar aniqlanib, bu maydonlarda tuproqni sog‘lomlashtiruvchi va yuqori mahsulorligini ta’minlovchi agromeliorativ va boshqa tadbirlarni o‘tkazish, melioratsiyalangan maydonlarda esa muntazam kuzatishlar olib borish talab etiladi.

Tuproq unumidorligini oshirish va kafolatli yuqori hosildorlikka erishish uchun respublika don mustaqilligi siyosatini hisobga olgan holda, ekin maydonlari strukturasini xo‘jaliklar iqlim, gidrogeologik, tuproqva boshqa sharoitlaridan (iqtisodiy) kelib chiqib asosli o‘zgartirish davr talabi hisoblanadi. Gektarga 30 tonnadan go‘ng solingan maydonlarda almashlab ekishni joriy etish, asosiy ekin hisoblangan paxtaga ko‘pi bilan 50–55 foiz maydonlar ajratilgani holda, qolgan yerlarda don, poliz-sabzavot, ozuqabop ekinlar, ko‘p yillik o‘tlar (beda) va sideratlarni to‘g‘ri joylashtirish va ularni navbatlab ekish kutilgan natija beradi. Bu tadbirlar tuproqda suv-tuz tartibotini maqbullahtirish bilan bir qatorda hosildorlikni birinchi yilning o‘zidayoq kam deganda 10–15, keyingi yillari 20–25 foiz oshishiga imkon yaratadi.

Almashlab ekish sxemasida paxta-beda tizimining buzilishi tuproq mahsulorligini pasayishini, mineral o‘g‘itlarning yetishmovchiligini keltirib chiqaradi. Shuning uchun qishloq xo‘jaligida ilmiy asoslangan almashlab ekish sxemalarini ishlab chiqish va joriy etish zarur. Bu borada ayniqsa kuchli sho‘rlangan yerlarda paxta-solodka (shirin miya) tizimini joriy qilish maqsadga muvofiqdir. Solodkaning yuqori darajadagi sho‘rlanishga chidamliligi, dukkaklilar oilasiga mansubligi bois tuproqda atmosfera azotini to‘plashi, tuproq unumidorligini oshirishning omillaridan biri hisoblanadi. Bu o‘simlik ildizlari farmatsevtika sanoatida qimmatbahoh xom ashyo sifatida yuqori baholanib, xalqaro bozorda talab nihoyatda katta, xo‘jaliklar uchun iqtisodiy samaradorligi beqiyos.

Bundan tashqari tuproqning bir metrlik ustki qatlami sho'rini kerakli darajagacha kamaytirish (0,01%) uchun sudan o'ti, ko'p o'rimli raygras, oq jo'gori yoki makkajo'xori bilan birga beda ekish tavsiya etiladi. Ikkinchchi va uchinchi yillarda bedaning yakka o'zi o'stiriladi. Bu tadbirlar sho'r tubdan yuvilganda turoq unumdarligini hamda g'o'za hosildorligini oshirishga imkon beradi.

Tuproq unumdarligining pasayishi sabablaridan biri ularda gumin va ozuqa elementlarning kamayishidir. Bunga monokultura, o't-dala almashlab ekishning yo'qligi, tuproqdan ozuqa va boshqa elementlarni juda katta miqdorda qishloq xo'jalik o'simliklari biomassasi bilan olib chiqib ketilishi, ya'ni yerga «qaytarish» qonuning buzilganligi hamda organik o'g'itlar va kompostlardan keng miqyosda foydalanmaslik va shu kabilar sabab bo'ladi.

Tuproq unumdarligini oshirish uchun olib chiqib ketilgan ozuqa elementlar: azot, fosfor, kaliiy, mis, molibden, rux, kobalt, oltingugurt, kalsiy va shu kabi boshqa makro va mikroelementlar zahirasini to'ldirish lozim bo'ladi. Bunda, zaharli moddalardan mustasno bo'lgan ozuqa elementlarga boy turli xil organik o'g'itlar va kompsotlarni qo'llash asosiy usullardan hisoblanadi.

Lekin, turli xil shahar chiqindilardan tayyorlangan organik o'g'itlar tarkibida ko'plab zaharli moddalarning mavjudligi sababli atrof-muhitiga, jumladan tuproq va undagi qishloq xo'jalik ekinlarini zararlanishiga olib keladi. Bu borada ko'pgina xorijiy mamlakatlar va respublikamizning qator ilmiy-tekshirish institutlarida tajribalar o'tkazilib kelingan. Biroq, tayyorlangan organik o'g'itlarning o'z tarkibida inson salomatligiga xavf soluvchi zaharli moddalarning bo'lganligi sababli ulardan voz kechib kelingan.

Bu borada ko'pgina rivojlangan xorijiy mamlakatlarda shahar chiqindilaridan organik o'g'itlar tayyorlashda mukammal, zamonaviy texnologiya va texnikalar bilan jihozlangan maxsus korxonalarda olib boriladi. (masalan, Belgiya mamlakati Flandriya shahridagi Seghers Better Technology Group binosi) Bunda ushbu chiqindilardan tayyorlanayotgan organik o'g'itlar qator murakkab bosqichlardan o'tgandan keyingina uni ishlab chiqarishda

qo'llashga ruxsat etiladi. Aks holda bu bir muammo izidan boshqa bir global muammoni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bu borada bugunda respublikamizda yuzaga kelgan ekologik-meliorativ holatni yaxshilashda qishloq xo'jalik mutaxassislari, ayniqsa yosh kadrlarni rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribalarini mukammal o'rghanishini va ularni mamlakatimizda kengroq qo'llashni talab etadi.

Yuqorida bayon etilgan taklif va tavsiyalardan tashqari qishloq xo'jalik mutaxassislari: irrigatorlar, melioratorlar, muxandislar va olimlar oldida ish samaradorligi yuqori takomillashgan yangi tipdag'i zovurlar texnologiyasini yaratish, tuproq unumdarligini tiklash, oshirish va saqlash, hamda sho'rlangan yerlardan yuqori hosil olishni ta'minlovchi yanada samaraliroq meliorativ tadbirlarni joriy etish, tuproqda gumus balansi notanqisligini va tuproq suv-fizikaviy, fizik-kimyoviy, biokimyoviy, meliorativ xossalari ni mo'tadilligini ta'minlovchi bir qator yangi tadbirlar yaratish va ularni ishlab chiqarishga tezda tadbiq etish muammolari birinchi galadagi vazifalardan bo'lib turipti. Bu muammolar yechimini hal etish orqali ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish mumkin.

## GLOSSARIY

**Avtomorf tuproqlar** – sizot suvi chuqur joylashganda shaklangan tuproqlar.

**Agrokimyoviy xaritanoma** – tuproqlarning oziq elementlari (azot, fosfor, kaliy, magniy, mikroelementlar) bilanta'minlanganligi yoki ohaklash va gipslashga bo'lgan talabini ko'rsatuvchi xarita. o'g'itga bo'lgan umumiy talabni aniqlashda yoki alohida dalalarni o'g'itlashni yo'lga qo'yishda foydalaniladi.

**Anaerob jarayonlar** – havosiz sharoitdagi jarayonlar.

**Voha** – cho'l va chala cho'llardagi o'simlik va suv (sizot suv va daryolar) mavjud bo'lgan joylar.

**Voha tuproqlari** – sug'oriladigan dehqonchilik hududlarining tuproqlari. Keng daryo vodiylari, tog' oraliqlaridagi pastliklar va yassi tekislardagi vohalarda tarqalgan bo'ladi.

**Galomorf tuproqlar** – yengil eruvchan tuzlarning ko'chishi va to'planishi bilan bog'liq tuproqlar.

**Gidromorf tuproqlar** – sizot suvlari ta'sirida shakllanuvchi tuproqlar.

**Gillanish** – tuproq ichidagi birlamchi minerallarning nurashi natijasida u yoki bu tuproq kesmasida soz zarralarni tashkil etish jarayoni.

**Gil** – tuproqda diametri 0,005 mm dan kichik zarrachalar miqdori (30% dan ko'p bo'lgan tuproqlar gil tuproqlar hisoblanaadi).

**Gumifikatsiya** – chirindining tarkib topishi

**Drenaj, zovur** – yerlarni quritish maqsadida sho'r yoki chuchuk sizot suvlarini chiqarib yuborish va sathini pasaytirish uchun qurilgan yer osti yoki yer betidagi zovurlar tizimi. Zovur tizimidagi suv odatda qurilayotgan yoki sho'ri ketkazilayotgan maydonlardan tashqarida joylashgan suv yiqqichga yo'naltiriladi.

**Yer kadastri** – yerlarni hisobga olish, tavsiflash va baholash ishlarinining majmui.

**Yer kodeksi** – bir tizimga solingan Yer qonunchiligi.

**Yer tuzish loyihasi** – xo'jalikaro va xo'jalik ichidagi yer tuzish ishlarinining bajarilishi jarayonida tuziladigan hujjat.

**Zol** – kolloid eritma

**Infiltratsiya** – ichiga sizilish.

**Irrigatsiya** – qishloq xo‘jalik melioratsiyasining dalalarni va ekinzorlarni sun’iy ravishda sug‘orish bilan shug‘ullanadigan tarmog‘i.

**Ixota to‘sqliari** – ekinni shamol eroziyasidan saqlovchi ekin qatorlari.

**Kameral ishlar** – dala ilmiy tadqiqot ishlari natijasida olingan materiallarni ilmiy asosda xona va laboratoriyalarda qayta ishlash.

**Kollektor** – zovurlar tarmog‘idan chiqadigan suvlarni o‘ziga yig‘ib, melioratsiyalanuvchi maydondan chiqarib yuboruvchi yirik zovur. Kollektor odatda bosh zovurlardan yarim metr va undan ham chuqurroq qilib qaziladi.

**Lyoss** – loy, qum, kalsiy karbonat va turli aralashmalar (temir gidroksid, slyuda va boshqa)larning mayda zarralaridan tarkib topgan tog‘ jinsi. Xitoy, Markaziy Osiyo, Amerika va G‘arbiy Ovrupaning ko‘p joylarida tarqalgan bo‘lib, yuqori unumdorlikka ega.

**Loyqasizlanish** – tuproq qatlqidagi loyqa zarrachalarning quyi qatlamlargacha yuvilishi.

**Loyqa** – tuproqning eng mayda 0,001 *mm* dan kichik zarrachi si.

**Mavsumiy sug‘orish me’yori** – ma’lum ekinni o‘sib rivojlanishi davomida sug‘orish uchun sarflanadigan suv miqdorining umumiy yig‘indisi.

**Melioratsiya**–lotincha “*melioratio*” so‘zidan olingan bo‘lib, “*yaxshilash*” ma’nosini angalatadi. Botqoqlarni quritish, ko‘chma qumlarni mustahkamlash, sho‘r yerlarni yuvish, sug‘orish va boshqa usullar bilan qishloq xo‘jaligida foydalilaniladigan yerlarni tubdan yaxshilash.

**Mergel** (ohakgil)- ohak va loyqadan iborat cho‘kindi jins.

**Plantaj** – yerni chuqur (40–50 *sm*) ag‘darib haydash.

**Siallitatsiya** – tog‘ jinslarining kimyoviy nurashi.

**Skeletli tuproq** – toshli tuproqlar.

**Skelet** – tuproqdagi tosh, yirik qumlar.

**Slyudalar** – qatlamlı silikatlar guruhiiga mansub minerallar.

**Sug'orish me'yori-** bir marta sug'orish uchun kerak bo'ladi-gan suv miqdori.

**Transpiratsiya-** suvning o'simlikdan bug'lanishi.

**Tuzli yupqa qatlam** ("nalyoti", "vetsveti" soley)- tuproq va alohida kesaklar yuzasidagi juda yupqa tuzli qatlam, "tuzli gullar".

**Tuproq aeratsiyasi-** tuproq va atmosferada havo almashinuvi; tuproqni ishlash, melioratsiya va boshqa tadbirlar yordamida tuproq strukturasini yaxshilash va mustahkamlash orqali boshqa-riladi.

**Tuproq genezisi-** tuproqning kelib chiqishi va paydo bo'lishi.

**Tuproq irrigatsion eroziyasi-** tuproqning sug'orish ta'sirida yemirilishi.

**Tuproq morfologiyasi-** tuproq tashqi beligilarining yig'indisi.

**Tuproq suv eroziyasi-** tuproqning suv ta'sirida yemirilishi

**Tuproqdag'i konkretsiyalar-** tuproq qatlamlarida uchraydigan har xil shakldagi yangi hosilalar.

**Tuproqni mulchalash (mulchirovanie pochv)-** tuproq yuza-si haroratini oshirish yoki bug'lanishni kamaytirish maqsadida uni go'ng, chirigan hashak bilan qoplash).

**Tuproqning eol sho'rланishi-** shamol keltirgan tuz ta'sirida tuproq sho'rланishi.

**Tuproq harorati-** tuproqning isish darajasi, maxsus termometrlar bilan o'chanadi. Tuproq harorati va uning o'zgarishiga quyosh radiatsiyasining kattaligi, tuproqdan issiqlikning nurlanishi natijasida kamayishi, havo va tuproq o'rtasidagi va Shuningdek, tuproqning turli qatlamlari o'rtasidagi issiqlik almashinuvi sabab bo'ladi.

**Tuproq hosil qiluvchi omillar-** tuproq hosil bo'lishiga ta'sir qiluvchi tabiat elementlari. Tuproq hosil qiluvchi omillar haqidagi tushuncha v.v.dokuchayev tomonidan ilgari surilgan va tuproq haqidagi ta'limotning bir qismi hisoblanadi. U tuproq hosil qiluvchi beshta omil sifatida tuproq hosil qiluvchi jins, tirik va o'lik organizmlar, iqlim, joyning yoshi va relefini ko'rsatib o'tgan. Hozirgi zamонавиy tuproqshunoslikda yuqoridagi beshta omilga

insonning xo'jalik faoliyati ham qo'shib o'rganiladi, qaysiki, tuproq hosil bo'lishida katta ahamiyatga ega.

**Tuproq deflyatsiyasi-** havo oqimi ta'sirida tuproq zarrachalarining bir joydan ikkinchi joyga ko'chirilishi, yotqizilishi.

**Tuproq indeksi-** tuproq turlarini kartada ko'rsatish uchun qo'llaniladigan shartli belgilar.

**Tuproq monitoringi-** tuproq unumdorligining pasayishini har qanday yo'l bilan oldini olish. Hozirgi davrda tuproq monitoringgi oldida turgan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat: tuproqlardagi chirindi, azot va fosforlarning yo'qolish tezligini baholash, tuproqlarning nordonligi, ishqoriyligini va og'ir metallar bilan ifloslanish darajasini nazorat qilish, suv, irrigatsiya va shamol eroziyalari ta'sirida tuproqlarning o'rtacha yillik yo'qolishini baholash va hokazo.

**Tuproq strukturasi-** tuproqni u yoki bu tipga kiritish uchun yordam beradigan muhim genetik belgi. Masalan, dasht qora tuproqlari chirindili qatlama donador, chimli-podzol tuproqlar esa kesakchasimon strukturaga ega bo'lsa, sho'rtoqlar chirindili qatlama varaqsimon, illyuval qatlama esa ustunchasimon strukturaga ega bo'ladi.

**Tuproq tipi-** tuproqlarni klassifikatsiya qilishdagi asosiy taksonomik birlik. Tuproq tipining xarakterli belgilari quyidagilardan iborat: 1) organik moddalarning tuproqqa tushishi, o'zgarishi va parchalanishining bir xilligi; 2) mineral massalarning parchalani-shi va mineral, organomineral yangi yaralmalarning sintezlanish jarayonlari kompleksining bir xilligi; 3) moddalar to'planishi va ularning harakatlanishidagi bir xillik; 4) tuproq profili tuzilishidagi bir xillik; 5) tuproq unumdorligini oshirish va saqlashga qaratilgan tadbirlarning bir xilligi.

**Tuproq xaritasi-** ma'lum bir hududning tuproq qatlamini ma'lum mashtabda kichraytirilgan tasviri. Umumiyligi, tuproq-meliorativ, tuproq-erozion, tuproq-agrokimyoiy xaritalar farqlanadi.

**Tuproq eroziyasi-** tuproqlarning eng unumdor qatlamlarini va Shuningdek, tuproqdagi jinslarni qor va yomg'ir suvlari (suv eroziyasi), shamol ta'sirida (shamol eroziyasi) yemirilish jarayoni.

**Tuproq eroziyasi omillari** – eroziyaning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladigan tabiat elementlari va insonning xo‘jalik faoliyati. Tuproq eroziyasi omillari ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy omillarga bo‘linadi. Birinchisi yerdan va undagi boyliklardan foydalanish xarakteri bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchisi relefning xarakteri, iqlim, o‘simgilik qoplami, geologik sharoitlar, tuproq xususiyatlari bilan bog‘liqdir.

**Tuproqlarni kimyoviy melioratsiyalash** – tuproqlarga ohak, gips va shu kabi moddalarni solib, ularning agrokimyoviy xususiyatlarini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar yig‘indisi.

**Tuproqning mexanik tarkibi** – tuproqdagi turli kattalikdagagi mexanik fraktsiya zarrachalarining (mineralogik va kimyoviy tarkibini hisobga olmagan holdagi) nisbiy miqdori. Tuproqning og‘irligiga nisbatan foizlarda ifodalanadi.

**Tuproqning mexanikaviy elementlari** – tuproqning turli kattalikdagagi zarrachalari, tog‘ jinslarining nurash mahsulotlari. Mineral, organik va organo-mineral kabi guruhlari farqlanadi.

**Fizik qum** – diametri 0,05 mm dan katta bo‘lgan zarrachalar yig‘indisi yoki kattaligi 0,01 mm dan 1 mm gacha bo‘lgan tuproq zarrachalari yig‘indisi.

**Fizik loy** – yirikligi 0,01 mm dan kichik tuproq zarrachalari yig‘indisi.

**Chek** – tomonlari uvatmarzalar bilan cheklangan, sug‘orish yoki sho‘r yuvish uchun tayyorlangan joy, maydoncha.

**Sho‘r-** yassi sho‘rxok bukilmalari. Ularning tubida melkozem-dan farqlanuvchi kontsentrlangan rapa (sho‘r ko‘llardagi to‘yingan eritma) qatlami yuzaga keladi. Yilning quruq davrida rapa qurib qoladi va oq tuz qatlami hosil bo‘ladi.

**Sho‘r yuvish me’yori-tuproq qatlamidagi tuz miqdorini** o‘simgiliklar uchun zararsiz darajaga keltirishga sarflanadigan suv miqdori.

**Shox-** tarkibida 50–60% gacha kalsiy karbonat-CaCO<sub>3</sub> va turli miqdorda magniy karbonat MgSO<sub>4</sub> tutgan tuproq qoplami. Shox juda ham mayda donador strukturaga ega bo‘lib, kuchli sementlanish va kuchsiz suv o‘tkazuvchanligi bilan xarakterlanadi.

**Evolyutsiya-tabiatda uzluksiz bosqichma-bosqich ro‘y beradi-gan miqdoriy o‘zgarish, masalan, tuproq evolyutsiyasi va boshqalar.**

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Abdullayev S. A. Namozov X. Tuproq melioratsiyasi. «O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi»-2011.
2. Acreman, M. (ed.) (2000) The hydrology of the UK, study of change. Routledge, London.
3. Ahmedov H.A. Sug'orish melioratsiyasi. T. «o'qituvchi», 1977.
4. Azimboev S.A. Dehqonchilik, tuproqshunoslik va agrokimyo asoslari. T. «Iqtisod-moliya», 2006.
5. Azimboev S.A. sho'rangan tuproqlar melioratsiyasi. Toshkent, 2003.
6. Bahodirov M, Rasulov A. – “Tuproqshunoslik”.”o'qituvchi” 1970.
7. Boboxo'jayev I., Uzoqov P. Tuproqning tarkibi xossalari va analizi. Toshkent «Mehnat»-1990.
8. Course Program brochures of Centre for International Post-graduate Studies of Environmental Management (CIPSEM), Dresden, Germany 2004.
9. Davie, T., Kelly, R. And Timoncini, M. (2001) SAR imagery used for soil moisture monitoring: the potential. Remote Sensing and Hydrology 2000 (Proceedings of a symposium held at Santa Fe, New Mexico, USA, April 2000). IAHS publication number 267:327–332.
10. Flanders; № 35, Magazine. Quarterly, September 1997. Flanders, Belgium pp. 15–19.
11. G'afurova L. Abdullayev S., Namozov X. Meliorativ tuproqshunoslik. T. 2000.
12. G'afurova L. Maxsudov X., Namozov X. O'zbekiston tuproqlari va ulardan samarali foydalanish. T. 2003.
13. G'afurova L.A., Maxsudov X.M., Adel M.Yu. – “Eroziya-ga uchragan neogen yotqiziklarda shakllangan bo'z tuproqlarning biologik faolligi”. “o'zbekiston” – T.: 1998.
14. G'ofurova L.A., Abdullayev S.A., Namozov X.Q. Meliorativ tuproqshunoslik. Toshkent, «O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi» – T.: 2003.

15. Gleick, P.H. (1993) Water in crisis: a guide to the world's fresh water resources. Oxford University Press, New York.
16. Heppell, C.M., Burt, T.P., Williams, R.J. and Haria, A.H. (1999) The influence of hydrological pathways on the transport of the herbicide, isoproturon, through an under-drained clay soil. *Water Science and Technology* 39:77–84.
17. Hewlett, J.D. and Nutter, W.L. (1969) An outline of forest hydrology. University of Georgia Press, Athens, Ga.
18. Jaspers F.G.W. (2001) The new water legislation of Zimbabwe and South Africa – comparison of legal and institutional reform. *International Environmental Agreements* 1:305–325.
19. Kim, J., Ko, I.H. and Yoo, Y-S. (2007) Development of a decision support system for turbid water management through joint dam operation.
20. Klute (ed.) Methods of soil analysis. Part 1. Physical and mineralogical methods. American Society of Agronomy–Soil Science Society of America, Madison, Wisc., pp. 493–544.
21. Komilov O.K. – “Melioratsiya zasolennix pochv Uzbekistana”. -T.: 1985.
22. Maqsudov J., Nagayev G., Akromov I. Qo‘ziyev R., Axmedov A.- Tuproq xaritalari va yerlarni baholash hujjatlaridan foydalanish. T.2000-y.
23. Mcdonald, A.T. and Kay, D. (1988) Water resources: issues and strategies. Longman, Harlow.
24. McLaren, R.G., and Cameron, K.C. (1996) Soil science: sustainable production and environmental protection (2nd edition). Oxford University Press, Melbourne.
25. Gardner, W.H. (1986) Water content. In: A. Mirzajonov Q., Nazarov M., Zokirova S., Yo‘ldoshev G'. Tuproq muhofazasi. T. «Fan va texnologiya» 2004.
26. Namozov X. “Sug‘oriladigan tuproqlarning meliorativ holati”, “Mehnat” T. 2001.
27. Namozov X. Sh.Turdimetov – “O‘zbekiston tuproqlari va ularning evolutsiyasi”. – T.: «Fan va texnologiya» 2016.

28. X.Nomozov, Sh.Turdimetov, S.Noshpo'latov, Y.Qoraxonova, A.Qoraxonov Tuproq boniterofkasi va xaritalash, «O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashryoti Toshkent -2016.
29. X.Q.Nomozov Tuproq boniterofkasining ilmiy asoslari Toshkent, «O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashryoti Toshkent –2014.
30. Namozov X. Yer kadastro asoslari Toshkent, «O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi»-2013..
31. Namozov X., Toshpo'latov S., Ro'zmetov M. Mirzacho'l hududi sug'oriladigan tuproqlarining meliorativ holati va unum-dorligini oshirish yo'llari. Toshkent, «o'zbekiston Milliy entsiklopediyasi» – 2004.
32. Namozov X. Q.Ro'zmetov M.I.Meliorativ tuproqshunoslikdan amaliy mashg'ulotlar. Toshkent, «o'zbekiston Milliy entsiklopediyasi» – 2004.
33. Norqulov U. Sheraliyev Sh. "Qishloq xo'jaligi melioratsiyasi". "o'zbekiston milliy entsiklopediyasi" T. 2003
34. O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi. T.5, Toshkent-2003. 582–584 betlar.
35. O'zbekiston Respublikasi "Davlat yer kadastro". To'g'risidagi qonun. – T.: 1998.
36. O'zbekiston Respublikasi "Yer kodeksi" – T.: 1998.
37. Oke, T.R. (1987) Boundary layer climates (2<sup>nd</sup> edition). Methuen, London.
38. Orol dengizi havzasining sahrolanish jarayonida tuproq unum-dorligini tiklash, oshirish va ular melioratsiyasining dolzab masalalari" Ilmiy to'plam. 27–37, 90–94, 174–176 betlar Toshkent-2002-y.
39. Paper at Korean Water Resources Association Annual Conference, May. Published proceedings: Water for Future, pp. 31–39, KWRA.
40. Penman, H.L. (1948) Natural evaporation from open water, bare soil and grass. Proceedings of the Royal Society, Series A 193:120–145.

41. Penman, H.L. and Scholfield, R.K. (1951) Some physical aspects of assimilation and transpiration. Proceedings of Symposium Society on Experimental Biology 5:12–25.
42. Qo‘ziyev R. “o‘zbekiston Respublikasi sug‘oriladigan yerlarining hozirgi holati. Sug‘oriladigan bo‘z tuproqlar unum-dorligini oshirish va uning ekologik muammolari”. Ilmiy to‘plam. Samarqand – 2002-y.
43. Qo‘ziyev R., Abdullayev S., Abdullayev A., Sattorov J. Va boshqalar, Sug‘oriladigan yerdan samarali foydalanish bo‘yicha amaliy takliflar. Toshkent – 2002-y.
44. Qo‘ziyev. R.Q., Axmedov A.U., Maqsudov J.M. va boshq. O‘zbekiston Respublikasi sug‘oriladigan yerlarida tuproqning sho‘rlanganligini tekshirish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma RX-31-045–01. T. 2001.
45. Qo‘ziyev. R.Q., Maqsudov J.M, Axmedov A.U, va boshq. Tuproq xaritalari va yerkarni baholash hujjatlaridan foydalanish. Toshkent, 2000-y.
46. Qurbonov E., Qo‘ziyev R., Bo‘riyev X., g‘afurova L. “o‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari va ulardan samarali foydalanishning ilmiy, huquqiy, me’yoriy va amaliy asoslari. Toshkent – 2001-y.
47. Rahimboev F.M. Gidrotexnikadan ruscha-O‘zbekcha qis-qacha izohli lug‘at. Toshkent, «O‘qituvchi» 1996.
48. Ramazonov O, Yusufbekov O. Tuproqshunoslik va dehqonchilik. Toshkent, 2003-y. «Sharq» nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyyati.
49. Rasulov A., Ermatov A. – “Tuproqshunoslik dehqonchilik asoslari bilan” “o‘qituvchi” – T.: 1980.
50. Russell, D.B. (1976) Water and man. Alternatives 5: 4–14.
51. Ruzmetov M.I. Izuchenie i otsenka sovremennoego meliorativnogo sostoyaniya oroshaemix pochv Xorezmskoy oblasti i razrabotka meropriyatiy po ix uluchsheniyu (na primere Urgenchskogo i Xivinskogo rayonov). Avtoref. Kandidatskaya dissertatsiya, Tashkent, 2003 g.
52. Sayfutdinova V. Tuproq kimyosidan amaliy mashg‘ulotlar. Toshkent «Universitet», 1992-y.
53. Shiklomanov, I.A. (1993) World fresh water resources. In: P.H. Gleick (ed.) Water in crisis: a guide to the world’s fresh water resources. Oxford University Press, New York, pp. 13–24.

54. Shuttleworth, J.W. (1988) Macrohydrology: the new challenge for process hydrology. *Journal of Hydrology* 100:31–56.
55. Stumm, W. (1986) Water and integrated ecosystem. *Ambio* 15:201–207.
56. Tim Davie. *Fundamentals of hydrology*, London and New York, 2008
57. Tojiyev U. Namozov X. Tuproqni xaritalashda kosmik tasvir usullaridan foydalanish. T. «Aloqachi» 2010.
58. Tojiyev U. Namozov X., Nafetdinov Sh., Umarov K. O‘zbekiston tuproqlari. Toshkent, «O‘zbekiston Milliy entsiklopediyasi»-2004.
59. Tolipov G‘. A. O‘zbekiston Yer kadastro asoslari. T. «Moliya», 2007.
60. Tuproqshunoslik va agrokimyodan ruscha-o‘zbekcha lug‘at. Toshkent, «O‘zbekiston Milliy entsiklopediyasi» -1997.
61. Turopov I. Nomozov X. Tuproq bonitirovkasi. T. «Fan va texnologiya», 2010.
62. Tursunov L.T. – “Tuproq fizikasi”. “Mexnat”. – T.: 1988.
63. Umarov M.U. – “Pochvi Uzbekistana”. “Fan”. – T.: 1975.
64. UNESCO (2006) Water a shared responsibility. United Nations Water Development Report. Can be found at: [http://www.unesco.org/water/wwap/wwdr2/table\\_contents.shtml](http://www.unesco.org/water/wwap/wwdr2/table_contents.shtml).
65. Uzoqov P., Boboxo‘jayev I. – «Tuproqshunoslik». «Mehnat» T.1995.
66. Van Bavel, C.H.M. (1966) Potential evaporation: The combination concept and its experimental verification. *Water Resources Research* 2:455–467.
67. Yo‘ldoshev G‘. Meliorativ tuproqshunoslik . T. «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati», 2008.

### Saytlar:

- <http://www.bio.pu.ru.>,  
<http://www.zona.ru.>,  
<http://doklad.ru.>,  
<http://www.do.ektu.kz.>,  
<http://www.goldrngrain.ru.>  
[htt://www.kurdyumov.ru/plodorodie/folkner/folk03.php](http://www.kurdyumov.ru/plodorodie/folkner/folk03.php)

# MUNDARIJA

So‘z boshi.....	3
Kirish. Tuproq melioratsiyasi va gidrologiyasi fan sifatida dunyoda o‘rganilishi .....	5
I bob. Tuproq melioratsiyasi va gidrologiyasi fanining predmeti, vazifasi va uslullari .....	9
Tuproq melioratsiyasi va gidrologiyasi tarixidan ma’lumotlar .....	11
Tabiatni qayta yaralishida melioratsiya asosiy omil .....	17
Melioratsiya qilinadigan maydonlarda tuproq suv rejimi va melioratsiya tizimining asosiy qismi, yog‘ingarchilik .....	24
Suv bug‘lanishi va suv saqlash .....	28
II Bob. namgarchilik yetishmaydigan sharoitda sug‘orish melioratsiyasi .....	41
Sug‘orish talablari va uning tarqalishi .....	41
Sug‘orish melioratsiyasining turlari .....	43
O‘simglik va hosilni rivojlanishida sug‘orishning tashqi muhitga ta’siri .....	45
Sug‘orish suvlarining sifati va ularni aniqlash usullari .....	46
Sug‘orish normasi .....	52
III bob. Suv resurslari .....	54
Suvning muhimligi. Gidrologik sikl .....	54
Suv resurslari holati .....	60
Orol dengizi havzasi bo‘yicha suv resurslarining taqsimlanishi .....	61
Suv resurslarining sifati va transchegaraviy ta’siri .....	64
Zamonaviy suv resurslarini boshqarish muammosi .....	74
Suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydaalanish ustidan davlat nazorati .....	76
IV Bob. Suv tartibotini tashkil qilish va uni boshqarib borish .....	79
Sug‘orish tartiboti, uning dinamikasi va balansi .....	79
Asosiy sug‘orish usullari .....	81
Tuproq ustidan sug‘orish (bostirib sug‘orish) .....	83
Taxtalarga (pollarga) bo‘lib sug‘orish .....	84

Jo'yak olib sug'orish.....	88
Egat olib sug'orish .....	90
Yog'dirib sug'orish usuli .....	91
Yog'dirib yoki yomg'irlatib sug'orish turlari va tizimlari.....	93
Zamonaviy yomg'irlatib sug'orish qurilmalari.....	95
Yaqinga otar yog'dirish qurilmalari.....	96
O'rtacha otar yog'dirish mashinalari va qurilmalari.....	97
Tuproqni ostidan sug'orish tarmoqlari va tizimlari .....	102
Tomchilatib sug'orish usuli .....	107
G'o'zani sug'orish tartiboti.....	109
Gullash-ko'sak tugish davrida sug'orish.....	120
Paxta ochilishi davrida sug'orish .....	121
Egatlab sug'orish texnologiyasi .....	122
Daryodan to'g'on qurmasdan suv olish .....	126
Tuproq qatlamlari.....	129
Sholini sug'orish tartiboti.....	132
V Bob. sho'rangan tuproqlarni melioratsiyasi .....	134
Tuproq va uning qatlamlarining asosiy sho'rلانish omillari.....	134
Tuzlarning to'planishi va aralashishida daryo suvlarining roli .....	141
Tuzlarning to'planishi va aralashishida sizot suvlarining roli .....	144
Sizot suvlarining minerallashganligi va ximizimi .....	148
Yer osti suvlari .....	155
Sizot suvlarining kritik chuqurligi va ularni aniqlash.....	156
Shamol yordamida tuzlarni olib kelinishi .....	166
Tuzlarni to'planishi va aralashishida biologik sikl .....	167
Tuzlarning to'planishining asosiy tiplari .....	169
Tuproqlarning tuz tartiboti .....	176
Tuproqlarning suv va tuz balansi .....	181
VI bob. Yer resurslari.....	186
Yer resurslaridan foydalanish va uning holati .....	186
Yer resurslarining meliorativ holati .....	187
Tuproq eroziyasi .....	195
Yerlarni suv bosishi .....	196

VII Bob. Sho'rlangan va botqoqlangan yerbarni melioratsiya qilish.....	199
Meliorativ tarbirlar tartibi .....	199
Yerbarni meliorativ va gidromodullash jihatidan rayonlashtirish.....	201
Yerbarni meliorativ jihatdan nazorat qilish .....	205
Suvdan foydalanishni yaxshilash va suv isrofgarchiligiga qarshi kurashish .....	206
Sizot va yer osti suvlaridan foydalanish .....	210
Sug'oriladigan dalalarni tekislash.....	215
Daraxt o'tkazish .....	219
Almashlab ekish.....	221
Zovurning roli va ahamiyati.....	222
Zovurlarning rejali joylashtirilishi, chuqurligi, oralig'idagi masofasi .....	225
Muvaqqat sayoz zovurlar .....	226
Gorizontal yopiq zovurlar .....	228
Vertikal zovurlar .....	229
Zovurdan foydalanish qoidalari .....	231
VIII Bob. sho'rlangan yerbarni tubdan melioratsiya qilish.....	232
Tuproq-gidrogeologik, agrotexnik va meteorologik omillariga qarab sho'r yuvish samaraliligi .....	232
Tuproqni yuvishga tayyorlash.....	236
Sho'r yuvish muddati va usullari .....	237
Sho'r dog'larni yuvish va o'zlashtirish.....	239
Sho'r yuvilgandan keyin dalaga qarab turish.....	241
Sho'rxok yerbarni o'zlashtirish.....	241
Sho'rxok yerbarni o'zlashtirishda kuzgi-qishki sho'r yuvish.....	243
Sho'rlangan yerbarni sholi ekib o'zlashtirish .....	244
Sho'rlangan, o'zlashtiriladigan yerbarni intensiv zovurlashtirish va jadal yuvish usullari.....	247
Sho'rtob tuproqlarni yaxshilashi va taqir tuproqlarni o'zlashtirish.....	248

Sel oqimi va unga qarshi kurashish.....	248
Qumli va qumoq tuproqlarni o'zlashtirish.....	249
Sho'rxoklar.....	250
Sho'rxoklashgan tuproqlar .....	251
Sho'rtob tuproqlar .....	253
Sho'rtoblashgan dasht va cho'l tuproqlari .....	254
Sug'oriladigan tuproqlarni ikkilamchi sho'rланishi va uni oldini olish .....	255
Sho'rxoklashgan va sho'rxok tuproqlarning melioratsiyasi .....	257
Sho'rланган tuproqlar va ularning melioratsiyasi.....	265
O'zbekistonning sug'oriladigan sho'rланган tuproqlari .....	269
Tuproqdag'i tuzlarning o'simliklar va hosil miqdoriga ta'siri .....	276
Qishloq xo'jalik ekinlarining tuzga chidamliligi. tuproqdag'i tuzlarning mo'tadil miqdori .....	280
Sho'rtoblangan tuproqlarni yaxshilash .....	282
Qumli va qumloq tuproqlarni o'zlashtirish.....	283
Gipsli tuproqlar va ularning melioratsiyasi.....	284
Tuproq qatqalog'i va unga qarshi kurash.....	292
Toshloq tuproqlar va ularni melioratsiyalash.....	293
Sug'oriladigan tuproqlar unumdorligini saqlash, qayta tiklash va oshirishga oid tavsiyalar .....	301
Tuproqni muhofaza qilish – jahonshumul muammo .....	312
Sho'rланган tuproqlar melioratsiyasining dolzarb muammolari .....	322
Orol dengizi hududi tuproqlarining ekologik va meliorativ holati .....	329
Tuproq – meliorativ monitoringi.....	333
IX-Bob. subtropik sug'oriladigan hududlarining tuz-suv balansi .....	338
Meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan taklif va tavsiyalar .....	351
Glossary .....	362
Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati .....	367

**Sa'dulla Abdullayev, Xushvaqt Namozov**

# **TUPROQ MELIORATSIYASI VA GIDROLOGIYASI**

**DARSLIK**

**“Excellent Polygraphy” nashriyoti**

**Muharrir: A.Abdujalilov**

**Musahhih: N.Ablayev**

**Sahifalovchi: V.Sanoyev**

**Dizayner: D.O'ranova**



**2020-yil 25-oktabrda chop etishga ruxsat berildi.**

**Bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$ . «Times New Roman» garniturasi.  
Bosma tabog'i 23,5. Adadi 100 dona. Buyurtma № 8/08.**

**«Excellent Polygraphy» MChJ bosmaxonasida chop etildi.  
100190, Toshkent shahri, Shayxontoxur turmani,  
Jangox ko'chasi 12 uy, 13 xonadon.**

978-9943-5815-6-2



9 789943 581562